**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**

**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

***NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI***

**IJTIMOIY- IQTISIDOY FAKULTET**

**O’ZBEKISTONDA DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH NAZARIYASI VA AMALIYOTI KAFEDRASI**

**MA’NAVIYAT ASOSLARI**

**DINSHUNOSLIK FANIDAN**

# Ma'ruza matni

**TUZUVCHI: BAXTIYOR BOLTABOYEV**

**NAMANGAN 2017**

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua “**Ma’naviyat asoslari. Dinshunoslik**” fanidan tuzilgan bo‘lib, unda o‘quv jarayoni uchun zarur bo‘ladigan materiallar, xususan, Namunaviy (o‘quv) dastur, Ishchi o‘quv dasturi, Ta’lim texnologiyasi, Testlar, Nazorat uchun savollar (JN, ON, YAN), Umumiy savollar, Tarqatma materiallar, Glossariy, Referat (Mustaqil ish) mavzulari, Adabiyotlar ro‘yxati, Tayanch konespekt, O‘quv materiallari (Ma’ruza matni, O‘quv qo‘llanmalar), Annotatsiyalar, Mualliflar haqida ma’lumot, Tayanch so‘zlar, Baholash mezonlari hamda boshqa zarur uslubiy ishlanmalar jamlangan.Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Fanning ishchi o’quv dasturi NamDUning “O’zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti” kafedrasining umumiy yig’ilishida muhokama o’tgan va fakul’tet ilmiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan. ***2016 yil ___ __________dagi 1-sonli majlis bayoni***

**Tuzuvchi:** **Baxtiyor Boltaboyev**

Kafedra mudiri: _________________ t.f.n. N. G’ofurov

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua NamDUning ijtimoiy-iqtisodiy fakul’teti ilmiy kengashida muhokama etilgan va tasdiqqa tavsiya qilingan.

2016 yil ___ ____________dagi 1-sonli maslis bayoni.

Fakul’tet dekani: _________________ t.f.n. N. Dexqonov

O’quv-uslubiy bo’lim boshlig’i: ________ X. Ibraximov

**MUNDARIJA**


**1. O‘QUV (NAMUNAVIY) DASTURI ___ 4**

**2. ISHCHI DASTUR ___ 28**

**3. TA’LIM TEXNOLOGIYASI ___ 50**

**4. TESTLAR ___ 53**

**5. NAZORAT UCHUN SAVOLLAR(JN, ON, YAN) ___ 58**

**6. UMUMIY SAVOLLAR ___ 63**

**7. TARQATMA MATERIALLAR ___ 68**

**8. GLOSSARIY ___ 70**

**9. MUSTAQIL ISH (REFERAT) MAVZULARI ___ 102**

**10. ADABIYOTLAR RO‘YXATI ___ 105**

**11. TAYANCH KONSPEKT ___ 110**

**12.O‘QUV MATERIALLARI (MA’RUZA MATNI, O‘QUV QO‘LLANMALAR) ___ 119**

**13. XORIJIY MANBALAR ___ 372**

**15. BAHOLASH MEZONLARI ___ 378**

**1. O‘QUV DASTUR**
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA**
**O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Рўйхатга олинди

№ БД-1.04

2011 йил “8” 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан тасдиқланган

TAJRIBA-SINOV

**MA’NAVIYAT ASOSLARI fanidan**
**namunaviy DASTUR**
(bakalavr yo‘nalishi uchun)

**TOSHKENT-2011**

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3–son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma’qullangan.

Ushbu dastur “Ma’naviyat asoslari” fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to‘ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz:

**Toshkent shahar, 2-CHimboy ko‘chasi 96-uy, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Ma’naviy-axloqiy tarbiya” boshqarmasi, tel: 246-10-58, 246-10-54.**

Fanning o‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**
Otamurotov S. - falsafa fanlari doktori, professor (TKTI)
Abdurahmonov M. - tarix fanlari doktori, professor (O‘zMU)
Xusanov S. - falsafa fanlari nomzodi, dotsent (TKTI)
**Taqrizchilar:**
Norqulov D.T. - falsafa fanlari doktori, professor (TTA)
KabuldjanovaT.A. - san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsenti (O‘zMU)

Fanning o‘quv dasturi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil 19 avgustdagi 1-son bayonnoma)

## KIRISH

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki davrdanoq mamlakatning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirdi. Islohotlarning muhim yo‘nalishi sifatida ma’naviy yangilanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ma’naviyat inson ruhiy kamolotining muhim mezonlaridan biri sifatida millat abadiyligini, mamlakat taraqqiyotining ta’minlashdagi ustuvor omil hisoblanadi. SHuni hisobga olgan holda 1997 yildan boshlab respublika oliy ta’lim tizimiga «Ma’naviyat asoslari» fani kiritildi. Jamiyat hayotini tubdan yangilash borasidagi islohotlar sobitqadamlik bilan tadbiq etilayotgan hozirgi paytda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni amalga oshirish, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish va pirovard natijada ma’naviy barkamol komil insonni, erkin shaxsni tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda.

### O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talaba-yoshlar ongi va qalbiga milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni singdirish orqali ularda yuksak ma’naviyat va ma’naviy qashshoqlashuvning inson va jamiyat hayotidagi mohiyatni tushunib etish hamda yuksak ma’naviyatga ega bo‘lish malakalarini shakllantirishdan iborat.

**Fanning vazifalari**:

talabalar ongiga milliy ma’naviy qadriyatlarni, inson va jamiyat hayotida ma’naviyatning o‘rni va ahamiyati to‘g‘risidagi Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyani talabalar ongiga singdirish;

mustaqillik yillarida mamlakatimizda milliy-ma’naviy tiklanish borasida amalga oshirilgan islohotlar, erishilgan yutuqlar, yuksak ma’naviyatli insonlar qilib tarbiyalash borasidagi vazifalar mohiyati-mazmuni, asosiy yo‘nalishlarini talablarga etkazish asosida ularning bu jarayonlarda faol ishtirok qilish ruhiyatini mustahkamlash;

ma’naviy qashshoqlashuvning salbiy oqibatlari haqida tegishli bilimlarni talabalarga etkazish va ularda bu jarayondan ogoh bo‘lish ruhiyatini shakllantirish;

bugungi kunda jahonda keng yoyilayotgan “ommaviy ma’naviyat” va turli ma’naviy qashshoqlikka olib keluvchi oqimlarning maqsad va muddaolarini talabalarga etkazish, ular ongi va dunyoqarashida “ma’naviy immunitetni” shakllantirishdan iborat.

### Fan bo‘yicha talabalarning bilim, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

“Ma’naviyat asoslari” fanini o‘rganish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– talaba ma’naviyat nima ekanligini anglab etishi, ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlarni bilishi, ma’naviy va moddiy hayotning uyg‘unligini, ma’naviy yuksalishda milliy g‘oyaning rolini, ma’naviyatning jamiyat yangilanishida rolini, islohotlar hamda ularning mezonlarini tushunishlari va ularni turmushda qo‘llay bilishi lozim.

– talaba shaxs va jamiyatning ma’naviy yuksalishi, uning kamoloti darajasi pirovard natijada millatning ma’naviy salohiyatini belgilashini nazarda tutib, ajdodlarimiz yaratgan benazir ma’naviy merosimizni har taraflama va chuqur o‘zlashtirishi, uning mazmun mohiyatini va g‘oyaviy-falsafiy asoslarini bilishni uslub va uslubiyatlari haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishi kerak.

- talaba hozirgi globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlarni bilishi, fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya bilan kurash olib borish lozimligi. Inson qalbiga yo‘l topish, ma’naviy kamolot ekanligini va mamlakat ravnaqi yo‘lida fidoiylik jasorat ekanligini anglab etishi hamda g‘oyaviy kurashish usullarini hayotda qo‘llay olishi kerak.

### Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Ma’naviyat asoslari» fani eng avvalo o‘quv rejasidagi gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar: “O‘zbekiston tarixi”, “Falsafa”, “Milliy istiqlol g‘oyasi, asosiy tushuncha va tamoyillari”, “Etika”, “Estetika”, “Dinshunoslik”, “Madaniyatshunoslik”, “Pedagogika”, “Siyosatshunoslik” va boshqa fanlar

va kurslar bilan o‘zaro bog‘liq. Mazkur fanlar shaxsning ma’naviy-intellektual kamolotida, ijtimoiy munosabatlarning ma’naviy-axloqiy asoslari kabi masalalarda bir-birini to‘ldirib keladi.

### Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni

Fan bo‘lajak kadrlarni yuksak ma’naviy kamolot ruhida tarbiyalashga ijobiy ta’sir o‘tkazadi. Bu o‘z navbatida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalari rivojlanishida amaliy ahamiyat kasb etadi.

### Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

“Ma’naviyat asoslari” fani talaba yoshlarning mustaqil fikrlashini rag‘batlantiradigan, Prezident Islom Karimov asarlarini qunt bilan o‘qishi va o‘zlashtirishi, ma’naviy sohadagi masala va muammolar bo‘yicha erkin fikr yuritish qobiliyatini o‘stiradigan yangi pedagogik texnologiyalar asosiga quriladi.

Fanni o‘zlashtirish mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika va vositalardan, ko‘rgazmali qurollardan samarali foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulotlar mustaqillik yillarida qad tiklagan obidalar, ta’mirlangan ziyoratgohlar, muzeylarga tashrif uyushtirish, ma’naviy meros va ma’naviy hayot bilan bog‘liq joylarga, tabiat qo‘yniga chiqish shaklida tashkil etiladi.

## ASOSIY QISM

## I. BO‘LIM. MA’NAVIYAT, UNING JAMIYAT VA INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O‘RNI

### Ma’naviyat tushunchasi, predmeti, maqsadi va vazifalari

Ma’naviyatning ma’no-mazmuni, hayotdagi o‘rni va ahamiyati haqida turli fikr va ta’riflar. Prezident Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida ma’naviyat tushunchasiga bergan ta’rifi, uning ma’naviyatning mohiyatini o‘rganishdagi o‘rni.

Ma’naviyatning predmeti. Inson va jamiyat ma’naviy hayotini o‘rganuvchi fan. Uning maqsadi jamiyat ma’naviy taraqqiyotining asosi ekanligi. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi.

“Ma’naviyat”ning kategoriyalari. O‘zlikni anglash, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik va boshqalar.

Ma’naviyatning rivojlanish qonuniyatlari. SHaxs va jamiyatning ma’naviy salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar. SHaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari natijasida yuzaga keladigan qonuniyatlar. Ma’naviyat rivojlanishidagi “ta’sir” va “aks ta’sir” qonuniyati.

Ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnining oshib borishi. Davlat siyosatida ma’naviyatni yuksaltirishning ustuvor sohaga ko‘tarilishi. Umumma’naviy yuksalishning asosiy mezonlari.

### Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari va milliy-ma’naviy tiklanish haqidagi konsepsiyalari

Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari haqidagi konsepsiyasi. Uning jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berishda metodologik asos bo‘lishining asosiy sabablari. Mamlakat miqyosidagi islohotlarning ma’naviy sohadagi islohotlar bilan uzviy olib borilishining zarurligi. Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasi. “Milliy taraqqiyot” va “Milliy tiklanish” tushunchalari. Mamlakat va jamiyat taraqqiyotida milliy-ma’naviy tiklanishning ustuvorligi. Jamiyat rivojlanishining ma’naviy–axloqiy negizlari. Milliy g‘oyaning milliy-ma’naviy tiklanishdagi ahamiyati. YOshlar yuksak ma’naviyati - milliy-ma’naviy tiklanishning asosiy omillaridan ekanligi.

## Ma’naviyatning tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro munosabatlari

Ma’naviyat va madaniyat. Ularning o‘zaro munosabati. Moddiy va ma’naviy madaniyatning o‘zaro aloqadorligi. O‘tmishda madaniyat va ma’naviyat, uning bugun va kelajakni bog‘lovchi omil ekanligi. Madaniy boyliklar va ularning shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rni.

Ma’naviy meros – ma’naviyat rivojlanishining asosi ekanligi. Madaniy meros. Ma’naviyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati. Qadriyat tushunchasi. Ma’naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi, milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati. Diniy qadriyatlarning inson ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni.

## Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o‘zaro munosabatlari hamda inson kamolotidagi ahamiyati

Ma’rifat tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati. Ma’rifatchilik. Ma’rifatparvarlik. Ma’naviyat va ma’rifatdagi o‘zaro uyg‘unlik. YUksak ma’naviylik shaxs fazilatining mezoni. Ma’naviyat va ma’rifat – ma’naviy barkamollikning asosi ekanligi.

Ta’lim-tarbiya - shaxs ma’naviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tizim ekanligi. Ta’lim va tarbiyadagi uzviylik. Ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan yangi talablar tizimida ma’naviyatning o‘rni.
Ma’naviy qashshoqlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri.

## Ma’naviyat, iqtisod va ularning o‘zaro bog‘liqligi

Ma’naviyat va iqtisod uyg‘unligi jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishish sharti ekanligi. Ma’naviy yuksalish va iqtisodiy rivojlanishining uyg‘unligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy barkamol inson omili.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkor ma’naviyati. Zamonaviy tadbirkorning yuksak ma’naviy fazilatlari.
O‘zbekiston milliy mustaqilligining ma’naviy–ma’rifiy asoslari. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni.
Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati.

## Ma’naviyatning siyosat, huquq va hokimiyatdagi o‘rni.

Ma’naviyat va siyosat. Ularning o‘zaro bog‘liqligi. Ma’naviyat, jamiyat va davlat faoliyatini siyosatda ifodalanishi. Siyosatda xalq umummanfaatlarining mujassam bo‘lish zaruriyati. Ma’naviy tiklanish va yuksalishida davlat siyosatining o‘rni. Adolatli va adolatsiz siyosatning jamiyat ma’naviy hayotidagi oqibatlari .

Ma’naviyat va huquq, ularning o‘zaro munosabati. Huquqiy savodxonlik. Uning ma’naviyat bilan bog‘liqligi. Huquqiy ma’naviyat. Huquqiy demokratik davlat qurishda shaxs xuquqiy ongining o‘rni. Hokimiyat boshqaruv tizimiga ma’naviy barkamol shaxslarni jalb qilish, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti. Rahbar ma’naviyati, uning jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashdagi o‘rni.

## Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik

Milliy ma’naviyat. Millat tushunchasi mohiyati, xususiyatlari va unda ma’naviyatning o‘rni. Milliy ma’naviyatning asosiy vazifalari.

Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy ma’naviyat. Mintaqaviy ma’naviyat va uning o‘ziga xos jihatlari.

Umuminsoniy ma’naviyat va uning zaminlari. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik milliy-ma’naviy tiklanish asoslaridan biri. Milliy ma’naviyat va umuminsoniy ma’naviyat uzviyligi.

Millatlararo madaniy–ma’naviy munosabatlar. Millatlararo totuvlik, O‘zbekistonda milliy–madaniy markazlar va ularning faoliyati. Milliy madaniy markazlarning millatlararo ma’naviy hamkorlikning mustahkamlashdagi va milliy ma’naviyatlarning o‘zaro boyishidagi o‘rni.

## II. BO‘LIM. MA’NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

### Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari

Jahon ma’naviyati va ma’rifati rivojiga Markaziy Osiyo xalqlarining qo‘shgan hissasi. Xalqimiz madaniy–ma’naviy taraqqiyotining asosiy bosqichlari: “Avesto” – xalqimiz diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma’naviy obida. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” “Avesto” ma’no–mohiyatini belgilovchi tamoyil sifatida. Moniylik va mazdakizm ta’limotda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi g‘oyalari. Milliy bayram – Navro‘z milliy qiyofamiz, urf – odatlarimizning betakror ifodasi. Ilk SHarq uyg‘onish davri ma’naviyati.

Turkiy bitiklar. Qadimgi SHarq manbalari. Arxeologik yodgorliklar. Xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma adabiy meros namunalari. Milliy ma’naviy qadriyatlarning mumtoz ko‘rinishlari. Vatan ozodligi, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning ma’naviy fazilatlari ekanligi.

### Islom dinida ma’naviyat va shaxs ma’naviy qiyofasining talqini

Din – inson ma’naviyatining tarkibiy qismi. Islom dini. Qur’oni Karim. Hadislarda inson ma’naviyati. IX asr hadis ilmining “Oltin asri”. Imom Buxoriy “Muhaddislar sultoni”. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy ma’naviy merosi. “Sunani Termiziy” asari. Undagi insof, adolat, insonparvarlik g‘oyalari va ahloqiy–ma’naviy masalalar.

Tasavvuf ma’naviyati, mazmun – mohiyati. Tasavvufdagi komil inson va tarbiya xaqidagi g‘oyalar. YAssaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarida ma’naviyat.

Diniy aqidaparastlik ma’naviy qashshoqlikning ko‘rinishi va uning zararli oqibatlari.

Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi va ularning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati. Prezident Islom Karimovning nutq, ma’ruza va asarlarida Islom ma’naviyati va uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi fikrlari.

### Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ma’naviyat va ma’rifat masalalari

Markaziy Osiyo SHarqning ma’naviyat va ma’rifat markazlaridan ekanligi. Ilk Uyg‘onish davri ilmiy – ijodiy kashfiyotlari. O‘sha davrda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy markazlar: Bog‘dod Ma’mun akademiyasi, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Samarqand (Ulug‘bek) akademiyasi, SHarq va G‘arb Renessans – Uyg‘onish davri tushunchasi. Undagi umumiylik. Ularning ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni. Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo ilm – ma’rifat va ma’naviyat rivoji. Muhammad ibn Muso Xorazmiy. O‘nlik sanoq sistemasi. Algebra faniga asos solinishi. Algoritm. Ahmad Farg‘oniy. Uning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari. Abu Nasr Forobiy. Uning dunyoqarashi, jamiyat va axloq to‘g‘risidagi ta’limotlari. Abu Rayhon Beruniy. Uning jahon ilm – fan taraqqiyotidagi buyuk xizmatlari. XI asrni ”Beruniy asri” deb atalishining sababi. Ibn Sino. Uning ”Tib qonunlari” asari. YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. Ahmad YUgnakiy. “Hibbatul – haqoyiq ” dostoni. Maxmud Zamahshariy – ma’naviy etuklik timsoli.

### Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviyat va ma’rifat

Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji. “Temur tuzuklari”dagi ma’naviy sohadagi g‘oyalarning dolzarbligi. Mirzo Ulug‘bek donishmand hukmdor, ilm – fan, ma’rifat homiysi, buyuk olim va munajjim. Uning ilmiy jasorati. ”Ziji jadidi Ko‘ragoniy” nomli astronomik jadvali va

uning ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni. Abdurahmon Jomiy. Uning “Xiradnomai Iskandar” asarida ma’naviy barkamol inson haqidagi g‘oyalari. Alisher Navoiyning o‘zbek xalqi ma’naviy dunyosi shakllanishidagi buyuk xizmatlari. Alisher Navoiyning yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlari.

Amir Temur va temuriylar ma’naviy merosining o‘zbek xalqi ma’naviy tiklanishidagi beqiyos ahamiyati. Prezident Islom Karimovning Sohibqiron Amir Temur siymosini tiklashdagi rahnamoligi. Sohibqironning 660 yillik yubiley tadbirlari. “Amir Temur” hayriya jamg‘armasi. “Amir Temur” ordenining ta’sis etilishi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Mustaqillik yillarida Sohibqiron Amir Temur ma’naviy olamini ijodkorlar tomonidan yoritilishi va uning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati.

### Jadidchilarning ma’rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma’naviyatini ko‘tarishda tutgan o‘rni

Jadidchilarning ma’rifatparvarlik g‘oyasi. Uning mazmun–mohiyati va umumxalq ma’naviyati rivojidagi o‘rni. Bu harakatning pirovard maqsadi va mohiyati.

YAngi usul maktablari. Milliy matbuotni shakllantirish va milliy san’at turlarini rivojlantirishdagi jadid namoyondalarining xizmatlari. Jadidchilik xarakatining o‘zbek milliy ma’naviy taraqqiyotida tutgan o‘rni va ahamiyati. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid CHo‘lpon va boshqalarning ijodi hamda faoliyatida ma’naviyat g‘oyalari hamda ularning milliy ma’naviyatning rivojlanishidagi o‘rni.

### Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o‘zbek xalqining ma’naviyatiga tahdidi

Mustamlakachilik siyosatining asosiy maqsadi. Mustamlakachilarning ma’naviy sohadagi olib borgan siyosati va uning oqibatlari. Qaramlik sharoitida o‘zbek tili va milliy qadriyatlaridan mahrum etilishi. Milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilishning inkor etilishi. Uning ma’naviy rivojlanishiga salbiy ta’siri. Diniy qadriyatlarning qatag‘on qilinishi. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o‘zbek xalqining boy ma’naviy-madaniy merosni qayta tiklash uchun olib borgan kurashlari.O‘z milliy tarixini, tilini, qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish har bir millat va ma’naviyati yuksak shaxsning insoniy burchi ekanligi. Til o‘zlikni anglash vositasi va uning milliy ma’naviyatni asrashdagi o‘rni. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining milliy- ma’naviy taraqqiyotdagi ahamiyati.

## III. BO‘LIM. SHAXS MA’NAVIYATI TARAQQIYOTINING MEZONLARI

### Ma’naviy barkamol, komil inson tushunchalari va ularning SHarqona ta’rifi

Inson, shaxs va fuqaro tushunchalari. Ularning ma’naviy jihatlari. Ma’naviy tahdid va ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash zaruriyati.

Ma’naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati. Komil inson va uning sharqona fazilatlari.

Ma’naviyatga tahdid – o‘zligimiz va kelajagimizga taxdid ekanligi. Prezident Islom Karimov asarlarida barkamol inson fazilatlari talqini. Komil insonning umumiy fazilatlari: axloqiy etuklik, ishbilarmonlik, zukkolik, idroklilik, sobitlik, ehtiroslilik xislatlari.

### SHaxs ma’naviyati mezonlari

SHaxs ma’naviyati mezonlari va fazilatlari haqida tushuncha. Vatan – sajdagoh kabi muqaddas. Vatanparvarlik – etuk ma’naviylik mezoni.

Insonparvarlik - shaxs va jamiyat ma’naviy qiyofasi mezoni. Insonparvarlik insonni ulug‘lashdir va uning ma’naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o‘rni.

O‘z Vatani va millatiga sadoqatli bo‘lish – yuksak ma’naviylik mezoni. Millatparvarlik va mustaqillik tafakkuri ma’naviyatni mustahkamlovchi omil ekanligi.

Axloq – ma’naviyatning o‘zagi. Axloqiy me’yor va tamoyillarning shaxs ma’naviyatini shakllanishida asosiy omil ekanligi.

**Milliy o‘zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta’minlash, huquqiy savodxonlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat – shaxs ma’naviy barkamolligi mezonlari**

Milliy o‘zlikni anglash va uning mohiyati. Millatlararo totuvlik. Huquqiy savodxonlik – ma’naviy etuklik mezoni. Demokratiyaning ma’naviy-ma’rifiy jihatlari.

Milliy o‘zlikni anglash omili- milliy ma’naviyatni asrashning muhim sharti. Millatlararo totuvlikni ta’minlash ma’naviylik mezonidir. O‘zbekistonda milliy siyosatning asosiy tamoyillari. SHarq va g‘arb demokratiyasining mushtarak tomonlari va farqlari. Mustaqil O‘zbekistonda demokratik jarayonlarning qaror topishi.

**SHaxs ma’naviy fazilatlari**

Iymon tushunchasining mazmun-mohiyati. Iymon turlari. Iymon haqida Husayn Voiz Koshifiy, Muhammad G‘azzoliy, So‘fi Olloyor, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning qarashlari va ularning bugun yoshlarni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashdagi ahamiyati.

Inson iymonliligi mezonlari. Hayo. Oriyat. Nomus. Vijdon uyg‘oqligi. Mehr-shafqat. Halollik, poklik, kamtarlik va ularni shaxsning ma’naviy fazilati ekanligi. SHaxs ma’naviy fazilatlarini shakllantirish vazifalari.

**SHaxs ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari**

Prezident Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat – engilmas kuch” asarida shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari to‘g‘risida. SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-ona va oila mas’uliyati. Maktabgacha ta’lim muassasalari, ta’lim tizimi, mahalla, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar shaxs ma’naviyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi vositalar ekanligi. SHaxs ma’naviyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining vazifalari.

Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi. Inson ruhiy kamolotida musiqa san’ati. Elektron vositalari, radio va televideniening yoshlar ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni va mas’uliyati. Milliy ma’naviyatimiz takomilida tasviriy san’at, monumental san’at, xalq amaliy san’ati vakillarining burchi va mas’uliyati.

Hozirgi davrda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan ma’naviy tahdidlarning zararli oqibatlari.

SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda mahalla, ta’lim tizimi va jamoat tashkilotlarining o‘rni. SHaxs ma’naviy rivojida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va ahamiyati.

**Eng buyuk jasorat – ma’naviy jasoratdir**

Ma’naviy jasorat tushunchasi. Prezident Islom Karimovning ma’naviy jasorat konsepsiyasi. Ma’naviy jasoratning bashariyat va hamma davrlarga xos xususiyat ekanligi. Evropa uyg‘onish davri namoyondalari Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley kabi allomalarning jasorati. Mahatma Gandi – buyuk qalb egasi.

O‘zbek xalqining buyuk ajdodlari faoliyati va merosida ma’naviy jasoratning ifodalanishi. Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va boshqa siymolar jasorati. Hayotning ma’nosini tinimsiz kurash, jasorat deb his etish.

Haqiqiy qahramonlikning yangicha talqini va uning mohiyati. Ma’naviy jasoratning zamondoshlarimiz ijod timsoli, hayot ibratida gavdalanishi. Akademik YAhyo G‘ulomov, atoqli shoira Zulfiyaxonim, olim va jamoat arbobi Ozod SHarafiddinov va boshqalar ma’naviy jasorati. Halqimizga xos ma’naviy jasorat hissining kuchayib, yuksalib borishi. Bu borada yoshlarning ma’naviy mas’uliyati.

## Seminar mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda darslik va uslubiy qo‘llanmalar asosida bilimlarni mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarini chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali o‘quv vositalarni tayyorlash tavsiya etiladi.

Seminar mashg‘ulotlaridan ba’zilarini auditoriyadan tashqarida muzey, ko‘rgazma zallari, galereya va uy-muzeylarda o‘tkazish yaxshi natija beradi.

Seminar mashg‘ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Ma’naviyat tushunchasi, predmeti, maqsad va vazifalari.
1. Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari va milliy-ma’naviy tiklanish haqidagi konsepsiyalari.
2. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari, ularning o‘zaro munosabatlari.
3. Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o‘zaro munosabatlari hamda inson kamolotidagi ahamiyati.
4. Ma’naviyat, iqtisod va ularning o‘zaro bog‘liqligi.
5. Ma’naviyatning siyosat, huquq va xokimiyatdagi o‘rni.
6. Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik.
7. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari.
8. Islom dinida ma’naviyat va shaxs ma’naviy qiyofasining talqini.
9. Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ma’naviyat masalalari.
10. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat.
11. Jadidchilarning ma’rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma’naviyatini ko‘tarishda tutgan o‘rni.
12. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o‘zbek xalqining madaniyati va ma’naviyatiga tahdidi.
13. Ma’naviy barkamol, komil inson tushunchalari va ularning SHarqona ta’rifi.
14. SHaxs ma’naviyati mezonlari.
15. Ma’naviy jasorat -shaxs ma’naviy fazilati.
16. SHaxs ma’naviy fazilatlari.
17. SHaxs ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari.
18. Eng buyuk jasorat - ma’naviy jasoratdir.

## Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta’limning turli xil shakllari mavjud bo‘lib, bunda asosiy e’tibor talabaning berilgan mavzular (amaliy masalalar, topshiriqlar va keys-stadilar)ni mustaqil ravishda, ya’ni auditoriyadan tashqarida bajarishi, o‘qib o‘rganishi va shu yo‘nalish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini chuqurlashtirishiga qaratiladi. Talaba mustaqil ishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik yoki o‘quv qo‘llanmalar bo‘yicha fanlar boblari va mavzularini o‘rganish;
- tarqatma materiallar bo‘yicha ma’ruzalar qismini o‘zlashtirish;
- mustaqil ishlar, keys-stadilar bilan ishlash;
- maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo‘yicha fanlar bo‘limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- fanga oid ma’lumotlarni o‘rganish, ularni tahlil qilish;
- talabaning o‘quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan fanlar bo‘limlari yoki

mavzularni chuqur o‘rganish;

- faol va muammoli o‘qitish uslubidan foydalaniladigan o‘quv mashg‘ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta’lim.

«Ma’naviyat asoslari» fanidan talabalarning mustaqil ishlarini referat, seminar, ma’ruza tayyorlash, Prezident asarlarini konspektlashtirish va boshqa shakllarda tashkil etilishi tavsiya etiladi. Mustaqil ish mavzularini belgilashda ma’ruza va seminar mashg‘ulotlari mavzularini to‘ldirishga harakat qilinishi lozim.

**Tavsiya etilayotgan mustaqil ta’limning taxminiy mavzulari:**

1. Ma’naviyat-milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi.
2. Ma’naviy qadriyatlar va dunyoqarash.
3. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
4. Ma’naviy merosimizning jahon tarixida tutgan o‘rni.
5. Ma’naviyat taraqqiyot omili.
6. Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, O‘zbegim.
7. Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar.
8. Ma’naviy qadriyatlar va ularning o‘zaro munosabatlari.
9. Milliy qadriyatlarimiz va istiqlol ma’naviyati.
10. O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy zaminlari.
11. Inson qalbi va ma’naviy qadriyatlar.
12. bilim – ezgulik, kamtarlik va ma’naviy etuklik.
12. SHarq va G‘arb ma’naviy qadriyatlarining o‘xshash va farqli tomonlari.
13. Demokratiyaning ma’naviy qiyofasi.

15. Barkamol insonning sharqona fazilatlari.
16. Ma’naviy barkamollikning qirralari va asosiy mezonlari.
17. Insonparvarlik tushunchasi va uning vatanparvarlik tuyg‘usi bilan uyg‘unligi.
18. Milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasi va uning ma’naviyatni asrashdagi o‘rni.
19. Inson zotini ulug‘lash-ma’naviy etuklik mezoni.
20. «Temur tuzuklari»da ma’naviy qadriyatlar mohiyati.
21. Tadbirkor ma’naviyatining bozor iqtisodiyotida tutgan o‘rni.
22. Qadimgi SHarq xalqlari ma’naviy qadriyatlarining umuminsoniy ahamiyati.
23. Mustaqillik va islomiy qadriyatlarning tiklanishi.
24. Islom ma’naviy qadriyatlari va axloq-odob me’yorlarini umuminsoniy tavsifi.
25. Zardushtiylik va «Avesto»da inson ma’naviyati masalalari.
26. Ma’rifatchilarning shaxs va jamiyat ma’naviy qadriyatlari haqidagi g‘oyalari.
27. Mustamlakachilik sharoitida ma’naviy qadriyatlar.
28. Mustamlakachilik va qaramlik yillarida ma’naviy qadriyatlarimizni asrash uchun olib borilgan kurash.
29. Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar, ularning «ommaviy ma’naviyat» bilan munosabati.
30. Jadidlarning ta’lim va san’at sohasiga qo‘shgan hissasi va uning milliy ma’naviyatni rivojlantirishdagi o‘rni.
31. Mustabid tuzum davrida dunyoviy va diniy qadriyatlarga munosabat.
32. Komil inson haqida SHarq mutafakkirlarining fikrlari.
33. Milliy ma’naviyatdagi huquqiy, axloqiy qadriyatlar.
34. Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot.
35. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash.
36. Ijtimoiy ehtiyoj va qadriyatlar.
37. Ma’naviy qadriyatlarning hozirgi zamondagi o‘rni va ahamiyati.
38. Ma’naviy qadriyatlar sog‘lom avlodni tarbiyalash vositasi.
39. Mashhur pandnomalarda ma’naviy qadriyatlar.

40. Ma’naviy qadriyatlarning odat, an’anaga aylanishi.
41. Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ma’naviy barkamollikning belgisi.
42. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat.
43. SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda oila va mahallaning o‘rni.
44. Fuqarolik jamiyati qurilishida ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati.
44. O‘zbek oilasida ma’naviy qadriyatlarning o‘rni.
45. Eng buyuk jasorat- bu ma’naviy jasorat.
46. Ma’naviy jasorat – bashariyat hamma davrlarga xos xususiyat ekanligi.
47. Ma’naviy jasorat tushunchasi.
48. Ma’naviy jasoratning ajdodolar merosida ifodalanishi.
49. Ma’naviy jasoratda umuminsoniy va milliy tuyg‘ularning uyg‘unligi.

**Dasturning informatsion -uslubiy ta’minoti**

Ma’naviyat asoslari fanini o‘qitishda zamonaviy (xususan, interfaol) metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsiya (mediata’lim, amaliy dastur paketlari, prezentatsion, elektron-didaktik) texnologiyalarning qo‘llanishi nazarda tutiladi. Ma’naviyat asoslari fanida elektron darslikdan, mavzuga oid kompakt-disklardan va boshqa ko‘rgazmali qurollardan foydalaniladi.

**Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati Rahbariy adabiyotlar:**


1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2011 y.
2. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2000 y. 11-bet.
3. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2003 y.
4. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2005 y.
5. Karimov I.A. Bizning Bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent.:O‘zbekiston, 2005 y.
6. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat - engilmas kuch – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008.
7. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent.: O‘zbekiston, 2009.
8. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Toshkent.: O‘zbekiston, 2010.
9. Karimov. I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston, 2010.
10. Karimov. I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent.: O‘zbekiston, 2011y.


**Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**


1. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent.: 2002.
2. Umarov E., Abdullaev M. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: Cho’lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.-2006.
3. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” Toshkent.: -2005.
4. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma’naviy salohiyat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: Universitet. -2009.
5. Quranboev Q., Abdurahmonov M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarini o‘qitish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent.: -2010.
6. Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent.: -2008.
7. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent.: -2006.

8. Sadulla Otamuratov. Sarvar Otamuratov. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. O‘quv qo‘llanma. “YAngi asr avlodi”. Toshkent.: -2003.

**Qo‘shimcha adabiyotlar:**

1. Aliev A.. Istiqlol va adabiy meros. T., O‘zbekiston, 1997.
2. Otamurotov S., M.Abdurahmonov., SH.Rizaev., O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli. Toshkent.: Akademiya-2010.
3. Maxmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – Toshkent.: SHarq Nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. -2001 y.
4. Ergashev F., Ergashev I. Fidoyilik – hayot mazmuni. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2001 y.
5. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent.: O‘zbekiston , 2000 y.
6. CHoriev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. Toshkent.: CHinor ENK. 2002.
7. Erkaev A.P. Ma’naviyat millat nishoni. Toshkent.: 1997.
8. Eshonqulov A. Ma’naviyat tarbiyasi. Muloqot, 1997. №1.
9. Mahmudov T.. Nafosat va ma’naviy qadriyatlar. Toshkent.: 2001.
10. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. Toshkent.: 1997.
11. Ziyoev X. Istiqlol-ma’anaviyat negizi. Ma’naviyat. Toshkent.: -1999.
12. SH. Qahharova. Global ma’naviyat- globallashuvning g‘oyaviy asosi. Tafakkur nashriyoti. Toshkent.: -2009.
13. Otamuratov S. Globallashuv va millat. Toshkent.: YAngi asr avlodi. 2008.

**Elektron ta’lim resurslari:**

1. “Xalq so‘zi” gazetasi –www info XS. Uz.
2. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
3. “Ma’rifat” jurnali - www ma’rifat – inform.
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
5. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz
9. www.Ziyonet.uz.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

Рўйхатга олинди

№ БД-1.04-1

2011 йил “8” 11

Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг 2011 йил 17 сентябрдаги 392-сон буйруғи билан тасдиқланган

TAJRIBA-SINOV

# DINSHUNOSLIK
## fanidan namunaviy
## DASTUR

(bakalavr yo‘nalishi uchun)

**Toshkent – 2011**

Mazkur namunaviy dastur Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3-son majlis bayoni bilan tajribaviy dastur sifatida ma’qullangan.

Ushbu dastur “Dinshunoslik” fanidan bakalavrning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlari mazmuniga qo‘yiladigan talablar asosida tayyorlangan.

Tajribaviy dasturni kelgusida to‘ldirilgan va boyitilgan holda chop etish zaruratini hisobga olib, fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborishingizni so‘raymiz:

**Toshkent shahar, 2-CHimboy ko‘chasi 96-uy, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi “Ma’naviy-axloqiy tarbiya” boshqarmasi, tel: 246-10-58, 246-10-54.**

Fanning o‘quv dasturi Toshkent islom universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

Yo‘ldoshxo‘jaev H.H. – tarix fanlari nomzodi, dotsent (TII)
Rahimjonov D.O. – tarix fanlari nomzodi, dotsent (TIU)
Komilov M.M. – tarix fanlari nomzodi, dotsent (OO‘MTV)

**Taqrizchilar:**

Islomov Z. – filologiya fanlari doktori, professor (TIU)
Eshonjonov B. – tarix fanlari nomzodi, dotsent (TDSHI)

Fanning o‘quv dasturi Toshkent islom universiteti Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tavsiya etilgan (2011 yil 22 avgustdagi 1-son bayonnoma)

## Kirish

O‘zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga kirib, o‘zaro ilmiy va amaliy aloqalarni mustahkamlab borayotgan bir sharoitda turli konfessiya vakillari bilan muloqot qilishning yuksak madaniyatiga erishish katta ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda vijdon erkinligi qonunan va amalda kafolatlandi. SHuning bilan birga O‘zbekiston uchun nisbatan yangi bo‘lgan dinshunoslik fani ham shakllandi. Dinshunoslik fani jamiyatda o‘zining funksional vazifalariga ega bo‘lgan dinni ilmiy va xolisona o‘rganadi.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotida diniy qadriyat va an’analar muhim o‘rin egallab kelgan. YOshlarni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda ajdodlar ma’naviy merosining o‘rni beqiyosdir. Insonning ruhiy kamolotiga xizmat qiluvchi qadriyatlar asrlar davomida diniy qarashlar bilan bog‘liq holda rivojlangan. SHu nuqtai nazardan olib qaraganda dinlar tarixi, muqaddas manbalari, ta’limotlarini o‘rganish tarixini, o‘zligimizni anglashga yordam beradi.

## O‘quv fanining maqsadi va vazifalari

**Fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga milliy va diniy qadriyatlarning tarixan mushtarakligi, ularning umuminsoniy qadriyatlar ila uyg‘unligi, bu qadriyatlarning hozirgi mustaqil O‘zbekiston sharoitidagi ahamiyatini yanada aniqroq yoritib berib, ularda dinga nisbatan to‘g‘ri yondashuvni shakllantirish va jamiyat uchun yuksak ma’naviyatli kadrlarni tarbiyalashdan iborat.

**Fanning vazifasi** – talabalarni turli dinlarning kelib chiqishi, taraqqiyoti tarixi, ta’limoti, asosiy manbalari, hozirgi davrdagi holati, ma’lum xalq hayotida tutgan o‘rni haqida umumiy ilmiy tushunchalar berib, ularda mazkur din vakillarini har tomonlama chuqurroq tushunib etish va ular bilan muloqot qilishda o‘zlarining buyuk ma’naviyat egasi ekanliklarini namoyon qilishlari uchun etarli bilim berish, shuningdek, ajdodlar merosini o‘rganish va o‘rgatish asosida yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda o‘zlikni anglashni shakllantirishdan iborat.

## Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar

«Dinshunoslik» o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

– dinning umumiy ta’rifi, uning kelib chiqishi, ta’limoti muqaddas manbalari, yo‘nalishlari, jahonda mavjud bo‘lgan dinlarning mushtarak xususiyatlari, dinlar, ulardagi oqimlar va mazhablar, dinning jamiyatdagi vazifalari, dunyoning konfessional xaritasi, dunyo xalqlarining dinga bog‘liq qadriyatlari to‘g‘risida, din va qonun o‘zaro munosabatlari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida"gi Qonun haqida ***bilishi kerak***;

– dinning insoniyat tarixiy taraqqiyotida tutgan o‘rni, uning insoniyatga o‘tkazgan ijtimoiy-psixologik ta’siri, birlashtiruvchilik, qonunlashtiruvchilik, tartibga soluvchilik, tasalli beruvchilik kabi jamiyatdagi vazifalari, dunyo madaniyati va san’ati sohalarining shakllanishida dinning o‘rnini hamda buddizm, xristianlik, islom kabi jahon dinlari va konfutsiychilik, yahudiylik, hinduiylik kabi milliy dinlarning kelib chiqishi, ta’limoti, muqaddas manbalari va hozirgi zamonda tutgan o‘rnini, diniy marosimlarni ajrata olish ***ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak*;**

– diniy bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilish, dunyoqarashlar erkinligini ta’minlash jarayonida jamiyatning boshqa a’zolarini barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko‘maklashish, Vataniga va milliy qadriyatlariga sadoqatli, har tomonlama etuk komil insonlarni tarbiyalash ***malakalariga ega bo‘lishi kerak.***

## Fanning o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

Dinshunoslik fani tarix, falsafa, filologiya, etnografiya, ijtimoiy psixologiya, ma’naviyat asoslari kabi bir qator fanlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular bilan uyg‘unlashtirilgan holda o‘qitiladi.

**Fanning ishlab chiqarishdagi o‘rni**

Dinshunoslikning gumanitar fanlar qatorida oliy o‘quv yurtlarida o‘rganilishi hozirgi davr talabiga mos keladi. Jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni faqat iqtisodiy, siyosiy tadbirlar va huquq-tartibotni mustahkamlash bilangina to‘la hal qilib bo‘lmaydi. Buning uchun jamiyatdagi ma’naviy-madaniy, diniy-ma’rifiy sohani ham takomillashtirish talab etiladi.

**Fanni o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Dinshunoslik fani, eng avvalo, talabalarni mustaqil fikrlashga rag‘batlantiradigan, Prezident Islom Karimov asarlarini qunt bilan o‘qish va o‘zlashtirish, ma’naviy-madaniy sohadagi masala va muammolar bo‘yicha erkin fikr yurita olish qobiliyatini o‘stiradigan yangi pedagogik texnologiyalar asosiga qurilgan.

Kurs mobaynida interfaol usullarning turli shakllaridan, zamonaviy elektron texnika vositalaridan, ko‘rgazmali qurollardan keng foydalaniladi.

Amaliy mashg‘ulotlar mustaqillik yillarida qad tiklagan obidalar, ta’mirlangan ziyoratgohlar, muzeylarga tashrif uyushtirish, madaniy meros va ma’naviy hayotga aloqador joylarga chiqish shaklida tashkil etiladi.

## Asosiy qism

**Dinshunoslik faniga kirish**

Dinshunoslik fanini o‘qitishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad. Uni milliy istiqlol g‘oyasi hamda umummilliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda olib borish. Bu sohada erishilgan yutuqlar. Dinning paydo bo‘lishi haqidagi fikrlar. Dinlar tasnifi. Din e’tiqod sifatida. Din va qonunning o‘zaro munosabatlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun. Dinga berilgan ta’riflar. Dinshunoslik sohalari. Dinga sotsiologik nuqtai nazardan yondashuv. Dinning ijtimoiy vazifalari: kompensatorlik; integratorlik; regulyatorlik; legitimlovchilik; dinning falsafiy, nazariy jihatlari. Diniy tafakkurning shaxsiy yoki ijtimoiy ildizlari. Dinlar tasnifi: urug‘-qabila dinlari, milliy dinlar, jahon dinlari, monoteistik va politeistik dinlar.

**Dinning ibtidoiy shakllari**

Ibtidoiy diniy ong asoslari. Diniy tushunchalarning inson ma’naviy hayoti va uning ijtimoiy munosabatlariga ta’siri. Totemizm. Animizm. SHamanizm (magiya). Fetishizm. Ibtidoiy mifologiya. Insoniyatning ibtidoiy madaniyat o‘choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Qadimiy dinlar tarixini aks ettiruvchi manbalarning turlari. Arxeologik topilmalar, etnografik materiallar. Oziq-ovqat topish, shaxsiy hayot xavfsizligi, barhayotlik, avlod qoldirish – insonning eng qadimiy va asosiy orzulari. O‘lim (mamot) va dafn bilan bog‘liq bo‘lgan tasavvurlar, marosimlar va urf-odatlar.

Odamzot jamiyat bo‘lib yashashigacha bo‘lgan davri. Odamzotning jamiyat bo‘lib yashashga o‘tishi va ibtidoiy diniy e’tiqodlari. Ilk tabu (taqiq) va totemlar haqidagi tasavvurlarning yuzaga kelishi, mifologiyaning shakllanishi.

O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi va ularning diniy tasavvurlari. Qurbonlik keltirish urf-odatlari. O‘lim va oxirzamondan keyingi hayot. Urvan va fravashi ruhlari. «Barcha ruhlar» bayrami. Boshqa diniy marosimlar.

SHamanizmda ruhoniyning e’tiqod qiluvchilar orasidagi o‘rni. SHaman va boshqalarning ruhlar haqidagi tasavvurlari. SHamanizm dinining zamonaviy ko‘rinishlari.

**Milliy dinlar**

Milliy dinlar va ularga xos xususiyatlar. YAhudiylikning vujudga kelishi va ta’limoti. YAhudiylikda messiya – xaloskorning kelishi haqidagi ta’limot. YAhudiylikdagi oqim va

yo‘nalishlar. Saduqiylar, Farziylar, Esseylar. YAhudiylik manbalari. Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida berilgan Tora (Tavrot). Talmud, Mishna va Gemara sharhlari. YAhudiy marosimlari va bayramlari – Peysax (Pasxa), SHabuot, Yom-Kipur – poklanish, Rosh-Ashona, Purim (Qur’a). YAhudiylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi.

Veda va veda dinlari. Vedalar. Vedalardagi afsonaviy xudolar. Brahmanlik. Brahmanlik ta’limotida kastalar: brahmanlar; kshatriylar; vayshlar; shudralar. Brahmanlikdagi ruhning ko‘chib o‘tish haqidagi ta’limot. Hinduiylik. Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolish uchun bo‘lgan harakat. Brahmanlik bilan buddizm o‘rtasidagi kurash. Brahmanlikda tan olingan asosiy uch xudo: 1) Braxma; 2) Vishnu; 3) SHiva, Hinduiylik ta’limoti. Hinduiylikdagi jannat va do‘zax haqidagi tushunchalar.

Konfutsiychilik. Qadimgi Xitoyda Kun-Szi falsafiy ta’limotining paydo bo‘lishi. Konfutsiy – qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi. Konfutsiyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari. Konfutsiy ishlab chiqqan ideal, oliy inson, asl, mard kishi konsepsiyasi. Konfutsiychilikning, diniy manbasi. Konfutsiychilikda diniy marosimlar: nikoh, dafn etish va qurbonlik, Pin-Szin marosimlari; Osmon Xudosi-konfutsiychilikning bosh xudosi. Konfutsiyning ilohiylashtirilishi.

Zardusht hayoti va faoliyati. Zardusht ta’limoti. Zardushtiylikning shoh Vishtaspa tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi. Avesto zardushtiylikning muqaddas manbasi. Ko‘pxudolikdan yakkaxudolikka o‘tish. Zardushtning vatani haqidagi bahslar. Zardushtiylikning diniy ta’limoti. Axuramazda. Axriman. Har bir kishi ustidan hisob-kitob o‘tkazilishi, qiyomat (oxirzamon), jannat, jahannam, arosat, tanlarning qayta tirilishi, tana va ruhning qayta birikib, barhayot bo‘lishi haqidagi tasavvurlar. Zardushtiylik rasm-rusumlari. Olov tozalanish ramzi sifatida. O‘tganlar ruhi. Daxmalar. Ostodonlar. Zardushtiylikning YAqin va O‘rta SHarq mamlakatlariga tarqalishi. Hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan zardushtiylikka oid ta’limot, qarash va urf-odatlar.

Daosizmning vujudga kelishi. Daosizm – falsafiy ta’limot. Daosizmning falsafiy tamoyillari bayon etilgan «Dao-Deszin» kitobi. Xitoy donishmandi Lao-Szining tarixiyligi masalasi. «Dao» – hayot tarzi.

**Buddaviylik**

Buddaviylik asoschisining shaxsi. Buddaviylik ta’limoti. Buddaviylikning tarqalishi. Buddaviylik manbalari. Budda SHakyamuni hayoti va ta’limoti. Rohiblar va xonaqohlar. «O‘tkinchi dunyo» haqidagi tasavvurlar. Axloq. Meditatsiya – haqiqat haqidagi ilm. Imperator Ashoka (mil. av. 273-232 yillar) davrida buddizmning shimolga tarqalishi. Kushon imperiyasi hududida buddaviylikning qaror topishi. Eftalitlar. Buddaviylikning Markaziy Osiyodagi inqirozi (V-VIII asrlar). Buddaviylik g‘oyalarining boshqa dinlarga ta’siri. Diniy murosasozlik, axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi. Arxeologik topilmalar: Ayritom, Qoratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, CHingiztepa, Qorovultepa. SHakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g‘ildiraklar, stupa qoldiqlari. YOzma manbalar. Buddaviylikning maxayana, xinayana, vajrayana, lamaizm va boshqa oqimlari. Uning mintaqaviy shakllari. Hozirgi zamonda buddaviylik.

**Xristianlik**

Xristianlik jahon dini. Iso Masih (Iisus) hayotiga doir ilmiy bahslar. YAhudiylik doirasida ilk xristian jamoasi. Muqaddas kitoblar. Asosiy aqidalar va amallar. Ruhoniylar va jamoa. CHerkov tashkiloti. Ilohiyot ilmi sohasidagi maktablar. Diniy falsafa. Xristian cherkovidagi bo‘linishlar. CHerkov tarixi. Katolik, pravoslav, protestant yo‘nalishlari. Rohiblik. Xristian dini va san’at. Hozirgi zamonda xristian dini. IV asrdan boshlab nasroniylarning Markaziy Osiyoga ko‘chib kela boshlashi. Faktoriyalarning vujudga kelishi. Sug‘diyona xristianlari. Turk xoqonlari. Mo‘g‘ul xonlari orasida xristian dini. YOzma manbalar. Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida. Markaziy Osiyoda Evropa aholisi sonining o‘sishi. YAngi diniy jamoalar. Xristian madaniyati. Baptistlar. Hozirgi davrda O‘zbekistondagi xristian jamoalari va ularning diniy hayoti. Pavlus (Pavel) ismli shaxsning masihiylikda tutgan o‘rni. «Havoriylarning faoliyati»

(«Deyaniya Apostolov») kitobi. Pavlusning sifatlari. Bibliya. Qadimiy Ahd. YAngi Ahd. Tavrot – Musoga tegishli bo‘lgan besh kitob. Injil – xushxabar ma’nosini anglatuvchi kitob. Xristianlik hozirgi kunda.

### Islom

«Johiliya» davri arablarining diniy an’analari va ko‘pxudolik. Muhammad ibn Abdulloh – diniy rahnamo va davlat arbobi. Nabiy va Rasul so‘zlarining ma’nosi. «SHaqqi sadr» voqeasi. Payg‘ambarning Xadicha bint Xuvaylidga uylanishi. Ka’baning ta’mir etilishi. Hiro g‘orida vahiyning nozil bo‘la boshlashi. YAshirin targ‘ibotning boshlanishi. Ilk musulmonlar va ularga Makka mushriklari tomonidan tazyiq ko‘rsatilishi. Habashistonga hijrat va Najoshiyning musulmonlarga munosabati. «Isro va Me’roj» voqeasi. Madinaga hijrat. «Badr» jangi. Ilk islom davlatchilik munosabatlarining vujudga kelishi. Hudaybiya shartnomasi. Makkaning fath etilishi. Al-Xulafo ar-Roshidun davri. Umaviylar davlati. Abbosiylar davlati. Islomdagi ilk firqalanish. Islomdagi bag‘rikenglik tamoyillari. Islom va hozirgi zamon.

### Islomning asosiy manbalari

1. Vatan va vatanparvarlik tushunchalarining mohiyati.
2. Adolat – ma’naviy qadriyat va odillik mezoni ekanligi.

34-variant

1. Fuqarolik burchiga sadoqat shaxs ma’naviy barkamolligi mezoni.
2. Jadidchilik harakatining umumxalq ma’naviyatini ko‘tarishdagi o‘rni.

35-variant

1. Islom ma’naviy qadriyatlarining umuminsoniy xarakteri.
2. “Temur tuzuklari”da ma’naviyat masalalari.

36-variant

1.”Vatan sajdagoh kabi muqaddisdir” g‘oyasining mohiyati.
2. Demokriyaning ma’naviyat bilan bog‘liqligi.

37-variant

1. Milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasining mohiyati.
2. Inson ma’naviy kamolotiga ta’sir etuvchi bunyodkor g‘oyalar.

38-variant

1. Ahloq – ma’naviyatning o‘zagi.
2. Inson hayotiga tahdid yillari va yo‘llari.

39-variant

1. Inson va insoniyat ma’naviy qadriyatlarning betakror ob’ekti va sub’ekti.
2. SHaxs ma’naviyatiga zamonaviy ommaviy axborot vositalarining o‘rni va roli.

40-variant

1. Davlat tizimiga hurmat va fuqarolik burchiga sadoqat – shaxs ma’naviy barkamolligi mezoni.

41-variant

1. Huquqiy demokratik davlatni barpo etishda ahloqiy etuk shaxslarning roli.
2.Ijodkor shaxsning ma’naviy qiyofasi va jamiyatdagi o‘rni.

42-variant

1.Mustaqil shaxsda mustaqil mehnat qilish, mustaqil fikrlash va mustaqil yashash xususiyatlarining uyg‘unlashuvi.
2. Inson ma’naviy kamolatiga ta’sir etuvchi bunyodkor g‘oyalar.

43-variant

1.Ma’naviy qashshoqlik ko‘rinishlarining vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo‘llari.
2. Ma’naviy jasorat tushunchasining mohiyati.

44-variant

1.I.A.Karimov asarlarida shaxs ma’naviy barkamolligi talqini.
2. SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-ona mas’uliyati.

45-variant

1. I.A.Karimovning “Elim deb,yurtim deb, kuyib - yonib yashash kerak” degan fikrining ahamiyati.
2.Ahloq - ma’naviyatning ustuni.

46-variant

1. SHaxs buyukligining shartlari.
2. Amir Temurning milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishdagi xizmatlari.

47-variant

1. Ma'naviyat va bunyodkor g'oyalar.
2. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning talaba yoshlarning ma'naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.

48-variant

1. Adabiyot va san'at-shaxs ma'naviyatini shakllantirishning muhim omili.
2. Fuqarolik burchiga sadoqat –shaxs ma'naviy barkamolligi qirralaridan biri.

49-variant

1. Ma'naviy qashshoqlik ko'rinishlarini bartaraf etish yo'llari va imkoniyatlari.
2. Jahon va Vatanimiz ma'naviy yuksalishida o'chmas iz qoldirgan shaxslar.

50-variant

1. Ommaviy madaniyatning shaxs ma'naviyatiga ko'rsatadigan ijobiy va salbiy ta'siri.
2. Diyonatlilik, kamtarlik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarning shaxs ma'naviyatidagi o'rni.

## 6.UMUMIY SAVOLLAR

1. SHaxs shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar.
2. 2. Milliy o‘z-o‘zini anglash, uni mustahkamlash va rivojlantirish- ma’naviy yuksalish talabi.
3. Milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining mustaqillikni mustahkamlashdagi ahamiyati.
4. “Ma’naviyat asoslari” va Tarix fani . Ularning uzviy bog‘liqligi.
5. Ma’naviyat va ma’rifat, ularning uzviy aloqadorligi.
6. 2. Zamonaviy tadbirkorning ma’naviy-ahloqiy xislatlari.
7. Mustaqil O‘zbekiston tashqi siyosatining ma’naviy jihatlari
8. Milliy va umuminsoniy ma’naviyatlarning uzviy bog‘liqligi.
9. Insoniy fazilatlar - ma’naviyatning asosiy kategoriyalari.
10. Millatlararo totuvlik - davlat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalish garovi.
11. 1. Ma’naviyat va mafkura.
12. Milliy ma’naviyatning asosiy belgilari.
13. Inson va uning hayoti - eng oliy qadriyat.
14. Xalqimizning ma’naviy merosini tiklash va rivojlantirish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar.
15. Ma’naviyatning shaxs, millat, jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati.
16. Milliy ma’naviyatning tiklanishi va rivojlanishida I.A.Karimovning xizmatlari.
17. Ma’naviyatning asosiy tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlari.
18. Ma’naviyat va siyosatning bir-biri bilan bog‘liqligi.
19. Ma’naviyatning asosiy ko‘rinishlari.
20. 2. Hokimiyat tizimidagi rahbar hodim uchun zaruriy ma’naviy xislatlar.
21. 1. Milliy-ma’naviy tiklanish tushunchasining mazmun-mohiyati.
22. Ma’naviyat va iqtisodning o‘zaro bog‘liqligi .
23. 1.Ma’naviyat bilan madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi.
24. “Ma’naviyat asoslari” fanning boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.
25. Qonun - siyosatdagi ma’naviyat.
26. 2. Milliy va umuminsoniy ma’naviyatlarning o‘zaro bog‘liqligi.
27. Ma’naviyatning shaxs va jamiyat hayotidagi o‘rni .
28. Ma’naviyat va ma’rifat, ularning uzviy bog‘liqligi.
29. Ma’naviyatda qadriyatlarning o‘rni va roli.
30. 2. Bozor iqtisodiyotining ma’naviy-ma’rifiy zaminlari.
31. An’analarning ma’naviyatdagi o‘rni.
32. Ma’naviyat rivojlanishining asosiy qonuniyatlari.
33. Mustaqil O‘zbekistonning ichki va tashqi siyosatini ma’naviy jihatlari.
34. Ma’naviy merosning shaxs ma’naviy yuksalishidagi roli.
35. Mustaqillik va ma’naviyat.
36. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
37. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari.
38. Ma’naviyatli insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi.
39. Ma’naviy meros ildizlarining mustahkamligi milliy taraqqiyotning muhim omili ekanligi.
40. 2. “Inson” va “ma’naviyat” tushunchalarining talqini.
41. Umuminsoniy ma’naviyatda ilm-fan, san’at va adabiyotning o‘rni.
42. Inson fazilatlarining ma’naviy yuksalishdagi roli.
43. SHaxs ma’naviy kamol topishida ma’naviy, ruhiy muhitning o‘rni.
44. Ma’naviyat bilan madaniyatning uzviy bog‘liqligi.
45. 1.Milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining vatanparvarlik tamoyilining mohiyati.

46. Ma’naviyat va ma’rifat.
47. An’ana, urf-odat va marosimlarning ma’naviyatdagi o‘rni.
48. 2. “Inson” va “individ” tushunchalarining o‘zaro aloqadorligi.
49. 1.Milliy mafkura millatni birlashtiruvchi qudratli kuch.
50. SHaxs shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.
51. Hokimiyatning boshqaruv tizimida ma’naviy barkamol shaxslarning roli..
52. “Individuallik” va unda ma’naviy xislatlarning o‘rni.
53. 1.I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining ahamiyati.
54. Inson ma’naviy kamolotiga ta’sir etuvchi bunyodkor g‘oyalar.
55. Milliiy g‘oya va shaxs erkinligi hamda mas’uliyati masalalari.
56. Tadbirkor ma’naviyatining bozor iktisodiyotidagi o‘rni.
57. O‘zbekiston mustaqilligining ma’naviy-ma’rifiy va iqtisodiy zaminlari.
58. Milliy va mintaqaviy ma’naviyat ko‘rinishlari.
59. 1.SHaxs ma’naviyatining o‘ziga xos belgilari.
60. 2.I.A.Karimovning “YUksak ma’naviyat –engilmas kuch” asarining mustaqilligimizni mustahkamlashdagi ahamiyati.
61. Ma’naviyat ko‘rinishlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligi.
62. 2. Qonun -siyosatdagi ma’naviyat.
63. Ma’naviyatni rivojlantirish - davlat siyosatining ustuvor sohasi.
64. SHaxsning ma’naviyatini shakllantiruvchi omillar.
65. “Milliy taraqqiyot” va “ milliy tiklanish” tushunchalarining mazmun- mohiyati.
66. Ma’naviyat va madaniy meros.
67. Inson ,individ, individuallik tushunchalarining asosiy xususiyatlari .
68. 2. Umuminsoniy qadriyatlarning jamiyat ma’naviy yuksalishidagi o‘rni.
69. Iymon-e’tiqod inson ma’naviyati ustunlaridan biri.
70. I.A.Karimov ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash to‘g‘isida.
71. Inson ma’naviy qadriyatlarning betakror ob’ekti va sub’ekti.
72. SHarq va G‘arb ma’naviyati, ulardagi bog‘liq va farqli tomonlar.
73. Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatning ma’naviy barkamollikdagi o‘rni.
74. 2. San’at turlari - inson ma’naviyatini shakllantirish omili .
75. Qonunlarga itoatkorlik va fuqarolik burchiga sadoqat- ma’naviyatlilik belgisi.
76. Milliy o‘zlikni anglash millat abadiyligini ta’minlovchi omil ekanligi.
77. Mustaqil fikrlash- shaxs mustaqilligining asosi.
78. Adabiyot va san’at- shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirish vositalaridir.
79. O‘z-o‘zini anglash va milliy o‘zlikni anglash tushunchalarning mazmun-mohiyati.
80. Ahloq - ma’naviyatning o‘zagi.
81. 1.”Avesto”da inson va jamiyat ma’naviy kamolati masalalari talqini.
82. Ma’naviyat va huquq.
83. Ma’naviy ildizlari baquvvat millatning kelajagi porloqdir.
84. Jahon dinlarining ma’naviy jihatlari.
85. 1. Qonunlarga itoatkorlik va fuqarolik burchiga sadoqat – ma’naviyatlilik belgisi.
86. Inson ma’naviy qiyofasi.
87. Islom dinida inson ma’naviyati masalalari talqini.
88. Mustaqil fikrlash - shaxs mustaqilligining asosi.
89. Mustaqil fikrlashda fahm-farosat va fikr-mulohaza bosqichlari.
90. SHaxs ma’naviy barkamolligi mezon va qirralari.
91. 1.Milliy o‘zlikni anglashda urf-odat va bayramlarning ahamiyati.
92. Ma’naviyat asoslari fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog‘liqligi.
93. Millatlararo totuvlikning davlat ma’naviy yuksalishdagi o‘rni.
94. Mustaqillik va Amir Temur merosi.
95. Ma’naviyat va demokratiyaning o‘zaro bog‘liqligi.

96. SHaxs ma’naviyatiga ta’sir etuvchi omil va vositalar.
97. Ahloq- ma’naviyatning o‘zagi.
98. 2.Mehnatga ijodiy yondoshish - davr talabi.
99. Ma’naviyatning yuksalishida I.A.Karimovning xizmatlari.
100. 2.O‘rta Osiyo xalqlarining og‘zaki va yozma ijodiyotida ma’naviyat masalalarining talqini.
101. Inson va uning - hayoti eng oliy qadriyat.
102. 2.Tinchliksevarlik va adolatparvarlik-umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar.
103. SHaxs ma’naviy yuksalishida o‘z-o‘zini anglashning o‘rni.
104. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida milliy ma’naviyatimizning toptalishi.
105. Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatning shaxs ma’naviy barkamolligi belgisi.
106. Milliy ma’naviyatimizda urf-odatlar va bayramlarning o‘rni.
107. An’analarimizning o‘ziga xos xususiyatlari.
108. 2. Jadidlarning millatimiz ma’naviy yuksalishdagi xizmatlari.
109. Demokratik tamoyillarni ta’minlashda shaxs ma’naviy xislatlarining roli.
110. SHaxs ma’naviyatini rivojlantirishda oila va mahallaning ahamiyati.
111. Kuchli ijtimoiy siyosat ma’naviyatlilik belgisi.
112. SHaxs ma’naviyati va jamiyat hayotida OAV larining o‘rni va roli.
113. “Temur tuzuklari” inson ma’naviy xislatlari haqida.
114. Mehnatga halol munosabat shaxs barkamolligi sharti.
115. Huquqiy demokratik davlatning asosiy ma’naviy belgilari.
116. Buyuk ajdodlarimizning madaniy va ma’naviy merosining umuinsoniy ahamiyati.
117. Ma’naviyatimiz yulduzlari deganda kimlarni tushunasiz?
118. Mustaqil demokratik davlatni qurishda ma’naviy-ahloqiy shaxslarning o‘rni.
119. O‘zbek oilasida ma’naviy –ahloqiy tarbiya an’analari.
120. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat.
121. Zardushtiylik va “Avesto”da shaxs ma’naviyati talqini.
122. O‘zlikni anglash va ma’naviyat.
123. YOshlar ma’naviyatini shakllantirishda mahallaning o‘rni.
124. Umuminsoniy ma’naviyatning boshqa ma’naviyat ko‘rinishlari bilan chambarchas bog‘liqligi.
125. 1. Milliy o‘zlikni anglash millat abadiyligini ta’minlovchi omil.
126. Huquqiy-ahloqiy talablarning shaxs ma’naviy yuksalishidagi o‘rni.
127. Mustaqillik yillarida ma’naviyatni rivojlantirish ustivor vazifa ekanligi.
128. Xalqimiz og‘zaki ijodiyotida ma’naviyat masalalarining talqini.
129. 1. Islom dinida shaxs ma’naviyati masalalari.
130. Demokratiya va ma’naviyat.
131. Ma’naviy qashshoqlik -zamon fojeasi.
132. 2. Mintaqaviy ma’naviyatning boshqa ma’naviyat ko‘rinishlari bilan uzviy bog‘liqligi.
133. Ma’naviy jasorat eng buyuk jasorat.
134. SHaxs individualligi va barkamolligi belgilari.
135. SHarq Uyg‘onish davrida ma’naviyat .
136. Bozor iqtisodiyotining ma’naviy-ma’rifiy asoslari.
137. I.A.Karimov asarlarida ma’naviyat masalalarining yoritilishi.
138. Jahon dinlarida shaxs ma’naviy qiyofasining talqini.
139. Mustaqil davlat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishida insonning roli va o‘rni.
140. “Kuch-adolatdadir” g‘oyasining ma’naviy qadriyatligi.
141. 1.SHaxs va ma’naviyati belgilari.

142. Ijtimoiy hamkorlik va diniy bag‘rikenglikning millatlararo totuvlikdagi ahamiyati.
143. SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarining o‘rni.
144. Fuqarolik burchiga sadoqat - shaxs ma’naviy barkamolligi mezoni.
145. Inson xislatlarining fazilatlarga aylanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.
146. Kuchli ijtimoiy siyosat – ma’naviyatlilik belgisi.
147. Milliy o‘zlikni anglashda ma’naviy meros, urf-odat,an’ana va qadriyatlarning o‘rni va roli.
148. Demokratiya va ma’naviyatning uzviy bog‘liqligi.
149. 1. Ma’naviy barkamol shaxs hayotida mehnatning o‘rni.
150. 2.Demokratiya va ma’naviyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik.
151. 1.Zardushtiylik dini va “Avesto”da ma’naviyat maalalari.
152. Ma’naviyatni yuksaltirish- davlatimiz siyosatida ustuvor soha.
153. Iymon, diyonat,poklik va halollik – shaxs ma’naviy fazilatlari.
154. O‘z millatining kelajagi yo‘lida qayg‘urish, har bir ma’naviyatli insonning burchi.
155. Kuchli ijtimoiy siyosat – davlat ma’naviy yuksalishining asosi.
156. “Beshikdan to qabrgacha ilm o‘rgan” naqlining mazmun-mohiyati.
157. Sog‘lom avlod, ma’naviy barkamol va komil inson tushunchalarining uzviy bog‘liqligi.
158. Demokratiyaning ma’naviy tamoyillari.
159. SHaxs individualligida ma’naviyatning o‘rni.
160. Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviy qadriyatlarimizning tarixiy negizi.
161. Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zaxiriddin Muhammad Boburning milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishga qo‘shgan hissalari.
162. Islom dinida shaxs ma’naviyati masalalarining talqini.
163. Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat, ma’rifat va madaniyatning rivoji.
164. Mustaqillik davrida barkamol avlodni shakllantirish yo‘lida amalga oshirilgan ishlar.
165. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida milliy qadriyatlarimizning toptalishi.
166. Sog‘lom avlod va ma’naviy barkamol inson tushunchalarining uzviy bog‘liqligi.
167. Jahon dinlarida shaxs ma’naviy qiyofasining talqini.
168. Mustamlakachilik siyosatining ma’naviy sohalardagi maqsadlari.
169. .I.A.Karimov ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash to‘g‘risida.
170. Tasavvuf ta’limoti – buyuk ma’naviy merosimiz.
171. Islom dinida shaxs ma’naviyati talqini.
172. ”YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi” degan mushohadaning mohiyati.
173. 1.Ma’naviy barkamollik qirralari.
174. 2. Iymon-e’tiqod – ma’naviyat ustunlaridan biri.
175. 1.Poklik va halollik - shaxs ma’naviy fazilatlari.
176. 2.Ta’lim tizimi shaxs ma’naviyatini shakllantirishning muhim omili.
177. Zardushtiylik va “Avesto” da ma’naviyat.
178. Ma’naviy barkamol shaxs hayotida mustaqil fikrlash va mustaqil mehnat qilishning ahamiyati.
179. Iymon-e’tiqod shaxs ma’naviyati ustunlaridan biri.
180. 2. Jadidlarning ma’naviy yuksalishga qo‘shgan hissalari.
181. 1.Mehnatga ijodiy yondoshish – davr talabi.
182. 2. SHaxs shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.
183. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitda ma’naviyat.
184. Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash davr talabi.

185. Komil inson haqida SHarq mutafakkirlarining fikrlari.
186. Mehnat ijodiy yondoshish – davr talabi.
187. 1.Komil insonning sharqona fazilatlari.
188. 2.Millatlararo totuvlikni ta'minlashda ijtimoiy hamkorlik va diniy bag'rikenglikning ahamiyati.
189. Mustaqillik va Amir Temur merosi.
190. Islom dinida inson ma'naviyati masalalari.
191. Ma'naviy barkamollikning asosiy qirralari va mezonlari.
192. 2.Jadidchilik harakatining milliy ma'naviy yuksalishdagi o'rni va roli.
193. 1.Huquqiy savodxonlik va huququiy madaniyat shaxs ma'naviyatliligi belgisi.
194. Oila va mahallaning shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni.
195. Insonparvarlikning ma'naviy-ijtimoiy qirralari.
196. 2. Komil insonning sharqona fazilatlari.
197. Mahalla - tarbiya o'chog'i .
198. Insonning o'z-o'zini anglashi insonparvarlikning ma'naviy mezoni ekanligi.
199. 1.YOshlar dunyoqarashlari va xatti-harakatlarida e'tiqodlilik, poklik, halollik kabi fazilatlarni shakllantirish zarurligining o'sib borishi.
200. 2. Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma'naviy meros.
201. Vatan va vatanparvarlik tushunchalarining mohiyati.
202. Adolat – ma'naviy qadriyat va odillik mezoni ekanligi.
203. Fuqarolik burchiga sadoqat shaxs ma'naviy barkamolligi mezoni.
204. Jadidchilik harakatining umumxalq ma'naviyatini ko'tarishdagi o'rni.
205. Islom ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy xarakteri.
206. "Temur tuzuklari"da ma'naviyat masalalari.
207. 1."Vatan sajdagoh kabi muqaddisdir" g'oyasining mohiyati.
208. Demokriyaning ma'naviyat bilan bog'liqligi.
209. Milliy o'z-o'zini anglash tushunchasining mohiyati.
210. 2. Inson ma'naviy kamolotiga ta'sir etuvchi bunyodkor g'oyalar.
211. Ahloq – ma'naviyatning o'zagi.
212. 2. Inson hayotiga tahdid yillari va yo'llari.
213. 1. Inson va insoniyat ma'naviy qadriyatlarning betakror ob'ekti va sub'ekti.
214. SHaxs ma'naviyatiga zamonaviy ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli.
215. Davlat tizimiga hurmat va fuqarolik burchiga sadoqat – shaxs ma'naviy barkamolligi mezoni.
216. Huquqiy demokratik davlatni barpo etishda ahloqiy etuk shaxslarning roli.
217. 2.Ijodkor shaxsning ma'naviy qiyofasi va jamiyatdagi o'rni.
218. 1.Mustaqil shaxsda mustaqil mehnat qilish, mustaqil fikrlash va mustaqil yashash xususiyatlarining uyg'unlashuvi.
219. Inson ma'naviy kamolatiga ta'sir etuvchi bunyodkor g'oyalar.
220. Ma'naviy qashshoqlik ko'rinishlarining vujudga kelish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari.
221. Ma'naviy jasorat tushunchasining mohiyati.
222. I.A.Karimov asarlarida shaxs ma'naviy barkamolligi talqini.
223. SHaxs ma'naviyatini shakllantirishda ota-ona mas'uliyati.
224. I.A.Karimovning "Elim deb,yurtim deb, kuyib - yonib yashash kerak" degan fikrining ahamiyati.
225. 2.Ahloq - ma'naviyatning ustuni.
226. SHaxs buyukligining shartlari.
227. Amir Temurning milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishdagi xizmatlari.
228. Ma'naviyat va bunyodkor g'oyalar.

229. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning talaba yoshlarning ma’naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyati.
230. Adabiyot va san’at-shaxs ma’naviyatini shakllantirishning muhim omili.
231. Fuqarolik burchiga sadoqat –shaxs ma’naviy barkamolligi qirralaridan biri.
232. Ma’naviy qashshoqlik ko‘rinishlarini bartaraf etish yo‘llari va imkoniyatlari.
233. Jahon va Vatanimiz ma’naviy yuksalishida o‘chmas iz qoldirgan shaxslar.
234. Ommaviy madaniyatning shaxs ma’naviyatiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’siri.
235. Diyonatlilik, kamtarlik, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi fazilatlarning shaxs ma’naviyatidagi o‘rni.

# 7.TARQATMA MATERIALLAR

## 8.GLOSSARIY

**AGRESSIYA - (lot. agressio)** – umum e'tirof etilgan prinsiplar va xalqaro huquq normalariga binoan tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyat hisoblanadi. BMT Bosh Assambleyasining 1974 yil 14 dekabrda qabul qilingan «Agressiya tushunchasi» to‘g‘risidagi Rezolyusiyasining 3-moddasida quyidagilar: 1) bir davlat qurolli kuchlarining boshqa davlat hududiga bostirib kirishi yoki hujum qilishi; 2) vaqtidan qat'i nazar harbiy bosqin oqibati sifatida harbiy kuch ishlatib, boshqa davlat hududini bosib olish; 3) boshqa davlat hududi yoki uning bir qismini zo‘rlik bilan qo‘shib olish; 4) boshqa davlat hududiga bombalar tashlash yoki uning hududida turli qurol-yarog‘larni ishlatish; 5) bir davlat portlari yoki uning qirg‘oqlari yoxud qirg‘oqlarining bir qismini qamal qilish; 6) bir necha davlatlar qurolli kuchlarining boshqa davlatning quruqlikdagi, dengiz yoki havo kuchlariga yoxud dengiz yoki havo flotiga hujum qilishi; 7) bir davlatning boshqa davlat hududida u bilan tuzilgan bitimga binoan turgan qurolli kuchlaridan bitimda nazarda tutilgan shartlarni buzgan holda foydalanishi; 8) ushbu hududda bitimning amal qilish muddati tugaganidan keyin ham qurolli kuchlarning turaverishi; 9) o‘z hududini boshqa davlat ixtiyoriga topshirib qo‘yilgan va ushbu hududdan uchinchi davlatga qarshi agressiya sodir etilishiga imkon bergan davlatning harakatlari; 10) boshqa davlatga qarshi qurolli kuchlarning qo‘llanishini amalga oshiruvchi qurolli to‘dalar, guruhlar va muntazam kuchlar yoki yollanganlarning davlat tomonidan yuborilishi agressiya, deb hisoblanadi. BMT Ustaviga ko‘ra agressiya atamasi bir yoki bir necha davlatning boshqa davlatga nisbatan noqonuniy ravishda qurolli kuch ishlatishini bildiradi. Biroq ob'ektiv jihatdan urushni rejalashtirish yoki unga tayyorgarlik ko‘rish yohud agressiya to‘g‘risida qarorining 3-moddasida sanab o‘tilgan biror harakatni sodir etish uchun fitnada qatnashishning o‘zi tamomlangan jinoyat tarkibini vujudga keltiradi (bomba tashlashni rejalashtirish, qo‘shinlar harakati uchun urush jo-ylarining xaritasini tuzish, bosqinchilik maqsadlarida joylarni o‘rganish, birgalikda agressiya harakatini amalga oshirish uchun muzokara olib borgani kabilar). (18)

**ANARXIZM** – yunon tilidan olingan bo‘lib, anarchia – hokimiyatsizlik ma'nosini bildiradi. Anarxizm siyosiy oqim bo‘lib, siyosiy-tarixiy jarayonlarning murakkab pallasida siyosiy jarayonlarga ta'sir etishga intilish usuli. Anarxizmning barcha ko‘rinishlarining umumiy jihati shundan iboratki, u davlatni jamiyatdagi barcha yovuzlik, musibat va jaholatning, jumladan urushlarning, repressiyalarning, ijtimoiy tengsizlikning barcha ko‘rinishlarining manbai deb hisoblaydi. Anarxistlar stixiyali tartibsizliklar vositasida davlat apparatini emirib, o‘rniga ishlab chiqaruvchilarning muxtor assotsiatsiyalarini tuzish takliflarini ilgari suradi. Anarxistik konsepsiyalarga ko‘ra davlatchilik asoslarini emirish jamiyatda ijtimoiy munosabatlarning tubdan ijobiylashuviga olib keladi. SHuningdek, anarxizm tarafdorlari siyosiy kurashlarning barcha ko‘rinishlarini, jumladan siyosiy partiyalar va tashkilotlar orqali tartibli kurashlarni inkor etib, asosiy e'tiborni mamlakatda ommaviy ish tashlashlar, zabastovka va mitinglar uyushtirish orqali davlat organlariga ta'sir etishni targ‘ib etadilar. Anarxizmning eng jirkanch ko‘rinishi – siyosiy ta'sirning eng iflos yo‘li bo‘lgan terrorizm va ommaviy qurbon usulini ham yoqlashidir. SHu jihatdan ham anarxizm jamiyat rivojiga salbiy ta'sir etuvchi, umuminsoniy qadriyatlarga zid oqim hisoblanadi. (1)

**BEVOSITA DEMOKRATIYA** - O‘zbekiston Respublikasi xalqining o‘z hokimiyatini bevosita amalga oshirish shakllari va vositalari (institutlari) majmuini qamrab oluvchi tushuncha. Bevosita demokratiya negizini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil etadi. Konstitutsiyaning 7-moddasida muvofiq, O‘zbekiston Respublikasida xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Davlat hokimiyati xalq manfaatlarini ko‘zlab va

Konstitutsiya hamda uning asosida qabul qilingan qonunlar vakolat bergan idoralar tomonidangina amalga oshiriladi. Jamiyat va davlat hayotining eng muxim masalalari xalq muxokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendumga) qo'yiladi. Referendum va saylovdan tashqari, bevosita demokratiya institutlariga muxim davlat qarorlari va qonunlar muqokamasi, petitsiyalar, xalq tashabbuslari, fuqarolarning yashash va ish joyidagi yig'ilishlari (yig'inlari) kiradi. Huquq fanida bevosita demokratiya institutlarini ikki guruxga: imperativ va konsultativ xususiyatga ega institutlarga ajratish qabul qilingan. Bevosita demokratiya imperativ shakllarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, xalq tomonidan qabul qilingan qaror uzil-kesil, majburiy hisoblanadi, davlat organlari yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tasdiqlashni taqozo etmaydi (ular faqat mazkur qarorni rasman qabul qilingan deb e'lon qilishlari mumkin). Bevosita demokratiyaning imperativ shakllariga imperativ referendum hamda deputatlar va saylab qo'yiladigan mansabdor shaxslarni xalq tomonidan saylash kiradi. Bevosita demokratiya konsultativ shakllarining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular yordamida aniqlangan xalq (aholi) ning xohi-irodasi tegishli davlat organi yoki mahalliy o'zini o'zi boshqarish organining qarorida o'z aksini topadi (mazkur qarorga asos bo'lib xizmat qiladi). Lekin organ o'z hujjatining uzil-kesil matnini o'zi mustaqil ta'riflasa-da, u xalq (aholi)ning xohish-irodasini o'zgartira olmaydi. Bevosita demokratiyaning konsultativ shakllariga konsultativ referendumlar (so'rovlar), xalq muxokamalari, tashabbuslari (shu jumladan huquq ijodkorligi tashabbuslari), petitsiyalar kiradi. Fuqarolarning yig'ilishlari (yig'inlari)ning qarorlari ayrim hollarda (masalan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarini saylashda, deputatlikka nomzodlarni kiritishda) imperativ xususiyatga ega bo'lsa, boshqa hollarda (masalan, mikrotumanda yoki aholi yashaydigan punktda yangi ob'ekt qurilishi yuzasidan o'z fikrini bildirishda, mahalliy tuzilma boshlig'ining bildirishini muxokama qilishda) konsultativ xususiyatga ega bo'ladi. «To'g'ridan-to'g'ri demokratiya», «bevosita xalq hokimiyatchiligi» tushunchalari ham «bevosita demokratiya» tushunchasi bilan bir xil ma'noda qo'llanadi. Bevosita demokratiya bu – demokratiyaning muhim yo'nalishi bo'lib, fuqarolarning jamiyat va davlat ishlarida to'g'ridan-to'g'ri qatnashishlari, mamlakatda olib boriladigan siyosatga va siyosiy o'zgarishlarga o'z munosabatlarini bildirishlaridir. Bevosita demokratiyada har bir fuqaroning xohish-irodasi, siyosiy talab va takliflari aks etadi. Bevosita demokratiyaning dastlabki ko'rinishlari quldorlik jamiyatida ro'y bergan. O'sha davrlarda jamiyat a'zolari mamlakat va davlat hayotiga doir masalalarni hal qilishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishgan, katta-katta yig'inlar o'tkazilib, ularda quldorlik davlati olib borgan siyosatga munosabat bildirilgan, siyosiy hokimiyatga ularning o'zlari uchun ma'qul bo'lgan kishilar tavsiya qilingan. Masalan, qadimgi Afinada xalq yig'ini siyosatning hamma asosiy masalalarini qarab chiqqan va hal qilgan. Bevosita demokratiyaning bir muncha takomillashgan shakli XX asrning o'rtalarida G'arbiy Evropa mamlakatlari va AQSHda vujudga keldi. Mazkur mamlakatlarda xalq ommasi va har bir fuqaro jamiyat va davlat ishlarini boshqarish, mamlakatda olib borilayotgan ichki va tashqi siyosatga o'z munosabatlarini bildirishda to'la erkinlik asosida harakat qila boshladilar. Bevosita demokratiyaning amal qilishi siyosiy tuzumlarga va ularda hukmron bo'lgan siyosiy kuchlar faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Masalan, totalitar va avtoritar siyosiy tuzumlarda bevosita demokratiya cheklangan bo'ladi. Ularda kuchli davlat hokimiyati o'z irodasini fuqarolarning huquq va erkinliklarini bug'ishga, ularning jamiyat ishlarida faol ishtirok qilishlariga qarshi qo'yadi. (1)

**BILVOSITA** (*ko'p bosqichli*) **SAYLOVLAR** – saylov tizimi, unda vakillik organining deputatlari quyi turgan saylov organlari yoki tarkibida yoki aholi tomonidan saylangan saylashga vakil qilinganlar yoxud quyi vakillik organlarining deputatlari yoki unisini ham, bunisini ham

olgan saylov hay'atlari tomonidan saylanadi. Bilvosita saylovlar ikki yoki undan ortiq bosqichli bo'lishi mumkin, ammo uch va to'rt bosqichli saylovlar hozirda juda-juda kam uchraydi. AQSH, Finlyandiya prezidentlari, Hindiston parlamentining yuqori palatasi ikki bosqichli saylovlarda saylanadi. Fransiya senatining qismi uch bosqichli saylovlarda shakllanadi: saylovlar munitsipal maslahatchilarga ovoz beradi, bular esa senatorlarni saylaydigan delegatlarni tayinlaydi. (3)

**BOSHQARUV SHAKLI** - bu - xuquqiy institut bo'lib, davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi. Oliy va maxalliy davlat organlarini tuzish usulini hamda ularning bir-biri va aholi bilan o'zaro munosabatlari tartibini o'z ichiga oladi. Boshqaruv shakllari hokimiyat bir shaxs tomonidan yoki saylab qo'yiladigan jamoaviy organ tomonidan amalga oshirilishiga qarab jiddiy farq qiladi. Birinchi holda boshqaruvning monarxik shakli, ikkinchi holda esa respublika shakli namoyon bo'ladi. Monarxik boshqaruv shaklida, amaldagi qonunlarga muvofiq, monarx, respublika boshqaruv shaklida esa saylab qo'yiladigan davlat organi davlat hokimiyatini boshqaradi. Monarxiyalar va respublikalarning har xil turlari mavjud. Ular davlatlarning tiplariga, shuningdek ularning yuzaga kelishi va faoliyat ko'rsatishi shart-sharoitiga ko'p jihatdan bog'liq. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi bosqichida monarxiyaning ikki turi: dualistik va parlamentar monarxiyalar farqlanadi. Dualistik monarxiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda davlat hokimiyati monarx bilan parlament o'rtasida rasmiy – yuridik tarzda taqsimlanadi. Ijro etuvchi hokimiyat bevosita monarx qo'lida, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa – parlament ixtiyorida bo'ladi. Ammo parlament amalda monarxga bo'ysunadi. Parlamentar monarxiya shu bilan farq qiladiki, monarxning maqomi davlat hokimiyatini amalga oshirishning barcha sohalarida rasman va amalda cheklab qo'yiladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat to'la parlamentga, ijro etuvchi hokimiyat esa - hukumatga tegishli bo'ladi. Hukumat o'z faoliyati uchun parlament oldida javobgar bo'ladi. Hukumatni shakllantirishda monarxning ishtiroki ramziydir. Angliya, Gollandiya va SHvetsiya parlamentar monarxiyaga misol bo'ladi. Hozirda respublikalarning ikki turi: hukumat va davlat boshlig'i vakolatlari prezident qo'lida jamlanadigan prezident respublikasi hamda parlament respublikasi farqlanadi. Parlament respublikasining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda prezident hokimiyati nisbatan kuchsiz bo'ladi, bosh vazir esa bir vaqtning o'zida ham hukumat boshlig'i, ham hukmron partiya yoki partiyalar ittifoqining raxbari vazifalarini bajaradi. Prezident respublikalarnga Argentina, Braziliya, Rossiya, AQSH, O'zbekiston va b., parlament respublikalariga esa – Gretsiya, Germaniya va b. kiradi. O'zbekistonda Prezident respublikasi Prezndent hokimiyatining kuchliligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, Prezident davlat boshlig'i sifatida O'zbekiston Respublikasining suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muxofaza etish, milliy-davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'radi, mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi, muzokaralar olib boradi hamda O'zbekiston Respublikasining shartnoma va bitimlarini imzolaydi, respublika tomonidan tuzilgan shartnomalarga, bitimlarga va uning qabul qilingan majburiyatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda davlat boshqaruvining boshqa organlarini tuzadi va tugatadi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari ko'rib chiqishi va tasdiqlashi uchun Bosh vazir nomzodini taqdim etadi va lavozimidan ozod qiladi, qonunlarni imzolaydi va e'lon qiladi, farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi va h.k. (30

**VOTUM** (*lot. votum — xohish, iroda*) – saylov jamoasi yoki vakillik muassasasining ko'pchilik ovozi bilan ifodalangan yoki qabul qilingan fikri yoki qarori. Masalan, saylov Votumi — prezident, parlament, munitsipalitet va boshqalarga saylovlarda saylov kompaniyasining

natijasi. Boshqaruvning parlamentar shaklidagi davlatlar parlamenti amaliyotida Votum — qoidaga ko'ra quyi palataning hukumat yoki alohida vazirning siyosiy yo'li, muayyan xatti-harakati yoki qonun loyihasini ma'qullashi (**ishonch** Votumi) yoki ma'qullamasligidir (**ishonchsizlik** Votumi). Ishonch Votumi to'g'risidagi masalani qo'yish tashabbuskori hukumatning o'zi, parlament fraksiyasi yoki deputatlar guruhi bo'lishi mumkin. Hukumatga ishonchsizlik bildirilishi amaliyotda shu hukumatning iste'fo berishiga va yangi hukumatni tuzishga (hukumat tangligiga) yoki parlamentni (quyi palatani) tarqatib, parlamentga muddatdan oldin saylovlar o'tkazishga olib kelishi mumkin. Ikkinchi variant hukumatga parlamentni muddatidan oldin tarqatib yuborishni po'pisa qilish va shu orqali noma'qul qonun loyihalarini parlamentdan o'tkazish imkonini beradi. **Ko'plik (plyural)** Votum – ayrim mamlakatlarda bunday Votumga ko'ra saylovchilarning ayrim toifasi saylovda ikki yoki undan ortiq ovozga ega bo'ladi. **Bilvosita** (**eventual**) Votum – mutanosib saylovlar tizimida ovoz berish natijalarini aniqlash tartibi, unga ko'ra ma'lum nomzodga berilgan va saylov kvotasidan ortiqcha bo'lgan ovozlar shu partiya ro'yxatidagi boshqa nomzod hisobiga o'tkaziladi. **Majburiy** Votum ayrim mamlakatlarda barcha yuridik salohiyatli fuqarolarning davlat hokimiyati organlariga saylovlarda ishtirok etish bo'yicha yuridik majburiyati, bu tartibni buzganlarga jarima solinishi mumkin. (3)

**VAZIR** (arabcha. yuk ko'taruvchi) – o'rta asrlarda O'rta va yaqin sharq davlatlarida, shu jumladan O'rta Osiyo xonliklarida hukumat idorasi yoki kengashi (devon) boshlig'i. YUqori mansabdor shaxs. V. hukumat a'zosi hamda ma'lum bir vazirlikni boshqaruvchi yuqori mansabdor shaxsdir. (2)

**VAZIRLAR MAHKAMASI – Isroil, Latviya, YAponiya, SHri-Lanka, Qozog'iston, Turkmanistonda va qator boshqa mamlakatlarda hukumatning rasmiy nomi. O'zbekiston Respublikasida hukumat "Vazirlar Mahkamasi" deb nomlangan bo'lib, "O'zbekiston Respublikaci Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi qonunga binoan, u O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir. Hukumat Prezident, Oliy Majlis va sudlar bilan bir qatorda hokimiyatni, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'lish asosida davlat hokimiyatini amalga oshiradi. Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari tizimiga va o'zi tashkil etadigan xo'jalik boshqaruvi tuzilmalariga boshchilik qiladi, ularning hamjihatlik bilan ishlashini ta'minlaydi. Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida kollegiallik, demokratiya va qonuniylik, O'zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat va elatlarning manfaatini hisobga olish prinsipiga asoslanadi. Respublikada yashovchi barcha millatlar manfaatlarini hisobga olish uchun o'z faoliyatini oshkoralik, insonparvarlik va qonuniylik asosida olib boradi. Vazirlar Mahkamasi qonun bilan belgilab qo'yilgan o'z tarkibiga ega. Unga ko'ra, Vazirlar mahkamasi tarkibiga Bosh vazir, uning birinchi o'rinbosari va o'rinbosarlari, O'zbekiston Respublikasi vazirlar, davlat qo'mitalarining raislari, davlat va xo'jalik boshqaruvi boshqa organlarining rahbarlari kiradilar. Vazirlar Mahkamasining tarkibini tuzish borasida mamlakat Prezidentiga juda katta vakolatlar berilgan. Ushbu vakolatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-, 93-, 98-moddalarida mustahkamlab**

**qo‘yilgan. 2003 yil 29- avgustda O‘zbekiston Respublikasining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonuni qabul qilindi hamda ushbu qonunni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senatini shakllantirish yakunlariga binoan amalga kiritilishi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan belgilab qo‘yildi.(3)**

**VAKILLIK HOKIMIYATI** — xalq yoki uning qismi tomonidan maxsus kollegial muassasa (parlament, munitsipal kengash)ga, qat’iy belgilangan muddatga birlashgan o‘z saylanadigan vakillariga bergan vakolatlari majmui, shuningdek, shu vakillik hokimiyat organlarining yig‘indisi. Vakillik hokimiyati tushunchasi faqat vazifaviy maqsadnigina emas, balki hokimiyat tabiatini, uni amalga oshirish usulini ham ifodalaydi. Vakillik hokimiyatini qonun chiqaruvchi hokimiyat bilan adashtirmaslik kerak, chunki har qanday Vakillik hokimiyati ham qonun chiqaruvchilik vakolatini o‘z ichiga olmaydi (masalan, munitsipal kengash vakillik hokimiyatini amalga oshiruvchilar qonun chiqara olmaydi) va aksincha, har qanday qonun chiqaruvchi hokimiyat Vakillik hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilmaydi (masalan, mutloq monarxning qonunchilik hokimiyati). Bundan tashqari, Vakillik hokimiyati norma ijodchiligi bilan birga nazorat, ba’zida ko‘rsatma berish va boshqa vakolatlarni ham o‘z ichiga oladi.vakillik hokimiyatining xarakteri ko‘p jihatdan vakillik turi (prinsipi) bilan aniqlanadi. Konstitutsiyaviy huquq fanida tabaqaviy, milliy (xalq), korporativ, konfessional, mintaqaviy va etnik vakillik farqlanadi.

**VETO** – lotinchadan veto –1) man etaman so‘zidan olingan bo‘lib, keng ma’noda vakolatli shaxs yoki organ tomonidan u yoki bu qarorga nisbatan yozma va og‘zaki shaklda qo‘yiladigan ta’qiq hisoblanadi. 2) bir organ tomonidan boshqasining qaroriga mutloq yoki shartli-cheklangan ta’qiqning qo‘yilishi.

**VETO** (*lot. Veto - taqiqlayman*) — hozirgi zamon davlatlarida qandaydir bir organning qarorini to‘xtatib qo‘yadigan yoki kuchga kirishga yo‘l qo‘ymaydigan harakat. Davlat boshlig‘iga parlament qabul qilgan qonunlarga Veto qo‘yish (qarorlarni taqiqlash) huquqining berilishi alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Vetoning **mutloq** (yoki **rezolotiv**), bunda davlat boshlig‘i parlament qabul qilgan qonunni uzil-kesil qaytarish huquqiga ega bo‘ladi va **nisbatan** (**kechiktiradigan** yoki **suspensiv**) turlari farqlanadi, bunda davlat boshlig‘ining qonunni tasdiqlashni rad etishi uning kuchga kirishini to‘xtatadi xolos, chunki parlamentga bu qonunni ikkinchi marta ovoz berish bilan qabul qilish huquqini beradi. Bunda qonun loyihasini ikkinchi (yakuniy) ovoz berish bilan qabul qilishda qator parlamentlarda ovozlarning alohida ko‘pchiligi (masalan, AQSH va RFda har bir palataning 2/3 ovozi) talab qilinadi. SHuningdek, umumiy va qisman (tanlov) Vetolari ham bor. Umumiy Veto faqat hujjatning hammasini butunlayicha rad etilishini, ikkinchisi esa biror hujjatning alohida qismi yoki moddasi rad etilganligini anglatadi.

**DAVLAT –** huquq nazariyasida jamiyatni tashkil etishning muayyan usuli, siyosiy tizimning asosiy elementi, butun jamiyatga nisbatan amal qiladigan, uning rasmiy vakili hisoblanadigan, zarur hollarda majburlov choralari va vositalariga tayanadigan xalq siyosiy hokimyati tashkiloti. Davlat, jamiyatni boshqaruvchi tizim sifatida, o‘zining tuzilmasiga hamda o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlarga, chunonchi: davlat mexanizmi, uning apparatiga ega bo‘ladi.

**D.** – 1. Konstitutsiyaviy huquq nazariyasida – jamiyatni tashkil etishning ma’lum usuli, siyosiy tizimning asosiy elementi, butun jamiyatga taalluqli bo‘lgan, uning rasmiy vakili bo‘ladigan va zarur hollarda majburlash vosita hamda choralariga tayanadigan ommaviy siyosiy

hokimiyatni tashkil etish. Jamiyatni boshqaruvchi tizim sifatida ichki tuzilmaga, o‘z vakolatlarini amalga oshirish uchun maxsus organlar — Davlat mexanizmi, uning apparatiga ega bo‘ladi. Davlat faoliyatining asosiy yo‘nalishlari: uning asosiy vazifalari o‘zaro bog‘langan va biri-biridan kelib chiqadigan ichki (jamiyat doirasidagi faoliyat) va tashqi (davlatlararo munosabat)ga bo‘linadi; 2. Konstitutsiyaviy huquq fani va amalyotida “mamlakat”, “xalqaro huquqning asosiy sub’ekti” tushunchalarining sinonimi sifatida ishlatiladi. 3. Konstitutsiyaviy huquqda mamlakat ko‘lamida yoki federatsiya sub’ektida ishlab turgan rasmiy davlat organlari (hukumat, parlament, sudlar va boshqalar)ning majmui yoki bu organlar (prefektlar, komissarlar va boshqalar)ning mahalliy agent (vakil)lari bilan hududiy hokimiyat qonun chiqaruvchilik muxtoriyatidan foydalanuvchilar (masalan, Italiyadagi viloyat) nazarda tutiladigan tushuncha.

**D.** (fuqarolik huquqida) – FKning 2-moddasiga muvofiq, davlat fuqarolik qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan munosabatlarning ishtirokchilaridan biridir. Fuqarolik huquqining sub’ektlari hisoblangan – fuqarolar, yuridik shaxslar va davlat fuqarolik huquqida bir-biri bilan teng huquqli ishtirokchi sifatida ko‘riladi va biridan ikkinchisi ustun hisoblanmaydi. Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlarning sub’ekti sifatida boshqa sub’ektlar bilan o‘zaro huquqiy aloqalarga kirishar ekan, bunda u o‘ziga tegishli bo‘lgan imtiyozlar: hokimiyat vakolati, hukmronlik va boshqarish faoliyati, ustunlik maqomidan voz kechadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlat suverenitet sohibi sifatida yagona va bo‘linmas sub’ekt hisoblanadi. Davlat suverenitet sohibi sifatida har qanday huquqiy munosabatda bo‘lgani kabi fuqarolik-huquqiy munosabatda ham o‘ziga xos manfaatlar asosida ishtirok etadi. Birinchi navbatda davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qiladi. Davlat oliy hokimiyat, suverenitet sohibi bo‘lganligi tufayli fuqarolik-huquqiy munosabat sub’ekti sifatida quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega: davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlar sub’ekti sifatida fuqarolik huquqi sub’ektlari amal qiladigan qonunlarni o‘zi belgilaydi; davlat immunitetdan foydalanadi; huquq va muomala layoqatini cheklash bo‘yicha boshqa sub’ektlarga taalluqli bo‘lgan qoidalar davlatga tatbiq etilmaydi. Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi “alohida shaxs” maqomi garchi yuridik shaxsga o‘xshasa-da, ammo u bilan bir xilda emas. Zero, davlat ipso jure – yuridik shaxs emas. (1)

**DAVLAT BOSHQARUVI –**.davlat organlarini tashkillashtiruvchi, ijro etuvchi va farmoyish beruvchi faoliyati bo‘lib, qonun asosida amalga oshiriladi. Bu faoliyatni davlat boshqaruv organlari amalga oshirib, ijro etish jarayonida qonunlarning va unga asoslangan hujjatlarning bajarilishini ta’minlash uchun farmoyish berish huquqiga ega bo‘ladi.Davlat boshqaruvi xalq deputatlari kengashining rahbarligi va nazorati ostida tashkil etiladi. Bu faoliyat ijtimoiy turmushning barcha tarmoqlari - xalq xo‘jaligi, ijtimoiy-madaniy, ma’muriy-siyosiy sohalarda va sohalararo tashkil etiladi hamda hamma vaht qonunga asoslangan bo‘ladi.

**DAVLAT BOSHQARUVI USULLARI –** davlat tomonidan boshqaruv sohasidagi vazifalar qanday hal hilinishi tushuniladi. Ular boshqaruv faoliyatini sifat tomonini belgilab beradi. SHuning uchun ham boshqaruv sifatini yaxshilash, uning samaradorligini oshirish ko‘p jihatdan boshqaruv usullarini takomillashtirishga bog‘liqdir. Davlat o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishish yo‘lida hamda vazifa va funksiyalarni bajarish uchun turli xil usulllardan foydalanadi. Keng tarqalgani ma’muriy usullari bo‘lib, ular ishontirish va majburlash usullaridir.

**DAVLAT BOSHLIG‘I** – inglizcha “head of the state” -oliy davlat lavozimi bo‘lib, u ijro hokimiyati soxibi va tashqi munosabatlar sohasida davlatning oliy vakili hisoblanadigan shaxs. Monarxiyalarda —Buyuk Britaniya, Daniya, SHvetsiya,Ispaniya, YAponiyada – d.b. monarx

(korol, imperator, emir) bo‘lib,uning hokimiyati qoidaga ko‘ra hukmron shajara vakilidan keyingisiga qonunga binoan meros tariqasida o‘tkaziladi. Respublikalarda (Italiya, Fransiya, GFR, AQSH, Lotin Amerikasi davlatlari va b.) d.b. prezident bo‘lib, u yoki bevosita aholi tomonidan saylanadi (Meksika, panama, Kolumbiya), yoki yoki bilvosita (AQSH, Argentina), yoxud ko‘p bosqichli saylovlar(Italiya, GFR, Hindiston) natijasida saylanadi. Ko‘pchilik davlatlarda individual davlat rahbari mavjud, prezidentlik respublikalarida davlat rahbari ayni paytda hukumat rahbari ham hisoblanadi.(AQSH, Meksika, Argentina. Afrikaning ayrim davlatlarida).

**D.B.** — davlatning oliy vakili hisoblanadigan ega bo‘lgan oliy mansabdor shaxs (kamdan-kam hollarda kollegial organ). Parlament monarxiyalar (Buyuk Britaniya, SHvetsiya, Ispaniya, YAponiya va boshqalar)da monarx (qirol, imperator) Davlat boshlig‘i hisoblanadi, uning hukmronligi, qoidaga ko‘ra qonunda belgilangan tartibda hukmronlik qiluvchi xonadonning bir vakilidan ikkinchisiga meros tariqasida o‘tadi. Boshqaruvning respublika shaklidagi mamlakatlarda Davlat boshlig‘i **prezident** hisoblanib, u bevosita aholi tomonidan (RF, Meksika) yoki bilvosita tartibda (AQSH, Argentina) yoki ko‘p bosqichli (Italiya, GFR, Hindiston) saylovlarda saylanadi. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yakka tartibdagi Davlat boshlig‘i mavjud, **prezidentlik respublikalarida** (AQSH, Meksika) prezident ayni bir vaqtda ijro etuvchi hokimiyatning boshlig‘i hisoblanadi. Rasman deyarli barcha konstitutsiyalar Davlat boshlig‘iga juda katta barcha vakolatlarini hukumat uning nomidan amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89- moddasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti O‘zbekiston Respublikasida davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i ekanliga mustahkamlangan.

**D.B.** - davlatning oliy vakili odatda ijro etuvchi xokimiyat boshlig‘i.

**DAVLAT IMMUNITETI** – xalqaro huquqning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, davlat va uning organlarini chet el davlatining yurisdiksiyasiga bo‘ysunmasligini anglatadi. Davlat immuniteti xalqaro huquqdagi “par in parem non habet imperium” (teng tenglar ustidan hukmronlik qilmaydi) tamoyilining amaliy ifodasi hisoblanadi. Davlat immunitetini ikkita: mutlaq va cheklangan turlari mavjud. O‘zbekiston Respublikasida davlat immunitetining mutlaq turi qo‘llaniladi. CHet el davlatini yurisdiksiyasidan bo‘lgan mutlaq immunitet mazmunini quyidagilar tashkil etadi: 1) sud immuniteti – chet el davlati sudlarida suverenitet egasi hisoblanuvchi davlatning roziligisiz unga nisbatan berilgan da’volar qabul qilinmaydi; 2) oldindan da’voni ta’minlashdan daxlsizlik – da’voni ta’minlash maqsadida u yoki bu davlatning mulkiga nisbatan boshqa biron bir davlat majburiy chora ko‘ra olmaydi; 3) sud qarorini majburiy ijro etishdan daxlsizlik – davlatning roziligisiz uning mulkiga nisbatan majburan qo‘llanuvchi choralar ko‘rilishi mumkin emas.(180

**DAVLAT IMMUNITETI (fuqarolik huquqida)** Davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ushbu munosabatdagi boshqa shaxslar (fuqarolar, yuridik shaxslar) bilan ishtiroki teng ravishda ko‘riladi. Bu esa, o‘z navbatida fuqarolik huquqidagi barcha sub’ektlarga nisbatan shaxs atamasini qo‘llash imkonini beradi. Ma’lumki, shaxs deganda, sub’ektiv huquqlarga va yuridik majburiyatlarga ega jismoniy shaxslar va yuridik shaxslar tushuniladi. Ushbu qoidadan kelib chiqib, fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtiroki mobaynida davlat ham sub’ektiv (garchi davlat ob’ektiv huquqlar ijodkori hisoblansa-da, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda barcha sub’ektlar kabi sub’ektiv huquq sohibidir) huquqlar va yuridik majburiyatlar egasi, deyish mumkin. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatning sub’ektivlik maqomi “shaxs” atamasi bilan nomlanishi bevosita fuqarolik huquqining barcha sub’ektlari

uchun xos bo‘lgan umumiylikdan kelib chiqishini hisobga olgan holda davlatni fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi “alohida shaxs” deb nomlash zarur bo‘ladi. Qolaversa, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatga nisbatan “alohida shaxs” atamasining qo‘llanilishi davlatning hokimiyat vakolatlari, suverenitet sohibi ekanligi va boshqa qator o‘ziga xos xususiyatlardan kelib chiqadi. Bunday alohidalik davlatning immunitetdan foydalanishida yaqqol namoyon bo‘ladi. E’tirof etilgan qoidaga ko‘ra, immunitet tamoyili “har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyasidan immunitet huquqiga ega” ekanligini anglatadi. Immunitet – yurisdiksiyani istisno qilish yoki undan ozod etishdir. Bu esa, o‘z o‘rnida yurisdiksiyaga bo‘ysunmaslik bilan barobar. SHubhasiz, har bir davlat boshqa bir davlat yurisdiksiyasiga bo‘ysunmaydi. “YUrisdiksiya” tushunchasi xalqaro huquqda (shuningdek, milliy huquqda ham) turli ma’nolarda qo‘llaniladi. Biroq davlat immuniteti tamoyiliga nisbatan u o‘zining keng ma’nosida, ya’ni davlatning o‘z hokimiyat vakolatlarini amalga oshirishi tarzida ishlatiladi. Boshqacha aytganda, davlat immuniteti tamoyili bir davlatning ikkinchi bir davlatga bo‘ysunmasligini anglatadi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi davlat immuniteti bu davlatning o‘z vakolatlarini o‘zi qabul qilgan qonun hujjatlari asosida amalga oshirishi, bunda fuqarolik-huquqiy munosabatdagi davlatning huquq va majburiyatlari faqatgina shu davlatning qonunchiligiga muvofiq belgilanishidir. Davlat immunitet sohibi sifatida fuqarolik-huquqiy munosabatlarning qaysi turida ishtirok etishini ham faqat o‘zi belgilaydi. Masalan, FKning 457-moddasida davlat o‘z ehtiyojlari uchun tovarlar etkazib berish shartnomasida taraf sifatida ishtirok etishi belgilangan. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda immunitet davlatga nisbatan shunday holatni yuzaga keltiradiki, fuqarolik-huquqiy munosabatlarda ishtirok etib, o‘z majburiyatlarini bajarmagan davlat faqat o‘z milliy qonunchiligi asosida javobgarlikka tortiladi. Fuqarolik-huquqiy munosabatlarda davlatga nisbatan vakolatlarni amalga oshirmaslik va hokimiyat vakolatlaridan foydalanmaslik talabi belgilangan bo‘lsa-da, davlatning bu belgilari u bilan chambarchas bog‘liqligi sababli fuqarolik-huquqiy munosabatlarga ham ta’sir etadi. Aynan shu holatlar “immunitet” atamasining mohiyatini tashkil etadi. (5)

**DAVLAT TUZILISHI SHAKLI** - konstitutsiyaviy huquq fanida davlatning ichki tuzilishi, uning tarkibiy qismlarga – ma’muriy-hududiy birliklarga, muxtor siyosiy tuzilmalar yoki suveren davlatlarga bo‘linishi. U, shuningdek, umuman davlatning hamda uning alohida qismlarining o‘zaro nisbati xususiyatini ham aks ettiradi. Davlat tuzilishi shaklining ikki asosiy turi mavjud. Ularning eng oddiysi – *unitar davlat.* Bu — faqat ma’muriy-hududiy qismlarga bo‘linadigan yagona davlat tuzilmasi. Unitar davlatda butun mamlakat uchun umumiy bo‘lgan davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlari, yagona sud tizimi faoliyat ko‘rsatadi, yagona konstitutsiya amal qiladi. Masalan, Angliya, Fransiya, Italiya, Vengriya, CHexiya, O‘zbekiston unitar davlatlardir. *Federatsiya* davlat tuzilishining ancha murakkab shakli hisoblanadi. Federativ davlat bir qancha boshqa davlatlardan yoki federatsiya a’zosi (sub’ektlari) bo‘lgan davlat tuzilmalari (shtatlar, kantonlar, ittifoqdosh yoki avtonom respublikalar va b.)dan tarkib topadi. Ularning har biri o‘z ma’muriy-hududiy bo‘linishiga ega. Butun federatsiya uchun umumiy davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan bir qatorda, har bir federatsiya sub’ektining hududida o‘z davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy va mahalliy organlari faoliyat ko‘rsatadi. Federatsiya a’zolari (sub’ektlari) o‘z sud va boshqa organlariga ham ega bo‘ladi, o‘z konstitutsiyasi va qonunlarini qabul qiladi. *Konfederatsiya* nisbatan kam tarqalgan davlat tuzilishi shaklidir. Konfederatsiya davlatlar birlashmasi yoki ittifoqi bo‘lib, uni tashkil etuvchi davlatlar o‘z mustaqilligini to‘la saqlab qoladi, o‘z hokimiyat, boshqaruv va adliya organlariga ega bo‘ladi, O‘z faoliyatini muvofiqlashtirish uchun konfederatsiyaga a’zo davlatlar qo‘shma organlar tuzadi. Mazkur organlar qat’iy belgilangan sohalarda faoliyat ko‘rsatadi va qat’iy

belgilangan (iqtisodiy, siyosiy, harbiy va b.) maqsadlarni ko‘zlaydi. Konfederatsiyaga ba’zan davlatlarning federatsiyaga birlashish sari tutgan yo‘lidagi oraliq bo‘g‘in deb ham qaraladi. Hozirgi vaqtda rasmiy – yuridik jihatdan SHveysariya konfederatsiya hisoblanadi. Lekin amalda u federatsiyadir. Konfederatsiya alomatlari *Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi* (MDH) da ham mavjud, lekin MDH konfederatsiya emas.(3)

**DAVLAT TUZUMI -** konstitutsiyaviy huquq (davlat huquqi) normalari bilan belgilanadigan va mustahkamlab qo‘yiladigan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy-huquqiy munosabatlar tizimi. Davlat tuzumi konstitutsiyaviy tuzumdan farq qilishi mumkin, basharti jamiyatga davlatning ta’siri Konstitutsiyaga va huquqning boshqa qonuniy manbalariga zid bo‘lgan nohuquqiy shakda namoyon bo‘lsa.

**D.T.** – qator xorijiy davlatlar va RF tarkibidagi respublikalarda normalarni birlashtiradigan, davlat hokimiyati organlari tizimini, ularning vakolati, o‘zaro munosabati, shakllanish tartibini (Mo‘g‘uliston) ko‘pincha esa ma’muriy-hududiy tuzilishning ham (Boshqirdiston) kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy institutning nomi. Qirg‘iziston va Tivada Davlat tuzumi faqat davlat hokimiyatini amalga oshirish norma-prinsiplarini o‘z ichiga oladi. Qoidaga ko‘ra muvofiq keluvchi normalar konstitutsiyalarning shu nomdagi bo‘limlarida berilgan. Braziliyada shunday institut «davlatni tashkil etish», O‘zbekistonda «davlat hokimiyatini tashkil etish» deb yuritiladi.

**DAVLAT FUNKSIYALARI** - bu davlatning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgan davlat faoliyatining asosiy (bosh) yo‘nalishlaridir. Davlat funksiyalari davlat maqsadi va vazifalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Davlat o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishishi uchun ma’lum bir vazifalarni hal qilishi lozim, bu esa o‘z navbatida tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqazo etadi. Vazifa bu echilishi talab qilinadigan masala bo‘lsa, funksiya – ushbu masalani echimiga yo‘naltirilgan faoliyat turidir. Vazifa, bir tomondan, ma’lum xususiyatga ega bo‘lmagan biror-bir maqsadga erishish zaruratini, ikkinchi tomondan esa ma’lum faoliyat turini amalga oshirish zaruratini o‘z ichiga oladi. Davlatning funksiyalari uning vazifalariga bog‘liq bo‘ladi, chunki vazifalar funksiyalarning mavjudligini va ularning mazmunini belgilaydi, ularni amalga oshirish shakl va usullariga ta’sir ko‘rsatadi. Funksiyalar mazmuni, davlatning qanday faoliyat olib borayotganligini, shu muhitda boshqaruv harakatlarini qay yo‘sinda yuritayotganligini, uning tegishli organlari nima bilan shug‘ullanayotganligini ko‘rsatadi. Davlat faoliyatining ayrim bosqichlaridagi funksiya va vazifalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik muammosi ham ichki, ham tashqi funksiyalarga tadbiqan hal qilinadi, zero ular yuzaga kelishining tarixiy sabablari tegishli ravishda davlat rivojlanishining ichki ob’ektiv qonunlari va tashqi shart-sharoitlarga bog‘liq bo‘ladi. Bir xil rivojlanish bosqichida turgan har xil davlatlar bir xil mazmunli funksiyalarga ega bo‘lsalar-da, ularning mohiyati, shakllari va ayniqsa, funksiyalarini amalga oshirish usullarida farqlar bo‘lishi mumkin. Davlat funksiyalari quyidagicha tasniflanadi: faoliyat doirasiga ko‘ra (ichki va tashqi); faoliyat muddatiga ko‘ra (doimiy va vaqtinchalik); ijtimoiy ahamiyatiga ko‘ra (asosiy va asosiy bo‘lmagan); amalga oshirishning huquqiy shakllariga ko‘ra (huquqni ijod qilish, huquqni ijro qilish va huquqni muhofaza qilish (sud). (1)

**DAVLAT SHAKLI** – davlat va huquq nazariyasi sohasida davlatning oliy organlarini tashkil etish usuli, davlat hokimiyatining hududiy tuzilishi va bu hokimiyatni amalga oshirish usullari. Davlat shakli uch tarkibiy qism: boshqaruv shakli, davlat tuzilishi shakli va siyosiy tuzumdan iborat. Davlat shakli davlat mohiyati va mazmunining bevosita ifodachisi va tarqatuvchisidir. Davlatning mohiyati va mazmuni (vazifalari) qanday bo‘lsa, uning shakli ham, pirovard natijada, shunday bo‘ladi. Davlatning mohiyati u qaysi tabaqalar, ijtimoiy guruhlar sinflarning xohish-irodasi va manfaatlarini himoya qilishida namoyon bo‘ladi. Davlatni mazmun

nuqtai-nazaridan ko‘rib chiqish u qaysi yo‘nalishlarda va qanday faoliyat ko‘rsatishini aniqlashni anglatadi. Davlatni shakl nuqtai nazaridan o‘rganish, avvalambor, uning tuzilishini, asosiy tarkibiy qismlarini, ichki tuzilmasini, davlat hokimiyatini o‘rnatish va uni amalga oshirishning asosiy usullarini o‘rganish demakdir. Davlat shakli, uning mohiyati va mazmuni singari, hech qachon turg‘un bo‘lib qolmagan, balki ko‘plab iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy va boshqa omillar ta’sirida hamisha o‘zgarib, rivojlanib borgan. Ular haqidagi tasavvur ham muttasil o‘zgarib turgan. Buni davlat shaklining rivojlanishi tarixi mobaynida mazkur masala yuzasidan bildirilgan o‘nlab, yuzlab turli-tuman fikrlar, qarashlar (masalan, Platon, Aristotel, S.Alekseev, G.Nersesyans, S.A.Rajabov, SH.Z.O‘razaev, M.Fayziev, A.Saidov, H.Odilqoriev, Z.M.Islomov qarashlari) ham tasdiqlaydi.(1)

**DEPUTAT** (*lot. deputatus - vakil*) — qonunchilik yoki davlatning boshqa vakillik organiga yoki mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organiga saylangan shaxs, aholini ma’lum qismi – o‘z saylov organi (sotsialistik deb atalmish mamlakatlarda) saylovchilarning yoki butun millatning (demokratiya davlatlarida) vakili. Deputat muvofiq keluvchi vakillik organida professonal asosda (ko‘pchilik demokratiya davlatlarida) yoki noprofessional asosda, ya’ni asosiy faoliyatini to‘xtatmay (sotsialistik deb atalmish mamlakatlarda) ishlaydi. “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputatining va senati a’zosining maqomi to‘g‘risida”gi qonunning 1-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga (bundan buyon matnda Qonunchilik palatasi deb yuritiladi) saylangan va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi deputat hisoblanadi.

**DISKRETSION HOKIMIYAT** (*fr. Discretionnairedan – shaxsiy ixtiyorga bog‘liq*) — organ yoki mansabdor shaxsga qonun doirasida o‘z ixtiyoricha faoliyat ko‘rsatish vakolatini berish. Masalan, parlamentar respublika davlat boshlig‘i odatiy shart-sharoitlarda bosh vazir yoki tegishli vazir imzosisiz (***kontrasignatura***) normativ hujjatlar chiqarish huquqiga ega emas, favqulodda holatlarda esa u bunday hujjatlarni diskrepsion, kontrasignaturasiz chiqarishi mumkin. Diskretsion hokimiyatdan ayniqsa ma’muriy organlar va sudlar tez-tez foydalanib turadi, bu amaliyotda shaxsning daxlsizligi, sudda aybi aniqlanmaguncha aybdor hisoblanmaslik kabi demokratiya prinsiplarini inkor qilishni anglatadi, belgilangan tartibning buzilishiga olib keladi va boshqalar.

**JAMOAT BIRLASHMASI -** O‘z xuquqlari, erkinliklarini xamda siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy rivojlanish, fan, madaniyat, ekologiya va xayotning boshqa soxalaridagi qonuniy manfaatlarini birgalikda ro‘yobga chiqarish uchun birlashgan fuqarolarning xoxish-irodalarini erkin bildirishlari natijasida vujudga kelgan ixtiyoriy tuzilma jamoat birlashmasidir. Siyosiy partiyalar, ommaviy xarakatlar, kasaba uyushmalari, xotin-qizlar, yoshlar va bolalar tashkilotlari, faxriylar va nogironlar tashkilotlari, ilmiy-texnikaviy, madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya-sport va boshqa ko‘ngilli jamiyatlar, ijodiy uyushmalar, yurtdoshlar uyushmalari, assotsiatsiyalar va fuqarolarning boshqa birlashmalari jamoat birlashmalari deb e’tirof etiladi. Jamoat birlashmalari fuqarolik, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy, xuquqlar xamda erkinliklarni ro‘yobga chiqarish va ximoya qilish; fuqarolarning faolligi va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda ularning ishtiroq etishini rivojlantirish; kasb-kor va xavaskorlik qiziqishlarini kondirish; ilmiy, texnikaviy va badiiy ijodkorlikni rivojlantirish; axolining sixat-salomatligini saqlash, xayriya faoliyatida qatnashish; madaniy-ma’rifiy, jismoniy tarbiya-sog‘lomlashtirish va sport ishlarini o‘tkazish; tabiatni, tarix va madaniyat yodgorliklarini muhofaza qilish; vatanparvarlik va insonparvarlik

tarbiyasi; respublikalararo va xalqaro aloqalarni kengaytirish, xalqlar o‘rtasida tinchlik va do‘stlikni mustaxkamlash; qonunda taqiqlanmagan boshqa faoliyatni amalga oshirish maqsadida tuziladi. Faoliyati jamiyatning axloqiy negizlarini, umumbashariy insonparvarlik qadriyatlarini buzishga qaratilgan, shuningdek konstitutsion tuzumni g‘ayriqonuniy yo‘l bilan o‘zgartirish yoki O‘zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog‘iston hududining birligini buzish, urushni, zo‘ravonlikni va shafqatsilikni, jamiyatni parchalashga olib boradigan ijtimoiy, shu jumladan sinfiy shuningdek irqiy, milliy va diniy adovatni avj oldirish, qonun bilan taqiqlangan boshqa xatti-xarakatlar qilish maqsadini ko‘zlaydigan jamoat birlashmalarining tuzilishiga yo‘l qo‘yilmaydi. Harbiylashtirilgan jamoat birlashmalari va qurolli tuzilmalar, shuningdek diniy xarakterga ega partiyalar, ularning filiallari va boshqa struktura bo‘laklari tashkil etish taqiqlanadi. Jamoat birlashmalari o‘z a’zolari (qatnashchilari) ning ixtiyoriyligi, teng xuquqliligi, o‘zini o‘zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va xarakat qiladi. Barcha jamoat birlashmalari o‘z ustavlarida, boshqa hujjatlarida ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarishda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Republikasining boshqa qonunlari doirasida ish ko‘radilar. Fuqaroning jamoat birlashmasi faoliyatida qatnashishi yoki qatnashmasligi uning xuquqlari va erkinliklarini cheklash yoki unga imtiyozlar berish uchun, shu jumladan davlat tashkilotida lavozimni egallash sharti yoki Qonunda ko‘zda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik uchun asos bo‘la olmaydi.

**JAMOAT FONDLARI -** YUridik va (yoki) jismoniy shaxslar tomonidan ixtiyoriy mulkiy badallar qo‘shish asosida tashkil etilgan, xayriya, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy yoki boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarni ko‘zlaydigan, a’zoligi bo‘lmagan nodavlat notijorat tashkiloti jamoat fondi deb e’tirof etiladi. O‘zbekiston Respublikasida respublika fondlari hamda mahalliy fondlar tashkil etiladi va faoliyat ko‘rsatadi. Faoliyatini o‘z ustaviga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hududida yoki ikki yohud undan ortiq viloyat (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri) hududida amalga oshiradigan fondlar respublika fondlari jumlasiga kiradi. Faoliyatini o‘z ustaviga muvofiq tuman(lar), shahar(lar), viloyat yoki Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida amalga oshiradigan fondlar mahalliy fondlar jumlasiga kiradi. Fond O‘zbekiston Respublikasi hududida va boshqa davlatlarda vakolatxonalar ochishi hamda filiallar tashkil etishi mumkin. Fondning vakolatxonasi fondning o‘zi turgan erdan tashqarida joylashgan hamda uning manfaatlarini ifodalaydigan va himoya qiladigan alohida bo‘linmasidir. Fondning filiali fondning u turgan erdan tashqarida joylashgan hamda uning barcha vazifalarini yoki vazifalarining bir qismini, shu jumladan vakolatxona vazifalarini bajaradigan alohida bo‘linmasidir. Fondning vakolatxonalari va filiallari fond nomidan ish ko‘radi hamda ustavda belgilangan maqsad va vazifalarning amalga oshirilishi uchun fond oldida mas’uldir. O‘zbekiston Respublikasida fondlarning faoliyat erkinligi, mulki dahlsizligi hamda ishchanlik nufuzi himoyasi kafolatlanadi. Fondlarning mol-mulki natsionalizatsiya, rekvizatsiya qilinmaydi va musodara etilmaydi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**IJRO HOKIMIYATI** – hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasiga muvofiq davlat hokimiyatining mustaqil ommaviy bir tarmog‘idir. **I.x.** davlatni boshqarish yuzasidan vakolatlar majmuidan iborat bo‘lib, u o‘z ichiga qonun osti tartibga solishni amalga oshirish yuzasidan vakolatlarni, tashqi –siyosiy vakillik vakolatini, turli ma’muriy nazoart funksiyalarini amalga oshirish yuzasidan vakolatlarni, hamda yuqorida qayd etilgan vakolatlarni amalga oshiruvchi

davlat organlari tizimini oladi. Hozirgi zamon davlatlari Konstitutsiyalarida rasman **i.h.** davlat rahbariga yoki hukumatga tegishli ekanligi mustahkamlanadi. Aslida esa, amalda **i.h.** to‘laligicha hukumatga, dualistik monarxiyalarda – monarx va hukumatga, aralash respublikalarda esa **i.h.**ni amalga oshirish, qoidaga ko‘ra, Prezidentning bevosita rahbarligi v nazorati ostida kechadi. Mintaqalar va mahalliy joylarda **i.h.** hokimlar va uning apparati tomonidan amalga oshiriladi.

Ijro etuvchi hokimiyat — ***hokimiyatlarni taqsimlash nazariyasi***ga ko‘ra davlatning (qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati bilan birga) mustaqil va qaram bo‘lmagan ommaviy hokimiyatlaridan biri. U davlat ishlarini boshqarish bo‘yicha vakolatlar majmuini o‘zida mujassamlashtiradi, bunga qonun bilan tartibga solish vakolati (ma’muriy norma ijodchiligi), tashqi siyosiy vakillikni amalga oshirish vakolati, har xil turdagi ma’muriy nazoratni amalga oshirish vakolati, shuningdek, ba’zan qonunchilik vakolati (berilgan yoki favqulodda qonun chiqarish tartibida), shuningdek, yuqorida aytilgan vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi kiritiladi. Zamonaviy konstitutsiyalar ijro etuvchi hokimiyat vakolatini rasman davlat boshlig‘iga (parlamentar monarxiya va respublikalar) yoki hukumatga (aralash turdagi respublikalarda) beradi. Ammo aslida parlamentar monarxiyalar va respublikalarda barcha ijro etuvchi hokimiyat butunlayicha hukumatga tegishli bo‘ladi, dualist monarxiyalarda esa — monarx bilan birga hukumatga, aralash turdagi respublikalarda esa ijro etuvchi hokimiyatni hukumat bevosita davlat boshlig‘i (prezident) rahbarligi va nazorati ostida amalga oshiradi. Ijro etuvchi hokimiyat mintaqaviy va mahalliy darajalarda mahalliy boshqaruv va mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning turli organlari (gubernatorlar, merlar, prefektlar, oqsoqollar va ular tasarrufidagi apparat) tomonidan amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi ijro hokimiyatini amalga oshiradi.

ijroiya hokimiyati — hokimiyatlarning bo‘linishi nazariyasiga ko‘ra, davlatdagi mustaqil ommaviy hokimiyatlardan (qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari bilan bir qatorda) biridir. Davlat ishlarini boshqarish bo‘yicha vakolatlarning qonun asosida tartibga solinishi (ma’muriy normalar ijodkorligi) bo‘yicha vakolatlarni, tashqi siyosiy vakolatxonalar vakolatlarini, turli xildagi ma’muriy nazorat qilishni amalga oshirish bo‘yicha vakolatlarni, shuningdek, ba’zida qonun chiqarish vakolatlarini (vakolat berish asosida yoki favqulodda qonun chiqarish tartibida), shuningdek, yuqorida ko‘rsatilgan vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimining yig‘indisini tashkil qiladi. Hozirgi zamon konstitutsiyalari I. h. vakolatlarini davlat boshliqlariga (parlamentar monarxiyalar va respublikalarda, prezidentlik respublikalarida) yoki hukumatga (aralash tipdagi respublikalarda) beradi. Biroq, parlamentar monarxiyalar va respublikalar ishida butun I. h. hukumatga, dualistik monarxiyalarda — monarx va hukumatga tegishlidir, aralash tipdagi respublikalarda hukumat tomonidan I. h.ni amalga oshirish qoida tariqasida davlat boshlig‘i (prezident)ning bevosita rahbarligi yoki nazorati ostida yuz beradi. Mintaqaviy va mahalliy darajada I. h. mahalliy boshqaruv va mahalliy o‘z-o‘zini boshqaruvning turli organlari (gubernatorlar, merlar, prefektlar, oqsoqollar va ularga bo‘ysunuvchi apparat) tomonidan amalga oshiriladi. O‘zRda I. h.ning rahbari — Prezident, shuningdek, I.h o. organi bo‘lib Vazirlar Mahkamasi va viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) hokimliklari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida esa Vazirlar Kengashi va tuman (shahar) hokimliklari hisoblanadi. Ijro hokimiyati organlari tizimiga bundan tashqari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va ularning tuzilmalari, respublika miqyosidagi korxona, muassasa, tashkilot, konsern, korporatsiya, assotsiatsiya, kompaniya va boshqa birlashmalar ham kiradi.

**IJRO HOKIMIYATI BOSHLIG‘I** –mamlakat miqyosida davlat boshqaruvi organlarining yuqori turuvchi rahbari hisoblanadi. Monarxiyaning barcha ko‘rinishlarida davlat boshlig‘i rasman monarx hisoblanadi. Parlamentar respublikalarda aslida amalda ijro hokimiyatining rahbari sifatida hukumat faoliyat olib boradi., prezidentlik respublialarida – prezident, parlamentar respublikalarda rasman Prezident, amalda esa hukumat rahbari,(mas., GFR da kansler) yarim prezidentlik respublikalarida – prezident, ba’zan esa rasman hukumat boshlig‘i. O‘zRda **i.h.b.** O‘zbekiston Prezidenti.

Ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i — umummilliy yoki mintaqaviy darajadagi davlat boshqaruv organlari yoki mahalliy boshqaruv organlarining yuqori lavozimdor rahbari. Umummilliy darajada ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i monarxiyaning barcha turlarida monarx (parlamentar monarxiyalarda haqiqatda hukumat boshlig‘i), prezidentlik respublikalarida — prezident, parlamentar respublikalarda — rasman prezident, aslida esa hukumat boshlig‘i, yarimprezidentlik respublikalarida — prezident (ba’zan raman – hukumat boshlig‘i) hisoblanadi. O‘zbekistonda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ijro hokimiyati rahbari hisoblnadi.

**IJTIMOIY DAVLAT** - davlatning konstitutsiyaviy - huquqiy maqomiga tegishli tavsif (prinsip); inson va fuqaroning iqtisodiy va ijtimoiy huquq va erkinliklari hamda davlatning tegishli majburiyatlari konstitutsiyaviy yo‘l bilan kafolatlanadi. Ushbu xususiyat davlat jamiyatga xizmat qilishini va asossiz ijtimoiy tafovutlarga barham berish yoki ularni mumkin qadar kamaytirishga harakat qilishini nazarda tutadi. Davlatning ijtimoiy xususiyati birinchi marta 1949 y. GFRning Asosiy qonunida e’lon qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14 -moddasida, «Davlat o‘z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko‘zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshiradi» deb belgilab qo‘yilgan. Ushbu umumiy qoidadan O‘zbekiston davlatining quyidagi konstitutsiyaviy burchlari kelib chiqadi: mehnat va odamlar sog‘lig‘ini muxofaza qilish, mehnatta haq to‘lashning kafolatlangan eng kam miqdorini belgilash, oila, onalik, otalik va bolalik, nogironlar va qariyalar davlat tomonidan qo‘llab - quvvatlanishini ta’minlash, ijtimoiy xizmatlar tizimini rivojlantirish, davlat pensiyalari, nafaqalar va ijtimoiy himoya qilishning boshqa kafolatlarini belgilash.

**IKKI PALATALI TIZIM** (**bikameralizm**) — umummilliy vakillik muassasalari – parlamentlar tuzilmasi, bunda parlament qoidaga ko‘ra turlicha shakllantiriladigan va turli vakolatlarga ega bo‘lgan ikki palatadan iborat bo‘ladi. Tarixan quyi palata an’anaviy tarzda ancha demokratikroq hisoblangan, shuning uchun aristokratlar manfaatini ifodalashi, quyi palata munosabatida tormoz rolini o‘ynashi lozim bo‘lgan yuqori palata unga qarshi qo‘yilgan. Hozirgi kunda ikki palatali tizim ham federativ, ham unitar davlatlarda mavjud. Parlamentning quyi palatani doimo bevosita aholi saylagan. YUqori palata turli usullarda shakllantiriladi — bilvosita saylovlar yo‘li bilan (Fransiya, Avstriya, GFR) yoki bevosita saylovlar tartibida (AQSH, Italiya, Avstraliya, YAponiya). Ayrim mamlakatlarda yuqori palata vorislik bo‘yicha (Buyuk Britaniya) shakllantiriladi yoki ularni davlat boshlig‘i tayinlaydi (Kanada). Qator hollarda yuqori palata aralash usulda shakllantiriladi: a’zolarning qismi saylanadi, qismi tayinlanadi, qolgan o‘rinlar vorislik bo‘yicha egallanadi (Nepal). Ayrim mamlakatlarda yuqori palata uchun, quyi palatadan farq qilib, vakolat muddati belgilanmagan, ularning tarkibi qismlar bo‘yicha yangilanadi (AQSH, Argentina, Fransiya va boshqalar), bu yuqori palata uchun jiddiy tashkiliy afzallik beradi, qonunchilik hokimiyati uchun uzviylik ko‘rinishini yaratadi. Qisman yangilanadigan yuqori palatalar tarqatib yuborilmasligi kerak. YUqori palata deputatligiga nomzodlarga qoidaga ko‘ra ancha qat’iyroq talablar qo‘yiladi (yuqoriroq yosh senzi va boshqalar). Zamonaviy

parlamentlarning ko‘pchiligida yuqori palataning huquqlari quyi palata huquqlariga nisbatan cheklangan (masalan, ko‘pchilik mamlakatlarda moliyaviy qonun loyihalari faqat quyi palataga kiritilishi mumkin, yuqori palatalar ularning qabul qilinishiga hech qanday ta’sir ko‘rsata olmaydi). Palatalar teng huquqli bo‘lmagan parlamentlarda yuqori palataning quyi palata ma’qullagan moliyaviy bo‘lmagan qonun loyihalari munosabatidagi e’tirozlaridan o‘tishning ma’lum tartiblari belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2002 yil 27 yanvarda o‘tkazilgan umumxalq referendumi qarorlaridan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasining davlat hokimiyati tizimida Oliy Majlisning huquqiy maqomini yana takomillashtirish belgilandi. Referendum qarori asosida Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining sakkizinchi sessiyasida qabul qilingan “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonunga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi – ikki palatadan – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi (quyi palata)dan hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati (yuqori palata)dan iborat.

**IMPICHMENT** (*ingl. impeachment*) — qator xorijiy davlatlarda davlatning yuqori mansabdor shaxslari mas’uliyatini amalga oshirishning maxsus tartibi. Ish Impichment tartibida ko‘rib chiqilganda parlamentning quyi palatasi ayblovni shakllantiradi va tegishli mansabdor shaxsga ayb qo‘yadi. Ishni ko‘rib chiqish, aslida, parlamentning yuqori palatasida amalga oshiriladi, u o‘zini sud hay’atiga aylantiradi. YUqori palata chiqaradigan hukm deputatlarning aniqlovchi ko‘pchilik ovozi (masalan, AQSH senatida ovozlarning $^{2}/_{3}$ qismi) bilan qabul qilinadi. Jazo lavozimdan chetlatishdan nariga o‘tmasligi kerak, ammo qoidaga ko‘ra Impichment tartibida lavozimdan chetlatilgan shaxs keyinchalik odatiy sudda sud qilinishi va o‘zi sodir etgan xatti-harakatlarga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligi qayd qilib o‘tiladi. Boshqaruv respublika shaklida bo‘lgan ayrim davlatlarda Impichment asosan davlat boshlig‘i — prezident xususida u davlatga xiyonat qilgan yoki konstitutsiyaga tajovuz qilganda nazarda tutiladi. AQSHda Impichment tartibida rasman barcha fuqaro xizmatchilar sud qilinishi mumkin.

**QAYTA SAYLOV** — agar oldingi saylov amalga oshmagan (masalan, qatnashgan saylovchilar foizining kamligi tufayli) deb hisoblangan yoki bekor qilingan vaqtda o‘tkaziladigan saylovlar. Qayta saylov o‘tkazish muddati saylov qonuni yoki vakolatli saylov qarori bilan belgilanadi.Markaziy saylov komissiyasi ayrim deputatlarning vakolatlarini haqiqiy emas deb topgan taqdirda, shuningdek deputat chvqirib olingan, boshqa sabablarga ko‘ra deputatlik vakolatlari muddatidan oldin tugatilgan hollarda tegishli saylov okruglarida yangi saylov o‘tkaziladi. (3)

**KONSENSUS-**xalkaro munozaralarda kelishuv, umumiy fikr; (5)

**KONSERVATIZM** – lotin tilidan olingan bo‘lib, conservo – saqlayman, qo‘riqlayman degan ma’nolarni ifodalaydi. Konservatizm jamiyatda mavjud ijtimoiy tizim asoslarini an’anaviy-tarixiy qadriyatlar asosida mustahkamlashni yoqlovchi hamda jamiyatda ijtimoiy barqarorlik asosida an’anaviy va axloqiy qadriyatlar yotishini targ‘ib etuvchi dunyoqarash va axloq shakli sifatida ham qaraladi. Konservatizm ijtimoiy inqiloblarning har qanday ko‘rinishini qoralab, inqiloblar ijobiy ijtimoiy o‘zgarishlarga kafil bo‘la olmaydi deb hisoblaydi. SHuningdek, davlat jamiyatda mavjud ijtimoiy munosabatlar va muammolarning barchasi ustidan nazorat qilish va boshqarishda ularning turfa spetsifik xususiyatlarini hisobga ololmaydi. SHuning uchun jamiyatning barcha jabhalarida davlatning ishtirokini minimallashtirib, ushbu funksiyalar din, axloq va an’analarni rivojlantirish hisobiga bajarilib, ular jamiyatdagi turfa muammolar va ijtimoiy o‘ziga xos jihatlarning barcha ko‘rinishlarini e’tiborga olishga qodir

bo‘lgan omillar sifatida qaraladi. Konservatizm davlat hokimiyati funksiyalarini cheklash bilan jamiyatdagi siyosiy erkinliklarni o‘zaro o‘xshash jarayon sifatida qaraydi.

XX-asrning ikkinchi yarmida an’anaviy konservatizm, liberalizm va texnokratizmning o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida neokonservatizm oqimi vujudga keldi. Neokonservatizm davlat hokimiyatini e’tirof etgan holda, jamiyat boshqaruvida davlat hokimiyati aralashuvi zarur deb hisoblaydi, lekin bunday aralashuv cheklangan bo‘lishi lozim. (1)

**KONSTITUTSIONALIZM** – 1**.** Konstitutsiya bilan chegaralangan boshqaruv, konstitutsiyaga va boshqaruvning konstitutsiyaviy uslublariga tayanadigan siyosiy tizim; 2. Konstitutsiyaviy tuzum o‘rnatilishi zaruriyatini asoslab beruvchi siyosiy – huquqiy nazariya. (3)

**KONSTITUTSIYA -** (lotin. conctitutio – o‘rnatish, tuzilish) - moddiy ma’noda avvalo inson va fuqaro huquqlari va erkinliklarini e’lon qiluvchi va kafolatlovchi, shuningdek ijtimoiy tuzum asoslarini, boshqaru’ shakli va davlat tuzilishi asoslarini, hokimiyat markaziy va mahalliy organlarini tashkil etish asoslarini, ularning vakolatlari va o‘zaro munosabatlarini, davlat ramzlari va poytaxtini belgilaydigan qonun hujjati, hujjatlar yoki konstitutsiyaviy odatlar majmui. Rasmiy ma’noda barcha qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan asosiy qonun. Konstitutsiya — eng oliy huquqiy shakl bo‘lib, unda konstitutsiyaviy tuzum qadriyatlari, institutlari va normalari, davlat hokimiyatining ijtimoiy aloqalari va munosabatlarini davlat — huquqiy tartibga solish asoslari mustahkamlab qo‘yiladi. Konstitutsiya hozirgi zamon davlatchiligining muhim belgisi hisoblanadi. Hozirgi davrda Fors ko‘rfazidagi ayrim absolyut monarxiyalar (Saudiya Arabistoni, Ummon)gina konstitutsiyaga ega emas. Huquq fanida yuridik va haqiqiy (faktik) konstitutsiyalar farqlanadi. YUridik konstitutsiya, moddiy ma’noda ham, rasmiy ma’noda ham, yuqorida ko‘rsatilgan ijtimoiy munosabatlar doirasini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimidir. Haqiqiy konstitutsiya esa shunday munosabatlarning o‘zi, ya’ni real mavjud munosabatlardir. Konstitutsiya o‘z shakliga ko‘ra hozirgi mamlakatlarning aksariyatida parlament, maxsus konstitutsiyaviy assambleya tomonidan, oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan umumxalq referendumida qabul qilinadigan yagona huquqiy hujjat, mamlakatning asosiy qonuni hisoblanadi. Konstitutsiya mamlakat qonunchiligida birinchi o‘rinda turadi va milliy huquq tizimining asoslarini belgilab beradi. Ba’zan konstitutsiya bir necha qonun hujjatlaridan tashkil topadi (odatda ulardan birida konstitutsiyaning asosiy matni ifodalanadi), ya’ni qisman kodifikatsiya qilingan hisoblanadi (masalan, Avstriya, Kanada, SHvetsiya, CHexiya, Finlyandiyada). Masalan, SHvetsiya konstitutsiyasi uch qonun (1974 y. Boshqaruv shakli, 1810 y. Taxtni meros qoldirish to‘g‘risidagi hujjat, 1974 y. Matbuot erkinligi to‘g‘risidagi hujjat)dan tashkil topgan. Fransiyada 1958 y. Konstitutsiyaning asosiy matni bilan bir qatorda 1789 y. Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi va 1946 y. Konspputsiya Muqaddimasi mamlakat asosiy qonunining qismlari deb e’tirof etilgan. Qonuniylashtirilmagan (aniqrog‘i — kodifikatsiya qilinmagan) konstitutsiya ham uchraydi (masalan, Buyuk Britaniya, YAngi Zelandiya, Isroilda). Bunday konstitutsiya nafaqat bir necha qonun hujjatlaridan, balki konstitutsiyaviy odatlar, sud pretsedentlaridan ham tashkil topadi. So‘nggi zikr etilgan holatda Buyuk Britaniya, YAngi Zelandiya, Isroilda faqat moddii ma’nodagi konstitutsiyaning mavjudligi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin, chunki bu mamlakatlar rasman konstitutsiyaga ega emas. Kodifikatsiya qilingan konstitutsiyalar amaliy jihatdan kodifikatsiya qilinmagan konstitutsiyalardan shubhasiz ustun turadi, chunki kodifikatsiya qilinmagan konstitutsiyalarni kundalik hayotda qo‘llash, oddiy fuqarolarni ular bilan tanishtirish juda qiyin. Mo‘ljallangan amal qilish vaqtiga qarab doimiy va muvaqqat konstitzpdiyalar farqlanadi. Muvaqqat konstitutsiyalar odatda o‘tish

davrida qabul qilinadi. SHu davr ichida mamlakatning konstitutsiyaviy tuzilishi uzil —kesil ishlab chiqiladi (masalan, 1994 y. JAR muvaqqat konstitutsiyasi 1996 y. doimiy konstitutsiya bilan almashtirildi). Muvaqqat konstitutsiyada ko‘pincha hokimiyatni tashkil etishning asosiy qoidalarigina o‘z aksini topadi (masalan, 1992 y. Polsha «Kichik konstitutsiyasi», 1991 y. Albaniya Asosiy konstitutsiyaviy qoidalari). Ba’zan muvaqqat konstitutsiya uzoq yillar amal qiladi. Doimiy konstitutsiyalar esa, aksincha, qisqa vaqt amal qilishi mumkin: masalan, bir yarim asr ichida yigirma beshtadan ortiq konstitutsiya qabul qilgan Venesuelada ularning ayrimlari ikki yilga ham bormasdan bekor qilingan. Hozirgi davrda jahon amaliyotida yangi konstitutsiyalar qabul qilishning har xil usullari mavjud. Konstitutsiya parlament, ta’sis majlisi tomonidan, referendumda yoki aralash yo‘l bilan qabul qilinishi mumkin. Masalan, Ukraina, Moldova, Gruziya va O‘zbekistonning amaldagi konstitutsiyalari sof parlament usulida ishlab chiqilgan va qabul qilingan. So‘nggi yillarda Bolgariya, Ruminiya, Kamboja, Braziliya va Kolumbiyada ta’sis majlisi tomonidan ishlab chiqilgan konstitutsiyalar qabul qilindi. Rossiya, Qozog‘iston konstitutsiyalari, shuningdek Belarus asosiy qonunining hozirgi tahriri davlat boshlig‘i rahbarligida ishlab chiqildi va referendumda qabul qilindi. Armaniston, Ozarbayjon, Litva va Tojikiston konstitutsiyalari parlament tomonidan qabul qilingach, referendumda tasdiqlandi. 1992 y. Estoniya konstitutsiyasi ta’sis majlisi ma’qullaganidan so‘ng referendumda tasdiqlandi. Davlat boshlig‘i o‘z hokimiyati bilan tasdiqlagan konstitutsiyalar ham uchraydi. Kodifikatsiya qilingan konstitutsiyaning muhim yuridik jihati shundan iboratki, u boshqa barcha normativ hujjatlarga, shu jumladan qonunlar va konstitutsiyaviy qonunlarga nisbatan oliy yuridik kuchga ega bo‘ladi. Ularning barchasi konstitutsiyaga muvofiq bo‘lishi lozim. Nihoyat, konstitutsiyaning yana bir yuridik jihati — u qabul qilish va o‘zgartirishning alohida tartibiga ega bo‘ladi. Jahonning ko‘pgina mamlakatlarida ushbu tartib oddiy qonunlarni qabul qilish va o‘zgartirish tartibidan ancha murakkabdir. Bunday hollarda qat’iy konstitutsiya to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Ba’zi konstitutsiyalarda ularning ayrim qoidalari (masalan, davlatning mustaqilligi, uning dunyoviy davlat ekanligi, respublika boshqaruv shakli to‘g‘risidagi qoidalar) umuman, hatto referendum yo‘li bilan ham qayta ko‘rilmasligi belgilab qo‘yiladi. Aksariyat konstitutsiyalarda yangi asosiy qonunni qabul qilish uchun ta’sis majlisi chaqirilishi yoki referendum o‘tkazilishi lozimligi nazarda tutiladi. Ko‘pincha konstitutsiyaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish uchun ham referendum o‘tkazish talab qilinadi. Konstitutsiyaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qaror parlament tomonidan qabul qilinishi ham mumkin. Bu holda qaror oddiy ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Federativ davlatlarda federal konstitutsiyaga kiritilgan tuzatishlar yuqorida ko‘rsatilgan shartlarga qo‘shimcha tarzda federatsiya sub’ektlarining ko‘pchiligi tomonidan ratifikatsiya qilinishi zarur. Hozirgi konstitutsiyalar konstitutsiyaviy tartibga solish predmetining rang — barangligi va o‘ziga xos ierarxiyasini aks ettiruvchi muayyan tuzilish (bo‘limlar, boblar va sh.k.)ga ega. Hozirgi zamon davlatlari aksariyatining konstitutsiyaviy tartibga solish predmetlari o‘xshash ekanligiga qaramay, asosiy qonunlar tuzilishining biron —bir yagona sxemasi mavjud emas. Konstitutsiyalarning tuzilishi turli mamlakatlarda ularning muayyan konstitutsiyaviy modelga mansubligi, tarixiy an’analari va h.k.ga qarab har xildir. MDHga a’zo mamlakatlarning aksariyati qabul qilgan konstitutsiyalar quyidagi tuzilishga ega: a) muqaddima; b) umumiy qoidalar (konstitutsiyaviy tuzum asoslari); v) inson va fuqaro huquqlari va erkinliklari; g) qonun chiqaruvchi hokimiyat; d) ijro etuvchi hokimiyat; e) sud hokimiyati; j) mahalliy davlat hokimiyati va o‘zini o‘zi boshqarish; z) konstitutsiyaga o‘zgartirish kiritish tartibi; i) yakunlovchi qoidalar. Ayrim mamlakatlarning konstitutsiyalarida

konstitutsiyaviy tuzum asoslarini ta’riflovchi bobl boblar va bo‘limlar bilan bir qatorda, mustaqil boblar (bo‘limlar), chunonchi, *futsarolik jamiyati* institutlarini mustahkamlaydigan «Jamiyat va davlat» (1992 y. Litva konstitutsiyasi, 3 — bob), «Jamiyat va shaxs» (1992 y. O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi, III bo‘lim) boblari (bo‘limlari) ham mavjud. Ushbu boblar va bo‘limlar, qoida tariqasida, «mulkchilik va tadbirkorlik», «oila», «jamoat birlashmalari», «fan», «ta’lim», «ommaviy axborot vositalari» kabi masalalarga bag‘ishlanadi. YAngi konstitutsiyalarning mutlaq ko‘pchiligida iqtisodiyot va (yoki) moliyaga bag‘ishlangan alohida bo‘limlar mavjud. Ayrim konstitutsiyalarda qonunchilik to‘g‘risidagi qoidalar alohida bobga ajratilgan bo‘lsa, boshqa konstitutsiyalarda saylov va referendum to‘g‘risida maxsus bo‘lim mavjud. «Amerikacha» modelga mansub yangi konstitutsiyalarga (Braziliya, Kolumbiya, Filippin va b.) «Davlat xizmati» (yoki «Davlat xizmatchilarining javobgarligi») kabi bo‘limlar, agrar islohot, qurolli kuchlar, davlat va demokratik institutlar himoyasi to‘g‘risidagi alohida bo‘limlar (yoki boblar)ning mavjudligi xosdir. (3)

**KONSTITUTSIYAVIY MONARXIYA** – davlat boshqaruvining shunday shakliki, bunda monarxning hokimiyati konstitutsiya bo‘yicha vakillik organi tomonidan chegaralangan bo‘ladi. Konstitutsiyaviy monarxiya o‘rta asrlarda Evropada ro‘y bergan burjua inqiloblari natijasida yuzaga kelgan. Hozirgi kunda Angliya, Daniya, Belgiya, Ispaniya, Norvegiya, SHvetsiya, YAponiya kabi mamlakatlarda davlat boshqaruvi konstitutsiyaviy monarxiya shaklida tashkil etilgan. Davlat boshqaruvining bunday shaklida demokratik siyosiy rejim mavjud bo‘lishi mumkin. Konstitutsiyaviy monarxiyaning dualistik (aralash) va parlamentar shaklidagi ko‘rinishlari mavjud. Dualistik monarxiyada davlat hokimiyatining oliy organi tashkil etish ikki tomonlama xarakterga ega: monarx ijro hokimiyatiga boshchilik qiladi, o‘zi oldida javobgar bo‘lgan xukumatni tashkil etadi, qonunchilik hokimiyati esa parlamentga tegishli bo‘ladi (shu bilan birga monarx parlament tomonidan qabul qilingan qonunlarga mutloq veto qo‘yish huquqiga ega bo‘ladi). Hozirgi kunda dualistik monarxiya shaklidagi boshqaruv Marokash, Iordaniya, Quvayt, Bahrayn va boshqa bir qator mamlakatlarda mavjud. Parlamentar monarxiyaning quyidagi belgilari mavjud: a) monarx hokimiyati davlat hokimiyatini barcha sohalari bo‘yicha chegaralangan bo‘ladi; b) ijro hokimiti xukumat tomonidan amalga oshiriladi, xukumat o‘z navbatida konstitutsiyaga ko‘ra monarx oldida emas, balki parlament oldida javobgar bo‘ladi; v) xukumat parlamentga bo‘lgan saylovlarda g‘olib chiqqan partiyalar vakillari orasidan shakllantiriladi; g) xukumat boshlig‘i lavozimiga parlamentda ko‘pchilik deputatlik ovoziga ega bo‘lgan partiya rahbari tayinlanadi; d) qonunlarni parlament qabul qiladi, monarxning qonunlarni imzolashi formal xarakterga ega bo‘ladi. Konstitutsiyaviy monarxning bunday ko‘rinishi Evropadagi monarxiya shaklidagi davlatlarga xos. (1)

**KONSTITUTSIYAVIY TUZUM** – ma’lum davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiviy-huquqiy hujjatlari bilan o‘rnatiladigan va muhofaza qilanadigan ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlar tizimi. Konstitutsiyaviy tuzumni davlat tuzumi bilan o‘xshash deb hisoblash noto‘g‘ri. Davlat tuzumidan farqli o‘laroq, Konstitutsiyaviy tuzum doimo davlatda konstitutsiya mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Xalq suverenteti, hokimiyatlarning bo‘linishi, inson huquqlari ustunligi va boshqalar Konstitutsiyaviy tuzumning zaruriy belgilari sanaladi. Davlat tuzumi esa ushbu belgilarga ega bo‘lmasligi mumkin. (3)

**QONUN CHIQARUVCHI HOKIMIYAT** – hokimiyatlar bo‘linishi nazariyasiga muvofiq, davlatning o‘zaro muvozanatlashtirilgan hokimiyat shaxobchalaridan biri bo‘lib, davlat oliy vakillik organi tomonidan qonunlar qabul qilish vakolatining ro‘yobga

chiqarilishidir. U oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy aktlar – qonunlar chiqarish bo‘yicha vakolatlar yig‘indisini mujassamlashtiradi hamda ushbu vakolatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari tizimi sifatida namoyon bo‘ladi. Qonun chiqarish – davlatning o‘ta muhim funksiyalaridan biri bo‘lib, u saylab qo‘yiladigan oliy vakillik muassasasi tomonidan amalga oshiriladi. Qonun chiqaruvchi hokimiyatning asosiy vazifasi xalqning (jamiyatning) irodasini qonun shaklida ifoda etishdir. **Q.ch.h.** – bu Konstitutsiyada mustahkamlangan oliy davlat vakillik idorasining qonunlar qabul qilish, ularni o‘zgartirish va bekor qilish bo‘yicha alohida vakolatlari hisoblanadi. Demokratik davlatlarda qonun chiqaruvchi hokimiyat nafaqat maxsus qonunchilik organlari (parlament, milliy qonunchilik assambleyasi) tomonidan, balki bevosita saylanadigan korpus (siyosiy muomalaga layoqatli fuqarolar) tomonidan referendum yo‘li bilan, ayrim hollarda esa ijroiya hokimiyati organlari tomonidan – vakil yuborish tartibida ham amalga oshirilishi mumkin. Hozirgi davrda ayrim davlatlarning konstitutsiyasi qonun chiqarish vakolati monarxga va parlamentga (yoki parlamentning palatasiga) taalluqliligi to‘g‘risidagi qoidalarni o‘zida mujassamlashtiradi. Mutlaq monarxiya davlatlarida (mas., Bruney, Saudiya Arabistoni) qonun chiqaruvchi hokimiyat mutlaq monarxga tegishlidir. Ba’zan ayrim masalalar bo‘yicha qonun chiqarish vakolatini Prezident yoki Hukumatga berish (delegirovanie) nazarda tutiladi. Xalqaro miqyosda qonun chiqaruvchi organ parlament deb yuritiladi. «Parlament» iborasi fransuzcha «parler» - «gapirmoq» so‘zidan olingan bo‘lib, fikr bildirish, muhokama yuritish degan ma’noni anglatadi. Ingliz tilida «Parlament» va «Qonun chiqaruvchi majlis» iboralari aynan bir ma’noda ishlatiladi. Parlament kengashiladigan, maslahatlashiladigan, masalalar bahs-munozara hamda muzokara yo‘li bilan muhokama etiladigan muassasadir. Parlament, odatda, saylab qo‘yiladigan xalq (turli siyosiy partiyalar, ijtimoiy kuchlar) vakillaridan iborat tarzda tarkib topadi. Bu erda turli ijtimoiy manfaatlar to‘qnashadi. SHu bois parlamentda munozara va tortishuv yo‘li bilan fikrlar charxlanadi hamda umumiy kelishuv (konsensus) asosida qaror qabul qilinadi. Parlament davlatning umummilliy vakillik muassasasi bo‘lib, avvalo qonun chiqarish funksiyasini bajaradi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi oliy davlat vakillik organi bo‘lib, qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasida Parlament vakolat muddati besh yil bo‘lgan ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat (76-m.). (1)

**KONFEDERATSIYA (lotin. confoederatio ittifok, birlashma) –** davlatlar ittifoki shakli bulib, unga kura konfederatsiyani tashkil kilgan davlatlar uz mustakilligini tula saklab koladi. Konfederatsiyada xalkaro-xukukiy tashkilotning xam, davlat tashkilotining xam ma’lum jixatlari mujassamlashadi. Konfederatsiyada umumiy organlar muayyan (tashki siyosiy, xarbiy, valyuta-moliya, bojxona, aloka va kommunikatsiyalar) soxalardagi faoliyatni muvofiklashtirish uchun tuzilidi. Konfederatsiyaning barcha a’zolari undan erkin chikish xukukini saklab koladi. (1)

**KO‘P PARTIYAVIYLIK** — hozirgi demokratiya davlatlarida siyosiy hayotni tashkil etishning asosiy konstitutsiyaviy prinsiplardan biri, siyosiy va mafkuraviy plyuralizm (xilma-xillik)ni ancha umumiyroq bo‘lgan prinsipining ifodasi hisoblanadi. K. P. prinsipi yuridik jihatdan davlat fuqarolarning o‘z dunyoqarashlariga muvofiq tarzda siyosiy partiyalarga birlashish huquqini, barcha siyosiy partiyalarning qonn oldida tengligini, ular faoliyati erkinligini tan olishi va kafolatlashini anglatadi. Ko‘p partiyalilik prinsipi vakolatli davlat organlarining milliy, irqiy, diniy yoki ijtimoiy murosasizlikni, qonuniy davlat hokimiyat organlarini kuch

ishlatib ag‘darishni targ‘ib qiladigan yoki boshqa yo‘sinda amalda bo‘lib turgan qonunchilikni buzadigan siyosiy partiyalarni qonunda belgilangan tartibda ta’qiqlashi va tarqatib yuborishini mustasno qilmaydi. YUridik (rasmiy) Haqiqiy Ko‘p partiyalilik aniq bir davlatda ijtimoiy va siyosiy manfaatlarning barcha spektrni qamrab olgan rivojlangan va samarali partiyalar tizimi mavjudligida ifodalanadi. (3)

**LEGALIZATSIYA** (lot. Legalis — qonuniy) — biron tashkilotning faoliyatini qonuniylashtirish, biron-bir hujjatga, harakatga yuridik kuch berish; legal holatga o‘tish; xorijiy davlatda berilgan hujjatning haqiqiyligini tasdiqlash va unga yuridik kuch berish; noqonuniy yo‘l bilan topilgan pul mablag‘larini yoki boshqa mol-mulkni oshkoralashtirish. (9)

**LEGALLASHTIRISH –** 1) muayyan tashkilot faoliyatiga ruxsat berish, biror-bir hujjat, xarakatga yuridik kuch berish. 2) hujjatlardagi imzolarning haqiqiyligini tasdiqlash. CHet elda tuzilgan yoki chet davlatda amalda bo‘ladigan hujjatlar legallashtirilishi lozim. Konsulning hujjatlardagi ustxatini guvohlantirish shaklida amalga oshiriladi. YUridik fanda noqonuniy yo‘l bilan qo‘lga kiritilgan mablag‘ va mulkni legallashtirish va jinoiy daromadlarni legallashtirish kabi tushunchalar mavjud. (9)

**LEGITIMLIK** (lotin. legitimus-qonunga muvofiq, qonuniy)-davlatda faoliyat olib borayotgan hokimiyat institutlarining mamlakat aholisi, uning katta guruhlari, jamoatchilik (shu jumladan chet el jamoatchiligi) tomonidan ijobiy baholanishi, ularning qonuniyligi tan olinishini anglatadigan siyosiy huquqiy tushuncha. Legitimlik to‘g‘risidagi masala odatda inqilob yoki to‘ntarish natijasida hukumat almashganida ko‘tariladi. (1)

**LIBERALIZM** – siyosiy oqim va mafkuraviy yo‘nalish bo‘lib, siyosiy hayotni shaxs huquqlari ifodasi va himoyasi bilan chambarchas bog‘liqlikda bo‘lgan jarayon sifatida qaraydi.

Liberalizmning ijtimoiy asosi – individualizm bo‘lib, siyosiy jihatdan erkin va faol individ ijtimoiy va siyosiy hayot markazidagi asosiy richag sifatida qaraladi. Libbralizmning asosiy prinsiplari insonning yashash huquqi, erkinligi, mulki, qonun oldida tengligi, xavfsizligi, normal hayot darajasining ta’minlanishi, shuningdek, individ erkinliklarini himoya qilish mavjud davlat hokimiyatining asosiy funksiyasi, davlat faoliyati mexanizmining uch asosiy – qonun chiqaruvchi, sud va ijro etuvchi tarmoqlarga bo‘linishini ta’minlash, jamiyatda davlat faoliyati chegarasining aniq mavjudligi, ya’ni davlatning jamiyat a’zolari shaxsiy hayotiga hamda ular orasidagi iqtisodiy munosabatlar jarayoniga aralashmasligi; erkin bozor iqtisodiyotining jamiyatda iqtisodiy munosabatlarning tartibga solinishi; jamiyat a’zolari huquqlari va ularning imkoniyati tengligi hamda anna shu imkoniyat darajasidan kelib chiqib, har bir individ erkin fuqarolik jamiyati sharoitida o‘z salohiyatini realizatsiya qila olishining kafolatlanishi hisoblanadi. (1)

**LOBBIZM** – ingliz tilidan olingan bo‘lib, Lobby – kuluar, ya’ni kolidor ma’nosini anglatib, siyosiy-huquqiy jarayonlarda asosiy voqea kechayotgan xonadan tashqaridagi xonada rasmiy vakillar bilan norasmiy shaxslarning o‘zaro uchrashib, rasmiy qarorlar qabul qilishdagi siyosiy ta’sirning o‘ziga xos turi. Boshqacha aytganda rasmiy muhit yoki rasmiy davradagi norasmiy uchrashuv. Ushbu tushuncha norasmiy shaxslarning, guruhlarning parlament a’zolari bilan o‘zaro siyosiy muloqot turi bo‘lib, qonunlarni muayyan shaxs yoki guruhlar manfaatiga moslab qabul qilish yo‘lidagi faoliyat turi sifatida tushunish ustunlik mavqe kasb etadi.

Lobbizm mazmun mohiyati jihatidan neytral tushuncha bo‘lib, ham ijobiy va ham salbiy ma’noga ega. Uning ijobiy mohiyati shundan iboratki, demokratik jamiyat sharoitida normal, sog‘lom, hayotiy zarur siyosiy jarayon sifatida qonun va qarorlar qabul qilish jarayonida

demokratik institutning tarkibiy qismi sifatida shaxs yoki guruhlar o‘z taklif va mulohazalarini parlament a’zolari yoki hokiyat organlari vakillari o‘rtasiga tashlaydi.

Lobbizmning salbiy mohiyati – agar u parlament a’zolari ovozlarini va hokiyat vakillarini «sotib olish», ularga bosim o‘tkazish, tanish-bilish yo‘llari orqali qonunlar va siyosiy qarorlar qabul qilishga ta’sir etishga intilgan taqdirda namoyon bo‘ladi.

Demokratiya sharoitida lobbizmning ijobiy jihatlariga kengroq e’tibor qaratib, siyosiy institut sifatidagi faoliyatining ta’minlanishi uchun quyidagi jihatlari targ‘ib etilishi lozim:

- jamiyatdagi ijtimoiy differensiyalashuvning kengayishi, shuningdek, turfa ijtimoiy qatlamlarning vujudga kelishi munosabati tufayli manfaatlarning turfaligini hisobga olish lozimligi;
- qonun va qarorlar qabul qilish jarayonida ochiqlik, demokratik tamoyillarga xos bo‘lgan siyosiy plyuralizm va oshkoralikning ta’minlanishiga erishish.
- hokimiyat vakillari, parlament a’zolari va boshqa rasmiy shaxslar bilan jamiyat a’zolari orasidagi ijobiy aloqalarni rivojlantira borish;
- siyosiy ta’sir jarayonida jamiyat a’zolari manfaatlaridan kelib chiqish.

Lobbizm (ingl. “Lobbi” – “dahliz”, “ayvon”) – yoki boshqacha aytadigan bo‘lsak, “manfaatlar mushtarakligi” yoxud “tazyiq o‘tkazuvchilar guruhi” insoniyat tarixining barcha davrlarida, ya’ni hokimiyat tizimi shakllana boshlagan zamonlardan beri mavjud. “Manfaatlari mushtaraklar” faoliyatini qadim yunon tarixida ham, xususan, Afina sud idoralarining sud ishlarini yurgizish tajribalarida, qadimgi yunon shaharlaridagi fuqarolar ishlariga doir manbalarda ham kuzatish mumkin. XVI asrda lobbizm so‘zi ibodatxona hovlisidagi aylanib sayr etadigan maydonchani anglatgan. YUz yillardan keyin Angliya jamoalar palatasida dam olib, aylanib yuriladigan joyni shunday deb atashgan. Lobbizm an’analarining shakllangan ko‘rinishlari 1861-1865 yillarda AQSHda ro‘y bergan fuqarolar urushida shuhrat qozongan general U.S. Grantning (1869-1877 y.) prezidentlik davriga to‘g‘ri keladi. Amerikaning o‘n sakkizinchi prezidenti va uning tarafdorlari kunduzgi ishlardan so‘ng hordiq chiqarish uchun mehmonxonalardan birida, aniqrog‘i, uning dahlizida dam olishni odat qilishgan va bu joy “lobbi” deb atalgan. SHu joyda vazirdar, shuningdek, senatorlar turli toifadagi odamlar bilan uchrashishgan, ularning so‘rovlarini tinglashgan va iltimoslarini amalga oshirishga so‘z berishgan. Evropada “lobbizm” so‘zi XX asrga kelib, avval Angliyada, keyincha boshqa davlatlarda to‘liq iste’molga kirib ketdi. Amaliyotning ko‘rsatishicha, **l.** har qanday jamiyatda mavjud. Biroq uning yuksak darajada shakllanishi, madaniy saviyasi, izchilligi davlatning siyosiy tizimiga, siyosiy tartibnig xususiyatiga, siyosiy madaniyatiga bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi paytda “lobbizm” keng ma’noda – xokimiyat vakillariga qaratilgan va ular qabul qilayotgan qarorlariga ta’sir o‘tkazishga yo‘naltirilgan (individuumlar yoki guruhlar) o‘rtasida aloqalar o‘rnatilishi va habarlar etkazilishini anglatadi. **L.** huquqiy ma’noda jismoniy (fuqaro) va yuridik (tashkilotlar) shaxs, hamda boshqa huquqiy munosabatlar sub’ektlarining o‘z manfaatlarini yoki manfaatdor shaxslar manfaatlarini faol ko‘llab-quvvatlab, davlat hoqimiyati bilan munosabatlar o‘rnatish orqali qarorlar qabul qilinishi jarayoniga, qonun doirasida ta’sir o‘tkazish bilan bog‘liq faoliyatdir. **L.** faoliyati bilan shug‘ullanuvchilarni “lobbistlar” yoki “lobbichilar” deyiladi. Lobbistlar oldindan tayyorlangan qonun loyihalarini taqdim etishlari, konsultativ yordam ko‘rsatishlari, qonunchilik organlari huzurida o‘z idoralariga ega bo‘lishlari mumkin. Mohiyat e’tibori bilan, **l.** fuqarolarning o‘z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirish shakllaridan biridir. Hozirgi paytda **l.** barcha demokratik mamlakatlarda mavjud. **L.** amalda ba’zan korrupsiya bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun ayrim mamlakatlarda lobbistlar faoliyati usullarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, **l.** bilan bog‘liq

bo‘lgan faoliyatni huquqiy tartibga solishga qaratilgan jahondagi birinchi normativ xujjat AQSHning «**L.**ni tartibga solish to‘g‘risida»gi federal qonun 1946 yilda qabul qilingan bo‘lib, unda professional lobbistlarni ro‘yhatdan majburiyligi va ro‘yhatdan o‘tkazish talablari belgilangan. (3)

**MAJORITAR SAYLOV TIZIMI** (*fr. Majoritedan - ko‘pchilik*) — saylov tizimi, unga ko‘ra o‘z nomzodi qo‘yilgan saylov okrugi bo‘yicha saylovchilarning eng ko‘p ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Mutlaq ko‘pchilik Majoritar saylov tizimi, nisbatan ko‘pchilik Majoritar saylov tizimi, aniqlovchi ko‘pchilik Majoritar saylov tizimi (kam qo‘llaniladi) farqlanadi. Mutlaq ko‘pchilik Majoritar saylov tizimida okrug bo‘yicha saylovchilarni yarmidan ko‘pining ovozini olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Nisbatan ko‘pchilik Majoritar saylov tizimida nomzodga saylangan bo‘lishi uchun okrug bo‘yicha boshqaq nomzodlarga siyosiy nisbatan ko‘pchilik ovozni olish kifoya qiladi. Aniqlovchi ko‘pchilik Majoritar saylov tizimida g‘olib oldindan belgilangan ovozlarning yarmidan 2/3, 3/4 va shu kabi ortuvchi ko‘pchilik ovozni olishi kerak. Odatda Majoritar saylov tizimida har bir saylov okrugida bitta deputat (bir nomli yoki uninominal tizim) saylanishi kerak, ammo ba’zida (masalan, Fransiyada) ro‘yxatlar tizimi qo‘llanadi (polinominal tizim). Majoritar saylov tizimida har bir saylov okrugida ko‘pchilik ovozni ololmagan nomzodga berilgan ovozlar yo‘qotiladi. Majoritar saylov tizimi o‘z kamchiliklariga qaramay ko‘pchilik zamonaviy davlatlarda mavjud, ko‘pincha mutanosib saylov tizimi bilan qo‘shib foydalaniladi (masalan, parlamentning quyi palatasi mutanosib tizim bo‘yicha, yuqori palata esa majoritar tizim bo‘yicha saylanadi). Hozirgi kunda nisbatan ko‘pchilik Majoritar saylov tizimi AQSH, Buyuk Britaniyada, mutlaq ko‘pchilik Majoritar saylov tizimi Fransiyada qo‘llaniladi. (3)

**MAHALLIY O‘ZINI O‘ZI BOSHQARISH** — mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan masalalarni aholining manfaatlari, uning tarixiy, ijtimoiy-etnik va boshqa xususiyatlaridan kelib chiqib, shu davlat konstitutsiyasi va qonunlari asosida mustaqil (mas’uliyatni zimmasiga olib) hal qilish uchun fuqarolar faoliyatini tashkil etish tizimi. Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishni aholi hokimiyat vakillik organlari (munitsipal majlis, kengashlar, qo‘mitalar va boshqalar), muvofiq keluvchi boshqaruv organlari, mahalliy referendumlar, fuqarolar kengashlari, bevosita demokratiyaning boshqa hududiy shakllari, shuningdek, aholining hududiy ijtimoiy o‘zini-o‘zi boshqarish organlari orqali amalga oshiradi. (3)

**MILLAT** (*isp. nacionalidad*) — qator roman davlatlarida fuqarolik yoki tabaalik munosabatlari (Ispaniya) yoki shaxsning o‘z mazmuniga ko‘ra fuqarolik munosabatlari bilan to‘la uyg‘unlashmaydigan ma’lum milliy davlatga mansublik munosabatlarini belgilash maqsadida ishlatiladigan atama (masalan, Meksikada meksikalik millatiga mansub bo‘lgan va bundan tashqari balog‘at yoshiga etgan hamda «munosib turmush» tarzida yashayotgan shaxs fuqaro sifatida tan olinadi).

Millat (*lot. natio – qabila, xalq*) — 1.(konstitutsiyaviy huquq nazariyasida) Odamlarning tarixiy umumiyligi, u umumiylik belgilarini tashkil etuvchi ular hududi, iqtisodiy aloqalarni, tili, madaniyat va xarakterdagi ayrim xususiyatlari umumiyligining shakllanishi jarayonida yuzaga keladi. 2. (ingliz va roman tilli mamlakatlar konstitutsiyaviy huquqida). Odatda «davlat», «jamiyat», «barcha fuqarolar majmui» ma’nolarini anglatadigan atama. (3)

**MILLIY DAVLAT** — davlatni konstitutsiyaviy-huquqiy maqomi ta’rifi bo‘lib, mazkur davlat aniq bir millatning (so‘zning etnomadaniy ma’nosida) o‘z taqdirini o‘zi belgilash shakli hisoblanishini anglatadi, eng avvalo aynan mana shu millat irodasini ifodalaydi. Davlatning milliy xarakteri to‘g‘risidagi qoida masalan, 1991 yil Ruminiya Konstitutsiyasining 1-moddasida berilgan. (3)

**MONARX** (*gr. monarch – yakka hokim, grekcha mona – bir va archia - hokimiyat*dan) — hokimiyatni delegatsiya tartibida emas, balki o‘z huquqi bo‘yicha amalga oshiradigan davlatning tanho boshlig‘i. Ayrim holatlardan tashqari, Monarx hokimiyati umrbod hisoblanadiva meros bo‘yicha o‘tadi. Barcha monarxiya mamlakatlarida Monarx daxlsiz zot hisoblanadi va hech qanday javobgarlikka tortilishi mumkin emas. Turli mamlakatlarda Monarx turli nomlar bilan ataladi: **qirol** — Buyuk Britaniya, Ispaniya, Daniya, SHvetsiya, Belgiyada, **sulton** — Malayziya, Bruney, Ummonda, **amir** — Quvayt, BAAda, **buyuk gersog** — Lyuksemburgda, **knyaz** — Lixtenshteynda. (1)

**MONARXIYA** (*gr. monarchia – yakkahokimlik*) — davlat boshlig‘i monarx hisoblanadigan boshqaruv shakli; monarx hokimiyati qoidaga ko‘ra umrbod hisoblanadi va taxt vorisligi tartibida o‘tadi. Hozirgi kunda Monarxiyaning ikki tarixiy turi: - **absolyut** (**mutlaq**) va **konstitutsiyaviy** turi mavjud. Konstitutsiyaviy Monarxiya monar hokimiyatining cheklanish darajasi bilan farqlanadigan ikki turda mavjud. **Dualistik** Monarxiya – boshqaruvning o‘tish shakli, bunda monarx barcha ijro etuvchi hokimiyatni o‘z qo‘lida saqlaydi, parlament oldida emas, balki o‘ziga hisobdor bo‘lgan hukumatni shakllantiradi, qonun chiqaruvchi hokimiyat esa yuridik jihatdan parlamentga tegishli bo‘ladi. Dualistik monarxiya feodalizm qoldiqlari kuchli bo‘lgan mamlakatlarga xosdir. Parlamentar Monarxiya boshqaruvning ancha demokratiyaliroq shaklidir. Parlamentar Monarxiyada hech qanday dualizm bo‘lmaydi: monarx huquqi davlat hokimiyatini amalga oshirishning barcha sohalarida cheklanadi. Monarx o‘zida rasman saqlanib qolingan vakolatlarni mustaqil amalga oshirish huquqidan mahrum qilishgan, undan chiqadigan barcha hujjatlar vazirlar tomonidan ma’qullanishi kerak bo‘ladi (konstrassignatsiya). Ijro etuvchi hokimiyatni parlament oldida javobgar bo‘lgan hukumat amalga oshiradi. Monarxiya va respublika elementlarini biriktiradigan saylanadigan Monarxiya Monarxiyaning maxsus turidir. Bunday Monarxiya hozirgi kunda Malayziyada mavjud, bu erda maxsus kengash federatsiya tarkibiga kiradigan monarxik shtatlar vakillaridan 5 yil muddatga saylaydigan monarx davlat boshlig‘i hisoblanadi. (1)

**MUQOBIL OVOZ BERISH** — mojaritar tizimda qo‘llaniladigan ovoz berish usuli bo‘lib, bunda ko‘pchilik ovozni olgan nomzodga berilgan ovozgina hisobga olinadi. Bu tizim ovoz berishning natijaliligini oshiradi, chunki ikki, uch, to‘rt turli ovoz berishda birinchi turdayoq samara beradi. (3)

**MUQOBIL SAYLOV** — shaxsni o‘zaro raqobatlashuvchi ikki yoki undan ortiq nomzodlar orasidan biror organga saylash. (3)

**OVOZ BERISH** — saylov jarayoni bosqichlaridan biri. Bir yoki ikki turda o‘tkaziladi. Saylov byulletenini berish yoki maxsus ovoz berish mashinasidan foydalanib amalga oshiriladi. Ayrim mamlakatlar qonunida pochta orqali (Daniya, GFR, Irlandiya, Buyuk Britaniya) shuningdek, ishonchnoma bo‘yicha (Belgiya, GFR, Fransiya, YAponiya, Niderlandiya) ovoz berish mumkinligi nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Saylov To‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra ovoz berish maxsus ajratilgan binolarda o‘tkazilib, bu binolarda yashirin ovoz berish uchun etarli miqdorda kabinalar yoki xonalar tayyorlangan bo‘lishi, saylov byulletenlari berish uchun joy ajratilgan va saylov qutilari qo‘yilgan bo‘lishi lozim. Saylov qutilari ularning yoniga ovoz beruvchilar albatta yashirin ovoz berish kabinalari yoki xonalaridan o‘tib boradigan qilib joylashtiriladi. Ovoz berish binosida boshqa hech qanday siyosiy tadbir o‘tkazilishiga ruxsat etilmaydi. Ovoz berish saylov kuni soat 6 dan soat 20 gacha o‘tkaziladi. Ovoz berish vaqti va joyi to‘g‘risida uchastka saylov komissiyasi saylovga kamida o‘n kun qolganida saylovchilarni xabardor qiladi. O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi vakolatxonalari huzurida, harbiy qismlarda, sanatoriylar

va dam olish uylarida, kasalxonalar va boshqa statsionar davolash muassasalarida, shuningdek olis va borish qiyin bo‘lgan erlardagi fuqarolar turgan joylarda tuzilgan saylov uchastkalarida, agar ro‘yxatga kiritilgan barcha saylovchilar ovoz berib bo‘lgan bo‘lsa, uchastka saylov komissiyasi istalgan vaqtda ovoz berish tugaganligini e’lon qilishi mumkin. Saylov kuni ovoz berish binosi uchastka saylov komissiyasi a’zolarining kamida uchdan ikki qismi hozir bo‘lgandagina ochiladi. Saylov komissiyasining raisi komissiya a’zolari hozirligida saylov qutisini muhrlaydi, saylov byulletenlari va saylovchilarning ro‘yxatlarini komissiya a’zolari o‘rtasida taqsimlaydi hamda saylov boshlanganligini e’lon qiladi. Saylov byulletenlarining umumiy soni alohida hujjat bilan rasmiylashtiriladi. (3)

**OLIY MAJLIS** — O‘zbekiston parlamenti, oliy davlat vakillik, qonun chiqaruvchi organi. O.M hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish prinsipiga asoslanib, u davlatning boshqa idoralari bilan hamkorlik qilish bilan birga qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. O.M. dastlab bir palatali parlament sifatida tashkil etilgan va fuqarolarning umumiy, teng va to‘g‘ridan-to‘g‘ri saylov huquqi asosida shakllantirilgan. Bir palatali parlament 250 deputatdan iborat edi. U faoliyat yurgizgan davrda O.M. (1994-2004 yy.) 10 ta kodeks, ikkita milliy dastur, 240 ta qonun, 468 ta qaror, qonun hujjatlariga 1573 ta qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilgan hamda qonunchilik, davlat boshqaruvi, o‘tish davri muammolarini echishda salmoqli tajribaga ega bo‘ldi. 2002 yil 27 yanvarida o‘tkazilgan referendumda ikki palatali parlamentni tuzish masalasi O‘zbekiston xalqi tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. .O.M. ikki palatadan Qonunchilik palatasi(quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat. Ikkala palataning vakolat muddati besh yil. O.M. Qonunchilik palatasi saylov okruglari bo‘yicha ko‘ppartiyaviylik asosida saylanadigan 120 deputatdan iborat. O.M. Senati hududiy vakillik palatasi hisoblanadi. Senat a’zolari O‘zbekiston Respublikasi hududiy birliklari davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida deputatlar orasidan teng miqdorda-olti kishidan saylanadi. Senatning o‘n olti nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan hamda alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolar orasidan O‘zbekiston Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Senat a’zolarining umumiy soni 100 nafardan iborat. O.Mning ikki palatali tuzilishidagi qonun qabul qilish tartibi quyidagicha: qonun loyihasi dastlab Qonunchilik palatasiga kiritiladi. Q.p. tomonidan qabul qilingan qonun Senatga yuboriladi. Senat esa qonunni ma’qullash yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Agar qonun loyihasi Senat tomonidan rad etilsa, uning Q.p.ga qaytariladi.. Agar Q.p. deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovoz bilan qonunni yana ma’qullasa, qonun O.M. tomonidan qabul qilingan hisoblanadi. Parlamentning yuqori va quyi palatalari o‘rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish maqsadida kelishuv komissiyasini tuzishlari mumkin. Komissiyada kelishuvga erishilsa, qonun Qonuchilik palatasi tomonidan qayta ko‘rib chiqilishi kerak. Bunday hollarda qonun odatdagi tartibda qabul qilinadi va ma’qullash uchun Senatga yuboriladi. O.M. tomonidan qabul qilingan qonun o‘n kun ichida Prezidentga imzolash uchun yuboriladi. Prezidentning Qonunni imzolash muddati o‘ttiz kun etib belgilangan. Respublika Prezidenti qaytadan muhokama qilish va ovoz berishni o‘tkazish uchun qonunni o‘z e’tirozlari bilan parlamentga qaytarishga xaqli. Agar qonun avvalgi qabul qilingan taxririda O. M.ning ikkala palatasida ham uchdan ikki qismdan iborat ko‘pchilik ovoz bilan ma’qullansa, qonun Prezident tomonidan 14 kun ichida imzolanishi kerak. Qonun belgilangan tartibda e’lon qilinishi lozim. Qonunchilik palatasida quyidagi qumitalar: Byudjet va iqtisodiy islohotlar, Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Mehnat va ijtimoiy masalalar, Mudofaa va havfsizlik masalalari, Xalqaro ishlar va parlamentlararo aloqalar, Sanoat, qurilish va

savdo masalalari, Agrar, suv xujaligi masalalari va ekologiya, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari, Demokratik institutlar, nodavlat tashkilotlar va fuqorolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari , axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo‘mitalari mavjud. Senatda Byudjet va iqtisodiy islohotlar, Qonunchilik va sud-huquq masalalari, Mudofaa va havfsizlik masalalari, Tashqi siyosat masalalari, Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari, Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari qo‘mitalari mavjud. O. M. so‘nggi yillarda qonunchilik faoliyatini jadal sur'atlar bilan olib borib, mamlakatimiz rivojlanishining yangi bosqichida bozor iqtisodiyoti munosabatlari muammolarini oqilona hal hilish, ma'naviyatni ravnaq toptirish, ishlab chiqarishni yanada yuksaltirish, chet ellar bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy o‘zaro aloqalar taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib kelmoqda. (3)

**PARLAMENT** (ingl. parlament, frans. rag1eg — gapirmoq so‘znlan) — demokratik davlatlarda oliy vakillik va qonunchilik organining nomi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya, Kanada Belgiya, Moldova, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlarda oliy vakillik organi «parlament» deb yuritiladi; AQSHda va Lotin Amerikasining ko‘pgina mamlakatlarida **p.** kongress deb, Rossiya Federatsiyasida — Federal Majlis — Rossiya Federatsiyasi **P.** deb, Litva va Latviyada — seym deb ataladi. Tuzilishiga ko‘ra **p.** bir palatali yoki ikki palatali bo‘ladi (qarang: *Ikki palatali tizim, Bir palatali tizim)*. Tarixda uch palatali **p.** ham bo‘lgan (masalan, JARda 1984-1994 yillarda). **P.** birinchi marta XIII asrda Angliyada tabaqalarning vakillik organi sifatida tashkil qilindi; XVII —XVIII asrlardagi burjua inqilobidan so‘ng real ahamiyat kasb etdi. «**P**» nomi Evropada XIX asrning birinchi yarmida fransuz va ingliz andozasiga ko‘ra keng tarqaldi. Holbuki, inqilobdan oldingi Fransiyada qonunchilik organlari emas, okruglarning sud organlari **p.** deb atalar edi. 1789 y. inqilobiga qadar Fransiyada mavjud bo‘lgan tabaqalarning vakillik organlari Bosh SHtatlar deb atalardi. Ammo **p.**lar inqilobdan oldin ham o‘zlarini nafaqat sud muassasalari, balki qirollarning qonunchilik faoliyatini ularning farmonlari yozilgan huquq yoki odatlarga muvofiqligi nuqtai nazaridan nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan organlar deb hisoblar edilar. SHu tariqa ular qirol hokimiyatining qonunchilik faoliyatiga aralashib, qonunchilikni nazorat qilish funksiyalarini asta —sekin o‘zlashtira boshladilar. XVIII asr o‘rtalarida **p.**lar Fransiya oliy sudlari jamuljam holda davlatning asosiy qonunlari va fuqarolarning huquqlarini qo‘riqlovchi «Fransiyaning yagona **p.**»ni tashkil etadi, degan g‘oyani ilgari surdilar. Tabiiyki, Buyuk fransuz inqilobidan so‘ng xakq vakilligi qonunchilik organlari Bosh SHtatlar deb emas, balki **p.** deb nomlandi. Hozirgi davlatlarda **p.** qonunchilik funksiyalaridan tashqari nazorat funksiyalarini ham bajaradi (qarang: *Parlament nazorati, Ombudsman),* odatda hukumatni shasllantirish va sudyalarni tayinlashda ishtirok etadi. *Davlat byudjetshsh* tasdiqlash **p.**ning muhim vakolatlaridan biri hisoblanadi. Ayrim hollarda **p.** yoki uning muayyan palatasi sud funksiyalarini ham bajarishi mumkin (qarang: *Impichment).* Parlamentlar umumxalq saylovida muayyan muddatga saylanadi. Odatda parlamentning vakolat muddati to‘rt yil (Moldova, Gruziya, Litva, Ukraina, Armaniston, Estoniya, Rossiyada Davlat Dumasi, AQSHda Vakillar palatasi) yoki besh yil (Ozarbayjon, O‘zbekiston, Turkmaniston)ni tashkil etadi. Ba'zan parlament bundan kamroq muddatga saylanishi ham mumkin (Latviyada — uch yil). Hukumat parlament oldida javobgar bo‘lgan mamlakatlarda parlament (odatda uning quyi palatasi) davlat boshlig‘i yoki hukumat tomonidan muddatidan ilgari tarqatib yuborilishi mumkin (qarang: *Parlamentning tarsatilishi).*

Ayrim davlatlar (Tojikiston, Turkmaniston)da parlament deputatlarning ko‘pchilik ovozi bilan o‘zini o‘zi tarqatib yuborishi ham nazarda tutilgan. Parlamentlarning yuqori palatalari (to‘liq yoki qisman) boshqacha yo‘l bilan shakllanishi ham mumkin. Ba’zi mamlakatlarda davlatning sobiq prezidentlari lavozimiga ko‘ra yuqori palatalarning a’zolari hisoblanadilar. Qozog‘istonda yuqori palata (Senat)ning etti a’zosini respublika prezidenti tayinlaydi. Rossiya va Germaniyada yuqori palatalar federatsiya sub’ektlari hokimiyat organlarining vakillaridan tashkil topadi. Bir qancha mamlakatlarda yuqori palatalarning tarkibi rotatsiya tartibida yangilab turiladi (AQSH, Qozog‘iston). Sessiyalar parlament ishining muhim shakli hisoblanadi (qarang: *Parlament sessiyasi)*. Umumiy qoidaga ko‘ra ikki palatali parlamentning palatalari alohida ish olib boradi, ammo ayrim hollarda palatalarning qo‘shma majlislari chaqirilishi mumkin. Bir palatali parlament (ikki palatali parlamentning har bir palatasi) o‘z ishiga rahbarlik qilish uchun rais: Buyuk Britaniyada — spiker, Polshada — marshal, SHvetsiyada — talman saylaydi. Ayrim mamlakatlarda yuqori palata raisi konstitutsiyada ko‘rsatilgan mansabdor shaxs (AQSH, Hindiston, Argentinada — vitse — prezident) bo‘lishi mumkin. Ba’zi mamlakatlar (Latviya, Tojikiston, Turkmaniston)ning konstitutsiyaviy qonunchiligi parlamentda bir qancha tashkvliy vakolatlarga ega bo‘lgan maxsus organ — Rayosat tuzilipgani nazarda tutadi. Rayosat sessiyalar o‘rtasidagi tanaffuslarda alohida ahamiyat kasb etadi. Bosh organdan tashqari, har bir parlament (palata) qonun loyihalash ishini olib borish va parlamentning boshqa funksiyalarini bajarishga yordam berish uchun o‘z qo‘mitalari va komissiyalarini tuzadi. Qoida tariqasida, qo‘mitalar partiyalarning proporsional vakillik tizimiga asosan shakllantiriladi. Muayyan qonun loyihalari yuzasidan palatalar o‘rtasida chiqqan ke.shshmovchiliklarni bartaraf etish uchun tuziladigan palatalarning kelishuv komissiyalari parlamentning maxsus (favqulodda) organlari hisoblanadi. Ko‘ppartiyaviy tizimli mamlakatlarda parlament (palata) deputatlari partiyaviy mansubligiga qarab fraksiyalarga birlashadi. Deputatlar birlashmalarining yana bir shakli — deputatlar guruxlari xam siyosiy, ham hududiy belgiga ko‘ra tuzilishi mumkin. Parlament maqomini va uning faoliyatini tashkil etish masalalarini tartibga soluvchi huquqiy normalar tizimi parlament huquqi deb ataladi. Parlament yoki uning muayyan palatasi faoliyatining ichki tartibini (taomilini) belgilovchi muxim hujjat *reglament* hisoblanadi. (3)

**PARLAMENTAR RESPUBLIKA** — boshqaruvni respublika shaklining turi (*q. Respublika*), parlamenning rasman to‘la hokimiyatli organ hisoblanishi, u o‘ziga siyosiy hisobdor bo‘ladigan hukumatni tuzadi va ijro etuvchi hokimiyatni emas, balki faqat davlat boshlig‘i hisoblanuvchi prezidentni saylaydi (bevosita yoki saylashga vakil qilinganlar maxsus hay’ati tarkibida). Prezident o‘z vakolatlarini qoidaga ko‘ra bosh vazir boshchilik qiladigan hukumat taklifiga binoangina amalga oshiradi. Parlament hukumatni agar u parlament ko‘pchiligi qo‘llab-quvvatlashidan mahrum bo‘lsa, ishonchsizlik bildirib, iste’foga chiqarishi mumkin. Bu holatda prezident hukumat taklifiga ko‘ra parlamentni tarqatib yuborish va muddatidan oldin saylovlarni e’lon qilish huquqiga ega. Parlamentar respublikaning klassik modeli GFR, Italiya, Vengriya, CHexiya, Latviya, Estoniyada mavjud. (1)

**PARLAMENTARIZM** — vakillik qonun chiqaruvchi organ — parlamentning boshqa davlat organlari munosabatida rasmiy ustuvor bo‘ladigan sharoitda qonun chiqaruvchilik va ijro etuvchilik vazifalarining aniq taqsimlanishi bilan ifodalanadigan boshqaruv tizimi. Parlamentarizmda hukumatni parlament tuzadi va bu hukumat parlamentga hisobdor bo‘ladi. (1)

**PARTIYA TIZIMI** — siyosiy tartibot (institut) bo‘lib, jamiyatning siyosiy tashkil etilishini ifodalaydi, o‘zi ham, bir tomondan, siyosiy partiyalar bilan davlat o‘rtasidagi munosabatlar orqali, ikkinchi tomondan, partiyalarning siyosiy tizimni boshqa ijtimoiy elementlar va fuqarolar bilan o‘zaro aloqasi vositasida ifodalanadi. Taxminan yigirmadan ortiq mamlakatda (Butan, Ummon, Katar, Quvayt, Saudiya Arabistoni va boshqalarda) rasmiy taqiqlanganligi tufayli siyosiy partiyalar yo‘q. Qolgan davlatlarda bir partiyali yoki ko‘p partiyalari tizim mavjud (*q. Ko‘p partiyalilik*). Konstitutsiyaviy huquq fanida bitta ustun partiyasi bo‘lgan ko‘p partiyali tizim, ya’ni bir yarim partiyali (YAponiya, Meksika, SHvetsiya), ikkita etakchi partiyali, ya’ni ikki partiyali (AQSH, Buyuk Britaniya), ikkita etakchi partiyali, ulardan bittasi doimo kichikroq partiya (partiyalar)bilan ittifoqqa tayanadi, 2 $^1/_2$ partiyali deb atalmish (GFR), sof ko‘p partiyali (Fransiya, Rossiya) turlari farqlanadi. Ko‘p partiyali tizimning alohida turini partiyalar soni qonunda qayd etilgan tizimi tashkil qiladi (Braziliyada 1966-1979 yillarda, Senegalda 1976-1990 yillarda mavjud bo‘lgan, hozirgi kunda Nigeriya va Indoneziyada bor). Bir partiyali tizim totalitar (sotsialistik, fashistlar deb atalmish) mamlakatlar va eng avtoritar rejimlar uchun xosdir. Bunda ko‘pincha yagona partiyaning «etakchilik roli» konstitutsiyada mustahkamlanadi. Hozirgi kunda bir partiyali tizim KXDR, V’etnam, Laos, Malavi, Kubada mavjud. XXR soxta ko‘p partiyaviy tizim mavjud: mutlaq hukm suruvchi kommunistik partiya bilan bir qatorda uni so‘zsiz qo‘llab-quvvatlovchi bir necha «mitti» partiyalar ham bor. O‘zbekiston Respublikasida siyosiy tizim demokratik prinsiplardan biri bo‘lmish ko‘ppartiyaviylik asosida amal qiladi. (3)

**PARTIYA SENZI** — bir partiyali tizimdagi qator davlatlar (masalan, Jibuti, Malavi)da passiv saylov huquqiga ega bo‘lish uchun hukmron siyosiy partiya a’zosi bo‘lish zarurligi to‘g‘risida talab mavjud. Ko‘p partiyalilik tizimidagi qator mamlakatlar (Meksika, Peru, Tailand)da yoki partiyalar soni belgilab qo‘yilgan mamlakatlarda (Indoneziya) boshqacha turdagi Partiya senzi mavjud. Bu mamlakatlarda faqat siyosiy partiyalar parlament saylovlarida nomzod ko‘rsatish huquqiga ega, bu o‘z-o‘zidan partiyasizlarni passiv saylov huquqidan mahrum qiladi. O‘zbekiston Respublikasida saylash yoki saylanish uchun fuqarolar albatta partiya a’zosi bo‘lishi shart emas. (3)

**PARTIYASIZ HUKUMAT** — uch xil turli vaziyatlarda tashkil etiladigan hukumatlarning umumiy nomi. Birinchidan, mamlakatda umuman siyosiy partiyalar yo‘q bo‘lgan yoki ular taqiqlangan va yashirin holatda bo‘lganda (Saudiya Arabistoni, Quvayt, Ummon va boshqa absolyut monarxiyalar). Ikkinchidan, bu partiya etakchilari tomonidan emas, balki yuqori mansabli amaldorlar tomonidan tashkil etiladigan amaliy amaldorlar, yordamchi deb atalmish hukumat bo‘lib, qoidaga ko‘ra qisqa muddatli tusda bo‘ladi: uning vazifasi odatda hukumat tuzishda parlamentdagi chorasizlikni bartaraf qilish, parlamentning yangi tarkibi saylovlarini tayyorlash uchun tuziladi (bunday hukumatlar, masalan Finlyandiya, Gollandiya, Portugaliyada tuzilgan). Uchinchidan, maxsus turdagi partiyasiz hukumatni harbiy rejalar tuzadi. Harbiylar siyosiy hokimiyatni va boshqaruvning asosiy omillarini o‘z qo‘llarida saqlab, mutaxassislardan hukumat tuzishadi va o‘zlari ishlab chiqqan siyosatni amalga oshirishni uning zimmasiga yuklaydi. Argentina, Braziliya, Nigeriya va bir qator boshqa mamlakatlarda harbiy rejim vaqtida texnokrat partiyasiz hukumat bo‘lgan. (3)

**PLEBISSITAR DEMOKRATIYA** — gollist davri Fransiya Respublikasi siyosiy tajribasi negizida ishlab chiqilgan siyosiy-huquqiy nazariya. «Plebissitar demokratiya» nazariyasiga ko‘ra yuqori rivojlangan sanoatlashgan jamiyatning mavjud bo‘lish shart-sharoitlari barcha siyosiy hamda ma’muriy hokimiyatni serg‘ayrat umummilliy rahbar («kuchli prezident») va unga bo‘ysunadigan yuqori professional byurokratiya apparati qo‘lida to‘planishini talab

qiladi. To‘la siyosiy barqarorlikni ta’minlash maqsadida prezident «tanazzulga yuz tutgan» parlament muassasasiga emas, balki plebissitlar orqali ifodalanadigan millatning bevosita irodasiga tayanishi kerak (shular orqali prezidentning o‘zi saylanadi va u taklif etgan muhim davlat qarorlari o‘tkaziladi). (3)

**PREZIDENTLIK RESPUBLIKASI** — respublika boshqaruv shaklining turi, unda umumxalq saylovida saylanadigan **prezident** yuridik va haqiqatda davlat va ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanadi. Hozirgi dunyoda Prezidentlik respublikasining bir necha modeli mavjud. Klassik modelga ko‘ra (AQSH) prezident a’zolari faqat prezidentga siyosiy hisobdor bo‘lgan ma’muriyatni parlamentning yuqori palatasi (senat) roziligi bilan tuzadi. Prezident parlamentni tarqatib yuborolmaydi, ammo parlament prezidentni **impichment** tartibida lavozimdan chetlatishi mumkin. Lotin Amerikasi Prezidentlik respublikalari uchun prezidentning ma’muriyat a’zolarini tayinlash va chetlatishda to‘la erkinlik xarakterlidir, ammo prezident ma’muriyati ayrim a’zolarining parlamentga javobgar bo‘lgan holatlari ham uchraydi (Kosta Rika, Urugvay). SHarqiy yarimshardagi Prezidentlik respublikalari (Zambiya, Belarus, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Qirg‘iziston) uchun ijro etuvchi hokimiyatning alohida kollegial organi – prezident boshchilik qiladigan hukumatning mavjudligi, shuningdek ko‘p hollarda **ma’muriy bosh vazir** lavozimining borligi xarakterlidir. Ayrim holatlarda prezident rasman ijro etuvchi hokimiyat boshlig‘i hisoblanmasligi mumkin, ammo bunda hukumat faqat uning oldidagina javobgar bo‘ladi (Qirg‘iziston). Hukumatning parlamentga jamoaviy javobgarlik holatlari ham uchraydi (Zambiya), ammo prezidentga parlamentni tarqatib yuborish vakolati berilgan holatlar ham kam emas (O‘zbekiston, Turkmaniston). Konstitutsiyaviy fanda klassik modeldan (AQSH) chetga chiqqan Prezidentlik respublikalarini «**superprezidentlik**» deb nomlash qabul qilingan (*q. Superprezidentlik respublikalari*). (3)

**RESPUBLIKA** (*lot. respublica, res – ish, publicus - ijtimoiy*) — davlat boshqaruvi shakli, bunda davlat hokimiyatining barcha yuqori organlari yoki saylanadi yoki umummilliy vakillik muassasalari (parlamentlar) tomonidan tuziladi, fuqarolar esa shaxsiy va siyosiy huquqlarga ega bo‘ladi. Hozirgi kunda dunyodagi 190 mamlakatdan 140 dan ortig‘i Respublika hisoblanadi. Boshqaruvning respublika shakli doirasida **prezidentlik**, **parlamentar** va **aralash turdagi** (**yarimprezidentlik**) Respublikalarga ajratiladi. Prezidentlik Respublikasining (AQSH, Meksika, Qozog‘iston va boshqalar) farqlovchi yuridik xususiyati shundaki, unda umumxalq saylovlarida saylanadigan prezident ayni bir vaqtda davlat va hukumat boshlig‘i hisoblanadi. U faqat o‘ziga hisobdor bo‘lgan o‘z ijro etuvchi ma’muriyatini (AQSH, Meksika) yoki hukumatini (Peru, Qirg‘iziston) tuzadi. Hukumatda, qoidaga ko‘ra, bosh vazir lavozimi bo‘lmaydi. Prezident parlamentni tarqatib yubora olmaydi, parlament ma’muriyat (hukumat)ni iste’foga jo‘nata olmaydi. Prezidentlik respublikalarida «ma’muriy» bosh vazir lavozimining bo‘lishi, parlamentning ayrim vazirlarni lavozimdan chetlatish huquqi mustasno tarzida uchraydi. Parlamentar Respublika (Italiya, GFR, Vengriya, Latviya) yuridik jihatdan parlament faqat o‘zi oldidagina siyosiy javobgar bo‘lgan hukumatni tuzadigan va ijro etuvchi hokimiyatni emas, balki faqat davlat boshlig‘ini saylaydigan to‘la hokimiyatli organ ekanligida ifodalanadi. Prezident o‘z vakolatini bosh vazir boshchilik qiladigan hukumat taklifi bo‘yichagina amalga oshiradi. Parlament hukumatni agar u parlamentdagi ko‘pchilik qo‘llab-quvvatlashidan mahrum bo‘lsa, unga ishonchsizlik bildirib iste’foga chiqarishi mumkin. Bunday holatda prezident parlamentni hukumat taklifiga binoan tarqatib yuborish va muddatdan oldin saylovlarni belgilash huquqiga ega bo‘ladi. Aralash turdagi Respublikalarda (Fransiya, Finlyandiya, Ruminiya) prezidentlik Respublikasi elementlari parlament Respublika elementlari bilan biriktiradi. Prezident (davlat boshlig‘i) qoidaga ko‘ra umumiy saylovlarda saylanadi hamda yuridik va haqiqatda katta

vakolatlarga ega bo‘ladi. Ammo hukumat parlament yo‘li bilan tuziladi va u faqat prezident emas, balki parlament oldida ham javobgar hisoblanadi. Prezident bosh vazir boshchilik qiladigan hukumatga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi. Prezident ma’lum holatlar yuzaga kelganda parlamentni tarqatib yuborish huquqiga ega bo‘ladi. (3)

**REFERENDUM** (*lot. referendum – xabar berilishi lozim bo‘lgan narsa*) — **bevosita demokratiya**ning eng muhim tartiboti (instituti), davlat yoki ijtimoiy hayotning birorta masalasi bo‘yicha saylovchilarning ovoz berishidir. Referendum taomilining saylovlar taomilidan asosiy farqi saylovchilar ovoz beradigan ob’ektdadir. Saylovlardan farq qilib, Referendumda ma’lum lavozimga nomzod yoki nomzodlar ro‘yxati emas, balki Referendum o‘tkazilishiga sabab bo‘lgan ma’lum masala — qonun, qonun loyihasi, konstitutsiya, konstitutsiyaga tuzatish, muvofiq mamlakat xalqaro maqomiga taalluqli muammo, ichki siyosat muammosi ob’ekt hisoblanadi. Agar saylovlar natijalarini ham majoritar, ham mutanosib tizimlar bo‘yicha aniqlash mumkin bo‘lsa, Referendum natijalari faqat majoritarizm prinsiplari asosidagina aniqlanishi mumkin. **Plebissit**, ya’ni hududning siyosiy taqdiri to‘g‘risida shu hududda yashovchi aholidan so‘rash Referendumning o‘ziga xos shakli hisoblanadi. Ayrim mamlakatlar (Fransiya)da plebissit Referendumga nisbatan kengroq tushuncha deb hisoblanadi. Boshqa mamlakatlar (AQSH)da plebissit bilan Referendum bir-biridan farqlanmaydi. RF qonunchiligi faqat «Referendum» tushunchasini biladi. Hozirgi davlatlar konstitutsiyaviy huquqi Referendumning turli shakllarini ularni, qo‘llash taomillarini farqlaydi. Referendum **umummilliy** butun davlat hududiy o‘tkaziladi va **mahalliy**, federatsiyaning alohida sub’ektlari yoki ma’muriy-hududiy birliklarida o‘tkaziladi; **konstitutsiyaviy** va **qonun chiqaruvchi** Referendumga ajratiladi (konstitutsiyaviy Referendum mavzusi yoki yangi konstitutsiya loyihasi yoki konstitutsiyaviy islohot va konstitutsiyaga tuzatishlar, qonun chiqaruvchi Referendum mavzusi esa yoki yangi qonun loyihasi yoki kuchga kirgan qonun bo‘lishi mumkin). Huquqiy ahamiyatiga ko‘ra **maslahat** Referendumlari (**xalq so‘rovlari** deb ham nomlanadi), ular biror masala bo‘yicha saylovchilar korpusi irodasini bilish maqsadidagina o‘tkaziladi, bu masalani hal qilish davlatning boshqa organlari zimmasida bo‘ladi (SHveysariya, Ispaniyada o‘tkaziladi) va «hal qiluvchi» Referendumlarga bo‘linadi, bunda hujjatning taqdirini pirovard hal qilish maqsadida u saylovchilar ovoz berishiga qo‘yiladi. «Hal qiluvchi» Referendum, agar saylovchilarga ko‘pchilik ovoz bilan hali kuchga kirmagan hujjatni tasdiqlashtavsiya etilsa **tasdiqlovchi** (SHveysariya, Fransiyada foydalaniladi) yoki agar saylovchilarga ko‘pchilik ovoz bilan kuchga kirgan hujjatni rad etish tavsiya etilsa, **rad etuvchi** Referendumga ajratiladi (Italiyadagi amaldagi qonunchilik masalalari bo‘yicha Referendum mana shundaydir). Referendum, shuningdek, **majburiy** va **fakultativ** referendumga ham ajratiladi. Birinchi guruhga zarurligi konstitutsiya yoki konstitutsiyaviy-huquqiy hujjatda ko‘rsatilganlar (masalan, konstitutsiya o‘zgartirilganda) kiritiladi. Ikkinchi holatda u yoki bu masala bo‘yicha Referendumni o‘tkazish tegishli davlat organi yoki saylov korpusi irodasiga bog‘liq bo‘ladi. (3)

**SENAT** (lot. “senex” – oqsoqol, oqsoqollar kengashi) – O‘z.Rda Senat qonun chiqaruvchi hokimiyat organi – O‘zR Oliy Majlisining yuqori va hududiy vakillik palatasi hisoblanadi hamda O‘zR Konstitutsiyasi va «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida»gi O‘z.R konstitutsiyaviy qonuni asosida faoliyat ko‘rsatadi. **S.** a’zolari (senatorlar) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – olti kishidan saylanadi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 16 nafar a’zosi fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining

boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega boʻlgan hamda alohida xizmat koʻrsatgan eng obroʻli fuqarolar orasidan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi. Saylov kuni 25 yoshga toʻlgan hamda kamida besh yil Oʻzbekiston Respublikasi hududida muqim yashayotgan Oʻzbekiston Respublikasi fuqarosi Senat a'zosi boʻlishi mumkin.

Senat (*lot. senatus, senex*dan – *keksa, qariya*) — 1. AQSH, Fransiya, Italiya, Braziliya, Polsha, Ruminiya, CHexiya, Avstraliya, Belgiya, Kanada, Ispaniya, Venesuela, Kolumbiya, Dominikan Respublikasi, Oʻzbekiston Respublikasi va ayrim boshqa davlatlarda parlamentning yuqori palatasi nomi. 2. Ayrim mamlakatlarda davlat boshqaruvi yuqori organining nomi (mas. Berlin senati). 3. Ayrim mamlakatlarda (qoidaga koʻra) oliy sud tarkibidagi boʻlimlar nomi, masalan, GFR federal konstitutsiyaviy sudining Senati. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining yuqori palatasi Senat deb nomlanadi va u hududiy vakillik organi boʻlib hisoblanadi.(3)

**SIYOSIY PARTIYA** — oʻz a'zolari va tarafdorlarining siyosiy irodasini ifoda etadigan, shu davlat siyosiy yoʻnalishini belgilashda, davlat hokimiyat organlarini shakllantirishda, shuningdek, hokimiyatni oʻzining vakillik hokimiyat organlariga saylangan vakillari orqali amalga oshirishda ishtirok etishnioʻziga vazifa qilib olgan barqaror tuzilmaga va doimiy faoliyat xarakteriga ega boʻlgan mustaqil ijtimoiy birlashma. Partiyaning aniq yuridik ta'rifi aniq davlatlar qonunchiligida beriladi va ular mahalliy siyosiy va huquqiy an'analarga koʻra jiddiy farqlanishi mumkin. (3)

**SIYOSIY PARTIYALAR** – jamiyatning muayyan ijtimoiy tabaqalari faol namoyandalarini birlashtiruvchi, siyosiy hayotda bevosita ishtirok qilish orqali oʻz manfaatlarini ifodalovchi siyosiy tashkilot. S.p. zamonaviy jamiyat siyosiy tizimining muhim qismidir. Ular davlatning siyosiy yoʻnalishini belgilashda ishtirok etadi, hukumatning vakillik va ijro etuvchi muassasalarini shakllantiradi. S.p. belgilangan tarzda tasdiqlangan dasturi, nizomi va doimiy a'zoligi bilan zamonaviy demokratik institutlar shakllanishi davrida (XVIII—XIX asrlar) paydo boʻlgan. Lekin S.p.ga oʻxshash institutlar Gʻarb va SHarqda qadimdan mavjud boʻlgan. Afina geteriylari, Rim optimat va populyarlari antik davrda siyosiy partiya vazifalarini bajarishgan. Sanoatlashtirish davrlariga qadar siyosiy partiyalarning universal shakli klanlar va maxfiy tashkilotlar edi. Klanlar asosan qarindoshlik aloqalari bilan bogʻlangan kishilardan iborat edi (Yorklar va Lankasterlar — oʻrta asrlar Angliyasida; alaviylar («Ali partiyasi»), — oʻrta asrlarda Arabistonda); Osiyo davlatlarida hozirgi kunda ham qarindoshlik va yurtdoshlik prinsiplarining S.p.ning shakllanishi va faoliyat koʻrsatishida ahamiyati katta. Agar partiya muxolifat xususiyatiga ega boʻlsa, demokratik muassasalar rivojlanmagan sharoitda maxfiy tashkilot xususiyatlariga ega boʻlib qoladi (mas., Evropada masonlar tashkilotlari, islom dunyosida ismoiliylar tashkilotlari). Ayrim vaqtlarda bu S.p. maxfiy tashkilot xususiyatlariga ham ega boʻladi. OʻzR Konstitutsiyasining bir qancha moddalari partiyalar faoliyati uchun konstitutsiyaviy asos boʻlib xizmat qiladi. S.p. tashkil etish huquqi Konstitutsiyaning 34-m.sida mustahkamlangan. Konstitutsiyaning S.p.ga uyushish, S.p. ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqlariga egaligi, ozchilikni tashkil etuvchi muxolifatni S.p.dagi huquqlari toʻgʻrisida soʻz yuritilgan «Jamoat birlashmalari» bobida (8-bob) siyosiy partiyalar roʻyxatdan oʻtkazilishi zarurligi qayd etiladi. Konstitutsiyada, shuningdek, S.p.ning Konstitutsiyaga qarshi xatti-harakatlari taqiqlanadi (57-m.) S.p.ga nisbatan davlatning huquqlari (58-m.), partiyalarga a'zo boʻlish ixtiyoriyligi (59-m.), demokratik faoliyat va moliyaviy ta'minlanish manbalari (60-m.), ularning faoliyatini toʻxtatish yoki cheklashda umumiy sudlarning vakolatlari xususida ham soʻz yuritiladi. Konstitutsiyada OʻzR Oliy Majlisi deputatlari koʻppartiyalilik asosida saylanishlari ta'kidlanadi. Siyosiy partiyalar oʻz faoliyatlarini amalga oshirishda partiya a'zolarining siyosiy

xohish va irodalarini ifodalaydilar, davlat hokimiyati va boshqaruv idoralarini tuzishda ishtirok etadilar. O‘zbekistonda hozirgi kunda rasman ro‘yxatdan o‘tgan va faoliyat ko‘rsatayotgan «Adolat», «Xalq demokratik partiyasi», «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi va «Milliy tiklanish» partiyalari mavjud. (3)

**TEOKRATIK DAVLAT** — davlat hokimiyatini tashkil etishning maxsus shakli, bunda hokimiyat cherkov ierarxiyasiga tegishli bo‘ladi. Hozirgi kunda bunga Davlat-shahar Vatikan misol bo‘la oladi, u mutlaq teokrat monarxiyadir. Vatikanda qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati kardinallar hay’ati umrbod saylaydigan **Papa**ga tegishlidir. Teokratik davlatdan **klerikal davlat** deb atalmishni farqlash lozim (*q. Klerikal davlat*). (2)

**TERROR** – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, qo‘rqitish ma’nosini anglatadi. (11)

**TERRORIZM** - xalqaro munosabatlarni murakkablashtirish, davlatning suverenitetini, hududiy yaxlitligini buzish, xavfsizligiga putur etkazish, urush va qurolli mojarolar chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo‘rqitish maqsadida davlat organini, xalqaro tashkilotni, ularning mansabdor shaxslarini, jismoniy yoki yuridik shaxsni biron-bir faoliyatni amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majbur qilish uchun zo‘rlik, kuch ishlatish, shaxs yoki mol-mulkka xavf tug‘diruvchi boshqa qilmishlar yohud ularni amalga oshirish tahdidi, shuningdek terrorchilik tashkilotining mavjud bo‘lishini, ishlab turishni, moliyalashtirilishini ta’minlashga, terrorchilik harakatlarini tayyorlash va sodir etishga, terrorchilik tashkilotlariga yohud terrorchilik faoliyatiga ko‘maklashayotgan yoki bunday faoliyatida ishtirok etayotgan shaxslarga bevosita yoki bilvosita har qanday mablag‘ vositalar va resurslar berish yoki yig‘ishga, boshqa xizmatlar ko‘rsatishga qaratilgan faoliyat, shuningdek Vaziyatni beqarorlashtirish yoki davlat organlari tomonidan qaror qabul qilishning ta’sir ko‘rsatish yohud siyosiy yoki boshqa ijtimoiy faoliyatga to‘sqinlik qilish maqsadida davlat yoki jamoat arbobi yohud hokimiyat vakilining davlat yoki jamoatchilik faoliyati munosabati bilan uning hayotiga suiqasd qilish yoki uning badaniga shikast etkazish.

**Terrorizm** – davlat organlari yoki xalqaro tashkilotlar tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatish maqsadida, xalqaro munosabatlarni, hududiy birlikni buzish, davlat xavfsizligiga tahdid solish, qurolli mojarolarni keltirib chiqarish, aholini qo‘rqitish, jamiyatdagi siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish maqsadida sodir etilgan harakatlarda namoyon bo‘ladi. Terrorizm: portlash yoki o‘t qo‘yish; o‘ldirish yoki zo‘rlik ishlatish; mol-mulkni bosib olish yohud qo‘lda tutib turish yoki shaxsni garov sifatida ushlab turish; xalqaro himoya ostida bo‘lgan chet el davlatlar vakolatxonalari yoki xalqaro tashkilotlarning xizmat, uy-joy binolariga xujum qilish kabi harakatlarni sodir etishdan iborat bo‘lishi mumkin

**TERRORISTIK AKT** – terrorizm jinoyatini tashkil qiluvchi yagona hrakatni sodir etish

**TERRORISTIK GURUH** - terroristik haraktlarni amalga oshirish maqsadida ikki yoki undan ortiq shaxslarning birlashishi.

**TERRORISTIK FAOLIYAT** – umumiy qasd bilan qamrab olingan va yagona maqsadga yo‘naltirilgan terrorizm jinoyatini tashkil qiluvchi bir-biriga o‘xshash harakatlarni uzoq muddat davomida sodir etish. (11)

**UNITARIZM** (*frans. unitarism, lot. unitas*dan - *birlik*) — davlatni hududiy tashkil etishning ikki shaklidan biri. Agar davlat qismlaridan ko‘pi davlat tuzilmasi maqomiga ega bo‘lmasa, bunday davlat unitar (qo‘shilgan, oddiy) hisoblanadi. Unitar davlat tarkibida alohida muxtor milliy davlat tuzilmalari, shu jumladan, o‘z davlatchiligining ko‘pgina atributlariga ega bo‘lganlar bo‘lishi mumkin (masalan, unitar Ukraina tarkibida Qrim respublikasining borligi). Qoidaga ko‘ra unitar davlatda faqat bitta konstitutsiya, bitta fuqarolik, oliy davlat hokimiyat

organlarining bitta tizimi bo‘ladi. Unitar davlatning tarkibiy qismlari ko‘pincha ma’muriy-hududiy bo‘linish birligi maqomiga ega bo‘ladi; ular markaziy organlar qabul qiladigan qonunlar asosida boshqariladi, ularning hududlari mahalliy organlar va mahalliy aholi roziligisiz oddiy umumdavlat qonuni bilan o‘zgartirilishi mumkin. Unitar davlatning **markazlashmagan** va **markazlashgan** turlari mavjud. Markazlashmaganlar qatoriga mintaqaviy organlar markaziy organlarga bog‘liq bo‘lmagan holda tashkil etiladigan davlatlar kiradi, shuning uchun ham ular o‘rtasidagi yuridik munosabat markazlashmagan asosda bo‘ladi (Buyuk Britaniya, YAngi Zelandiya, YAponiya, Ispaniya, Italiya). Ikkinchi xilga mintaqaviy organlarning markazga bo‘ysunishi markaz tayinlaydigan mansabdor shaxslar vositasida amalga oshiriladigan unitar davlatlar (Niderlandiya, Qozog‘iston, O‘zbekiston) kiradi. (1)

**FUQAROLIK JAMIYATI** — konstitutsiyaviy huquq nazariyasida – ijtimoiy tuzum, unda insonga o‘z iqtisodiy va siyosiy hayot shaklini erkin tanlash kafolatlanadi, insonning umumiy huquqlari qaror toptiriladi, mafkuraviy plyuralizm ta’minlanadi. Fuqaro jamiyatini jamiyatga xizmat qiladigan davlat to‘la nazorat qiladi. Fuqaro jamiyati to‘g‘risidagi tasavvur XVII asr o‘rtalaridan boshlab (T. Gobbs asarlari) uzoq evolyusiya burjua revolyusiyasi davrida Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi e’lon qilinishi bilan keng tarqala boshladi. Jamiyat va davlat manfaatlari bilan qiyoslangan shaxsiy manfaatlarini anglaydigan jamiyatning teng huquqli a’zolari – «fuqarolar» paydo bo‘ldi. Uzoq rivojlanish natijasida Fuqaro jamiyatining umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan hozirgi tushunish tarkib topdi. Fuqaro jamiyatining asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi: mulkchilik shakllarining har xilligi va tengligi, mehnat va tadbirkorlik erkinligi, mafkuraviy xilma xillik va axborot erkinligi, inson huquqlari va erkinliklarining qat’iyligi, o‘zini-o‘zi boshqarishni rivojlantirish, oila asosiy ijtimoiy bo‘g‘in. Keyingi yillarda qator «postsotsialistik» mamlakatlarda kompleks konstitutsiyaviy-huquqiy tartibot (institut) sifatida Fuqaro jamiyatini mustahkamlash g‘oyasi sezilmoqda. (1)

**XALQARO TERRORIZM** – odamlarning bexuda xalok bulishiga olib keluvchi, davlatlar va ular rasmiy vakillarining normal diplomatik faoliyatini buzuvchi xamda xalkaro alokalar va uchrashuvlarni, shuningdek, davlatlar urtasida transport va boshka alokalarni amalga oshirishni kiyinlashtiruvchi xalkaro mikyosdagi ijtimoiy xavfli xarakat va kilmishlar yigindisi. Xalkaro terrorizm XX asrning 60-70-yillariga kelib uzini yakkol namoyon kildi: dastlab turli davlatlardagi jinoyatchilar, uz davlatiga nisbatan ekstremistik ruxdagi guruxlar birlashib, ijtimoiy-iqtisodiy jixatdan orkada kolayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda xarakat kursata boshladi. Xalkaro terrorchilar ayrim davlatlarning raxbarlariga, xalkaro mikyosda obruga ega bulgan siyosatchilarga chetdan turib suikasd uyushtirish, davlat, transport, aloka va milliy xavfsizlik tizimini ishdan chikaruvchi portlashlar va xarakatlar sodir etish, transport vositalari, jumladan, samolyotlarni olib kochish Bilan shugullana boshladilar. 80-yillarga kelib xalkaro terrorizm yanada jiddiy tus oldi. Begunox, tinch axoli urtasida kupdan-kup kurbonlar bulishi, xalkaro terrorchilarning boshka yovuzliklari jaxon jamoatchiligini qattiq tashvishlantirib kuydi. 1978 yili "kuchli ettilik" davlatlari raxbarlarining Bonn shaxridagi uchrashuvida xalkaro terrorizmga Karshi to‘g‘risida bayonot kabul kilindi. Xalkaro terrorizmning oshib borayotgan xavfi va unga Karshi kurash masalalari oliy darajadagi keyingi barcha uchrashuvlarning asosiy mavzusi bulib koldi. CHunki xalkaro terrorchilar bir tizimga birlashib baynalmilallashdi. Ular safida turli davlat, millat vakillari, diniy ekstremistik guruxdagi shaxslar, narkobiznes va kurol-yarog savdosidan foyda kuruvchi jinoiy tudalar, yollanib xizmat kiluvchilar paydo buldi. Xalkaro terrorizm va ekstremizm markazlarida razil jinoyatchilarni tayyorlaydigan maxsus lagerlar ochildi. Xalkaro terrorchilar axolini, xususan, dindorlar va yoshlarni davlatga, davlat tashkilotlariga karshi kuyishga xamda xokimiyatga karshi muxolifatni shikllantirishga xarakat

kiladi. Uzbekiston Respublikasi JKning 155-moddasida nazarda tutilgan va portlatishlar, ut kuyishlar yoki odamlarning xalok bulishi, katta mulkiy zarar keltirish yoxud ijtimoiy xavfli okibatlarga olib kelish xavfini tugdiruvchi boshka xarakatlar sodir etishdan iborat bulgan va jamoatchilik xavfsizligiga karshi karatilgan jinoyat. Mazkur xarakatlarning jamoat xavfsizligini buzish, axolini kurkitish yoxud xokimiyat organlarining karor kabul qilishiga ta’sir o‘tkazish maksadida amalga oshirilganligi, shuningdek, ana shu maksadlarda amalga oshirilish xavfi mavjudligi Ushbu jinoyatning muxim jixatlarini tashkil etadi. “Terrorizm” atamasi lotincha “terror” suzidan olingan bulib, kurkinch tugdirish, vaxima, daxshat ma’nolarini anglatadi. Uolter Laker terrorizmga kuyidagi ta’rifni beradi: “terrorizm – bu jamiyatni vaximaga solish maksadida va shu asosda davlatni kuchsizlantirish, xatto, mansabdor shaxslarni uldirish, jamiyatda siyosiy uzgartirishlar qilish uchun nodavlat tashkilotlari tomonidan zurlikni kullash yoki zurlik ishlatish bilan kurkitishdir”. Terrorizm tabiatiga baxo berishga nisbatan 3 xil karash mavjud: terrorchilik faoliyatining jangovar kurinishidan kelib chikib, kriminal va ijtimoiy-siyosiy karashlarga asosan. Birinchi karashga asosan terrorizmga kurolli xarakatning uziga xos kurinishlaridan biri deb karaladi va “past darajadagi kurolli mojaro” deb baxolanadi. Ikkinchi karash masalaning kriminal tomoniga axamiyat berib, terrorizmni jinoyatchilikning bir turi deb xisoblaydi. Uchinchi karash terrorizm ijtimoiy-siyosiy karama-karshiliklarda kelib chikkan siyosiy kurashning turlaridan biri deb karaydi.(18)

## 9. REFERAT MAVZULARI

1. Ma’naviyat tushunchasi, uning mazmuni mohiyati.
2. Ma’naviyat tushunchasining inson. Millat hayotida muhim ahamiyaga ega ekanligi.
3. Ma’naviyatning ma’no mazmunii belgilaydigan asosiy xususiyatlari.
4. Ma’naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.
5. Milliy va ma’naviy merosimiz shaxs ma’naviy kamolotining asosi ekanligi.
6. Madaniyatning ilm, axloq, badiiy, diniy qadriyatlar kabi tarkibiy qismlari mavjudligi.
7. Muqaddas dinimiz-ma’naviyatning tarkibiy qismi.
8. Din niqobidagi mutaassiblarning ma’naviyatimizga tajovuzlari.
9. Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilinishining sabablari.
10. Buyuk mutafakkirlarning islom ma’naviyatiga qo‘shgan xissasi.
11. Globallashuv fenomeni.
12. Globallashuv jarayonining xayotimizga kirib kelayotganining sababi.
13. Globallashuv jarayoni, uning ijobiy va salbiy tomonlari.
14. Globallashuv mafkuraviy ta’sir o‘tkazish quroli sifatida
15. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli so‘zining ma’no mohiyati
16. Ma’naviy bo‘shliq va zamonaviy axborot maydoni xavfi
17. Beparvolik, loqaydlikning ma’naviyatga etkazadigan zararlari
18. Mustaqil dunyoqarash va sog‘lom fikrlash
19. Komil inson, sharqona axloq me’yorlari
20. Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qashi ma’rifat bilan kurashish
21. Mafkuraviy profilaktika va uning zaruriyati
22. Mafkuraviy immunitet
23. Ma’naviy tajovuzlar (xudbinlik, loqaydlik, manfaatparastlik, xasad, korrupsiya, boshqalarni mensimaslik, mahalliychilik, sotqinlik) kabi illatlardan ximoya qilish yo‘llari
24. SHaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yangicha tamoyillar asosida shakllanishi
25. Ma’naviy boylik insonning ruhiy kuchi
26. Mafkuraviy jarayonlarni ilmiy tahlil qilish vazifasi
27. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarda zamonaviy texnologiyalar
28. YOshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash vositalari
29. Ma’naviy bo‘shliq va zamonaviy axborot maydoni xavfi
30. Tajovuzkor millatchilik, irqchilik, buyuk millat kabi tushunchalarning zararli oqibatlari
31. Xalqaro maydonda siyosiy kuchlarning “ommaviy madaniyat” niqobidagi xarakatlari
32. Mustaqillikni asrashda “O‘zingni, o‘z uyingni o‘zing asra!” shiorining mohiyati
33. SHarqona axloq kodeksi
34. Erkinlik va demokratiya tushunchalarining siyosiy kuchlarning o‘z strategik mafaatlari yo‘lida foydalanishi
35. Globallashuv mafkuraviy ta’sir o‘tkazish quroli sifatida
36. Mafkuraviy immunitetni kuchaytirishning samarali usul va uslublari
37. Ma’naviyatga taxdid davlatga taxdiddir
38. Ma’naviyatni tushunish, anglash uchun, insonni anglash kerak
39. Ma’naviy taxdidlarga qarshi kurashda ilm fan, adabiyot, san’at va ijodkorlarning o‘rni
40. San’at ma’naviyatning qudratli kuchi Ma’naviyat-milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi.
41. Ma’naviy qadriyatlar va dunyoqarash.
42. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik.
43. Ma’naviy merosimizning jahon tarixida tutgan o‘rni.
44. Ma’naviyat taraqqiyot omili.
45. Ko‘hna tarix shodasida bitta marjon, O‘zbegim.
46. Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar.
47. Ma’naviy qadriyatlar va ularning o‘zaro munosabatlari.

48. Milliy qadriyatlarimiz va istiqlol ma’naviyati.
49. O‘zbekistonning ma’naviy-ma’rifiy zaminlari.
50. Inson qalbi va ma’naviy qadriyatlar.
51. bilim – ezgulik, kamtarlik va ma’naviy etuklik.
52. SHarq va G‘arb ma’naviy qadriyatlarining o‘xshash va farqli tomonlari.
53. Demokratiyaning ma’naviy qiyofasi.
54. Barkamol insonning sharqona fazilatlari.
55. Ma’naviy barkamollikning qirrallari va asosiy mezonlari.
56. Insonparvarlik tushunchasi va uning vatanparvarlik tuyg‘usi bilan uyg‘unligi.
57. Milliy o‘z-o‘zini anglash tushunchasi va uning ma’naviyatni asrashdagi o‘rni.
58. Inson zotini ulug‘lash-ma’naviy etuklik mezoni.
59. «Temur tuzuklari»da ma’naviy qadriyatlar mohiyati.
60. Tadbirkor ma’naviyatining bozor iqtisodiyotida tutgan o‘rni.
61. Qadimgi SHarq xalqlari ma’naviy qadriyatlarining umuminsoniy ahamiyati.
62. Mustaqillik va islomiy qadriyatlarning tiklanishi.
63. Islom ma’naviy qadriyatlari va axloq-odob me’yorlarini umuminsoniy tavsifi.
64. Zardushtiylik va «Avesto»da inson ma’naviyati masalalari.
65. Ma’rifatchilarning shaxs va jamiyat ma’naviy qadriyatlari haqidagi g‘oyalari.
66. Mustamlakachilik sharoitida ma’naviy qadriyatlar.
67. Mustamlakachilik va qaramlik yillarida ma’naviy qadriyatlarimizni asrash uchun olib borilgan kurash.
68. Milliy ma’naviy meros va qadriyatlar, ularning «ommaviy ma’naviyat» bilan munosabati.
69. Jadidlarning ta’lim va san’at sohasiga qo‘shgan hissasi va uning milliy ma’naviyatni rivojlantirishdagi o‘rni.
70. Mustabid tuzum davrida dunyoviy va diniy qadriyatlarga munosabat.
71. Komil inson haqida SHarq mutafakkirlarining fikrlari.
72. Milliy ma’naviyatdagi huquqiy, axloqiy qadriyatlar.
73. Umuminsoniy qadriyatlar va ma’naviy kamolot.
74. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglash.
75. Ijtimoiy ehtiyoj va qadriyatlar.
76. Ma’naviy qadriyatlarning hozirgi zamondagi o‘rni va ahamiyati.
77. Ma’naviy qadriyatlar sog‘lom avlodni tarbiyalash vositasi.
78. Mashhur pandnomalarda ma’naviy qadriyatlar.
79. Ma’naviy qadriyatlarning odat, an’anaga aylanishi.
80. Umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ma’naviy barkamollikning belgisi.
81. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat.
82. SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda oila va mahallaning o‘rni.
83. Fuqarolik jamiyati qurilishida ma’naviy qadriyatlarning ahamiyati.
84. O‘zbek oilasida ma’naviy qadriyatlarning o‘rni.
85. Eng buyuk jasorat- bu ma’naviy jasorat.
86. Ma’naviy jasorat – bashariyat hamma davrlarga xos xususiyat ekanligi.
87. Ma’naviy jasorat tushunchasi.
88. Ma’naviy jasoratning ajdodolar merosida ifodalanishi.
89. Ma’naviy jasoratda umuminsoniy va milliy tuyg‘ularning uyg‘unligi.
90. Madaniyat va din.
91. Dinning jamiyatda va inson hayotida tutgan o‘rni.
92. SHarq Uyg‘onish davrida dinning o‘ziga xos xususiyatlari.
93. Islomiy qadriyatlar va hozirgi zamon.
94. O‘zbekistonda jamiyatning ma’naviy yangilanishi jarayonida diniy-ma’naviy merosga munosabat.
95. An’anaviy dinlarning dunyo madaniyatida tutgan o‘rni.

96. Din va ma’naviy meros.
97. Diniy bag‘rikenglik madaniyati.
98. Istiqlol - milliy-madaniy taraqqiyotning omili.
99. Din va axloq.
100. Mustabid sho‘ro hukmronligi davrida O‘zbekistonda din.
101. Mustaqillik davrida milliy-ma’naviy merosning tiklanishi.
102. Dinda milliylik va umuminsoniylik.
103. Din va demokratiya.
104. Din va siyosat.
105. Din va hurfikrlilik.
106. Qadimgi Misr dinlari.
107. Qadimgi YUnon dinlari.
108. Qadimgi Xitoy dinlari.
109. Qadimgi Hindiston dinlari.
110. Qadimgi Mesopotamiya xalqlar dinlari.
111. SHaxs komolotida dinning tutgan o‘rni.
112. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi dinlari.

# 10 ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

### Rahbariy adabiyotlar:


11. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2011 y.
12. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2000 y. 11-bet.
13. Karimov I.A Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. 11-jild. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2003 y.
14. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2005 y.
15. Karimov I.A. Bizning Bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – Toshkent.:O‘zbekiston, 2005 y.
16. Karimov I.A. YUksak ma’naviyat - engilmas kuch – Toshkent.: Ma’naviyat, 2008.
17. Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. Toshkent.: O‘zbekiston, 2009.
18. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz-vatanimiz taraqqiyoti va halqimiz farovonligini yanada yuksaltirish. Toshkent.: O‘zbekiston, 2010.
19. Karimov. I.A.Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent.: O‘zbekiston, 2010.
20. Karimov. I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent.: O‘zbekiston, 2011y.

**Darslik va o‘quv qo‘llanmalar:**

7. Otamurotov S., Ramatov J., Xusanov S. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent.: 2002.
8. Umarov E., Abdullaev M. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: Cho’lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.-2006.
9. Imomnazarov M., Saidov M. Milliy taraqqiyotning ma’naviy-axloqiy asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Akademiya” Toshkent.: -2005.
10. Abdurahmonov M., Otamurotov S., Ma’naviy salohiyat. O‘quv qo‘llanma. Toshkent.: Universitet. -2009.
11. Quranboev Q., Abdurahmonov M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarini o‘qitish bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent.: -2010.
12. Hamdamova M. Ma’naviyat asoslari. O‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti. Toshkent.: -2008.
7. Milliy ma’naviyatimiz asoslari. O‘quv qo‘llanma. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. Toshkent.: -2006.
8. Sadulla Otamuratov. Sarvar Otamuratov. O‘zbekistonda ma’naviy-ruhiy tiklanish. O‘quv qo‘llanma. “YAngi asr avlodi”. Toshkent.: -2003.

### Qo‘shimcha adabiyotlar:

10.Aliev A.. Istiqlol va adabiy meros. T., O‘zbekiston, 1997.
11.Otamurotov S., M.Abdurahmonov., SH.Rizaev., O‘zbekistonda ma’naviyat sohasidagi islohotlar: rivojlanish bosqichlari, erishilgan natijalar va istiqboli. Toshkent.: Akademiya-2010.
12.Maxmudov T. Mustaqillik va ma’naviyat. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari asosida. – Toshkent.: SHarq Nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. - 2001 y.
13.Ergashev F., Ergashev I. Fidoyilik – hayot mazmuni. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2001 y.
14.Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent.: O‘zbekiston , 2000 y.
15.CHoriev A. Inson falsafasi. II. Mustaqil shaxs. Toshkent.: CHinor ENK. 2002.

16.Erkaev A.P. Ma’naviyat millat nishoni. Toshkent.: 1997.
17.Eshonqulov A. Ma’naviyat tarbiyasi. Muloqot, 1997. №1.
18.Mahmudov T.. Nafosat va ma’naviy qadriyatlar. Toshkent.: 2001.

13. Davlat, jamiyat, oila va yoshlar tarbiyasi muammolari. Toshkent.: 1997.
14. Ziyoev X. Istiqlol-ma’anaviyat negizi. Ma’naviyat. Toshkent.: -1999.
15. SH. Qahharova. Global ma’naviyat- globallashuvning g‘oyaviy asosi. Tafakkur nashriyoti. Toshkent.: -2009.
13. Otamuratov S. Globallashuv va millat. Toshkent.: YAngi asr avlodi. 2008.

**Elektron ta’lim resurslari:**

10. “Xalq so‘zi” gazetasi –www info XS. Uz.
11. “Turkiston” gazetasi - www turkiston sarkor. uz.
12. “Ma’rifat” jurnali - www ma’rifat – inform.
13. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - www rzult academy freenet uz.
14. “Moziydan sado” jurnali - www moziy dostlink. Net
15. www.mfa.uz.
16. www.press-servise.uz.
17. www.literature.uz
18. www.Ziyonet.uz.

## Foydalaniladigan adabiyotlar ro‘yxati

### Rahbariy adabiyotlar:

9. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2010. – 40 b.
10.«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni (yangi tahriri) // O‘zbekistonning yangi qonunlari, № 19. – T.: Adolat, 1998. 224-234-betlar.
11.Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: O‘zbekiston, 1999.
12.Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O‘zbekiston. 1997.
13.Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqkiyot yo‘li // O‘zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O‘zbekiston, 1998.
14.Karimov I.A. E’tiqod erkinligi qonuniy asosda bo‘lsin // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so‘zlagan nutqi. Xalq so‘zi, 1998, 5-may.
15.Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 158 b.
16.Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – engilmas kuch. – T.: «Ma’naviyat», 2008. – 176 b.

### Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

3. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jaev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. Darslik / Mas’ul muharrir akad. Ibrohimov N.I. – T.: Mehnat, 2004. – 296 b.
4. Hasanov A., Komilov M., Uvatov U., Azimov A., Rahimjonov D., Zohidov Q., Islom tarixi. Darslik. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
3. Yo‘ldoshxo‘jaev H. Rahimjonov D. Komilov M. Dinshunoslik ma’ruzalar matni. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 2000.
6. Mo‘minov A.Q. Dinshunoslik asoslarini o‘qitish va o‘rganishning yagona konsepsiyasi. – T.: ToshDSHI nashriyoti, 1999.
7. Islom va hozirgi zamon: o‘quv qo‘llanma. Mas’ul muharrir SH.YOvqochev. – T.:

"Toshkent islom universieti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 b.

**Qo'shimcha adabiyotlar:**

9. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy / A.Abdullo tarjimasi. – T.: G'.G'ulom nomli «Adabiyot va san'at» nashriyoti, 1993.

10. At-Termiziy. SHamoili Muhammadiya / Sayyid Mahmud Taroziy Alixon-to'ra tarjimasi. – T.: «Mehnat» nashriyoti, 1991.

11. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Sahih al-Buxoriy: 2 jildli. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.

12. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar, I tom. – T., 1968.

13. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas'udiy // Beruniy. Tanlangan asarlar. V tom. – T., 1973. – B. 157-167.

14. Bolshakov O.G. Istoriya Xalifata. 1-3 chasti. – M, 1989-1998.

15. Borisov. A.B. Rol islama vo vnutrenney i vneshney politike Egipta (XX vek). – M., 1991.

16. Vasilev A.S. Istoriya religiy Vostoka. – M., 1997.

18. ervish R.A., Levteeva L.G., Musakaeva A. Pamyatniki istorii religii i kulturы v Uzbekistane. Posobie dlya fakultativa po istorii religii. – T.: O'qituvchi, 1994.

19. Islam na territorii bывshey Rossiyskoy imperii. Ensiklopedicheskiy slovar. Vыpusk 1. – M., 1998. – S. 47-58.

20. Istoriya religiy narodov Sentralnoy Azii. / Otv. redaktor: dots. SH.A.YOvkochev. – T.: Tashkentskiy gosudarstvennыy institut vostokovedeniya, 2006. – 227 s.

21. Iz istorii drevnix kultov Sredney Azii. Xristianstvo. – T.: «Glavnaya redaksiya ensiklopediy», 1994.

22. Imom al-Buxoriy. Al-Adab al-mufrad. – T.: O'zbekiston, 1990.

23. Imom al-Buxoriy: Al-Jomi' as-sahih: IV jild. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1993.

24. Islom ziyosi o'zbegim siymosida. / Tahrir hay'ati: H.Karomatov, Z.Husniddinov, A.Hasanov va boshq.; rasmlar mualliflari: F.Qurbonboev va boshq. – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyoti, 2001. – 240 b.

25. Islom ma'rifati: asliyat va talqin: o'quv-uslubiy qo'llanma / Mas'ul muharrir Usmonxon Alimov. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 158.

26. Ismoil Maxdum. Toshkentdagi Usmon Mushafining tarixi. – T.: Movarounnahr, 1995.

21. Islom. Ensiklopediya. A-H / Z.Husniddinov tahriri ostida. – T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 320 b.

22. Islom va dunyoviy ma'rifiy davlat (o'zb. va nemis tillarida). / Z.I.Munavvarov va V.SHnayder-Detersning Umumiy tahriri ostida. – T.: Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi-Fridrix Ebert jamg'armasi, 2003. – 291 b.

23. Islom ma'rifatida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi / mas'ul muharrir O.YUsupov. – T.: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – B. 271.

23. Ma'naviy va diniy etuklik – davr talabi / to'plovchilar: Z.Islomov, SH.SHojalilov. Mas'ul muharrir R.V.Abdullaev. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2009. – 444 b.

24. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. – T.: «YOzuvchi», 1996.

23. Karomatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. – T.: «Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti» nashriyoti, 2008. – 664 b.

27. Karimov A. Diniy mutaassiblikning tarixiy ildizlari va zamonaviy ko'rinishlari: o'quv-uslubiy qo'llanma – T.: Movarounnahr, 2011. – 63 b.
28. Men A. Istoriya religii. – M, 1994.
29. Mifы narodov mira. V 2 tomax. – M., 1973.
27. Markaziy Osiyo dinlari tarixi. / Mas'ul muharrir: dots. SH.A.YOvqochev. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. – 207 b.
40. Konfutsiy. Izrecheniya. – M., 1994.
41. Kon-Щerbok D., Kon-SHerbok L. Iudaizm i xristianstvo. Slovar. – M. 1995.
42. Krivelev I.A. Istoriya religii. – M., 1989.
43. Kulakov A.E. Religii mira. – M., 1996. – S. 150-173. .
44. Limen Oliver. Vvedenie v klassicheskuyu islamskuyu filosofiyu / Per. s angl. – M.: Izdatelstvo «Ves mir», 2009. – 280 s.
45. Ochildiev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo'llari (yuz savolga - yuz javob). – T., 2008.Osnovы religiovedeniya. Uchebnoe posobie dlya studentov vыsshix uchebnыx zavedeniy. Pod obщ. red. M., YAblokova. – M.,1995.
46. Uvatov U. Muslim ibn al-Hajjoj. – T.: 14 A. Qodiriy nomli «Xalq merosi» nashriyoti, 1995.
47. Uvatov U. Muhaddislar imomi. – T.: «Ma'naviyat», 1998.
48. Otamurodov S. va boshqalar. O'zbekistonda ma'naviy-ruhiy tiklanish. – T.: «YAngi asr avlodi», 2003.
49. Rahimjonov D., Muratov D. Hadisshunoslik: o'quv qo'llanma. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 71 b.
50. O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Birinchi kitob / Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi U.Uvatov. – T.: Ma'naviyat-Movarounnahr, 2010. – 398 b.
51. Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri. / Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – T.: «Toshkent islom universiteti» matbaa-nashriyot birlashmasi, 2009. – 617 b.

44. Hasanov A. Makka va Madina tarixi (Qadimgi Arabiston tarixidan lavhalar). – T.: Mehnat, 1992. – 79 b.
45. Hasanov A.A. Qadimgi Arabiston va ilk islom: I kitob. Johiliya asri // Tahrir hay'ati: H.Karomatov, N.Ibrohimov, Z.Husniddinov va boshq./, – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot, 2001. – 256 b.
46. Husniddinov 3.M. Islom – yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.

51. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie: teoriya, istoriya i sovremennыe religii. – M., 1996.
52. Religioznыe traditsii mira. V 2 tomax. – M., 1996.
53. Staviskiy B.YA. Sudbы buddizma v Sredney Azii. Po dannым arxeologii. – M., 1998.
54. Fromm E. Psixoanaliz i religiya // Fromm E. Imet ili bыt? – M., 1990.
55. Xrestomatiya po islamu. Per. s arabskogo, vved i primech. – M., 1994.
56. CHurakov M.V. Narodnoe dvijenie v Magribe pod znamenem xaridjizma. – M., 1990.
57. Щerbatskoy F.I. Izbrannыe trudы po buddizmu. – M., 1988.

**Elektron ta'lim resurslari:**

8. Xalq so'zi gazetasi – www.infoXS.Uz
9. Turkiston gazetasi – www.turkistonsarkor.uz
10. Ma'rifat jurnali – www.ma'rifat-inform.uz
11. Jamiyat va boshqaruv jurnali – www.rzultacademyfreenet.uz

12. Moziydan sado jurnali – www.moziy.dostlink.net
13. Tashqi ishlar vazirligi – www.mfa.uz
14. Ziyonet – www.ziyonet.uz

## 11.TAYANCH KONESPEKT

## I. BO‘LIM. MA’NAVIYAT, UNING JAMIYAT VA INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O‘RNI

### Ma’naviyat tushunchasi, predmeti, maqsadi va vazifalari

Ma’naviyatning ma’no-mazmuni, hayotdagi o‘rni va ahamiyati haqida turli fikr va ta’riflar. Prezident Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida ma’naviyat tushunchasiga bergan ta’rifi, uning ma’naviyatning mohiyatini o‘rganishdagi o‘rni.

Ma’naviyatning predmeti. Inson va jamiyat ma’naviy hayotini o‘rganuvchi fan. Uning maqsadi jamiyat ma’naviy taraqqiyotining asosi ekanligi. Ma’naviyat va ma’rifat uyg‘unligi.

“Ma’naviyat”ning kategoriyalari. O‘zlikni anglash, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, xayrixohlik, iymonlilik, halollik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik va boshqalar.

Ma’naviyatning rivojlanish qonuniyatlari. SHaxs va jamiyatning ma’naviy salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar. SHaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari natijasida yuzaga keladigan qonuniyatlar. Ma’naviyat rivojlanishidagi “ta’sir” va “aks ta’sir” qonuniyati.

Ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnining oshib borishi. Davlat siyosatida ma’naviyatni yuksaltirishning ustuvor sohaga ko‘tarilishi. Umumma’naviy yuksalishning asosiy mezonlari.

### Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari va milliy-ma’naviy tiklanish haqidagi konsepsiyalari

Prezident Islom Karimovning ma’naviyat, uning mezonlari haqidagi konsepsiyasi. Uning jamiyat va shaxs hayotidagi o‘rnini ko‘rsatib berishda metodologik asos bo‘lishining asosiy sabablari. Mamlakat miqyosidagi islohotlarning ma’naviy sohadagi islohotlar bilan uzviy olib borilishining zarurligi. Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasi. “Milliy taraqqiyot” va “Milliy tiklanish” tushunchalari. Mamlakat va jamiyat taraqqiyotida milliy-ma’naviy tiklanishning ustuvorligi. Jamiyat rivojlanishining ma’naviy–axloqiy negizlari. Milliy g‘oyaning milliy-ma’naviy tiklanishdagi ahamiyati. YOshlar yuksak ma’naviyati - milliy-ma’naviy tiklanishning asosiy omillaridan ekanligi.

### Ma’naviyatning tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro munosabatlari

Ma’naviyat va madaniyat. Ularning o‘zaro munosabati. Moddiy va ma’naviy madaniyatning o‘zaro aloqadorligi. O‘tmishda madaniyat va ma’naviyat, uning bugun va kelajakni bog‘lovchi omil ekanligi. Madaniy boyliklar va ularning shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rni.

Ma’naviy meros – ma’naviyat rivojlanishining asosi ekanligi. Madaniy meros. Ma’naviyatning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati. Qadriyat tushunchasi. Ma’naviy qadriyatlarning yoshlar tarbiyasidagi, milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati. Diniy qadriyatlarning inson ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni.

### Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o‘zaro munosabatlari hamda inson kamolotidagi ahamiyati

Ma’rifat tushunchasi. Uning mazmun va mohiyati. Ma’rifatchilik. Ma’rifatparvarlik. Ma’naviyat va ma’rifatdagi o‘zaro uyg‘unlik. YUksak ma’naviylik shaxs fazilatining mezoni. Ma’naviyat va ma’rifat – ma’naviy barkamollikning asosi ekanligi.

Ta’lim-tarbiya - shaxs ma’naviy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan tizim ekanligi. Ta’lim va tarbiyadagi uzviylik. Ta’lim tizimiga qo‘yilayotgan yangi talablar tizimida ma’naviyatning o‘rni.
Ma’naviy qashshoqlikning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta’siri.

### Ma’naviyat, iqtisod va ularning o‘zaro bog‘liqligi

Ma’naviyat va iqtisod uyg‘unligi jamiyatning yuksak iqtisodiy taraqqiyotga erishish sharti ekanligi. Ma’naviy yuksalish va iqtisodiy rivojlanishining uyg‘unligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy barkamol inson omili.

Bozor iqtisodiyoti va tadbirkor ma’naviyati. Zamonaviy tadbirkorning yuksak ma’naviy fazilatlari.
O‘zbekiston milliy mustaqilligining ma’naviy–ma’rifiy asoslari. “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning ma’naviy va iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rni.
Bozor iqtisodiyoti sharoitida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ahamiyati.

### Ma’naviyatning siyosat, huquq va hokimiyatdagi o‘rni.

Ma’naviyat va siyosat. Ularning o‘zaro bog‘liqligi. Ma’naviyat, jamiyat va davlat faoliyatini siyosatda ifodalanishi. Siyosatda xalq umummanfaatlarining mujassam bo‘lish zaruriyati. Ma’naviy tiklanish va yuksalishida davlat siyosatining o‘rni. Adolatli va adolatsiz siyosatning jamiyat ma’naviy hayotidagi oqibatlari .

Ma’naviyat va huquq, ularning o‘zaro munosabati. Huquqiy savodxonlik. Uning ma’naviyat bilan bog‘liqligi. Huquqiy ma’naviyat. Huquqiy demokratik davlat qurishda shaxs xuquqiy ongining o‘rni. Hokimiyat boshqaruv tizimiga ma’naviy barkamol shaxslarni jalb qilish, huquqiy demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini shakllantirishning muhim sharti. Rahbar ma’naviyati, uning jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligini ta’minlashdagi o‘rni.

### Ma’naviyatda milliylik va umuminsoniylik

Milliy ma’naviyat. Millat tushunchasi mohiyati, xususiyatlari va unda ma’naviyatning o‘rni. Milliy ma’naviyatning asosiy vazifalari.

Milliy, mintaqaviy, umuminsoniy ma’naviyat. Mintaqaviy ma’naviyat va uning o‘ziga xos jihatlari.

Umuminsoniy ma’naviyat va uning zaminlari. Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik milliy-ma’naviy tiklanish asoslaridan biri. Milliy ma’naviyat va umuminsoniy ma’naviyat uzviyligi.

Millatlararo madaniy–ma’naviy munosabatlar. Millatlararo totuvlik, O‘zbekistonda milliy–madaniy markazlar va ularning faoliyati. Milliy madaniy markazlarning millatlararo ma’naviy hamkorlikning mustahkamlashdagi va milliy ma’naviyatlarning o‘zaro boyishidagi o‘rni.

## II. BO‘LIM. MA’NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY VA AMALIY ZAMINLARI

### Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari

Jahon ma’naviyati va ma’rifati rivojiga Markaziy Osiyo xalqlarining qo‘shgan hissasi. Xalqimiz madaniy–ma’naviy taraqqiyotining asosiy bosqichlari: “Avesto” – xalqimiz diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bebaho ma’naviy obida. “Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” “Avesto” ma’no–mohiyatini belgilovchi tamoyil sifatida. Moniylik va mazdakizm

ta’limotda yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat o‘rtasidagi g‘oyalari. Milliy bayram – Navro‘z milliy qiyofamiz, urf – odatlarimizning betakror ifodasi. Ilk SHarq uyg‘onish davri ma’naviyati.

Turkiy bitiklar. Qadimgi SHarq manbalari. Arxeologik yodgorliklar. Xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma adabiy meros namunalari. Milliy ma’naviy qadriyatlarning mumtoz ko‘rinishlari. Vatan ozodligi, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik ajdodlarimizning ma’naviy fazilatlari ekanligi.

**Islom dinida ma’naviyat va shaxs ma’naviy qiyofasining talqini**

Din – inson ma’naviyatining tarkibiy qismi. Islom dini. Qur’oni Karim. Hadislarda inson ma’naviyati. IX asr hadis ilmining “Oltin asri”. Imom Buxoriy “Muhaddislar sultoni”. Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy ma’naviy merosi. “Sunani Termiziy” asari. Undagi insof, adolat, insonparvarlik g‘oyalari va ahloqiy–ma’naviy masalalar.

Tasavvuf ma’naviyati, mazmun – mohiyati. Tasavvufdagi komil inson va tarbiya xaqidagi g‘oyalar. YAssaviya, Kubroviya, Naqshbandiya tariqatlarida ma’naviyat.

Diniy aqidaparastlik ma’naviy qashshoqlikning ko‘rinishi va uning zararli oqibatlari.

Mustaqillik davrida diniy qadriyatlarning tiklanishi va ularning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati. Prezident Islom Karimovning nutq, ma’ruza va asarlarida Islom ma’naviyati va uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi fikrlari.

**Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida ma’naviyat va ma’rifat masalalari**

Markaziy Osiyo SHarqning ma’naviyat va ma’rifat markazlaridan ekanligi. Ilk Uyg‘onish davri ilmiy – ijodiy kashfiyotlari. O‘sha davrda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy markazlar: Bog‘dod Ma’mun akademiyasi, Xorazm Ma’mun akademiyasi, Samarqand (Ulug‘bek) akademiyasi, SHarq va G‘arb Renessans – Uyg‘onish davri tushunchasi. Undagi umumiylik. Ularning ma’naviy taraqqiyotidagi o‘rni.

Ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo ilm – ma’rifat va ma’naviyat rivoji. Muhammad ibn Muso Xorazmiy. O‘nlik sanoq sistemasi. Algebra faniga asos solinishi. Algoritm. Ahmad Farg‘oniy. Uning “Astronomiya asoslari haqida kitob” nomli asari. Abu Nasr Forobiy. Uning dunyoqarashi, jamiyat va axloq to‘g‘risidagi ta’limotlari. Abu Rayhon Beruniy. Uning jahon ilm – fan taraqqiyotidagi buyuk xizmatlari. XI asrni ”Beruniy asri” deb atalishining sababi. Ibn Sino. Uning ”Tib qonunlari” asari. YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. Ahmad YUgnakiy. “Hibbatul – haqoyiq ” dostoni. Maxmud Zamahshariy – ma’naviy etuklik timsoli.

**Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviyat va ma’rifat**

Amir Temur va temuriylar davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji. “Temur tuzuklari”dagi ma’naviy sohadagi g‘oyalarning dolzarbligi. Mirzo Ulug‘bek donishmand hukmdor, ilm – fan, ma’rifat homiysi, buyuk olim va munajjim. Uning ilmiy jasorati. ”Ziji jadidi Ko‘ragoniy” nomli astronomik jadvali va uning ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rni. Abdurahmon Jomiy. Uning “Xiradnomai Iskandar” asarida ma’naviy barkamol inson haqidagi g‘oyalari. Alisher Navoiyning o‘zbek xalqi ma’naviy dunyosi shakllanishidagi buyuk xizmatlari. Alisher Navoiyning yuksak ma’naviy – axloqiy fazilatlari.

Amir Temur va temuriylar ma’naviy merosining o‘zbek xalqi ma’naviy tiklanishidagi beqiyos ahamiyati. Prezident Islom Karimovning Sohibqiron Amir Temur siymosini tiklashdagi rahnamoligi. Sohibqironning 660 yillik yubiley tadbirlari. “Amir Temur” hayriya jamg‘armasi. “Amir Temur” ordenining ta’sis etilishi. Temuriylar tarixi davlat muzeyi. Mustaqillik yillarida Sohibqiron Amir Temur ma’naviy olamini ijodkorlar tomonidan yoritilishi va uning yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati.

## Jadidchilarning ma'rifatparvarlik harakatlari va uning xalq ma'naviyatini ko'tarishda tutgan o'rni

Jadidchilarning ma'rifatparvarlik g'oyasi. Uning mazmun–mohiyati va umumxalq ma'naviyati rivojidagi o'rni. Bu harakatning pirovard maqsadi va mohiyati.

YAngi usul maktablari. Milliy matbuotni shakllantirish va milliy san'at turlarini rivojlantirishdagi jadid namoyondalarining xizmatlari. Jadidchilik xarakatining o'zbek milliy ma'naviy taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid CHo'lpon va boshqalarning ijodi hamda faoliyatida ma'naviyat g'oyalari hamda ularning milliy ma'naviyatning rivojlanishidagi o'rni.

## Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o'zbek xalqining ma'naviyatiga tahdidi

Mustamlakachilik siyosatining asosiy maqsadi. Mustamlakachilarning ma'naviy sohadagi olib borgan siyosati va uning oqibatlari. Qaramlik sharoitida o'zbek tili va milliy qadriyatlaridan mahrum etilishi. Milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilishning inkor etilishi. Uning ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'siri. Diniy qadriyatlarning qatag'on qilinishi. Mustamlakachilik va qaramlik sharoitida o'zbek xalqining boy ma'naviy-madaniy merosni qayta tiklash uchun olib borgan kurashlari.O'z milliy tarixini, tilini, qadriyatlarini saqlab qolish va rivojlantirish har bir millat va ma'naviyati yuksak shaxsning insoniy burchi ekanligi. Til o'zlikni anglash vositasi va uning milliy ma'naviyatni asrashdagi o'rni. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining milliy-ma'naviy taraqqiyotdagi ahamiyati.

# III. BO'LIM. SHAXS MA'NAVIYATI TARAQQIYOTINING MEZONLARI

## Ma'naviy barkamol, komil inson tushunchalari va ularning SHarqona ta'rifi

Inson, shaxs va fuqaro tushunchalari. Ularning ma'naviy jihatlari. Ma'naviy tahdid va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zaruriyati.

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati. Komil inson va uning sharqona fazilatlari.

Ma'naviyatga tahdid – o'zligimiz va kelajagimizga taxdid ekanligi. Prezident Islom Karimov asarlarida barkamol inson fazilatlari talqini. Komil insonning umumiy fazilatlari: axloqiy etuklik, ishbilarmonlik, zukkolik, idroklilik, sobitlik, ehtiroslilik xislatlari.

## SHaxs ma'naviyati mezonlari

SHaxs ma'naviyati mezonlari va fazilatlari haqida tushuncha. Vatan – sajdagoh kabi muqaddas. Vatanparvarlik – etuk ma'naviylik mezoni.

Insonparvarlik - shaxs va jamiyat ma'naviy qiyofasi mezoni. Insonparvarlik insonni ulug'lashdir va uning ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o'rni.

O'z Vatani va millatiga sadoqatli bo'lish – yuksak ma'naviylik mezoni. Millatparvarlik va mustaqillik tafakkuri ma'naviyatni mustahkamlovchi omil ekanligi.

Axloq – ma'naviyatning o'zagi. Axloqiy me'yor va tamoyillarning shaxs ma'naviyatini shakllanishida asosiy omil ekanligi.

## Milliy o'zlikni anglash, millatlararo totuvlikni ta'minlash, huquqiy savodxonlik, davlat tizimiga hurmat, fuqarolik burchiga sadoqat – shaxs ma'naviy barkamolligi mezonlari

Milliy o‘zlikni anglash va uning mohiyati. Millatlararo totuvlik. Huquqiy savodxonlik – ma’naviy etuklik mezoni. Demokratiyaning ma’naviy-ma’rifiy jihatlari.

Milliy o‘zlikni anglash omili- milliy ma’naviyatni asrashning muhim sharti. Millatlararo totuvlikni ta’minlash ma’naviylik mezonidir. O‘zbekistonda milliy siyosatning asosiy tamoyillari. SHarq va g‘arb demokratiyasining mushtarak tomonlari va farqlari. Mustaqil O‘zbekistonda demokratik jarayonlarning qaror topishi.

**SHaxs ma’naviy fazilatlari**

Iymon tushunchasining mazmun-mohiyati. Iymon turlari. Iymon haqida Husayn Voiz Koshifiy, Muhammad G‘azzoliy, So‘fi Olloyor, Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning qarashlari va ularning bugun yoshlarni yuksak ma’naviyatli qilib tarbiyalashdagi ahamiyati.

Inson iymonliligi mezonlari. Hayo. Oriyat. Nomus. Vijdon uyg‘oqligi. Mehr-shafqat. Halollik, poklik, kamtarlik va ularni shaxsning ma’naviy fazilati ekanligi. SHaxs ma’naviy fazilatlarini shakllantirish vazifalari.

**SHaxs ma’naviyatini rivojlantirish omillari va vositalari**

Prezident Islom Karimovning “YUksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shaxs ma’naviyatini shakllantirish omillari va vositalari to‘g‘risida. SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda ota-ona va oila mas’uliyati. Maktabgacha ta’lim muassasalari, ta’lim tizimi, mahalla, adabiyot va san’at, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar shaxs ma’naviyatini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi vositalar ekanligi. SHaxs ma’naviyatini rivojlantirish bo‘yicha davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlarining vazifalari.

Adabiyot va san’at – shaxs ma’naviyatini shakllantirish va rivojlantirishning muhim vositasi. Inson ruhiy kamolotida musiqa san’ati. Elektron vositalari, radio va televideniening yoshlar ma’naviy kamolotida tutgan o‘rni va mas’uliyati. Milliy ma’naviyatimiz takomilida tasviriy san’at, monumental san’at, xalq amaliy san’ati vakillarining burchi va mas’uliyati.

Hozirgi davrda “ommaviy madaniyat” niqobi ostida kirib kelayotgan ma’naviy tahdidlarning zararli oqibatlari.

SHaxs ma’naviyatini shakllantirishda mahalla, ta’lim tizimi va jamoat tashkilotlarining o‘rni. SHaxs ma’naviy rivojida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o‘rni va ahamiyati.

**Eng buyuk jasorat – ma’naviy jasoratdir**

Ma’naviy jasorat tushunchasi. Prezident Islom Karimovning ma’naviy jasorat konsepsiyasi. Ma’naviy jasoratning bashariyat va hamma davrlarga xos xususiyat ekanligi. Evropa uyg‘onish davri namoyondalari Nikolay Kopernik, Jordano Bruno, Galileo Galiley kabi allomalarning jasorati. Mahatma Gandi – buyuk qalb egasi.

O‘zbek xalqining buyuk ajdodlari faoliyati va merosida ma’naviy jasoratning ifodalanishi. Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va boshqa siymolar jasorati. Hayotning ma’nosini tinimsiz kurash, jasorat deb his etish.

Haqiqiy qahramonlikning yangicha talqini va uning mohiyati. Ma’naviy jasoratning zamondoshlarimiz ijod timsoli, hayot ibratida gavdalanishi. Akademik YAhyo G‘ulomov, atoqli shoira Zulfiyaxonim, olim va jamoat arbobi Ozod SHarafiddinov va boshqalar ma’naviy jasorati. Halqimizga xos ma’naviy jasorat hissining kuchayib, yuksalib borishi. Bu borada yoshlarning ma’naviy mas’uliyati.

## Asosiy qism

### Dinshunoslik faniga kirish

Dinshunoslik fanini o‘qitishdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsad. Uni milliy istiqlol g‘oyasi hamda umummilliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda olib borish. Bu sohada erishilgan yutuqlar. Dinning paydo bo‘lishi haqidagi fikrlar. Dinlar tasnifi. Din e’tiqod sifatida. Din va qonunning o‘zaro munosabatlari. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonun. Dinga berilgan ta’riflar. Dinshunoslik sohalari. Dinga sotsiologik nuqtai nazardan yondashuv. Dinning ijtimoiy vazifalari: kompensatorlik; integratorlik; regulyatorlik; legitimlovchilik; dinning falsafiy, nazariy jihatlari. Diniy tafakkurning shaxsiy yoki ijtimoiy ildizlari. Dinlar tasnifi: urug‘-qabila dinlari, milliy dinlar, jahon dinlari, monoteistik va politeistik dinlar.

### Dinning ibtidoiy shakllari

Ibtidoiy diniy ong asoslari. Diniy tushunchalarning inson ma’naviy hayoti va uning ijtimoiy munosabatlariga ta’siri. Totemizm. Animizm. SHamanizm (magiya). Fetishizm. Ibtidoiy mifologiya. Insoniyatning ibtidoiy madaniyat o‘choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Qadimiy dinlar tarixini aks ettiruvchi manbalarning turlari. Arxeologik topilmalar, etnografik materiallar. Oziq-ovqat topish, shaxsiy hayot xavfsizligi, barhayotlik, avlod qoldirish – insonning eng qadimiy va asosiy orzulari. O‘lim (mamot) va dafn bilan bog‘liq bo‘lgan tasavvurlar, marosimlar va urf-odatlar.

Odamzot jamiyat bo‘lib yashashigacha bo‘lgan davri. Odamzotning jamiyat bo‘lib yashashga o‘tishi va ibtidoiy diniy e’tiqodlari. Ilk tabu (taqiq) va totemlar haqidagi tasavvurlarning yuzaga kelishi, mifologiyaning shakllanishi.

O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi va ularning diniy tasavvurlari. Qurbonlik keltirish urf-odatlari. O‘lim va oxirzamondan keyingi hayot. Urvan va fravashi ruhlari. «Barcha ruhlar» bayrami. Boshqa diniy marosimlar.

SHamanizmda ruhoniyning e’tiqod qiluvchilar orasidagi o‘rni. SHaman va boshqalarning ruhlar haqidagi tasavvurlari. SHamanizm dinining zamonaviy ko‘rinishlari.

### Milliy dinlar

Milliy dinlar va ularga xos xususiyatlar. YAhudiylikning vujudga kelishi va ta’limoti. YAhudiylikda messiya – xaloskorning kelishi haqidagi ta’limot. YAhudiylikdagi oqim va yo‘nalishlar. Saduqiylar, Farziylar, Esseylar. YAhudiylik manbalari. Muso payg‘ambarga Tur tog‘ida berilgan Tora (Tavrot). Talmud, Mishna va Gemara sharhlari. YAhudiy marosimlari va bayramlari – Peysax (Pasxa), SHabuot, Yom-Kipur – poklanish, Rosh-Ashona, Purim (Qur’a). YAhudiylikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi.

Veda va veda dinlari. Vedalar. Vedalardagi afsonaviy xudolar. Brahmanlik. Brahmanlik ta’limotida kastalar: brahmanlar; kshatriylar; vayshlar; shudralar. Brahmanlikdagi ruhning ko‘chib o‘tish haqidagi ta’limot. Hinduiylik. Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolish uchun bo‘lgan harakat. Brahmanlik bilan buddizm o‘rtasidagi kurash. Brahmanlikda tan olingan asosiy uch xudo: 1) Braxma; 2) Vishnu; 3) SHiva, Hinduiylik ta’limoti. Hinduiylikdagi jannat va do‘zax haqidagi tushunchalar.

Konfutsiychilik. Qadimgi Xitoyda Kun-Szi falsafiy ta’limotining paydo bo‘lishi. Konfutsiy – qadimgi Xitoy faylasufi va pedagogi, konfutsiychilikning asoschisi. Konfutsiyning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g‘oyalari. Konfutsiy ishlab chiqqan ideal, oliy inson, asl, mard kishi konsepsiyasi. Konfutsiychilikning, diniy manbasi. Konfutsiychilikda diniy marosimlar: nikoh,

dafn etish va qurbonlik, Pin-Szin marosimlari; Osmon Xudosi-konfutsiychilikning bosh xudosi. Konfutsiyning ilohiylashtirilishi.

Zardusht hayoti va faoliyati. Zardusht ta'limoti. Zardushtiylikning shoh Vishtaspa tomonidan qo'llab-quvvatlanishi. Avesto zardushtiylikning muqaddas manbasi. Ko'pxudolikdan yakkaxudolikka o'tish. Zardushtning vatani haqidagi bahslar. Zardushtiylikning diniy ta'limoti. Axuramazda. Axriman. Har bir kishi ustidan hisob-kitob o'tkazilishi, qiyomat (oxirzamon), jannat, jahannam, arosat, tanlarning qayta tirilishi, tana va ruhning qayta birikib, barhayot bo'lishi haqidagi tasavvurlar. Zardushtiylik rasm-rusumlari. Olov tozalanish ramzi sifatida. O'tganlar ruhi. Daxmalar. Ostodonlar. Zardushtiylikning YAqin va O'rta SHarq mamlakatlariga tarqalishi. Hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan zardushtiylikka oid ta'limot, qarash va urf-odatlar.

Daosizmning vujudga kelishi. Daosizm – falsafiy ta'limot. Daosizmning falsafiy tamoyillari bayon etilgan «Dao-Deszin» kitobi. Xitoy donishmandi Lao-Szining tarixiyligi masalasi. «Dao» – hayot tarzi.

## Buddaviylik

Buddaviylik asoschisining shaxsi. Buddaviylik ta'limoti. Buddaviylikning tarqalishi. Buddaviylik manbalari. Budda SHakyamuni hayoti va ta'limoti. Rohiblar va xonaqohlar. «O'tkinchi dunyo» haqidagi tasavvurlar. Axloq. Meditatsiya – haqiqat haqidagi ilm. Imperator Ashoka (mil. av. 273-232 yillar) davrida buddizmning shimolga tarqalishi. Kushon imperiyasi hududida buddaviylikning qaror topishi. Eftalitlar. Buddaviylikning Markaziy Osiyodagi inqirozi (V-VIII asrlar). Buddaviylik g'oyalarining boshqa dinlarga ta'siri. Diniy murosasozlik, axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi. Arxeologik topilmalar: Ayritom, Qoratepa, Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, CHingiztepa, Qorovultepa. SHakyamuni sanamlari, hayvon haykalchalari, ramziy g'ildiraklar, stupa qoldiqlari. YOzma manbalar. Buddaviylikning maxayana, xinayana, vajrayana, lamaizm va boshqa oqimlari. Uning mintaqaviy shakllari. Hozirgi zamonda buddaviylik**Xristianlik**

Xristianlik jahon dini. Iso Masih (Iisus) hayotiga doir ilmiy bahslar. YAhudiylik doirasida ilk xristian jamoasi. Muqaddas kitoblar. Asosiy aqidalar va amallar. Ruhoniylar va jamoa. CHerkov tashkiloti. Ilohiyot ilmi sohasidagi maktablar. Diniy falsafa. Xristian cherkovidagi bo'linishlar. CHerkov tarixi. Katolik, pravoslav, protestant yo'nalishlari. Rohiblik. Xristian dini va san'at. Hozirgi zamonda xristian dini. IV asrdan boshlab nasroniylarning Markaziy Osiyoga ko'chib kela boshlashi. Faktoriyalarning vujudga kelishi. Sug'diyona xristianlari. Turk xoqonlari. Mo'g'ul xonlari orasida xristian dini. YOzma manbalar. Markaziy Osiyo Rossiya imperiyasi tarkibida. Markaziy Osiyoda Evropa aholisi sonining o'sishi. YAngi diniy jamoalar. Xristian madaniyati. Baptistlar. Hozirgi davrda O'zbekistondagi xristian jamoalari va ularning diniy hayoti. Pavlus (Pavel) ismli shaxsning masihiylikda tutgan o'rni. «Havoriylarning faoliyati» («Deyaniya Apostolov») kitobi. Pavlusning sifatlari. Bibliya. Qadimiy Ahd. YAngi Ahd. Tavrot – Musoga tegishli bo'lgan besh kitob. Injil – xushxabar ma'nosini anglatuvchi kitob. Xristianlik hozirgi kunda.

## Islom

«Johiliya» davri arablarining diniy an'analari va ko'pxudolik. Muhammad ibn Abdulloh – diniy rahnamo va davlat arbobi. Nabiy va Rasul so'zlarining ma'nosi. «SHaqqi sadr» voqeasi. Payg'ambarning Xadicha bint Xuvaylidga uylanishi. Ka'baning ta'mir etilishi. Hiro g'orida

vahiyning nozil bo‘la boshlashi. YAshirin targ‘ibotning boshlanishi. Ilk musulmonlar va ularga Makka mushriklari tomonidan tazyiq ko‘rsatilishi. Habashistonga hijrat va Najoshiyning musulmonlarga munosabati. «Isro va Me’roj» voqeasi. Madinaga hijrat. «Badr» jangi. Ilk islom davlatchilik munosabatlarining vujudga kelishi. Hudaybiya shartnomasi. Makkaning fath etilishi. Al-Xulafo ar-Roshidun davri. Umaviylar davlati. Abbosiylar davlati. Islomdagi ilk firqalanish. Islomdagi bag‘rikenglik tamoyillari. Islom va hozirgi zamon.

**Islomning asosiy manbalari**

Qur’onning 23 yil mobaynida nozil bo‘lishi. «Qur’on» so‘zining ma’nosi. Uning tarkibi. Suralarning nozil bo‘lish davriga qarab taqsimlanishi. Makka suralari. Madina suralari. Ilk «Suhuf» - Qur’on oyatlarining jamlanishi. Xalifa Usmon ibn Affon davrida Qur’onning kitob holiga keltirilishi. Toshkentdagi Usmon Mushafining tarixi. Qur’onni o‘rganish asosiy maktablarining vujudga kelishi. Uni tushunish, talqin etishda turli yondashuvlar. Qiroat, tafsir, sarf-nahv, nosix va mansux, sababi nuzul kabi Qur’on ilmlarining taraqqiyoti.

Hadis. Al-Hadis an-nabaviy. Al-Hadis al-qudsiy. Hadislar islom dinining Qur’ondan keyingi manbai. Hadislarni yig‘ish (talab al-ilm) va jamlash (VIII-IX asrlar). *Musnad, sunan, sahih* hadis to‘plamlarining vujudga kelishi.

Mashhur muhaddislar. Imom al-Buxoriy – buyuk muhaddis. Islom ta’limotining keyingi davrdagi taraqqiyoti va axloq me’yorlarini ishlab chiqishda hadislarning o‘rni. Tasavvuf ta’limoti. Naqshbandiya. Kubroviya. YAssaviya. Hozirgi zamonaviy tariqatchilik.

**Islomdagi mazhablar va g‘oyaviy-siyosiy oqimlar**

Islomdagi yo‘nalishlar. Siyosiy partiya, harakat, firqa va guruhlar. Aqidaviy ta’limotlar. Fiqhiy mazhablar. Islomdagi ilk bo‘linishlarning boshlanishi. Hokimiyat masalasidagi turli fikrlar. Siffin voqeasi. Xorijiylik yo‘nalishi va ta’limoti. Mo‘‘taziliylik asoschisi va ta’limotlari. SHia yo‘nalishining mazhab va ta’limotlari. Ismoiliya. Qarmatiylik ta’limoti va harakatlari. Sunniylik aqidasi va mazhablari. Hanafiylik mazhabi. Tasavvuf yo‘nalishi va tariqatlari. YAssaviya, Kubraviya, Naqshbandiya tariqatlari. Zamonaviy sufiylik ta’limotlari. Moturidiya va Ash’ariya aqidaviy ta’limotlari.

Vahhobiylik harakatining kelib chiqishi. Vahhobiylikning Markaziy Osiyoda tarqalishi. XX asrdagi islohotchilik harakatlari. Panislomizm, panarabizm, panturkizm tushunchalari. Tablig‘ guruhi. Ixvonul muslimin tashkilotining tuzilishi, turli firqalarga bo‘linishi. Hizbut tahrirning shakllanishi, ta’limoti, maqsadlari. Nurchilik harakatlari, maqsadlari. Akromiylik harakatlari va ularning ayanchli oqibatlari.

Fundamentalizmning vujudga kelishi. Birinchi jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solinishi. Ekstremizmni keltirib chiqaruvchi omillar. Terrorizmga qarshi kurashda ma’rifiy islomning roli. Radikal diniy oqimlar. Fanatizmning salbiy oqibatlari. Sobiq Ittifoqdan keyingi makonda diniy omilning faollashuvi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalar tuzishning taqiqlanishi. Diniy ekstremizmga qarshi kurashishda yoshlarga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirishning ahamiyati.

**Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar**

Vijdon erkinligi – diniy e’tiqod erkinligi. O‘zbekiston Respublikasida vijdon erkinligining qonunan kafolatlanishi. Diniy ekstremizmga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ustavida vijdon erkinligining o‘z ifodasini topishi. Bu masalaning davlat, jamiyat va diniy tashkilotlar orasidagi munosabatlarning mustahkamlanishidagi ahamiyati. Kishilar e’tiqodining turliligi.

Mustaqillik va din. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan vijdon erkinligining kafolatlanishi. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi yangi tahrirdagi qonunning qabul qilinishi. O‘zbekistonda amalda bo‘lgan turli diniy konfessiyalar. Milliy istiqlol va ma’naviyat bir-biriga mustahkam bog‘liq tushuncha ekanligi. Ma’naviyatning tarixan qaror topib borishida madaniyat va dinning o‘rni.

Dunyoviy davlatda dinning o‘rni. «Dunyoviylik – dahriylik emas» tamoyilining mohiyati. Din siyosiylashuvining salbiy oqibatlari. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlari.

Barkamol insonni shakllantirish O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning nazariy asosi ekanligi. Dunyoqarashlar erkinligini ta’minlash jarayonida har bir odamda shaxsiy fikr, mavqening shakllanishi. Imonli, vijdonli, komil insonlarni tarbiyalash mustaqil O‘zbekiston kelajagining kafolati.

**Missionerlik va prozelitizmning salbiy oqibatlari**

Missionerlikning kelib chiqishi. Maqsad va g‘oyasi. Dastlabki missionerlik faoliyati. Avgustin boshchiligidagi missionerlarning Britaniyaga jo‘natilishi. «Salb yurishlari» va missionerlik. «Muqaddas Erni ozod qilish» shiori. XIII-XVI asrlarda xristian missionerligining Hindiston, Xitoy va YAponiyaga ham kirib borishi. Missionerlikning tashkiliy asoslari. Jahondagi missioner tashkilotlar. «Xalqaro missiyalar kengashi» va «Butunjahon cherkovlari kengashi» faoliyati. Prozelitizm. Prozelitizm keltirib chiqarayotgan salbiy oqibatlar. YOshlarga tahdidi, milliy qadriyatlarning emirilishiga harakat. Missionerlik siyosiy vosita sifatida. Missionerlikka qarshi kurashning mafkuraviy va huquqiy asoslari. Missionerlik – diniy bag‘rikenglik va milliy totuvlikka zarba. Dunyoning diniy manzarasi. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotan diniy konfessiyalar. Missionerlikning mazmun-mohiyati. Zamonaviy missionerlik uyushmalari. Injillashtirishdan ko‘zlangan maqsadlar. Missionerlik uslublari va vositalari. Markaziy Osiyo mintaqasida missionerlik harakatlarini kuchaytirishga urinishlar. Missionerlikning oldini olishning huquqiy asoslari. Diniy ma’rifat va bag‘rikenglik – konfessiyalararo hamkorlik va barqaror taraqqiyot omili.

## 13. O‘QUV MATERIALLARI

## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
## OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

## KIRISH

**YUksak ma’naviyat- yengilmas kuch.**
**Islom Karimov.**

Mamlakatimiz o‘z mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin tarixan qisqa vaqt ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy sohalarda juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Bu yutuqlarga Respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan demokratik jamiyat qurish Konsepsiyasi nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu konsepsiya millatimizning o‘ziga xos urf-odatlari, an’analari, qadriyatlari va mentaliteti hamda mamlakatimiz taraqqiyot darajalarini qat’iy hisobga olish bilan “o‘zbek modeli”ni o‘zida aks ettirgan.

O‘zbekiston sobiq sho‘rolar totalitarizmi sharoitida yashab kelganligi bois, uni tugatib, demokratik jamiyat qurish tomon qadam qo‘yish juda murakkab masala edi. CHunki, totalitarizm nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotga, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy hayotga, insonlarning dunyoqarashiga o‘zining ta’sirini o‘tkazgan edi. SHuning uchun ham demokratik jamiyat qurishning “o‘zbek modeli”da jamiyatni tubdan o‘zgartirishga xizmat qiluvchi asosiy tayanch manba sifatida yangi ma’naviyat va dunyoqarashni shakllantirish belgilandi.

Prezidentimiz 1992 yildayoq, “Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak, deganlar haq bo‘lmasalar kerak. Ma’naviyat-insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch qudratidir”,-deb ta’kidlagan edi.

Ana shu ko‘rsatmaga muvofiq ma’naviyatni rivojlantirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha ishlarda unga tayanish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.Xususan Prezidentimizning 1994 yil 23 aprelda Respublikamizda “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tuzish to‘g‘risida”, 1996 yil 9 sentyabrda esa “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”,1999 yil 3 sentyabrdagi “Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab quvvatlash to‘g‘risida”gi farmonlari va 1998 yil 24 iyuldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ma’naviy va ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, maxsus qarori qabul qilindi.Bu hujjatlarga binoan Respublika Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi 1997 yildan boshlab barcha oliy o‘quv yurtlarida “Ma’naviyat va ma’rifat asoslari” maxsus kursini o‘qitish to‘g‘risidagi qaror qabul qildi va uning dastlabki o‘quv dasturlari ishlab chiqildi. O‘tgan davr ichida ma’lum bir tajribalar to‘plandi, kursda foydalanish bo‘yicha bir qator ilmiy va ommabop maqolalar hamda risolalar chop etildi. CHunki, xalqimizning, jamiyatning ma’naviyatini ko‘tarish va rivojlantirish bugun ham, ertaga ham muhim vazifa sifatida qolishi muqarrardir.Prezidentimiz Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasidagi ma’ruzasida O‘zbekistonning XXI asr arafasi va uning dastlabki yillarida mamlakatimizning rivojlanishi ustuvor yo‘nilishlarini belgilab berar ekan, “Ikkinchi ustuvor yo‘nalish-jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirishdan iborat”[1]ligini ta’kidlab o‘tdi. Mustaqilligimizni mustahkamlashda bugungi kunda xususan yoshlarning ruhan baquvvat bo‘lishiga, o‘z Vatani va xalqi manfaatlarining fidoiylari bo‘lib etishlarida va yot mafkuralarga qarshi kurashlarida muhim omil hisoblanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari” konsepsiyasiga yozgan so‘z boshlarida:

[1] Каримов И.А Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2000 й, 23 бет

“Oldimizga qo‘ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga etish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo‘lish, g‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaslik, begona va yot g‘oyalarning xurujidan himoyalanish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol insonlarni voyaga etkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda”. Haqiqatan ham ma’naviyat qanchalik yuksak bo‘lsa, inson qalbida johillik, yovuzlik, xudbinlik, yalqovlik kabi salbiy illatlarga o‘rin qolmaydi, uning o‘rnida yoshlarimiz ongida vatanparvarlik, yaratuvchanlik tuyg‘ulari yuksak darajaga ko‘tariladi, o‘zaro munosabatlarda samimiylik, birdamlik, mehr-oqibat, e’tiqod, imon, ma’suliyat va boshqa bir qator ijobiy fazilatlar xalqimiz turmush tarzining ajralmas boyligi darajasida yana ham mustahkam o‘rin olib boraveradi.

Ana shu o‘ta muhim vazifalarni hal qilishimiz uchun mustaqillik ma’naviyatini shakllantirish va milliy istiqlol g‘oyasini chinakam moddiy kuchga aylantirish strategik ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida biz qo‘lga kiritgan istiqlolning ma’no va mazmuni, milliy o‘zligimizni to‘la anglashimizga, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimizni mustahkamlashimizga, Vatan va millat istiqboli uchun har birimizning ma’sulligimizni tushunib etishimizga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatadi.

Xuddi mana shularni ijobiy hal qilishimiz uchun Prezidentimiz ma’naviyatimizni yangilash borasida oldimizga qo‘ygan vazifalarni muvafaqqiyatli hal etishga imkon beradi. Zero, ular ta’kidlaganidek, “Jamiyatni ma’naviy yangilashdan bosh maqsad- yurt tinyaligi, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy xamkorlik va millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik kabi ko‘p-ko‘p muhim masalalardan iborat”[2].Bu ulkan vazifalarni ma’naviyatimizni milliy istiqlol g‘oyalari bilan boyitib borsakkina amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi.

SHu ma’noda ham ma’naviyatni talaba-yoshlarimizga o‘rgatishga ehtiyoj o‘sib bormoqda va bu borada oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ayniqsa, mukammal o‘quv qo‘llanmalarni va ular asosida darsliklarni yaratish ana shunday dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu vazifaning murakkabligi shundaki, “Ma’naviyat asoslari” mustaqilligimizning mevasi sifatida paydo bo‘ldi. Mustaqilligimizgacha, bu tushuncha mustaqil ravishda o‘zining aniq tasnifiga ega bo‘lmagan, aynan unga bag‘ishlangan ilmiy asarlar ham yaratilmagan. Bu kurs mamlakatimizning tubdan o‘zgartirish va mustaqil taraqqiyotimizga xizmat qiluvchi ma’naviyatni shakllantirishning ehtiyoji sifatida paydo bo‘ldi.

SHuni hisobga olib mualliflar jamoasi o‘quv qo‘llanmasini yozishda o‘zlari tomonidan tayyorlanib, 2002 yilda e’lon qilingan “Ma’naviyat asoslari”ni qayta ishlab, uni yangi materiallar bilan boyitib hamda unga “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” konsepsiyasini singdirgan holda so‘nggi yillarda olimlar, adabiyotshunoslar va ma’naviyat masalalari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar tomonidan chop etilgan kitoblar va maqolalardan material sifatida keng foydalandilar. “Ma’naviyat asoslari” o‘quv qo‘llanmasi sifatida birinchi bor yozilayotganligi sababli mualliflar, uning kamchiliklardan holi emasligini e’tirof etadilar va ular haqida bildirilgan har qanday tanqidiy fikrlarni va takliflarni bajonidil qabul qiladilar, kelajakda ulardan foydalanadilar hamda o‘z fikrlarini bildirgan barcha kitobxonlarga oldindan minnatdorchilik izhor etadilar.

---

[2] Ислом Каримов. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.Тошкент, “Ўзбекистон”,2000 й, 23-24 бетлар

## *1-MAVZU:* MA’NAVIYAT, UNING JAMIYAT VA INSON KAMOLOTIDA TUTGAN O‘RNI

**REJA:**

**1 Ma’naviyat tushunchasi va uning mazmun mohiyati. “Ma’naviyat asoslari” fanining predmeti, maqsad va vazifalari**

**2. Ma’naviyat tushunchasi, predmeti, maqsad va vazifalari**

**3. «Ma’naviyat»ning kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari**

Ma’naviyat sobiq sho‘rolar xukumronligi sharoitida mustaqil mavzu yoki masala sifatida o‘rganilmasdan kelinayotgan edi. Unga madaniyat bilan bir xil ma’noni anglatuvchi, mustaqil yo‘nalishga ega bo‘lmagan tushuncha sifatida qarab kelingan. Xatto ayrim adabiyotlarda har ikkala tushunchani bir xil mazmunni anglatuvchi so‘z ma’nosida qo‘llanilib kelingan. Bunday «etiborsizlik» natijasida barcha lug‘atlarda ham «ma’naviyat» tushunchasiga aniq va mustaqil ta’rif uchramaydi. Buning asosiy sababi, sho‘rolarning jamiyat a’zolari ongi va qalbini insoniyat aql zakovati bilan yaratilgan ma’naviy boyliklardan bebahra qilish, ularni tuzumning manfaatlariga xizmat qiluvchi g‘oya va mafkuralar bilan qurollantirishga qaratilgan g‘ayri ilmiy, g‘ayri insoniy siyosati bo‘lgan edi. Bunday siyosatdan maqsad, jamiyat a’zolarini, ayniqsa yoshlarni ana shu g‘oya va mafkuralar vositasida mazkur tuzumga itoatkor, uning jirkanch manfaatlarini hech ikkilanmasdan bajaradigan va dunyoqarashi mo‘‘telik ruhiyati bilan to‘ldirilgan shaxslarni tarbiyalashdan iborat edi.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan so‘ng erkin fikrlaydigan, o‘z-o‘zini anglaydigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib etadigan, har tomonlama etuk komil insonni tarbiyalash vazifasi davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi qilib belgilandi. Uni amalga oshirish esa eng avvalo tarbiyalanuvchilarning ichki ruhiy ma’naviyatini boyitish va mustaqil dunyoqarashini shakllantirishni taqoza etadi. Xuddi ana shu vazifa «ma’naviyat»ni mustaqil fan sifatida o‘rganishni ham kun tartibiga qo‘ydi.

### 1.1. Ma’naviyat tushunchasi va uning mazmun mohiyati. “Ma’naviyat asoslari” fanining predmeti, maqsad va vazifalari

«Ma’naviyat»ning mohiyati, predmeti, tushunchalari va rivojlanish qonuniyatlariga bag‘ishlanib respublikamiz ziyolilari o‘rtasida qizg‘in munozaralar olib borilmoqda. Bunga sabab ma’naviyatning ko‘p qirrali tushuncha ekanligidir. U inson faoliyatining barcha qirralarini, uning yaqqol ko‘zga tashlanuvchi zoxiriy va yashirin, ichki ruhiy – botiniy tomonlarini ham qamrab olganligidadir. Hozirgi kunda ham munozaralar davom etmoqda va matbuotda ushbu mavzuga bag‘ishlab ko‘plab maqola va mulohazalar e’lon qilinmoqda, kitoblar chop etilmoqda.

Ularda ma’naviyat, uning ma’no-mazmuni, hayotimizdagi o‘rni va ahamiyati xaqida fikrlar bildirilmoqda. Lekin aksariyat hollarda ma’naviyat o‘zi nima, degan savolga aniq va lo‘nda javob topish qiyin. Unga har xil, ba’zan esa bir-biriga qarama qarshi, noaniq sayoz javob va fikrlar bildirishmoqda. To‘g‘ri, “Ma’naviyat” tushunchasiga ilmiy, falsafiy, adabiy, axloqiy yoki oddiy tilda ifodalanadigan ko‘plab ta’riflarni keltirish mumkin. Umuman, o‘zida juda chuqur va keng qamrovli ma’no-mazmunini mujassam etgan bu tushunchaga har qaysi muallif o‘zining falsafiy yondashuvi, siyosiy qarashlari va e’tiqodi, ongu tafakkuridan kelib chiqqan holda turlicha ta’rif va tavsiflar berib kelayotganliklarini ko‘ramiz. Unga ham bir tabiiy hol sifatida qaramoq lozim. Bu masala bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda, kundalik matbuotda bir biridan farq qiladigan fikr-mulohazalarda, ta’riflarda har qaysi muallifning o‘ziga xos dunyoqarashi, mushohida tarzi o‘z ifodasini topgan. SHu nuqtai nazardan qaralganda, keyingi yillarda mazkur mavzuda olimlarimiz tomonidan tayyorlangan ilmiy maqolalar, risolalar, o‘quv qo‘llanmalar, lug‘atlarda “Ma’naviyat ” tushunchasi va uning tamoyillariga o‘ziga xos izoh va ta’riflar berib kelinmoqda. Bunga sabab “Ma’naviyat” tushunchasi keng ma’noda jamiyat hayotidagi g‘oyaviy,

mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o‘zida to‘la mujassam etgan ijtimoiy-ma’naviy hodisa ekanligidir.[3]

Aslida ma’naviyat – insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turadigan eng baquvvat ma’naviy-ruhiy omil hisoblanadi. Inson – tabiatning, barcha mavjudotning gultoji deyilganda uning ushbu xislati, ya’ni yuksak ma’naviyat egasi bo‘la olish imkoniyati nazarda tutiladi. Bu imkonni boshqa jonzotlarda ko‘rmaymiz.

Moddiy narsalar odamga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish – ongsiz va ruhsiz mahluqotlarga xos. Ma’naviyatga intilish esa ruh va ong egasi bo‘lmish odamzotgagina xos fazilatdir. Ma’naviyat odamning aqliy va ruhiy olami majmui kabi murakkab ijtimoiy hodisadir.

Ma’naviyat juda keng qamrovli tushuncha bo‘lganligi uchun ham, yuqorida ta’kidlaganimizdek uni bir jumlada ifodalash nihoyatda mushkul.

Ma’naviyat ko‘proq inson qalbiga, botiniy dunyosiga qaratilganligi bilan ajralib turadi. SHu ma’noda ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu ilohiy nur hech bir jonzotda yo‘q. Ma’naviyat shunday sehrli tilsimki, uni tugal echishga bashar qudrati etmaydi. SHunday ekan, «ma’naviyat» tushunchasiga bir yo‘la mukammal ta’rif berish murakkab hisoblanadi.

Unga ta’rif berishda Prezidentimiz Islom Karimovning nazariy qarashlariga, milliy qadriyatlarimizni, tarixiy va madaniy-ma’naviy merosimizni tiklash borasidagi amaliy faoliyatlariga tayanishimiz, uni o‘zimiz uchun dasturulamal qilib olishimiz maqsadga muvofiq. YUrtboshimiz «YUksak ma’naviyat- engilmas kuch” asarida insonni inson qiladigan, uning ongi va ruhiyati bilan chambarchas bog‘langan bu tushuncha har qaysi odam, jamiyat, millat va xalq hayotida hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan o‘rin tutishligini uqdirib: «Ma’naviyat - insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon – e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir”[4] deb ta’riflagan edilar. Bu ta’rifda inson faoliyatining barcha ma’naviy qirralari qamrab olingan bo‘lib, biz bundan buyon ma’naviyat haqida so‘z yuritganimizda unga metodologik asos sifatida tayanamiz.

Mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgunga qadar ilmiy adabiyotlarda “Ma’naviyat” mustaqil ilmiy tushuncha sifatida qo‘llanilmagan edi. SHu bois bu tushunchani chuqurroq o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ayniqsa Prezidentimizning unga bo‘lgan e’tiboridan keyin oshib ketdi.

Bir qator olimlarimiz anjumanlarda qilgan ma’ruzalarida «ma’naviyat – insondagi axloq, odob, bilim, ilm, iymon, ixlos va insoniyat kamoloti uchun ijobiy ta’sir qiluvchi tizim yoki ma’naviyat-insonning aqliy, axloqiy, ilmiy, amaliy, mafkuraviy qarashlar yig‘indisi hisoblanib, diniy va dunyoviy qarashlarning aks etish darajasidir», deb ta’rif berib kelmoqdalar. A.Erkaevning fikricha, «Ma’naviyat – insoning ijtimoiy – madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir».[5] M.Imomnazarov dastlab “Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy nur…»,[6] -deb yozgan bo‘lsa, keyinchalik «Ma’naviyat – inson qalbida, ko‘ngil ko‘zgusida aks etgan haqiqat nuridir, deyilgan ta’rif darhaqiqat, so‘fiyona ramziy ta’rifdir, zotan boshqacha ta’rif bu cheksiz mohiyatni cheklab qo‘yadi»,[7] -deb yozadi.

E. YUsupov insonda mavjud bo‘ladigan hamma xislatlar va fazilatlar emas, balki ijobiylarigina ma’naviyat bo‘la olishini ko‘rsatib: «Ma’naviyat –inson axloqi va odobi, bilimlari, istedodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iymoni, e’tiqodi, dunyoqarashi, mafkuraviy qarashlarning

---

[3] Қаранг: И.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 18-20 бетлар
[4]Қаранг: Каримов И.Юксак маънавият- енгилмас куч.Тошкент.”Маънавият”,2008, 19-бет.
[5] Эркаев А. Маънавият – миллат нишони. Тошкент. Маънавият, 1997, 27-бет
[6] Имомназаров М. Маънавиятимизнинг такомил босқичлари. Тошкент: Шарқ, 1996, 6-бет.
[7] Ўша муаллиф. Миллий маънавиятимиз назариясига чизгилар. Тошкент: Шарқ, 1999, 14-бет

bir – biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimdir»,[8] -deb ta’riflaydi.
T. Mahmudov «…Ma’naviyat – insoning ma’lum darajadagi jismoniy, aqliy, ahloqiy va ruhiy balog‘ati va dunyoqarashini ifodalovchi tushunchadir »,[9] -degan ta’rifni beradi.
Albatta, yuqorida keltirilgan fikrlarning hammasida ham ma’naviyatning ko‘pgina qirralari o‘z ifodasini topgan va mualliflar o‘zlarining nuqtai nazarlarini bildirganlar, ammo ularda inson salohiyatini o‘stirish masalasi e’tibordan chetda qolganligi ko‘rinadi. Hali yana ko‘plab olimlarimiz ma’naviyat tushunchasiga o‘z munosabatlarini bildiradilar va ana shu bildirilgan turli fikrlar asosida umumiy mukammal ta’rif shakllanadi, degan umiddamiz.
Bugungga qadar ma’naviyat tushunchasiga mukammal ta’rif shakllanmaganligiga sabab uning keng qamrovli, murakkab va ayni vaqtda «sodda» tushuncha ekanligida. Ma’naviyat ko‘proq insonning ichki, botiniy, yashirin dunyosini aks ettirishidir. Inson ichki, botiniy dunyosi esa gavhar to‘la tubsiz dengiz singaridir. Bu dengizdan qancha gavhar olsangiz tugamagani singari inson ichki dunyosi ham tubsiz va o‘zini rang-barang tarzda namoyon etadi. Inson qalbiga, botiniy dunyosiga qanchalik chuqur kirib borsangiz, shunchalik turli-tumanlik bilan toblanib, o‘zining yangidan-yangi qirralarini namoyon etadi. Mana shuning uchun ham ma’naviyat tushunchasiga mukammal, har taraflama to‘liq ta’rif berish mushkulroq. Ammo Respublikamiz olimlari tomonidan «Ma’naviyat» tushunchasiga berilayotgan ta’riflarni va uning inson, millat, xalq, jamiyat hayotida tutgan o‘rni to‘g‘risida ilgari surilayotgan g‘oyalarini umumlashtirgan holatda ma’lum bir umumlashgan xulosa chiqarish mumkin bo‘ladi.
SHunday qilib ma’naviyat –**insonning ruhiyatini, uning o‘z-o‘zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go‘zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g‘oyalarni qo‘ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir**, - deb ta’rif berish o‘rinli deb hisoblaymiz. Albatta, bu ta’rifni eng oxirgi, qiyomiga etgan, mukammal deb, aytishimiz mumkin emas.
I.A. Karimov aytganidek, ma’naviyat – taqdirining ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak.[10]
Ma’naviyat inson tug‘ilishida ona suti, uning allasi, mehri, ajdodlar o‘giti, Vatan tuyg‘usi, bu hayotning ba’zida achchiq, ba’zida quvonchli saboqlari bilan qatra-qatra bo‘lib shakllanadi. Uning qaror topishida oiladagi muhit, jamiyatdagi hamjihatlik, davlat olib boradigan siyosatdagi adolatparvarlik va insonparvarlikning qay darajada amal qilinishi asosiy o‘rinni egallaydi.
Prezidentimiz ta’kidlaganidek, har qaysi millatning o‘ziga xos ma’naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda oilaning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. CHunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag‘rida shakllanadi. Hayotga qadam tashlayotgan bolaning xarakterini, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – yaxshilik va ezgulik, oliyjanoblik va mehr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qadr topadi.
Har bir oila farzandining ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta’sirida ma’naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo‘la boshlaydi. Mana shu davrda bola hamma yaxshi-yomon narsalarni tushunib, anglay boshlaydi. Ota-onasiga, bobo va momolariga mehr va hurmati, o‘zini o‘rab turgan muhitga nisbatan munosabati kundan-kunga takomillashib boradi. Agar ota-ona, katta o‘g‘il-qizlar o‘zini tutishni bilmasa, axloq-odob bobida kichiklarga o‘rnak bo‘lish o‘rniga qo‘pol muomila qiladigan bo‘lsa, bu holat bola ma’naviy olamining shakllanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Vaqti- soati kelib, uning xarakterida inson degan nomga noloyiq, xunuk odat sifatida namoyon bo‘ladi. Oiladagi ma’naviy muhit va tarbiya tufayli bola yo mehribon va rahmdil, yoki xudbin va bag‘ritosh bo‘lib voyaga etishi mumkin. Oilaviy tarbiya masalasida xatoga yo‘l qo‘ymaslik

[8] Қаранг: Юсупов Э. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент: Университет, 1998,34-бет.
[9] Маҳмудов Т. Мустақиллик ва маънавият.Тошкент: Шарқ, 2001, 9-бет
[10] Қаранг : Каримов И. А. Ўзбекистон: Миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент, Ўзбекистон,1993, 74- бет

uchun avvalo har qaysi xonadondagi ma’naviy iqlimni o‘zaro hurmat, axloq-odob, insoniy munosabatlar asosiga qurish maqsadga muvofiqdir.
Farzandga mehr qo‘yish, ularning qornini to‘q, ustini but qilish o‘z yo‘li bilan, lekin farzandlarimizni yoshlik chog‘idan boshlab milliy tarbiya, axloq-odob, yuksak ma’naviyat asosida voyaga etkazish nafaqat oila uchun, balki jamiyat uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Farzand tarbiyasiga e’tibor bermaslik nafaqat ota-onalar, butun bir oila, butun jamiyat uchun juda qimmatga tushishini ko‘pgina hayotiy misollarda ko‘rish mumkin.
Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha bunyodkorlik ishlarimiz farzandlarimizning baxtu-saodati ularning yorug‘ kelajagi uchun amalga oshirilmoqda. Lekin baxtu-saodat faqat boylik, molu-mulk bilan belgilanmaydi. Odobli, bilimdon va aqlli, mehnatsevar, iymon-e’tiqodli farzand nafaqat ota-onaning, oilaning, balki butun jamiyatning eng katta boyligidir.[11]
Barcha fanlarda bo‘lganidek, ma’naviyatning ham mustaqil predmeti mavjuddir. Uning predmeti inson va jamiyat ma’naviy hayoti, maqsadi esa komil inson – iymon etiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma’naviyatini shakllantirish va jamiyat ma’naviy salohiyatini rivojlantirishdir.
Ana shu keng qamrovli vazifalardan ko‘rinib turibdiki,inson kamoloti va jamiyatning yuksak darajaga ko‘tarilishi ma’naviyatni rivojlantirishga bog‘liq bo‘ladi.
Ma’naviyatning moddiy kuchga aylanishi har bir insonning xatti-harakatlarida, o‘z oilasi, millati va Vataniga bo‘lgan munosabatlarida namoyon bo‘ladi. YUqorida aytganimizdek, uning shakllanishida ota-ona, inson yashayotgan atrof – muhit, milliy, diniy qadriyatlar, jamiyatdagi insonparvarlik va adolatparvarlik siyosati muhim ahamiyatga ega.
Odam ota – onadan tug‘iladi, ammo uning axloqi, odob borasidagi fazilatlari, ya’ni ma’naviy dunyosi jamiyatda, ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta’sirida shakllanadi. Insonning ma’naviy olami asosan ijtimoiy taraqqiyotning mahsuli bo‘lsa ham, u o‘z navbatida, jamiyat taraqqiyotiga nihoyatda katta ta’sir ko‘rsatadi, uni belgilab beradigan omillardan biri sanaladi. Odamlarda axloq, odob, iymon, vijdon, xalollik, mehnatsevarlik, milliy va insoniy g‘urur tuyg‘usi, burch va mas’uliyatni his qilishi qanchalik kuchli va yuqori bo‘lsa, jamiyat taraqqiyotining zaminlari ham kengayishiga, tinchlik, osoyishtalik, hamjihatlik barqaror bo‘lishiga olib keladi.
Xuddi shuning uchun ham Islom Karimov Oliy Majlisning Birinchi chaqiriq, Birinchi sessiyasida so‘zlagan nutqida: «Taraqqiyot taqdirini ma’naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma’naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma’naviy salohiyat – ma’rifatli insonning ikki qanotidir»,[12] - deb ko‘rsatgan edi.
Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi kishilarning ma’naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishidir. Ma’naviyatsiz adolatli, yuksalish imkoniyatiga ega bo‘lgan jamiyat bo‘lmaganidek, jamiyatsiz ma’naviyat ham rivojlanishi mumkin emas.
Prezidentimiz “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida ta’kidlaganidek: “Jahon xalqlari tajribasi, ularning bosib o‘tgan murakkab rivojlanish yo‘llari, bu boradagi saboq va xulosalar shundan dalolat beradiki, qaerda davlat va jamiyat taraqqiy topsa, xalqning tinch-osoyishta hayot kechirishi, o‘z oldiga ezgu va buyuk maqsadlar qo‘yib yashashi uchun etarli shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lsa, o‘sha erda erkin fikrlash muhiti va shu asosda ma’naviya yuksalish uchun yangi imkoniyatlar tug‘iladi.” [13]Ma’naviyat insonning, xalqning, jamiyat va davlatning buyuk boyligi va kuch-qudrat manbai sanaladi. Ma’naviyatsiz hech qachon jamiyatda odamiylik va mehr-oqibat, baxt va saodat bo‘lmaydi.
Jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy – siyosiy sohalarida mavjud bo‘lgan muammolarni ma’naviyatni rivojlantirish, unga tayanish orqali hal etish mumkin. Ma’naviyat millatni taraqqiyotga

[11] Қаранг. И.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 52-56 бетлар
[12]Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистоннинг сиёсий – ижтимоий, иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Т., Ўзбекистон,1995, 46-бет
[13]. И.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 28-29 бетлар

etaklovchi, davlatning qudratini oshiruvchi muhim omil sanaladi. CHunki qaerda, qaysi mamlakatda ma’naviyat yuksak darajada bo‘lsa, o‘sha joyda, o‘sha mamlakatda johillik, hasadgo‘ylik, beparvolik, xudbinlik, yalqovlik, manmanlik, tekinxo‘rlik, g‘iybat qilishlik, ko‘rolmaslik, yovuzlik, qo‘paruvchilik, o‘z vatani va xalqiga nisbatan sotqinlik tuhmat qilish kabi salbiy illatlar, ma’naviyatsizlik ko‘rinishlariga o‘rin qolmaydi.

## 1.2. «Ma’naviyat»ning kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari

«Ma’naviyat asoslari»ning mustaqil fan sifatida shakllanishi davom etayotgan sharoitda, uning kategoriyalari, rivojlanishi qonuniyatlari, boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlardan farqli jihatlarini va ayni paytda ular bilan aloqalarini aniqlash masalalarini ham takomillashtirib borish zarur bo‘ladi. CHunki, uning kategoriyalari va rivojlanish qonuniyatlari aniqlanmas va ma’lum bir tartibga solinmas ekan u mustaqil fan maqomiga ega bo‘la olmaydi.

Albatta, ma’naviyat barcha ijtimoiy gumanitar fanlar tizimida eng «yosh»bo‘lganligi sababli uning tushunchalarini bir tizimga keltirish murakkab hisoblanadi. CHunki, uning ayrim kategoriyalari (tushunchalari) falsafa, estetika, etika, dinshunoslik va boshqa fanlarning tushunchalari bilan ham uyg‘unlashib ketgan. Bu tabiiy xol. Zero ma’naviyatni ularning uyg‘unligisiz tassavvur ham qilib bo‘lmaydi.

Ana shu murakkablikka qaramasdan «ma’naviyat» ning kategoriyalarini aniqlashga, uni yuqoridagi fanlardan mustaqilligini ta’minlashga ehtiyoj nihoyatda kata. SHu ehtiyojni hisobga olib «ma’naviyat» ning tushunchalari xaqida dastlabki qarashlarni ilgari surish mumkin bo‘ladi.

Aslida ma’naviyat ham xuddi boshqa fanlar kabi o‘zining mustaqil kategoriyalariga egadir. Ularga shartli ravishda inson, millat va jamiyat hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan quyidagi tushunchalarni kiritish mumkin.

SHaxsning o‘z o‘zini anglashi, bilimdonlik, qalbi tozalik, saxiylik, samimiylik, hayrihohlik, iymonlilik, halolik, e’tiqodlilik, diyonatlilik, poklik, mehr-shafqatlilik, vijdonlilik, rostgo‘ylik, adolatparvarlik, ota-onaga hurmat, oilaga sadoqat, vafodorlik, to‘g‘rilik va boshqalar. SHaxsning millat vakili sifati maqomida: milliy o‘z-o‘zini anglash, milliy g‘urur, millatparvarlik, vatanparvarlik, millat taqdiriga nisbatan ma’suliyatni, milliy manfaat ustivorligini his etish, milliy til, milliy tarix, adabiyot, san’at, urf-odatlar, an’analar, qadriyatlar, davlat tizimiga, qonunlarga hurmat va itoatkorlik, vazminlik, o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish, mamlakat ichki va tashqi faoliyatidan habardor bo‘lish va uni qo‘llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayotida faollik va boshqalar bo‘lsa; shaxsning jamiyat vakili sifatidagi maqomida: mamlakatning jahondagi nufuzini oshirishdagi ma’sullik, jahon sivilizatsiyasi yutuqlarini egallash, jahon xalqlari oldida turgan umumbashariy muammolariga befarq bo‘lmaslik, milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg‘unligini anglash, insonning tabiatining bir bo‘lagi ekanligi, uni asrashda ma’sullik va boshqa bir qator tushunchalarni kiritishi mumkin.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi keltirilgan ma’naviyatning barcha tushunchalari shaxsning ichki ruhiyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular shaxsning ma’naviy darajasi, millat va jamiyat vakili sifatidagi maqomlarini qamrab olgan.

Real hayotda ma’naviyat har bir insoning millat, jamiyat, davlat hayoti, insonlararo bo‘ladigan va ijtimoiy hayotga nisbatan bo‘ladigan munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

YUqoridagilardan tashqari, ma’naviyatning boshqa bir qator tushunchalari ham mavjud. Bu erda gap ularning hammasi ustida to‘xtash haqida emas, balki ma’naviyatning ko‘p qirrali, keng qamrovli ekanligi, u inson ongi, ruhiyati, ichki dunyosining salohiyati, xatti – harakatlari kabi bir qator masalalarni o‘z ichiga olishini tushinib etish haqida bormoqda. Ma’naviyatni chuqur tahlil qilish va tushunishda ana shu qayd etilgan tushunchalarni har birining ma’no-mohiyatini keng ochib bergan holda va ayni paytda ularni uyg‘un holda tahlil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ma’naviyat rivojlanishi ham ma’lum qonuniyatlarga tayanadi. Garchand bunday qonuniyatlar bir necha yo‘nalish va jarayonlarni o‘z ichiga olsa ham, ularni asosan ikki yirik guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar kiradi. YA’ni shaxs, millat yoki jamiyatning ichki salohiyati mustahkam, zaminlari

chuqur bo‘lishi ma’naviyat rivojlanishining asosini tashkil qiladi. Agar ichki salohiyat nochor bo‘lsa, shaxs barkamollik darajasiga, millatning o‘z bir butunligini saqlashga va ayni paytda jamiyatning yuksak taraqqiyot pog‘onasiga erishishiga salbiy ta’sir qiladi. YAna ham aniqroq qilib aytiladigan bo‘lsa, ichki salohiyat tayanch va ob’ektiv zaruriyatdir. Ichki salohiyatning darajalari esa ob’ektiv va sub’ektiv omillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Uning rivojlanishi ularning uyg‘un holatda bo‘lishini taqazo etadi.

Ichki salohiyatning mustahkam bo‘lishi, tarixiy taraqqiyot bosqichi yoki shaxs shakllanish jarayoni qanday murakkab bo‘lmasin, baribir zaruriy sharoitlar yuzaga kelgan payitda shaxs ma’naviy kamoloti va millatning yuksalishini ta’minlashga xizmat qilaveradi.

Ikkinchi guruh qonuniyatlariga shaxslar va millatlarning o‘zaro munosabatlari jarayonida sodir bo‘ladigan «o‘zaro ta’sir» va «o‘zaro boyitish» orqali bo‘ladigan jarayonlar kiradi. YA’ni shaxs ma’naviy kamoloti onadan tug‘ilishi bilan yuzaga kelmaydi. Xuddi shuningdek millat ham tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichlarida boshqa xalqlar, millatlar bilan hamkorlik natijasida shakllanadi. Hech qachon shaxs, inson o‘zgalarsiz yashay olmaganidek, millat ham boshqa millatlar, xalqlar bilan aloqa munosabatlarsiz taraqqiy qila olmaydi, boz ustiga bugungi kunda dunyoda «sof» millat borligiga hech kim guvohlik yoki kafolat bera olmaydi. Jamiyat xuddi ana shu qonuniyat asosida rivojlanadi.

Ma’naviyat ana shu o‘zaro munosabatlar va «ta’sirlar» asosida rivojlanib boradi. Bu jarayonda bir tomon ikkinchisiga nimanidir «beradi» va nimanidir «qabul» qiladi. SHunday qilib, ma’naviyat rivojlanishida «ta’sir» va «aks ta’sir» qonuniyati mavjud bo‘lib, u ma’naviyatning rivojlanib borishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bu qonuniyatlarning amal qilish jarayoni ob’ektiv va sub’ektiv shart – sharoitlar bilan bog‘liq bo‘ladi. SHaxs kamoloti va ma’naviyatning erkin rivojlanishi, kamol topishi uchun sharoit mavjud bo‘lsa qonuniyatlarning amal qilishi umum ma’naviy taraqqiyotga xizmat qilishga o‘zinig ijobiy ta’sirini o‘tkazadi.

Aksincha, shaxsni itoatda bo‘lishga qaratilgan va ma’naviyatni zo‘ravonlik siyosatini qo‘llab – quvvatlash vositasiga aylantirish harakati ustivor bo‘lgan shariatda «ta’sir» va «aks ta’sir» umum ma’naviy tushkunlikka olib kelishi mumkin. Bu jarayonda davlatning shaxs va ma’naviyatga bo‘lgan munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb e’tadi.

Keltirilganlardan ko‘rinib turibdiki «Ma’naviyat asoslari» ning ham boshqa ijtimoiy – gumanitar fanlar kabi, o‘ziga xos kategoriyalari (tushunchalari) va rivojlanishi qonuniyatlari mavjud.Ularni o‘rganishni takomillashtirib borish yo‘li bilan ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi imkoniyatlardan yana ham kengroq foydalanish mumkin bo‘ladi.

### 1.3. Ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotida o‘rnining oshib borishi

YUqorida ko‘rib o‘tganimizdek, «Ma’naviyat asoslari» mustaqil fan sifatida shakllanib va takomillashib bormoqda. Uning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi roli oshib bormoqda. Uning ko‘p qirrali imkoniyatlaridan samarali foydalanish davlat olib boryotgan siyosat bilan bog‘liq. To‘g‘ri, shaxs va millat shakllanishi yoki jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ma’naviyatning roli va ahamiyatigi e’tibor berib kelingan.

Bugunga kelib ma’naviyatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatiga nisbatan munosabat tobora kuchayib bormoqda. Sobiq ittifoqdosh, bugungi mustaqil davlatlarning ko‘pchiligida birida oldinroq, ikkinchisida keyinroq ma’naviyat omilining roli va ahamiyatini oshirishga imkoniyat darajasida e’tibor berilmoqda.

Bu borada O‘zbekistoning tarixan qisqa vaqt ichida Prezident Islom Karimovning bevosita tashabbusi asosida ma’lum tajribalarini to‘plashga erishganligini ta’kidlash lozim bo‘ladi. Ma’naviyatni ko‘tarish davlat siyosatida ustivor sohaga ko‘tarildi va u o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsata boshladi.

Prezidentimiz Islom Karimovning ikkinchi chaqiriq Oliy majlisning birinchi sesiyasida qilingan ma’ruzasida ham ma’naviyat masalasi XXI asr bo‘sag‘asida ikkinchi ustivor yo‘nalish deb qaraldi. Hozirda erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizda turgan eng dolzarb vazifa ekanligi qayd etildi. Boshqacha aytganda, o‘z haq-huquqlarini

taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo‘layotgan voqea – hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarni mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan erkin, har jihatdan barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalashimiz kerak ekanligi uqdirildi.

Aslini olganda, hozirgi kunda ma’naviyatning ustivor sohaga ko‘tarilishining bir qator sabablari bor. Ular quydagilardan iborat:

Birinchidan, jamiyatda amalga oshiriladigan barcha vazifalarning taqdiri, unda yashaydigan odamlarning tafakkuri, ongi qay darajada o‘sishi bilan bog‘liqdir. Ularning ongi va tafakkurini amalga oshirmoqchi bo‘lgan vazifalar mohiyati va manfaati yo‘nalishidan kelib chiqqan holda o‘zgartirmasdan turib ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Ana shu ma’noda ham ma’naviyat jamiyat hayotini o‘zgartirishning muhim mexanizmi hisoblanadi va har qanday davlat o‘z maqsadlari va manfaatlaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishga ustivorlik bilan qaraydi.

Ikkinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq Sovet mafkurasidan voz kechish bayrog‘i ostida umuman har qanday mafkuraga qarshi kurash boshlandi. Bu o‘z navbatida odamlarning ma’naviyatiga, shakllangan qadriyatlariga ham o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkaza boshladi. Ayniqsa, matbuotlarda ba’zi olimlar, birinchi navbatda iqtisodiy tafakkurni shakllantirish zarur, ma’naviyat esa ana shu iqtisodiy tafakkur zaminida yuzaga keladi degan fikrlarni ilgari sura boshladilar. Oqibatda odamlar ruhiyatida yana bir tomonlama ketish turmush tarzida etakchi o‘rinni egallay boshladi. Bu o‘z navbatida, milliy manfaatlar yoki vatanparvarlik haqida qanchalik gapirmaylik, u o‘zining biz kutayotgan natijalarini bermasdan, balki odamlarda shaxsiy manfaatlarga ustivorlik berishga xizmat qila boshladi. Bunday salbiy jarayonning yuzaga kelishi yangi jamiyat qurish uchun xatarli.

Uchinchidan, mustaqillikning dastlabki yillarida yuzaga kelgan iqtisodiy muammolar oldida odamlarning aksariyat qismi dovdirab qoldi, ko‘pchilik hollarda yoshlarning ta’lim olish, kasb o‘rganish, san’at va badiiy asarlarga qiziqishdan ko‘ra bozorga chiqish, pul topishga intilish xavfini yuzaga keltirdi. To‘g‘ri, pul topish, o‘z hayotining iqtisodiy imkoniyatini mustahkamlash har bir inson uchun hayotiy ehtiyoj va zarurat hisoblanadi. Ammo bu ehtiyoj shaxs va millat kamoloti manfaatlariga zid bo‘lmasligi, ularning ma’naviy qashshoqlashib ketishiga xizmat qilmasligi lozim. Ana shu yuzaga kelayotgan xavfli jarayonning oldini olish zarur.

To‘rtinchidan, sobiq ittifoq sharoitida fan, texnika, maorif, oliy ta’lim, bir qator sanoat korxonalarini vujudga keltirish va rivojlantirishda ko‘pgina yutuqlar qo‘lga kiritilgan edi. Ammo, ular markaz va qolaversa «katta og‘a» manfaatlariga xizmat qilgan. Ana shu potensial sobiq Ittifoqdosh Respublikalarga turli bahonalar bilan rus millati vakillarini yuborish, ularni mahalliy xalqni boshqarish, ularga rus turmush tarzi, tili, urf-odatlarini, xarakterini singdirish hisobiga mamlakatda rus millati ma’naviyati ustivorligiga tayanuvchi yagona til, ma’naviyat va turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilib kelgan edi. Bunday ayyorona va zo‘ravonlik siyosati oqibatida millatlarning o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishiga katta zarb berildi. Bu sobiq ittifoqda umummilliy inqirozni yuzaga keltirdi.

Bu inqiroz millatning «yo‘q» bo‘lib ketishi xavfini vujudga keltiradi.Bunday salbiy jarayonning oldi olinmasdan, millatning rivojlanishiga erishib bo‘lmaydi. Uni bartaraf etish faqat milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.

Beshinchidan, ma’naviyatning davlat siyosatida ustivor bo‘lishiga yana bir sabab, millat son jihatidan kattami yoki kichikmi bundan qattiy nazar, uning real sub’ekt, ma’lum moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratuvchisi, iste’molchisi, boshqalarda uchramaydigan, o‘ziga xos xususiyatlari mavjudligini va o‘zining mustaqil o‘rniga ega bo‘lishi kabi omillarni, ya’ni chinakam millat sifatidagi maqomini tiklash hayotiy ehtiyoj darajasiga ko‘tarilgan edi. Uni hal etish millat va davlatning kelajagi uchun amaliy ahamiyatga egadir.

Oltinchidan, o‘zbeklar jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan xalqdir. Uning ma’naviyat, fan, madaniyat sohasidagi erishgan yutuqlari jahon xalqlariga asrlar osha xizmat qilib kelmoqda. Ammo sho‘rolar tuzumi davrida ajdodlari tomonidan yaratilgan ana shu yutuqlarni o‘zbek xalqining ongi va qalbidan «chiqarish» borasida ham katta ishlar amalga oshirilgan edi.

Mustaqillik sharoitida esa uni qayta tiklash, jahon sivilizatsiyasidagi munosib va adolatli o‘rnini tiklash zarur edi. Bunga esa faqat ma’naviyatni rivojlantirish orqali erishish mumkin.

Ettinchidan, ma’naviyat millatni va butun mamlakat aholisini ma’lum maqsadlar sari davlat atrofiga uyushtiruvchi, ularni faollashtiruvchi, yorqin kelajakka ishontiruvchi, inson zotini ulug‘lovchi, uning qadrini anglatuvchi ulkan «mexanizm» hamdir. Xuddi ana shu muhim «mexanizm»dan mustaqillikni mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish, millatimizning qaddini ko‘tarishda foydalanishga bo‘lgan ehtiyoj davlatimiz, eng avvalo Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan o‘z vaqtida anglab olindi.

Ana shu sabablar va ehtiyojlar mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin ma’naviyatni rivojlantirish va milliy merosni qayta tiklashni davlatimiz hayotida ustivor siyosat darajasiga ko‘tarilishiga olshib keldi. SHu sababli Respublika Prezidenti 1994 yil 23 aprelda «Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazini tashkil qilish to‘g‘risida»; 1999 yil 3 sentyabr’da «Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashini qo‘llab-quvatlash to‘g‘risida» farmonlarini chiqardi. 1996 yil 9 sentyabr’dagi “Ma’naviyat va ma’rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida” farmonda, «…ma’naviy-ma’rifiy islohotlar davlat siyosatining asosiy, ustivor yo‘nalishi, deb hisoblansin»,[14] deb belgilandi.

1998 yilning 24 iyulida Vazirlar mahkamasi «Ma’naviy – ma’rifiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. YUqorida qayd etganimizdek, Oliy Majlisning ikkinchi chaqiriq birinchi sessiyasida ham jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish, islohotlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi ekanligi yana bir bor qayd etildi. Bu sohadagi muhim vazifalar, oldimizda turgan muammolar va ularni kechiktirmay hal etish zarurligiga xalqimiz e’tibori qaratildi.

Ana shu muhum hujjatlar mamlakatimizda ma’naviyatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda katta amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Ma’naviyatni rivojlantirishdagi davlat siyosati Prezidentimizning “YUksak ma’naviyat- kelajak poydevori”; “Kuch – bilim va tafakkurda”;[15] “YUksak ma’naviyat- engilmas kuch” degan konseptual ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlariga monand ravishda amalga oshirilmoqda.

Ma’nviyatni rivojlantirish mamlakatimiz va millatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida ayniqsa asosiy vazifa darajasiga ko‘tarilmoqda. Bu faqat mamlakatimizning ichki hayoti bilangina bog‘liq bo‘libgina qolmasdan, balki uning barqaror rivojlanishga tahdid solishga urinayotgan tashqi turli oqimlarning mavjudligi bilan ham bog‘liqdir. Ularning ayniqsa hayot tajribasiga ega bo‘lmagan yoshlarimizning ongini zaharlash borasida olib borayotgan harakatlariga qarshi turaoladigan, erkin fikrlaydigan, fidoiy Vatanparvarlarni tarbiyalash ma’naviyatni yuksak darajada rivojlantirishini taqazo qilmoqda.

Agar ana shu vazifalardan kelib chiqiladigan bo‘lsa bugun ma’naviyatni rivojlantirishni quydagi yo‘nalishlarda:

Birinchidan, sobiq sovet totalitar tuzumining zo‘ravonlik va tobelik tafakkuri qoldiqlaridan qutilish. Buning uchun har bir insoning ichki ruhiy salohiyatini yuzaga chiqarish, fikr erkinligini ta’minlash, har bir shaxsning o‘z taqdiri va kelajagini o‘zi yaratish imkoniyatini hamda ruhiyatini shakllantirish;

Ikkinchidan, har bir shaxsda mustaqillik tafakkurini rivojlantirish, o‘zbek millatiga mansubligidan faxrlanish, avlod- ajdodlari tomonidan yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni egallash va ularni mamlakat va milliy taraqqiyotiga keng jalb qilishda fidoiylik ko‘rsatish zarurligini anglash ruhiyatini mustahkamlash;

Uchinchidan, har bir shaxsda milliy o‘zligini anglash jarayonini rivojlantirish, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida fidoyilik ko‘rsatishi, mamlakat va milliy taraqqiyotga, siyosiy, ijtimoiy hamda millatlararo barqarorlikka, diniy bag‘ri kenglikka putur etkazuvchi har qanday harakatlarga qarshi ma’naviy – siyosiy va fuqarolik salohiyatiga ega bo‘lishiga erishish;

To‘rtinchidan, har bir shaxsning bilim olishga intilishiga, mamlakatimiz va jahonda fan, texnika, texnologiya sohasida erishilgan yutuqlardan bahramand bo‘lishiga sharoitlar yaratish,

[14] «Халқ сўзи», 1996йил, 10 – сентябрь.

O‘zbekistonning jahonda nufuzining mustahkamlanib borishidan g‘ururlanish kabi ma’naviy-ruhiy salohiyatiga erishishdir.

Mamlakatimizda yashayotgan har bir fuqaroda, ayniqsa yoshlarimizda ana shunday salohiyatlarni shakllantirishimiz umumma’naviy yuksalish uchun asosiy mezon hisoblanadi.

Prezidentimiz takidlaganidek, «Bugungi kunda xalqimizga azaldan xos bo‘lgan hamjihatlik va bag‘rikenglik, mehr-oqibat, mehmondo‘stlik va sahovat kabi insoniy fazilatlar yanada yorqin namoyon bo‘lmoqda va bunday ma’naviy muhit odamlarining ruhiyati va kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.» [16].

Bunday ijobiy ko‘rsatgichlarga mamlakatimizda ma’naviy yuksalishga qaratilgan siyosatning olib borilayotganligi asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## ISLOM KARIMOVNING MA’NAVIYAT, UNING MEZONLARI VA MILLIY-MA’NAVIY TIKLANISH HAQIDAGI KONSEPSIYALARI

### Ma’naviyat tushunchasiga Islom Karimovning ta’rifi

Ma’naviyat tushunchasi, uning mohiyati haqida turli adabiyotlarda bildirilayotgan fikrlar haqida oldingi mavzuda to‘htalib, ularning metodalagik asosi sifatida Islom Karimov tomonidan berilgan ta’rifni ko‘rsatib o‘tgan edik. Uni ma’naviyat tushunchasiga berilayotgan ta’riflar, uning jamiyat va shaxs kamolatga o‘rnini ko‘rsatib berishda metodalogik asos bo‘lishining ikkta sababi bor:

Birinchidan, Prezidentimiz mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kritgandan keyin nafaqat mamlakatimizda, shuningdek butun MDH mamlakatlari rahbarlari orasida birinchilardan bo‘lib, «Ma’naviyat» tushunchasini ilmiy istemolga kirtdi va uning jamiyat va inson kamolotidagi o‘rnini ilmiy asosladi hamda uni amaliyotga tadbiq etib kelmoqda.

Ikkinchidan, u mamlakatda olib boriladigan islohotlarni ma’naviy sohada olib boradigan islohotlar bilan uzviy ravishda olib borish zarurligini ilmiy asosladi va unga o‘zi rahbarlik qilib kelmoqda. Prezidentimiz ma’naviyatning jamiyat taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi rolini ayrim davlatlar rahbarlari va olimlaridan oldin ko‘ra bildi. Bu endi taraqqiyot yo‘liga kirayotgan mamlakat uchun katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘ldi. Bularning hammasini jamlaganda aytish mumkunki, Prezidentimiz tomonidan «Ma’naviyat»ga berilgan ta’rif to‘la qonli ilmiy ta’rif bo‘lib, uning barcha qirralarini o‘zida qamrab olgan.

U «Ma’naviyat haqida gap ketar ekan, men avvalo, insonni ruhiy poklanishi va yuksalishga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning iymon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuchni tasavvur qilaman»[17] - deb ta’kidlaydi. Mazkur ta’rif o‘zining mazmuni va mohiyati bilan «Ma’naviyat» ning barcha qirralarini o‘ziga qamrab olgan. Unda insonning ichki ruhiy olamini ifodalovchi barcha komponentlar o‘z ifodasini topgan va uning inson barkamolligini ta’minlaydigan katta kuch ekanligi belgilab berilgan.

Islom Karimov «Ma’naviyat»ga ta’rif berishda, uning jamiyat taraqqiyotiga o‘tkazadigan ta’sirini ham hisobga oladi va uni rivojlantirish zaruriyatini o‘z asarlarida har doim ta’kidlab kelmoqda.

SHuni alohida ta’kidlash lozimki, ma’naviyatni shaxs, millat davlat va jamiyatning qudratli kuchi sifatida hamda shaklan va mazmunan uyg‘un holatda o‘rganish faqat mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyingina boshlandi. Ma’naviyatni bu shaklda o‘rganish esa hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, mustaqillik sharoitidagi milliy tafakkur taraqqiyotimizda yangi yo‘nalishdir. Bu yo‘nalishning paydo bo‘lishi va uning konseptual g‘oyalarini nazariy jihatdan ishlab chiqish Prezidentimiz Islom Karimov nomi bilan bog‘liqdir. Uning asarlari, risolalari, ma’ruzalarida ma’naviyat tushunchasining mohiyati ochib berilgan. Bu ma’naviyatni mustaqil omil sifatida o‘rganishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. CHunki har qanday ilgari

[16] Каримов И.А. Ўзбекистонинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли., 28-бет.
[17] Қаранг; Каримов И. А. Ўзбекистон XXI асрга иртилмоқда. Тошкент: Ўзбекистон, 1999, 17-бет.

surilayotgan g‘oyalarning mohiyati ochib berilmas ekan, uning jamiyat taraqqiyotida millat va shaxs kamolotidagi rolini belgilash mumkin bo‘lmaydi

Prezidentimiz milliy taraqqiyotimizning dasturi darajasiga aylangan birinchi asari «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» dayoq ma’naviyatning inson hayotidagi ahamiyatini ochib berib shunday yozgan edi: «Ma’naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog‘ini bosadi. Xuddi shuningdek inson ham necha – necha azoblar va qiyinchilik bilan ma’naviyat chashmasini izlaydi».[18]

Mamlakatda o‘tkazilayotgan islohotlar va uning vazifalarini belgilab berishda Prezidentimiz yana ma’naviyatni rivojlantirish masalasiga qaytib shunday yozadi: «Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar- o‘z yo‘liga.Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta’minotini ham amallab turish mumkin, ammo ma’naviy islohotlar – qullik, mu’telik iskanjasidan ozod bo‘lish, qaddini baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q, bu dunyoda».[19]

YA’ni, bu erda Prezidentimiz o‘tkazilayotgan isloxotlarning asosiy tomonini milliy-ma’naviy tiklanish tashkil qilishini ta’kidlamoqda. Ularning bu g‘oyalariga muvofiq qullik, mu’telik iskanjasidan ozod bo‘lgan, o‘zining kimligini anglagan, millatining o‘zligini tarannum etgan insongina mamlakatni taraqqiyotga o‘z xissasini qo‘shishi mumkin.

Prezidentimiz ma’naviyat tushunchasi mazmunini ochib berar ekan: «Er, oila, ota-ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni – qo‘shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik- ma’naviyatning ma’nosi ana shunday keng»[20] - deb ta’kidlaydi.

Ma’naviyat o‘z-o‘zidan shakllanadigan narsa emas, u avvalo har bir insonning ichki ma’naviy salohiyatini shakllantirish yo‘lida barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni o‘zlashtirish, Vatan va millat manfaatlari yo‘lida halol, fidoyilik bilan mehnat qilish jarayonida shakllanadi. SHu ma’noda ham Prezidentimiz «Ma’naviyat-taqdirning ehsoni emas. Ma’naviyat inson qalbida kamol topishi uchun u qalban va vijdonan, aql va qo‘l bilan mehnat qilishi kerak»[21] ligini ta’kidlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, Prezidentimiz ma’naviyatni «tayyor» xolatda qaramaydi. Uni shakllantirish va rivojlantirish, millatning chinakkam mulkiga, taraqqiyot omiliga aylantirish uchun fidoyilik ko‘rsatish zarurligini ta’kidlamoqda.

Prezidentimiz asarlarini qunt bilan o‘rganib borar ekanmiz, ularda oldingi asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar keyingilarida ijodiy rivojlantirilganligi, mazmunan va mohiyatan boyitilganligini ko‘ramiz. Eng asosiysi shundaki, ana shu boyitish jarayonida jamiyat va millatimiz taraqqiyotida sodir bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlar bilan bir qatorda yuzaga kelgan yangi muammolarni hal etishning nazariy asoslari o‘z ifodasini topgan. SHu munosabat bilan ma’naviyatning jamiyatni rivojlanishidagi roli haqida Prezidentimiz tomonidan keltirilgan quyidagi fikrlarning mohiyatini tushunib olib, uni bevosita har birimiz o‘zimizning kundalik vazifamizga aylantirishimiz millatimiz va mamlakatimiz taraqqiyotini ta’minlash uchun muhim amaliy ahamiyatga egadir. «Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sohalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi, avvalo xalq ma’naviyatining tiklanishi, tarixiy merosimizning keng o‘rganilishi, an’analarimizning saqlanishi, madaniyat va san’at, fan va ta’lim rivoji bilan uzviy bog‘liqdir».[22]

---

[18] Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.(Нутқлар, мақолалари суҳбатлар ). Тошўкент. Ўзбекистон, 1993, 78-бет.

[19]Қаранг; Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Тошкент. Ўзбекистон, 1996,
1, 202-бет.

[20] Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. (Нутқлар, мақолалари суҳбатлар) Тошкннт. Ўзбекистон, 1993, 78-бет.

[21] Каримов И. А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура.(Нутқлар, мақолалари суҳбатлар ). Тошкент. Ўзбекистон, 1993, 79-бет.

[22] Ўша асар 18-бет

Haqiqatan ham ma’naviy qashshoqlik bilan hech qachon millat iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga erisha olmaydi. Ma’naviyat har qanday taraqqiyot uchun manba bo‘lib hizmat qiladi. CHunki ma’naviyat qancha yuksak bo‘lsa, qilinadigan ishlarning samaradorligi va unumi ham shu darajada yuksak bo‘ladi.

Ma’naviyat orqali inson va millat qilinayotgan ishlarning mazmuni va mohiyatini aniq tushunib etadi, o‘z mehnatini quvonch hamda taraqqiyot omiliga aylantirishga erishadi.

SHu ma’noda ham Prezidentimiz ma’naviyatni isloh qilishni birinchi darajali vazifa sifatida kun tartibiga qo‘ymoqda.

Prezidentimiz ma’naviyatning mohiyatini ochib berish bilan bir vaqtda bu sohada amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlarning strategik yo‘nalishlarini ham belgilab beradi. SHu jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblarida quydagilarni ta’kidlaydi: «…avvalambor yoshlarimizning iymon-e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar qilib tarbiyalash. Ularning tafakkurida o‘zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatlarini qaror toptirish, ularning, men o‘zbek farzandiman, deb g‘urur va iftixor bilan yashashiga erishishidir».[23]

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi o‘tgan davr ichida Prezident Islom Kaprimov asarlari va ma’ruzalarida «Ma’naviyat» ning mohiyati, uning jamiyat taraqqiyotida va inson kamolotida tutgan o‘rni haqidagi g‘oyalari yana ham rivojlantirilib kelindi. Prezidentimiz «Ma’naviyat»ga jamiyat barcha sohalarda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarning manbai sifatida qarab keladi. SHuning bilan birga ma’naviyatni mamlakatimiz va yoshlarimizga qarshi qaratilgan turli xurujlar hamda yovuz kuchlardan himoya qilishda qudratli kuch ekanligiga e’tiborni qaratadi. U «Bunday balo – qazolarga» qarshi kurashda, farzandlarimizning ma’naviy dunyosini himoya qilishda nimalarga tayanishimiz zarur? Avvalo to‘g‘ri tarbiya, sog‘lom turmush g‘oyasi, faqatgina qattiq iroda va iymon-e’tiqod hisobidan bunga erishish mumkin»,[24]deb ta’kidlaydi. Bunday vazifani amalga oshirishning asosiy imkoniyati yoshlarimiz ongi va qalbiga ma’naviyatimizning bitmas – tuganmas boyliklarni etkazish hisoblanadi.

«Ma’naviyat» tushunchasiga tarif berishda, uning jamiyat va inson kamolotida o‘rnini belgilab berishda Prezident ana shu konseptual g‘oyalarni izchillik bilan rivojlantirib kelmoqda.

### 2.2. Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasi

Mamlakat va milliy taraqqiyoti unga rahbarlik qiluvchi etakchiga bog‘liq bo‘ladi. CHunki, u mamlakatning qaysi yo‘ldan borishi, qanday maqsadlarni ko‘zlashi va belgilanadigan vazifalarni amalga oshirishning strategiyasini belgilab beradi hamda uni real hayotga tadbiq qilish ma’suliyatini ham o‘z zimmasiga olishga qodir bo‘ladi.

SHuning bilan birga rahbar uchun xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan yana biri, u o‘z tanlangan yo‘lining aniq mo‘ljalini, uning kelajakda mamlakatni taraqqiy qildirishda xizmat qiladigan imkoniyatlarni aniq tasavvur eta oladi. Bundan tashqari u o‘zi belgilab bergan vazifalarini amalga oshirish uchun mamlakat aholisini o‘z orqasidan ergashtirish qobiliyatiga ega bo‘lishini ham taqazo qiladi.

Mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo‘lgan etakchi uchun yana bir shart shuki, u o‘zi belgilab bergan vazifalar ichidan asosiy halqani topa bilishi va uni belgilangan maqsadlarni amalga oshirishiga xizmat qildira bilishga salohiyati etarli bo‘lishi lozim bo‘ladi.

YUqoridagilarni umumlashtiradigan bo‘lsak, mamlakatga rahbarlik qilmoqchi bo‘lgan etakchi uni taraqqiy qildirishga xizmat qila oladigan ilmiy g‘oyalar majmuasi hisoblanadigan taraqqiyot konsepsiyasini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishning imkoniyatlarini belgilab berishi talab etiladi.

Islom Karimov ana shu ko‘rsatilgan barcha xususiyatlar va salohiyatni o‘zida mujassamlashtirgan rahbar bo‘lganligi uchun ham mamlakatimiz taraqqiyotining strategik

[23] Қаранг; Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкура – халқ эътиқоди ва буюук келажакка ишончдир. Тошкент: Ўзбекистон, 2000й,12-13 бетлар.

[24] Каримов И.А. Ўзбекистонинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли., 29-бет.

vazifalarini aniq belgilab berdi va uni amalga oshirishning yo‘nalishlari, uslublari hamda imkoniyatlarni yuzaga chiqarib kelmoqda.

U tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyada mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta’minlashning asosiy omili sifatida milliy-ma’naviy tiklanishi konsepsiyasi ustuvor o‘rinni egalladi. Bu albatta bejiz emas.CHunki ma’naviyat jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi hamda mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu o‘z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan zamin bo‘lib xizmat qiladi. Buni chuqur xis qilgan va o‘z qalbidan o‘tkazgan Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin ona zaminimizda demokratik jamiyatni qurishning nazariy konsepsiyasini ishlab chiqar ekan, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurishni milliy-ma’naviy tiklanish bilan uyg‘un holatda bo‘lishi kerakligini ham ilmiy asoslab berdi. U o‘zining hajmi jihatdan kichik bo‘lsa ham, ammo mamlakatimizda yangi jamiyat qurishning ilmiy-nazariy asoslarini aks ettirilishi jihatdan mukammal, fundamental dastur bo‘lgan «O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li» nomli asarida mustaqillikdan keyin O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy sohasidagi strategik vazifalarini ham belgilab berdi. Umuman bu asar O‘zbekistonda yangi jamiyat qurishning ilmga asoslangan dasturi hisoblanadi. CHunki unda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayotni qayta qurish sohasida ilgari surilgan barcha g‘oyalar o‘tgan davrda o‘zining amaliy isbotini topdi va jamiyatimiz tubdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Islom Karimov ushbu asarida mustaqil O‘zbekistonni rivojlantirishning ma’naviy – ahloqiy negizlarini belgilab berar ekan, «O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning o‘z yo‘li to‘rtta asosiy negizga asoslanadi»- deb ko‘rsatadi va quydagilarni belgilab beradi.

-umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

-xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

-insoning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

-vatanparvarlik.[25]

Asarda ana shu negizlarning mohiyati ham ochib berilgan. Jumladan, Islom Karimov shunday yozadi: «Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrati manbai – xalqimizining umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir.

Xalqimiz adolat, tinchlik, ahl-qo‘shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab – asrab kelmoqda. O‘zbekistonni yangilashning oliy maqsadi ana shu an’analarni qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag‘ishlash, zaminimizda tinchlik va demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdir».[26]

Ko‘rinib turibdiki, Prezidentimiz o‘z asarida ma’naviyatimizni rivojlantirish vazifalarini belgilab bergan.

Muallif xalqimizning ma’naviy ildizlari chuqur ekanligini alohida ta’kidlaydi, ularni qayta tiklash va yangi mazmun bilan boyitish zarurligini strategik vazifa sifatida belgilaydi.Bu masalaga alohida e’tibor berish zarurligini ta’kidlayotganimizga asosiy sabab shuki, Prezidentimiz keyingi asarlarida ham ma’naviy merosimizni qayta tiklash g‘oyasini ijodiy rivojlantiradi va uning millatimiz ma’naviy taraqqiyoti uchun asosiy yo‘nalish bo‘lishini asoslab beradi.

Islom Karimov xalqimizning buyuk fazilatlari haqida to‘xtalib insonparvarlikning o‘zbeklarga xos qirralarini ko‘rsatib berishga e’tiborni qaratadi. Jumladan, «Insonparvarlik bu o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. SHafqatsizlik va zo‘ravonlik uning tabiatiga yotdir».

Xuddi mana shu fazilatlarimizning mohiyatini yoshlarga etkazish tarbiyaviy ishimizning diqqat markazida bo‘lishi zarur. CHunki milliy ma’naviyatimizning asosiy manbalari ana shunga borib taqaladi. Bugungi yoshlarimiz buning mohiyatiga etib borishlari zarurdir.

---

[25]Қаранг: Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т: Ўзбекистон, 1993, 74-бет.

[26] Ўша жойда.

Asarda ma’naviyatning xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirishdagi roli ham asoslab berilgan. Jumladan, Prezidentimiz shunday yozadi: «Xalqimizning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish – O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir. Ma’naviyat shunday qimmatbaho mevaki, u bizning qadimiy va navqiron xalqimizning qalbida butun insoniyatning ulkan oilasida o‘z mustaqilligini tushunib etish va ozodlikni sevish tuyg‘usi bilan etilgan».[27]

Ma’naviyatning milliy taraqqiyotidagi o‘rni va uni o‘zlashtirish zarurligi asarda ilmiy asoslangan: «Ma’naviyat o‘z xalqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib etishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi».[28]

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan ana shu konseptual g‘oyalar bugungi kunda milliy ma’naviyatni rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa sifatida belgilanishga xizmat qilib kelmoqda.

Islom Karimov o‘z asarida mamlakatimizda milliy ma’naviyatni tiklash va rivojlantirish davlat siyosatida ustivor vazifa ekanligiga e’tiborni qaratib quydagi konseptual g‘oyani ilgari suradi. U shunday yozadi: «Oldin odamlarga moddiy boylik berish, so‘ngra ma’naviyat to‘g‘risida o‘ylash kerak deydiganlar haq bo‘lmasa kerak. Ma’naviyat – insonning, xalqning, jamiyat, davlatning kuch-qudratidir. U yo‘q joyda hech qachon baxt- saodat bo‘lmaydi…»

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan bu konseptual g‘oyaning nazariy va amaliy ahamiyati shundaki: birinchidan, bu bilan muallif sobiq sho‘rolar davrida ma’naviyatni rivojlantirishga uchinchi darajali omil sifatida qaralishining ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy – ma’rifiy inqirozining sabablarini ham ko‘rsatib beradi. Ikkinchidan, ma’naviyatni rivojlantirmasdan, shaxsning ma’naviy – ruhiyatini o‘zgartirmasdan turib jamiyatda ko‘zlagan maqsadni amalga oshirish mumkin emasligini ilmiy asoslab berdi.

Prezidentimizning yana bir muhim knseptual g‘oyasi ma’naviyat shaxs barkamolligining eng muhim mezoni va shuning bilan birga uni kamolotga eltuvchi, o‘z-o‘zini anglatuvchi va o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqaruvchi ulkan omil ekanligini ilmiy asoslaganligidir.

Islom Karimovning milliy-ma’naviy tiklanishga bag‘ishlangan konsepsiyasida vatanparvarlik shaxs ma’naviyatining ajralmas qismi ekanligini asoslab berish alohida o‘rinni egallaydi. Haqiqatan ham o‘z Vatanini sevmagan, uning har qarich eri uchun mas’ulligini his etmagan har bir inson ma’naviy jihatdan qashshoq hisoblanadi.

SHu o‘rinda bir muhim masalaga aniqlik kiritish lozim bo‘ladi. U ham bo‘lsa «Milliy taraqqiyot» va «Milliy tiklanish» tushunchalarining mohiyati, mazmuni va mezoni masalalaridir. Aslida ular bir-birini inkor qiluvchi tushunchalar emas. Aksincha, merosi, tarixiy xotirasi va zaminlari mustahkam millatlar uchun bu tushunchalarning o‘zaro uyg‘un holatigina milliy taraqqiyotini ta’minlaydi. Lekin falsafiy kategoriya (tushuncha) sifatida va o‘lchamlari (mezonlari) jihatdan ular bir birlaridan farq qiladilar.

Milliy taraqqiyot – evalyusion xarakterga ega, u quyidan yuqoriga tomon ko‘tarilishidan iborat bo‘lgan jarayonidir. U millatning shakllanishi, takomillashuvi va yuksalishi kabi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy tiklanish esa, millat taraqqiyoti tarixining ma’lum bir bosqichida ma’lum ob’ektiv va su’bektiv sabablar oqibatida boy berilgan salohiyatni qaytadan millat taraqqiyotiga yo‘naltirish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir.

YAna ham aniqroq aytadigan bo‘lsak, milliy tiklanish u yoki bu millat hayotida sodir etiladigan, zo‘ravonlik yo‘li bilan uning avlod-ajdodlari tomonidan yaratilgan meros urf-odatlar, an’analar, qadriyatlardan mahrum –etilgan, tarixiy hotirasi toptalgan, milliy o‘zligini anglashi cheklangan, manfaatlari, maqsadlari, huquqlari poymol etilgan, tarixiy taraqqiyotning ma’lum bosqichiga kelib esa o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishi natijasida milliy rivojlanishi borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, yaratilgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarni milliy rivojlanishga yo‘naltirishga qaratilgan umummilliy faoliyat hisoblanadi.

[27] Ўша асар 78-бет.
[28] Ўша жойда.

Prezidentimizning asarlaridagi milliy-ma’naviy tiklanish g‘oyasining mazmunini zo‘ravonlik yillarida toptalgan merosimizni o‘zlashtirish, urf-odatlarimizni, an’analarimizni rivojlantirish, qadriyatlarimizni mustahkamlash borasida boy berilgan imkoniyatlardan bugungi taraqqiyotimizga yo‘naltirish, o‘zimizning milliy zaminlarimiz imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, ularni umummilliy dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylantirish borasida har birimizning tinmay fidoyilik ko‘rsatishimiz zarurligi ko‘rsatib berilgan.

Haqiqatan, ham millat qachonki milliy zaminlarga tayansagina taraqqiyotga erishishi mumkin. U hech qachon o‘zgalarning ma’naviy yordami bilan millat darajasiga ko‘tarila olmaydi hamda ma’naviy rivojlanishga erisha olmaydi.

SHuning uchun ham Prezidentimiz dastlabki yozgan asardagi milliy-ma’naviy tiklanish vazifasini amalga oshirishga bag‘ishlangan konsepsiyalarini o‘zining boshqa asarlarida ijodiy rivojlantirgan, yangi mazmun bilan boyitgan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida yuzaga kelayotgan muammolarni hal qilish ehtiyojlariga mos ravishda uning yangi yo‘nalishlarini belgilab bergan.

Xususan, ular «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida», «O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz», «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», «Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori», «Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q», «Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin», «O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz («Turkiston» gazetasining muxbiri savollariga javoblar)», «Alloh qalbimizda, yuragimizda («Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar)», «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz», «Milliy mafkura – kelajak poydevori», «Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman («Fidokor»gazetasi muxbiri savollariga javoblar)», “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” kabi asarlari, nutqlari va muxbirlar savollariga javoblarida o‘z ifodasini topgan.

Prezidentimizning yuqoridagi asarlarida ilgari surilgan konseptual g‘oyalarni umumlashtiradigan bo‘lsak, ular quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:

- ma’naviy meros va diniy qadriyatlarni chuqur o‘zlashtirish, millatimizning o‘z-o‘zini anglashiga erishish, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini izchillik bilan mustahkamlash;
- mustaqillik sharoitida milliy g‘oya va milliy mafkurani shakllantirish hamda uni xalqimiz dunyoqarashiga aylanishiga erishish;
- ta’lim tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashning milliy dasturini amalga oshirish asosida barkamol avlodni tarbiyalash, sog‘lom avlod dasturini amalga oshirish asosida jismonan baquvvat, ruhi, fikri sog‘lom, iymon-e’tiqodi butun, bilimli, ma’naviyati yuksak, mard va jasur vatanparvar avlodimizni shakllantirish;
- milliy – ma’naviy salohiyatimizning jahon sivilizatsiyasidagi o‘rnini tiklash va bugungi kunda ma’naviyat, ma’rifat, fan, texnika, texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirish asosida hozirgi zamon umumjahon ma’naviyati tizimi rivojiga hissa qo‘shish;
- yoshlar ma’naviyatini milliy istiqlol g‘oyalari bilan boyitib borish, ular ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirish;
- insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy-ma’naviy salohiyatimizning ajralmas qismiga aylantirish kabilardir.

Ajdodlarimizdan qolgan meros har bir millatning nafaqat o‘tmish, shuning bilan birga istiqboli uchun ham kuch, fidoyilik va ilhom manbai hisoblanadi. SHuning uchun ham Prezidentimiz «Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat SHarq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulammolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona-yurtimizda tug‘ilib kamolga etgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan

g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”,[29]- deb ta’kidlaydi. Uning «O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo‘lish hayotdan judo bo‘lish demakdir»[30] - degan g‘oyalarida har bir vatandoshimizning, ayniqsa yoshlarimizning ma’naviy merosimizni chuqur o‘rganish zarurligi milliy-ma’naviy tiklanishimizning bosh vazifasi ekanligini tushunib etishga qaratilgandir.

Islom Karimov milliy mafkuraning milliy-ma’naviy tiklanish va mamlakatimizda demokratik jamiyat qurishdagi ahamiyati va rolini ilmiy asoslashga katta e’tibor qaratib, milliy mafkura-millatni birlashtiradi, mafkurasiz odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotadi.

Milliy mafkura vositasda el-yurt birlashadi o‘z oldiga buyuk maqsadlar qo‘yadi va ularni ado etishga qodir bo‘ladi»[31] - deb ta’kidlaydi. Prezidentimiz o‘z navbatida milliy g‘oyaning vazifalarini aniq belgilab beradi: «… milliy g‘oya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur»[32] ligini belgilab beradi. Mamlakatimiz bugungi kunda totalitar tuzum hukumronligidan ozod bo‘lib demokratik jamiyatni qurish sari dadil qadam tashlamoqda. Tabiiyki, jamiyat bir bosqichdan ikkinchisiga o‘tish, yana boz ustiga zo‘ravonlik asosida qurilgan jamiyatdan ma’rifatli, inson manfatlari, shaxs erkinligi va kamolotiga xizmat qiluvchi demokratik jamiyatga o‘tish oson kechmaydi, chunki eski tuzum illatlari hali saqlanib turadi. O‘z umrini uzaytirish uchun jon jahdi bilan qarshilik ko‘rsatadi, yangi jamiyat esa qisqa muhlatda qurilmaydi, balki ma’lum vaqtni, unda yashayotgan barcha insonlarning fidoyilik bilan mehnat qilishlarini talab etadi. Xuddi mana shu jarayonda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun yuksak ma’naviy e’tiqod va sabr-toqat bilan odamlarni uyushtirish, ular dunyoqarashida yangi jamiyat taffakkurini shakllantirish muhum vazifa darajasiga ko‘tariladi.

Mamlakatimizda ana shu yuksak muammolarni hal etish jarayonlari ketmoqda. Ularni mavaffaqiyatli hal etishda ertangi kunimiz davomchilari bo‘lgan yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazishmiz zarur. SHuning uchun ham prezidentimiz og‘ir iqtisodiy muammolarni hal etish jarayonlari murakkab holatda kechayotganligiga qaramasdan kadrlar tayyorlash milliy dasturini ishlab chiqish, uni qabul qilish va hayotga tadbiq etish masalasini asosiy vazifa sifatida belgilab berdi hamda uni izchillik bilan amalga oshirishga rahbarlik qilmoqda. U mazkur dasturning ahamiyati haqida to‘xtalib: «Lo‘nda qilib aytganda, bugungi kunda oldimizga qo‘ygan buyuk maqsadlarimizga, ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, hayotimizning taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, rejalarimizning samarali taqdiri – bularning barchasi, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli, mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog‘liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz»,[33]-deb ta’kidlaydi.

Prezidentimizning milliy – ma’naviy tiklanishni amalga oshirishga xizmat qiluvchi yana bir konseptual g‘oyasi sog‘lom avlodni, komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish zaruriyatini ilmiy asoslanganligidir. Uning sog‘lom avlod konsepsiyasida shaxsning jismonan, ruhan baquvvat bo‘lishi, yuksak bilim, ma’naviyat, tafakkur va fidoyi vatanparvar bo‘lishi kabi talablarga javob beradigan avlod nazarda tutiladi. SHuning uchun ham «…farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘ladi, qudratli yurtning farzandlari sog‘lom bo‘ladi ».[34] – degan g‘oyani ilgari suradi.

Milliy-ma’naviy tiklanishimizda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksak darajaga ko‘tarish, ularning hozirgi zamon fan, texnika va texnologiya yutuqlarini chuqur o‘zlashtirishlari katta omil ekanligi Prezidentimiz tomonidan ilmiy asoslangan.

---

[29] Қаранг: Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 30 бет.

[30] Каримов И. А .Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т: Шарқ, 1998, 5-10 бетлар.

[31] Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. Тошкент: Ўзбекистон, 1998, 4, 2, 15-бетлар.

[32] Ўша асар. 15-бет.

[33] Баркамол авлод орзуси. Тошкент Шарқ, 1999, 9-бет.

[34] Президентимиз И.А. Каримовнинг Конституция кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи: -Халқ сўзи, 1999 йил 8 декабр.

Haqiqatdan ham jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalari koʻrsatib turibdiki, qaysi mamlakat yoshlari zamonaviy fan, texnika va texnologiya yutuqlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakat taraqqiyotiga qoʻshadigan hissalari shunchalik samarali boʻladi, ma'naviyat yuksaladi va mamlakatning hozirgi zamon jahon sivilizatsiya tizimiga kirib borishi tezlashadi.
Prezidentimiz ishlab chiqqan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasida insoniyatning asrlar davomida yaratgan va umumjahon mulkiga aylangan barcha boyliklarni milliy ma'naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirish ham asosiy oʻrinni egallaydi. Jumladan, u «Fidokor» gazetasi muxbiri bergan savollariga bergan javoblarida dunyo xalqlari ma'naviy mulkiga aylangan faylasuflarning asarlari haligacha oʻzbek tilida yoshlarimizga etib bormaganligini qattiq tanqid qilib shunday ta'kidlaydi: «Dunyo tan olgan koʻp ulugʻ faylasuflarning asarlari hanuzgacha oʻzbek tilida nashr etilmagani tufayli aksariyat ziyolilar, xususan, yoshlarimiz ularning gʻoyaviy qarashlari bilan yaxshi tanish emas. Sokrat va Platon, Nitsshe va Freyd kabi olimlarning, hozirgi zamon chet el faylasuflarining kitoblarini ham tushunarli qilib, izoh va sharhlar bilan oʻzbek tilida chop etish nahotki mumkin boʻlmasa?».[35]
Koʻrinib turibdiki, Prezidentimiz milliy-ma'naviy rivojlanishimizni jahon xalqlarining ilgʻor ma'naviyat tafakkuri taraqqiyoti bilan uygʻun ravishda rivojlantirish vazifasini kun tartibiga qoʻymoqda.
Bu bejis emas albatta. CHunki, oʻz qobigʻidan chiqolmagan, jahon xalqlari erishgan yutuqlaridan foydalanishga intilmagan millat taraqqiy qila olmaydi. Bundan tashqari milliy taraqqiyot uchun yana bir qonuniyat ham borki, jahonda erishilgan yutuqlardan va tajribalaridan foydalanishga harakat qilmagan millatning oʻzi ham umumjahon sivilizatsiyasiga oʻzining hisasini ham qoʻsha olmaydi.
SHu ma'noda ham Prezidentimiz milliy – ma'naviy taraqqiyotimizning muhim omili sifatida jahon xalqlarining ma'naviy taraqqiyotda erishgan yutuqlaridan keng foydalanishimiz, ularni keng oʻzlashtirishimiz zarurligini ilmiy asoslab bergan. U «Milliy istiqlol gʻoyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga yozgan soʻz boshisida «… men milliy istiqlol gʻoyasi bugungi tez sur'atlar bilan oʻzgarayotgan tahlikali dunyoda oʻzligimizni anglash, bizning kimligimizni, qanday buyuk ajdodlarning merosiga, necha ming yillik tarix, betakror madaniyat va qadaiyatlarga ega ekanimizni his etib yashashga, bu boyliklarini asrab-avaylab, demokratik qadriyatlar, butun jahon taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib, yangi oʻsib kelayotgan avlodga etkazishga xizmat qilmogʻi zarur, deb bilaman» [36] - degan vazifani qoʻydi.
Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanishning ilmiy-nazariy konsepsiyasining amaliy ahamiyati shundaki, u butun milliy va jahon ma'naviyati taraqqiyotlari ehtiyojlarini oʻzida toʻla ifoda ettirgan.
Bu gʻoyada milliyliy va umuminsoniy ma'naviyati uygʻun xolda asoslangan. SHuning uchun ham mustaqillik yillarida milliy-ma'naviy tiklanishimiz barqaror jarayon sifatida namoyon boʻlib keldi. Bu oʻz navbatida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining hayotiyligini tasdiqlaydi.

## 2.3. Islom Karimovning «Ma'naviyat» tushunchasiga ta'rifi va milliy-ma'naviy tiklanish konsepsiyasining ahamiyati

Islom Karimov «Ma'naviyat» tushunchasi va ahamiyatini ilmiy iste'molga olib kirgan nazariyotchi va amaliyotchilardan biri hisoblanadi. Buning ahamiyati shunda boʻldiki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar zaminida ma'naviyat asosiy oʻrinni egalladi. U ma'naviy qashshoq jamiyatda iqtisodiy farovonlikka va siyosiy barqarorlikka erishib boʻlmasligini nazariy jihatdan asoslab berdi hamda jamiyat hayotida amalga oshiriladigan vazifalarda ana shu konsepsiyaga oʻz faoliyatida izchil amal qilib keldi.Uning bu nazariyasi va faoliyatining mamlakatimiz hayotidagi ahamiyati shunda boʻldiki, barcha soha va yoʻnalishlar boʻyicha belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish imkoniyaati kengayib bordi.Bu ijobiy yutuqlarning salohiyati va ahamiyati haqida fikr yuritganimizda bugun jahonda iqtisodiy

[35] Қаранг: Каримов И.А Миллий истиқлол мафкураси- халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 27-бет.
[36] Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент: Ўзбекистон, 2000, 7-бет.

yuksaklikka erishgan mamlakatlarda ma’naviy qashshoqlik avj olayotganligi va ular bu salbiy jarayonning oldini olishni yana boshidan boshlash rejalari haqida bosh qotirayotganliklarini hisobga oladigan bo‘lsak, Islom Karimov tomonidan jamiyatda amalga oshiriladigan barcha islohotlarni uyg‘un ravishda olib borish zarurligi haqida ishlab chiqqan va amaliyotga tadbiq qilgan konsepsiyasining amaliy ahamiyati yana yaqqolroq namoyon bo‘lishini ko‘rish mumkin bo‘ladi.

Uning ma’naviyatning inson, millat, davlat va jamiyat hayootidagi o‘rni haqidagi konsepsiyalaridan yana biri milliy-ma’naviy rivojlanish hisoblanadi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish va ma’naviy yangilanish hamda rivojlanish konsepsiyasining juda katta nazariy va metodologik ahamiyatga ega ekanligini alohida ta’kidlash lozim. Fikrimizcha ularning ahamiyati quydagilardan iborat:

Birinchidan, bu konsepsiya sobiq sho‘rolarning totalitar tuzumi sharoitida boy milliy-ma’naviy madaniyatimizning inqirozga yuz tutganligini va uning sabablarini tushunishga;

Ikkinchidan, sobiq sho‘rolarning o‘tkazgan zo‘ravonligi, zulmi va jinoyatkorona xatti – harakatlariga qaramasdan, milliy – ma’naviy merosimizning ildizlari mustahkam bo‘lganligi uchun bu zo‘ravonliklarga bardosh berib, o‘z salohiyati va xususiyatlarini saqlab qololganligini tushunib etishga, xuddi shuningdek, ana shu omil mustaqilligimiz sharoitida kuch, qudrat, milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularimiz uchun manba bo‘layotganligini tushunib etishga;

Uchinchidan, har bir millat, u son jihatdan kichikmi, yoki kattami undan qat’iy nazar mustaqillik ularning har biri uchun havo va suvdek zarur ekanligini, faqat mustaqillik millatning milliy-ma’naviyatini saqlab qolishga, uni rivojlantirishga va keyingi avlodga etkazish baxtiga muyassar etadigan asosiy omil ekanligini tushunishga, bu esa har bir millatdoshimiz va vatandoshimizning mustaqillikdek ulug‘ ne’matni saqlab qolishi va yanada mustahkamlashi uchun fidoiylik ko‘rsatishi ma’naviyatning yuksak belgisi ekanligini qalban his etishga imkon berishiga;

To‘rtinchidan, milliy-ma’naviy tiklanishning mohiyatini, «ma’naviyat» tushunchasi, uning shaxs, millat kamoloti, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini bilib olishga, uni rivojlantirish uchun merosimizni chuqur o‘zlashtirish, tinmay izlanish, marifat, fan-texnika va texnologiya yutuqlarini sabot bilan o‘zlashtirish hamda Prezidentimizning bugungi taraqqiyotimizni ta’minlaydigan «Kuch – bilim va tafakkurda»- degan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan knseptual g‘oyasiga izchillik bilan amal qilishimizga;

Beshinchidan, milliy mustaqilligimizni asrash va mustahkamlash, islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy-ma’naviy tiklanishimiz oldida turgan vazifalar ko‘lamini bilib olishga va uni amalga oshirishda umummilliy safarbarlik harakatini avj oldirishda fidoiylik ko‘rsatish zarurligini anglashimizga;

Oltinchidan, mamlakatimiz yoshlarining milliy-ma’naviy tiklanish borasida ular oldida turgan vazifalarni bilib olishga, ularda milliy g‘urur, iftixor, fidoyilik, vatanparvarlik, insoniylik kabi oliyjanob fazilatlarni shakllantirish – mustaqilligimizni mustahkamlash va taraqqiyotimizning asosiy sharti ekanligini tushunib etishimizga;

Ettinchidan, milliy istiqlol g‘oyasining ma’no va mazmunini chuqur anglashimizga, mustaqillikni mustahkamlash jarayonida ma’naviy yangilanishimiz va rivojlanishimiz borasidagi strategik vazifalarimizning asosiy yo‘nalishlarini va ko‘lamini chuqur bilib olishimiz hamda ularni amalga oshirishda fidoiylik ko‘rsatishimizning ahamiyatini tushunib etishimiz zarurligi va boshqalar.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyati faqat yuqorida ko‘rsatilganlar bilan cheklanmaydi.Uning xalqaro ahamiyati ham nihoyatda kattadir. Unda ilgari surilgan g‘oyalar bugungi kunda tatalitarizmdan qutulib demokratik jamiyatni qurish tomon borayotgan bir qator mamlakatlarda ham milliy-ma’naviy tiklanish uchun katta amaliy ahamiyatga molikdir.

Zero, Rossiya fanlar akademiyasi akademigi A.N. YAkovlev takidlagandek, «Islom Karimov o‘tmishni kelajak bilan bog‘lash asosida mamlakatni modernizatsiya qilish - zamonaviy tarzda taraqqiy ettirish yo‘lini tanladi. Bu maqsadga xizmat qiladigan tizim va tarmoqlar faoliyatining samaradorligini avvalo muayyan davlatning mavjud shart-sharoiti, muayyan xalqning vorislik

xususiyatlariga tayanadigan, ayni paytda kelajakka yo‘naltirilgan ijtimoiy-madaniy an’analarga bog‘liq ekanini u chuqur angladi».[37] Xuddi ana shu shuning uchun ham O‘zbekistoning milliy – ma’naviy tiklanishni borasidagi yutuqlari xalqaro ahamiyatni ham kasb etmoqda.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan milliy-ma’naviy tiklanish konsensiyasi izchillik bilan amalga oshirib kelinmoqda.

Ma’lumki O‘zbek xalqi 130 yilcha mustamlakachilik istibdodi ostida yashadi. Bu davr mobaynida uning milliy-ma’naviy merosi paymol etildi, tarixi soxtalashtirildi, ilmiy, madaniy, binobarin ma’naviy merosga niglistik qarash hukm surib ularni o‘rganish cheklab qo‘yildi. Xalqimizning ongi sal bo‘lmasa ijtimoiy adolatsizlik, ma’naviyatsizlik, nopoklik va yovuzlikka qarshilik ko‘rsatolmay yuvvosh yashayverishga ko‘nikib qolayozgan edi. Uzoq yillar mobaynida mustamlaka iskanjasida kun kechirgan xalqimiz o‘z tarixiy-ma’naviy merosidan to‘laqonli, erkin-emin foydalanish imkoniyatidan mahrum bo‘lib keldi.

Ma’naviyatimizga nisbatan yuritilgan bunday adolatsiz siyosatning salbiy oqibatlari va uni bartaraf etish vazifalari haqida Prezidentimiz “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” asarida shunday deb yozadi: “Bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalarni ko‘z o‘ngimizdan o‘tkazar ekanmiz, aholining kundalik ehtiyojlariga bevosita daxldor dolzarb masalalarni hal qilish bilan bir qatorda biz eski tuzum davrida inson hayotining negizi va murakkab tomonlari, milliy qadriyatlar, tarixiy an’analar, umuminsoniy ma’naviy boyliklar bilan hisoblashmaslik jamiyatimizga qanchadan-qancha zarar keltirganini unutmasligimiz kerak”[38]ligini ta’kidlash bilan birga, bu boradagi ishlarimiz nimalardan iborat bo‘lishligi xaqida quyidagi fikrlar bildirilgan:

“Birinchi navbatda milliy ma’naviyatimiz, xalq ma’naviy boyligining ildizlariga e’tibor berish zarur. Bu xazina asrlar davomida misqollab to‘plangan. Tarixning ne-ne sinovlaridan o‘tgan. Insonlarga og‘ir damlarda madad bo‘lgan.

Bizning vazifamiz – shu xazinani ko‘z qorachig‘imizdek asrash va yanada boyitish”[39]dan iborat.

Faqat mustaqillikni qo‘lga olishimiz sharofati tufayligina ma’naviy merosimizni, ko‘hna va navqiron tariximizni o‘rganish, jahon sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnimizni tiklash va demokratik jamiyat qurishdek baxtga musharraf bo‘ldik.

Bunday imkoniyatlarni qo‘lga kiritishimizda xalqimizning sevimli farzandi, ulkan davlat va siyosat arbobi, etuk olim, vatanparvar va millat parvar inson Islom Karimovning etakchilik va rahbarlik qobiliyati asosiy rol o‘ynadi.

Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyingi yillar ichida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy sohalarda katta muvaffaqiyatlar qo‘lga kiritildi. Mamlakatimizda siyosiy barqarorlik vujudga keltirildi, bozor munosabatlariga o‘tib bormoqdamiz, milliy-ma’naviy poklanish va tiklanishimizning murakkab vazifalarni vazminlik bilan amalga oshirmoqdamiz.

Prezidentimizning milliy ma’naviy tiklanishimiz borasida qilgan xizmatlari haqida fikr yuritganda, ularning konseptual g‘oyalarni ishlab chiqish bilan bir qatorda ana shularni amalga oshirish borasida qilayotgan katta xizmatlarini ham alohida ta’kidlash lozim bo‘ladi. Jumladan, 1994 yildayoq respublikamizda «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tuzish to‘g‘risida farmon chiqarganliklari, uning faoliyatini takomillashtirish haqida g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotganliklarini aytish joiz. Mustaqillik yillarida ma’naviy merosimiz rahnamolari nomlari tiklandi, ular tavallud topgan kunlar nishonlanmoqda, asarlari chop etildi va etilmoqda. CHunonchi, Bahouddin Naqshbandning 675; Najimiddin Kubroning 850; Imom al-Buxoriy hazratlarining 1225; Ahmad al-Farg‘oniyning 1200; Jaloliddin Manguberdining 800; Amir Temurning 660; Mirzo Ulug‘bekning 600 yillik tavallud kunlari; “Alpomish” dostoni va Xorazm ma’mun akademiyasining 1000 yilliklari nishonlandi.

Mustaqillik yillari Quron karim o‘zbek tiliga tarjima qilinib ko‘p nushada chop etildi. Imom al-Buxoriyning to‘rt jildlik hadislari; Xoja Ahmad YAssaviyning «Hikmatlar» to‘plami; ko‘plab

[37] Қайтадан кашф этилган мамлакат. – Халқ сўзи, 2001 йил, 9-феврал.
[38] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 78 бет.
[39] Ўша жойда.

Qur’oni karim sharhlariga oid kitoblar chop etlganligini va ulardan xalqimiz baxramand bo‘layotganligining guvohi bo‘lib turibmiz.
Mustaqillik yillari Iydi Ramazon va Qurbon Hayit kunlari diniy qadriyatlarimizning bayrami sifatida nishonlanmoqda. Navro‘z umumxalq bayrami sifatida xalqimiz hayotida mustahkam o‘rin oldi. Har yili 3000 dan ortiq vatandoshlarimiz muborak haj safarlarini ado etmoqdalar. Mustaqillik yillari ko‘plab masjid va madrasalar ta’mirlandi, yangilari barpo etildi.
Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz qurbonlari Abdulla Qodiriy, CHo‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir, Behbudiy va boshqalarning nomi tiklandi, asarlari chop etildi, ular tavallud topgan kunlar umummilliy bayram sifatida nishonladi. Qatag‘on yillarida Vatanimiz mustaqilligini ta’minlash yo‘lida qurbon bo‘lgan xalqimizning ana shu sevikli farzandlarining muborak nomlarini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrida SHahidlar hiyoboni barpo etildi.
Uzoq tariximiz, boy madaniyatimiz, serqirra ma’naviyatimizdan guvohlik beruvchi Xiva, Buxoro va Termiz shaharlarining 2500; Qarshi shahrining 2700; Marg‘ilonning 2000 yilliklari katta tantanalar bilan nishonlandi.
SHuning bilan bir qatorda milliy-ma’naviy tiklanish borasida ko‘lami jihatidan juda katta vazifalar turibdi. Biz millatimiz tarixi va merosini chuqur o‘rganishimiz lozim bo‘ladi. Zero, Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Biz xalqni nomi bilan emas, balki madaniyati, ma’naviyati orqali bilamiz, tarixining tag-tomirigacha nazar tashlaymiz».[40] Milliy-ma’naviy tiklanish borasida erishgan yutuqlarni xalqimiz adolatli ravishda Prezidentimiz nomi bilan bog‘laydi.
Milliy-ma’naviy tiklanishimiz borasida Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ishlar quyidagi ilmiy jihatdan yangi nazariy konsepsiya yaratganligida namoyon bo‘ldi. Ular:
a)milliy-ma’naviy tiklanishimizning ilmiy-nazariy konsepsiyasini ishlab chiqqanligi va istiqbolda ma’naviy taraqqiyotimizning XXI asrdagi vazifalarini belgilab berganligida;
b)milliy-ma’naviy tiklanishning mamlakatimizning totalitarizmdan demokratik jamiyatda o‘tish sharoitidagi o‘ziga xos xususiyatlarini ilmiy asoslab berganligida va uning faqat milliy, ijtimoiy-ma’naviy tafakkurimizda emas, shuning bilan birga umumijtimoiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotida yangi yo‘nalish boshlab berganligida ham namoyon bo‘ladi.
Islom Karimov tomonidan amalga oshirilgan milliy-ma’naviy sohadagi barcha ishlar xalqimizning qaddini ko‘tarmoqda, o‘zligini anglashga va mamlakatimizning rivojlanishiga xizmat qilmoqda, millatimiz abadiyligini mustahkamlamoqda.
SHuning uchun ham u ishlab chiqqan konseptual g‘oyalarini chuqur o‘zlashtirish va uni real hayotimizga tadbiq qilishda fidoyilik ko‘rsatish mamlakatimiz va xalqimiz taraqqiyotini ta’minlashda katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda.
Milliy-ma’naviy tiklanishimizning ahamiyati haqida fikr yuritganda ma’naviyatning jamiyatimiz taraqqiyoti va komil insonni tarbiyalashdagi o‘rni haqida Prezidentimizning «Barchamiz oddiy bir xaqiqatni yana bir bor chuqur anglab etishimiz shart. - Ma’naviyat sohasida bo‘shliq bo‘lmaydi»[41],-degan ko‘rsatmasida kelib chiqadigan bo‘lsak ma’naviyatga katta e’tibor bilan qarashimiz zaruriyati kelib chiqadi. Ma’naviyatni yuksaltirish yo‘li bilan oldimizga qo‘ygan komil insonni tarbiyalash vazifasini ado etishimiz mumkin bo‘ladi. «Biz-deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov, - farzandlarimizni milliy tabiatimizga yot va zararli bo‘lgan tasirlardan himoya qilishimiz, ularni hayotga, yon-atrofda yuz berayotgan voqea – hodisalarga daxldorlik xissi bilan yashaydigan, mustaqil fikrlaydigan, iymon –e’tiqodli, barkamol insonlar etib tarbiyalashimiz lozim»[42]

[40] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 18-бет.
[41] Каримов И.А. Инсон манфаатлари устворлигин таъминлаш барчаислоҳат ва ўзгаришларимизнинг бош мақсадидур – Халқ сўзи, 2008, 9-февраль.
Қаранг: Каримов И.А “Юксак маънавият-енгилмас куч” 12-бет
[42] Ўша жойда.

Bunday vazifani amalga oshirish yana ma’naviyat omiliga borib taqaladi. Uni qanchalik yuksaltirsak Prezidentimiz tomonidan qo‘yilgan ana shu vazifalarni amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Islom Karimov tomonidan «ma’naviyat» tushunchasiga berilgan ta’rifning mohiyati nimadan iborat?
2. Islom Karimov ishlab chiqqan milliy-ma’naviy tiklanish konsepsiyasining qanday nazariy va amaliy ahamiyati bor?
3. Mustaqillik yillarida milliy-ma’naviy tiklanishimizda Islom Karimovning xizmatlari nimalardan iborat?
4. Nima uchun Islom Karimov ma’naviyatni rivojlantirishga ustivor vazifa sifatida qaramoqda?
5. Islom Karimov tomonidan O‘zbekistonda XXI asrda ma’naviyatni rivojlantirishning qanday vazifalari belgilab berildi?
6. Milliy – ma’naviy tiklanish va manaviyatni rivojlantirishning mukammal g‘oyalari Islom Karimovning qaysi asarlarida asoslab berilgan?

**Takrorlash uchun savollar:**

7. Ma’naviyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering?
8. Ma’naviyatning asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
9. Ma’naviyat taraqqiyotining qanday asosiy qonunlarini bilasiz?
10. Ma’naviyatni rivojlantirish hozirgi davrda davlat siyosatining ustivor yo‘nalishi darajasiga ko‘tarilish sabablari nimada deb bilasiz?

## 2-MAVZU: MA’NAVIYATNING TARKIBIY QISMLARI VA ULARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI

### 2.1 Ma’naviyat va madaniyat, ularning o‘zaro munosabati

«Ma’naviyat» tushunchasi haqida oldingi mavzularda to‘xtalganimizni hisobga olib, bu erda uning tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi tushunchalar haqida to‘xtalamiz. «Ma’naviyat» ham boshqa fanlar kabi o‘zining mustaqil tarkibiy qismlariga egadir. Ularni madaniyat, madaniy va ma’naviy meros, mafkura, qadriyat kabilar tashkil qiladi. Aslini olganda, ma’naviyat va madaniyat bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ammo ular bitta narsa emas, biri ikkinchisidan farq qiladi. SHuning bilan birga ular bir-birini to‘ldirib turadilar.

Madaniy va ma’naviy meros haqida ham shunday deyish mumkin. SHu sababdan avvalo madaniyat va uning turlarini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. CHunki, madaniyatni, xususan ma’naviy madaniyatni bilmasdan, o‘rganmasdan turib, ma’naviy meros to‘g‘risida gapirish ancha mushkul, inchunun ma’naviy meros ma’naviy madaniyat doirasiga kiradi.

SHunday ekan madaniyat nima? Madaniyat tushunchasini izohlashga bag‘ishlangan ko‘p ilmiy adabiyotlar mavjud. Madaniyat tushunchasiga berilgan ta’riflar soni 260 tadan oshib ketgan. Mualliflar madaniyat tushunchasiga o‘rganayotgan sohalari nuqtai-nazaridan yondoshgan holda ta’rif berib qolmoqdalar. Bunga sabab, madaniyatning ko‘p qirrali, murakkab ma’naviy-ijtimoiy hodisa ekanligi, uning inson va jamiyat hayotining barcha qirralarini qamrab olganligidir. Madaniyatga berilgan ta’riflarda mualliflarning fikrlarini umumlashtiruvchi tomonlar mavjud. SHu jumladan, ularni umumlashtiradigan bo‘lsak, madaniyat tushunchasi keng ma’noda insoniyatning butun tarixiy taraqqiyot jarayonida yaratgan va yaratayotgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklarning yig‘indisini ifodalaydi.Ko‘rinadiki madaniyat insonning moddiy va ma’naviy boyliklarni yaratish va o‘zlashtirishdagi faoliyatini o‘z ichiga oladi. U insonning ichki ruhiyati, aql-idroki, iste’dodi va jismoniy mehnati bilan yaratilgan barcha narsalarni qamrab oladi. YUqorida aytilganidek, madaniyat juda murakkab, ko‘p qirrali ma’naviy-ijtimoiy hodisa bo‘lib, ijtimoiy hayotning moddiy-texnik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqa sohalarni, inson mehnat faoliyatining barcha samaralarini o‘zida mujassam etadi. Sirasini aytganda, xalq ommasi tomonidan yaratilgan hamma moddiy va madaniy-ma’naviy boyliklar madaniyatga kiradi. Madaniyat deyilganda, mehnat qurollarini yaratish va ulardan foydalanish, fan-texnika yutuqlari va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish, kishilarning ishlab chiqarish va ijtimoiy ko‘nikmalari, mehnatni ijtimoiy tashkil etish, salomatlikni saqlash ishini yo‘lga qo‘yish, aholi o‘rtasida bilimlarning yoyilish darajasi va ma’lumot, umumiy, umumiy majburiy va oliy ta’limni amalga oshirish, adabiyot va san’at asarlari, ijtimoiy, falsafiy, diniy g‘oyalar va shu kabilar nazarda tutiladi. Ko‘rinadiki, madaniyat odamzod aql-idrokining eng yuksak cho‘qqilarigacha bo‘lgan narsalarning hammasini qamrab oladi. U inson faoliyatining faqat moddiy natijalarinigina emas, shu bilan birga kishilarning mehnat jarayonida voqe bo‘ladigan bilim boyliklari, tajribalari, qobiliyatlari, ishlab chiqarish va kasb malakalari, o‘zaro munosabatlarini ham o‘z ichiga oladi.

Madaniyat haqidagi yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib uni quyidagicha ta’riflash mumkin: Madaniyat-bu kishilar faoliyatining jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy hayot sohasida yaratgan, o‘zlarining ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqargan moddiy va ma’naviy boyliklar tizimidir.[43]

Jamiyat moddiy ishlab chiqarishning ikki amaliy turi – moddiy va ma’naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat ham ikki turga moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘linadi. Moddiy madaniyat deganda mehnat qurollarini, mehnat ko‘nikmalarini, shuningdek ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan va moddiy hayot uchun xizmat qiladigan inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy boyliklarni anglaymiz. Moddiy madaniyatga moddiy boyliklarning butun majmui, ularni ishlab chiqarish vositalari: ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnika, texnologiya, texnik inshoatlar, ijtimoiy mehnatni uyushtirish shakli, qurilish va dehqonchilikni yo‘lga qo‘yish va boshqalar kiradi. SHularga qarab, moddiy madaniyatni bir qator turlarga bo‘lamiz. CHunonchi,

---

[43] . Қаранг. Эркин Юсупов. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент. «Унверситет,» 1998. 60-бет.

ishlab chiqarish va texnika madaniyati, dehqonchilik madaniyati, mehnatni tashkil etish madaniyati, injenerlik madaniyati, pazandachilik madaniyati va boshqalar.
Madaniyatning ikkinchi turi-bu ma’naviy madaniyatdir. Ma’naviy madaniyatga insonning aqli va ma’nan yaaratuvchanlik faoliyatlari va ularning natijalari kiradi. Ma’naviy madaniyat tushunchasi ko‘p qirrali bo‘lib insoniyat o‘z-o‘zini, avlodlarini saqlab qolishda, hayotda paydo bo‘lib turadigan ijtimoiy –ma’naviy inqirozlarni engib, yangi sharoitlar yaratishda va uni o‘rganishda, taraqqiyot yo‘llariga o‘tishning eng to‘g‘ri yo‘llarini kashf etishda xizmat qiladigan bilim, tajriba, dunyoqarash, an’analar va urf-odatlar majmuini ifodalaydi. Ma’naviy madaniyat ilm-fan, falsafa, san’at, adabiyot, axloq, huquq, siyosat, maorif, ma’rifat, ommaviy axborot vositalari, urf-odatlar, an’analar hamda din va diniy amaliyot-ibodat, diniy marosimlar, diniy adabiyot, san’at kabi ko‘plab tarixiy va zamonaviy qadriyatlar yig‘indisidan tashkil topadigan insonning zohiriy va botiniy ma’naviyati, ruhiyati olamidir. YUqoridagilar ma’naviy madaniyatning inson va jamiyat faoliyatida namoyon bo‘luvchi ko‘rinish va shakllaridir.
Umuman madaniyat, shu jumladan ma’naviy madaniyat keng va sermazmun tushunchadir. Har bir insoning oilada, mehnatda, o‘qishda, odamlar orasida va jamiyat ijtimoiy – siyosiy hayotidagi harakatlari ma’naviy madaniyat mezonlari bilan o‘lchanadi. Madaniyat singari ma’naviy madaniyat ham insoning ko‘p qirrali hayot faoliyati bo‘lib, u shaxsning ma’naviy-ahloqiy dunyosini, oilaga, san’atga, ma’naviy merosimizga, tabiatga munosabatini, kishilar bilan o‘zaro munosabatini, ko‘cha-kuydagi, jamoat joylaridagi hatti-harakatini o‘z ichiga oladi. Agar ana shu umumiy zanjirning bironta bo‘g‘ini tushib qolsa, bundan odamning o‘ziga ham, jamiyatga hamda oilaga ma’lum darajada zarar etadi. Insoning dunyoqarashini, didini, ilm-hunarga munosabati, axloqi kabi ma’naviy madaniyatini tarbiyalash tuganmas jarayondir. Ma’naviy madaniyat, ya’ni ta’lim-tarbiya topganlik madaniyati har bir odamning birinchi qadamidan, «qush uyasida ko‘rganini qiladi» deganlaridek oilada, ota-ona, aka-uka, opa – singil namunasidan boshlanadi. So‘ng esa bog‘chada va maktabda berilgan saboqlardan boshlanib, jamiyatdagi aloqalari orqali butun umri davomida sayqal topib boradi.
Ma’naviy boyliklar olimlar, musavvirlar, bastakorlar, shoir va yozuvchilar, nazariyotchilar, xullas, xalq tomonidan yaratiladi. Ma’naviy madaniyatni yaratish, o‘zlashtirish va rivojlantirish jarayonida jamiyat taraqqiy etadi, mehnat unumdorligi ortadi, ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanadi, kishilarning ma’naviy qiyofasi shakllanadi, axloq odobi, did va farosati, estetik zavqi, ijodiy kuchi va qobiliyatlari taraqqiy etadi.
Umuman kishilik jamiyatini madaniyatsiz, xususan ma’naviy madaniyatsiz tasavvur qilish qiyin. Jamiyat, inson bor ekan u ma’lum madaniyatga ega, busiz bo‘lishi mumkin emas.
Madaniyatning barcha turlari dialektik birlikda, o‘zaro aloqadorlikdadir. Moddiy madaniyatni ma’naviy madaniyatdan batamom ajratib qarshi mumkin emas. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish jarayonida moddiy va ma’naviy madaniyat organik ravishda birikadi. Birorta mehnat qurolini, moddiy boylikning biror turini inson aql-idrokisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo‘lmaydi. Boshqacha qilib aytsak, moddiy madaniyatni barpo etish zamirida ham ma’naviyat yotadi. Har qanday moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma’naviy madaniyat voqe’likni badiiy aks ettirish va o‘zlashtirish vositasidir.
Madaniyatni moddiy va ma’naviy madaniyatga bo‘lish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Madaniyatga kishilarning bir-biriga munosabatlari, oila, maktab, oliygoh, korxona, tashkilotlar, muassasalardagi o‘zaro munosabatlari ham kiradi.
Madaniy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlaridan biri uning to‘xtovsiz ravishda boyib borishi va rivojlanishidan iborat. Jamiyat rivojlanib borishi bilan madaniyat ham sifat jihatidan o‘zgaradi. Bu degan so‘z, jamiyatning taraqqiy etishi madaniyatning o‘zgarishini talab qiladi, madaniyatning yangilanishi esa o‘z navbatida jamiyatning taraqqiy qilishiga sabab bo‘ladi.
Jamiyat taraqqiyotining har bir yangi bosqichi oldingi jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi, uni qayta ishlaydi, undan ijodiy foydalanadi, uni yangi yuqori bosqichga ko‘taradi. Insoniyat tomonidan yaratilgan eng yaxshi va qimmatli narsalar, moddiy va ma’naviy boyliklar yangi tarixiy sharoitda o‘zlashtiriladi, qayta ishlanadi va rivojlantiriladi. Har

bir avlod o‘zi uchun maxsus yangi moddiy madaniy baza tashkil etmaydi, ilm-fan va madaniyatni yangitdan yaratmaydi, balki o‘zidan oldingi avlodlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyatdan meros sifatida foydalanib uni rivojlantiradi, yangi yuqori bosqichga ko‘taradi.

Madaniyat – umuminsoniy hodisa. U barchaga baravardir. Masalan, maqomlar, adabiyot, me’morchilik durdonalari, fan-texnika yutuqlari, transport va aloqa vositalari barchaga tegishlidir.

Ammo, bu madaniyatning milliy shakli bo‘lmaydi, degan ma’noni anglatmaydi. CHunki u qanchalik umuminsoniy bo‘lmasin, baribir uning zaminlari milliylikka borib taqaladi. Umuminsoniyat mulkiga aylangan har qanday madaniyat ham u yoki bu millat tomonidan yaratiladi, u madaniyatga o‘ziga xos bo‘lgan tomonlarini singdiradi. Masalan, umuminsonyat mulkiga aylangan Samarqand, Buxoro va Hiva shaharlaridagi xunarmandchilik va arxitektura durdonalari, eng avvalo O‘zbeklarniki, ularga O‘zbeklarning avlod-ajdodlari o‘zlariga xos milliy jilo berganlar. O‘zbekona bunday san’at asarlari dunyoning boshqa xalqlarida uchramaydi. Xuddi ana shu xususiyati bilan ular milliy hisoblanadi.

SHuning bilan ana shu sa’nat asarlari o‘zining takrorlanmas qiymati, yuksakligi va butun insoniyatning ma’naviy bahra olishiga xizmat qilishi darajasi bilan umuminsoniyat mulkiga aylangandir.

Demakki, madaniyat ham ma’naviyat kabi milliy va umuminsoniy shaklida namoyon bo‘ladi va rivojlanadi.

Prezidentimiz milliy ma’naviyat haqida to‘xtab: “...har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada... ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”,[44]-deb ta’kidlagan edi.

Milliy ma’naviyat, va madaniyat tarixiy hodisa sifatida bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. O‘rta Osiyo xalqlari ma’naviyati va madaniyati tarixining ibtidosi asrlar qa’riga singib ketgan bo‘lib, ularning necha ming yillik ma’naviy kamolot pillapoyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun anchayin murakkab muammo.

Boshqacha qilib aytganda, bugungi ayrim saltanatlar ahli qabila-qabila bo‘lib yashagan, zamonlarda bizning muborak zaminimizda ilmu fan barq urib yashnagani tabiiy ilmlar, xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya kabi fanlar madrasalarda o‘qitilgani, ilmiy akademiyalar tashkil etilib, mag‘ribu mashriqqa nom taratganini eslasak va bundan har qancha g‘ururlansak arpziydi.

O‘tmishda xalqimiz ma’naviy madaniyatining uzviy qismi bo‘lgan Islom dinini rivojlanntirishga ham o‘zining munosib hissasini qo‘shganligi hammamizga ma’lum.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan diniy-ma’rifiy qadriyatlarimizni o‘rganish, asrash va himoya qilish, shu asosda yosh avlodimiz qalbi va ongiga ezgu g‘oyalarini singdirish bo‘yicha keng miqyoda amaliy ishlar olib borilmoqda. Samarqand, Buxoro, Xiva, SHahrisabz, Toshkent va boshqa qadimiy shaharlarimizdagi xalqimiz moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘zida ifoda etgan sharq memorchilik san’atining durdonalari bo‘lmish tarixiy obidalarini saqlash, ularni qayta tiklash va ta’mirlash ishlariga katta e’tibor qaratib kelinmoqda. CHunonchi mustaqillik yillari Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Moturudiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abduholiq G‘ijduvoniy va Buhouddin Naqishband, Minorai Kalon, va Masjidi Kalon majmualari, Farg‘onadagi Ag‘mad Farg‘oniy va Burhonuddin Marg‘iloniy yodgorliklari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Hivadagi Ichan qal’a, SHahrisabizdagi Dorut – tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko‘kgumbaz obidalari, Karmana shahridagi Qosim shayh maqbarasi, Toshkentdagi Hazrati Imom (Hastimom) majmuasi singari o‘nlab qadamjolarni obod etish bo‘yicha keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlari olib borildi.

---

[44] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 29-30 бетлар.

Islom sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga o‘zlarining ilmiy-ma’naviy merosi bilan ulkan hissa qo‘shgan buyuk ilmu –ulamolarning noyob va mo‘‘tabar ma’naviy merosini saqlab, asrab – avaylash, o‘rganish, ularni keng omma, ayniqsa yoshlar ongiga sigdirish, jahon jamoatchiligiga targ‘ib va tarannum etish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda.

O‘tmishda yurtimizda ana shunday madaniy va ma’naviy meros sobiq sho‘ro davrida ham mavjud edi. Jumladan, tarixiy – ma’naviy qo‘lyozmalar maxsus fondlarda saqlab kelinar va ulardan faqat tor doiradagi mutaxassislar ilmiy maqsaddagina foydalana olardi. Bu ma’naviy merosimizni asl insoniy mohiyatiga mos ravishda chuqur o‘rganish, ma’naviy hayotimizning uzviy bir qismi sifatida talqin va targ‘ib qilishga mutlaqo yo‘l qo‘yilmasdi. Bunga jur’at qilgan odamlarning qanday tazyiq va xavf-xatarlarga uchrashi muqararligini yaqin o‘tmishimiz bilan tanish bo‘lgan har qaysi o‘rta va keksa avlod yaxshi biladi. Tarixiiy madaniy – me’moriy madaniyat yodgorliklari –masjid va madrasalar, maqbaralar qarovsiz, xaroba holga kelib qolgan edi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq diniy ma’naviy- madaniy merosimizga bo‘lgan bunday salbiy munosabatga chek qo‘yildi, ajdodlarimiz tamonidan yaratilgan boy ma’naviy va madaniy merosga voris xalq ekanligimizni anglash va bu bilan faxrlanish yo‘lida qator tadbirlar amalga oshirildi. Ulug‘ ajdodlarimiz yaratgan bebaho ilmlar, jahon fani va madaniyatiga beqiyos katta hissa bo‘lib qo‘shilgan asarlarni teranroq o‘rganish imkoniyati yuzaga keladi. YUrtdoshlarimiz Imom at-Termiziy, Ahmad YAssaviy, Imom al-Buxoriy, Baxouddin Naqshbandiy, Mahmud Zamaxshariy, Burxoniddin Marg‘inoniy, Abu Mansur Moturudiy va boshqa islom olamining allomalari hayoti va ijodi o‘rganilib, ularning o‘lmas asarlari xalqimiz ma’naviy hazinasiga qaytarildi. Mazkur ulug‘ zotlar mangu qo‘nim topgan joylar obodonlashtirilib xalqimizning ziyoratgohlariga aylantirildi. Zotan bu buyuk siymolar odamlar ongiga poklik, halollik, diyonat, adolat, insonparvarlik kabi umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarni singdirishib, kishilik jamiyatining ezgulik yo‘lidan taraqqiy topishiga ulkan hissa qo‘shdilar.

Ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha islom tashkiloti bo‘lmish AYSESKO tomonidan Toshkent shahriga 2007 yilda «Islom madaniyati poytaxti»degan yuksak nom berilishi yurtimizda etishib chiqqan ilmu ulamolarning Islom madaniyati va ma’rifati rivojiga qo‘shgan bebaho hisasini islom dunyosida e’tirof etilishidir.

Ular qoldirib ketgan ma’naviy meros bugungi kunda diniy qadriyatlarimizni tiklashimizning asosi bo‘lmoqda, ma’naviyatimizni, qalbimiz va ruhiyatimizni boyitmoqda. Ularning asarlari o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy boyligi bo‘lishi bilan birga butun dunyo xalqlarining mulkiga aylangandir.

Avlod-ajdodlarimizdan qoldirilgan ana shu moddiy va ma’naviy meros mustaqillik sharoitida ma’naviy tiklanish, ma’naviy poklanish, ma’naviy rivojlanishimiz uchun asosiy manba bo‘lib kelayotganligi, ruhiyatimizni boyitib borayotganligi madaniyat va ma’naviyatning har doim uyg‘un rivojlanishini tasdiqlovchi yorqin misol bo‘la oladi. Ular har doim bir-birlariga ijobiy ta’sir o‘tkazib o‘zaro bir-birlarini boyitib kelganlar. Ularning uzviyligi umummilliy ma’naviyatimizni rivojlantirishga asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

## 2.2. Ma’naviy meros – ma’naviyat rivojlanishining asosi

Endi ma’naviy meros va uning ma’naviyat rivojlanishidagi ba’zi jihatlarni bayon etamiz. Ma’naviy merosni izohlashdan oldin umuman sivilizatsiya, meros, xususan, madaniy meros, ma’naviy meros tushunchalarining nisbati, xususiyatlari, farqlarini bilib olishimiz lozim bo‘ladi. CHunki ma’naviy meros umuman merosning, xususan madaniy merosning tarkibiy qismi sanaladi. Madaniy merosni tushunmasdan ma’naviy merosni ham tushunish qiyin. Bu tushunchalarda umumiylik bo‘lsa ham, ular birday emas, o‘zaro qaysi bir jihatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi. Bundan oldingi masalada ko‘rganimizdek har bir jamiyat va davr o‘z madaniyat tipiga ega bo‘ladi. Jamiyat, davr o‘zgarishi bilan uning madaniyat tipi va ma’naviyatida ham o‘zgarish, yangilanish bo‘ladi, ammo madaniy taraqqiyot uzilib qolmaydi, ilgarigi madaniyat, sivilizatsiya yo‘q bo‘lib ketmaydi, balki madaniy meros sifatida saqlanib qoladi. Meros insoniyatning har bir tarixiy bosqichda yashagan avlodlari tomonidan yaratilgan va keyingisiga

etib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari majmuidir. Madaniy meros ham meros doirasiga kiradi, ammo undan biroz farq qiladi. O‘tmishdagi barcha madaniyat yodgorliklari meros sifatida saqlanib qolishi mumkin, lekin ularni hammasi ham madaniy qadriyatga ega bo‘lavermaydi. Madaniy merosda kishilikning kelgusi taraqqiyotiga, ma’naviy yuksalishga xizmat qiladigan, unga ijobiy ta’sir qiladigan, qadriyat ahamiyatiga ega bo‘lgan tomonlar hisobga olinadi.

O‘tmish avlodlar yaratgan madaniy yodgorliklarning hammasi ham madaniy meros bo‘lavermaydi, chunki o‘tmishdan qolgan narsalarning hammasi ham qadriyat ahamiyatiga ega bo‘lavermasligi hammamizga ma’lum. Masalan, SHo‘rolar davrida yaratilib, uning siyosati, mafkurasini targ‘ib etgan, endilikda o‘z umrini yashab o‘tgan kitoblarning bugun uchun ham, kelajak uchun ham qadriyati, ahamiyati yo‘q. To‘g‘ri, ular meros, lekin madaniy meros emas, ularni tarixiy fakt sifatida saqlab qo‘yish mumkin.

YUqoridagilardan kelib chiqib, madaniy meros deb, o‘tmish avloddan keyingi avlodga vorislik asosida qoldirilgan, zamonda barqarorlik sinovidan o‘tgan, saralangan, insoniyatning hozirgi va kelgusi taraqqiyotiga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy madaniyat majmuiga aytishimiz mumkin.

Kishilikning har bir avlodi ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni meros sifatida qabul qilib oladi. Tarixiy vorislik – jamiyat va uning madaniyati ravnaqi shartidir. Ming afsuslar bo‘lsinkim, SHo‘rolar davrida madaniy merosga to‘g‘ri munosabatda bo‘linmadi. «Boyu zamindorlarga, hokim sinf tabaqalariga xizmat qilgan o‘tmish madaniyatining bizga keragi yo‘q, yangi proletar (yo‘qsil) madaniyatni yaratamiz» degan shoir ostida sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining, jumladan o‘zbek xalqining moddiy va ma’naviy madaniyatiga qiron keltirildi, saroylar, masjid va madrasalar buzib tashlandi, qarovsiz xaroba holiga keltirildi, nodir asarlar yondirildi. Bu siyosat tufayli madaniy merosimiz toptaldi.

Madaniy va ma’naviy meros o‘zaro bir-biridan farq qilsa-da, ularning o‘rtasiga o‘tib bo‘lmas «Xitoy» devorini qo‘yish ham mumkin emas, madaniy merosni barpo etishning zamirida ham ma’naviyat – ya’ni insonning ma’naviy –ruhiy bilimlari, qobiliyati, iste’dodi, aqli, empirik va nazariy bilim tajribalari, mehnat malakasi kabi boshqa ma’naviy faoliyatlari yotadi. Madaniy va ma’naviy meros o‘rtasida umumiylik ham, farqli tomonlar ham mavjud. Ayni payitda ular o‘rtasida yuqorida aytilgan aloqadorlik, bog‘liqlik, o‘zaro munosabat, ta’sir bor. SHuningdek, madaniy meros o‘z ko‘lami jihatidan ma’naviy meros tushunchasidan kengroq.

Madaniy merosda ko‘proq umumiylik ustunlik qilsa, ma’naviy merosda xususiylik ustunlik qiladi. Madaniy meros umuman madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olsa, ma’naviy meros ma’naviy madaniyat yutuqlarini o‘z ichiga qamrab olishi bilan farqlanadi. Madaniy merosning qadri abadul – abad tushmaydigan qismiga milliy qadriyat deyiladi. Ma’naviy boyliklar avloddan avlodga, bir tuzumdan ikkinchi tuzumga meros sifatida o‘tadi va jamiyat, uning ma’naviy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’naviy meros deb uzoq va yaqin o‘tmishdagi, hozirgi davridagi ma’naviy jihatdan g‘oyat qimmatli, o‘chmas iz qoldiradigan, mangu yashaydigan, butun ijtimoiy manfaati va ehtiyojiga, ezgulikka xizmat qiladigan umuminsoniy ma’naviy boyliklarga aytiladi. Ma’naviy meros ma’naviy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, unga ilm-fan, jumladan falsafa, adabiyot, san’at, axloq, diniy va dunyoviy ta’limotlar, hurfikrlik va boshqalar kiradi.

Ma’naviy meros zamonlar o‘tishi bilan o‘z qadrini yo‘qotmaydi, balki sifat jihatdan yangicha mazmun va ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy meros kishilar ongiga, ichki dunyosiga, his-tuyog‘usiga ta’sir etib, ular ongini boyitadi, axloq odobni ezgulik sari etaklaydi.

Ma’naviy meros biror xalq, millat, uning vakillari tomonidan yaratilib, so‘ng umuminsoniyatning ma’naviy boyligiga, merosiga aylanib qoladi. Markaziy Osiyo xalqlarining o‘tmish avlodlari qoldirgan ma’naviy meros bunga yaqqol misol bo‘la oladi. Ma’naviy merosimiz jihatidan jahondagi oldingi o‘rinlardan birini egallaymiz. Prezidentimiz Islom Karimov qayd etganidek, «Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi toshyozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo‘lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa,tibbiyot,

matematika, fizika, ximiya, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar bizning beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. SHuning uchun ham bu borada jahonning sanoqli mamlakatlarigina biz bilan bellasha olishi mumkin…»[45]. Bularning hammasi Turon zaminida yashagan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidirkim, endi bu nodir ma'naviy merosimizni jiddiy o'rganish, xalqimizga etkazish davri keldi. Milliy-ma'naviy merosimiz jihatdan Prezidentimiz ta'kidlaganidek jahon xalqlari orasida oldingi o'rinlardan birida turamiz, ammo ana shu boy merosimizni o'rganish, o'zlashtirish, idrok etish jihatidan jahon xalqlari orasida 57 o'rinda turishimiz achinarli holdir. Milliy – ma'naviy merosimiz bilan uni o'rganish va idrok etish orasidagi masofa ancha olis.

Mazkur boy milliy – ma'naviy merosimizni har tomonlama chuqur o'rgannish, idrok etishimiz uchun barcha imkoniyatlar mustaqil davlatimiz tomonidan, bevosita Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi bilan yaratib berilmoqda. Bu imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish uchun tarixchi, olim, adabiyotchi, san'atkorlarimizdan, qo'yingki milliy ma'naviyatimiz jonkuyarlaridan g'ayrat –shijoat, qunt bilan ishlash, izlanish talab etiladi. Prezidentimiz aytganlaridek, xalqimizning tayanchi ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy merosning o'zi katta bir xazina. Bu xazinadan mustaqilligimizni mustahkamlashda, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda oqilona foydalanishimiz lozim. Qadimiy yozuvlar, bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari, ulug' shoir va mutafakkirlarimiz yaratgan dunyoviy bilim va badiiy asarlar, Qur'oni karim, xadislar, YAssaviy va Boqirg'oniylar yaratgan diniy-axloqiy ruhdagi asarlar, Ahmad YUgnakiy, YUsuf Xos Hojiblar yaratgan axloqiy, pand-nasihat tipidagi asarlar, Najimiddin Kubro, Bahouddin Naqishbandiylar yaratgan, inson ichki dunyosi, ruhiyatiga qaratilgan ta'limotlar, Navoiyning o'lmas badiiy ijod xazinasi va boshqalar bizning boy ma'naviy merosimiz hisoblanadi. Ular inson ichki dunyosini, ruhiyatini, inchunun ma'naviyatni sayqal topishiga qaratilgan. Prezidentimiz aytganidek ma'naviy merosimiz bo'lish: "...muqaddas kitoblarimiz va qadriyatlarimiz, buyuq mutafakkir ajdodlarimiz merosi bizni doimo halol mehnat bilan yashashga, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqiradi"[46]. Ularda insonlar ma'rifatga, ilm-bilim olishga, yuksak axloq – odobga, olijanob fazilatlarga, yaxshilikka da'vat etiladi; yomonlik, yovuzlik qoralanib undan saqlanishga chaqiradigan pand-nasihatlar, o'gitlar juda ko'p. Ular kishilarni ma'nan tarbiyalaydi. Ma'naviyatsizlik, ma'naviyatdan mahrum bo'lish insonni o'g'irlik, yulg'ichilik, poraxo'rlik kabi illatlar sari yo'llaydi. Bundan Allohning o'zi asrasin!

Madaniyat, ma'naviy va madaniy meros, ma'naviyat rivoji insoniyat sivilizatsiyasi bilan bog'lanib ketadi. Ammo ularni bir-biri bilan aralashtirib yuborish ham to'g'ri bo'lmaydi. Sivilizatsiyaning o'zi insoniyatning madaniyati va ma'naviyati taraqqiyoti bosqichlarida ro'y beruvchi sifat jihatidan yangi bosqichi bo'lib, kishilik jamiyati tarixida chuqur iz qoldiradi. Sivilizatsiya – ma'lum bir tarixiy bosqichda insoniyatning madaniy taraqqiyotida yaratgan, erishgan, qo'lga kiritgan sifat jihatidan yangi, yuqori yutuqlari majmui.

Sivilizatsiyaning madaniyatdan farqi shundaki, u o'ziga xos bo'lgan, o'zgalardan tubdan farq qiladigan, ammo o'z davri taraqqiyotida takrorlanmas iz qoldiradigan fan, madaniyat, texnika, ijtimoiy ong, ma'naviyat va boshqa ohalardagi buyuk, yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Uning xarakterli tomoni shundaki, u o'zidan oldingisini qabul qilmaydi, balki sifat jihatidan yangi, unga o'xshamagan o'zgarishlarni vujudga keltiruvchi jarayon hisoblanadi.

Sivilizatsiya har bir xalqning yoxud jamiyatning, tarixiy bosqichning o'ziga xos tarixiy-madaniy rivojlanishi, shakllangan qadriyatlari, tafakkur taraqqiyoti hisoblanadi. Hozirgi davrda ilmiy adabiyotlarda uni «SHarq» va «G'arb» sivilizatsiyasiga bo'lish qabul qilingan. Insoniyat tarixidagi bu sivilizatsiyalar hind, konfutsiylik, buddaviylik, musulmon yoki katolik, pravoslav va hokazolarning paydo bo'lishi shaklida bo'lgan.

Bugungi sivilizatsiya insoniyatning olamni bilishi, undan umum-bashariy manfaatlari yo'lida foydalana olishi, har bir halqning umuminsoniyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma'naviyati va ma'rifati shaklida namoyon bo'lmoqda.

---

[45] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент: Шарқ, 1998, 3-4 бетлар.

[46] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 21 бет.

SHunday qilib, madaniyat, ma’naviy meros, sivilizatsiyalar yutug‘i jamiyat va inson ma’naviyatining rivojlanishida, ma’naviy barkamol avlodni voyaga etkazishda katta ahamiyatga ega. SHuning uchun mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq o‘tmishda toptalgan ma’naviy merosimizni tiklashga qat’iyan kirishildi. Mustaqilligimizning o‘tgan o‘n etti yili ana shu boy merosimizni o‘rganish va o‘zlashtirish orqali chinakkam milliy tiklanishimizga erishdik. O‘zbeklar o‘zining milliy-ma’naviy «qiyofasiga» ega bo‘ldilar. Ammo bu borada hali oldimizda juda katta vazifalar turibdi. Ana shulardan biri hali merosimizning bizga noma’lum, ammo dunyoning turli mamlakatlarida saqlanayotgan, jahon sivilizatsiyasida munosib o‘rin egallab kelgan juda ko‘plab moddiy va ma’naviy meroslarimizni o‘z Vatanimizga keltirishimiz, ularni o‘rganishimiz, dunyoqarashimiz va ma’naviyatimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim bo‘ladi.

### 2.3.Ma’naviyat va mafkura, ularning jamiyat, inson hayotida tutgan o‘rni va roli

Ma’naviyat va mafkura bir-birlari bilan mustahkam bog‘langandir. Ma’naviyat insonning ruhiyati, o‘zini – o‘zi anglashi, yuksaklikka intilishidagi salohiyati bo‘lsa, «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» konsepsiyasida ko‘rsatilishicha «Mafkura … muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu-intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o‘zida mujjasam etadigan g‘oyalar tizimidir»[47]

Mafkuraning ma’naviyatda tutgan o‘rni shundaki, u inson, jamiyat, yoxud millat yoki guruhlarning intilishlari, ruhiyatlari va kayfiyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Ma’naviyat singari mafkuraning davlat va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek, «Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy – ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun ma’naviy-ruhiy kuch – quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan».[48] Mafkura jamiyat taraqqiyotida quydagi vazifalarni bajaradi: birinchidan, davlat rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy – ma’rifiy sohalaridagi vazifalarni o‘zida mujassamlashtiradi; ikkinchidan, bir davlat, bir mamlakat miqiyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g‘oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi; uchinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g‘oyalarini o‘zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ‘ib etadi; to‘rtinchidan, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo‘naltiradi; beshinchidan, xalqning orzu-umidlarini o‘zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo‘lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi; oltinchidan, mafkura jamiyatda ma’lum siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy – ma’rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Mafkuraning jamiyat, millat, shaxs va fuqaro hayotidagi ana shunday muhim ahamiyatini hisobga olib, Istiqlolimizni qo‘lga kiritgan ilk kunlardan boshlab, biz milliy g‘oyamizning eng asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olish va ishlab chiqarishga harakat qildik. SHu maqsadda ijtimoiy fanlar sohasidagi etakchi olimlar, siyosatshunos va iqtisodchilar, ijodkor ziyolilar, keng jamoatchiligimiz e’tiborini ana shu muhim masalaga qaratdik. Xalqimizning asriy orzusi, ko‘zlangan yuksak maqsadlarimizga etishning asosiy omili-avvalambor mustaqillikni asrab-avaylash, uni yanada mustahkamlash bilan bog‘liq ekanidan kelib chiqqan holda, milliy g‘oyamizning ma’no-mazmunini ham ana shunday mezonlar negizida belgilashni vazifa qilib qo‘ydik.[49]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Tafakkur» jurnali bosh muharriri va «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga javoblarida milliy g‘oya, milliy mafkuraning

---

[47] Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент: Ўзбекистон, 2000, 9-бет

[48] Қаранг: Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси –халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. Тошкент, «Ўзбекистон», 2000 йил. 5 бет

[49] Қаранг: Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 71-72 бетлар.

O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurishdagi tutgan o‘rni va ahamiyatini bayon qilib berganligini alohida ta’kidlash joiz: «Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo‘lmasa odam, jamiyat, davlat o‘z yo‘lini yo‘qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qaerdaki mafkuraviy bo‘shliq vujudga kelsa, o‘sha erda begona mafkura hukumronlik qilishi tayin».[50] Buni har bir inson, O‘zbekiston fuqarosi chuqur anglashi, mag‘zi-mag‘ziga etib olishi kerak. Negaki, jamiyatning, jamiyat a’zolarining mustahkam va ravshan mafkurasi, g‘oyasi, maqsadi bo‘lmasa, inqirozga yuz tutadi. Insoniyat tarixida davlatlar va jamiyatlar paydo bo‘libdiki, ularga egizak holda mafkuraviy qarashlar ham shakllangan. Boisi – mafkurasiz davlat yoki jamiyat bamisoli hech bir maqsad-rejasiz, tavakkal qilib yo‘lga chiqqan odamga o‘xshaydi. Yo‘lga chiqdingmi – manzil, maqsad aniq bo‘lmog‘i kerak. Har bir xalq o‘z oldiga qo‘ygan ulug‘vor maqsadlarga erishishida milliy g‘oyaning ahamiyati nechog‘li muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida Islom Karimov “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” kitobida quydagilarni yozgan:
“Insoniyatning ko‘p asrlik tarixi shundan dalolat beradiki, bu dunyoda o‘zining milliy davlatini qurishga azmu qaror qilgan har qaysi xalq yuksak vazifalarni amalga oshirish, shu yo‘lda odamlarni birlashtirish va safarbar qilish, ularning qalbida ishonch uyg‘otish, eski ijtimoiy tuzumdan mutlaqo yangi tuzumga o‘tishda o‘ziga qo‘shimcha kuch-quvvat va madad topishda umumiy, yagona maqsad va orzu-intilish ifodasi bo‘lgan milliy g‘oyani tayanch va suyanch deb biladi.”[51] SHuning uchun ham Prezidentimiz Islom Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab milliy g‘oya va mafkura muammosiga alohida e’tibor qaratib kelmoqdalar. «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javoblarida mafkura va milliy g‘oyani xalqni – xalq, millatni – millat qiladigan, uning istiqbol yo‘llarini yuksak maqsad va e’tiqod nurlari bilan yoritadigan qudratli ma’naviy omil, deb ta’rifladilar.[52] «Turkiston» va «Fidokor» gazetalari muxbirlari savollariga javoblarida bu g‘oyalar yanada rivojlantirildi, mafkura muammosi kun tartibiga Prezidentimiz tomonidan yanada jiddiy qo‘yildi. Bunga sabab «… hozirgi zamondagi eng katta xavf insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar ko‘p narsani hal qiladi.[53] Mana shuning uchun ham Islom Karimov muntazam ravishda mafkura dunyosida bo‘shliqqa yo‘l qo‘yib bo‘lmasligiga, shunday holat yuz bergan taqdirda bo‘sh qolgan mafkura maydonida bizga begona, orzu-intilishimizga mutlaqo yot g‘oyalar o‘rni egallashga urinishi shubhasiz ekanligiga hammamizning diqqatimizni takror-takror qaratib kelaytganliklari bejiz emas».[54]
Prezidentimiz mafkura-umummilliy, umumxalq ahamiyatiga ega g‘oya bo‘lib, u xalqni, millatni birlashtiruvchi, umumsafarbarlikka da’vat etuvchi kuch ekanligini ta’kidladilar. Inson, uning qadr – qimmati, farovonligi, Vatanimizning yorqin kelajagi bizning milliy g‘oyamiz, milliy mustaqillik mafkuramizning negizini tashkil etadi.
Prezidentimiz Islom Karimov milliy istiqlol mafkuramiz, avvalo xalqimizning azaliy an’analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma’rifat tuyg‘ularini ongimizga singdirishi lozimligini ta’kidladilar.
SHu bilan birga, bu mafkura xalqimizda, o‘zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o‘laroq munosib o‘rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak.[55]
YUrtboshimiz milliy g‘oya, milliy mafkura nimalarni o‘zida mujassamlashtirishi va qanday talabalarga javob berishi kerakligini ta’kidlab, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni bildirgan edilar:

[50] Қаранг: Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни халқ, миллатни –миллат қилишга хизмат этсин. Тошкент, «Ўзбекистон»,-1998, 4-бет
[51] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 71 бет.
[52] Қаранг: Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. 10-11 бетлар.
[53] Қаранг: Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси –халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 6-7-бетлар.
[54] Қаранг. Ўша ерда. 7-бет.
[55] Қаранг. «Туркистон» газетаси, 1999 йил, 2 февраль.

Milliy mafkura, avvalambor, o‘zligimizni, muqaddas an’analari – mizni anglash tuyg‘ularini, xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga qo‘yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart.
Ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan xilma-xil fikrlar va g‘oyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarning intilishlari va umidlaridan, har qanday millat vakili, har qanday insonning e’tiqodi va dunyoqarashidan qat’iy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini umumsafarbarlikka da’vat etuvchi kuch ekanligini ta’kidladilar. “... “milliy g‘oya” degan so‘z, deb yozadi Prezidentimiz,- faqat bir millatga mansub bo‘lib qolmasdan, mana shu tabarruk diyorimiz – O‘zbekiston tuprog‘ida yashayotgan, uni o‘z ona Vatani deb biladigan barcha millat va elatlarga birdek daxldordir”.[56]
Uchinchidan, milliy g‘oya birinchidan navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarida madadkor bo‘lishi zarur.
To‘rtinchidan, u Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislar deb his qilishimizga shu bilan birga jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak.[57]
Mustaqillik bizni porloq rivojlanish imkoniyatlariga ega qildi. Xalqimiz katta orzu-maqsadlar va intilishlar bilan yashayapti. Huquqiy davlat,adolatli fuqarolik jamiyati-oldimizda turgan nurafshon manzildir. Ammo bu manzillar o‘z- o‘zidan dunyoga kelmaydi, uni o‘z- o‘zidan mashaqqatsiz, izlanishlarsiz, yaratuvchilik, ijodkorlik ishlarisiz egallanmaydi. YAngi jamiyat yuksak darajada rivojlangan ongni, ma’naviy kamolotni yanada baland bosqichga ko‘tarilishini taqazo etadi. Ilg‘or demokratik qoida va tushunchalar bilan boyigan milliy istiqlol mafkuramiz ana shu yangi ma’naviyatning hal qiluvchi mezonlaridan biridir.
Zero «O‘zbekiston Jamiyatining Milliy istiqlol mafkurasi, o‘z mohiyatiga ko‘ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o‘tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog‘laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimidir».[58]

SHuning uchun xam Milliy istiqlol mafkurasini chuqur egallay olsakkina, u dunyoqarashimizning ajralmas qismiga aylansagina, qalbimizdan mustahkam o‘rin olsagina Vatanimiz va xalqimiz taraqqiyotining oldida turgan ulkan vazifalarni amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Ma’naviyat mafkurasiz rivojlana olmaydi. CHunki, inson ruhiyatini shakllantirish, milliy qadriyatlarni tiklash va jamiyat maqsadlarini amalga oshirishda mafkura harakatga keltiruvchi kuch sifatida katta ahamiyat kasb etaveradi.
Xullas, mafkura – umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g‘oyalar majmui. Ammo uning ildizlari har bir insoning qalbida, vijdonida, iymonida, aql – idroki va tafakkurida. SHu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

## 2.4.Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyati

Qadriyatlar ham ma’naviyatning tarkibiy qisimlaridan birini tashkil etadi. Ular ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog‘liq holda yuzaga keladi.Tabiat va jamiyat hodisalari insonning moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish, yaratuvchanlik faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyatlilik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Odamlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, ularning orzu-istaklari, intilishlariga mos kelmaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritish noo‘rindir.

---

[56] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 75- бет.
[57] Қаранг. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. 14-15-бетлар. Миллий истиқлол мафкураси халқ еътиқоди ва буюк келажакка ишончдир.12-19-бетлар.
[58] Қаранг. Ж.Тулянов, Б.Қодиров , З.Ғофуров. Маънавий юксалиш сари. Тошкент. “Меҳнат”-2000, 103-бет.

Qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomonidan baholanib qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne’matlarini, hodisalari majmuini tushunmog‘imiz lozim.[59] Tabiat va jamiyat boyliklari, hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritilishning asosiy sababi-kishilar ularni qadrlaydilar, avaylab-asraydilar, chunki, bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini, ma’naviy – ruhiy dunyosini boyitadi, yaratuvchanlik faoliyatiga yo‘llaydi.

Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatiga to‘xtashdan avval, qadriyatlarning turlari va ko‘rinishlarini bilib olish lozim. Qadriyatlar o‘z mohiyati, xususiyatlari va amal qilish doirasiga ko‘ra bir necha turlariga va shakliy ko‘rinishlarga bo‘linadi. Avvalo, barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo‘q joyda biron narsaning qadr-qimmati, ahamiyati haqida so‘zlash bema’nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va hodisalar o‘zining qadriyatlilik ahamiyatini yo‘qotadi. SHuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq inson qadr–qimmatini e’zozlash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog‘lig‘ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishini tashkil etib kelmoqda. Jahonda e’tirof etilgan taraqqiyotning «o‘zbek modeli»ning asosiy tamoyillaridan biri ham bozor iqtisodiyotiga o‘tishda aholining ijtimoiy himoyasiga qaratilganligida chuqur insonparvarlik mohiyati mavjuddir.

Insonning yashashi uchun zarur bo‘lgan barcha tabiiy boyliklar –er, suv, havo, quyosh, turli madanlar, o‘simliklar, hayvonat dunyosi va boshqalar, shuningdek, inson mehnati, hatti – harakati, aql-zakovati bilan yaratilgan turli-tuman moddiy boyliklar, zavod va fabrikalar, ishlab chiqarish, transport vositalari, asbob-uskunalar, hozirgi zamon axborat texnologiyalari, turar joy, mol-mulk, noz-ne’matlar va boshqalar tabiiy va moddiy qadriyatlar hisoblanadi. Bularsiz insoniyat yashay olmaydi. Tabiat va uning boyliklari biz uchun moddiy ne’matlarning bosh manbai hisoblanadi. Ularni asrab-avaylash, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga har birimiz ma’naviy va amaliy jihatdan mas’ulmiz.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 55-moddasida: «Er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonat dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir,»[60] - deb yozilganki, ularni asrab-avaylash, saqlash, kelgusi avlodlarga sof holda qoldirishimizda har birimizga javobgarlik ma’suliyatini yuklaydi.

Muayyan jamiyat, davlat tuzilmasi, uning huquqiy asoslari, shaxs erkinligi va huquqlari, adolat, ozodlik, tenglik, tinchlik, birodarlik kabilar ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar sirasiga kiradi. Insoning erkinligi, uning qadr-qimmati jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Bu haqda asosiy qomusimizda shunday so‘zlar yozilgan: «O‘zbekiston Respublikasi demokratiya, umuminsoniy pirinsiplprga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa dahlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi.»[61]

Istiqlol tufayli mamlakatimizda barqarorlik, tinchlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik kabi ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar qaror topdi. «Ko‘p millatli jamiyatimizda, - deydi I.Karimov, - ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, fuqarolar o‘rtasida tinchlik va millatlararo totuvlik saqlanayotganligi mustaqil O‘zbekistoning bunyod bo‘lishi va rivojlanishining birinchi boshlang‘ich bosqichida qo‘lga kiritilgan eng asosiy yutuq bo‘ldi.»[62] Prezidentimiz yuqorida qayd etgan qadriyatlar yangidan barpo etilayotgan davlatchiligimizning poydevoridir.

Xalqimiz va umuminsoniyat tomonidan yaratilgan ilmiy-falsafiy qarashlar, tarixiy, badiiy san’at asarlari va diniy amollar; urf-odatlar, an’analar, bayramlar, marosimlar; insonparvarlik,

[59] Қаранг. Ж.Тулянов, Б.Қодиров , З.Ғофуров. Маънавий юксалиш сари. Тошкент. “Меҳнат”-2000, 103-бет.
[60] Ўзбекистон Республикаси Конистицуцияси. Тошкент, «Ўзбекистон», 2003. 11-бет.
[61] Ўша жойда, 5-бет.
[62] Каримов И.А.Ўзбекистон иқтисодий ислоҳотларни чуқурлаштириш йўлида. Тошкент, «Ўзбекистон», 1995. 262-263-бетлар.

vatanparvalik, mehnatsevarlik, yaxshilik, burch, vijdon, to‘g‘rilik, halollik kabi axloqiy me’yorlar insonni ma’naviy kamolotga eltuvchi ma’naviy-axloqiy qadriyatlar sanaladi.
O‘zbek xalqining mehnatsevarlik, erga cheksiz muhabbat, mehmondo‘stlik, katta yoshdagilarni hurmat qilish, nonni, suvni e’zozlash bilan bog‘liq bo‘lgan juda ko‘p qadimiy ma’naviy qadriyatlar chuqur hayotiy mazmunga ega bo‘lib bugungi kunda ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.
Ma’naviy barkamol insonni tarbiyalashda milliy ma’naviy meros va qadriyatlarni, diniy axloq mezonlarini yoshlarimiz ongiga singdirish, ularning amaliy faoliyatlariga aylantirish muhim ahamiyatga egadir. Xususan, IX-XII va XIV-XV asrlarda yashab o‘tgan buyuk mutafakkirlarning ilmiy-falsafiy bilimlar va islom ilmi va madaniyati rivojiga qo‘shgan hissalarini o‘rganish yoshlarimizda ma’naviy barkamollikning muhim belgilaridan biri milliy g‘urur va milliy o‘zlikni anglab etishda muhim ahamiyatga egadir. Mamlakatimizda mustaqillik yillari ma’naviy meros va qadriyatlarning ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishdagi muhim o‘rniga ahamiyat berib, o‘tmishda toptalgan ma’naviy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.
Prezidentimiz Islom Karimov bu boradagi asosiy vazifalarni belgilab, quydagi fikrlarni aytgan edi: «Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi.
Biz ma’naviy qadriyatimizni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz.»[63]
Istiqlol tufayli xalqimiz boy ma’naviy merosimiz va qadriyatlarimizning ildizlariga nazar tashlash, to‘laqonli suratda o‘rganish, ular orqali yoshlarimiz ongi va shuurini, ma’naviyatini boyitish imkoniga ega bo‘ldik. Islom Karimov ta’kidlaganidek, ma’naviyat «…Insonga ona suti, ota namunasi, ajdodlar o‘giti bilan birga singadi».[64] Prezidentimizning mazkur so‘zlarida chuqur falsafiy fikrlar mujassam.
Diniy qadriyatlarimiz ham inson ma’naviy kamolotning muhim omillaridan biridir. Asrlar mobaynida xalqimizning ma’naviyati, insonparvarlik, adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari SHarq falsafasi va islom diniy ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlanib kelgani hozirgi kunda hammamizga ayon. Vazifa esa xalqimizni, xususan yoshlarimizni ma’naviy kamolot cho‘qqilariga etkazishda islomiy qadriyatlardan ham bekamu ko‘st foydalanishdan iborat.
Islom Karimov doimo qayta –qayta ta’kidlaganidek: «Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz…. Dinga hurmat va e’tiqod biz uchun o‘lmas qadriyatdir».[65]
Diniy qadriyatlarimiz inson faoliyatini oqilona boshqarish, jamiyat hayotida tinchlik, adolat, insonparvarlik, halollik, diyonatlilik, insoflilik, mehr-shafqatlilik kabi ko‘plab insoniy fazilatlarni inson qalbi va ruhiyatida qaror toptirishga yo‘g‘rilgan. Ularning har biri inson qalbida chuqur tomir otgan, ruhiyatini harakatga keltiradigan ma’naviyatdir.
Inson tug‘ilganidan so‘nggi nafasigacha an’analar, urf-odatlar, bayramlar qurshovida hayot kechiradi. Ular esa kechagi avlodlordan bugungi, bugungi avlodlardan ertangi avlodlarga ma’naviy meros bo‘lib o‘tib ma’naviy kamolot sari eltadi. Urf-odat, an’analar bugungi avlodni ajdodlar tajribasi bilan tanishtiradi, ularda o‘z burchi vazifalariga mas’uliyat bilan qarash fazilatlarni shakllantiradi va mustahkamlaydi.
SHarq xalqlarining, xususan o‘zbek xalqining qadimiy bayramlaridan biri “Navro‘z” asrlar silsilasidan o‘tib kelib, bugungi mustaqillik kunlarida yangicha mazmun kashf etgan holda xalqimiz ma’naviyatini boyitishda, yoshlarimizning ma’naviy kamolotida muhim ahamiyat kasb

[63] Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолотлари. Тошкент, «Ўзбекистон», 1977, 137-бет.
[64] Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиқлол ва тараққиёт йўли. Тошкент, «Ўзбекистон», 1992, 71-бет.
[65] Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Тошкент, «Ўзбекистон», 2000, 20-21-бетлар.

etib kelmoqda. U xalqimiz tomonidan uyg‘onish va yasharish, go‘zallik va nafosat, muruvvat va sahovat ramzi sifatida yuksak qadrlanadi. Navro‘z bayrami kunlari yoshu qari, har qaysi inson o‘zini mo‘‘jizakor tabiatining uzviy bir qismi ekanini chuqur anglaydi, tabiiy muhitni asrab-avaylab, u bilan ham ohang bo‘lib, mustaqilligimizning har bir osuda kunining qadriga etib yashash kerakligini yana bir bor idrok etib qalbidan o‘tkazadi.
Navro‘z ayyomi arafasida mahallalar, ko‘chalar, aholi turar joylari obodonlashtiriladi, ariq-zovurlar tozalanadi, ziyoratgoh, qabriston hamda tabarruk qadamjolar tartibga keltiriladi, mevali, manzarali daraxtlar, gul ko‘chatlari o‘tkaziladi. Bayram kunlari esa etim-esir, beva-bechora, xasta va muxtoj kishilarga mehr-muruvvat, sahovat ko‘rsatiladi, qariyalarimizning duosi olinadi. Bunday insoniy qadriyatlar yoshlarimizning ma’naviy kamolotida muhim o‘rin tutadi.
Mustaqilligimiz yillari qadimiy an’ana va urf-odatlarimizni tiklash, ularni yangi mazmun bilan boyitish bilan birga, Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilgan uch bosqichli uzluksiz sport tizimi-«Umid nihollari», «Barkamol avlod», Unverisiada kabi ommaviy sport o‘yinlarini, san’atda SHarq taronalarini muntazam suratda o‘tkazish an’anaga aylanib qoldiki, bular yoshlarimizni jismonan chiniqtirish, sog‘lom o‘sib ulg‘ayishiga yordam berishi bilan birga, ular ongi va dunyoqarashida vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, ma’naviy komillikka erishishlarida muhim rol o‘ynamoqda. SHu bilan birga Mustaqillik kuni, Hotira va qadrlash kuni, Ustoz va murabbiylar kunlarining xalqimiz tomonidan umumxalq bayrami sifatida qadr topgani va nishonlanib kelinayotgani ham yoshlarimizda vatanparvarlik, insonparvarlik kabi xislat va fazilatlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

## MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT, ULARNING O‘ZARO MUNOSABATLARI HAMDA INSON KAMOLOTIDAGI AHAMIYATI

### Ma’rifat tushunchasi, mohiyati va mazmuni

Har qanday jamiyat va uning ma’naviy taraqqiyotini ma’rifatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ma’naviyat va ma’rifatning o‘zaro ta’siri va munosabatlari to‘g‘risida so‘z yuritishdan avval ma’rifat tushunchasi, uning mazmuni, mohiyati va ahamiyatini bilib olishimiz zarur.
Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy adabiyotlarda ma’rifat tushunchasiga turlicha ta’riflar berilib, turlicha izohlanib kelinmoqda. Bu esa ma’rifatning ma’naviyat singari keng qamrovli tushuncha ekanligini bildiradi.
«Ma’rifat» so‘zi yakka va ko‘plik ma’nolarda ishlatiladi. U arab tilidan olingan bo‘lib, «bilish», «bilim», «tanish» kabi ma’nolarni bildiradi.
Ma’rifat tushunchasi SHarq mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda yashagan, ijod etgan mutafakkirlarning asarlarida qadim zamonlardan tortib, to XX asr boshlarigacha asosan bilim va ilm, uni egallash borasida amalga oshirilgan ta’lim-tarbiya jarayoni ma’nosida qo‘llab kelingan.
Evropa adabiyotida bu tushuncha XVII asr oxiri- XVIII asr boshidan beri qo‘llanila boshladi. Bu tushunchani G‘arb falsafiy faniga birnchi bo‘lib Vol’ter va Gerder kabi ma’rifatparvar olimlar olib kirgan.
Nemis mumtoz falsafasining asoschilaridan biri Kant mazkur tushunchaning mazmun va mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. U o‘zining «Ma’rifat nima? degan savolga javob» nomli maqolasida bayon qilishicha, ma’rifat inson shaxsini tarbiyalash, uning aqli, axloqi imkoniyatlaridan jamiyatning ilgarilama, ya’ni yuksaklik tomon taraqqiyoti manfaatlari yo‘lida foydalanishdir.
Ma’rifat – bilim va ilm, uni egallash ma’nosida u yoki bu insoning tabiat, jamiyat, inson mohiyati haqidagi bilim va ilmlarni egallaganlik darajasi va unga aloqadr bo‘lgan jihatlarni aks ettiruvchi tushunchadir. Ma’rifatli degani esa – muayyan sohada ma’lumoti bor, ko‘p narsani biladigan, mushohada qiladigan, bilimli, o‘qimishli demakdir. Fanlar keng va chuqur rivojlangan va rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, fan namoyondasi ilmning ya’niki ma’rifatning ma’lum sohasi, yo‘nalishinigina egallashga erisha oladi. Masalan,

fizika, kimyo, biologiya, tibbiyot, matematika va boshqalarning ham ma’lum, o‘zi qiziqqan yo‘nalishlarini egallaydilar.

Ma’rifat-pedogogika nuqtai nazaridan ta’lim va tarbiya so‘zlarining qo‘shma birligini bildirib, ta’lim – bilim berish, tarbiya esa olgan bilimlarni hayotda qo‘llay olishlik ya’ni olingan bilimlarga ko‘nikma hosil qilish, avlodlar tarbiyasini odamlarga o‘rgatish ma’nosida talqin etiladi.

Ma’rifatni ma’naviyat nuqtai nazaridan ifodalaydigan bo‘lsak, kishilarning ongiga muayyan bilimlar, g‘oyalar, e’tiqod va iymon, axloq va odob me’yorini singdirish, ta’lim –tarbiya ishlarini takomillashtirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganish, targ‘ib etish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar tizimini bildiradi.[66]

Jamiyat taraqqiyoti va inson ma’naviy kamolotiga ijobiy ta’sir etadigan g‘oya va qarashlarni yaratish, targ‘ib etish esa marifatchilik deb ataladi. Ma’rifat – ya’ni bilim ma’rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma’rifatparvar – jamiyat va insonlarni ma’rifatli qilish uchun kurashuvchi, ma’rifat xomiysi va tarafdori demakdir.

Ma’rifatni kishilar ongiga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Maorif ma’rifatni xalq orasida yoyish quroli va vositasidir. U o‘z ichiga maktabgacha tarbiya muassasalari, o‘rta ta’lim, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kabi o‘quv yurtlarini qamrab oladi. Ma’rifatni talaba yoshlar o‘rtasida yoyishda mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan oliy o‘quv yurtlari ham muhim o‘rin tutadi.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning, millatning eng etuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, yuksak kelajakni ko‘zlovchi ma’naviyatli – ma’rifatli vakillari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar. Ma’rifatparvarlar faqat bilim va madaniyatni, ma’naviyatni yoyish bilan shug‘ullanib qolmaydi. Ular shu bilan birga davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, millatning buguni va kelajagi uchun muhim g‘oyalarni ilgari suradilar, shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma’rifat qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf qiladi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat ato etadi. SHuning uchun barcha zamonlarda ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb bildilar va ma’rifat uchun kurashdilar.

Bizning o‘lkamiz xalqlari azal-azaldan ma’rifatga intilib yashagan. SHuning uchun ham bu o‘lkadan umuminsoniyat ilm rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirlar, ilmu ulamolar etishib chiqqan. Ular o‘z ijodlari, ilmiy kashfiyotlari, olg‘a surgan g‘oyalari bilan ham dunyoviy ham diniy ilmlar sohasida jahon ilm ahlini hayratga solganlar.

O‘tmishda yashab ijod etgan allomalarimiz Farg‘oniy, Xorazmiy, Farobiy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Buxoriy, Termiziy, Marg‘iloniy, Motrudiy, Zamaxshariy va boshqalar nafaqat ilm cho‘qqilarini egallabgina qolmay, uni – ya’ni ma’rifatni keng targ‘ib etganlar, o‘rgatganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori Abdurashidxon o‘g‘li, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat, Ahmad Donish va boshqalar mamlakatni, xalqni milliy zulm va ma’rifiy qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zotlar chor istibdodi, mustabid tuzum va jaholatga, ma’naviy qaramlik va zulm-zo‘ravonlikka qarshi bor kuch va imkoniyatlari bilan kurash olib bordilar. Ma’rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilmu urfoni, kasb kori va madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o‘lkani, uning kishanlarini ma’rifat chirog‘i bilangina ozodlik sari boshlamoq, parchalamoq mumkin ekanini chuqur his etdilar. SHu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlantirishga ham nazariy ham amaliy jihatdan azmi shijoat namunasini ko‘rsatdilar.

Ma’rifatparvarlik harakatining yorqin siymolaridan biri Abdulla Avloniyning «Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir», - degan g‘oyasi ma’rifatparvarlik harakatinig dasturini tashkil etgan.

[66] Қаранг. Эркин Юсупов. Инсон камолотининг маънавий асослари. Тошкент, «Унверситет», 1998, 61-бет.

Bilim va ilm ma’rifatning o‘q ildizidir. Kishilar kundalik faoliyatlarida bilim va ilmni bir xil ma’noda ishlatishga odatlanib qolgan. Mazkur tushunchalar o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lsada, ammo ular o‘rtasida ma’lum tafovut, farq mavjuddir. Bilim bu hali ilm emas. Bilimlarni orttirish orqali ilmga tomon boramiz.
Ob’ktiv dunyo, olam, undagi turli-tuman narsa va hodisalar, jarayonlarning mazmuni, mohiyati, sifat va xususiyatlari inson miyasida aks etib, asta-sekin ilmga aylanadi.
Bilim esa mazmun jihatdan kengroq bo‘lib, insonning hayot tajribasi orqali orttirilgan barcha tushunchalar, fikrlar, amaliy malakalarini o‘z ichiga oladi. Ilm bilimning cho‘qqisidir. Bilimlar tabiat, jamiyat, inson ruhiyatining mohiyatini ya’ni amal qilish qonun va qonuniyatlarini chuqur o‘rganish natijasidagina ilmga aylanadi.
Har bir davrning ehtiyojlari, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyoti uning ilmiy tafakkur salohiyati darajasi bilan belgilanadi. Biror muammoni hal etish imkoniyatlarini inson o‘z aql-zakovati, bilimi va irodasi bilan aniqlaydi.Bilim va ilm har bir insoning yo‘lini yoritib turuvchi mash’aldir. Inson ma’naviy kamolot cho‘qqilariga erishmoqchi ekan, u bilim va ilmni puxta eallashi lozim. Ma’rifatparvar alloma Abdulla Avloniy inson ma’naviy yuksalishida bilim va ilmning ahamiyati ustida to‘xtab shunday yozgan edi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakotimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur... Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur»[67].
Ingiliz faylasufi F.Bekon ta’kidlashicha «Bilim kuch, kuch esa bilimdadir», Rudakiy esa «Bilim – barcha kulfatlarga qalqon» deb bilimning inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligini izohlaydi. Prezidentimiz Islom Karimov «Kuch – bilim va tafakkurda»degan konseptual g‘oyani ilgari surib, bilimning inson ma’naviyatini butun qiladigan, har qanday qiyinchiliklarni engib o‘tishda, yovuz va begona g‘oyalarga qarshi kurashda unga madad beradigan kuch ekanligini ta’kidlaydi.
Ma’rifatli inson bilimlidir. Bilim insonning fazilatini ulug‘lovchi xususiyatlardan biridir. Bilim olish, ma’rifatli bo‘lish, insonlar turli sohalarda qiyinchillikka duch kelganda moddiy va ma’naviy jihatdan g‘alaba qilishi uchun zarur. Bilimsiz, ma’rifatsiz kishi himoyasizdir. Ayniqsa, mamlakatimiz bozor munosabatlariga o‘tish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda insonlar, xususan tadbirkorlar ma’rifatli bo‘lmas ekanlar, ular hayot qiyinchiliklariga bardosh bera olmay qiynaladilar.
Bilimli, ma’rifatli kishilarning ko‘payishi jamiyat boyligidir. Ma’naviyatni yuksaltirish ham ma’rifatga bog‘liq. Milliy qadriyatlarning tarixini, kelajagini anglash ma’rifat orqali amalga oshadi.
Inson bilim orqali dunyoni qanchalik ko‘p bilib borsa, o‘z faoliyatini ham shunchalik yaxshi anglay boradi. Bilimli bo‘lish uchun vaqtni ayamaslik, vaqtdan unumli foydalanish lozim. Inson ma’rifat va bilim orqali yuksak ma’naviyatlilik cho‘qqilarini egallaydi, barkamol, komil inson bo‘lib etishadi. Ma’rifat keng ma’noda odamlarga bilim berish, ko‘nikma va malaka hosil demakdir. U ma’naviyatni shakllantiruvchi, jamiyatning yaratuvchanlik, bunyodkorlik quvvatini oshiruvchi inson faoliyati sohasidir. Boshqacha aytganda ma’rifat jamiyatning ta’lim-tarbiyaga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilgan inson faoliyatini qamrab oluvchi tushunchadir.
Kishilarni ma’naviyatli va ma’rifatli qilib tarbiyalash ishlari barcha zamonlarda ta’lim va tarbiya orqali amalga oshirib kelingan. Bu haqda Islom Karimov shunday deb yozadi: “... ta’lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi.” [68]
Talim va tarbiya tushunchalarining mazmuni va mohiyatini, ularning o‘zaro nisbati va munosabatlarini bilib olish ma’naviy – ma’rifiy tarbiya samaradorligi hamda ta’sirchanligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir.

[67] Абдулла Авлоний.Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1992, 22-бет.
[68]Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 61- бет.

Ta’lim – biror ma’lumotni kishilarga ma’lum bir tartibda berish va uni o‘zlashtirish, qabul qilish jarayoni. Ta’lim – axloqli, odobli shaxsga hunar o‘rgatish, bilim berishdir. Abu Nasr Farobiy ta’lim to‘g‘risida to‘xtab, ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiyaning nazariy fazilatlarini, ma’lum hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarini o‘rgatishdir, deb ko‘rsatgan edi.[69]

Ta’lim turlari ko‘p: tabiiy, ijtimoiy-siyosiy bilimlar bo‘yicha ta’lim; texnik ta’lim; kasb-hunar ta’limi; axloq-odob ta’limi va boshqalar.

Tarbiya-inson shaxsi ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli tadbirlar tizimi bo‘lib uning turlicha talqinlari mavjud:
1. Farzandni boqib, voyaga etkazish; 2. Kishining ta’lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llay olishlikka o‘rgatish, ko‘nikma hosil qilishi: Masalan, hunar – kasbga o‘rgatishni hunar tarbiyasi; ahloq-odobga o‘rgatishini axloqiy tarbiya; shariat qoidalariga o‘rgatishni diniy tarbiya deb yuritiladi va boshqalar.

Tarbiya ta’limsiz amalga oshmaydi. Ta’lim berishdan maqsad, uning ketidan tarbiya berish, ya’ni ta’lim orqali egallagan bilimlarni amaliyotda qo‘llay olishlikka o‘rgatishdir.

Inson shaxsini shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan ta’lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bog‘langan jarayonlardir. Bizning ajdodlarimiz ta’lim va tarbiyaning o‘zaro dialektik bog‘langan jarayon ekanligi, ularni bir-biridan ajratib bo‘lmasligi va uyg‘unligini yaxshi tushunib etganlar. O‘z amaliy faoliyatlarida unga rioya etganlar. Abdulla Avloniy ta’lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday degan: «Dars (ya’ni ta’lim) ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo‘lsa ham, ikkisi bir-biridan oyilmaydurgon, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur … CHunki dars oluvchi biluvchi, tarbiya oluvchi amal qiluvchi demakdur.» [70]

Prezidentimiz buyuk ajdodlarimizning ta’lim va tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi haqidagi qarashlarini umumlashtirib: “ Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir,”[71] - deb ta’kidlagan edi.

Inson shaxsini shakllanishida tarbiya ustivor ahamiyatga ega bo‘ladi. U ta’lim berish jarayonini, barcha ma’rifiy tadbirlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Har qanday ta’lim tarbiya bilan uyg‘unlashgandagina etuk ma’naviyatga, ma’naviy barkamol, komil insonni voyaga etkazishga zamin bo‘ladi.

## 4.2.Ma’naviyat va ma’rifat, ularning o‘zaro munosabatlari

Ma’naviyat, ma’naviylik va ma’rifat, ma’rifatlilikning o‘zaro munosabati va nisbati masalasini to‘g‘ri aniqlab olish ma’naviyat barkamol, komil insonlarni tarbiyalashda, jamiyat ma’naviy – ma’rifiy taraqqiyotida muhim ahamiyatga egadir.

Har qanday jamiyatning o‘ziga xos ma’naviy ehtiyojlari mavjud bo‘lib, ular orasida bilimga bo‘lgan ehtiyoj etakchi o‘rinni egallaydi. CHunki jismoniy va ma’naviy sog‘lom odam tinmay bilim olishga intiladi.

Qur’oni karim va Hadisi shariflarda bilim egallash – jamiyatga va o‘ziga foyda keltiruvchi shaxs bo‘lib etishishida muhim omil ekanligi qayd etilgan. Bilim olish farz ekanligi qayta-qayta uqtiriladi. Bilimsizlik jamiyatda jaholat, razolat, buzg‘unchilik avj olishiga va oxir oqibat halokatga olib kelishligi bayon etilgan. Hadislarda «Olim bo‘l yoki bilim o‘rgatuvchi bo‘l, yoki tinglovchi bo‘l, yo bo‘lmasa bilimga va ilm ahliga muhabbatli bo‘l. Beshinchisi bo‘lma, halok bo‘lasan»,[72]- deyilgan.

Ma’naviyat har doim ma’rifat bilan ya’ni bilim bilan uyg‘un holda rivojlanib boradi. Har ikkalasining uyg‘unligiga erisha olsakkina yoshlarimizning ma’naviy barkamol, iymon-e’tiqodli, vatanparvar, insonparvar, vijdonli, diyonatli, or-nomusli, halol va pok insonlar bo‘lib tarbiya topishlariga erisha olamiz. Bu haqda Abu Hamid Muhammad G‘azzoliy quyidagi fikrlarni bildirgan edi: Gumroh kishilar «Ilm bo‘lgach, amalga hojat yo‘q qablida fikr qiladilar. Bunday

[69] Қаранг. Бўри Зиёмухаммадов. Маърифат асослари. Тошкент, “Chinor ЕНК,” 1998, 24-бет.
[70] Абдулла Авлоний Туркий гулистон ёҳуд ахлоқ. 15-16-бетлар.
[71] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 62- бет.
[72] Муҳаммад пайғамбар қиссаси. Ҳадислар. Тошкент, «Камалак», 1991, 61-бет.

fikrlar ilmning o‘zi bilan kifoyalanib, shariatni inkor etuvchilar e’tiqodi bo‘lib, ular uchun ilm hosil bo‘lsa-yu, amal bo‘lmasa. Bu kabi ilmdan foyda yo‘qligini bilishmaydi. Holbuki o‘qib o‘rgangan ilmga amal qilmagan kishining qiyomat kunidagi azobi ikki hissadir».[73]

Insoning bilim va ilmni egallab kundalik amaliy faoliyatda ularga amal qilishi insof, iymon, vijdon, ixlos kabi ko‘plab ma’naviy fazilatlarning yanada mustahkamlanishga olib keladi.

Ma’naviyati va ma’rifati yuksak kishilargina elim, yurtim deb yashaydi, o‘zgalarga himmat – muruvvat ko‘rsatishni, yordamga muhtoj kishilarga ko‘mak berish va to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatishni o‘zlari uchun baxt deb biladi. YUksak ma’naviyat va marifat sohibi bo‘lgan kishilar boshiga mushkul ish, qayg‘u tushgan kishining mushkilini oson qiladi, qayg‘usiga sherik bo‘ladi, dardiga malham bo‘ladi, hojatini chiqaradi, etim-esirlarni parvarish qiladi. Bunday fazilat egasi bo‘lgan kishilarda milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘usi, oriyat kuchli bo‘ladi. Ular o‘z millati, el-ulusi manfaati sharafini himoya qilishni o‘zi uchun shon-sharaf deb biladi, Vatan mustaqilligiga havf tug‘ilsa, uning himoyasi yo‘lida mol - dunyosini, jonini ayamaydi, fidoiylik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib faqat ma’rifatli kishilargina yuksak ma’naviyat sohibi bo‘lar ekan degan xulosaga kelish ham unchalik to‘g‘ri emas. Insoniyat tarixiga nazar tashlasak, ma’naviyatli odamlarning hammasi ham doimo ma’rifatli bo‘lavermaganlar. SHu bilan birga ilmli, ma’rifatli kishilarning ham hammasi yuksak ma’naviyatli bo‘lmaganligini ko‘rishimiz mumkin. SHunday kishilarga qarata xalqimiz haqli ravishda o‘zida chuqur ma’no-mazmunni ifoda etgan «Olim bo‘libti-yu ammo odam bo‘lmabdi», - degan hikmatli iborani ishlatib kelgan. Boshqacha aytganda insonlar borki, olim emas. Olim bo‘lmasa bo‘lmas, ammo ma’naviyati yuksak. Olimlar borki ular inson zotiga loyiq emas. Bunisi og‘ir. Ulardan elga, yurtga foyda yo‘q.

Xalqimiz topib aytganidek, sholi kurmaksiz bo‘lmaydi. Bu ibora hayotda kamdan kam uchraydigan ma’naviyati sayoz ayrim ilm ahllariga nisbatangina ishlatib kelingan. Bunday insonlarga nisbatan kishilar nafrat bilan qaragan. Aksincha, ma’naviyat va ma’rifatni o‘zida uyg‘un mujassam etgan ilm ahllaridan ibrat olganlar, o‘z farzandlarini shunday insonlar bo‘lib kamol topishini orzu qilganlar.YUqoridagi ibora bilan birga xalqimiz «Olim bo‘lma odam bo‘l» iborasini ham ishlatib kelgan. Bunday holat ma’naviyat va ma’rifat bir-birini inkor etadi degani emas. Aksincha, ma’naviyat va ma’rifat o‘zaro hamohang, bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgan, bir-birini ta’qazo etuvchi, inson va jamiyatni kamolotga eltuvchi omildir. Ular bir-birini quvvatlab, o‘zaro ta’sirlanib rivojlanib boradi.

Prezidentimiz aytganidek, biz tariximizning qaysi bir davrini olmaylik, yurtimizda ilmu ma’rifat va yuksak ma’naviyatga intilish hech qachon to‘xtamaganini, xalqimiz dahosining o‘lmas timsoli sifatida eng og‘ir va murakkab davrlarda ham yaqqol namoyon bo‘lib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.[74]

Zaminimizda kamol topgan, el-yurtga tanilgan, ma’naviy barkamol, komil zotlar o‘zlarida ma’navyat va ma’rifatni yuksak darajada mujassam etgan allomalar bo‘lganlar. Ular ma’naviyat va ma’rifat chiroqlarini mash’ala singari yoqqanlar. YUksak ma’naviyat va ma’rifat tufayli To‘ron zamin er yuzida shuhrat qozongan. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, hozirgi davrda milliy kamolot yo‘li mana shu yo‘l bundan boshqa yo‘l yo‘q. Ma’naviyat va ma’rifat xalqimizning, millatimizning, Vatanimizning porloq kelajagi uchun suv va havodek zarur. Ma’naviyat va ma’rifatning o‘zaro birligi, uyg‘unligi, ma’naviy va ma’rifiy tarbiya ishlarimizni birga olib borish taraqqiyotimiz taqazosi. Ularni bir-biridan ajralgan holda, boshqa-boshqa olib borib bo‘lmaydi. YUrtboshimiz ta’kidlaganidek: “... farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish-ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi ... Bu esa ta’lim va tarbiya ishini uyg‘un holda olib borishni talab etadi”[75], chunki “... inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi.”[76]

---

[73] Абу Ҳамид Муҳаммад Ғаззолий, «Охиратнома». Бухоро, 1992, 12-бет.

[74] Қаранг: Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 49-60- бетлар.

[75] Ўша жойда. 61-бет.

Ularning chinakkam uyg'unligini ta'minlash orqaligina komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish va Vatanimizning mustaqilligini va yuksak taraqqiyotini ta'minlash mumkin bo'ladi. YOshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnologiyalarini egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur yuritishi bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'naviyatli va ma'rifatli yoshlarimizning ikki qanoti bo'ladi.

Prezidentimiz bu boradagi vazifalarni ta'kidlab shunday degan: "... bugungi murakkab va shiddatli zamonda o'z o'rnini topishga intiladigan har qanday xalq va millat umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini har tomonlama chuqur va puxta egallashi shart... Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Mahmudxo'ja Behbudiy o'tgan asrning boshidayoq "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur, zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur", degan haqqoniy fikrlar bilan Turkiston ahlining ongu shuurini uyg'otishga da'vat etgani bejiz emas... Bu so'zlarning qanchalik haqiqat ekanini bugungi yuksak tafakkur va texnologiyalar zamoni ham isbotlanmoqda"[77].

Haqiqatan ham Islom Karimov aytganidek, agarki hozirgi vaqtda dunyoviy ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqat tariximiz, olis ajdodlarimizning kashfiyotlari bilan maqtanib, ularga mahliyo bo'lib yashaydigan bo'lsak, ana shu noyob merosni asrab-avaylab, yanada boyitib, unga o'z munosib hissamizni qo'shmasak, zamon bilan hamqadam, hamnafas bo'lib yurmasak, xalqimiz, mamlakatimizning jahon maydonida munosib o'rin egallashi qiyin bo'ladi.

Ma'naviyat va ma'rifat, uni egallash masalasiga yondashuvga hadislarda aytilgan "Bu dunyoni deb u dunyoni, oxiratni deb bu dunyoni unitmang" degan mazmundagi naqlini hech qachon esdan chiqarmasligimiz zarur. CHunki tarix va hayot tajribasi dunyoviy va diniy qadriyatlar, ilm-ma'rifat doimo bir-birini to'ldirib, boyitib kelganligi shu asosda kishilar ma'naviy kamolot cho'qqilariga erishganligidan dalolat beradi.[78]

Ma'naviy va ma'rifiy qashshoqlik bilan hech bir millat, u yashayotgan mamlakat hech qachon iqtisodiy va ijtimoiy – siyosiy taraqqiyotning yuksak cho'qqilariga erisha olmaydi.

### 4.3. Ma'naviyat va ma'rifat – ma'naviy barkamollikning asosi

Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etishimizda ma'naviy barkamol, komil insonni tarbiyalab voyaga etkazish biz uchun umummilliy miqyosidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifa bo'lib qolmoqda. O'z istiqboli, kelajagini o'ylagan har qaysi inson, xalq, millat, mamlakat o'z farzandlarining ma'naviy – ma'rifiy tarbiyasi haqida o'ylashi va qayg'urishi kerak. Zero buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek: «Tarbiya bizlar uchun yo hayot-yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidur».[79] Jamiyatni, mamlakatni, xalqni tanazzul va halokatdan asrovchi va qutqaruvchi kuch ma'naviyat va ma'rifatdir. Buni bizning ajdodlarimiz to'g'ri tushunib etgan va o'z farzandlarini kamolga etkazishda ularning ma'naviy va ma'rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berganlar. Bu haqda eng qadimgi qo'lyozmamiz «Avesto»da shunday deyilgan: «Tarbiya hayotning eng muhim tirgagi, tayanchi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash lozimki, u avvalo yaxshi o'qishni, keyin esa yozishni o'rganishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin».[80]

Ma'naviyat va ma'rifat birgalikda bir maqsadni ko'zlaydi, ya'ni kishilarni kamolot cho'qqisini egallashlari uchun yo'l ochadi. Zaminimizda yashab ijod qilgan mutafakkirlar o'z asarlarida ma'rifat ya'ni ilm – fanning inson ma'naviy barkamolligida tutgan o'rni va ahamiyati haqida qimmatli fikrlarni bayon qilganlar. Ularning ma'naviyat va ma'rifatning inson barkamolligida tutgan o'rni va ahamiyati haqidagi qarashlarini o'rganish – bugungi kunda ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalash borasidagi vazifalarni amalga oshirishimizda muhim ahamiyat kasb etadi. «Bizlarni (ilm) jaholat qorong'ulig'idan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma'rifat dunyosiga

---

[76] Ўша жойда. 130-бет.
[77] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 94-95- бетлар.
[78] Қаранг: Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 95-96- бетлар.
[79] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. 14-бет.
[80] Макавелъский А.О. Авесто.Баку, «Азербажан,» 1960, 18-бет.

chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur. Alloh taologa muhabbat va e'tiqodimizni orttirur...

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur,»[81] - deb yozgan edi Abdulla Avloniy. U yana jaholat, ilmsizlik, ma'rifatsizlik va ularning zarari haqida shunday deydi: «Jaholat deb o'qumagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlig'ni aytilur. Jaholat insoniyatning eng zo'r dushmani va yomon xulqlarining boshlig'idur... Jaholat arbobi qayu-erda bo'lsa bo'lsin, loyiqi e'tibor o'lmaq sharafindan mahrumdur. Moddiy jihatdan qancha boy va sarvatdor bo'lsa, ma'naviy jihatdan shuncha faqir va zalil hisoblanur. Zeroki, jaholat eng qo'rqinch faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatliroq bir musibatdur».[82]

Haqiqatan ham kishida jaholat kuchli bo'lsa, uning xatti harakatini jaholat boshqarsa, bunday kishi ma'naviy tubanlik botqog'iga botadi va oxir oqibat halokatga uchraydi. Agar bunday holat butun jamiyat, millatni o'z domiga tortsa, unda jamiyat tanazzulga uchraydi, millat esa o'zligini yo'qotadi.

Ko'rinadiki, odamzot naslining ulug'ligi ma'rifat va ma'naviyatdan. U aql-idrok, ilm tufayli ne-ne tugunlarni echishga qodir. Ma'rifat va ma'naviyat o'ylab ko'rilsa, misoli bir jilov. U insonlarni barcha yomon, yaramas ishlardan, ma'naviyatsizlikdan tiyib turadi. Ma'rifatli va ma'naviyatli insonlar o'z orzu-istaklariga etadi, maqsadlariga erishadi. Ma'rifat va ma'naviyatni o'zida mujassam etgan kishilarning foydasi har doim ko'pchilikka tegib turadi. Ular elda aziz bo'lib, hurmatga sazovor bo'ladilar.

Ma'naviyat va ma'rifatning inson ma'naviy barkamolligidagi beqiyos ahamiyatini hisobga olgan holda mustaqillikka erishganimizdan buyon Prezidentimiz Islom Karimov mamlakatimizda ma'naviyat va ma'rifat rivojiga katta ahamiyat berib kelmoqda. Zero, "... bugungi shiddatli davrda chinakam ma'naviyatli va ma'rifatli odamgina inson qadrini bilishi, o'z milliy qadriyatlarini, milliy o'zligini anglashi, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib o'rin egallashi uchun fidoiylik bilan kurasha olishi mumkin"[83].

YUqoridagilarni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda ma'naviyat va ma'rifatni uyg'un holda rivojiga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.

Bunga Prezidentimizning «Ma'naviyat va ma'rifat jaioatchilik markazini tashkil qilish to'g'risida» (1994 yil 23 aprel); «Ma'naviyat va ma'rifat» markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida «(1996yil 9 sentyabr);» Respublika ma'naviyat va ma'naviyat kengashini qo'llab-quvvatlash to'g'risida (1999 yil 3 sentyabr)ga farmonlari; Vazirlar Mahkamasining «Ma'naviy – ma'rifiy islohotlarini yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» (1998 yil 24 iyul) qarori; Oliy Majlis tomonidan «Ta'lim tizimini isloh qilish» va «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» to'g'risida (1997 yil 29 avgust) qabul qilingan qonunlar yaqqol misoldir. Mamlakatimizda ma'rifatni rag'batlantiruvchi, unga xomiylik qiluvchi «Is'tedod», «Kamolot» kabi jamg'arma va uyushmalar faoliyat ko'rsatayotir.

Ko'rinadiki, mustaqillik yillarida ma'naviyat, ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirgan, ko'lami va mohiyatiga ko'ra ulkan ishlarimiz xalqimiz ko'zlagan ezgu niyatlariga erishish, hech kimdan kam bo'lmaydigan hayot barpo etish, yoshlarimiz, butun xalqimizning ma'naviy yuksalishi yo'lida mustahkam zamin yaratadi.

Ma'naviyat va ma'rifat mamlakat miqyosida va joylarda olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali kishilar ongiga singdiriladi.

Bunday ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar sirasiga hozir jamiyat hayotida tobora katta ahamiyat kasb etayotgan ommaviy axborot vositalari, ilmiy, badiiy adabiyotlar, barcha bilim yurtlarida, jamoatchilik orasida o'tkazilayotgan suhbatlar, uchrashuvlar, munozaralar va boshqalar kiradi.

---

[81] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. 22-23 бетлар.

[82] Ўша жойда, 43-бет.

[83] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, "Маънавият", 2008, 16- бет

Jamiyat rivojlanib ma’naviy kamolotga ehtiyoj kuchaygan sari ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarning ko‘lami kengaya boradi. Ammo ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar qancha yaxshi yo‘lga qo‘yilsa ham, insonning aqliy va axloqiy ya’niki ma’naviy kamoloti birdaniga amalga oshadigan ish emas. Garchi insonda ma’naviy barkamollikning nasliy imkoniyatlari bo‘lsa ham, ular o‘z-o‘zicha, stixiyali yoki biologik imkoniyatlar asosida amalga oshavermaydi. Ma’naviyatli va ma’rifatli ota va onadan tug‘ilgan farzand o‘z-o‘zidan ma’naviy barkamol, komil inson darajasiga etmaydi. Ma’lum maqsadlar bilan bog‘langan ma’naviy – ma’rifiy tadbirlar, ta’lim va tarbiya natijasi, oila, jamoa, mahalla, jamiyat ta’siri insonning ichki, tug‘ma ma’naviy – ruhiy, nasliy imkoniyatlarini ma’naviylik darajasiga ko‘taradi, odam farzandiga insoniylik fazilatlarini baxshida etadi, uning axloqi, odobi, bilimi, malakasi, iymon-e’tiqodi, dunyoqarashini shakllantiradi, barkamol insonlar bo‘lib voyaga etishlariga olib keladi.
Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga e’tibor bermagan, ta’lim – tarbiya ishlarini o‘z oldidagi maqsadlar bilan bog‘lay olmagan jamiyat, davlat ko‘zlagan maqsadlariga erisha olmaydi. Xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq.
Ma’naviyat va ma’rifat O‘zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi ma’naviy barkamol, komil insonlarning quyidagi xislat va fazilatlarga ega bo‘lish ruhida tarbiyalab voyaga etkazishda muhim ahamiyatga egadir:

- aqlli, iymonli, mustaqil fikr yurtga oladigan;
- odobli-millatimiz to‘plagan barcha ezgu, yaxshi, ijobiy axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishlik;
- mehnatsevarlik – aqliy va jismoniy mehnatni o‘zining hayotiy ehtiyojiga aylanganlik holati;
- bilimli – dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallab, ularni hayotda qo‘llay olishligiga;
- sog‘lomlik- jismoniy, ruhiy, ijtimoiy-siyosiy dunyo qarashlari va ma’naviy jihatdan sog‘lom fikr yuritishlilik;
- milliy g‘ururga egalik- ajdodlarimiz yaratgan moddiy va ma’naviy merosni chuqur egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyituvchi;
- vatanparvar – vatan taraqqiyoti va kelajagi uchun fidokorona mehnat qiluvchi, zarur bo‘lsa, uning uchun jonini ham beruvchi;
- baynalminal – boshqa millatlarni o‘zining millati qatorida hurmat qilishi;
- insonparvar – inson zotiga faqat yaxshilik qilishni o‘ylovchi;
- jasur va shijoatli – qo‘rqmas, har bir ishga faol kirishib, uni oxiriga etkazuvchi va boshqalar. YUqoridagilarning ja’mi uzviy birgalikda inson ma’naviy barkamolligini o‘zida mujassam etadi. Ma’naviy –ma’rifiy tarbiyadan ko‘zlangan maqsad ham ana shunday xislat va fazilatlarga ega bo‘lgan ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishdir.

**Takrorlash uchun savollar:**

1. Ma’rifat tushunchasi va uning tarixiy va zamonaviy talqinini izohlab bering?
2. Bilim va ilm tushunchalarining mazmuni va farqi nimalardan iborat?
3. Ma’naviyat va ma’rifatning o‘zaro munosabatlarini izohlang?
4. Xalqimizning «Olim bo‘libti-yu, ammo odam bo‘lmapti», «Olim bo‘lma-odam bo‘l» hikmatli iboralarining mazmun-mohiyatini izohlang.
5. Ma’naviyat va ma’rifatning ma’naviy barkamol insonlarni tarbiyalashdagi ahamiyatini sharhlang?
6. Ilm va uning ahamiyati haqida mutafakkirlarning qarashlari va xalqimizning hikmatli iboralaridan misollar keltiring.
7. Madaniyat nima? Uning qanday turlarini bilasiz?
8. Madaniy va ma’naviy meros nima? Ularning farqi.
9. O‘zbek xalqining boy madaniy va ma’naviy merosi haqida nimalarni bilasiz.
10. Mafkura va ma’naviyat munosabatlarini qanday tushunasiz?

11. Qadriyatlar va uning qanday turlarini bilasiz?
12. Ma’naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatini izohlang.
13.

**3- MAVZU:MA’NAVIYATNING TARIXIY, NAZARIY - ILMIY VA AMALIY ZAMINLARI**

**REJA:**

**1. Qadimgi markaziy osiyo xalqlari ma’naviyatining shakllanish jarayonlari**

**2. Qadimgi xalq og‘zaki ijodi va yozma yodgorliklarda ma’naviyat masalalari**

**3. “Avesto”da inson va uning ma’naviyati masalalari**

**4. Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyat sohibi**

**5. Temuriylar sulolasi davrida ma’naviyat va ma’rifat rivoji**

Jahon ma’naviyati va ma’rifatining rivojiga jamiki xalqlar baholi qudrat o‘z ulushlarini qo‘shganlar. Ammo bunda SHarq mamlakatlari, jumladan, Markaziy Osiyo xalqlarining qo‘shgan hissasi alohidadir.

Markaziy Osiyo jahonning ilmu fan, falsafa, din, adabiyot va san’at qadimdan rivojlangan, tarixi, ma’naviyati nihoyatda boy mintaqalardan biridir.

Bir necha ming yilliklarda shakllangan Markaziy Osiyo xalqlari milliy ma’naviyati takomil bosqichlari mazkur o‘lkada yuz bergan madaniy rivojlanish jarayonlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu sahnda yuz beruvchi ma’naviy hodisa sanaladi. Xalqimiz madaniy-ma’naviy taraqqiyoti o‘ta murakkab tarixiy silsilalar, o‘zgarishlar va hodisalar majmuini tashkil etadi.

Ana shu murakkab va ko‘p ming yillik ma’naviy takomilimiz jarayonidan asosiy bo‘g‘inlarni ajratib olishimiz lozim. Busiz milliy ma’naviyatimiz rivojlanishi bosqichlari haqida fikr yuritib bo‘lmaydi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning bu boradagi fikrlarini o‘rganib, milliy ma’naviyatimizning bir necha ming yillik tarixini besh davrga ajratib ko‘zdan kechirishni ko‘p jihatdan maqbul bildik:

1. Islomgacha milliy ma’naviyatimiz taraqqiyoti.
2. Ilk SHarq uyg‘onish davri (IX-XII asrlar)da ma’naviyat va ma’rifat rivoji.
3. Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida (so‘nggi uyg‘onish davri) ma’naviy-ma’rifiy takomil masalalari.
4. Xonliklar, mustamlakachilik va qaramlik sharoitida ma’naviyat.
5. Mustaqillik va ma’naviy poklanish, ma’naviy tiklanish va ma’naviy rivojlanish masalalari.

Bu davrlar o‘z ichiga olgan tarixiy davrlar muddatiga ko‘ra aslo teng emas. Biz nazarda tutgan birinchi davr bir necha ming yillarni qamrab olsa, ikkinchi davr IX-XII asrlarni, uchinchi davr XIV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrlarni, to‘rtinchi davr esa XVII dan XX asrning so‘nggi o‘n yilligiga qadar bo‘lgan davrni qamrab olganligi bilan ajralib turadi.

Mazkur mavzuda Islomgacha ma’naviyatimiz takomili, mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritamiz. Islomgacha bo‘lgan milliy ma’naviyatimiz va uning takomillashishi haqidagi eng muhim manbalar guruhini to‘rtga bo‘lish mumkin. 1.Zardushtiylikning “Avesto” kitobi va turkiy bitiklar (yozuvlar). 2. Qadim SHumer, Bobil, Ashshur, qadim Misr, YUnon, Hind, Xitoy manbalari va Eron shahanshohlaridan qolgan toshbitiklar. 3. Arxeologik yodgorliklar – moddiy ashyolar va turli inshootlar. 4. Xalq og‘zaki va yozma adabiyot namunalari, urf - odat va marosimlar, o‘yinlar, bayramlar va boshqalar.

Bizning eng qadimiy ajdodlarimiz ma’naviyati va ma’rifati haqidagi ma’lumotlar asrlardan asrlarga o‘tib hozirgacha saqlanib qolgan xalq og‘zaki ijodi namunalari: mif, afsonalar, rivoyatlar, dostonlar va qadimiy yozuvlarda saqlanib kelayotir.

Avlodu ajdodlarimizning qadim ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, an’analari, tili, tarixi, madaniyati va ma’naviyatini badiiy-falsafiy jihatdan o‘ziga xos tarzda aks ettiradigan og‘zaki ijodiyoti nihoyatda boy va xilma-xildir. Miflar, afsonalar, qahramonlar to‘g‘risidagi dostonlar, to‘y-hashamlarda, xalq yig‘inlarida, bayramlarda, marosimlarda, safarlarda, mehnat jarayonida aytilgan ashula-qo‘shiq va laparlar, marsiyalar, lirik she’rlar, maqol va matallar, masal va

topishmoqlar xalqimiz og‘zaki ijodiyoti madaniyati va manaviyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo‘lgan sohalaridir.
Tarix qa’ridan, necha-necha o‘tmish dalg‘ovli davrlardan bizgacha eson-omon etib kelgan miflar, afsona va rivoyatlar, dostonlar, ertak maqol va qo‘shiqlar, yozma yodgorliklar, o‘tmishning shunchaki bir aks sadosi emas, balki ajdodlarimiz ko‘nglidagi qayg‘u-hasrat va quvonchu shodlikning yo‘ldoshi, uning bilim qomusi, diniy, falsafiy, ma’naviy kitobi hamdir. Ular kishilarni mehnatni sevishga o‘rgatgan, tabiatning xatarli kuchlariga qarshi kurashish va ularni oldini olishda odamlarga yordam bergan, olamda ro‘y berib turadigan murakkab hodisalar va jarayonlar sir-asrorlarini bilib olishga undagan, insonlarning fikri, tafakkuri va hayotini o‘tmishdan kelajakka tomon tortgan, hayotni sevishga da’vat etgan.
Xalqimizning o‘ziga xos turmush tarzi, tafakkur va dunyoqarashi, hayotga, voqelikka munosabatining ifodasi bo‘lgan bunday xalq og‘zaki ijodi namunalari, milliy mafkuramiz oziqlanadigan manbalardir.[84] Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy mif va afsonalari turli mavzularda bo‘lgan. CHunonchi kosmogonik miflar, hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo‘lib, ularda yaxshilik, baxt-saodat, quyosh nuri va issiqlik – yomonlik, baxtsizlik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo‘yilgan. SHu asosda baxt o‘lkasi va baxtsizlik o‘lkasi degan miflar yuzaga kelgan. YAxshilik va yomonlik kuchlari o‘rtasidagi kurash mifologik obrazlar Mitra, Anaxita, Kayumars, Yima(Jamshid), Elikbek va boshqalar timsolida mujassamlashtirilgan. Bular haqidagi miflar zardushtiylikning “Avesto” kitobiga ham kirgan.
Mitra – Quyosh xudosi.U kishilarga nur, issiqlik, baxt-saodat baxsh etadi. SHu bilan birga u yaxshi qurollangan bo‘lib, dushmanlarga qarshi dahshat soladi, kishilarni turli balo va ofatdan qutqaradi. Mitra bitmas-tuganmas kuchga ega bo‘lgan pahlavon sifatida tasvirlangan. U dushmanga qarshi shafqatsizlik bilan jang qiladi va uni mahv etadi. Mitra – ajdodlarimiz tasavvurida o‘tda kuymas, suvda cho‘kmas, o‘q o‘tmas qahramon.
Kayumars haqidagi mif ham «Avesto»ga kirgan. Mifologiyaga ko‘ra Kayumars er yuzida paydo bo‘lgan birinchi odam bo‘lib, go‘yo u Axura Mazda (Xurmuz) tomonidan yaratilgan va ikki vujuddan: ho‘kiz va odamdan tashkil topgan. Insoniyatning ashaddiy dushmani bo‘lgan Axriman Kayumarsni o‘ldiradi. Kayumars tanasining ho‘kiz qismidan 55 xil don, 12 xil o‘simlik, sigir va ho‘kiz, ulardan esa 272 xil foydali hayvonlar paydo bo‘ladi; tananing odam qismidan esa erkak va ayol jinsi hamda metall vujudga kelgan deb tasvirlanadi.
Yima (Jamshid) haqidagi mifda kishilar uchun najotkor hukmron obrazi tasvirlangan.
SHunday qilib, yuqoridagi kabi xalq og‘zaki ijodi - miflarda xalq najotkori va haloskori ifoda etilgan, kishilarning ma’naviy g‘alabasi va o‘z kelajagiga ishonchi tasvirlangan.
Xalq og‘zaki ijodida mifologik obrazlar bilan birga afsonaviy qahramonlar obrazi ham yuzaga kelgan. Bu qahramonlar kishilarning osoyishtaligi va baxt-saodati uchun kurashib, fidokorlik ko‘rsatadilar. CHunonchi, Gershasp va Elikbek haqidagi afsonalarda ajdar va jinlarni enggan, o‘limdan qo‘rqmas, mard, bahodir, kishilarni halokatdan qutqaruvchi qahramonlar obrazlari badiiy bo‘yoqlarda aks ettirilgan.
Qadim Markaziy Osiyo aholisi yaratgan og‘zaki adabiyoti yodgorliklari orasida qahramonlik eposi muhim o‘rin tutadi. Ularda xalqimizning chet el bosqinchilariga qarshi vatanparvarlik kurashi asosiy o‘rinni egallagan.
“To‘maris”, “SHiroq”, “Zariagr va Odatida”, “Zarina va Striangiya”, “Uch og‘a-ini botirlar”, “Malikai Husnobod” kabi qissalar va “Alpomish”, “Qirqqiz”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshanxon”, “Avazxon”, “Oysuluv” singari dostonlarda ham milliy, ham umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan falsafiy va ma’naviy g‘oyalar ilgari surilgan.
Qahramonlik haqidagi qissalar, ertaklar, dostonlar va afsonalarning falsafiy-ma’naviy mohiyatini belgilaydigan, ularning asosiy negizini tashkil etadigan umumiy g‘oya - inson uchun muqaddas dargoh – Vatanning ozodligi va istiqboli uchun chet el bosqinchilariga qarshi murosasiz

[84] Қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2000. 47-бет.

qahramonona kurashish har erkagu ayolning, kattayu kichikning oliy insoniy burchi ekanligi haqidagi qarashlar bayon etilganligi bilan o‘ziga jalb etadi.

“To‘maris” haqidagi qissada massagetlar malikasi To‘marisningEron bosqinchilariga qarshi kurashdagi mardligi, dovyurakligi, jasorati, donishmandligi, vataniga sodiqligi, dushmanlarga nisbatan ziyrak va xushyorligi bayon etilgan.Qissada aytilishicha, Eron shohi Kir massagetlar yurtini o‘ziga qaram qilish, boyliklarini talash maqsadida To‘marisga uylanmoqchi bo‘lib, sovchilar yuboradi. Malika shohning asl maqsadi nima ekanligini tushunib unga qayliq bo‘lishni, o‘z elini qul qilib topshirishni istamasligini qat’iy qilib aytadi. Bunday javobni eshitgan Kir hiyla-nayrang yo‘liga o‘tib, uning o‘g‘li Sparganizni va massagetlarning bir qanchasini mast qilib, qo‘lga oladi. Bundan qattiq g‘azablangan To‘maris shohga qarata: “Ey, qonho‘r Kir, qilgan ishing bilan maqtanmay qo‘yaqol. Sen mening o‘g‘limni yuzma-yuz jangda engganing yo‘q, uni makkorlik bilan sharob ichirib qo‘lga tushirding. Endi mening nasihatimga kir, O‘g‘limni menga topshirib, kelgan eringga ziyon-zahmatsiz qaytib ket. Agar so‘zimga kirmasang, massagetlar tangrisi – Quyosh nomi bilan qasamyod qilamanki, men senday ochko‘z xonni qon bilan sug‘oraman!..” Kir bu so‘zlarni e’tiborga olmaydi va ochiqdan-ochiq tajovuz qilish yo‘liga o‘tadi va massagetlar yurti tomon qo‘shin tortadi. Daryodan o‘tish uchun ko‘priklar qurdira boshlaydi. SHohning bu hatti-harakatidan xabardor bo‘lgan To‘maris Kirga elchi yuborib shunday deydi: “Ey shoh, qilayotgan ishingni to‘xtat! Hali sen boshlagan ishning qanday tugashini bilmaysan-ku? Qo‘y, sen o‘z yurtingda podshohlik qilaver, bizni ham o‘z holimizga qo‘y. Lekin sen bunga ko‘nmaydigan ko‘rinasan. Agar biz bilan kuch sinashmoqchi bo‘lsang, u holda ko‘priklar qurib, ovora bo‘lma, biz daryodan uch kunlik nariga ketamiz, sen bizni erimizga o‘t, yoki o‘z yurtingda uchrashishni istasang, shuni xabar qil!”[85]

Malika To‘maris boshchiligidagi massagetlar Eron qo‘shinlari bilan bo‘lajak qonli to‘qnashuvga, hayot-mamot jangiga tayyorgarlik ko‘ra boshlashadi. Massaget qo‘shinlari beomon, ayovsiz jangda qahramonlarcha kurashib eroniylarni mahv etib, g‘alabaga erishadilar. Jangda Kir o‘ldiriladi. Jang maydonida emas, nayrang bilan qo‘lga olinib halok bo‘lgan o‘g‘li Siparangiz dog‘ida o‘rtangan To‘maris o‘z suvoriylariga o‘ldirilgan Kir kallasini kesib, oldiga keltirishni, bir meshni esa qon bilan to‘ldirishni buyuradi. SHundan so‘ng u soch-soqoliga qon yopishib qolgan Kir kallasini qo‘liga olib, qon bilan to‘ldirilgan meshga solar ekan, jangga yakun yasab shunday deydi: “Ey nomard, sen meni jangda halollik bilan engib chiqqan bir ayolni – makkorlik bilan o‘g‘lidan judo qilib, farzand dog‘ida kuydirding, sen umring bo‘yi qonga to‘ymading, men o‘z ontimga amal qilib seni qon bilan sug‘ordim. Birovning yurtiga zo‘ravonlik bilan bostirib kirganlarning jazosi shu!”[86]

Vatanni himoya qilish, erksevarlik, yurtparvarlik, vatanparvarlik kabi ma’naviy-ahloqiy fazilatlar ajdodlarimizning qon-qoniga singib ketganligi SHiroq haqidagi tarixiy qissada ham chuqur va har taraflama o‘z aksini topgan. Qissada qayd etilishicha, eramizdan avvalgi V asr oxirlarida Doro boshchiligidagi Eron qo‘shinlari Turon zaminiga bostirib kirib, uning hududidagi turli urug‘ va qabilalarni birin-ketin bosib ola boshlaydi. Doro qo‘shini bilan Sak qabilasi o‘rtasida ayovsiz jang davom etib turganida SHiroq ismli cho‘pon yigit o‘z podshohi huzuriga kelib, agar bolalariga, oilasiga, avlodiga g‘amho‘rlik qilishca, dushmanni yakka o‘zi hiyla bilan halok etajagini aytadi. SHohning va’dasini olgach, SHiroq o‘sha erdayoq quloq-burnini kesadi. So‘ng saklardan Eron qo‘shinlari tomonga qochib o‘tgan kishi sifatida eroniylar turgan joyga keladi. SHiroq Doroga arz qilib, o‘zini saklardan alam ko‘rgan kishi qilib ko‘rsatadi.Eron qo‘shinini saklar turgan joyga olib borajagini, ularning saklar ustidan g‘alabasini ta’minlashga yordam berishini aytadi. Eron qo‘shinini yo‘lga boshlaydi. Atrofi suvsiz quruq qum sahroga boshlab boradi. Dushman qo‘shini suvsizlikdan sahroda halok bo‘ladi. SHu tariqa dushman qo‘shinini yakka o‘zi engadi. SHiroq o‘z el-yurtini himoya qilish uchun jonidan kechadi. Borsa kelmas joyga kelib qolganidan g‘azablangan Doro o‘limga mahkum qilingan yolg‘onning sababani so‘raganida SHiroq kulib bunday deydi: “Men g‘alabani qo‘lga kiritdim, chunki vatandoshlarim

1.Маллаев Н.М. Ўзбек адабиёти тарихи. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1966, 49-бет.
2.Ўша жойда.

bo‘lgan saklar boshidagi falokatni bartaraf etdim, eroniylarni suvsizlik va ochlikdan o‘ldirdim, endi nima qilsalaring ixtiyor o‘zlaringda”.[87] Sak elining mard o‘g‘lonining boshini tanasidan judo qildilar. Lekin saklar qo‘shini omon qoladi.

“SHiroq” eposi ham Markaziy Osiyo xalqlarining chet el bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashini aks ettiradi. Vatanparvarlik va jasorat, vatan va o‘z xalqi baxt-saodati yo‘lida fidoyilik qilishga shay, tayyor turish kabi yuksak ma’naviylik sak qabilasining cho‘poni SHiroq timsolida gavdalangan.

YUqoridagi har ikkala xalq og‘zaki ijodi namunalari zaminida haqiqiy tarixiy faktlar yotadi.

To‘maris va SHiroq xalq qahramonlari bo‘lib, o‘z xalqi, Vatani uchun jonini ham ayamaydigan buyuk va betimsol mardlik va jasorat namunasi sanaladi. Ularga ham qoyil qolib, ham havas qilamiz.

Markaziy Osiyoda yashagan qadimgi avlod-ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, urf-odatlari, e’tiqodi, tarixi, madaniy-ma’naviy merosi haqida qimmatli ma’lumotlar “Avesto”, “Bexustun”, “Bundaxishn” “Denkard” kabi tarixiy yozma yodgorliklarda saqlanib qolgan.

Qadimiy turkiy tilda yaratilgan yozma yodgorliklardan biri O‘rxun-Enisey yodgorliklari V-VIII asrlarga mansub bo‘lib, ulardan Kul-Tagin, Bilka-qoon, Tunyukuk qabr toshlariga o‘yib yozilgan matnlar ayniqsa ahamiyatlidir. Bu yozuvlarni turkiy-run yozuvi deb ham yuritiladi. Run yozuvi – “yashirin”, “sirli” yozuv demakdir. CHunki ularni ancha vaqtgacha o‘qishning iloji bo‘lmagan.

Kul-Tagin Bilka-qoon (ulug‘ hoqon demakdir)ning ukasi bo‘lib 732 yili vafot etgan. U urushlarda zo‘r qahramonliklar ko‘rsatgan. Kul-Tagin qabr toshida Bilka-qoonning tilidan aytilgan judolik qayg‘usi-marsiya badiiy til vositasida ifodalangan. U o‘z ukasining vafotidan juda qayg‘uga tushadi. CHunonchi: Agar Kul-Tagin bo‘lmasa edi, hammangiz halok bo‘lur edinglar. Mening inim Kul-Tagin o‘ldi, men qattiq qayg‘urdim, ko‘rar ko‘zlarim ojiz bo‘ldi, aql – fahmim o‘tmas bo‘lib qoldi, o‘zim qayg‘urdim. Qismatni ko‘k samo (xudo) taqsim qiladi, odam bolasi o‘lish uchun tug‘ilgan... kabi so‘zlar yozilgan.

Kul – Tagin qabr toshi yozuvi turk hoqonligi davlatining ijtimoiy-siyosiy hayoti, qabila va xalqlarning urf-odatlari, tili, ma’naviyati va mafkurasi bilan tanishtiruvchi manbadir.

Markaziy Osiyoda ma’naviyat bilan birga ma’rifat ham rivojlangan. Ma’rifat rivojining isboti sifatida bu o‘lka xalqlarining yozuvini ko‘rsatish mumkin. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalarida oromiy, grek yozuvlari, forsiy mixxat mavjud bo‘lgan. Keyinroq avesto, xorazm, sug‘d, kushon, run (O‘rxun-Enisey), uyg‘ur yozuvi kelib chiqqan.

Qadim Markaziy Osiyoda astronomiya, geometriya, geodeziya, matematika, fizika, meditsina fanlari rivoj topgan. Bizga qadar saqlanib qolgan sug‘d kalendari va Beruniy asarlaridagi ma’lumotlar bu o‘lkada, ayniqsa, astronomiya fani rivojlanganidan darak beradi.

Markaziy Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardayoq sug‘orish inshootlari qurganlar, kanallar ochganlar, chig‘ir va koriz usuli bilan suvsiz erlarga suv chiqarganlar, bunyodkorlik ishlari bilan shug‘ullanganlar. Albatta bular kishilardan ma’lum tajriba va bilimni talab etgan.

Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko‘rk bag‘ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an’analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to‘g‘risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g‘urur-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi.[88]

SHunday qilib, bizgacha etib kelgan ma’lumotlarga asoslanib, Markaziy Osiyo qadimiy madaniyat, ma’naviyat va ma’rifat o‘choqlaridan biri bo‘lgan degan xulosa chiqara olamiz. Biz yosh avlod bu bilan faxrlanishimiz lozim.

## 2. “Avesto”da inson va uning ma’naviyati masalalari

Bizning ota-bobolarimiz asrlar davomida to‘plangan hayotiy tajribasi, diniy, ahloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarni ifoda etadigan yuqoridagi kabi ma’naviy yodgorliklar orasida bundan qariyib uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan “Avesto” deb atalgan bebaho

[87] Ўша жойда.

[88] Қаранг. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент, “Ўзбекистон, 2000, 47-бет.

ma'naviy merosimiz alohida o'rin tutadi. Bunday o'lmas ma'naviy boyliklar, moddiy-madaniyat yodgorliklari bu ko'hni o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat, yuksak ma'naviyat mavjud bo'lganidan dalolat beradi.

Zardusht tomonidan bir tizimga solinib to'liq shakllantirilgan zardushtiylik diniga qadar ajdodlarimiz har-xil diniy tasavvurlarga e'tiqod qilib yashaganlar. Bu esa zaminimizda yashagan barcha qabilalarning tinch-totuv yashash va bosqinchilarga qarshi kurashda yagona g'oya – mafkura asosida uyushishlariga to'siq bo'lar edi. O'lkaning turli qabilalarini birlashtirish, ularni ilk buyuk davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zaruriyati yuzaga kelgan edi. Ana shunday zaruriyatni tushunib etgan ilg'or kishilardan biri sifatida Zardusht tarix sahnasida paydo bo'ldi. U ko'p xudolilik tasavvurlari, tabiat hodisalariga sig'inishga qarshi chiqib, yakka xudolik g'oyasini targ'ib qildi. Uni odamlar payg'ambar sifatida qabul qilishgan. Zardushtiylik juda qadimiy dinlardan bo'lib, ibtidoiy tuzumdan quldorlikka o'tila boshlagan paytlarda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan va alohida o'ziga xos diniy dunyoqarash sifatida shakllangan. U o'tmish qadimgi dinlarining eng kuchlilaridan biri sifatida Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron territoriyalarida keng tarqalgan, birinchi jahon dini bo'lgan. Hatto Eron saltanatining rasmiy davlat diniga aylangan.

Mazkur dinning asoschisi Zardusht ba'zi manbalarda qayd etilishicha, eramizdan avvalgi 660 yilda Xorazmda dunyoga kelgan. Otasi savodli bo'lib, karomatgo'y bo'lgan. Zardusht 20 yoshidan boshlab yakka xudolikni targ'ib qilgan. 28 yoshida shuhrat qozonadi, lekin uning targ'ibotlari mahalliy hukmdorlarga yoqmaydi. Uni osishga hukm etadilar. Zardusht o'zi bilan 300 ga yaqin safdoshlarini olib hozirgi Afg'oniston orqali Eron tomon yo'l oladi va o'z g'oyalarini targ'ib etadi. U 77 yil umr ko'rgan.

Zardushtiylik g'oyalarining paydo bo'lishi eramizdan avvalgi X asrga to'g'ri keladi. Uning muqaddas kitobi "Avesto" birdan yuzaga kelgan emas. U bir necha asrlar davomida shakllanib borgan. Zardusht «Avesto»ning qadimiy nushalarini o'rganib va to'plab 30 ta kohin bilan uch yil davomida bir tizimga solgan, gohlar qismini o'zi ijod qilib 12 ming ho'kiz terisiga zarhal harflar bilan "Avesto" matnini yozdirgan.

Mazkur dinga, uning muqaddas kitobi "Avesto"ga Iskandar Zulqarnayn va arablar istilosi davrida katta putur etkazilgan.

Buyuk qomusiy alloma Abu Rayhon Beruniyning "O'tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida bu haqda shunday ma'lumotlar keltirilgan: "Doro ibn Doro hazinasida o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nushasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni ("Avesto"ni) kuydirib yubordi. SHuning uchun Abistoning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz nasq (qism) edi. Majusiylar qo'lida o'n ikki nasq chamasi qoldi"[89]

"Avesto" nafaqat sharq xalqlarining, balki butun insoniyatning faraxli "bolalik" pallalari bilan bog'liq olam haqidagi e'tiqod, bilim va tasavvurlar qomusidir.[90]

"Avesto"da o'tmish ajdodlarimizning diniy tasavvurlari, koinot va erdagi dunyoning, hayotning yaratilishi bilan bog'liq afsona va rivoyatlar, Markaziy Osiyo, Eron va Ozarbayjonning tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, georgrafiyasi, tabiati, nabobati, ilm-fani, ma'naviy hayoti o'z aksini topgan.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Eng mo''tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto"ning yaratilganiga 3000 yil bo'layapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlarga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir.

"Avesto" ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat, buyuk madaniyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor eta olmaydi".[91]

---

[89] Қаранг. Жондор Тўланов. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, "Ўзбекистон", 1998, 101-бет.

[90] Қаранг. Тилаб Маҳмудов. "Авесто" ҳақида. Тошкент "Шарқ", 2000, 44-бет.

[91] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, "Шарқ", 1998, 10-бет.

“Avesto” quyidagi besh qismdan iborat:

1. Vendidod – 22 bobdan iborat bo‘lib, unda Axura Mazda Erdagi barcha mavjudotning yaratuvchisi ekanligi bayon etiladi.
2. Visparad – 24 bobdan iborat bo‘lib, ibodat qo‘shiqlaridan tashkil topgan. Zulmat kuchlariga qarshi kuchlar kuylanadi.
3. YAsna – 72 bobdan iborat bo‘lib, qurbonlik vaqtida, marosimida aytiladigan qo‘shiqlardan tashkil topgan.
4. YAsht – 22 qo‘shiqdan iborat bo‘lib, zardushtiylik ma’budlari madhi kuylangan.
5. Xo‘rda Avesto – Kichik Avesto – quyosh, oy va boshqa xudo hamda ma’budalar sharafiga aytilgan kichik ibodat matnlaridan iborat.

“Avesto”ning bizgacha etib kelgan nushasi 1374 yilda ko‘chirilgan bo‘lib, hozirda Kopengagendagi kutubxonada saqlanib kelinmoqda. “Avesto” ta’limotiga ko‘ra olam qarama-qarshiliklar kurashi asosiga qurilgan: jismoniy narsalarda yorug‘lik va zulmat, tirik tabiatda hayot va o‘lim, ma’naviy olamda ezgulik va yovuzlik, ijtimoiy hayotda adolatli qonunlar bilan qonunsizliklar o‘rtasidagi kurashlarda o‘z ifodasini topadi. YOrug‘lik, ezgulik kuchlariga Axura Mazda boshchilik qilib ezgulikni vujudga keltiraveradi, yovuzlik ruhi bo‘lgan Aaxriman unga qarshi kurashib, odamlarni yomon ish va yo‘llarga boshlayveradi.

Kitobda ezgulik bilan yovuzlik o‘rtasidagi abadiy kurashda oraliq yo‘q, binobarin har bir odam bu jarayonning u yoki bu tomonida ishtirok etishga majbur ekanligi aytilgan. Bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan va o‘zaro kurashayotgan kuchlarning qaysi bir tomonida turish, unda ta’kidlanishicha, odamlarning iymon-e’tiqodiga bog‘liqdir. Iymon-e’tiqodli odam albatta ezgulik tarafida turadi, ezgulikni yovuzlikdan farqlaydi, yovuzlik timsoli bo‘lgan devlar, iblislarga qarshi kurashadi.

Mazkur kurashda esa ezgulikning yovuzlik, yorug‘likning zulmat ustidan g‘alabasiga ishonch bildiriladi.

Zardushtiylik va uning kitobi “Avesto”da ma’naviyat va ma’rifat masalalari ham muhim o‘rin tutadi.

Axura Mazda odamlarni bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, kalondimog‘lik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o‘zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so‘zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sodiqda shartnomalarga amal qilish, qarzni vaqtida to‘lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo‘lish – iymonlilik alomatlari ekanligi aytiladi. Iymonli odam o‘g‘rilik va talonchilikdan, begonalarning molu dunyosiga ko‘z olaytirishdan, o‘z-o‘ziga hiyonat qilish, ya’ni o‘z iymoniga xilof ishlardan o‘zini saqlay biladigan komil insondir. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko‘proq qayg‘uring, ya’ni avval ma’naviy dunyoingiz musaffo bo‘lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo‘lib boraveradi, deyiladi “Avesto”da. Iymonli odam, albatta ezgulik tarafida turadi; o‘g‘rilik va talonchilikdan, begonalar mol-mulkini talon-taroj qilish, ularga ko‘z olaytirish, o‘ziga-o‘zi, vijdoniga hiyonat qilish kabilardan o‘zini saqlaydi; ham tanini, ham qalbi ya’ni ruhini pok tutadi, deb ta’kidlanadi. “Avesto” odamlarni har qanday yomon niyat va so‘zlardan saqlanish, yomon amallardan voz kechish, nojo‘ya ishlardan yuz o‘girishga da’vat etadigan ma’naviy-ahloqiy qoidalar, diniy o‘gitlar, falsafiy g‘oyalar nihoyatda ko‘pligi bilan ham alohida ahamiyatlidir.

“Avesto”da mehnat nihoyatda ulug‘lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne’matlar manbai deb biladi. Inson sahovatli bo‘lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o‘z qo‘li bilan noz-ne’matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. “Avesto”da: “Don ekkan kishi taqvodorlik urug‘ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini olg‘a suradi, imonni oziqlantirib turadi...” deyiladi. Bunga amal qilish o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – erdagi yovuzlikni yo‘qotishdir, deb qaraladi. “G‘alla erdan unib chiqqanda, deyiladi – “Avesto”da, devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchib-un qilinayotganda qocha boshlaydi, xamir qilinayotganda esa devlar mahv bo‘ladi...”deb mehnat ulug‘lanadi. Mehnatni yoqtirmaydigan dangasa, tanbal kishilar qattiq qoralanadi. Kimki erga vaqtida ham o‘ng qo‘li, ham chap qo‘li bilan ishlov

bermagan, mehnat qilmagan bo‘lsa, unday kimsalarga Zamin: “O, sen odam, menga topinmaydigan, mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta’zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatan ham sening yoningdan har-xil ziroatlarni olib o‘tadilar, bu noz-ne’matlarning barchasi mehnat qilayotgan: to‘q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul abad shunday bo‘lajak”[92], - deb javob beradi.

Zardusht xudo Axuramazdadan er yuzidagi eng yaxshi joy qaerda, deb so‘raganida u, inson mehnat qilib qaerdaki o‘ziga uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga, podalariga o‘rin ajratib bersa, em-xashagi ko‘p bo‘lib, chorvasi va itlari to‘q yashasa, uyida noz-ne’matlar muhayyo bo‘lib, xotini va farzandlari farovon yashasa, uyida e’tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo‘l-ko‘l bo‘lsa, o‘sha manzil, o‘sha go‘sha ulug‘dir, muhtaramdir, deb javob beradi.

“Avesto”da inson ahloq-odobi, ma’naviyati quyidagi uchlikda: Gumata – yaxshi fikr, Gugta – yaxshi so‘z, Gvarshta – yaxshi ishda ifodalanadi. “Men yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ishga shon-shavkat baxsh etaman”, - deb ta’kidlaydi Axura Mazda.

YAxshi fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik, xavf-xatar ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi.

YAxshi so‘zlar deganda esa o‘z va’dasiga rioya qilish, so‘zining ustidan chiqish, savdo-sotiq ishlarida halol bo‘lishga, qarzini o‘z vaqtida to‘lash, o‘g‘rilik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o‘zini tiyish va hokazolar tushunilgan.

YAxshi ishlar deganda insonning o‘z hatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so‘zlarda ilgari surilgan barcha ijobiy yo‘l-yo‘riqlarga og‘ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Prezidentimiz aytganidek, “Avesto”ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyil negizida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo‘lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustivor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mutahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir.[93] SHu bilan birga mazkur tarixiy yodgorlikda g‘arazgo‘ylik, hasad, manmanlik, fitna-fasod qattiq qoralanadi. Va’daga vafo qilish, ahdga sadoqat, samimiyat, xolislik, o‘zaro hurmat, izzat-ikrom kabi ma’naviy-ahloqiy fazilatlar ulug‘lanadi. “Avesto” dunyoni inson uchun sinov maydoni deb tushuntiradi.

Asrlar o‘tibdiki “Avesto”da olg‘a surilgan bunday ezgu niyatlar, ezgu kalom va ezgu amal hamon barcha insonlarni ezgulik tomon chorlab, ularni ruhan poklab, yuksak ma’naviylik tomon yo‘llab kelmoqda.

Zardushtiylik ahloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshafqat bo‘lishni qat’iyan man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiynash – gunoh deb hisoblanadi.Kishilarni foydali hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilishga, ularga o‘z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo‘riqlashga da’vat etadi. “Avesto”da tozalik, poklikka alohida e’tibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos ko‘zada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qat’iyan qoralangan.

YUqorida qayd etilganlardan ko‘rinadiki, mazkur tarixiy asarda bizning zamonda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan ma’naviy muammo tabiatni asrash masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Bu o‘ta muhim muammoga e’tiborni qaratib Islom Karimov: “Avesto”da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holdo‘a ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta’sir o‘tkazib kelganiga yana bir bor e’tiborimizni jalb qiladi”,[94]-deb aytgan edi

“Avesto”da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e’tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug‘, aka-ukaning quda-anda bo‘lishi qoralangan.

---

[92] Жондор Тўланов. Қадриятлар фалсафаси. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1998, 101-бет.
[93] Қаранг: Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 32- бет
[94] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 32- бет

Hozirgi meditsina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog‘lom, to‘la-to‘kis bo‘lib tug‘ilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini to‘liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida ma’naviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yo‘l bermasligi kerak.

Ko‘rinadiki, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qadimiy zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga katta ahamiyat berilgan. Insonning jismoniy va ma’naviy pokligi Zardushtiylik ahloqining eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish ta’qiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin ahloqsizlik, ya’ni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. SHu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta’limotidan ko‘rinib turibdiki, SHarqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo‘lishi kerakligi, u erga mevali daraxt o‘tkazish, o‘stirish mumkin emasligi, archa, qayrag‘och kabi mevasiz daraxt o‘stirish kerakligi ta’kidlangan. “Avesto”da aholining ko‘payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog‘lab yurish buyurilgan.

“Avesto”da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi ilon va jom berilgan. Demak tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma’naviyatimiz qadimiyligini ko‘rsatuvchi dalillardan biridir. “Avesto”da ma’rifatni, ilm va hunarni egallash va uni boshqalarga o‘rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

Xulosa shuki, “Avesto” kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik ma’naviy merosi izlari o‘z aksini topgan. Unda yovuzlik, johillik, zo‘ravonlik, tuhmat kabi yomon illatlar qoralanadi. Sof ko‘ngilli bo‘lish, hiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haqorat qilmaslik, mehnatsevarlik kabi ma’naviy fazilatlar targ‘ib etiladi.

Bu qadimiy merosni o‘rganish, undagi umumbashariy va abadiy qadr-qimmatga ega ma’naviy g‘oyalarni targ‘ib etish xalqimizni, xususan yoshlarimizni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

### 3. Moniylik va mazdakizm ta’limotlarida ma’naviyat masalalari

Markaziy Osiyoda quldorlik jamiyati eramizning 2-3 asrlariga kelib inqirozga yuz tutdi va o‘z o‘rnini feodal munosabatlariga bo‘shatib bera boshladi. Bu holat zardushtiylik ichida yangi oqim Moniylik ta’limotining yuzaga kelishi va kuchayishiga olib keladi. Ushbu oqimning asoschisi Moniy (216-276 y) bo‘lib, u tarixiy shaxsdir. Uning ta’limoti hukmron tabaqalar manfaatiga zid bo‘lgani uchun 276 yilda vahshiylarcha o‘ldirildi. Moniy boy adabiy meros yaratgan bo‘lsa ham, lekin uning ba’zi asarlaridan parchalarigina bizgacha etib kelgan, xolos. Uning ma’naviy-ahloqiy qarashlari “Sir ul asror” (Siru asror kitobi), “Kitob-ul-xudovost-tadbir” (Rahbarlik va boshqaruv kitobi), “SHaburkan” va boshqalarda bayon etilgan.

Moniy ta’limoti zardushtiylikning yaxshilik va yomonlik ta’limotiga asoslangan bo‘lib,keng xalq ommasining manfaatiga mos kelar edi. Moniylik ta’limotida dunyo – ziyo (yorug‘lik) va zulmat (qorong‘ulik)ning abadiy kurash maydonidan iborat, mana shu kurash maydonida insonning asosiy vazifasi yovuzlikni yo‘q qilish uchun yaxshilik, ezgulikka ko‘maklashishdan iborat degan ma’naviy-ahloqiy ta’limot ilgari suriladi.

Moniy ta’limotiga ko‘ra, inson sof musaffolikka, o‘z gunohlaridan forig‘ bo‘lishga faqat tarkidunyo qilib hayot kechirishi orqaligina erishishi mumkin, deb qaraladi. Moniylik ahloqi dindorlardan imkoni boricha kam ovqat eyishni, ro‘za tutishni (demak ro‘za tutish odati islomdan avval ham bo‘lgan), o‘z turmushi, hayoti uchun kerakligidan ortiqcha mol-mulkka, boylikka yo‘l qo‘ymaslikni, mo‘‘tadil, o‘rtacha, dabdabasiz hayot kechirishni targ‘ib etadi. Moniy o‘z muridlari, izdoshlarini dunyoviy ishlarda “surbet” bo‘lmaslikka va dunyoda ko‘p narsalarga intilmaslikka da’vat etadi. “Zero o‘limdan keyin hech kimsada ro‘zg‘or asboblari bilan hovli ham, uy ham qolmaydi”. Boshqacha aytganda, inson hayoti davomida orttirgan

boyliklarini o‘zi bilan olib keta olmaydi, ularning hammasi undan keyin qolib ketadi. Moniy aytadi: “Men o‘z umrimda ko‘p hokimlarni ko‘rdim,ular dunyoda ahloqsizlik qilib, manmanlikka berilib yurdilar, ammo oxirida g‘am-alamlarga, tubanlikka duchor bo‘ldilar”. Demak, Moniyning bu so‘zlaridan biz ham ibrat olishimiz foydadan holi emas.

Eramizning V asr oxiri VI asr boshlarida Eronda “mazdakizm” deb atalgan boshqa diniy-falsafiy ta’limot yuzaga kelib, u Markaziy Osiyoda ham keng yoyildi. Mazdakizm feodal munosabatlarning rivoji va u bilan bog‘liq holda xalq ahvolining og‘irlashuvi va ikki o‘rtada ziddiyatlar va kurashning kuchayishi oqibatida yuzaga kelgan. Mazdak ta’limoti ham jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi bo‘lgan inson omilini ko‘tarishga, ma’naviyatini rivojlantirishga qaratilgan edi.

Mazdakizmning Moniylik ta’limoti bilan ko‘p o‘xshash tomonlari bor.U Moniylik ta’limotini to‘ldirib, uning zohidlik – noumidlik g‘oyalarini dunyoga umid bilan qarash g‘oyalariga almashtiradi.

Mazdak Eronning Nishopur shahrida tug‘ilgan. Dehqonlar qo‘zg‘oloniga yo‘lboshchilik qilganligi uchun 529 yilda Anushervon tomonidan qatl etilgan. Mazdak feodal mol-mulkini umumiylashtirishni, feodallar hukmronligini yo‘qotishni talab qiladi.

Moniylikdagi kabi mazdakizmda ham dunyoni tushunish negizida bir-biriga qarama-qarshi ikki kuch: yaxshilik va yomonlik, yorug‘lik va zulmat kurashi yotadi deb qaraladi. Bu kurashda yaxshilik yomonlik ustidan, yorug‘lik zulmat ustidan g‘alaba qiladi, deb ishonch bildiriladi. Mazdakning aytishicha, yomonlik va zulmat kuchlari hukmronlik qilar ekan, kishilar ularga nisbatan befarq bo‘lishlari kerak emas, balki yaxshilik kuchlariga yordam berishlari kerak.

Mazdakning fikriga ko‘ra, ijtimoiy tengsizlik kishilar o‘rtasida ziqnalik, o‘g‘rilik, yomonlik, makkorlik, shafqatsizlik, urushlar, turli-tuman falokat va baxtsizliklar kabi illatlarni keltirib chiqaradi. SHu boisdan bunday yovuzliklarni keltirib chiqaruvchi asosning o‘zini tugatish kerak, deb hisoblaydi. Alloh hammaga mol-mulkni teng bo‘lib bergan, ammo boylar xudbinlik yo‘llariga o‘tib (o‘zim bo‘lay), barcha boylikni o‘ziniki qilib olish yo‘liga o‘tgan. Kambag‘allar ham mol-mulkka egalik qilish huquqiga ega, shuning uchun boy-badavlat kishilar mol-mulkining bir qismini ular o‘rtasida taqsimlab berish, boylar bilan qashshoqlarni tenglashtirish odilona ish bo‘ladi degan g‘oya ilgari suriladi. Albatta Mazdakning bunday qarashlari hukmron tabaqa manfaatlariga zid edi. Mana shuning uchun ham Mazdak va uning tarafdorlari ta’qib ostiga olindi va ular shafqatsizlarcha jazolandilar.

Mazdakizm ma’naviy-ahloqiy ta’limotida ham xuddi Zardushtiylik ta’limotidagi kabi hayvonlarga nisbatan shafqatsizlik qilish, urish man etiladi.

Xulosa shuki, Moniylik va mazdakizm Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy yuksalishida, ayniqsa ularning adolatsizlik, zulm, zo‘rlik, shafqatsizlikka qarshi kurashishga o‘z ta’sirini o‘tkazgan.

Mavzu oxirida inson ma’naviyligi mezonlari va me’yorlari haqida “Avesto”dan namunalar keltirishni ma’qul ko‘rdik, zero uni o‘qigan yoshlar uchun foyda va ibratdan holi emas.

Mol-dunyoga hirs qo‘yma, ochko‘z bo‘lma. Dunyo(boylikka) xirs qo‘yish dunyo lazzatlarini bemaza, behalovat qiladi. Samoviy abadiy lazzatlardan mahrum etadi.

G‘azabdan o‘zingni asra, chunki g‘azab tufayli inson o‘z ishlarini, ezgu maqsadlarini unutadi... halol mehnatdan qoladi. G‘azab tufayli hayotda halovat yo‘qoladi,safo o‘ladi.

Uyquga ruju qo‘yma, savob ishdan qolasan.

Sergaplik gunohlarni ko‘paytiradi. Kamsuxanlik ezguliklarni ko‘paytiradi. CHunki kamsuxanlik fikrlab so‘zlashga imkon beradi.

Tirishqoq bo‘l, topganing bilan tirikchilik qil. Ortganini ehson qil, u ezgu ishlar orasida eng ulug‘i va zaruri.

O‘zgalar molini olma, aks holda o‘zingnikini yo‘qotasan.

Zino, o‘zgalar xotiniga qarash boyligingni,taningni, qalbing va ruhingni g‘arot qiladi.

Qasd qidiruvchi odamdan yiroq bo‘l, ochko‘z bilan hamkorlik qilma, unga ayniqsa hokimiyat berma.

Xotin olsang olijanob, xushodob, oqila qizga uylan.

Mast bilan hamroh bo‘lma, nokasdan qarz olma.

Ilm o‘rganish, ilohiy haqiqatlarni bilish... yo‘lida tirishqoq bo‘l, chunki bu aqlingni, ruhingni o‘stiradi, qalbing va ruhingni savobga doxil qilib, gunohdan asraydi.
Savob ish yaxshi niyatdan boshlanadi. Haqgo‘ylik adolat uchun zamindir. YOlg‘on so‘zdan adolatsizlik tug‘iladi..
Ezgu ishni boshlash uchun dadillik kerak. Dadil bo‘lish uchun ishingni haqligiga ishonch kerak.
Boringga qanoat va shukur lozim. Borni halol ko‘paytirish esa mehnat bilan.
O‘z ruhing bilan ziddiyatga tushmaslikning birdan-bir yo‘li foydali mehnat, mehnatdan ruhan qanoat olishdir.
Sog‘liq uchun muhim shart me’yorida tanovul qilish. Tanni mehnatda tutish. G‘amgin bo‘lmaslik uchun qanoatli bo‘lish lozim.
Oqil hukmdorning ishini quvvatlash fuqaroning farzidir. Hukmdor yaxshini yomondan ajrata bilishi adolat uchun muhimdir, yaxshini e’zozlash, yomonni jazolash adolat mezonidir.
Ezgu ishni ko‘z-ko‘z qilma. Maqtanchoqlik qilma. Erdagi hayotingni bezashga urinma. Kamtarona yashash xudoga ma’quldir.
Amalu martabaga ishonma. Oxiri amalsiz, martabasiz qolasan. Erdagi hurmat-izzat aldamchi. Samodagisini yaratish uchun ezgu ishlaringni ko‘paytir. Ezgu hayot kechirgan inson ruhi jannat bihishtga loyiqdir.[95]
Bu keltirilgan dono fikrlar bugun ham o‘zining ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Ular barkamol insonni tarbiyalashda ma’naviyatimizni boyitishda muhim manba vazifasini bajaradi.

**Amir Temur buyuk davlat arbobi va yuksak ma’naviyat sohibi**

Amir Temur – buyuk shaxs, kuragi erga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, talantli me’mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga el-yurtini, xalqini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan xalqimiz farzandi. Amir Temurning tarixi ko‘p jildlik kitoblar yozishga arziydi.Mustaqillikka erishgunimizga qadar buni amalga oshirish imkoniga ega emas edik. CHunki kommunistik g‘oya bunga yo‘l bermadi. Amir Temurning o‘zi tahqirlanib tuhmatu malomatlarga qoldi.
SHukrlar bo‘lsinki, mustaqillik tufayli ko‘p ming yillik boy tariximizni, shu jumladan ulug‘ bobomiz Amir Temurni o‘rganish imkoniga ega bo‘ldik.
Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida SHahrisabzning Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tavallud topdi. Temurning yoshligi va yigitlik yillari mamlakat og‘ir ijtimoiy-siyosiy buhron iskanjasiga tushib qolgan bir davrda kechdi.
Uzoq va mashaqqatli kurashlardan so‘ng Amir Temur o‘z raqiblarini engib, hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Mayda, tarqoq feodallarni birlashtirib, markazlashgan davlat bunyod etdi, mamlakatda iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar qildi.
Amir Temurning tarix oldidagi xizmati benihoyat katta. Birinchidan u mamlakatda yuqorida aytganimizdek kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib, el-yurtni o‘z tug‘i ostiga birlashtira oldi, mo‘g‘ullar zulmiga barham berib, markazlashgan yirik feodal davlatni barpo etdi. Bu bilan hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratib berdi. Bugun “Temur va Temuriylar madaniyati”, “Temuriylar davlati”, “Ulug‘bek va astronomiya maktabi”, “Navoiy” va “Bobur” kabi qutlug‘ so‘zlarni nafaqat o‘zbekning, balki jahon xalqlari asarlari sahifalarida uchratar ekanmiz, bu gaplarning zaminida albatta Amir Temurning ulkan xizmatlari yotadi. Ikkinchidan, Amir Temur, o‘zi bilibmi-bilmasdanmi, lekin bir qator xalqlar va yurtlarni mustamlakachilar zulmidan ozod bo‘lishiga yordam berdi. Masalan, o‘sha davrning eng qudratli hukmdorlaridan hisoblangan Boyazid Yildirimni tor-mor keltirib, Bolqon yarim oroli va Evropa xalqlariga ozodlik bag‘ishladi; Oltin O‘rda xoni To‘xtamishni ikki marta tor-mor etib, Rossiyani mo‘g‘ullar hukmronligidan qutulishini tezlashtirdi. Uchinchidan, Turkiston zaminini ziroatchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg‘or mamlakatga aylantirdi.

[95] Мазкур намуналар Мирсодиқ Исҳоқов томонидан “Мозийдан садо” рукни остида тайёрланган “Эзгу ўй, эзгу сўз, эзгу амал” китобидан олинди. Тошкент, 2001, 19-22-бетлар.

Amir Temur zamonida yozilgan asarlarni qunt bilan oʻqisak, oʻrgansak, uning koʻp yaxshi xislatlari: toʻgʻrilik, muruvvatlilik, adolatparvarlik, el-yurtiga mehr-muhabbat, bunyodkorlik va boshqalarni bilib olishimiz mumkin.
Amir Temurda Vatanni sevish, xalqini ulugʻlash, ulardan fahrlanish va gʻururlanish singari oliy maʼnaviy fazilatlar barq urib turgan.
Amir Temurning "Temur tuzuklari", Nizomiddin SHomiy, SHarafiddin Ali YAzdiylarning "Zafarnoma"lari, Ibn Arabshohning "Temur haqidagi habarlarda taqdir ajoyibotlari" va boshqa asarlarda keltirilgan sohibqironning ibratli ishlari, pand-nasihatlari va oʻgitlaridan ham uning kimligini bilib olsa boʻladi. Bular el-yurt va fuqarolarning tashvishi, raiyatparvarlik, mehr-muruvvat, qoʻshnichilikka rioya qilish va nihoyat, mardlik va qahramonlik haqidagi oʻgitlardir
Sohibqironning bunyodkorlik sohasidagi tarixiy xizmatlari beqiyos. Amir Temur va uning avlodlari saʼyi-harakatlari bilan qurilgan madrasalar, masjidlar, xonaqohlar, saroylar, bozorlar, qalʼalar, kanallar yoʻl va koʻpriklar va boshqa inshootlarning son-sanogʻi yoʻq. Amir Temurning bevosita rahnamoligida bunyod etilgan Bibixonim jomeʼ masjidi, Goʻri Amir, Ahmad YAssaviy, Zangi ota maqbaralari, Oqsaroy va SHohi Zinda meʼmoriy moʻʼjizalari, Bogʻi CHinor, Bogʻi Dilkusho, Bogʻi Behisht, Bogʻi Baland singari oʻnlab goʻzal saroy-bogʻlar va shu kabi boshqa inshootlar shular jumlasiga kiradi.
Tarixchi SHarofiddin Ali YAzdiyning guvohlik berishicha, Amir Temur "Obodonlikka yaraydigan biror qarich erning ham zoe boʻlishini ravo koʻrmasdi".
Tarix bu qoʻhna dunyoda juda koʻp jahongirlarni koʻrgan. Amir Temurning ulardan farqi shundaki, u umr boʻyi bunyodkorlik bilan mashgʻul boʻlgan. Uning "Qay bir joydan bir gʻisht olsam, oʻrniga oʻn gʻisht qoʻydirdim, bir daraxt kestirsam, oʻrniga oʻnta koʻchat ektirdim", degan soʻzlari bunyodkorlik, yaratuvchanlik faoliyatining tasdigʻidir. "Agar bizning qudratimizni bilmoqchi boʻlsangiz, qurgan binolarimizga boqing" deganda Amir Temur, avvalo oʻz halqiga, kelajak avlodlariga murojaat qilgan, desak yanglishmaymiz.
Har qanday jamiyat taraqqiyotini ilm-maʼrifatsiz tasavvur qilib boʻlmaydi. Buni teran anglagan sohibqiron hokimiyatga kelishi bilan chiqargan dastlabki farmonlarini madrasalar barpo etishga, ilm toliblariga nafaqalar tayinlash bilan boshlagan. Qaysi bir shaharga tashrif buyurmasin Amir Temur avvalo oʻsha erlik olimu fozillar bilan uchrashar, ular bilan suhbat qurar, turli mavzularda bahslashar edi.
Tarix, tibbiyot, matematika, astronomiya, meʼmorchilik sohalarida yuksak salohiyatga ega Amir Temur uchun bu tabiiy hol edi. Mazkur fazilat sohibqironning nabirasi Mirzo Ulugʻbekka oʻtgani shubhasiz. Mirzo Ulugʻbekning davlat arbobi boʻlish bilan birga buyuk olim darajasiga etishishida bobosi Amir Temurning xizmati benihoya katta boʻlgan. U Ulugʻbekdagi noyob qobiliyatni boshdanoq payqab, safarlarda ham yonida olib yurib, dunyoning mashhur olimlari tarbiyasidan bahramand etgan.
Amir Temur maʼnaviyatini belgilovchi bosh mezon uning butun umr boʻyi amal qilgan "Kuch - adolatda!" degan shioridir. Bu shiorda Amir Temur hayoti va faoliyatining butun mazmuni mujassamlashgan, desak yanglishmaymiz. Amir Temurning maʼnaviy va maʼrifiy qarashlari uning oʻz farzandlari, nabiralari, taxt vorislariga qoldirgan oʻgitlari "Temur tuzuklari"da mujassamlashgan. Bu bebaho tarixiy asarda, hokimlar va vazirlarning vazifalari, oʻz ishiga munosabati, aholi turli qatlami – raiyatning haq-huquqini himoya qilish, sipohlarga munosabat kabi hayotiy maʼnaviy-ahloqiy qonun-qoidalar oʻz ifodasini topgan.
Sohibqironning "Temur tuzuklari"dan quyidagi satlarni mamnuniyat bilan oʻqish mumkin:
"YUz ming otliq askar qila olmagan ishni bir toʻgʻri tadbir biln amalga oshirish mumkin".
"Zolimlardan mazlumlar haqqini oldim. Zolimlar etkazgan ashyoviy va jismoniy zararlarni isbotlaganimdan keyin, ularni shariatga muvofiq odamlar oʻrtasida muhokama qildim va bir gunohkorning oʻrniga boshqasiga jabr-zulm oʻtkazmadim".
"Kimki birovning molini zoʻrlik bilan tortib olgan boʻlsa, mazlumning molini zolimdan qaytarib olib, egasiga topshirsinlar. Agar kimda-kim tish sindirsa, koʻzini koʻr qilsa, quloq va burun kessa, sharob ichsa, zino qilsa, devondagi shariat qozisi yoki ahdos qozisiga olib borib topshirsinlar".

Quyidagi tuzuklarda Amir Temurning kechirimli hislatlari namoyon boʻlgan. Buni u boshqalardan ham talab qilgan. Kechirimli boʻlish inson uchun eng yaxshi fazilat deb bilgan.

“Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir koʻtarib, ishimga koʻp ziyon etkazganlarni ham, iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan oʻchirdim. Martabalarini oshirdim. Ular bilan muomalada shunday yoʻl tutdimki, agar xotiralarida menga nisbatan shubhayu qoʻrquv boʻlsa, unut boʻlardi”.

“Menga hasad qilib oʻldirishga qasd qilgan kishilarga shunchalik sovgʻa-in’omlar berib, muruvvatu ehson koʻrsatdimki, bu yaxshiliklarni koʻrib, hijolat teriga gʻarq boʻldilar. Hamisha meni roziligimni olib ish tutgan doʻstlarim oldimga panoh tilab kelganlarida, ularni oʻzimning taxtu davlatimga sherik qilib, hech qachon ulardan mol-mulk va tirikchilik ashyolarini ayamadim”.

“Hech kimdan oʻch olish payida boʻlmadim. Tuzimni totib, menga yomonlik qilganlarni Parvardigori olamga topshirdim...”

“Agar dushmaning bosh urib panohingga kelsa, rahm qilib yaxshilik va muruvvat koʻrsat”.

Amir Temur lafzi halolligi, pokligi va samimiyligi bilan ham shuhrat qozongan.

Amir Temurning doʻstlik haqidagi pandu-nasihatlari ham hali-hanuz biz uchun ibratdir.

“Sodiq va vafodor doʻst ulkim, oʻz doʻstidan ranjimaydi, doʻstining dushmanini oʻz dushmani deb biladi. Agar kerak boʻlsa, doʻsti uchun jonini ham ayamaydi”.

Amir Temurning umr boʻyi obodonchilik, qurilish ishlariga katta ahamiyat berganligi, kambagʻalparvarligini uning quyidagi oʻgitlaridan ham bilib olish mumkin:

“Kimki biron sahroni obod qilsa,yoki koriz qursa yo biror bogʻ koʻkartirsa, yohud bir xarob boʻlib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, uchinchi yili qonun-qoidaga muvofiq xiroj yigʻsinlar”.

“Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsinlar, faqiru miskinlarga langarxona solsinlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsinlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasinlar”.

Amir Temur oʻzi barpo etgan davlatni milliy, islomiy, ahloqiy qadriyatlarga tayanib idora qildi. Bu esa jamiyatni adolat, insonparvarlik mezonlari asosida boshqarishga, mamlakatda osoyishtalik, tinchlik, totuvlik saqlanib turishiga olib keldi.Temurning yuksak ma’naviy-ahloqiy fazilatlari ham ulkan imperiyani yaratish, uni rivojlantirish, jahondagi eng qudratli davlatlardan biriga aylanishiga asos boʻlgan ma’naviy omildir. Temur oʻz qoʻli ostidagi rahbar va sarkardalardan ham ahloqli, odobli boʻlishni talab qildi. U oʻzining “Tuzuk”larida rahbarlarning ahloqliligi, adolatliligi jamiyat, davlat va millat uchun qanday katta ahamiyatga ega ekanini koʻrsatib, quyidagi vazifalarni belgilagan: “Sulton har narsada adolatpesha boʻlsin, qoshida insofli, adolatli vazirlarni saqlasin, toki podsho zulm qilgudek boʻlsa, odil vazir uning chorasini topsin. Agarda vazir zolim boʻlsa, koʻp vaqt oʻtmay saltanat uyi qulaydi”.[96]

Amir Temur jamiyatni boshqarishda ahloq-odob mezonlariga amal qilgan. Ota-bobolarimiz kabi Amir Temur ham oʻz xalqinigina emas, balki bosib olgan mamlakatlarning xalqlariga ham muayyan ahloqiy qadriyatlarga tayanib, chegaradan chiqmagan holda muomalada boʻlgan. CHunonchi, Amir Temur oʻzining “Kuch adolatda”, degan gʻoyasiga boshqa xalqlar, mamlakatlar bilan boʻlgan munosabatlarda ham toʻla amal qilgan. YUksak ma’naviy qadriyatlarga tayangan bu adolat Amir Temurning quyidagi soʻzlarida oʻz ifodasini topgan: “Qaysi mamlakatni zabt etgan yoki qoʻshib olgan boʻlsam, oʻsha erning obroʻ-e’tiborli kishilarini aziz tutdim; Sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyihiga ta’zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurgʻol vazifalar berib, maoshlarini belgiladim; oʻsha yurtlarning ulugʻlrini ogʻa-inilarimdek, yoshlari va bolalarini boʻlsa, oʻz farzandlarimdek koʻrdim”.[97]

SHunday qilib Amir Temurning davlat, jamiyat, el-ulusni toʻgʻri, odilona boshqarishiga asos boʻlgan ma’naviy-ahloqiy fazilatlari quyidagilardan iborat boʻlganligini koʻrishimiz mumkin: aqli raso, xushyor kishilar bilan bamaslahat ish yuritish, ishbilarmon, tadbirkor, mard, shijoatli, xushyor kishilarni qadrlash, odamlarga rahm-shafqatli boʻlish, odamlarni rozi qilish, yomonlik

---

[96] Темур тузуклари. Тошкент, “Наврўз” нашриёти, 1992 йил, 23-бет.

[97] Амир Темур ўгитлари. 36-бет.

qilib keyin tavba qilganlarni kechirish, gina va adovat saqlamaslik, jasur va shijoatli kishilarni do'st tutish, hech kimga g'azab bilan muomala qilmaslik, ulug'larni og'a qatorida, kichiklarni farzand qatorida ko'rish, xalqqa zulm qilgan kishilarni kechirmay jazolash, olimu fozillar ijodiga yo'l ochish, sarmoyasiz qolgan savdogarlarga, dehqonchilik qilishga qurbi etmay qolgan kishilarga yordam berish, har kimning so'ziga quloq solish, diqqat bilan tinglash va o'z aqli bilan xulosa chiqarish, ig'vogar va tuhmatchilarning so'zlariga quloq solmaslik, odamlarga yumshoq, muloyim muomala qilish, zarur bo'lib qolsa, qat'iy choralar ko'rish, mehnatsevar, hayr-ehsonli kishilarni qo'llab quvvatlash va boshqalar.

Amir Temurning doimo aql-idrok, adolat va yuksak ma'naviyat asosida yashashga da'vat etgan ma'naviy-axloqiy fazilatlari sohibqiron bobomiz umrining ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Amir Temur o'z farzandlariga qoldirgan vasiyatida xalqning, jamiyatning ma'naviy-ahloqiy kamolotini davlat barqarorligi va rivojlanishining asosiy omillaridan biri deb bayon qilgan. Uning quyidagi so'zlari asrlar osha xalqimizning asl farzandlarini el-yurt, Vatan, millat haqida qayg'urishga chorlab keldi: “Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo'lsin. Men kabi uzun saltanat surmoq istasangiz, qilichingizni yaxshi o'ylab chekingiz. Bir daf'a chekkaningizdan keyin uni ustalik-la qo'llangiz. Orangizda nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling”.[98] Bu jumlalarda Amir Temur ma'naviyati jamul-jam bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Uning o'z tuzuklarida aytgan so'zlari bugungi kunda ham ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon.

Temur tarixda qoldirgan yaxshi nom, u tayangan, targ'ib etgan ahloqiy qoidalar, odoblilik mezonlari biz avlodlarga buyuk ma'naviy merosdir.Donishmandlar tarixda yaxshi nom qoldirishni ikkinchi umr deb bekorga aytmaganlar. Temurning ma'naviy-ahloqiy o'gitlari hozir ham bizga dasturul amal bo'lib kelayotgani sohibqironning ikkinchi umridir.

Buyuk sohibqiron mafkurasining asosiy mohiyatini tashkil etgan – “Millat dardiga darmon” bo'lishga chaqirig'i hozirgi kunda ham suv bilan havodek zarur da'vatdir.

Tarix tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoda ikki kuch – bunyodkorlik va buzg'unchilik g'oyalari hamisha o'zaro kurashadi. Bunyodkor g'oya insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanoat bag'ishlaydi.Sohibqiron Amir Temurning parokanda yurtni birlashtirish, markazlashgan davlat barpo etish, mamlakatni obod qilish borasidagi ibratli faoliyatiga ana shunday ezgu g'oyalar asos bo'lgan.[99]

Amir Temur ma'naviyati va ma'rifati haqidagi fikrimizni Prezidentimizning sohibqiron haqida aytgan quyidagi so'zlari bilan yakunlashni lozim topdik: “...tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo'lgan bu mumtoz siymo buyuk saltanat barpo etib, davlatchilik borasida o'zidan ham amaliy, ham nazariy meros qoldirdi, ilmu fan, madaniyat, bunyodkorlik, din va ma'naviyat rivojiga keng yo'l ochdi.[100]

## Temuriylar sulolasi davrida ma'naviyat va ma'rifat rivoji

Temur va Temuriylar davri, umuman SHarq, xususan Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ilm-fani, madaniyati, ma'naviyati, adabiyot va san'ati rivojida muhim bosqich, yangi tarixiy davr, tub burilishdir. Bu davrni hozirgi davr ilm-fanida Markaziy Osiyoda so'nggi Renessans (Uyg'onish) davri deb ham yuritadilar.

Butun dunyoga nomlari mashhur tarixchilar SHarafiddin Ali YAzdiy, Mirxond, Xondamir, Davlatshoh Samarqandiy; olimlar – Ulug'bek, Ali Qushchi, Qozizoda Rumiy; faylasuf shoirlar – Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy, musavvirlar – Kamoliddin Behzod, Qosim Ali, Mirak Naqqosh, hattotlar: Sulton Ali Mashhadiy, Sulton Muhammad Xandon, Muhammad bin Nur va boshqalar mana shu davrda yashab ijod qildilar. Ularning hammasi o'sha davr va o'zlarigacha bo'lgan insoniyat ma'naviyati, ma'rifati va madaniyati yutug'ining barcha sohalarini mukammal bilib va o'zlashtirib olgan, o'zlari tanlagan sohalarning

[98] Юқорида келтирилган ўгитлар “Амир Темур ўгитлари” тўплмидан келтирилди. “Наврўз”, Тошкент, 1992.
[99] Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2000. 10-бет.
[100] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 44-45- бетлар.

hali hech kim tomonidan zabt etilmagan cho‘qqilarini egallagan ulug‘ siymolar, qomusiy ilm, aql egalari bo‘lganlar.

SHuning uchun ham ularning boy, serqirra ijodlri, tengi yo‘q va takrorlanmas ilmiy-falsafiy, badiiy, tarixiy asarlari asrlardan asrlarga, davrlardan davrlarga eson-omon o‘tib, barcha alg‘ov-dalg‘ovlarga bardosh berib bizlargacha etib keldi.

Kamoliddin Behzod va uning shogirdlari ijodida yuksak bosqichga ko‘tarilgan musavvirlik san’ati SHarq uyg‘onish davrining yutuqlaridan biridir. Behzod o‘zining takrorlanmas ijodi, go‘zal miniatyura san’ati va ajoyib mahorati bilan nafaqat SHarqda, balki butun dunyoda ham o‘chmas iz qoldirgandir. “Ikkinchi Moniy”, “SHarq Rafaeli” deb yuksak darajada e’zozlangan. Behzod mashhur so‘z san’atkorlari – Jomiy, Husayn Boyqaro, SHayboniyxon va boshqalarning siymolarini yaratgan yuksak ma’naviyat egasidir.

Temuriylar davri ilm-fani, madaniyati, ma’rifati rivoji Mirzo Ulug‘bek (1394-1449)ning nomi bilan chambarchas bog‘lanib ketgan.U davlat arbobi, fan, ma’rifat homiysi, buyuk olim va munajjim.

U o‘zi bunyod ettirgan rasadxona va ilm-ma’rifat markaziga turli sohalarda ish olib boruvchi 100 dan ortiq ilm ahllarini to‘plab, keng jabhada ilmiy kuzatish ishlarini olib borgan. Bular Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid, Ali Qushchi, Mavlono Ahmad, Muhammad Havofiy Abul Ali Birjondiy, Mirim CHalabiy, Muiniddin Koshiy kabi zamonaning zabardast olimlari bo‘lgan.

Mirzo Ulug‘bek shu asosda Samarqandda “Samarqand akademiyasi”ga asos solgan edi. “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” (“Ko‘ragoniyning yangi astronomik jadvali”) va “To‘rt ulus tarixi” nomli asarlarning muallifidir.

Tarixchi olim Davlatshoh Samarqandiyning yozishicha, “Ulug‘bek geometriya borasida Evklidga, astronomiya sohasida Ptolomeyga o‘xshardi”.

Mirzo Ulug‘bek fan homiysi bo‘lishi bilan birga, mamlakatda ma’naviyat va ma’rifat rivojiga ham katta ahamiyat bergan allomadir. U qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi- tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatdi. Ulug‘bek Movarounnahrda bir emas uch madrasa qurdirdi. Bulardan biri Samarqandda (1417-1420); ikkinchisi Buxoroda (1417) va uchinchisi G‘ijduvonda (1433)dir. Hatto Buxorodagi madrasa peshtoqiga hadisdan: “Ilm olish har bir mo‘min va muslima uchun farzdir”, - deb yozdirib qo‘ydi.

Ulug‘bek ko‘proq buyuk olim, ilm-fan, ma’rifat homiysi bo‘lgani uchun ham yanada qadrlidir. U geometriya, matematika, astronomiya, tarix, adabiyot, mantiq, musiqa ilmlarini bilgan. Qur’on, hadis va fiqh ilmlaridan ham yaxshi xabardor bo‘lgan allomadir. XV asrda aniq fanlarning, xususan astronomiyaning rivojida Ulug‘bekning xizmatlari beqiyosdir.

Ulug‘bek o‘zidagi ilmni egallashga bo‘lgan intilish va fazilatlarni mamlakatda ilm-fanni ravnaq topishiga yo‘naltirib madrasalarda o‘qish-o‘qitish tizimini jonlantirishga katta hissa qo‘shdi. CHunonchi, madrasalardagi o‘quv tizimini isloh qilib, ularda astronomiya, geografiya kabi aniq fanlarni o‘qitishni joriy etdi, ta’lim mazmunining sifatini oshirdi, madrasalarda o‘qish muddatini 15-20 yildan 8 yilga qisqartirdi.

Mutafakkir yosh avlodning tabiat haqidagi bilimlarni egallashi zarurligini alohida ta’kidlaydi. Uning uqtirishicha, fan, madaniyat, umuman ma’naviyat va ma’rifatning rivojlanishi bilan yurtda haqiqat barqarorlashadi. Ulug‘bek el-yurtning tinch-osoyishta bo‘lishi uchun odamlar o‘rtasida do‘stlik va birodarlik, samimiyat va adolat barqaror bo‘lishi zarurligini aytadi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Ulug‘bekning hayoti va ilmiy faoliyati xalqimiz ma’naviyatining poydevoriga qo‘yilgan tamal toshlaridan biri bo‘lib, yurtimizda bundan necha zamonlar oldin fundamental fanlarni rivojlantirishga qanchalik katta ahamiyat berilganini ko‘rsatadi.[101] Uning dahosi bugun ham insoniyat ma’naviyati va ma’rifati rivoji uchun xizmat qilmoqda.

Temuriylar davri ma’naviyati va ma’rifati rivoji o‘zlarining ongli hayoti va faoliyatini insonning baxt-saodati, xalqlar osoyishtaligi, obodonlik ishlari, ilm-fan, adabiyot va san’at rivojiga

[101] Қаранг:Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 46- бет

bag‘ishlagan ikki buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy (1414-1492) va Mir Alisher Navoiy (1441-1501)larning nomi bilan chambarchas bog‘liqdir.
Abdurahmon Jomiy Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy olamida, badiiy tafakkur osmonida yorqin nur sochib, o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirlardan biridir.
Abdurahmon Jomiy temuriylar davri dunyoqarashi, mafkurasi, bo‘lmish naqshbandiychilikka ixlos qo‘ygan, uni qabul qilgan, o‘zi shu yo‘ldan borgan va uning g‘oyalarini targ‘ib etgan. Naqshbandiychilik adolatni, o‘z mehnati asosida bunyod etilgan halol luqmani ma’qullagan, dabdabali hayotni rad etgan, harom yo‘llar bilan mol-mulk to‘plashni qoralagan. Jomiy e’tiqod qilgan bu ta’limot insonparvarlik, rostgo‘ylik, halollik, mehnatsevarlik, ma’naviy poklik, kamtarlik, samimiylik kabi chin insoniy fazilatlarni ulug‘lagan. Uning “Dil ba yoru, dast ba kor” – “Ko‘ngil Allohdayu, qo‘l mehnatda” shiori Jomiy va Navoiy kabi mutafakkirlarni o‘ziga jalb etgan. SHu sababli bu ikki ulug‘ siymo, so‘z san’atkorlari naqshbandiychilik yo‘lini qabul qilganlar va o‘z ijodlarida uning g‘oyalarini tarannum etganlar.
Abdurahmon Jomiy “Xiradnomai Iskandar (“Iskandar aqlnomasi”) asarida el-ulus dardi bilan yashovchi, uning arzu-dodiga quloq tutuvchi hukmdor siymosini yaratadi. Hukmdor adolatli va odil bo‘lishi lozim deb, odillik va adolatni nurga o‘xshatadi.
Agar chiqsa adolatning quyoshi,
Taralgay har tomon nuri ziyosi.
Agar zulm etsa zolim, bu sitamdan
Jahon bo‘lgay qaro, yo‘q intihosi,-deb xitob qiladi.
Jomiy el-ulusga, insonga yaxshilik qilish, ularga nisbatan muruvvat ko‘rsatish inson nomini ulug‘laydi, deb shohlarni, hukmdorlarni shunga chaqiradi:
Ey toju muhrga ko‘ngil bog‘lagan
Qachongacha toju muhr qoladi?
Mulku boylik bari ketadi bir kun
Na zamon, na zamin, na nahr qoladi.
Qo‘lingdan kelgancha yaxshilik qilg‘il
Jahonda senga shul mehr qoladi...,-deb yozgan Jomiy nechog‘lik haq ekanligini anglab etmog‘imiz darkor.
Jomiy o‘z asarlarida manmanlik, kekkayish, nodonlik inson uchun ma’naviy qashshoqlik belgisi ekanligini bayon qilar ekan, kishilarni bu illatlardan holi, pok bo‘lishga chaqiradi. To‘g‘ri so‘zlikni inson uchun zaruriy eng yaxshi fazilat deb biladi. Bu haqda uning ijodidan shunday misralarni o‘qishimiz mumkin:
So‘z aytsang rostlikni aytgil odat,
Qidirma rostlikdan yaxshiroq ziynat.
Rostlikdan yaxshiroq ziynatni qachon,
Qayda ko‘rdi ekan biror bilimdon?[102]
Ulug‘ adib o‘z asarlarida hasislikni, o‘g‘rilikni keskin qoralaydi, oqilona yashash, ortiqcha boylikni muhtojlarga berish, qanoatli bo‘lish g‘oyalarini olg‘a suradi. Jomiy deydi:
Harna kirsa qimmatli mard qo‘liga,
Sochar do‘stlar oyog‘iga barchasin,
O‘zi o‘lgach, dushmanlari bo‘lishar,
Hasis kishi terib yiqqan narsasin.[103]
Jomiy ilm-ma’rifatni inson uchun hayotiga yo‘l ochuvchi va uni o‘z maqsadiga erishtiruvchi omil deb biladi. Ilm va hunarni inson yoshlikdan egallashi lozim, u uning mehnatini engillashtiradi, halol yashash, kun ko‘rish manbai deb biladi. Kishilarni ilmlarni egallashga da’vat etdi:
Eng zarur bilimni qunt bilan o‘rgan,
Zarur bo‘lmaganin axtarib yurma.
Zarurini hosil qilgandan keyin,

[102] Ҳикматлар гулдастаси. Тошкент. “Ғ.Ғулом”, 1982, 25-бет.
[103] Абдураҳмон Жомий. Баҳористон. Тошкент, “Ёш гвардия”, 1979, 13-бет.

Unga amal qilmay umr o‘tkurma.[104]
Mutafakkirning mehnat haqidagi qarashlari ham diqqatga sazovor bo‘lib, mehnatni insonga baxtli, farovon hayot baxsh etuvchi vosita hisoblaydi. Har bir inson o‘z halol mehnati bilan yashamog‘i lozimligi, shundagina u tinch, osuda va baxtli yashashga erisha olishini ta’kidlaydi:
O‘z mehnating bo‘lsin doim yo‘ldoshing,
O‘zga minnatidan og‘ritma boshing.
Jomiy asarlarida inson ma’naviyatining muhim qirrasi bo‘lgan do‘stlik, do‘stiga sadoqatli bo‘lish haqida hamma uchun ibrat bo‘ladigan g‘oyalarni ilgari surganligi e’tiborga sazovordir.
Dil agar nogahon g‘amga uchrasang,
G‘amxo‘r do‘sting bo‘lsa, u g‘am emasdir.
Kulfat kuni sodiq do‘stlaring kerak,
Baxtli kunda do‘stlar hech kam emasdir.[105]

CHin do‘st ul – do‘stligi oshaversa gar,
Do‘stidan yomonlik ko‘rganida ham,
Boshiga ming jafo toshi yog‘ilsa,
Mehr uyi u toshdan bo‘lur mustahkam.[106]

SHunday qilib, Jomiy ilgari surgan insoniylik, ilmlarni egallash, hunar va kasbning ahamiyati, mehnat va mehnatsevarlik, himmatlilik, kamtarlik, to‘g‘rilik, do‘stlik kabi g‘oyalari bugungi kunda ham yoshlarni ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.
O‘zbek xalqining buyuk farzandi, mutafakkir, davlat arbobi, o‘zbek adabiyoti va tilining asoschisi Alisher Navoiy Markaziy Osiyoning ma’naviy va ma’rifiy fikr taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi. U adabiyot, san’atning turli sohalariga oid qirqdan ortiq asar yaratdi. “CHor devon”, “Xamsa”, “Mahbubul-qulub”, “Muhokamatul-lug‘atayn”, “Majolisun-nafois”, “Lisonut-tayr” va boshqalar shular jumlasidandir. Alisher Navoiy mamlakati va xalqiga hech qachon so‘nmaydigan buyuk ma’naviy meros qoldirgan. U xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g‘ururi, sha’nu sharafini dunyoga tarannum etgan o‘lmas so‘z san’atkoridir.
Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham, ko‘ngil bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi, xalq manfaatini o‘ylaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy inson deb biladi.
Odami ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami, - bayti Navoiy ma’naviyati va insonparvarligining markaziy nuqtasi desak, hech yanglishmaymiz. Navoiy butun umri bo‘yicha insonparvarlikni, odamiylikni kuylab, uni ulug‘lagan. Kishilar g‘amida bo‘lish, yaxshilik qilish, muruvvat ko‘rsatish bu buyuk zot hayotining mazmuni bo‘lgan. Uning qabrida mana bu so‘zlar bitib qo‘yilgan: “SHohi g‘aribon”, ya’ni g‘ariblar, yolg‘izlar, faqirlar shohi.
Navoiy sahovat va muruvvatda benazir inson bo‘lgan.O‘zining joylardagi er-suvlari, mol-mulklaridan kelgan daromadlarini to‘laligicha xayriya ishlariga sarflagan..
Birgina Hirot shahrida o‘zining jamg‘armasi hisobidan qanchadan-qancha binolar, inshootlar barpo etgan. Injil kanalining janub tomonida katta tibbiyot o‘quv yurti va shifoxona barpo ettirgan, ularga taniqli tabib va dorishunoslarni jalb etgan. Ixlosiya madrasasi yonida katta saroy qurdirib, undagi mehmonxonada kambag‘al beva-bechoralarni bepul ovqat bilan ta’minlagan. Muhtoj kishilarga har yili ikki ming po‘stin va kiyim-kechak tarqatgan. Bundan tashqari kanal qazdirib, Mashhad shahriga suv keltirgan.
Alisher Navoiy butun umri davomida ma’naviy tubanlashish shaxs uchun ham, jamiyat uchun ham nihoyatda xatarli ekanini ko‘rsatib o‘tgan.Doimo jaholatni, adolatsizliklarni, inson qadr-

[104] Ўша китоб, 15-бет.
[105] Ўша китоб, 13-бет..
[106] Ўша китоб, 9-бет.

qimmatini erga urishni, behuda qon to‘kishlarni yuksak ma’naviylik minbaridan turib qoralab keldi.

Navoiy mansabdorning ma’naviy tubanlashishi qanday yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi haqida quyidagi hikmatli fikrlarni aytgan: “Inson mansab va kattalikni sevishi tabiiydir. Bu ishda nafs ixtiyorsiz va kishining sezgisini egallash bilan shug‘ullanishini talab qiladi; mansabning xosiyati g‘aflatni orttiruvchi va podshohlikning mast qiluvchi iltifoti xush oluvchi va shunday kishiga xalqning ishi ko‘p tushadi. Bunday kishining xushyor bo‘lishi juda og‘ir. Agar u goho aql madadi bilan o‘zini tuta olsa-da, biroq mansab mastligi uni holiga qo‘ymaydi. Haqiqatdan shu mastlik chog‘ida, falakning intiqom oluvchiligi, g‘addorligi va falak Holiqning adolatli hokim ekanligi qachon uning xotiriga keladi? Orttirilgan qudrat va martabaning bahosi yo‘q va umr foydasizdir. Uning yomonliklaridan faqat dushmanlargina kulib qo‘ya qolmay, rasvoligidan do‘stlari ham sharmandadir... Xulosa: nafsi pok va aqli sof kimsa bu mastliklardan o‘zini bexush qilmasin va o‘zini o‘zbilarmonlik va o‘zboshimchalikka solmasin. Zulm ko‘rgan dardmandlarning holiga boqsin”.[107]

Hukmdorlarning xalq bilan munosabatiga asos bo‘ladigan ma’naviy omillar, odob qoidalari ustida to‘xtab quyidagi fikrlarni aytgan: “Kuchsizlar va bo‘ysunuvchilarga shafqat va mehribonlik ko‘rsatsinlar. YOmon holga tushgan va tuban kimsalarning ishlarini marhamat va yumshoq so‘zlar bilan to‘g‘rilasinlar. Qattiq so‘zlar bilan darveshlarning dillarini ranjitmasinlar. Dili yaralarning jarohatiga muloyim so‘zlar bilan malham bo‘lsinlar. Nafs va shayton firibidan xotirjam o‘tirmasinlar, har bir ishda ixlos va rostlikni kasb etsinlar. Podsho davlati, xalq va sipoh ishlarini tuzatish borasidagi to‘g‘ri so‘zdan qo‘rqmasinlar va aytaversinlar. Xudoy saqlasin, g‘ururlik mayi bilan o‘zini mast va behush qilmasinlar. Boshga biror mashaqqat ish tushsa, sabr va chidam panohiga sig‘insinlar. YOshlarga shafqat, tengqurlarga muvaffaqiyat va madora, kattalarga izzat va hurmat ko‘rsatish yo‘llariga rioya qilsinlar”.[108]

Navoiyning mazkur fikrlarida har bir inson faoliyatiga asos bo‘ladigan mukammal ma’naviy qadriyatlar tizimi bayon etilgandir.

Alisher Navoiy odamlarni insofga, sahovatli va adolatli bo‘lishga, bir-birlari bilan ahil bo‘lishga, bir-birlariga yordam berishga, karamli, sahiy bo‘lishga chaqiradi. Sahiylik inson ma’naviyligining asosiy mezonlaridan biri ekanini, uning mohiyati va ahamiyatini tavsiflab quyidagilarni aytgan edi: “Sahiylik kishilar bog‘ining hosildor daraxtidir, balki u daraxtning shirin mevasidir, odamgarchilik o‘lkasining to‘lqinli daryosi, balki u to‘lqinli daryoning asl gavharidir”.

Xondamir Alisher Navoiyning yuksak ahloqiy fazilatlari jumlasiga kamtarlik, hokisorlik, xayr-ehsonlilik,, kambag‘alparvarlik, to‘g‘rilik, odillik, adolatlilik, ma’rifat sohiblariga homiylik qilish, do‘stlikni qadrlash, molu dunyoga, boylikka berilmaslik, oqko‘ngillilik, gina va adovat saqlamaslik, kechirimlilik, vaziyatni hisobga olib ish tutish, shirin so‘zlilik, xalqparvarlik, imonlilik, insoflilik, jabr-zulm ko‘rganlarni himoya qilish, nafs balosiga berilmaslik, rostgo‘ylik va boshqalarni kiritgan.Navoiyning o‘z faoliyati davomida millat va davlat manfaatlariga keltirgan beminnat foydasi haqida shunday yozadi: “Amirlik taxtini, hukumat mansabini o‘zining muborak qadamlari bilan ziynatladi va jabr-jafo raqamlarini davron sahifasidan mahv qilib, adolat va insof eshiklarini insoniyat yuziga ochib qo‘ydi. YAralangan davr jarohatlariga malham qo‘yib, hur olam dahri kasallariga adolat sharbati bilan shifo baxsh etdi”.[109]

Buyuk bobokalonimizning bunday olijanob ma’naviyati o‘tmishdan meros va yuksak ma’naviy qadriyatlarimizdandir. Navoiydek bo‘lish qiyin, ammo unga intilish, ibrat olish lozim.

Navoiyning bundan qariyb 567 yil avval ilgari surgan g‘oyalari asrlar osha ahamiyatini, hayotiyligini yo‘qotgani yo‘q.Uning hayotbaxsh g‘oyalari bugungi kunda Prezidentimiz Islom Karimovning insonparvarlik, xalqlar tinchligi uchun olib borayotgan kurashi bilan hamohang bo‘lib yangramoqda.

[107] Хондамир. “Макоримул-аҳлоқ”. Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1948 йил, 40-41-бетлар.
[108] Ўша асар . 41-бет.
[109] Ўша асар, 43-бет.

YUrtboshimiz Islom Karimov buyuk so‘z san’atkori, o‘zida insoniyatning eng orzu-istaklirin mujassam etgan, o‘zbek xalqining ulug‘ farzandi benazr dahosiga: “Agar bu ulug‘ zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”,[110]-deb yuksak baho bergan.
Xulosa qilib aytganda, Temuriylar davri ilm-fani, ma’rifati, ma’naviyat va madaniyati jahon sivilizatsiyasi rivojiga ulkan hissa bo‘lib qo‘shildi. Bunda ulug‘ bobomiz, davlat arbobi, sarkarda sohibqiron Amir Temurning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Buni hammamiz to‘g‘ri anglamog‘imiz lozim, ul ulug‘ zot ila faxrlanishimiz barchamizning burchimizdir.

## Amir Temur va temuriylar sulolasi davrida yaratilgan ma’naviy merosning o‘zbek xalqining ma’naviy tiklanishida tutgan o‘rni

Milliy mustaqillik tufayli jahon ma’naviyati va ma’rifati sahnida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan piru komil ajdodlarimizni va ular qoldirgan boy ma’naviy-ma’rifiy merosni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash imkoniyati yuzaga keldi. Inchunun, ota-bobolarimiz, xususan buyuk davlat arbobi, ma’rifat homiysi, yuksak ma’naviyat egasi Amir Temur va uninng avlodlari qoldirgan, abadiylikka daxldor merosi bugungi kunda xalqimiz ruhiy-ma’naviy poklanishi va milliy o‘zligini anglashning bitmas-tuganmas chashmasidir.
Biz bugun yashayotgan Mustaqil O‘zbekiston davlatidagi tarixiy shaharlar, go‘zal makonlarning ko‘pchiligi Amir Temur va temuriylar davrida vujudga keldi. Temuriylar davri har sohada chinakam uyg‘onish davri bo‘ldi. 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik qaramlik va tobelik yillarida shunday buyuk zot, dunyoga mashhur davlat arbobi, ulug‘ bunyodkor Amir Temur shaxsiyatining asl mohiyatiga xolis va haqqoniy baho berish imkonidan mahrum bo‘lib yashadik. SHo‘ro tuzumi sohibqiron haqidagi haqiqatni xalqdan yashirib keldi.Bobokalonimiz to‘g‘risida ikki og‘iz iliq so‘z aytilgan barcha manbalar ko‘zdan yashirildi, ta’qiqlandi yoki soxtalashtirildi. Prezident Islom Karimov aytganidek: “Amir Temur nomi tariximiz sahifalaridan qora bo‘yoq bilan o‘chirildi, unutilishga mahkum etildi. Maqsad xalqimizning yuragidan milliy ong, milliy g‘urur tuyg‘usini yo‘qotish, uni qaramlikka, tobelikka ko‘ndirish edi”. YOki Prezidentning yana quyidagi so‘zini eslaylik: “SHo‘ro davrida bizga Amir Temurni bosqinchi, zolim, qonxo‘r jallod, borib turgan johil, deb uqtirib kelishdi... Amir Temur haqidagi bu uydirma – sof siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan tuhmatdan iborat. Bilasizmi, bu ishlarning tagidagi maqsad bitta bo‘lgan: ya’ni, bizning o‘zligimizni, tariximizni unuttirish, bizni manqurtga aylantirish. SHuning uchun ham biz amir Temurning hurmatini joyiga qo‘yar ekanmiz, birinchi galda shu savobli ish orqali xalqimizning, millatimizning izzat-hurmatini joyiga qo‘ygan bo‘lamiz. Buni hech qachon unutmaslik zarur. O‘zligimizni anglashimiz, milliy qadriyatlarimizni tiklashimiz ham qarz, ham farz”.
O‘zbekiston mustaqillikka erishishi bilanoq Prezident Islom Karimov boy mav’naviy merosimiz, dinu iymonimiz, qadriyatlarimiz, shu jumladan ulug‘ bobomiz sohibqiron Amir Temur nomini, u haqdagi tarixiy haqiqatni tiklashga shaxsan rahnamolik qilib kelmoqda. O‘zbekiston mustaqilligi bizga buyuk sohibqironni ham qaytarib bergani bilan alohida qadrlidir. Horijda siymosi yillar davomida teatr sahnalaridan tushmay kelgan, Evropa tillarida 500 dan ziyod, SHarq tillarida esa 900 ga yaqin kitoblar yozilgan, ko‘pdan-ko‘p suratlari ishlangan, qisqasi dunyoga mashhur bo‘lgan ulug‘ zot Amir Temur yana xalqimiz qalbidan munosib o‘rin oldi.
Istiqlolimiz endi kurtak otayotgan davrda Toshkentning qoq markazidagi hiyobonda sohibqironga o‘rnatilgan muhtasham haykal mustaqillik poydevoriga qo‘yilgan oltin g‘isht bo‘ldi.
Oradan sal o‘tib, 1994 yilda Mirzo Ulug‘bek tavalludining 600 yilligi, 1996 yilda esa sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan dunyo miqyosida ulkan tadbirlar o‘tkazildi.Parijdagi YUNESKO qarorgohida o‘tkazilgan yubiley tantanalari jahon miqyosida, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qaroriga ko‘ra”Amir

[110] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 47- бет

Temur” xayriya jamg‘armasi tashkil etildi. Dunyoning taniqli siyosat arboblari, olimlari, yozuvchilari, tarixchilari ishtirokida ilmiy-amliy anjumanlar o‘tkazildi. Prezident farmoni bilan yuksak mukofot – “Amir Temur” ordeni ta’sis etildi. Temuriylar tarixi davlat muzeyining barpo etilishi respublikamiz, xalqimiz hayotida muhim voqea bo‘ldi. YUbiley munosabati bilan Amir Temur va Temuriylar davriga oid ko‘plab tarixiy-ilmiy asarlar, risolalar, albomlar va boshqalar nashr etildi. SHu o‘rinda Amir Temurning o‘zi yaratgan “Temur tuzuklari” risolasini, akademik Bo‘riboy Ahmedovning “Amir Temur” tarixiy romanini, Erkin Azimovning “Amir Temur saltanati” risolasini, A.Oripovning “Sohibqiron” she’riy dramasini, SHarafiddin Ali YAzdiy va Nizomiddin SHomiylarning “Zafarnoma” asarlarini, F.Ashrafiyning “Temuriylar davri miniatyurasi” kabi nashrlarni alohida qayd etish mumkin. Bularning hammasiga mustaqillik tufayli erishdik. YUqorida aytganimizdek, uzoq yillar davomida mustamlaka va qaramlik iskanjasi ostida kun kechirgan xalqimiz Amir Temur kabi o‘z vatandoshini qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o‘ringa qo‘yish imkonidan mahrum edi. Bunga intilgan va bu yo‘lda tirnoq qonatgan olim, faylasuf, tadqiqotchiga millatchi, o‘tmishni ideallashtiruvchi degan tamg‘a bosilar edi. Allohga shukurlar bo‘lsinkim, mustaqillik tufayli bularning hammasiga barham berildi. Mustaqillikning mana shu nurafshon kunlarida yurtimiz uzra Amir Temurning ruhi bizdan rozi bo‘lib kezib yurgan bo‘lsa ne ajab!

“... davlatchiligimiz asoslarini yaratib ketgan Temur bobomiz g‘ayrat-shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, elparvarligi bilan bizga hamisha ibrat namunasi bo‘lib qolg‘usidir. Biz u zoti oliydan hamisha ruhiy madad olamiz”.[111]

Bularning hammasi Prezident Islom Karimov rahnamoligida mustaqillik tufayli o‘zbek xalqining ma’naviy tiklanishi borasida olib borilayotgan keng jabhadagi xayrli ishlardan bir nishona xolos.

Biz Temuriylar davrida yaratilgan bebaho merosdan xalqimizni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksak pog‘onaga ko‘tarishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda, xalqimizning g‘urur va iftixori, milliy o‘zligini yanada yuksaltirishda, ma’naviy barkamol, komil insonlarni tarbiyalab voyaga etkazishda shunchalik qudratli ma’naviy-ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz.

**Jadidchilik harakatining mazmuni va uning umumxalq ma’naviyatini ko‘tarishdagi roli**

Jadidchilik, ma’rifatchilik millatni ma’rifatli qilish, ma’naviyatini yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir. Jadidlar aholini savodli qilmoqchi bo‘lgan oddiy ma’rifatchilar emas. Ular mustamlakachilik davrida Turkistonda hukmron bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy vaziyatni, xalqning ma’naviy holati darajasini yaxshi bilganlar, bu jarayonlarning sabablarini chuqur tahlil eta olganlar.Ular Turkistonning mustaqilligini ta’minlash, mahalliy millatlarni ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun birinchi navbatda xalqning umumiy madaniy-ma’naviy, ma’rifiy saviyasini davr talablari va imkoniyatlariga asoslanib rivojlantirish lozimligini anglab etganlar. Ularning xalq maorifini rivojlantirish, milliy madaniy-ma’naviy merosni tiklash, Evropa xalqlarining madaniyati, tajribsini o‘rganishga chaqirish borasidagi faoliyati ham pirovard natijada mustaqillikka erishish maqsadlari bilan bog‘langan. Jadidlar bilimli, madaniyatli, ma’rifatli, ma’naviyatli millatgina katta tarixiy vazifalarni hal etishga qodir bo‘la olishi mumkinligini chuqur anglab etganlar. Jadidchilik harakatining asosiy mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog‘idan olib chiqibgina mustaqillikka erishish, milliy davlatni barpo etish mumkinligini asoslashdan iborat bo‘lgan.

Ma’rifatchilar, jadidlar millatning ma’naviy kamoloti maqsadlari yo‘lida o‘zining butun kuchi va iste’dodini safarbar etishga tayyor bo‘lgan fidoiy insonlar bo‘lgan.

Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga, bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o‘tishi ma’rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng etuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoiy, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko‘zlovchi ma’naviyatli kishilari ma’rifatparvarlik bilan shug‘ullanadilar. Ma’rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning

---

[111] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Тошкент, “Шарқ”-1998., 15-бет.

buguni va kelajagi uchun muhim g‘oyalarni ilgari suradilar, shu g‘oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar.

Ma’rifat ma’naviy qaramlik, qo‘rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat baxsh etadi. SHuning uchun ozodlik uchun kurashchilar mamlakat, millat ozodligini xalqning ma’rifiy uyg‘oqligida deb biladilar va ma’rifat uchun kurashadilar. Bizning xalqimiz azal-azaldan ma’rifatga intilib yashagan. Bu o‘lkadan dunyo ilmi rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar etishib chiqqan. Ular ham dunyoviy, ham diniy ilmlar sohasida dunyo ilmi ahlini hayratga solganlar.

O‘tmishda ijod etgan alomalarimiz al-Forobiy, al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqalar nafaqat ilm cho‘qqilarini egallab qolmay, uni – ya’ni ma’rifatni keng targ‘ib etganlar, shogirdlarni tarbiyalaganlar.

Turkiston ma’rifatchilik maktabi boy o‘tmish va ulkan merosga ega. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li, Abdulqodir SHakuriy, Ashurali Zohiriy, Saidrasul Saidaziziy, Ishoqxon Ibrat va Ahmad Donishlar XIX asr oxirlarida faoliyat boshlab, mamlakatni, xalqni milliy zulm va qoloqlikdan xalos etishning yagona yo‘li ma’rifatda deb bildilar. Bu fidoiy zotlar mustabid tuzum va jaholatga, ma’naviy qullik va zulm-zo‘ravonlikka qarshi bor kuchlari bilan kurash olib bordilar. Bu ma’rifatparvar bobolarimiz dunyo kezib, dunyo xalqlarining ilmu urfoni, madaniyati bilan tanishib, mustamlaka o‘lkani, uni kishanlarini ilm chirog‘i bilangina ozodlik sari boshlamoq, parchalamoq mumkin ekanini chuqur his etdilar. SHu sababli ham eng avvalo yurtimizda maktab-maorif ishlarini rivojlantirishda ham nazariy, ham amaliy jihatdan azmu shijoat namunasini ko‘rsatdilar.

Ko‘rinadiki, jadidchilik, ma’rifatchilik ham millatni ma’rifatli qilish, ma’naviyatini yuksaltirish maqsadlarida yuzaga kelgan buyuk tarixiy harakatdir.

Turkistonda jadidlar harakatining shakllanishi uch bosqichni o‘z boshidan kechirgan. Birinchi bosqich -1880 yillardan 1905 yilgacha: ikkinchi bosqich-1905 yildan1917 yil Oktyabr to‘ntarishigacha, uchinchi bosqich-1917 yil Oktyabr to‘ntarishidan 30 yillarning oxirigacha bo‘lgan davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu davrlar o‘ziga xos tomonlari va xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Mustabid sovet tuzumi sharoitida jadidchilik harakatiga to‘g‘ri baho berish va uni munosib taqdirlash imkoniyatiga ega emas edik. Aksincha jadidchilik harakatining vakillari millatchilik g‘oyasini targ‘ib qiluvchi pantyurkizm va panislomizm mafkurasi tarafdori deb e’lon qilindi. Ularga “millatchi” degan tamg‘a bosilib qatag‘on qilindilar.

O‘zining bilimi, aql-zakovati, iymon-e’tiqodini, butun hayotini o‘zbek xalqining milliy ozodligi, Vatanimizning milliy mustaqilligi va baxtli kelajagi uchun safarbar etgan jadidlar harakatining g‘oyalari zoe ketmadi. Ular Vatanimizning mustaqilligi tufayli hozirgi kunda to‘la ravishda amalga oshdi, nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Qatag‘onlik qurbonlari muzeyi va shahidlar maydoni tashkil etildi.

Jadid vatanparvar, ma’rifatparvar, fidoyi insonlarning o‘z shaxsiy manfaati, huzur-halovatidan kechib, el-ulus manfaati, yurtimizni taraqqiy toptirish maqsadida amalga oshirgan ezgu ishlari avlodlar xotirasidan aslo o‘chmaydi.

Jadidchilik-yangilanish, yangi usul ma’nosini anglatadi. U yangi zamonaviy maktab, matbaa, milliy taraqqiyot usullari, yo‘llari tarafdorlarining umumiy nomi.

Jadidchilikning asosiy g‘oya va maqsadlari: Turkistonni o‘rta asrchilik, feodal qoloqlik, xurofotlardan ozod qilish, “Usuli qadim”ni inkor etgan holda “Usuli zamon”ni joriy etish orqali o‘lkani, xalqni, millatni zamonaviy taraqqiyot yo‘liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, konstitutsion, parlament va prezident idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish, turkiy tillarga davlat tili maqomini berish, milliy qo‘shin tuzish va boshqalardan iborat.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o‘zbek xalqi tarixida yangi sahifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo‘lganligi bilan ajralib turadi.Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik, taraqqiyparvarlik kabi g‘oyalar etakchilik qilgan. O‘lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo‘yganlar. Jadidlar erk, istiqlolga erishish uchun milliy ongni o‘stirish zarurligini anglab

etdilar. SHu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'ldilar.. Buni esa ta'lim va tarbiyada-ma'rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo'lida hormay-tolmay faoliyat yuritdilar.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bu harakatning tarixiy ahamiyati nihoyatda katta bo'lgan. Bu davrda jamiyatning ma'naviy inqirozi chuqurlashgan bo'lib, milliy madaniyatni ko'tarmay, umuminsoniy qadriyatlardan bahramand bo'lmay ma'rifat, tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'ygan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy taraqqiyotga imkoniyat yaratib bo'lmas edi. Jadidlar, ya'ni ma'rifatchilar millatning ma'naviy kamoloti yo'lida o'zining butun kuchi va iste'dodini safarbar etishga tayyor bo'lgan fidoiylar edi.

Jadidlar millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqish uchun harakat qilar ekanlar, bunda shariatga qat'iy rioya qilish orqali maktab va madrasalarda ta'lim berish tizimini dunyoviy ilmlarni berish asosida isloh qilish g'oyasini ilgari surganlar va bu borada o'zlari amaliy harakat namunasini ko'rsatganlar.

"...ja'miyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch-ma'rifatdir"[112] ekanligini chuqur anglaganlar.

Ma'rifatparvarlik biz uchun bugun ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, yo'qotmaydi ham. Aql-zakovatli, bilimdon, yuksak salohiyatli va yuksak ma'naviyatli kishilarni tarbiyalay olsakkina, oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz, yurtimizda farovonlik va taraqqiyot qaror topadi.

Hozirgi mustaqillik sharoitida ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek "...ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib qilish har bir ziyolining vijdon ishidir. Ma'rifatchi fidoyi bo'lmog'i, o'zidan kechmog'i kerak".[113]

XX asr boshidagi ma'rifatchilik harakatining namoyondalari boylik uchun, shon-shuhrat uchun maydonga chiqmaganlar. Ularning maktab ochganlari, xalqni o'z haq-huquqlarini tanishga da'vat etganliklari uchun hech kim maosh to'lamagan. Ular o't bilan o'ynashayotganliklarini, istibdodga qarshi kurashayotganliklari uchun ayovsiz jazolanishlarini oldindan yaxshi bilishgan. Bilaturib, ongli ravishda mana shu yo'ldan borganlar. CHunki, vijdonlari, iymonlari shunga da'vat etgan.

Jadidchilik harakatidagi ma'naviylik quyidagilarda yaqqol namoyon bo'ladi: birinchidan, ular ozodlikka, mustaqillikka qon to'kishlarga olib keluvchi turli to'polon, qirg'in-barot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ularning ma'rifatini, madaniyatini ko'tarish orqali qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi salbiy oqibatlarini tushunib etish darajasiga ko'tarish orqali erishishni;

Ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligini, milliy birlikning vujudga kelishi esa uni taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omili ekanligi g'oyasida;

Uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o'z g'oyalarini ilgari surish, uni tashviqot qilish doirasida cheklanib qolmasdan, ular axolining umumiy savodxonligini ko'tarish borasida ko'pgina amaliy ishlarni ham olib bordilar. O'zlarining mablag'lari hisobiga maktab ochdilar, gazeta, kitoblarni bosmadan chiqardilar. Bu harakatlarning zaminida chinakam ma'naviylik turadi. CHunki ular urushlarga, johillikka va qarama-qarshiliklarni avj oldirishga emas, balki yuksak ma'rifatga va siyosiy onglilikka erishish orqali ozodlik va taraqqiyotga erishish mumkinligi uchun faoliyat ko'rsatganlar.

Ana shu jihatlari bilan jadidchilik harakati milliy ma'naviyatimiz rivojida o'ziga xos o'ringa egadir. Jadidchilik harakatining yana bir xususiyati shundaki, u o'z davrining eng ilg'or g'oyalarini ilgari surish bilan birga aholining umum ma'rifatini ko'tarishdagi eng yirik ommaviy va millatni birlashtirishdagi harakat darajasiga ko'tarilganligidir. SHu ma'noda ham bu harakat aholining umummilliy ma'naviyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga molikdir.

## 12.2. Jadidchilarning amaliy harakatlari va tarixiy taqdiri

---

[112] Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.7-бет.

[113] Ўша жойда, 8-бет.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ma’rifatparvarlik rivoj topdi. Ular Turkiston xalqlarini qaramlik zulmidan ozod qilish, taraqqiy etgan xalqlar qatoridan o‘rin olishining birdan-bir to‘g‘ri yo‘li xalqni savodxon qilish, ularni zamonaviy ilm-ma’rifat nuridan bahramand qilishda deb bildilar.

Bu davrda ma’rifatparvarlik g‘oyalari rivojida Ahmad Donish (1827-1897) o‘zining ijtimoiy-ma’rifiy faoliyati bilan katta hissa qo‘shdi. U o‘zining ma’naviy-ma’rifiy, ta’lim-tarbiya, ahloqqa doir fikr-mulohazalarini “Navodirul-vaqoe” asarida bayon qilgan.U kishilarning, ayniqsa, yoshlarning hunar o‘rganish muammosiga alohida e’tibor beradi. YOshlarni hunarni faqat foydali bo‘lgani uchungina emas, balki hayotiy zarurat bo‘lgani uchun egallashga da’vat etadi. Bunda esa hunar va kasb tanlashda uning odamlarga, jamiyatga foyda keltirishiga e’tibor berish kerakligini alohida uqtiradi. Bu haqda yoshlarga qarata: “Qaysi bir hunar, qaysi bir kasbni qilmoqchi bo‘lsanglar, undan kutilgan maqsad xalq uchun foyda etkazish bo‘lsin”,[114] -deydi.

Ahmad Donish kishilarni g‘ayratli bo‘lishga, maqsadni foydali ishga qaratishga, o‘z xususiy ishlariga o‘ralib qolmay, qaysi yo‘l bilan bo‘lsa ham, xalq, jamoat uchun foyda keltirishga da’vat etadi.

Ma’rifatparvar mutafakkir ilm insonga baxt-iqbol baxsh etadi. Ilm va ma’rifat insonning tuganmas baxti ekanligini qayd etish barobarida, uni izlanishlar orqali egallashga chaqiradi.

Ma’rifatparvarlik g‘oya taraqqiyotida Zokirjon Holmuhammad o‘g‘li Furqat (1858-1909)ning alohida o‘z o‘rni bor. Dunyo kezib jahondagi umumiy taraqqiyot ilm-fanga bog‘liq ekanini ko‘rib, buni o‘z asarlarida targ‘ib qildi.

Jahon basti kushodu ilm birla,
Nodur dilni murodi ilm birla.
Ko‘ngullarni sururi ilmdandur,
Ko‘rar ko‘zlarning nuri ilmdandur.
Kerak har ilmdin bo‘lmoq xabardor,
Bo‘lar har qaysi o‘z vaqtida darkor.[115]deb yozgan shoir.

Furqat ma’naviy-ahloqiy tarbiyaga alohida ahamiyat berib, samimiy do‘stlikni, kishilar o‘rtasidagi yaqinlikni ulug‘ladi, o‘zaro ahillik va hamjihatlikni targ‘ib etdi.

Mintaqada keng quloch yozgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari negizida 19 asrning oxirlari va XX asrning boshlarida yangicha yo‘nalish – jadidlar harakati shakllandi va qaror topdi.

Jadidlar Turkiston o‘lkasini qoloqlikdan olib chiqish, mustamlaka zulmidan ozod bo‘lishini milliy uyg‘oqlikda deb bildilar. Milliy uyg‘oqlikni esa aholini ilmli-ma’rifatli qilish orqali amalga oshirish mumkin deb bildilar. SHuning uchun yangi usuldagi maktablarni ochdilar. Jumladan Salohiddin domla Qo‘qonda(1898), SHamsiddin domla Andijonda(1899), Mannon qori Toshkentda(1899), Abdulla Avloniy Toshkentda(1907), Ismatulla Rahmatullaev Samarqandda(1910) usuli savtiya maktablarini ochganlar.

Ular milliy uyg‘onishning asosini ta’limni, o‘quv dasturlarini isloh qilishda deb bildilar.

Jadidchilik g‘oyalarini uning yorqin vakillaridan Behbudiy, Fitrat, CHo‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Usmon Nosir, So‘fizoda, Tavallo, Ishoqxon Ibrat kabilar g‘oyat og‘ir sharoitlarda targ‘ib etishga harakat qilganlar. Ular millatning kamolotini yuksaltirish, uning qadr-qimmatini erga urishga yo‘l qo‘ymaslik borasida katta ishlar qilganlar. Ma’rifatchi jadidchilar og‘ir moddiy qiyinchiliklar, g‘oyaviy-siyosiy tazyiqlarga qaramay, millatning ma’naviy yuksalishi uchun imkoniyatlar yaratishga harakat qildilar. Tarixning murakkab, mas’uliyatli burilish davrlarida millatning milliy ongini yuksaltirish, milliy iftixor tuyg‘usini kuchaytirish birinchi darajali vazifalardan ekanligini anglab etganliklari uchun ham bu boradagi barcha ishlarni o‘z zimmalariga oldilar. Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori va boshqa millat uchun jonkuyar jadidlar maktablar ochar, ularda o‘zlari dars berar, o‘quv qo‘llanmalari yozar, nashr etar va bu yo‘lda jonbozlik ko‘rsatar edilar. Bu yo‘lda hatto o‘z mablag‘larini ayamaganlar. Bunday sahovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu ishlar bizning hozirgi mustaqil rivojlanishimiz uchun ham nihoyatda zarur. Biz erkin fuqarolik jamiyatini

[114] А.Дониш. Наводирул-вақое. Тошкент, “ФАН”, 1964, 215-бет.
[115] Фурқат. Икки томлик танланган асарлар. 2-том. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1960, 10-бет.

qurishni, barpo etishni orzu qilmoqdamiz va shunga intilmoqdamiz. Bu ulug‘vor vazifalarni hal etish, Prezident Islom Karimov “O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz”da: “Bugun jamiyatimiz oldida turgan bu ulug‘vor va murakkab vazifalarni hal qilish, eng avvalo, ta’lim-tarbiya, ma’rifat masalasiga borib taqaladi. Bu masalaga keng jamoatchilik diqqatini jalb etish kerak Matbuot orqali, televidenie orqali odamlarda ma’rifatparvarlik g‘oyalarini tarbiyalash, maktab-maorif tarmoqlariga homiylik, sahovatpeshalik, savobtalablik kabi ezgu xususiyatlarni kuchaytirish zarur”[116], - deb ta’kidlaganida yuqorida biz qalamga olgan fidoiy, sahiy, millatparvar insonlar kabi bo‘lishga bizni chorlayotgan bo‘lsa, ne ajab!

Jadidlar harakatining Turkistondagi namoyandasi, uning nazariy asoschilaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy(1879-1919)dir.

Behbudiy Samarqand shahrida ruhoniy oilasida tug‘ilgan. YOshligidan ilm-fanga qiziqadi, hisob, huquq, din, arab va fors tillaridan chuqur saboq oladi.

U haj ziyoratini ado etib, Makka va Madinaga boradi. Misr va Turkiya shaharlarida bo‘ladi. Peterburg, Minsk, Qozon, Ufa va Orenburg kabi Rossiya shaharlarida bo‘lib yangi davr madaniyati bilan yaqindan tanishadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy bolalarga diniy va dunyoviy ilm berish bilan birga, millat farzandlarini zamonaviy ilm olish uchun taraqqiy topgan mamlakatlardagi o‘quv yurtlariga yuborish kerak, degan masalani o‘rtaga tashladi. U quyidagi uch qoidani olg‘a surdi: 1) zamon talablaridan kelib chiqib ish ko‘rish; 2) millat taqdir va istiqbolini belgilovchi milliy kadrlarni etishtirish; 3) milliy biqiqlikdan chiqib, dunyo miqyosida fikrlay oladigan, chet ellar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’naviy munosabatlarda jahon andozalari darajasida ish yuritadigan millatga aylanish. Asrimiz boshlarida ilgari surilgan bu kabi ilg‘or qarashlar hozirgi davrimiz uchun mosligi bilan ham ahamiyatlidir. Uning bunday ilg‘or fikrlari mustaqil Respublikamiz Prezidenti Islom Karimovning zamonaviy kadrlar tayyorlash borasida olib borayotgan siyosati bilan hamohangdir. Bunga Behbudiy orzu-umidlarining ro‘yobga chiqishi, deb qaramoq lozim.

Behbudiy ham boshqa jadidlar kabi feodal monarxiya tuzumini qoraladi. Feodal tuzumga qarshi chiqqan Behbudiy Vatani, xalqi, millati manfaatlari, ozodligi yo‘lida kurash olib bordi. Buni uning quyidagi so‘zlaridan bilib olishimiz mumkin: “...mustabid amirlikning ag‘dariladigan kuni yaqin, yuksak adolat tantanasiga va mehnatkash xalqning barcha ezuvchilar ustidan g‘alabaga ishonchi bizga jismoniy azob-uqubatlarga bardosh berish uchun kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalqning baxt-saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz. Bizning o‘limimiz uchun eng yaxshi qasos mustabid amirlikni tezroq yiqitish va mazlum Buxoro xalqini ozod qilish bo‘ladi”.[117]

Behbudiy butun faoliyatini xalqning savodsizligini, johillikni, qoloqlikni, madaniyatsizlikni tugatishga qaratdi. Mustamlakachilik siyosatiga qarshi chiqdi. O‘z o‘limining muqarrarligini bilgan Behbudiy qamoqxonada turib quyidagi vasiyatlarni yozib qoldirgan edi: “Ey Turkiston maorif ishlarida bo‘lg‘on o‘rtoq va o‘g‘lonlarim! Men o‘zim garchand bandiy bo‘lsa-da, sizlarni esimdan chiqarmayman va sizlarg‘a bir oz vasiyat qilib o‘taman:

Meni sevar o‘rtoqlarim – manim so‘zlarimni quloqlaringizga olingizlar! Biz ikki oydan beri Buxoro shahrida bandi bo‘lib yurib, oxir 10 kundan beri bu erda (Qarshi shahrida) bu zolimlarning qo‘lig‘a tushib bandi bo‘ldik. Jadid, kofir otini ko‘tardik. Sipohlar ichida tilchilik otini ko‘tardik. Bu erdan qutulmog‘imiz gumon bo‘ldi.

O‘rtoqlarim – Siddiqiy, Ayniy, Fitrat, Qurbi va Akobir Maxdum va o‘g‘lonlarim Vadud Mahmud, Abdulqodir SHakuriy – sizlarga vasiyat qilaman! Maorif yo‘lida ishlatturg‘on muallimlarning boshini silangizlar! Maorifga yordam etingiz! O‘rtadan nifoqni ko‘taringiz! Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymangizlar! Har ish qilsangiz jamiyat ila qilingizlar! Hammaga ozodlik yo‘lini ko‘rsatingizlar! Bizdek maorif qurbonlarini yo‘qlangizlar! Buxoro tuprog‘iga tezlik ila yo‘l boshlangizlar. Ozodlikni tezlik ila yuzaga chiqaringizlar! Bizning qonimizni zolim beklardan talab qilingizlar! Maorifni Buxoro tuprog‘ida joriy qilingizlar! Bizning otimizga maktablar ochingizlar! Bizlar ul chog‘da qabrimizda tinch yotarmiz! Maning o‘g‘lonlarimga

[116] “Туркистон” газетаси, 1999 йил, 2 февраль сони.

[117], З.Давронов. М.Шарифхўжаев Маънавият асослари. Тошкент, “Молия”, 2005, 183-бет.

salom etkazingizlar! Bu hamrohlarimning avlodlaridan xabardor boʻlingizlar. Ushbu vasiyatlarimni yozib Ahmadga berdim”.[118]Mahmudxoʻja Behbudiy erksevarlik, millatparvarlik, ma’rifatparvarlik gʻoyalari uchun ta’qib ostiga olindi va oʻldirildi.

Jadidlarning yirik vakillaridan yana biri Munavvarqori Abdurashidxonovdir. U butun faoliyatida ilm nurini tarqatish bilan, ya’ni insonlarni shu nur orqali ziyoli boʻlishga chorlagan. Oʻzi esa bu borada barchaga namuna boʻlgan. Munavvarqori XX asrning boshlaridayoq “usuli jadid” maktabini birinchilar qatorida 1901 yilda ochib ular uchun darslik va qoʻllanmalar yozib nashr qildi. “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Er yuzi”(geografiya) kabilar shular jumlasidandir. Ular 1901-1917 yillar ichida 9-10 marotabagacha alohida-alohida nashr etilgan. Mazkur darslik va qoʻllanmalarda ma’rifatparvarlik gʻoyalari oʻz aksini topgan.

Munavvarqori “Taraqqiy” gazetasining tashkilotchilaridan va “Xurshid” gazetasini esa asoschisi hisoblanadi. 1917 yilga kelib “Najot” gazetasini chiqargan. Munavvarqori oʻzbek milliy matbuotining asoschilaridan. Butun faoliyatini millat va Vatan ozodligi va taraqqiyotiga bagʻishlagan.. Ozodlik uchun tinmay kurash olib borgan. Doimo xalqni ma’lumotli qilish yoʻllarini izlagan. Oʻzi ochgan yangi usuldagi maktablarda koʻproq etimlarni, beva-bechora, kambagʻallarning farzandlarini oʻqitishga ahamiyat berdi.

Munavvarqori ta’lim-tarbiya ishlarini isloh qilmay, halqning ongini oshirmay, madaniy saviyasini koʻtarmay turib jamiyatda katta oʻzgarishlar qilish aslo mumkin emasligini tushunib etadi.

Munavvarqorining millat taraqqiyoti uchun olib borgan gʻoyalari tufayli sobiq zoʻravon SHoʻrolar hukumati uni ta’qib ostiga oldi.. 1931 yil 25 aprelda esa unga “millatchi” degan ayb qoʻyilib otib tashlandi.

Milliy uygʻonishga chorlovchi gʻoyalarni ilgari surgan jadid harakatining yana bir yirik vakili Abdulla Avloniydir. U millatning ma’naviy inqirozda boʻlishini tanqid qildi, barchani savodli boʻlish, zamonaviy fan, madaniy yutuqlarni egallashga chaqirdi. Abdulla Avloniyning “Ilm insonlarning madori, hayoti, rahbari, najotidir” degan gʻoyasi ma’rifatparvarlik, jadidchilik harakatining dasturini tashkil etadi. U ma’rifatparvar safdoshlari singari mazlum Turkiston ahlini ilm-ma’rifat ziyosidan bahramand qilishda unutilmas xizmatlar koʻrsatdi. “Turkiy Guliston yohud ahloq” kitobida ma’rifat, ilm-fanning jamiyat taraqqiyotida tutgan oʻrni haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Allomaning qarashlarini oʻrganish – bugun oʻzligimizga qaytish jarayoni kechayotgan bir paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Biz shu oʻrinda allomaning asaridan quyidagilarni qayd etishni lozim topdik. “Ilm inson uchun gʻoyat oliy va muqaddas bir fazilatdir Zeroki ilm bizga oʻz ahvolimizni, harakatlarimizni oyna kabi koʻrsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi oʻtkir qilur, savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur. Toʻgʻri yoʻlga rahnamolik qilib, dunyo va oxiratda mas’ud boʻlishimizga sabab boʻlur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur. Bizlarni ilm jaaholat qorongʻuligidan qutqarur. Madaniyat, insoniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzugʻ ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va adab sohibi qilur, Alloh taologa muhabbat va e’tiqodimizni orttirur...

Alhosil, butun hayotimiz, salomatimiz, himmatimiz, gʻayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilmga bogʻliqdur”[119]

Turkiston jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan yana biri Abdurauf Fitrat (1886-1938)dir. Abdurauf Fitrat ham boshqa jadidchilar singari 1937-1938 yillarda millatchilikda ayblanib qatl etilgan. U oʻz asarlarida vatandoshlarini aziz diyori Turkistonni sevishga, uni asrashga, ozodligi uchun kurashga chorladi, Vatan va millat saodati, baxti va ravnaqi uchun fidoiylik koʻrsatishga da’vat etganligi quyidagi misralarda oʻz ifodasini topgan:

Ogʻir yigit, sening goʻzal, nurli koʻzingda
Bu millatning saodatini, baxtini oʻqidim.
Oʻylashingda, turmushingda hamda oʻzingda
Bu yurt uchun qutulishning borligin koʻrdim.
Turma-yugur, tinma-tirish, bukilma-yuksal,

[118] Ўша китоб, 184-бет.
[119] Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. 22-23 бетлар.

Hurkma-kurash, qo‘rqma-yopish, yo‘rilma-qo‘zg‘al.[120]

Abdurauf Fitrat inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotida oila, jamoa muhim o‘rin egallashini ko‘rsatish bilan birga, ahloqiy poklik, donishmandlik, shijoatlik, adolatlilik, insonparvarlik, vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlarni ulug‘ladi. Ilm-ma’rifatsiz hech bir millat, jumladan inson saodatga erisha olmasligini ko‘rsatib quyidagilarni yozgan edi:

Orqadoshlar, to‘planaylik jahlning uyin yiqqali,
El ko‘zin olgan qorong‘u pardalarni yirtqali.
Biz erurmiz ma’rifat arslonlari, ilm erlari,
To‘planaylik turk eliga to‘g‘ri yo‘llar ochqali...
Ellarni mahvdan qutqargan ilm erur,
Bizlarni ham bu kundan o‘zi qutqarur.
Biz erurmiz elning insonlik qonin qaynatguchi.
Turk arslonlarin o‘rinsiz uyqudan uyg‘otuvchi.
Ma’rifat bayrog‘i ostida yig‘ildik barchamiz,
Kim, bizi otganlarga haq yo‘llarin ko‘rsatkuchi...
Haydang, o‘rtoq, qutqaraylik jahldan quvronlari,
YOritaylik ma’rifat nuri-la Turkistonlari.
Ilm o‘chog‘ida etishgan er yigitlar, to‘planing,
Qochdiraylik jahl o‘rdusin, ochaylik onglari![121]SHunday qilib jadidchilik harakatining yirik namoyondasi Fitrat umrining oxiriga qadar qat’iyatlilik ila Vatan ravnaqi, xalq, millat ozodligi, farovonligi, ma’rifati uchun kurashdi. Bu yo‘lda fidoyilik timsoli namunasi bo‘ldi. Uning bunday qarashlari hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Jadidchilarning qismati chor hukumati, Vaqtli hokimiyat va ayniqsa, sobiq SHo‘rolar tuzumi davrida nihoyatda fojiali bo‘ldi. Ularning ko‘pchiligiga yuqorida bayon qilingan talablari uchun “millatchi”, “panturkist” degan tamg‘a bosilib, qatag‘on qilindi, jadidlar g‘oyalari va harakatiga qora chiziq tortildi. Jadidchilikning tor-mor qilinishi turkiy millatlarning jahon miqyosida tanilishini yana bir asrga orqaga surdi. Jadidchilik bir asr davomida avval kommunistik g‘oyaning tazyiqida, keyinchalik esa iskanjasida bo‘lib, to‘la ravishda o‘zini namoyon eta olmadi. Uning zaminlari shakllanishi tarzini o‘rganishga intilganlar ham tazyiq ostiga olindi. Uni o‘rganishga intilganlar ham ta’qib qilindi. Mustaqillik sharofati bilan Turkiston xalqlarining erki, mustaqilligi, milliy davlatchilik g‘oyalari, ma’rifati uchun kurashgan vatanparvarlarning muborak nomlari tiklandi, asarlari chop etildi.

Jadidchilar umumilliy ma’rifatni ko‘tarish, milliy ongni rivojlantirish, milliy birlikka erishish va ularni amalga oshirish orqali milliy mustaqillikka erishish, jahon madaniyatini egallash kabi g‘oyalari bilan milliy ma’naviyatimiz rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shdilar.

“Millatning ma’naviy –ruhiy qudrati va salohiyati, uni tashkil qilgan shaxslar sonining ko‘pligi bilan emas, millat ichidan chiqqan millatparvarlar bilan belgilanadi”.[122] Jadidchilar o‘zbek millatini qaddini va qalbini ko‘tara olgan ana shunday millatparvarlar edilar.

Bugun hayotimizga tadbiq qilinayotgan milliy istiqlol mafkurasi “xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanadi”.[123] Jadidchilir g‘oyalari ana shu merosimizning bir qismi sifatida milliy ma’naviyatimiz rivojlanishida muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Ma’naviyat rivojida ma’rifat ilm-bilimning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini yana ham teranroq anglashda quyidagi bir qator hadislar va hikmatlarni keltirishni joiz deb topdik. Zero, ularni bilmoq foydadan holi emas:

Beshikdan to qabrgacha ilm izlang!

---

[120] Абдурауф Фитрат. Чин севги. Тошкент, “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат” нашриёти, 1996, 34-бет.

[121] Ўша китоб, 37-бет.

[122] Отамуротов С. Глабаллашув ва миллат. Тошкент. Янги аср авлоди, 2008, 62-бет.

[123] Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар.43-бет

Ilm-fansiz davlat qurib bo‘lmaydi.
Dil va aqlning tarbiyasi ilm bilan rivojlanib, kamol topadi.
Ilm tufayli odamlar nodonlik, jaholat botqog‘idan chiqib, o‘z imkonlarini kamolga etkazadilar.
Garchi Xitoyda bo‘lsa ham ilm talab qilinglar.
Ilmning tikanli va zahmatli yo‘llariga bardosh berib o‘ta olgan odamgina iymoni komil inson bo‘la oladi, Allohning roziligiga erishib, ulug‘lik tulporiga minadi.
Ilm o‘rganish har bir mo‘min farzidir.
Bir soatgina ilm o‘rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi, bir kunlik dars esa uch oy tutilgan nafl ro‘zasidan afzal.
Ilm aqlning chirog‘i va jilovidir.
Sadaqaning afzali mo‘min kishi avval ilm o‘rganib, keyin boshqalarga ham o‘rgatishidir.
Ko‘rinadiki, odamzod naslining ulug‘ligi bilimdan. U aql-idrok tufayli ne-ne tugunlarni echishga qodir.
Bilingki, bilim, o‘ylab ko‘rilsa, misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan insonni tiyib turadi.. Bilim egasi o‘z tilaklariga etadi, orzu-maqsadiga erishadi.
Ilm egalarining foydasi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Ular elda aziz bo‘lib, hurmatga sazovor bo‘ladilar. SHu tufayli ota-bobolarimiz doimo bilimga intilib yashaganlar. Ular ma’rifat chiroqlarini mash’ala singari yoqqanlar. YUksak ma’naviyat va ilm-ma’rifat tufayli Turonzamin er yuzida shuhrat qozongan. Jadidchilarning ilm orqali xalqimiz ongi va qalbida Vatanni ozod va obod qilish borasidagi faoliyatlari ularning yuksak ma’naiyat sohibi bo‘lganliklaridan dalolat berib turadi. Ularning ana shu faoliyatlari va sa’yi harakatlarini chuqur o‘rganish yoshlarimiz ma’naviyatini boyitishda muhim manbaa bo‘ladi. Bu mustaqilligimiz sharoitida umummilliy ma’naviyatimizni yangi pog‘onaga ko‘tarishga kuch-quvvat bag‘ishlab boraveradi. Umummilliy ma’naviyatimizni tiklash va rivojlantirish orqali mustaqilligimizni mustahkamlaymiz. Jahon sivilizatsiyasidagi munosib o‘rnimizni tiklaymiz va mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olishini ta’minlashga erishishimiz mumkin bo‘ladi.

## Takrorlash uchun savollar:

1. Markaziy Osiyo xalqlarining qanday afsona, rivoyat va dostonlarini bilasiz? Ulardagi ma’naviy jihatlarni izohlang.
2. Markaziy Osiyo xalqlarining vatanparvarlik mavzuidagi qanday xalq og‘zaki ijodi namunalarini bilasiz?
3. ”Avesto”da inson ahloqi, odobi, ma’naviyatini ifodalovchi tayanch g‘oyalarni izohlang.
4. ”Avesto”da inson iymonliligini izohlovchi tayanch tushunchalarni izohlang.
5. ”Avesto”da tabiatga, hayvonlarga munosabat qanday bayon qilingan?
6. ”Avesto”da sog‘lom avlod masalalari qanday ko‘rib chiqilgan?
7. Moniy va Mazdak tag‘limotlaridagi ma’naviyat masalalarini izohlang.

## 4 MAVZU: SHAXS MA'NAVIYATI TARAQQIYOTINING MEZONLARI

**REJA:**

1. **Ma'naviy barkamol, komil inson tushunchalari va ularning sharqona ta'rifi**
2. **Inson, shaxs, fuqaro tushunchalari va ularning ma'naviy jihatlari**
3. **Ma'naviy tahdid va ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash zarurati**
4. **Komil inson va uning sharqona fazilatlari**

Ma'naviy barkamol, komil inson tushunchalarini bilib olishdan avval inson, shaxs, fuqaro tushunchalarining mazmun-mohiyatini bilib olish lozim bo'ladi.

Inson nihoyatda murakkab, ko'p qirrali va ko'p o'lchamli mavjudot bo'lib, uning mohiyatini anglash yuzasidan turli qarashlar ilgari surib kelinmoqda. SHarq falsafasi tarixida ham inson bosh mavzulardan biri bo'lib kelgan.

Masalan, Forobiy falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli sifatida izohlanadi. Mutafakkir insoning barcha olijanob fazilatlari ilm tufayli ekanligini, inson hayotining mazmuni-baxtli bo'lish va baxtli qilishga intilish, bunga esa faqat ilm va ma'rifat orqali erishish mumkinligini ko'rsatdi. Beruniy va Ibn Sino insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qildilar. Abu Homid G'azzoliy insonning boshqa mavjudotlardan ustunligi aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko'rsatdi.Ulug' mutasavvuf Abduholiq G'ijduvoniy insonni "kichik olam" deb hisoblagan.

Hayot go'zaldir, - deydilar shoir va mutafakkirlar, lekin hayot inson bilan go'zaldir. Inson go'zalligini belgilovchi asosiy mezon uning ma'naviyligi, ya'ni ahloq va odobi hisoblanadi. O'zbek xalqining "Inson odobi bilan go'zal" degan maqolining mohiyatida chuqur falsafiy ma'no yotadi.

Konfutsiy insonni o'z mohiyatini ma'naviy-ahloqiy fazilatlari va kamoloti orqali namoyon etadigan jonzot sifatida talqin etadi. U insonning insonligi o'zidagi har qanday tabiiy ehtiyoj, his va tuyg'uni ma'naviylikka bo'ysundira olishidir. Faqat insondagi ma'naviy mas'ullik ularga nima qilish keragu, nima qilish kerakmasligini o'rgatadi. SHu jihatdan qaraganda insondagi ma'naviylik inson va insonlar faoliyatiga maqsad, yo'nalish va mazmun beradigan omildir.

G'arb ilmida esa insonga, asosan biologik mavjudot, tabiatdagi evolyusion o'zgarishlarning mahsuli deb qaraldi.

Inson tushunchasiga aniq ta'rif berish uchun uni boshqa biologik mavjudotlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlarini aniqlash zarur. Bular qatoriga quyidagilar kiradi. Inson eng avvalo boshqa mavjudotlardan o'zining xotirasi, tafakkuri, tili borligi bilan ajralib turadi. Boshqa mavjudotlardan insonning tub sifatiy farqini ifodalovchi xususiyatlardan yana biri uning o'z amaliy faoliyatini tartibga sola bilishidir. SHuningdek, inson o'z turmushi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish, yaratish malakasiga ega ekanligi ham ana shunday xususiyatlardan biri hisoblanadi. Inson hayotida mehnat asosiy rol o'ynaydi. Mehnat tufayli inson o'zi yashayotgan tabiatga ta'sir etadi, uni o'zgartiradi, moddiy va ma'naviy boyliklarni yaratadi. Amerikalik olim B.Franklin "Inson mehnat qurollarini yaratuvchi jonzotdir", deb ta'riflagan.

Oilaviy munosabatlar va ma'naviy-ahloqiy me'yorlar insonni hayvondan farq qiluvchi eng muhim xususiyati sanaladi.

Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi.

Tabiat va jamiyatdagi o'rni, ahamiyati, yaratuvchanlik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi, barcha ijobiy hamda foydali yutuqlarni saqlashi, targ'ib etishi kabi xususiyati, qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Bugungi kunda faylasuflar inson uchta buyuk qudrat – tana, ruhiyat va ma'naviyatning yig'indisi ekanligini ta'kidlamoqdalar. Insonning biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanish, zurriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar kirsa, uning ijtimoiy xususiyatlariga til,

muomala, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'zini-o'zi idora etish, ahloq, nutq, tafakkur, qadriyatlar bilan ish ko'rish va boshqalar kiradi. Psixik xususiyatlarini ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, iztirob chekish, zavqlanish, kayfiyat kabilar tashkil etadi.

Inson o'z hayoti davomida tana va ruh ehtiyojlarini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson yashashining birlamchi, asosiy sharti hisoblanadi. Biroq hayotning ma'nosi faqat moddiy ne'matlardan bahramand bo'lish, qorin to'yg'azish, lazzatlanish, boylikka ruju qo'yishdangina iborat emas. Inson ruhi ham o'ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj insonda ma'rifatparvarlik, odamiylik, adolatlilik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliy himmatlilik, vatanparvarlik kabi ma'naviy fazilatlarni shakllanishiga olib keladi.

Inson tabiati – g'oyat murakkab Unda hayvoniy va ilohiy sifatlar mujassamlashgan. Lekin u hayvon ham, farishta ham emas. Insoniy ruh va ma'naviyat uni boshqa mavjudotlardan yuqori darajaga ko'taradi.

YUksak ma'naviyat insonni ruhan poklaydi, iymon-e'tiqodini mustahkamlaydi. YUksak ma'naviyatgina inson ehtiyojlarini oqilona qondirishga, ijtimoiy adolatni o'rnatib, sahiy va oliyhimmat bo'lishga undaydi. YUksak ma'naviyatda haqiqiy insoniy mohiyat mujassamdir.

YUqoridagilardan kelib chiqib, inson o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan tabatdagi noyob ongli mavjudot deyishimiz mumkin.

Inson mohiyatini falsafiy-ma'naviy jihatdan tahlil qilishda shaxs, individ, fuqaro tushunchalarining mohiyatini bilib olish muhim ahamiyatga ega. SHaxs - alohida kishi, ijtimoiy-ahloqiy, ma'naviy mohiyatni o'zida mujassamlashtirgan individ. Kishilar shaxs bo'lib tug'ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo'lib shakllanadi va rivojlanadi.

Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, o'zaro muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, ahloqiy-ma'naviy me'yorlar, siyosiy qarashlar ta'siri ostida faoliyat yuritadi, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda asta-sekin ijtimoiylashib boradi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda irsiy bo'lmagan yangicha fazilatlar paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

O'zini-o'zi nazorat qilish, o'z-o'zini tarbiyalash, yuksak ma'naviyatni his etish, g'oya uchun kurashish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish, o'z fikr-mulohazalarini erkin bayon etish va ijtimoiy-siyosiy faollik shaxsga xos belgilardir.

SHaxs mustahkam iymon-e'tiqod, g'oya va insoniy fazilatlarga ega bo'lgan, Vatan, millat tuyg'usi bilan yashaydigan, o'zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.[124]

SHaxs – biofiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, ahloqiy va estetik fazilat va xislatlarning yaxlit bir butunlikka aylanishi hamda munosabatlar tizimi bilan qamrab olinishidir. SHaxs – madaniylashgan jonzot; ijtimoiy-tarixiy tajribaga ega bo'lgan muayyan davr avlodining vakili; insonlararo munosabatlar sub'ekti.

SHaxs mohiyatiga ko'ra, madaniylashgan, ong, aql orqali faoliyatini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan, ijtimoiy-tarixiy an'ana, turmush tarzi va tajribaga asoslangan muayyan avlodning vakili.SHarqda, u yuksak ahloqiy-ma'naviy me'yorlar orqali tushunilgan va oliy hilqat, bebaho qadriyat deb hisoblangan. Inson shaxs sifatida komillikka intiladi, hayot mazmunini boyitadi, shu asosda kishilik jamiyatining go'zal va farovon bo'lishiga ehtiyoj sezadi.

SHaxs tushunchasi inson tushunchasining yuksak ko'rinishi, oliy maqomidir. U o'zida inson mohiyatini, uning mavjudot sifatidagi qadriyatini mujassam etadi.[125]

Insonning olijanob fazilatlari etuk shaxslar timsolida o'z aksini topadi. Insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar shaxs faoliyatida, uning jamiyatda tutgan o'rnida, uning o'z moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda, muayyan g'oyalarni amalga oshirishda yaqqol ko'rinadi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida keng ko'lamda amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni tarbiyalab voyaga etkazish va shakllantirishni maqsad qilib qo'ygan.

---

[124] Қаранг: Фалсафа. Тошкент. "Ўзбекистон", 2005, 275 бет.

[125] Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд, Тошкент, "ЎзМЭ", 2005, 15- бет.

Demokratik qadriyatlar tizimida shaxs erkinligi alohida o‘rin tutadi. Erkinlik – insonning intellektual-ma’naviy kamolotga erishuvining zarur sharti. Erkinlik tufayli inson yaratuvchilik qobiliyatini namoyon etadi, shaxsiy mas’uliyat va insoniy burchni to‘la his etadi. SHaxs erkinligi, avvalo ahloqiy, so‘z, vijdon, matbuot erkinligida ro‘yobga chiqadi.

“Erkinlik” tushunchasi har qanday shaxsga nisbatan emas, balki o‘z hatti-harakati, hulq-atvori va faoliyati uchun javobgarlikni his etadigan, ma’naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo‘llanilgandagina o‘z mohiyatini to‘la namoyon etadi. Erkinlikka kishilar o‘zboshimchalik, nimani xohlasa shuni qilish, og‘ziga kelganini so‘zlash deb emas, balki ma’naviy-intellektual rivojlanish imkoniyati deb qarashlari lozim.

Inson, shaxs tushunchalari bilan birga fuqaro, fuqarolik tushunchalari ham yonma-yon ishlatib kelinadi. “Fuqaro” so‘zi “faqir” so‘zidan olingan bo‘lib, hozirgi davrda uning ma’nosi o‘zgarib ketgan.

Fuqarolik tushunchasi antik YUnoniston va Rimda mavjud bo‘lsa-da, asosan o‘rta asrlar oxirida feodalizm inqirozga uchrab, jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayot demokratiya va bozor munosabatlari zaminiga o‘ta boshlaganida, hozirgi shakl va mazmunda paydo bo‘la boshlagan.Ilk bor fransuzchada “situayyan”, inglizchada “sitizen” – “shaharli”, ruscha “gorojanin - grajdanin”, ya’ni qoloq qishloqdan, mustabid feodal munosabatlardan ozod inson, jamiyatning teng huquqli a’zosi, degan ma’noni bildirgan. Mustaqillik e’lon qilingandan so‘ng, o‘zbek tilida o‘tmishdagi “grajdanlik” so‘zi o‘rniga “fuqarolik” degan atama qabul qilindi.[126]

Fuqarolik – jamiyatning demokratik rivojlanishida insoniyat qo‘lga kiritgan ulkan yutuqlardan biri. U – shaxsning muayyan davlat qaramog‘ida bo‘lishi, shu davlatga, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansub ekanligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligini bildiradi. SHaxs fuqarolikka ega bo‘lgach, davlat uning hamma huquq va erkinliklarini e’tirof etadi, ularni amalga oshishini ta’minlash choralarini ko‘radi.O‘z navbatida fuqarolar davlat qonunlari va qoidalariga so‘zsiz amal qiladilar, o‘zlari uchun belgilangan majburiyatlarni bajaradilar.

SHunday qilib, fuqarolik deganda, insonning huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalanishi va qonuniy manfaatlarining muayyan davlat ichida va uning tashqarisida himoyalanishi tushuniladi.[127]

Mustaqillik yillarida Prezidentimiz tomonidan “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” g‘oyasi ilgari surildi. Demakki, bizning bosh maqsadimiz demokratik, fuqarolik jamiyatini qurish va barpo etishdir. Fuqarolik jamiyati-insonga uni iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti shakllarini erkin tanlashi kafolatlanadigan, qonun ustivorligi va inson huquqlari hamda erkinliklari qaror topadigan, ko‘p partiyaviylik, siyosiy institutlar, mafkura va fikrlarning xilma-xilligi ta’minlanadigan hamda o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining mavqei baland bo‘lgan ijtimoiy tuzum. Bunda mamlakatning har bir fuqarosi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma’naviy va huquqiy jihatdan o‘z ehtiyojlarini jamoat birlashmalari va fondlari, o‘zini-o‘zi boshqarish organlari, siyosiy partiyalar va nodavlat, notijorat tashkilotlar ishida faol ishtirok etib, ular orqali qondiradilar. Bu jamiyatda fuqarolar davlat faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o‘rnatadilar, davlatning ko‘pgina vakolatlari jamoat tashkilotlari zimmasiga yuklanadi.

Mamlakatimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi, chunki fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni inson omilisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, hozirgi sharoitda inson omili va mezoni barcha islohotlarimizning bosh yo‘nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradi. “Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning eng muhim tarkibiy qismi ma’naviyat va ma’rifat sohasida, shaxsni muntazam kamol toptirish borasida uzluksiz ish olib borishdan iborat”.[128]

---

[126] Қаранг: Фалсафа. Тошкент. “Ўзбекистон”, 2005, 288 бет.

[127] Қаранг: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 10-жилд, Тошкент, “ЎзМЭ”, 2005, 344- бет; Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. Тошкент. “Академия”, 2007, 287-288 бетлар.

[128] Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11 жилд. Тошкент. “Ўзбекистон” , 2003, 33-бет.

**Ma’naviy tahdid va ma’naviy barkamol insonni tarbiyalash zarurati**

Bugungi kunda ma’naviy va jismoniy barkamol avlodni tarbiyalab voyaga etkazish biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sanaladi. Bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat’iyatlilik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Haqiqatan ham Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq bu maslaga katta va uzluksiz e’tibor berib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning har bir nutqi va ma’ruzasi, maqola va asarida yuksak ma’naviyat kelajak poydevori ekanligi qayta-qayta ta’kidlanmoqda. “Zero, deb uqtiradi Islom Karimov, biz jamiyatimiz taraqqiyotini faqatgina iqtisodiy, ijtimoiy farovonlik bilangina emas, xalqimizning ma’naviy barkamolligi, demokratik va insonparvarlik tamoyillarining kishilar ongida nechog‘lik chuqur ildiz otishi bilan baholaymiz”.[129]

Erksevar xalqimiz mustaqillik tufayli o‘z eri, diniga ega bo‘ldi; milliy g‘ururi, izzat obro‘si tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma’naviy merosimizdan bahramand bo‘lmoqdamiz. Mustaqillik va ma’naviyat bir-biriga g‘oyat bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyati yuksak xalqni qul qilish, abadiy istibdod zulmi ostida saqlash mumkin emas. Bunday ma’naviyatning kamol topishi, qalblarga singishi uchun mustaqillikni mustahkamlash ham lozim bo‘ladi. Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar yuksak ma’naviyat zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma’naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shuning uchun ham ma’naviyat va ma’rifatga doimo katta e’tibor berib kelmoqda. SHu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o‘zligini tanib, o‘z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Inson ma’naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda malakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohotlarning birinchi bosqichida milliy ma’naviyatni yuksaltirish yo‘lidagi ko‘zlangan maqsad to‘la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma’naviy, g‘oyaviy-mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ijtimoiy hodisalar bilan birga milliy ma’naviyatimiz yuksala bordi. YUrtboshimiz I.A.Karimov “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” asarida ta’kidlaganidek: “Xalqning ma’naviyati va madaniyati, uning haqiqiy tarixi va o‘ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilanish va taraqqiy ettirish yo‘lidan muvaffaqiyatli olg‘a siljishida hal qiluvchi, ta’bir joiz bo‘lsa belgilovchi ahamiyatga egadir...”[130] Haqiqatan faqat ma’naviy erkin va ozod xalq teran va komil tafakkur tufayli har sohada katta yutuqlarga erishishi mumkin. Boshqacha aytganda, faqat ma’naviy sog‘lom, kuchli jamiyatgina islohotlarga tayyor bo‘lishi mumkin.[131]

Ma’naviy tarbiya sohasida ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yish nihoyatda hatarli. Ma’naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo‘jako‘rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu sohada o‘zi bo‘larchilik va lo‘ttibozlikka yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma’naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko‘lamli madaniy, tarixiy, ma’rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo‘ladi. Eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma’naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo‘lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekin amalga oshadigan jarayon bo‘lganligi sababli tarixning burilish davrlarida jamiyat hayotida ma’naviy bo‘shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir.

Prezident ta’biri bilan aytganda, bu dunyoda tabiatda ham, jamiyatda ham bo‘shliq bo‘lmaydi. Qaerdadir bo‘shliq paydo bo‘ldimi, hech shubhasiz, uni kimdir to‘ldirishga harakat qiladi.

Mustaqilligimiz biz erishayotgan yutuqlarimizni ko‘ra olmaydigan kuchlar o‘z maqsadlariga erishish uchun murakkab o‘tish davrida ma’naviy hayotimizda yuzaga kelgan bo‘shliqni to‘ldirishga, shuning hisobidan o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishga intilib kelmoqdalar. Bunda ular avvalo boy va qadimiy ma’naviyatimizga qarshi kurashib, xalqimizni

---

[129] Каримов. И.А. Келажакни жасоратли одамлар қуради. “Халқ сўзи”газетаси, 1999 йил, 17-февраль.

[130] Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. 299-300-бетлар.

[131] Қаранг: Ўша жойда, 306-бет.

ana shu bebaho ma'naviy boylikdan judo qilish uchun har xil usul va vositalardan foydalanmoqdalar. Bunday yovuz, g'arazli hatti-harakatlarni ma'naviyatimizga qilingan tahdid va tajovuz deb baholashimiz mumkin.

SHunday ekan, ma'naviy tahdid va tajovuz nima? Undan kutilgan maqsad va uning salbiy oqibatlari haqida o'zimizda tasavvur hosil qilishimiz lozim.

Bunga esa Prezidentimiz Islom Karimovning "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch" kitobidan to'liq javob olishimiz mumkin. "Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlarni nazarda tutish lozim.

...ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday xuruj – bu millatimizni millat qiladigan, asrlar, ming yillar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos va o'ziga mos xususiyatlarga, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'usiga, bizni doimiy ravishda tadrijiy taraqqiyotga chorlaydigan, shu yo'ldagi barcha asorat va illatlardan xalos bo'lib, ozod va farovon hayot barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga katta zarba beradigan mudhish xavf-xatarlarni anglatadi".[132]

...Bunday mafkuraviy xurujlar esa milliy va diniy tomirlarimizga bolta urishni, ulardan bizni butunlay uzib tashlashdek yovuz maqsadlarni ko'zlaydi. Bizni ko'rolmaydigan g'arazli kuchlarning ma'naviyatimizga qarshi qaratilgan har qanday tahdidi o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligini, uning milliy manfaatlarini, sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.[133]

Eng yomoni bunday xurujlarning pirovard oqibati odamni, ayniqsa, yoshlarni o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonishga, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum etishga va hamma narsaga loqayd bo'lgan shaxsga aylantirishga qaratilgani bilan xavflidir.

Xalqimiz ma'naviyatiga qilinayotgan tahdid va xurujlarning yo'nalishlari xilma-xildir. Bunda esa ular xalqimizning Islom diniga bo'lgan e'tiqodidan foydalanishga alohida ahamiyat qaratmoqdalar.

Din, xususan, Islom dini, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz o'z asarida:"...xalqimizning ma'naviyatini shakllantirishga, har qaysi insonning Alloh marhamat qilgan bu hayotda to'g'ri yo'l tanlashi, umrning mazmunini anglashi, avvalambor, ruhiy poklanish, yaxshilik va ezgulikka intilib yashashida uning ta'sirini boshqa hech qanday kuch bilan qiyoslab bo'lmaydi...

SHu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas Islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib kelmoqda".[134]

Xalqimiz ma'naviyatining negizini tashkil etuvchi islom dinidan ham g'arazli kuchlar uni buzib talqin etib foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bunda ular Islom dini va diniy aqidaparastlik tushunchalarini teng qo'yishdan foydalanmoqdalar. Ular islom dinini niqob qilib olib, manfur ishlarini amalga oshirayotgan mutaassib kuchlar hali ongi shakllanib ulgurmagan, tajribasiz, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bosh-ko'zini aylantirib, ulardan o'zining nopok maqsadlari yo'lida foydalanmoqda. Bunday nojo'ya harakatlar avvalo muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lib tushadi, oxir-oqibat ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Kommunistik mafkura va uning ahloq normalaridan voz kechilganidan so'ng jamiyatda paydo bo'lgan g'oyaviy-ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, chetdan ma'naviyatimiz uchun mutlaqo yot bo'lgan, ma'naviy va ahloqiy tubanlik illatlarini o'z ichiga olgan "ommaviy madaniyat" yopirilib kirib kelishi ham ma'naviyatga qilinayotgan tahdidning yo'nalishi ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "..."ommaviy madaniyat" degan niqob ostida ahloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm g'oyalarini tarqatish shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning (jumladan o'zbek xalqining) necha ming yillik an'ana va

[132] Қаранг: Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 13-14 бетлар.
[133] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 12 бет.
[134] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 36-37 бетлар.

qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”.[135] Ayniqsa, so‘nggi yillarda san’atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, videotasmalar, matbuot vositalarida bo‘lmag‘ur lavhalarni aks ettirish, bema’nilik va hayosizlikni, ba’zan esa hatto ahloqiy buzuqlikni targ‘ib qilishlar ko‘payib qolganligi o‘zligini anglagan insonni befarq qoldirmaydi. Ma’naviyatimizga qilinayotgan bunday tajovuzkorona harakatlar xalqimiz uchun mutlaqo begona mafkura va dunyoqarashni avvalo beg‘ubor yoshlarimizning qalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ayniqsa xatarlidir.

Bugungi kunda ahloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash “ommaviy madaniyat” namoyondalarining qarashlari bo‘lib, u jamiyat taraqqiyotiga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Ko‘pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish, uni oldini olish naqadar muhim ekanini anglab etmoqda.

Prezidentimiz xalqimizning ma’naviyatini qilinayotgan bunday ma’naviy xuruj va tahdidlardan asrash va unga qarshi qanday kurashish kerakligi haqida to‘xtab quyidagi fikrlarni aytgan edi: “Agarki mendan, hozirgi kunda ma’naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan xurujlarga nimani qarshi qo‘yish kerak, deb so‘rasa, men avvalambor shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o‘zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug‘ ajdodlarimizning merosini chuqurroq o‘zlashtirishi, bugungi tez o‘zgarayotgan hayot voqeligiga ongli qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o‘zgarishlarga daxldorlik tuyg‘usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo‘lardim”.[136]

YUrtboshimiz bu boradagi fikrini davom ettirib, ma’naviy tahdid va xurujlarga qarshi kurashda “...fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish har qachongidan ko‘ra muhim ahamiyat kasb etmoqda”, [137]- deb ta’kidlagan edi.

Hammamizga ma’lumki, kishi organizmidagi har qanday kasallikni oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Bizlar ham farzandlarimizni Ona Vatanga muhabbat, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun, avvalo ularning qalbi va ongida mafkuraviy immunitetni kuchaytirishimiz zarur. Toki yoshlarimiz milliy o‘zligini, shu bilan birga, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastlarning “da’vati” ham, ahloq-odob tushunchalarini rad etadigan, biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar tahdid qilib ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Agarki mamlakatimizning har bir fuqarosi, xususan o‘sib kelayotgan yosh avlod o‘z mustaqqil fikriga zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlarga, sog‘lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo‘lmasa, har turli ma’naviyat tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko‘rinishdagi ta’siriga bardosh berish anchayin qiyin kechadi.

Mustaqilligimizning o‘tgan yillari davomida biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo‘lmasligi, farzandlarimizni bizdan ko‘ra kuchli, bilimli, dono va baxtli bo‘lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma’naviy tarbiya, hech shubhasiz muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’naviy tarbiya masalasida xushyorlik va sezgirligimizni, qat’iyat va mas’uliyatimizni yo‘qotsak, bu o‘ta muhim ishni o‘z holiga, o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yadigan bo‘lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo‘g‘rilgan va ulardan oziqlangan ma’naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir oqibat o‘zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo‘lidan chiqib qolishimiz mumkin.

YOshlarimizning ma’naviy tarbiyasida beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o‘zibo‘larchilikka tashlab qo‘yilsa, o‘sha erda ma’naviyat eng ojiz va zaif nuqtaga aylanadi. YOki aksincha qaerda xushyorlik va jonkuyarlik, yuksak aql-idrok va tafakkur hukmron bo‘lsa, o‘sha erda ma’naviyat qudratli kuchga aylanadi.

---

[135] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 17 бет.
[136] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 17 бет.
[137] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 119 бет.

Mamlakatimiz rahbariyati ma'naviyatni qudratli va engilmas kuch ekanligini to'g'ri anglab, yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash ishiga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Zotan, mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol insonlar zarur. SHuning uchun ham yurtboshimiz "YUksak ma'naviyat – kelajak poydevori", "YUksak ma'naviyat – engilmas kuch" kabi shiorlarni yana balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni asrab-avaylash, mustahkamlash, rivojlantirish va takomillashtirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi.

Ma'naviyatli va e'tiqodli kishilar o'z maslagi, Vatani uchun jonini fido qilishga har doim, har daqiqada tayyor bo'ladilar.

O'zbekiston bozor munosabatlariga to'la o'tayotgan davrda ma'naviy-ahloqiy qadriyatlarining ahamiyati tobora o'sib borayotganligi ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashni eng dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'ymoqda. SHu ma'noda Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlari hozirgi davrda har qachongidan ham ko'ra muhim ahamiyat kasb etadi: "Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. YA'ni mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat".[138] Bozor munosabatlarida ham yuksak ma'naviyatli va ahloq-odobli, iqtidorli, bilim saviyasi yuqori va chuqur, zukko, ishbilarmon, ishchan kishilar zarur. Qashshoq ma'naviyat, ma'naviy-ahloqiy sust, bilim saviyasi yuzaki va past, ishning ko'zini bilmaydigan kishilar bozor munosabatlarida ko'zlangan maqsadga erisholmaydilar. Bundan xulosa shuki, hech ikkilanmay va kechiktirmasdan ma'naviy-ma'rifiy tarbiya masalasi haqida o'ylash, uni to'g'ri yo'lga solish vazifasi kelib chiqadi. Bunda biz ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning "Tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir" degan o'gitigi amal qilishimiz kerak.

Oldimizda turgan ezgu maqsadlarimiz – mamlakatimizning buyuk kelajagi ham, ertangi kunimiz, erkin va farovon hayotimiz ham, O'zbeksiton XXI asrda jahon hamjamiyatidan qanday o'rin egallashi ham – bularning barcha barchasi, avvalambor yangi avlod, unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz qanday insonlar bo'lib voyaga etishiga bog'liqdir.

Vatanimiz ertangi kunini, o'z zuryodlari baxtu istiqbolini istaydigan har bir odam – u kim bo'lishi, qanday lavozim egasi bo'lishidan qat'iy nazar, farzandlarimizning ma'naviy, g'oyaviy tarbiya masalasidan chetda turmasligi kerak. Bugun bu o'ta muhim masalaga beparvo qarashga, loqayd bo'lishga hech kimning haqqi yo'q.

Endilikda ma'naviy va ma'rifiy tarbiya mustaqil davlatimiz siyosati darajasiga ko'tarildi. Negaki, taraqqiyot taqdirini ma'naviy jihatdan etuk odamlar hal qiladi. YUrtdoshlarimizning texnikaviy bilimi, murakkab texnolgiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy-ma'naviy salohiyat ma'rifatli insonning ikki qanoti bo'ladi. Butun ma'naviy va ma'rifiy tarbiya ishimizni shu qoidaga asoslanib qurmog'imiz, zamon, mustaqil taraqqiyotimiz, bozor munosabatlari davri talabidir.

### 14.3. Ma'naviy barkamol inson tushunchasi, uning mohiyati

Ma'naviy barkamol inson tushunchasi keng qamrovli serqirra tushuncha. Ma'naviy barkamol inson – komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtda ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog'lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatilsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson ahloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo'lgan munosabatlaridan tortib, toki oilagacha, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi. Mustaqillikka erishib, ma'naviyat va ma'rifat masalalariga birinchi darajali ahamiyat berishimiz, mustaqillikni mustahkamlash vazifalari, tarbiya sohasida sog'lom avlod, ma'naviy barkamol inson, komil inson kabi tushunchalarga izoh berishni, ularning mohiyatini ochib berishni taqozo etmoqda. YUqorida aytganimizdek, ular mohiyati birday tushunchalar. Insonni to'g'rilikka, halollikka, poklikka, vatanparvarlik va insonparvarlikka, ezgulikka va qo'yingki, yuksak ahloqlilikka yo'llash

---

[138] Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. 25-бет.

bu tushunchalarning mohiyati va mazmunini tashkil etadi. Hozirgi kunda bu masalalarga birinchi darajali ahamiyat berishimizning boisi – iymoni, e’tiqodi va ahloqiy fazilatlari – qo‘yingchi, ma’naviyati kuchli, milliy mas’uliyat tuyg‘usi qalbida chuqur ildiz otgan, ma’naviy barkamol fuqarolarga ega bo‘lgan mamlakatgina mustaqil va barqaror rivojlana oladi. Buyuk kelajak ma’naviy barkamol insonlarga tayangandagina yaratiladi, qad ko‘taradi. Boshqacha aytganda, ma’naviy barkamol, komil insonlargina buyuk kelajakni yarata oladilar. SHuning uchun ma’naviy barkamol insonni, sohlom avlodni tarbiyalash muhim va dolzarb masala. Bu masalada yurtboshimizning quyidagi so‘zi ibratlidir: “Biz sog‘lom avlodni tarbiyalash, voyaga etkazishimiz kerak. Sog‘lom kishi deganda faqat jismoniy sog‘lomlikni emas, balki sharqona ahloq-odob va umumbashariy g‘oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz”[139]

Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, sharqona odob-ahloq va umumbashariy g‘oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma’naviyatli, ya’ni ma’naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma’naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e’tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, ahloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi bilan ajralib turadi. Ma’naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, vatan taqdiri va uning ravnaqini o‘ylaydilar. Ular mutelikda, qaramlikda yashashni istamaydilar.

Sog‘lom deganda, biz faqatgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma’naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, ahloqiy pok, ma’rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog‘imiz kerak. Bunday kishilar o‘zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari – iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o‘zaro hurmat, yuksak vatanparvarlik, insonparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g‘oyalarni mujassamlashtirgan bo‘lishlari lozim.

Prezident erkin fuqaro, ozod shaxs, barkamol inson haqida gapirib, quyidagi to‘rt jihatga e’tiborni qaratdi, ya’ni har bir fuqaro:

-o‘z haq-huquqini taniydigan bo‘lsin, buning uchun kurashsin;

-o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan bo‘lsin, imkoniyatlarini ishga solib, samarasini ko‘rsin;

-atrofida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bildira olsin;

-shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uyg‘un holda ko‘rib, faoliyat yuritsin[140].

Bular barkamol inson fazilatlari haqidagi aniq va to‘liq ta’rifdir.

Ma’naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklarga duch kelganida qaddi bukilmaydi, ba’zan uyushtirilgan tuhmatu fitnalar uning ruhini tushira olmaydi. Demak, har qanday shum taqdir va qismat pokiza, mard, ma’naviy barkamol inson ma’naviyatini buza olmaydi, balki mustahkamlaydi, chiniqtiradi. YUksak darajadagi ma’naviyatga ega inson – fidoyilik, jasorat, mardlik, o‘z xalqini sevish, Vatanni qadrlash, ajdodlaridan faxrlanish kabi olijanob fazilatlari bilan ajralib turadi. Insonning insonligi, birinchi navbatda uning ma’naviy-ahloqiy jihatdan barkamolligi, pokligi bilan belgilanadi. Ma’naviy-ahloqiy barkamollikning asosiy qirralariga yuqorida aytilganlardan kelib chiqib unga quyidagilarni kiritish mumkin: ota-onasi, farzandlari, qarindoshlari, xullas butun oila a’zolari, qo‘ni-qo‘shnilari, mahalla ko‘yi, qishloqdoshlari va butun mamlakat xalq farovonligi haqida qayg‘urish, tevarak-atrofdagi insonlar unga kerak bo‘lganligi singari, o‘zi ham ularga kerakli bo‘lishga intilishi, odob-ahloqi, fe’l-atvorini yoqimli qilishini insoniy burch deb hisoblash, ota-bobolardan, ajdodlardan yodgor bo‘lib qolgan madaniy-ma’naviy merosni qadrlash, milliy qadriyatlarni e’zozlash va ularga sodiq bo‘lib qolish, vatanparvarlik, insonparvarlik, xalqparvarlik tuyg‘ularining barqaror bo‘lishi; o‘zaro muomala-munosabatda o‘rnak bo‘lishga moyillik, birovning og‘irini engil qilishni odat qilish, umumxalq ma’qullagan va hukumat tomonidan qabul qilingan Konstitutsiyaga hurmat va unga sadoqat namunalarini amalda ko‘rsatish; Vatanni himoya qilish, boshqacha aytganda, harbiy-vtaanparvarlik tuyg‘ulari bilan

---

[139] Каримов И. А. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Тошкент, “Ўзбекистон”, 1995, 57-бет.

[140] Қаранг. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Тошкент “Ўзбекистон”, 2000 йил, 232-233 бетлар.

yashash; diyonat, adolat, mehr-shafqat, ezgulikni himoya qilish; va’daga vafoli bo‘lish va boshqalar kiradi.
Ma’naviy-ma’rifiy barkamollikning qirralari va mezonlari qatoriga mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor ham kiradi. Mustaqillik tafakkurini har bir kishida shakllantirish nihoyatda zarur. Toki, mustaqillik tafakkuri va milliy iftixor, g‘urur bo‘lmas ekan, fidokorlik, vatanparvarlik, millatparvarlik kabi xislatlar jo‘sh urmaydi.
Mustaqillik tafakkuri keng qamrovli bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi:
-Vatan istiqloli va istiqboli haqida qayg‘urish;
-xalqi, yurti qadr-qimmati, or-nomusini anglash va buni himoya qilish:
-butun mehnati, iste’dodi, imkoniyatini xalq baxti uchun baxshida etish va boshqalar.
Mustaqillik – bu bizga ajdodlarimiz qoldirgan boy va muqaddas ma’naviyatdir. SHu ma’naviyatni har birimiz avaylab-asrashimiz va mustahkamlashimiz davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan muhim vazifa va burchdir. SHu vazifani amalga oshirish va hal qilishda yoshlar va butun xalq ongiga mustaqillik ruhini singdirish katta ahamiyat kasb etadi.
Ma’naviy-ma’rifiy barkamollikning qirralaridan yana biri milliy iftixordir. Milliy g‘urur bu milliy iftixordir. Milliy g‘urur o‘z xalqining necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma’naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an’analari, odob-ahloqi, turmush tarzi, yuksak ma’naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e’zoz bilan munosabatda bo‘lish, avaylab-asrashdir.
O‘z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tilini, istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan, milliy mansubligini unutgan, o‘z millatining istiqboli uchun qayg‘urmaydigan, kurashmaydigan kishilarda milliy g‘urur ham, millat bilan faxrlanish ham, millatparvarlik ham bo‘lmaydi. Bunday kishilarni ma’naviy barkamol inson deya olmaymiz.
SHunday qilib, yuqorida ma’naviy barkamol inson, uning mohiyati va asosiy qirralarining ba’zi jihatlari ustidagina fikr yuritdik. Uning qolgan ba’zi qirralarini navbatdagi mavzularda yoritib boriladi.

## Komil inson va uning sharqona fazilatlari

Komil inson tushunchasi ma’naviy barkamol inson tushunchasi bilan hamohangdir.Ma’naviy barkamollikka erishmay komil inson darajasiga etish mumkin emas. Demak, ma’naviy barkamollikka intilish – bu komil inson darajasiga erishish uchun intilishdir.Komillikka inson butun umri davomida erishib boradi. Uchta tushuncha: sog‘lom avlod, ma’naviy barkamol, komil inson – darajama-daraja chuqur ma’no kasb etadi. SHundan kelib chiqadigan bo‘lsak, komil inson bo‘lishning aniq cheki va chegarasi yo‘q. SHu bilan birga ma’naviy-ahloqiy komillik darajasini har kim o‘zicha belgilay olmaydi. Kimki “Men ma’naviy-ahloqiy komillik cho‘qqisiga etdim desa, o‘ziga o‘zi yuksak baho bersa, u hali komil inson emas. Inson hech qachon o‘zining ma’naviy kamolot darajasiga baho bera olmaydi. Komillik har bir shaxsning boshqalar bilan bo‘lgan munosabatda ko‘zga tashlanadi. Komil insonni ota-ona, jamoatchilik, ular bilan munosabat shakllantiradi. Komillikning yo‘li odalardan faqat yaxshi fazilatlarni o‘rganish, ibrat olish, doimo yaxshilikka, ezgulikka intilishdir.
Bizning ko‘hna tariximizda yuzaga kelgan, xalq, mamalakat tarixida katta ma’naviy-ahloqiy tarbiya rolini o‘ynagan tasavvuf komil inson nazariyasi, uni tarbiyalash, voyaga etkazish haqidagi ta’limot va amaliyot sanaladi. Mazkur masalani tasavvuf ta’limotidan kelib chiqqan holda bayon etishni maqsadga muvofiq deb topdik.
Komil inson biz uchun idealdir. U barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomati serob, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim to‘la pokiza zot. Komil inson odamzod orzu qilgan jamiki ezgu xislat va fazilatlarni o‘zida mujassam etgan insondir.
Komil insonlar jamiyatning tirik vijdonlaridir. Kishilar ularga qarab xushyor tortadilar, dunyo behudaligidan o‘ziga kelib, o‘z qalblari, qilayotgan ishlariga razm soladilar, tavba-tazarru qiladilar. Komil insonlarning af’olu a’moli insonlar diliga quvvat,ko‘ziga nur bag‘ishlagan.
Komil inson haqida tasavvuf adabiyotida ko‘p asarlar bitilgan.Ana shunday asarlardan biri Aziziddin Nasafiyning “Insoni komil” nomli risolasi bo‘lib, unda komil insonga shunday ta’rif

berilgan: “Bilgilki, komil inson deb shariat va tariqat va haqiqatda etuk bo‘lgan odamga aytadilar va agar bu iborani tushunmasang, boshqa ibora bilan aytayin: bilgilki, komil inson shunday insondirkim, unda quyidagi to‘rt narsa kamolga etgan bo‘lsin: yaxshi so‘z, yaxshi fe’l, yaxshi ahloq va maorif”. Bu sifatlar bilan ziynatlangan odam yolg‘on, riyo va badkirdorlikdan chekinadi, hamma vaqt ezgu niyat bilan yashab, ezgu ishlarga tayyor turadi.
YAxshi ahloqiy sifatlarni egallab borgan odam komil inson martabasiga ko‘tarila oladi. Komil inson – insonlarning eng mukammali, eng oqili, donosi. Komil insonlar odamlar jamiyati ichidan etishib chiqadigan mo‘‘tabar zotdir. Insonlar komillikka ahloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida erishadilar.
Komillikning belgisi xalq yo‘lidan borib, xalqqa foyda keltirishdir. Kishi o‘z so‘zi, amaliy ishlari, niyati bilan odamlarga qanchalik foyda keltirsa, yomonlarni to‘g‘ri yo‘lga solsa, haq yo‘lida fido bo‘lsa, u shuncha komil bo‘ladi.
Komil, barkamol insonni tarbiyalash, voyaga etkazish haqida musulmon sharqi ahloqi tarixida inson hayoti uchun dasturulamal, qo‘llanma vazifasini o‘tagan ko‘p pandnomalar, xalq kitoblari yaratilgan. Bu o‘rinda Prezidentning quyidagi so‘zini eslash o‘rinli: “...bizning ulug‘ ajdodlarimiz o‘z davrida komil inson haqida butun bir ahloqiy mezonlar majmuini, zamonaviy tilda aytganda, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanliklarini eslashimiz kerak, deb bilaman. Ota-bobolarimizning ongu tafakkurida asrlar, ming yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andishga, sharmu hayo, ibo va iffat kabi yuksak ahloqiy tuyg‘u va tushunchalar bu kodeksning asosiy ma’no-mazmunini tashkil etadi”.[141]
Komil inson fazilatlarini o‘zida ifoda etgan asarlar sirasiga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:Kaykovusning “Qobusnoma”, Sa’diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Amir Temurning “Temur tuzuklari”, Abdurahmon Jomiyning “Bahoriston”, Alisher Navoiyning “Mahbubul-qulub”, Husayn Voiz Koshifiyning “Ahloqi muhsiniy” va boshqalar. Bu asarlarning ko‘pchiligida odil shoh va adolat, halollik va soflik, poklik, to‘g‘rilik, insonparvarlik, ma’rifatli bo‘lish kabi insonning sharqona fazilatlari berilgan.
Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o‘tilgan. Bular qatoriga ulug‘ mutafakkir quyidagilarni kiritadi: tavba, halol luqma bilan qanoatlanish, o‘z kasbidan topib kun o‘tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o‘zini kam deb bilish, hatto farzandlari, xizmatkorlariga qo‘pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo‘lish – yaxshi, muloyim tilli bo‘lish, rahmdil, sahiy, mard, halim, xushhulq, sabrli, sadoqatli, vafoli bo‘lish, rozi-rizolik bilan kun o‘tkazish, riyozat chekishdan qo‘rqmaslik va boshqalar.
SHu tariqa o‘tmishda komil insonning o‘ziga xos ahloq kodeksi ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sifatlarga ega bo‘lish har bir odamning orzu-armoni deb qaralgan. Komil inson haqidagi g‘oyalar katta ijtimoiy-ahloqiy, ma’naviy ahamiyatga ega. U insonni sharafli, ezgulik va buyuk xayr ruhida tarbiyalash, mehru muhabbat, vafo va sadoqatni kuchaytirishga xizmat qilib keldi. Har zamon va lahzada insonlarga ularning insonligini eslatib, yovuz, qabih ishlar, nojo‘ya hatti-harakat va qiliqlardan saqlanishga ko‘maklashdi, ularda iymon va vijdon binosining paydo bo‘lishi va mustahkamlanishini ta’minlab keldi.
Komil inson iymon va e’tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog‘imiz lozim. Mustaqil O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tish sharoitida iymonli bo‘lish, halollik va poklik, vijdonli va diyonatli bo‘lish nechog‘lik zarur ekanligi hammamizga ayon. Mana shuning uchun ham prezident ma’naviy barkamol inson tarbiyasida yoshlarimizni elini, Vatanini sevuvchi komil inson qilib tarbiyalash ishiga alohida ahamiyat beryapti. Quyidagi ta’rifda komil insonning asosiy xususiyatlari har taraflama chuqur va teranlik bilan bayon qilingan: “Komil inson deganda, biz avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli,ma’rifatli kishilarni tushunamiz”.[142]
Boshqa ibora bilan aytadigan bo‘lsak, Allohning o‘zi biz insonlarga buyurgan komil inson bo‘lish, halollik, to‘g‘rilik, poklik va adolat bilan kun kechirish kabi ko‘pdan-ko‘p olijanob

[141] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. 118 бет.
[142] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 6-бет.

fazilatlarning ma’no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga doimo amal qilib yashash- odamzotning ma’naviy boyligini, komilligini belgilab beradigan asosiy mezon sanaladi.
Uning shakllanganligi darajasini xarakterlovchi eng muhim fazilatlar esa quyidagilardir: aqliy zukkolik, huquqiy komillik, ahloqiy etuklik, siyosiy teranlik, mehnatga halol munosabat, yuksak madaniy, ma’naviy saviya, professonal iftixor, milliy va umuminsoniy g‘urur va boshqalar.
YUqoridagilarni hozirgi mustaqil hayotimiz, turmush tarzimiz, kishilarning, ayniqsa, yoshlarning intilishlari bilan bog‘lab komil inson chizgilariga quyidagi xislat va fazilatlar kirishiin umumiy tarzda bayon etishimiz mumkin:
Komil insonning umumiy xislatlari: yoqimlilik, ko‘rkamlik, jozibadorlik, salobatlilik, hurmatga sazovorlik, shoironalik, ulug‘sifatlik, o‘ziga xoslik, etuklik, jiddiylik, madaniyatlilik, tarbiyalanganlik va boshqalar.
Komil insonning ahloqiy fazilatlari: insonparvarlik, do‘stlik, g‘amxo‘rlik, jonkuyarlik, samimiylik, odamiylik, bolajonlik, iymonlilik, fidokorlik, xushmuomalali, boadabli, iltifotli bo‘lishlik, kechirimlilik, mehmondo‘stlik, halollik, to‘g‘rilik, diyonatlilik, haromdan hazar etish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik va hokazolar.
Ishbilarmonlik xislatlari: ishchanlik, tirishqoqlik, serharakatlilik, mas’uliyatlilik, insoflilik, halollik, malakalilik, epchillik, udaburonlik, saranjom-sarishtalik, tadbirkorlik, aniqlik, tejamkorlik, barkamollik, ta’masizlik, tavakkalchilik va boshqalar.
Zukkolik, idroklilik fazilatlari: zehnli, bama’ni, xotirjamlik, sog‘lom fikrli, donishmandlik, sezgirlik, zakovatlilik, topqirlik, notiqlik, tanqidiylik, dalillik, omilkorlik, savodxonlik, qiziquvchanlik, ishqibozlik kabilar.
Sobitlik xislatlari: faollik, qat’iyatlilik, tezkorlik, jo‘shqinlik, sabotlilik, bir so‘zda turishlik, barqarorlik, botirlik, dovyuraklik, intizomlilik, jiddiylik, nafsni tiyishlik, o‘zini yo‘qotmaslik, sovuqqonlik, o‘ziga talabchanlik, kamsuqumlik, o‘zini o‘zi idora eta bilish va boshqalar.
Ehtiroslilik xislatlari: ko‘tarinkilik, tantanavorlik, kulib turuvchanlik, hazinlik, kelajakka ishonch, ezgulik, kek saqlamaslik, olijanoblik, otashinlik, nozik tabiatlilik, hayolilik, hijolatpazlik, iffatlilik va hokazolar.
Ayni shu xislat va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog‘lom va komil inson qilib voyaga etkazishda ta’lim- tarbiya tizimi va ota-ona tarbiyasining to‘g‘ri qo‘yilishi muhim rol o‘ynaydi.
Vatan, millatning kelajak poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni bo‘lmish farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq, chunki inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim-tarbiyadan boshlanadi. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo buyuk kelajakni yaratuvchi shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shunday oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan, o‘zida inson degan ulug‘ nomga xos fazilatlarni mujassamlashtirgan komil insonlar etib voyaga etkazish ta’lim-tarbiya ishimizning, har bir ota va onaning asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi lozim. Bu ishga har bir ota-ona, ustoz va murabbiy nihoyatda katta javobgarlik hissi bilan yondashishi talab etiladi. Nega deganda, farzandlarimiz xalq ma’naviyatining munosib egalaridir.
Mustaqillik ruhida yangicha fikrlaydigan fozil, komil inson, eng avvalo, fuqarolik burchini a’lo darajada his etadigan shaxs bo‘lishi darkor. Sodda qilib aytganda, har qaysi komil inson, har birimiz: “SHu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?” deb emas, balki “Men o‘zim Vatanimga, elu yurtimga nima berdim?” deb o‘ylashimiz va har dam shu aqida bilan yashashimiz kerak.

Markaziy Osiyo azaldan ilmiy bilimlar va madaniyatning qadimiy markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Bu o‘lka mutafakkirlari jahon ilm-fani, madaniyati, ma’naviyati va falsafiy fikrlarini o‘z kashfiyotlari, ilg‘or ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy qarashlari bilan boyitib kelganlar. Uning taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatganlar.
Mustaqilligimiz sharofati ila jahon ma’naviyati va ma’rifati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan ulug‘larimizni teran anglash, o‘rganish va ulug‘lash baxtiga muyassar bo‘ldik.

Afsuski, salkam 150 yillik mustamlakachilik, 70 yillik totalitar tuzum hukmronligi davrida jumhuriyatimiz navqiron avlodi, Islom Karimov aytganidek, necha yillar bizni tariximizdan, dinimizdan, ma’naviy merosimizdan g‘ofil etishga urindilar, - natijada ular o‘z xalqining tarixini, uning boy tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, ahloqiy madaniyatidan bahramand bo‘lish, o‘rganishdan mahrum bo‘lib keldi.[143]

Ajdodlarimiz e’zozlab kelgan, asrlar qa’ridan olib o‘tilgan falsafiy-ahloqiy pand-nasihatlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko‘zlab yurgizilgan siyosat qurboni bo‘ldi, e’tibordan chetda bo‘ldi. Bu esa yosh avlodning ma’naviyatiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Vaholanki, Islom Karimov “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” kitobida ta’kidlaganidek: “O‘tmishdagi allomalarning bebaho merosi qanchadan-qancha avlodlarning ma’naviy-ruhiy ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta’sir ko‘rsatmoqda”.[144]

Mustaqillik tufayli o‘rganish, tahlil etish imkoniyatiga ega bo‘lgach, ajdodlarimiz ma’naviy merosini chuqurroq o‘rganish bizning muqaddas burchimiz bo‘lib qoldi, inchunun o‘z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo‘lmaydi. “Ona zaminimizda bundan necha asrlar avval yaratilib, to hanuz yurtimizga ko‘rk bag‘ishlab turgan qadimiy obidalar, osori atiqalar xalqimizning yuksak salohiyati, kuch-qudrati, bunyodkorlik an’analari haqida, Vatanimizning shonli tarixi to‘g‘risida tasavvur va tushunchalar beradi, shu muqaddas diyorda yashaydigan har bir inson qalbida g‘urur-iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi”.[145]Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “...zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlar bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim”. [146]

YUqoridagilarni hisobga olib mazkur mavzuni Markaziy Osiyoda ilmiy-falsafiy bilimlar, ya’niki ma’naviyat va ma’rifat rivoji haqida qisqacha ma’lumot berishdan boshlashni lozim topdik.

### 1. Markaziy Osiyo SHarqning ma’naviyat va ma’rifat markazidir

Qadimgi Markaziy Osiyoning tarixi, madaniyati, ma’rifati, ijtimoiy-falsafiy qarashlari haqida yunon, xitoy, hind, arman tarixchilarining asarlarida, Avesto, Behustun, O‘rxun-Enisey yodgorliklari kabi manbalarda, Beruniy, Narshaxiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida ma’lumotlar saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlar taraqqiyot darajasini ko‘rsatuvchi yodgorliklar bizning davrgacha kam etib kelgan. Ammo yuqorida qayd etilgan manbalar Markaziy Osiyoda qadimdan astronomiya, matematika, geometriya, geodeziya, fizika, tibbiyot va boshqa tabiiy-ilmiy bilimlar sohasida birmuncha muvaffaqiyatlarga erishganligidan dalolat beradi. Bizga qadar saqlanib qolgan Sug‘d kalendari, Beruniy asarlaridagi ma’lumotlar va boshqa manbalar Markaziy Osiyoda ilmiy bilimlarning, ayniqsa astronomiya borasidagi ilmiy bilimlar taraqqiy etganini ko‘rsatadi. Sug‘d, Xorazm va boshqa joylarda etishgan olimlar sayyoralar va yulduzlar turkumini o‘rganib, ularni maxsus nomlar bilan atab, Burj tizimini aniqlaganlar. Hukmdorlar saroyidagi astronomlar (ular astrolog ham bo‘lgan) goroskoplar tuzib sayyoralar dunyosini tekshirganlar. Ular fizika, matematika, falsafa, tibbiyot va boshqa ilmiy bilim sohalari bilan shug‘ullanganlar. Markaziy Osiyo xalqlari juda qadim zamonlardayoq sug‘orish inshootlari qurganlar, kanallar barpo etganlar, chig‘ir va koriz usullari bilan suvsiz qurg‘oq erlarga suv chiqarganlar. YUlduzlarga qarab uzoq erlarga safar qilganlar, mustahkam binolar qurganlar, toshni eritish yo‘li bilan shisha ishlab chiqarganlar va hokazo. Bularni ma’lum ilmlarsiz amalga oshirish qiyin edi.

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy va ilmiy bilimlar taraqqiyotida katta o‘rin egallagan yangi bir bosqich bo‘ldi. Bu davrni tarixda Markaziy Osiyoda ilk uyg‘onish davri deb yuritiladi. Bu davrda ilmiy va diniy bilimlar rivojida Markaziy Osiyo jahon madaniyatining markaziy o‘choqlaridan biriga aylandi. Arab istilosiga barham berilib markazlashgan feodal

---

[143] Қаранг.Каримовнинг И. А Бухоро ва Хива шаҳарларининг 2500 йиллигига бағишланган тантанали маросимидаги табрик сўзи. «Ишонч» газетаси 1997 йил 21 октябр сони.
[144] Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. 12-бет.
[145] Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент. Ўзбекистон, 2000, 47-бет.
[146] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 41- бет

davlatlarning yuzaga kelishi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojiga, ilmiy bilimlarning o‘sishiga olib keldi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoning SHarq va G‘arb savdo va madaniy aloqalar yo‘li ustida joylashishi (hozirda bu “Buyuk ipak yo‘li” nomi bilan tarixga kirgan) bu o‘lkada ilmiy bilimlar va madaniyatning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Xuddi shu davrda jahon fani va madaniyati rivojida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirlar etishib chiqdi.

Dehqonchilik, hunarmandchilik va savdoning taraqqiy etishi jarayonida tabiiy empirik bilimlarni rivojlantirishga ehtiyoj tug‘ildi. SHunga muvofiq Markaziy Osiyoning ilg‘or mutafakkirlari matematika, astronomiya, geografiya, tibbiyot ilmlarini chuqur o‘rgandilar, ilmiy bilimlar borasida yangi ilmiy g‘oyalarni ilgari surdilar.

SHuni ta’kidlash joizki, arab xalifaligi uchun ham diniy bilimlar bilan bir qatorda tabiiy- ilmiy bilimlar kerak edi. Arablarning o‘z ichida bu ishga yaroqli ilm ahli juda kam va kuchsiz bo‘lgan. SHuning uchun ham ular o‘zlari zabt etgan joylardagi ilm bilan shug‘ullanuvchilarga imkon yaratishga harakat qilganlar. Buxoro, Urganch, Marv, Balx, Bag‘dod, SHom kabi shaharlar ilk o‘rta asr SHarqining ilmiy markaziga aylangan. Arab tili esa ilm-fan, ijod tiliga aylandi.Markaziy Osiyolik mutafakkirlar arab tilini mukammal o‘rganib o‘z asarlarini shu tilda bitdilar. Rumo, yunon, hind, fors tillarida bitilgan asarlarni arab tiliga o‘girdilar.

Markaziy Osiyolik mutafakkirlar o‘rta asrlarda tashkil topgan ilmiy markazlar – “Baytul-hikmat” (“Donishmandlar uyi”) ya’ni Bag‘dodda faoliyat ko‘rsatgan “Ma’mun akademiyasi”da, 2006 yil noyabr oyida 1000 yilligi nishonlangan “Dorul hikma”, “Xorazm Ma’mun akademiyasi”da va XV asrda Movarounnahrda faoliyat ko‘rsatgan “Ulug‘bek (Samarqand) akademiyasi”da qizg‘in ilmiy ishlarni olib bordilar.

Halifa Horun ar-Rashid Bag‘dodda tashkil etgan “Bayt ul – hikmat”da halifa Ma’mun davrida Markaziy Osiyoning bir qator ilm ahllari faoliyat ko‘rsatganlar. Bular jumlasiga Muso Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abbos ibn Said Javhariy, Ahmad ibn Abdulloh Marvaziy va boshqalar kiradi. Mazkur “Donishmandlar uyi”dagi kutubxonada hind, yunon, suryoniy (Suriya), arab, fors tillarida 400 000 jild qo‘lyozma asarlar saqlangan bo‘lib, ilm ahllari undan foydalanganlar.

“Xorazm Ma’mun akademiyasi”da Markaziy Osiyo zaminida tavallud topgan Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mahmud Xo‘jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazmiy, Ahmad ibn Hamid Naysaburiy kabi allomalar SHarq va G‘arbdagi o‘lkalardan kelgan turli millat va dinga mansub bo‘lgan olimlar bilan birgalikda ilmiy faoliyat yuritganlar.

Mazkur akademiya Prezidentimiz tashabbusi bilan 1997 yildan qayta tiklandi va o‘z ilmiy ish faoliyatini boshladi. Hozirda Ma’mun akademiyasi zamonaviy jihozlar bilan taminlanib bir necha tadqiqot laboratoriyalari tashkil etildi. U 16 ming 600 nusha kitob fondiga ega bo‘lgan boy ilmiy kutubxona va zamonaviy axborot-resurs markaziga ega.

Bir so‘z bilan aytganda, Xorazm Ma’mun akademiyasi umumbashariy sivilizatsiya rivojidagi o‘rni va ahamiyati jihatidan qadimiy Afinadagi Platon akademiyasi, Misrdagi Aleksandriya kutubxonasi, SHarq olamida “Baytul hikmat”nomi bilan shuhrat qozongan Bag‘dod akademiyasi kabi mashhur ilmiy markazlar bilan bir qatorda turib SHarq musulmon Renessansi – Uyg‘onish davrining yorqin namoyoni sifatida tariximizning zarhal sahifalarini tashkil etadi.

Markaziy Osiyoda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy markazlardan yana biri temuriy hukmdor Mirzo Ulug‘bek (1394-1449y) davrida faoliyat ko‘rsatgan Samarqand (Ulug‘bek) akademiyasidir. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi faqat oliy diniy o‘quv yurti emas, Ulug‘bek rahbarligida barpo etilgan rasadxona (1424-1428y) bilan birga olinganda, o‘sha davrning akademiyasi ham bo‘lgan edi. Mazkur akademiyada o‘sha davrning mashhur olimi, matematik va astronom Qozizoda Rumiy, G‘iyosiddin Jamshid al-Koshiy, Nizomiddin al-Birjandiy, Ulug‘bekning iste’dodli shogirdi Ali Qushchi va boshqalar ilmiy faoliyat olib borganlar.

Agar IX-XII asrlar Markaziy Osiyo ilk Renessans – Uyg‘onish davri sifatida e’tirof etilsa, XIV-XVI asrlar so‘nggi Uyg‘onish davri sifatida ilmiy bilimlar rivoji tarixidan o‘rin olgan..

SHu o‘rinda Renessans – Uyg‘onish tushunchasi, SHarq va G‘arb uyg‘onish davri mazmun mohiyati, ular o‘rtasidagi umumiy, o‘xshash tomonlar va farq to‘g‘risida ma’lumot berishni

lozim topdik. Zero, bu SHarq uyg'onish davri, uning umuminsoniyat sivilizatsiyasida tutgan o'rnini tushunib olishda muhim ahamiyatga egadir.
Renessans-uyg'onish davri madaniyati, va ma'rifati mohiyat-e'tibori bilan dunyoviy, gumanistik dunyoqarashi, antik davr madaniy merosiga murojaat qilish, bamisoli uning "qayta uyg'onishi"(nomi ham shundan)ni anglatadi. Uyg'onish davri namoyondalari qarashlari insonning cheksiz imkoniyatlariga, uning irodasiga, aql-idrokiga ishonib qarashi balan ajralib turadi.
Fanda SHarq va G'arb uyg'onish davri tushunchalari ishlatiladi. Ular umumiy, o'xshash tomonlar bilan birga, ma'lum farq, o'ziga xos xususiyatlari jihatidan ham ajralib turadi. Avvalo ular davr nuqtai nazaridan farqlanadi. Ilk SHarq uyg'onish davri IX-XII asrlarni, so'nggi uyg'onish davri XIV-XV asrlarni o'z ichiga olsa, G'arb uyg'onish davri XIV-XVI asrlarni o'z ichiga olishi bilan farqlanadi. G'arb uyg'onish davri uchun feodalizmga, dinga qarshi kurash xos bo'lsa, SHarqda masalaning g'arbdagidek keskin qo'yilishini ko'rmaymiz.
SHarq va G'arb uyg'onishi uchun umumiy xususiyatlar antik davrga murojaat qilish, uni "qayta tiriltirish", tabiiy fanlar rivoji, fanda universallik (qomusiylik)ni, gumanizmni targ'ib etish va boshqalarda namoyon bo'ladi.
SHarq renessansi davri quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:
1) madaniyat, dunyoviy fanlar va islom aqidashunosligining taraqqiyoti;
2) YUnon, rum, fors, hind va boshqa madaniyatlar yutuqlariga suyanish;
3) astronomiya, matematika, mineralogiya, jug'rofiya, Kime va boshqa tabiiy fanlar rivoji;
4) uslub (metodologiya) da-ratsionalizm, mantiqning ustunligi;
5) insoniy do'stlik, yuksak ahloqiylikning targ'ib etilishi;
6) falsafaning keng darajada rivoj topishi;
7) adabiyot, she'riyat, ritorikaning keng miqyosda rivojlanishi;
8) bilimdonlikning qomusiy xarakterda ekanligi va boshqalar.
Bu davrga kelib avvalo Markaziy Osiyo, Eron, Iroq va Suriya ilmu fan va madaniyatning yirik o'chog'iga aylandi. Xorazm, Buxoro, Hirotda yirik ilmiy markazlar tashkil topgan edi. Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Farg'oniy, Beruniy, Imom al-Buxoriy, Imom Iso at-Termiziy, Hakim at-Termiziy kabi Markaziy Osiyolik olimlarning, ulamolarning dong'i etti iqlimga taralgan edi.
Markaziy Osiyoning qadimiy, qo'hna va hamisha navqiron Buxoro, Xiva, Samarqand kabi shaharlari, qadimdan fan, madaniyat va ma'naviyatning markazi bo'lib kelganligi bilan ajralib turadi.
SHunday qilib Markaziy Osiyo, xususan hozir O'zbekiston deb ataluvchi bizning hududimiz, ya'niki Vatanimiz, -Prezidentimiz ta'biri bilan aytganimizda, - nafaqat SHarq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini endilikda butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Beshafqat davr sinovlaridan omon qolgan, eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib, bugun kutubxonalarimiz hazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozma, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, ahloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar Markaziy Osiyo SHarqning ilm-ma'rifat markazi bo'lib kelganligini ko'rsatuvchi va tasdiqlovchi dalil va isbotdir.[147]

## 2. Ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda ilm-ma'rifat va ma'naviyat rivoji

Markaziy Osiyoda ilk o'rta asrlar fanining asoschisi Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850y)dir. U halifa Ma'mun (813-833 yillarda halifalik qilgan)davri va undan keyin umrining oxiriga qadar Bag'doddagi "Bayt ul-hikmat"ni boshqargan. Olimga buyuk shuhratni dastlab «Hisob al-hind» ("Hind hisobi") nomli risolasi olib kelgan. Mazkur risolada jahon fani tarixida

[147] Қаранг: Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. 3-4 бетлар.

birinchi marta o‘nlik pozitsion sistema va uning ahamiyati haqida so‘z boradi. Xorazmiyning o‘nlik pozitsion sistemasi insoniyatga cheksiz qulay imkoniyatlar yaratib berdi. Agar mazkur sanoq sistemasi bo‘lmaganida ilmiy tafakkur bu darajada takomil topishi amri mahol bo‘lardi. Xorazmiy to‘qqiz belgidan iborat hind raqami yordamida cheksiz miqdorlarni qayd etuvchi va uni osonlik bilan ifodalovchi sanoq sistemasini kashf etdi. Hindlarning to‘qqiz belgidan iborat raqamlar tizimi mukammal sanoq tizimiga aylanishi uchun “0” kashf etilib, o‘z o‘rniga qo‘yilishi kerak edi. Xorazmiy tomonidan “0”(nul)ning kashf etilishi insoniyat ilmiy tafakkurining beqiyos ulkan yutuqlaridan biridir. Hozirgi zamon jahon ilmiy-texnika va texnologiyalarning erishayotgan ulkan yutuqlari asosida buyuk alloma Xorazmiy dahosi yotganligini endilikda hech kim inkor eta olmaydi.. Bu haqda Islom Karimov to‘xtar ekan: “Bugungi kunda odamzotning ilm-fan va zamonaviy texnologiyalar borasida erishayotgan ulkan yutuqlarini ko‘z oldimizga keltirar ekanmiz, beixtiyor ana shu buyuk bobomiz misolida bunday yuksak marralarga erishishda o‘zbek xalqining ham munosib hissasi borligidan qalbimiz iftihorga to‘ladi,”[148]-deb ta’kidlaydi.

Xorazmiyning “Hisob al-hind” kitobida eng muhim oltita arifmetik amallar – qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish, darajaga ko‘tarish va kvadrat ildiz chiqarish kabilar ishlab chiqilgan. Ularning uslub hamda qonuniyatlari kashf etilgan.

Xorazmiyning yana bir kashfiyoti va xizmati algebra faniga asos solganligidir. “Algebra” atamasining o‘zi Xorazmiy tomonidan yozilgan “Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob” nomli risolasidagi “al-Jabr” so‘zining lotincha talaffuz ifodasidan kelib chiqqan. Algoritmlar nazariyasining yaratilishi ham Xorazmiy ilmiy faoliyati bilan bog‘liqdir. Xususan, “Algoritm” atamasi lotinchada ifoda etilgan “Dixi algoritmus” – “dediki al-Xorazmiy” so‘zidan kelib chiqqanligini hech kim inkor eta olmaydi. Algoritm tushunchasi hozirgi zamon kibernetika, EHM (elektron hisoblash mashinasi) va hozirgi zamon informatsion texnologiya hamda jarayonlarning asosiy tushunchasiga aylandi. Xorazmiy jug‘rofiya, tarix, astronomiya sohalarida ham ilmiy ishlar olib borgan. Xalifa Ma’mun olimlar oldiga Osmon va Erning to‘liq xaritasini tuzishni vazifa qilib topshirgan. Bu ishga Xorazmiy rahbarlik qilgan. Xaritalar “Majmui al-Ma’mun”- “Dunyo xaritasi” nomi bilan yuritilgan. SHu munosabat bilan Xorazmiy jug‘rofiyaga oid “Kitobi surat al-arz” nomli asar yaratgan. Bu asarning yagona qo‘lyozma nushasi Qohiradan topilgan. Xorazmiy mazkur asarida Er yuzini SHimoliy qutbdan to ekvatorgacha 7 iqlimga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etgan. Bu bilan Xorazmiy Er yuzasini meridian(gradus)lardan tashqari parallellarga bo‘lib o‘rganishni boshlab berdi. Parallellar bilan meridianlarning kesishgan nuqtalari orqali Er yuzi koordinatlarini aniq belgilash imkoniyatlari ochildi.. Xorazmiy astronomiyaga oid “Xorazmiy ziji”-“YUlduzlar jadvali” asarini ham yozgan. Uning bu asari astronomiya ilmi rivojida yangi davrni boshlab bergan. Xorazmiy yuqoridagilardan tashqari “Astrolyabiya bo‘yicha risola”, “Quyosh soati to‘g‘risida risola”, “Xorazmning mashhur kishilari” nomli asarlarni ham yozgan.

Xorazmiy o‘rta asrlarda etishib chiqqan o‘zbek fanining ilk tamal toshini qo‘ygan buyuk allomadir. U o‘z asarlari bilan avval SHarq va keyinroq Evropa riyoziyot ilmiga asos solgan ilm sohibidir. Amerikalik sharqshunos olim D.Sarton “Xorazmiy barcha zamonlarning eng ulug‘ matematiklaridan biridir. Jahon fani tarixining 9-asrning birinchi yarmini hech mubolag‘asiz Xorazmiy davri deb atashimiz lozim”, - degan edi.

VIII asrning oxiri IX asrning birinchi yarmida faoliyat ko‘rsatgan, Xorazmiy bilan zamondosh bo‘lgan Markaziy Osiyolik buyuk astronom, geograf va matematik olimlardan biri Abu Abbos ibn Ahmad Farg‘oniy(797-865y.) ham Bag‘dodda ijod qilgan. “Baytul-hikmat”ning astronomiya maktabining rahbari bo‘lgan. Ahmad Farg‘oniy “Astronomiya va astrolyabiyaga kirish”, “Falakdan bo‘ladigan sabablar”, “Astrolyabiya fani usullari”, “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” kabi asarlarni yozgan buyuk astronom, geograf va matematikdir. Uning “Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum” asari “Astronomiya asoslari haqidagi kitob” nomi bilan mashhur bo‘lib, 1145 yildayoq Evropada lotin tiliga tarjima etilgan. SHundan so‘ng Ahmad al-

[148] Қаранг: Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 41- бет

Farg‘oniy nomi lotinlashtirilib, “Alfraganus” shaklida G‘arbda shuhrat qozondi. Uning “Astronomiya asoslari haqidagi kitob”i bir necha asrlar mobaynida Evropa universitetlarida astronomiya bo‘yicha asosiy qo‘llanma sifatida foydalanilgan. Asarda falakiyot va geografiya ilmlarining asosiy mazmuni, vazifalari va qismlari tushunarli dalillar asosida bayon qilingan. Erning shar shaklida ekanligi, bir xil osmon yoritgichlarning turli vaqtda ko‘tarilishi, tutilishi va bu tutilishning har bir joydan turlicha ko‘rinishi masofalar o‘zgarishi bilan ularning ko‘rinishi o‘zgarishi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Ahmad Farg‘oniyning mazkur kitobi avval Musulmon SHarqida, so‘ng Evropada astronomiya ilmining rivojini boshlab berdi.
U boshqa olimlar bilan birgalikda Er meridianining bir darajasini aniqlash ishlarida ishtirok etdi. 847-861 yillarda Nil daryosidagi suv sathini o‘lchaydigan “Miqyosi Nil” inshootini barpo etish ishlarini olib bordi. Ilmiy-texnik va me’moriy jihatdan g‘oyat ulug‘vor bu qurilma hozirga qadar saqlanib qolgan. Misrda 2007 yilda ana shu murakkab inshoot yonida ulug‘ allomaga haykal o‘rnatilishi uning fan rivojiga qo‘shgan ulkan hissasini insoniyat tomonidan e’tirof etilishidir.
Bizning davrimizgacha Ahmad al-Farg‘oniyning 7 ta asari saqlanib qolgan. Asarlarining qo‘lyozma nushalari jahonning turli shaharlari – Berlin, Dushanbe, London, Parij, Tehron, Toshkent, Mashhad, Patna, Rampur, Qohiradigi yirik kutubxonalarda saqlanmoqda.
Ulug‘ ajdodimiz- Ahmad Farg‘oniy insoniyat tarixidagi ilk Uyg‘onish davrining eng zabardast va kuchli namoyondasi, o‘z zamonasining fundamental fan asoschilaridan biri sifatida bashariyat dunyoqarashi va ma’naviyatining rivojlanishiga beqiyos ta’sir ko‘rsatgan allomadir.[149]
Allomaning ilmiy merosini yurtimizda o‘rganishga mustaqillik yillarida keng yo‘lga qo‘yildi. 1998 yilda esa Ahmad al-Farg‘oniy tavalludining 1200 yilligi nishonlandi.
Abu Nasr Forobiy (873-950)- o‘rta asrlar musulmon SHarqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon falsafasining eng yirik davomchisi va targ‘ibottchisi.Antik yunon ilmi va falsafasining bilimdoni sifatida Aristotelning “Metafizika”, “Fizika”, “Meteorologiya”, “Kategoriyalar”, “Anametika”, “Ritorika” va boshqa asarlarini, shuningdek Evklid, Ptolomey, Gippokrat, Galenlarning asarlarini arab tiliga tarjima qilib, ularga sharhlar yozgan. Bu bilan Forobiy SHarq xalqlarini, keyinroq esa Evropa xalqlarini yunon ilmi, falsafasi va madaniyati bilan tanishtirishda katta rol o‘ynagan. Ayniqsa, Aristotel falsafasini talqin etishda shuhrat qozonib “Al muallimi as-soniy”-ya’ni “Ikkinchi muallim” va “SHarq Aristoteli”kabi yuksak nomlarga sazovor bo‘lgan.
Su bilan birga Forobiy fanning turli sohalariga oid ko‘pgina original asarlar yaratgan. Bular jumlasiga: “Substansiya haqida so‘z”, “Qonunlar haqida kitob”, “Masalalar manbai”, “Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi”, “Mantiqqa kirish kitobi”, “Falsafa” tushunchasining ma’nosi haqida so‘z”, “Fazilatli hulqlar”, “Fozil shahar aholisining qarashlari” va boshqalar kiradi.Forobiy ilmiy faoliyati davomida 160 dan ortiq asarlar yaratganligi manbalarda qayd etilgan.
Forobiy dunyoqarashida borliq masalalari bilan bir qatorda ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ahloqiy fikrlar ham muhim o‘rin tutadi. Allomaning “Baxt-saodatga erishuv haqida”, “Fozil shahar aholisining qarashlari”, “Baxt-saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Fuqarolik siyosati” va boshqa asarlarida jamiyat va uning kelib chiqishi, uni boshqarish, ahloq-odob, ta’lim-tarbiya masalalari bayon qilingan. Jumladan, Forobiy shahar-davlatlarni fozil va johilga ajratadi. Fozil shahar o‘z xalqini baxt-saodatga eltishi, uning boshlig‘i esa adolatli va adolat uchun kurashuvchi, yuksak ahloqli, ma’rifatli, o‘zida butun ijobiy fazilat va xislatlarni to‘plagan bo‘lishi lozimligini uqtiradi. Johil shahar aholisi nafsga berilgan, butun fikru zikri boylik to‘plash bo‘ladi. Johil shaharda har turli buzuq odatlar, shahvoniy nafs, bir-birini ko‘rolmaslik, bir-birini talash, dushmanlik, nizo va janjallar avj olgan bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.
Forobiy fikricha davlatni idora etuvchi shaxs o‘zining 12 ta tug‘ma fazilati va xislati bilan ajralib turishi, uni egallagan bo‘lishi lozim. SHulardan dastlabki oltitasi mutlaqo shart bo‘lgan fazilatlardir: 1.sog‘lom bo‘lishi; 2.yuksak darajada iqtidorli; 3.hotirasi kuchli bo‘lishi; 4.ziyrak aql; 5.aniq, lo‘nda bayon qilish qobiliyati; 6.ilmparvar; 7.lazzatdan (ayniqsa, may

[149] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 41- бет

ichishdan)o‘zini tiya bilishi; 8.haqiqatni va unga intiluvchilarni sevish; 9.mag‘rur va istiholalik; 10.adolatparvar; 11.o‘jar bo‘lmasligi; 12.jasur va jur’atli bo‘lishi kerak va hokazolar.[150]

Forobiy inson kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-e’sonli ishlar, go‘zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to‘sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo‘lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Forobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o‘rganish, kasb-hunar va ilmlarni o‘zlashtirish – ma’rifatli bo‘lish orqali erishadi, deb qaraydi.

SHunday qilib, Forobiyning dunyoqarashi, uning jamiyat va ahloq to‘g‘risida yaratgan yaxlit ta’limoti ilk o‘rta asrlar va keyingi davrlarda ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va ma’naviy, ahloqiy fikr rivojida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

O‘rta asrning buyuk daholaridan biri, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy (973-1048y.)dir. U o‘z zamonasining hamma fanlarini, birinchi navbatda falakiyot (astronomiya), fizika, riyoziyot(matematika), ilohiyot, madanshunoslik fanlarini puxta egallagan. Bu fanlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bilan uning nomi dunyo fanining buyuk siymolari qatoridan joy oldi. “Berun” so‘zi “tashqi shahar”, “Beruniy” esa “tashqi shaharda yashovchi kishi” ma’nosini bildiradi. U o‘sha davrning mashhur olimlari Abu Nasr ibn Iroq Mansur, Ali Sahl Iso al-Masihiylardan falakiyot, riyoziyot, falsafa, tibbiyot va boshqa fanlardan ta’lim olgan.

Beruniy zamonasining buyuk olimi Ibn Sino bilan tabiat falsafasi, fizika boshqa fanlar borasida savol-javob tarzida yozishmalar olib borgan, shulardan 18 tasi bizgacha etib kelgan. Bu yozishmalarda ikki mashhur olim fazo, issiqlikning tarqalishi, jismlarning issiqlikdan kengayishi, nurning aks etishi va sinishi kabi masalalarda ilmiy munozara olib borgan.1005-1017 yillarda Xorazm Ma’mun akademiyasida o‘sha davrning mashhur ilm ahllari bilan hamkorlikda faoliyat yuritdi.

Beruniy qoldirgan ilmiy meros 152 kitob va risoladan iborat. SHulardan 70 tasi falakiyot, 20 tasi riyoziyot, 12 tasi geografiya va geodeziya, 3 tasi madanshunoslik, 15 tasi tarix va elshunoslik, 4 tasi falsafa, 18 tasi adabiyot, 4 tasi xaritografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, fizika, dorishunoslik va boshqa fanlarga bag‘ishlangan. Bular qatoriga “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Ma’sud qonuni”, “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar”, “Saydana” va boshqa asarlari kiradi. Garchi Beruniy falsafiy-ahloqiy masalalarga oid asar yozmagan bo‘lsa-da, ammo ko‘pgina asarlarida bu masala haqida fikrlar bayon etgan.

Beruniy xalqlar o‘rtasidagi do‘stlikni va ilmiy hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Uni eng insoniy ahloqiy sifat deb maqtab, amalda o‘zi ko‘rsatdi. Bir necha yil Hindistonda yashagan 45 yoshli olim qadimgi hind-sanskrit tilini o‘rganib, bu tilga Evklidning “Elementlar”, Ptolomeyning “Almajistiy” asarlarini tarjima qildi va hind olimlarini yunon ilmi va falsafasi bilan tanishtirdi. O‘zi esa hindlarning ilmi, adabiyoti, falsafasi va ahloqini o‘rgandi. Bu haqda Beruniyning o‘zi shunday deb yozadi: “O‘zimni ularning munajjimlari huzurida, ustoz huzurida turgan shogirddek tutar edim... So‘ng hisob ilmining haqiqiy yo‘llarini ularga ravshanlashtiradigan bo‘ldim, ularning kattalari men o‘z tillari bilan “Daryo” deb maqtar edilar”.

Beruniy fikricha, kishilar uchun dunyoda turli hollar bor. Bu maqtaluvchi – yaxshilik va qoralanuvchi – yomonlikdir. Maqtaluvchi yaxshi hollar bo‘lib, ularning tayanchini poklik va tozalik tashkil etadi deb ko‘rsatadi.

Beruniy o‘z davrining eng ko‘zga ko‘ringan ilm-fan homiysi edi. U mamlakat ravnaqini fan, ma’rifat ravnaqida ko‘rgan. Ilm-fan, ma’rifat sahovatli xizmatni o‘tashi mumkin deb hisobladi. U shunday yozadi: “Mening butun fikru yodim, qalbim – bilimlarni targ‘ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo‘ldim. Buni men o‘zim uchun katta baxt deb hisoblayman”.

Alloma insonning oliy fazilati boshqalar haqida, ayniqsa kambag‘allar haqida g‘amxo‘rlik qilishdan iboratdir, deydi. Beruniy doimo xalqlarning do‘st, inoq, ittifoq bo‘lib yashasha uchun

[150] Қаранг. Тоҳир Карим. Миллий тафаккур тараққиётидан. Тошкент. “Чўлпон”, 2003, 53-бет.

kurashib keldi. U insoniyatga, u yaratgan madaniyatga qirg‘in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma’rifatning keng tarqalishiga katta e’tibor bergan allomadir. Xulosa shuki, vatandoshimiz Beruniyning ilmiy dahosi umuminsoniyat ilmiy bilimlar rivojiga qo‘shilgan muhim hissadir. Uni Evropada al-Baron nomi bilan yuritilishi ham bejiz emas. O‘zimizning yurtimizda Beruniy ilmiy merosini o‘rganish keng yo‘lga qo‘yilgan. Fan va texnika sohasida erishilgan yutuqlar uchun Beruniy nomidagi davlat mukofoti ta’sis etilgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) – buyuk hakim, qomusiy alloma va mashhur mutafakkir. Tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, fiziologiya, ahloqshunoslik, tabiatshunoslik, pedagogika, musiqashunoslik va boshqa ilm sohalari bilan shug‘ullangan.

Ibn Sino yoshligida zo‘r mehnat, izlanish, g‘ayrat bilan ilmlarni o‘rganishga kirishgan. U bu haqda: “Uyquga ketgan vaqtimda ham o‘ngimdagi masalalarni ko‘rardim. SHu holatda ko‘p masalalar tushimda menga ayon bo‘lardi... shu zaylda hamma ilmlarni mustahkam egallay oldim. Insonning imkoniyat darajasida egallaydigan bilimni egallab oldim. Aristotelning “Metafizika”sini “qirq bir marta qayta o‘qidim”. U menga hatto yod bo‘lib ham qoldi.Lekin shunday bo‘lishiga qaramay, men uni va uning maqsadlarini tushuna olmasdim”, - deb yozadi o‘z tarjimai holida. Ibn Sino bu muammoni Forobiyning Aristotel “Metafizika”siga yozgan sharhini o‘qib hal etadi. Uning ilmlarni egallashdagi sa’y-harakati biz uchun ibratdir.

Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asar yozganligi qayd etilgan. Lekin bizgacha 250 ga yaqini etib kelgan. SHulardan 80 tasi falsafaga, 50 tasi tibbiyotga, 40 tadan ortig‘i tabiat va gumanitar sohalarga, 3 tasi musiqaga va ilmning boshqa sohalariga bag‘ishlangan.

Uning asosiy asarlari “Tib qonuni”, “Kitob ash-shifo”, “Kitob an-najot”, “Kitob al-insof”, “Donishnoma”, “Risolai ahloq”, “Risolai ishq”, “Solomon va Ibsol” va boshqalardir.

Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo‘lish mumkin. Olim shularning har birida barakali ijod qilib, biz avlodlar uchun boy ilmiy-adabiy meros qoldirgan.

G‘arbda “Avitsenna”, SHarqda “SHayx ur-rais” nomini olgan Ibn Sino tabobat sohasida o‘chmas iz qoldirgan mutafakkirdir. “Tib qonunlari” asari qadimgi va o‘rta asr tabobat fani taraqqiyotining eng oliy cho‘qqisidir. U tabobatning 1000 yillik tarixiga yakun yasab, ayni vaqtda uni yangi taraqqiyot pog‘onasiga ko‘tardi.

Allomaning “Tib qonunlari” asari bir necha asrlar davomida Ovruponing eng nufuzli oliy o‘quv yurtalrida asosiy tibbiyot qo‘llanmalaridan biri sifatida o‘qitib kelindi. Dunyo miqyosida qabul qilingan va hayotimiz tarziga aylanib ketgan “Meditsina”, “Sog‘lom turmush tarzi” kabi tushunchalar va ularning mazmun-mohiyati Ibn Sino nomi bilan bog‘liqdir. Buyuk mutafakkir ilmiy merosining ahamiyati haqida “Aniqroq qilib aytganda, -deb yozadi Islom Karimov,-bu benazr allomaning butun ilmiy faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruhida, ya’ni ma’naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta’sir ko‘rsatdi...”[151]

Alloma ijtimoiy-siyosiy qarashlarida, insonni ijtimoiy buyuk jonzot, deb ta’riflaydi. Kishilarning o‘zaro manfaatli hamkorligi ular hayotining yagona tayanchi ekanligini ta’kidlaydi. Falsafiy-ahloqiy asarlarida esa hukmdorlarni qonunsizliklarga qarshi kurashishga, halqning talablariga quloq solishga, adolat yuzasidan ish yuritishga chaqiradi. Adolatni inson hatti-harakatining eng yaxshi bezagi deb ko‘rsatadi.

Uning fikricha, yaxshilik donolikda, donolik esa hodisalarni bilish orqali qo‘lga kiritiladi. Bilim, ma’rifat inson hayotining ajralmas tomonidir. U bu haqida shunday yozadi:

Jon agar bir shisha bo‘lsa, ilm xuddi lampadir,
Hikmati insonni bilgil, ul chirog‘da lampayog‘.

Ibn Sino “Solomon va Ibsol” qissasida rostgo‘ylik, sadoqat, pok muhabbat, irodaning makr ustidan g‘alabasini tasvirlaydi

Mutafakkir kishilarni do‘stlik va haqiqatga, do‘stlikning qadriga etishga chaqiradi.

---

[151] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 43- бет

SHunday qilib, Ibn Sino oʻzining boy va serqirra ilmiy merosi bilan keyingi davr SHarq va Gʻarb madaniyati va maʼrifati rivojiga katta taʼsirn koʻrsatdi.
1999 yilda Oʻzbekistonda Ibn Sino xalqaro jamgʻarmasi tuzildi. Oʻzbekiston erida 1966 yilda topilgan yangi mineral Ibn Sino nomi bilan Avitsennit deb ataldi.
IX-XII asrlar maʼnaviyati va maʼrifati rivojida XI asrning koʻzga koʻringan shoiri YUsuf Xos Hojib ham katta oʻrin tutadi. YUsuf Xos Hojib oʻzining yagona dostoni boʻlmish "Qutadgʻu bilig" ("Baxtga eltuvchi bilim") bilan mashhurdir. Bu asar 1069 yilda yozilgan boʻlib, uni shoir Qashqar hokimi Sulaymon Arslon Qoraxonga bagʻishlagan. SHu asari uchun unga Xos Hojib, yaʼni buyuk xonning maxsus maslahatchisi unvoni berilgan. Doston qahramonlari - hokim Kuntugʻdi adolat ramzi, vazir Oytoʻldi baxt ramzi sifatida, vazirning oʻgʻli Oʻgdulmish aql ramzi sifatida tasvirlanadi.
Mutafakkir inson faqat jamiyatda, boshqa kishilar bilan muloqotda va foydali mehnatda chinakam kamolga etadi, degan gʻoyani ilgari suradi. Insonga foyda keltirmaydigan inson – oʻlikdir, deb taʼkidlaydi. Jamiyatda mehnat ahli – dehqonlar, chorvadorlar, hunarmandlar hal qiluvchi rol oʻynaydi, deb uqtiradi. SHuning uchun, YUsuf Xos Hojib hokimga adolatli boʻlish, oʻzboshimchalik va qonunsizlikka yoʻl qoʻymaslikni maslahat beradi.
Mutafakkir fikricha, odam kimligidan qatʼiy nazar inson boʻlishi lozim, chunki dunyoda faqat insoniylikkina abadul-abad qoladi. SHu sababli oʻz nomini hamisha yaxshilik bilan eslashni istagan kishi faqat yaxshilik qilishi lozim. U shunday yozadi: "Kimning odobi yaxshi va ahloqi toʻgʻri boʻlsa, u kishi maqsadiga etadi va baxt unga kulib boqadi", chunki "yaxshi ahloq jamiki yaxshiliklarning zaminidir".
YUsuf Xos Hojib ilm va maʼrifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashga daʼvat etadi. U kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa anna shu uyni nurafshon etuvchi mashʼalga oʻxshatadi. SHoir kishilarni oʻylab gapirishga chaqiradi. Soʻzingga ehtiyot boʻl, boshing ketmasin. Tilingga ehtiyot boʻl, tishing sinmasin. Maʼnodor soʻz donolik alomati, bemaʼni soʻz mahmadonagarchilik, ahmoqlik alomatidir. SHu boisdan odam koʻproq quloq solib, kam gapirishi kerak, deb aytadi.
YUsuf Xos Hojib shuningdek, insonning tashqi qiyofasi uning ichki maʼnaviy dunyosiga mos boʻlishiga katta ahamiyat beradi.Mutafakkir yolgʻonchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq boʻlish kerak, deydi.
SHunday qilib, XI asrda yashab ijod qilgan YUsuf Xos Hojib "Qutadgʻu bilig" asarida maʼrifatparvarlik, yuksak ahloqiylik gʻoyalarini ilgari suradi. Bu asar katta maʼnaviy-maʼrifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.
Biz oʻrganayotgan davrda ahloqiy-didaktik mavzuda asar yaratgan va shuhrat qozongan shoir Ahmad YUgnakiydir. U XII asr oxiri va XIII asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan.. Undan bizgacha "Hibatul-haqoyiq" dostoni etib kelgan. U oʻz dostonida dunyoning bevafoligi, oʻtkinchiligi haqida gapirib: dunyo goʻyo karvon faqat ozgina fursat toʻxtab oʻtiladigan rabot (karvonsaroy). SHu sababli, deb taʼkidlaydi u, bu dunyodagi rohat-farogʻatga intilish befoyda, uni deb azob-uqubat chekishga arzimaydi, chunki "sen bugun koʻrib turgan boylik ertaga gʻoyib boʻladi, sen oʻzimniki deb bilgan buyumlar boshqalarga qolib ketadi. SHuning uchun faqat yaxshilik urugʻini sepish uchungina yashash kerak " deb uqtiradi. U bilimli, maʼrifatli kishilarni etuk kishilar deb hisoblaydi. Inson bilan bilimni ajratib boʻlmaydi, faqat bilimli kishigina kamol topishi mumkinligini taʼkidlaydi:
Olim odam – qimmatbaʼho dinordir,
Nodon, johil odam – qimmatsiz soxta puldir.
Uning fikricha, inson olim boʻlgandan keyingina ulugʻlik darajasiga koʻtariladi va yaxshi nom qoldiradi. Bilimsiz kishi sogʻlom boʻlsa ham, u oʻlikdir deb koʻrsatadi. Bilim inson uchun bitmas-tuganmas mulkdir, deb taʼkidlaydi. SHoir, ahloq-odobdagi asosiy narsa tildir. Til baxtiyorlik va baxtsizlikning sababidir, deb uqtiradi. SHu bilan birga, olim halollik va haqgoʻylik, saxiylik inson uchun fazilat, unga intilish kerak deya, xasislik va badfeʼllikni qoralaydi. Kamsuqumlik va kamtarlik insonni ulugʻlaydi, deb koʻrsatadi.

Kishilarga faqat yaxshi odamlardangina do‘st orttirishni maslahat beradi. Faqat yaxshi kishilar qilibgina yaxshi natijalar kutish mumkin, chunki “... tikan ekib, hosiliga uzum olmaysan”, deb aytadi.
Xulosa shuki, IX-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm, fan, ma’rifat, ma’naviyat, yuqori darajada rivojlandi.
YUqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, IX-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda ilm, fan va ma’rifat yuqori darajada rivojlangan. Ularning zamirida avlod-ajdodlarimizning yuksak darajadagi ma’naviyatga ega ekanligi turadi. CHunki ma’naviy qashshoq inson, xalq, millat hech qachon ilm, fan, ma’rifat va madaniyatni rivojlantira olmaydi, uning ulkan salohiyatidan bahra ololmaydi.

### 3. O‘zbekistonda XVI-XIX asrlar davri madaniyati va ma’rifati

XVI-XIX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy-ma’rifiy tafakkur taraqqiyoti ikki yo‘nalishda bordi. Birinchisi Markaziy Osiyoning o‘zida ro‘y berdi. Ikkinchisi Hindistonda Boburiylar davridagi Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning ijodida namoyon bo‘ladi.
XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida Markaziy Osiyoda ma’naviy-ma’rifiy qarash rivoji Boborahim Mashrab (1653-1711) nomi bilan chambarchas bog‘liq. Mashrabdan boy ma’naviy badiiy meros qolgan. Mashrab o‘sha vaqtda YAqin va O‘rta SHarq mamlakatlarida tarqalgan tasavvufning qalandarlik oqimiga e’tiqod qilib, o‘zining isyonkorona she’rlari bilan jamiyatdagi adolatsizlikka qarshi kurash olib borishga harakat qilgan. O‘z g‘azallarida ahloqiy, ma’naviy poklikka erishish, hayotdagi salbiy illatlarga qarshi kurashni bayon etadi.
U o‘zi yashayotgan davr hokimlaridan adolatni kutadi. Hatto ularga murojaat qilib, xalq to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishni, ularning arz-dodiga quloq solishni so‘raydi.
Mashrab kishilarni boylikka hirs qo‘ymaslikka, o‘zgalarga yaxshilik qilishga, sahiylikka, halol bo‘lishga, o‘z mehnati evaziga yashash, nafsni tiyishga chaqiradi.
Mashrab o‘z ijodida hulq-odob masalalariga katta e’tibor berib, odamlarni yaramas hatti-harakatlardan, takabburlik va yolg‘on so‘zlashdan saqlanishga undaydi. Uning ma’naviy-ahloqiy dunyoqarashida farzandning ota-onani hurmat qilishi, ularni yuksaklikka ko‘tarish g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Xususan, farzanddan otaning rozi bo‘lishi lozimligi, aks holda yomon oqibatlarga olib kelishi haqida yozadi. Mashrab ijodidagi bunday g‘oyalarning mustaqil O‘zbekiston yoshlarini ma’naviy kamolga etkazishda ahamiyati katta.
XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning boshlarida ikkinchi yo‘nalishda ijod qilgan Markaziy Osiyolik mutafakkirlardan biri Mirza Abdulqodir Bedil (1644-1721)dir. Undan juda boy ma’naviy meros qolgan.Unga “SHarq Gegeli” degan unvon, tavsif berilganki, bu uning zamonasining hamda SHarqning buyuk va yuksak ma’naviyat – ma’rifat egasi bo‘lganligini ko‘rsatadi.
Bedil o‘z asarlarida avvalo inson haqida, mirishkor dehqon haqida alohida mehr, hurmat va ehtirom bilan gapiradi. U insonni irqiy, milliy va diniy e’tiqodlaridan qat’iy nazar hurmat va ehtiromga sazovor oliy zot deb biladi. Bu haqda shunday deydi: “Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal’undir”. Qanday ajoyib fikr. Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli va olijanobdir. Inson borliqning, olamning toji. Inson o‘z baxtini o‘zi yaratadigan zot, deb qaraydi.
To‘rt dahr aro sen nuri oftob,
Etti bahr ichra sen gavhari noyob.
Har narsagaki etibdi aqling,
Bundan afzalsan buni yaxshi bil.
Dunyo mevasining mirishkorisan,
Hammasidan ham hosildorisan.
Qay tarafgakim uchdi hayoling,
Sen parvoz etsang, etar majoling.
Diling himmatidan hayot guliston,

Qo‘ling qudratidan hammayoq bo‘ston.
Amringga muntazir turganda olam,
Sen nima hayolga asirsan odam.

“Odam abadiy yashashi mumkinmi?”- degan savolga mutafakkir ijobiy javob beradi. Va insonga ikki xil abadiylik xosligini aytadi. Biri umumiy abadiylik – hamma narsaga, shu jumladan odam tanasiga ham xos moddiy abadiylik.

Ikkinchisi xususiy abadiylik – o‘z faoliyati, mehnati, yaxshi ishi bilan insonlarga manfaat etkazgan kishilarga xos. Bedil tiriklikning ma’nosini – daraxt o‘tkazish, ekin ekish, ularni parvarish etish, bechoralarga hayr-sahovat ko‘rsatish, ojizlarga yo‘l ko‘rsatish, bemorlarni borib ko‘rish va boshqalardan iborat deb qaraydi.

Insonning abadiyligini belgilovchi omillardan biri ilmdir, deydi mutafakkir. Inson umrining boqiyligi, abadiyligi haqidagi bunday qarashlar tahsinga sazovor. Zero, tarixda abadiy nomi qolgan ma’naviy tirik siymolar faqat ilm-ma’rifat va o‘zlarining yaxshi ishlari bilan o‘z nomlarini abadiyatga muhrlab ketganlar. Ular yoqqan ilm-ma’rifat shamlari necha asrlar bo‘yi insoniyat yo‘lini yoritib kelmoqda va yana necha asrlar yoritgusidir. Bunday siymolar qatoriga dunyoviy va diniy ilmlar sohibilari kiradi.

XVIII-XIX asrlar ma’naviyat va ma’rifati rivojida Turdiy, Huvaydo, Gulxaniy, Maxmur, Nodirabegim, Uvaysiy, Munis Xorazmiy, Ogahiy, Feruz va boshqalarning o‘rni va roli beqiyosdir.

XIX asrda Markaziy Osiyoda ma’naviyat va ma’rifat rivoji Ahmad Donish (1827-1997) ijodi va ma’rifatparvarlik faoliyati bilan chambarchas bog‘lanib ketganligini alohida qayd etishimiz mumkin. Ahmad Donish inson turli fanlarni egallab, dunyo sirlaridan voqif bo‘la oladi, deydi.

“Biz, -deb ta’kidlagan edi Ahmad Donish, - dunyoni gullatib-yashnatish uchun, er osti boyliklarini topish uchun, dunyoning ajoyib sirli tomonlarini tadqiq etish uchun, uning hamma qit’alari va aholisini bilish uchun tug‘ilganmiz”. Mutafakkir ilmni, ma’rifatni rivojlantirish, xalqni savodxon qilish orqali qoloqlikdan qutulish mumkin, deb ma’rifatparvarlik g‘oyalarini ilgari suradi.

O‘zbek ma’rifatchiligi Muqimiy, Furqat, Avaz O‘tar, Zavqiy va boshqalar ijodida ham alohida o‘rin tutadi.

Ma’rifatparvarlik g‘oyalari Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, Fitrat, CHo‘lpon, Abdulla Qodiriylar faoliyati va ijodida millat ozodligi uchun kurash bilan bog‘lanib ketganligini alohida qayd etishimiz lozim.

Xususan yuksak ma’naviyatning asosiy mezonlaridan biri bo‘lgan Ona-Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ulari etuk ma’rifatchilardan biri bo‘lgan Abdulla Avloniy asarlarida o‘z ifodasini topgan. Abdulla Avloniy ajdodlarimiz ma’naviy merosining: “Kishi o‘zgalar yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingnda cho‘pon bo‘l”, degan buyuk naqlga amal qilib, har bir xalqning, har bir millatning Vataniga muhabbat tuyg‘usini qadrlaydi: “Biz turkistonliklar o‘z Vatanimizni jondan ortiq sevganimiz kabi arablar Arabistonlarini, uning qumlik, issiq cho‘llarini, eskimoslar shimol taraflarini, eng sovuq qor va muzlik erlarini boshqalardan ziyod sevadilar”,[152] - deb yozadi.

Ma’rifatchilar asarlarida, millatni ulug‘lash, insoniy munosabatlarni qadrlash, halollik, e’tiqodlilik, Vatan manfaatlari yo‘lida fidoyilikni tarannum etish g‘oyalari o‘z ifodasini topgan. Bu g‘oyalar o‘zining yuksakligi bilan milliy tiklanishimiz va rivojlanishimizga ijobiy ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

SHunday qilib, Markaziy Osiyo xalqlarining ma’naviy va ma’rifiy qarashlari xalqimizning boy ma’naviy merosining ajralmas qismi sanaladi. Markaziy Osiyo xalqlari ma’naviy va ma’rifiy qarashlarida inson va uning fazilatlari, ta’lim-tarbiya, ahloq muammolari markaziy o‘rinni egallab keldi. Unda komil inson muammosi o‘ziga xos ravishda o‘z echimini topganligini alohida ta’kidlash lozim..

Zero, komillik ma’naviyatning asosiy mezoni hisoblanadi. Bu fazilatni egallashga intilish har bir inson uchun muqadldas maqsaddir.Komil inson esa Vatan, millat va xalq manfaatlarini o‘z

---

[152] Абдулла Авлоний. Гулистон ёхуд аҳлоқ. Тошкент, “Ўқитувчи” , 1992, 28-бет.

manfaatidan ustun qo‘yishga qodirdir. Ana shu fazilatga ega bo‘lgan kishilar mamlakatda qanchalik ko‘pchilikni tashkil qilsa, u yuksak darajada rivojlanadi, barqarorlik ta’minlanadi.
Ma’naviyat va ma’rifatni rivojlantirish va ular orqali komillikni shakllantirish mustaqilligimizni mustahkamlashning muhim omili bo‘lib qoladi.
Biz mazkur mavzu doirasida xalqimiz va insoniyat tarixida, ayni vaqtda bashariyatning bugungi taraqqiyot sahifalarida ham o‘chmas iz qoldirgan ayrim buyuk mutafakkir va allomalarimiz, aziz avliyolarimiz hayoti, faoliyati boy ma’naviy-ma’rifiy merosining ayrim jihatlari haqidagina so‘z yuritdik xalos. Ammo, Prezidentimiz Islom Karimov ta’kidlaganidek: “Bizning o‘z oldimizga qo‘ygan maqsadimiz esa, bunday ulug‘ zotlarning hayot yo‘li va qoldirgan merosini to‘liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyondalari timsolida ma’rifat, ilmu-fan, madaniyat, din kabi sohalarning barchasini o‘zida uyg‘unlashtirgan xalqimizning ma’naviy olami naqadar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iborat”. [153]
Buyuk avlod-ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan nihoyatda boy va rang-barang ma’naviy-ma’rifiy meros bugungi kunda ham jahon sivilizatsiyasining gul toji sifatida barcha xalqlarga xizmat qilib kelmoqda. Bu o‘z navbatida har bir o‘zbek farzandida g‘urur uyg‘otishi shubhasiz va ularni chuqur o‘zlashtirishga intilishni kuchaytirib boraveradi.

Mazkur mavzu bir jihatdan qaraganda hamma uchun tushunarlidek ko‘rinadi, bunga sabab kundalik turmushda, turli yig‘inlar va ma’rakalarda diniy mavzulardagi suhbatlarning tinglanishidir. Ikkinchidan mustaqillik tufayli din va diniy urf-odatlar, an’ana va marosimlarga oid bo‘lgan kitoblarni erkin chop etila boshlaganligi, sotuvda bo‘lishidan keng kitobxonlar ommasining bahramand bo‘layotganligidir. Uchinchidan, ommaviy axborot vositalari: radio, televidenie eshittirish va ko‘rsatuvlarida, shuningdek gazeta va jurnal sahifalarida muntazam suratda diniy-ahloqiy, ma’naviy mavzularda turli suhbatlar va maqolalarning berib borilishidir.
Islom dini, uning asosiy manbalari: Qur’oni karim va hadisshunoslik tarixidan xabardor bo‘lish mavzuning mohiyatini chuqur tushunib olishga yaqindan yordam beradi. Mazkur holatni hisobga olib, avvalo, Islom va uning manbalari haqida qisqa bo‘lsa-da ma’lumot berishni lozim topdik. Zero, o‘ylaymizki bu kitobxonlar uchun foydadan holi emas degan umiddamiz.
Islom dini ko‘p xalqlar orasida keng tarqalgan jahon dinlaridandir. Bu dinga e’tiqod etuvchilar – musulmonlar jahonda qariyb 1 milliard 315 million kishini tashkil etadi.
“Islom” so‘zi arabcha bo‘lib “xudoga o‘zini topshirish”, “itoat”, “bo‘ysunish” ma’nosini bildiradi. SHundan bu dinga ishonuvchilar – “Muslim” deb ataladi. Uning ko‘pchilik shakli “muslimun” bo‘lib, o‘zbeklarda “musulmon”, qirg‘iz va qozoqlarda “musurmon” deb ataladi.
Islom dini Arabiston yarim orolida VI asrning oxiri va VII asrning boshlarida kelib chiqqan.Uning asoschisi payg‘ambar Muhammad (570-632) Makkada Quraysh qabilasiga mansub bo‘lgan Xoshimiylar xonadonida tug‘ilgan. U 609-610 yillarda Makkada yakka xudoga e’tiqod qilish tg‘g‘risida targ‘ibot boshlagan. Ammo zodagonlarning qarshiligiga uchragach, 622 yilda o‘z tarafdorlari bilan Madina (YAsrib)ga ko‘chadi (arabcha hijrat qiladi). SHu yildan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlanadi.
630 yilga kelib Makka ham musulmonlar qo‘liga o‘tadi va musulmon davlati shakllanadi. Muhammad vafotidan keyin bu davlatni uning o‘rinbosarlari, ya’ni noiblari (xalifalar) boshqaradilar. SHu munosabat bilan musulmonlar davlati tarixda “Arab xalifaligi” deb nom olgan. Markaziy Osiyo erlari – Movarounnahr (daryo oralig‘idagi erlar)ga 674 yilda arab qo‘shini birinchi marta Amudaryodan o‘tib Buxoro shahriga kirdi. Qutayba ibn Muslim 705-717 yillarda Movarounnahr erlarini asosan ishg‘ol etdi. Arab qo‘shinlari bilan birga Markaziy Osiyo erlariga Islom dini ham kirib keldi. Ana shu davrdan boshlab Markaziy Osiyoda Islom mintaqa madaniyati, ma’naviyati va ma’rifati o‘ziga xos ravishda shakllandi va taraqqiyot bosqichini boshdan kechirdi.
Islom diniy ta’limotining asoslari – Qur’on va hadis to‘plamlarida, shuningdek, VIII-XII asrlar davomida vujudga kelgan ilohiyot adabiyotlarida o‘z ifodasini topgan.

---
[153] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 44- бет

Qur’on – arabcha o‘qimoq, qiroat qilmoq, jamlash ma’nolarini bildiradi. Bu muqaddas kitob er yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy ahkomlar manbai, asosiy muqaddas kitobi. Qur’on ilmi ulamolari Qur’onni quyidagicha ta’riflaydilar:

“Qur’on – Alloh taoloning Muhammad alayhissalomga vahiy orqali nozil qilgan, tavotur ila naql qilingan, ibodatda o‘qiladigan, barchani lol qoldiruvchi kalomidir”.[154]

Tavotur ila naql qilingan degani esa, kalomni yolg‘onga chiqarib bo‘lmaydigan darajada ko‘p sonli kishilar tomonidan naql qilinishiga aytiladi. Ularning hammalari ishonchli odamlar bo‘lib, yolg‘onga yaqinlashmagan, sonlari jihatidan yolg‘onga berilib ketish imkoni ham yo‘q bo‘lgan.

Qur’oni karim ilohiy kitob bo‘lib, u farishta Jabroil alayhissalom tomonidan 610-622 yillarda Makkada, 622-632 yillarda Madinada, jami 23 yil mobaynida nozil etilgan.

Muhammad alayhissalom Qur’on oyatlarini farishta Jabroildan eshitib yod olar edilar. Keyin boshqa musulmonlar u kishidan eshitib yodlab olishardi. Ayni paytda yozishni biladigan sahobalar jumladan, Abu Bakr, Umar, Usmon, Ali, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka’b (r.a.) kabi sahobalar oyatlarni yod olish bilan birga, ularni xurmo daraxtining po‘stlog‘iga, yapaloq toshlarga, katta suyaklarga, teriga, qog‘oz va shunga o‘xshash narsalarga Qur’on oyatlarini yozib borganlar.

Payg‘ambar alayhissalom ularga yangi tushgan oyat qaysi suradan ekani va qaerda turishi lozimligini ko‘rsatib turganlar.

Muhammad alayhissalom hayotlik vaqtlarida, yana vahiy tushib qolar degan maqsadda Qur’on jamlab kitob shakliga keltirilmagan. U kishining vafotlaridan keyin Qur’on kishilarning qalbida, xotirasida va yozuvlarda saqlanib qoldi. Payg‘ambar vafotlaridan so‘ng ro‘y bergan g‘alayonlarning birida Qur’onni to‘liq yod olgan ko‘plab qorilar shahid bo‘ldilar SHunda Hazrati Umar (r.a.) Hazrati Abu Bakr(r.a.)ga qorilar o‘lib ketaversa, Qur’onga zarar etishi mumkin, shuning uchun uni kitob shakligi keltirib, jamlab qo‘yish kerak degan maslahatni berdi.

Abu Bakr (r.a.) Zayd ibn Sobit (r.a.) ismli sahobani chaqirib, bu ishni amalga oshirishni topshirdi.

Zayd ibn Sobit, Umar ibn Hattob (r.a) va boshqalar Qur’oni karimni puxta yod bilishlariga qaramay, bu ishning mustahkam, ishonchli bo‘lishiga harakat qilib, masjidda: “Kimning qo‘lida yozilgan Qur’on bo‘lsa va uni Payg‘ambar alayhissalom huzurida yozilganiga ikkita guvohi bo‘lsa, bizga olib kelsin! Qur’onni jam qilishga xalifaning buyrug‘i bo‘ldi”,[155] deb e’lon qildilar.

Ular masjidda o‘tirib guvohlarni tekshirib nihoyatda aniqlik bilan bir yildan ortiq vaqt Qur’onni jamladilar. So‘ng ko‘pchilikka ko‘rsatdilar, hamma rozi bo‘ldi. SHunday qilib Zayd va Umar mashaqqatli mehnatdan keyin Qur’onni kiyik terisidan ishlangan sahifalarga yozib bo‘ldilar va uni belidan bog‘lab, Abu Bakrning uyiga qo‘yib qo‘ydilar. U kishi olamdan o‘tgandan so‘ng sahifalar Umar(r.a.)ning uylarida, u kishidan so‘ng esa, qizlari va payg‘ambarning ayollari Hafsa binti Umar (r.a.) huzurida qoldi.

651 yilda halifa Usmon ibn Affon Hafsa (r.a.)dan Abu Bakr (r.a.) davridagi sahifalarni so‘rab olib, undan olti nusha ko‘chiirishga buyruq berdi. Bu ulkan ishni boshqarishni Zayd ibn Sobitga yukladi.

Ko‘chirilgan nushalar tayyor bo‘lgandan so‘ng musulmonlar yashaydigan diyorlardagi markaziy shaharlarga bittadan nusha, bittadan qori qo‘shib jo‘natdi va shu qoridan qiroat o‘rganishga buyruq berdi. Ko‘chirilgan nushalarni Mug‘ayra ibn Soibga Makka, Mug‘ayra ibn SHahobga SHom, Abu Abdurahmon Silmiyga Kufa, Omir ibn Abdul Qaysga Basra, Zayd ibn Sobitga Madina ahliga Qur’on tilovatini o‘rgatish uchun berdi.

Usmon (r.a.) o‘zlariga bir dona mushab olib qoldilar.

Keyinchalik nusha ko‘chirish yo‘lga qo‘yilishi jarayonida faqatgina Usmon davrida yozilgan nushalarga suyanish joriy bo‘ldi. Oxiri kelib, har bir nushaning ishonchli ekanini tasdiqlash maqsadida, bu nusha Mushabi Usmonga muvofiqdir, deb yozib qo‘yiladigan bo‘ldi.

SHunday qilib, Qur’on matnining ham yozuv, ham uslubiy bir xilligi saqlanib qoldi.

---

[154] Ислом маърифати. “Тошкент ислом университети”. Тошкент, 2005, 6-7 бетлар.

[155] Ислом маърифати. “Тошкент ислом университети”. Тошкент, 2005, 6-7 бетлар.

Hazrati Usmon qo‘lida qolgan Qur’oni karimning nushasi hozirda O‘zbekiston musulmonlar idorasi qoshidagi kutubxonada saqlab kelinmoqda. Qur’oni karimning bunday noyob nushasi yurtimizda bo‘lishi Allohning bizning yurtimizga bo‘lgan inoyati deb bilmoq lozim. Qur’oni karim 114 sura va 6666 oyatdan iborat.

Mustaqillik sharofati bilan dinga berilgan erkinlik tufayli turli marosimlarimiz Qur’oni karim tilovatlari bilan boshlanmoqda. Bu o‘tmishda bir orzu edi, xolos.

Qur’on islom diniga oid barcha hukmlarning asosiy va birinchi manbaidir. Musulmon faqihlar biror narsaning shariatdagi hukmini bilmoqchi bo‘lsalar, albatta, oldin Qur’onga murojaat qiladilar. O‘sha o‘zlari izlayotgan hukm haqida biror hukm bo‘lsa, uni darhol qabul qiladilar. Muayyan masalaga Qur’onda aniq javob bo‘lmagan taqdirdagina sunnat, ijmo, qiyosga murojaat qilishga o‘tadilar.

Ilohiyotda Islom dini uch elementdan – iymon, Islom, ehsondan iborat deb etirof etilgan. Iymon talablari 7 ta aqidani – Allohga, farishtalarga, muqaddas kitoblarga, payg‘ambarlarga, oxirat kuniga, taqdirning ilohiyligiga va o‘lgandan keyin tirilishga ishonish talablarini o‘z ichiga oladi. Islom talablariga, ya’ni din asoslari – arkon ad-din deb nom olgan 5 ta amaliy marosimchilik talablari kiradi. Bular – kalima keltirish, namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish va imkoniyati topilsa Haj qilish talablari. Ehson aqidalarga sidqidildan ishonish va marosimlarni ado etishdir.

Islomning kishilar ongi va turmush tarziga ta’sir etishi, ular hayotidan mustahkam o‘rin olishini ta’minlovchi diniy marosimchilik – xatna, ramazon hayiti, qurbonlik va qurbon hayiti, mavlud, ashuro va boshqalar ham shakllangan. Bundan tashqari, mahalliy halqlarda islomgacha mavjud bo‘lgan urf-odatlar, jumladan kinna soldirish, fol ochirish, dam soldirish, muqaddas joylarga, avliyolarga sig‘inish kabi odatlar ham islom marosimlariga moslashib ketgan.

Islom ma’naviyatining qirralari rango-rang va mohiyatan terandir.

Qur’oni karim oyatlarida, avvalo insonning er yuzida xalifa ekanligining bir necha qayta ta’kidlanishi islom ma’naviyatining eng ulug‘ qadriyatlaridandir. Qur’oni karimning juda ko‘p oyatlarida insonning aziz va mukarram qilib yaratilgani, unga eru osmondagi barcha narsalar bo‘ysundirib qo‘yilganligi alohida uqtirib o‘tiladi.

YAxshilik va ezgulik, bag‘rikenglik va tinchlik, yaqinlari va begonalarga birdek marhamatli bo‘lish, qon to‘kmaslikka chaqiruvchi, nafs vasvasasiga uchmaslik, ota-onaga ular hayot ekanliklarida mehribon va sahiylik ila munosabatda bo‘lish, dunyodan o‘tganlarning haqlariga duo qilishga, vatanni sevishga da’vat qiluvchi muqaddas dinimiz, ayniqsa mustaqillik yillarida o‘z qadrini hamda o‘zining azaliy vazifasi – ezgu maqsadlarga chin ma’noda xizmat qilish imkoniyatini topdi.

Hadislar Islom dinida Qur’ondan keyingi muqaddas manba. Hadislar to‘plami “sunnat” deb ataladi. Hadisi shariflarda Muhammad alayhissalomning so‘zlari, qilgan ish faoliyatlari va sahobalar tomonidan amalga oshirilgan ishlarga munosabatlari bayon etilgan.

Hadisi shariflarni yig‘ib kitob shakliga keltirish, asosan payg‘ambarimiz alayhissalomning vafotlaridan keyin amalga oshirilgan.

VIII asr boshlarida Ummmaviy halifalardan Umar ibn Abdulaziz noiblariga Muhammad (s.a.v.) hadislarini jamlash haqida farmon berdi. Abdumalik ibn Abdulaziz Jurayh, Ar-Rabi’ ibn Subayh, Imom Molik ibn Anas, Imom SHofe’iy, Imom Ahmad ibn Xanballar tomonidan dastlabki hadis to‘plamlari yaratildi. O‘lkamizda esa quyidagi zotlar birinchi bo‘lib hadis to‘plamlarini tuzdilar: Imom Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy, Ishoq ibn Rahovayh al-Marvaziy, Imol al-Haysam ibn Qulayb ash-SHoshiy va boshqalar.

Keyingi IX asr hadis ilmining “oltin asri”deb shuhrat qozongan. CHunki bu asrda hadislarni to‘plash davri o‘tib, endi ularni manbashunoslik va matnshunoslik ilmi qoidalariga muvofiq tahlil va tadqiq etish, ma’lum mazmun asosida tartib berishga kirishildi. Hadisshunosliklik deb atalmish jiddiy ilm yo‘nalishi mukammal shakllandi. Hadislarni bayon etishda “Musnad”, “Sahih” va “Sunan” deb nomlangan yo‘nalishlar vujudga keldi.Bu davrda keyingi asrlar uchun namuna bo‘ladigan ishonchli hadis to‘plamlari yaratildi. Butun Islom olamida eng nufuzli manba sifatida nom qozongan “Qutubi Sitta” (“Olti kitob”) mualliflari shu davrda yashab ijod etdilar. Ular: Abu Abdulloh Ismoil al-Buxoriy (810-870), Imom Muslim ibn al-Hajjoj (819-874), Abu

Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy(824-874), Abu Dovud Sulaymon(817-888), Ahmad an-Nasoiy(830-935), Abu Iso Muhammad ibn Yazid ibn Mojja(824-886) kabi muhaddislardir. Imom Buxoriy o‘zlari to‘plagan 600 ming hadisdan 7250 ta eng ishonarli “sahih”larini mazmuniga ko‘ra tasniflab, butkul yangicha tartibdagi hadislar to‘plamini yaratishga erishdi. Uning asarlari keyingi muhaddislar uchun barcha jihatdan o‘rnak va namuna bo‘ldi.[156]

Islomda ahloqiy-huquqiy qonun-qoidalar majmui shariat XI-XII asrlarda tugal shakllangan. SHariat qonun-qoidalari Qur’on va sunnat asosida ishlab chiqilgan.Unda musulmonlarning ijtimoiy-iqtisodiy, diniy, huquqiy va ahloqiy hayotini tartibga soluvchi qonun-qoidalar belgilab berilgan. Bunday tartib-qoidalar “Hidoya”, “Viqoya”, “Muxtasari hidoya”, “Muxtasari viqoya” nomli kitoblarda jamlangan.

SHariatda belgalangan qonun-qoidalar muqaddas hisoblanib, unga har bir mo‘min-musulmon ijtimoiy holatidan qat’iy nazar Allohning bandasi sifatida birday amal qilishi talab etilgan.

YUqorida Islom, uning muqaddas ilohiy kitobi Qur’oni karim, hadislar va shariat haqida ba’zi ma’lumotlarni keltirdik. Endi umuman islom dinida, xususan Qur’oni karim, hadislar va shariatda inson ma’naviyati, ahloq-odobi, ma’rifati haqidagi qarashlarning ba’zi jihatlari to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Qur’oni karim, hadislar va shariat ko‘rsatmalari inson ma’naviy-ma’rifiy kamolotining asosi bo‘lgan ahloq-odob tarbiyasining barcha qirralarini o‘z ichiga olgan. Sirasini aytganda, hadislar ma’naviy-ahloqiy tarbiyaga oid bo‘lgan fikrlarning mukammal to‘plamidir. Qur’oni karim, hadislarni, shariat ko‘rsatmalarini o‘rganar ekanmiz, ularda ahloqiy kamolot, halollik va poklik, iymon va vijdon bilan bog‘liq bo‘lgan birorta ham muhim masala e’tibordan chetda qolmaganini ko‘ramiz.

Payg‘ambarimiz hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan. Undagi ota-onaga munosabat, ilmga muhabbat, sabr-bardosh, shukronalikka da’vat, o‘zaro mehr, inoqlik, mehmondo‘stlik, etimparvarlik, vafo va sadoqat, mehnatsevarlik va halol luqmani sharaflash, kamtarlik va kamsuqumlik, samimiyat va rostgo‘ylik, to‘g‘rilik va halollik kabi xislatlarning birinchi o‘ringa qo‘yilishi insoniyat uchun bebaho ma’naviy qadriyatlar silsilasini tashkil etadi. Qolaversa, islom ahloqi ma’naviy qadriyatlarning shunchaki tasodifiy to‘plami emas, balki munazzam va mukammal bir tizim holiga keltirilgan bo‘lib, albatta, bunda buyuk muhaddislar, birinchi navbatda yurtdoshimiz Imom Buxoriyning xizmatlari beqiyos va benazirdir. Payg‘ambarimiz sunnatlari (hadislari)ning har bir inson uchun ibratli o‘rinlari nihoyatda ko‘p. Misol tariqasida u zotning ahli ayolga munosabatiga e’tibor beraylik.

Ibn Umar roziyallohu anhu rivoyat qiladilar: “Biz, janob Rasululloh hayotlik vaqtlarida, “Tag‘in, biror baloga giriftor bo‘lib qolmaylik!” deb xavotirlanganimizdan, ayollarimizga biror (qattiq) so‘z aytib, bemalolroq muomala qilishdan qo‘rqar edik. Janob Rasululloh (s.a.v.) vafot qilganlaridan so‘ng, ayollarimizga (qattiq) gapirib, bemalolroq muomala qiladigan bo‘ldik!”[157]

Ushbu hadis mazmunidan ko‘rinib turibdiki, Payg‘ambarimiz ayollarga aslo qo‘pol muomala qilmaganlar. Aksincha ahli ayollar biror kamchilikka yo‘l qo‘ysalar, faqat sabr, yumshoq muomala va shaxsiy namuna bilan tarbiya berib borganlar. Boshqa sahobalar ham Payg‘ambarimizdan ibrat olib o‘z ahli ayollariga ehtirom va yumshoqlik bilan muomala qilishni o‘rganib borganlar.

Ayniqsa islom harom va halol masalasiga musulmonlar e’tiborini qaratadi. SHariatda Alloh tomonidan qilinishiga ruxsat etilgan amallar, ishlar halol deyiladi. Harom esa aksincha, qilinishiga ruxsat etilmagan ishlar va amallardir. Odatda, xalqimiz halol va haromni eyiladigan va ichiladigan narsalarga nisbatan ishlatib kelgan. SHariatda Alloh tomonidan ijozat etilgan hamma narsalar, eyiladigan oziq-ovqatlar, qilinadigan ishlar, hatti-harakatlar halol deb hisoblangan. Ijozat etilmagan narsalar, ishlar va amallar esa haromdir. Alloh harom etilgan ishlarni qiluvchilarga bu dunyoda yoki qiyomat kunida jazosini albatta berishi aytilgan.

---

[156] Қаранг. Имомназаров М., Эшмуҳамедова М. Миллий маънавиятимиз асослари. Тошкент, “Тошкент ислом университети”, 2001, 134-135-бетлар.

[157] Ал-Бухорий. Ҳадис (“Ал-жомиъ ас-саҳиҳ”).3-жилд. Тошкент, 1995, 421-бет.

Halol qilingan narsalar va ishlar koʻpchilikka maʼlum, u haqida koʻp eshitganmiz. Harom qilingan ishlarni eslatib oʻtish va eslab turish joizdir.Bulardan ayrimlarga quyidagilar: Sogʻ boʻla turib ishsiz yurish, zinokorlik, ota-onaga oq boʻlish, savdo-sotiqda gʻirromlik qilish, birovning haqqiga, omonatiga hiyonat qilish, qasamxoʻrlik, sudxoʻrlik, oʻgʻrilik, qaroqchilik, mayxoʻrlik, gʻiybat, tuhmat, boʻhton, josuslik, qotillik, poraxoʻrlik va boshqalar kiradi. Xullas, harom inson va jamiyatga zarar keltiradigan ish va amallardan iborat.
Islomda ota-onaga mehr-muhabbat, gʻamxoʻrlik, farzand tarbiyasi va oilaga sadoqat masalalariga alohida eʼtibor berilgan. Kishilarni yaxshilik qilish, savob ishlarga qoʻl urish, insofli-diyonatli, vijdonli boʻlish, mehr-shafqatlilik, toʻgʻrilik, rostgoʻylik, sofdil boʻlish, birodarga yordam berish, kamtarlikka chaqirish gʻoyalari ilgari surilgan.
Qurʼoni karim va hadislarda har bir inson uchun zarur boʻlgan hayotidan maʼmun boʻlib yashash-shukronalik va sabrli boʻlish masalalariga ham alohida ahamiyat berilgan. SHukronalik va sabr ham inson maʼnaviyligining muhim jihatlaridan biridir. Ularning mazmun-mohiyatini bilib olish har birimiz uchun zarur. Qurʼoni karimda Alloh bu dunyoda insoniyatni behisob neʼmatlar bilan rizqlantirgani, uning sanogʻiga etib boʻlmasligi haqida shunday bayon qilingan:
“Sizlarga barcha soʻragan narsalaringizdan ato etdi. Agar Allohning bergan neʼmatini sanasangizlar, sanogʻiga etolmaysiz. Haqiqatan, inson oʻta zolim va juda noshukrdir”.
Baʼzi kishilar neʼmat soʻzining maʼnosini juda tor doirada tushunadilar. Biror orzu-umidlari amalga oshishini, har kim ham etisha olmaydigan narsalarni qoʻlga kiritishni, jumladan, katta-mol-dunyo, boylik, farzand, biror mansab-martaba va shunga oʻxshash orzu-havaslarga erishishnigina neʼmat deb biladilar. Suv, havo, tan salomatligi, el-yurt tinchligi kabi, inson hayotining asosi boʻlgan bu narsalarga beparvo qaraydilar.
Holbuki, kishining dunyo va oxirati uchun manfaat etkazadigan narsalar borki, ularning barchasi neʼmat hisoblanib islom bularning qadriga etib yashashga buyuradi. Zero, neʼmatning qadrini bilish, uni eʼzozlash neʼmat beruvchi Allohning qadriga etish va shukrini ado etish demakdir.
Paygʻambar alayhissalom hadislarining birida: “Qaysi biringiz tongda uygʻonganda oilasi tinch, tani sogʻ va uyida bir kunlik eguligi boʻlsa, bilingki, unda dunyodagi barcha neʼmatlar mujassam ekan”, deb neʼmatni keng maʼnoda tushunish lozimligiga ishora qilganlar.
YUqorida sanab oʻtganlarimiz moddiy neʼmatlar jumlasiga kiradi. Maʼnaviy neʼmatlar esa imon, aql, hurriyat, tinchlik kabi koʻzga bevosita koʻrinmaydigan, ammo qalb koʻzi bilan ilgʻab olinadigan moddiy neʼmatlarga qaraganda inson uchun ahamiyatli boʻlgan maʼnaviy qadriyatlardan iboratdir.
Koʻpincha insonlar neʼmatning qadriga qoʻldan ketgandan keyingina etadilar. Sogʻliqning qadriga bemorlikda, boylikning qadriga faqirlik etganida, tinchlikning qadri notinchlik vaqtida bilinadi. Neʼmatlarning bardavom boʻlishi, uning shukri ado etilishiga bogʻliqdir. Bu haqda Alloh Qurʼoni karimda: “Qasamki, agar bergan (neʼmatlarimga) shukr qilsangiz, albatta (ularni yanada) ziyoda qilurman. Bordi-yu noshukrchilik qilsangiz, albatta, azobim (ham) qattiqdir”, deb marhamat qilgan. Neʼmatlarning eng sarasi mustaqillikning amaliy shukri esa yoshlarimizni vatanga muhabbatli qilib tarbiyalash, tinchlikni shukrini qilib yashash neʼmatlarning eng sarasi desak mubolagʻa boʻlmaydi.
Islomda inson maʼnaviyligining yana bir jihati sabr-toqatli boʻlishda ekanligi ham alohida taʼkidlanganligi bilan ahamiyatlidir. Paygʻambarimiz alayhissalom oʻz hadislarining birida: “Sabr iymonning yarmidir”, deb taʼkidlaganlar. Qurʼoni karimning yuzga yaqin oyatlarida sabr haqida soʻz yuritilgan. Alloh oʻzini doimo sabr qiluvchilar bilan birga ekanini maʼlum qilib: “Ey, iymon keltirganlar! Sabr va namoz bilan (Mendan) yordam soʻrangizlar! Albatta, Alloh sabr qiluvchilar bilan birgadir”, deydi.
Sabr-bardoshli boʻlish xalqimizning qon-qoniga singib ketgan maʼnaviy fazilatlaridan biridir. Xalqimiz bejizga “Sabrning tagi sariq oltin”, deb aytmagan. Insonlar sabr orqaligina oʻz maqsadlariga erishadilar. SHuning uchun ajdodlarimiz oʻz farzandlarini sabrli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat berganlar. Sabr kosam toʻldi deb noshukrlik qilish insonni zalolatga boshlaydi.
YUqorida aytilganlar islom maʼnaviyati ummonidan bir zarra, xolos. Fikrimizni maʼnaviy-ahloqiy kamolot masalalarida aytilgan baʼzi hadislarni keltirish bilan yakunlashni ixtiyor etdik:

Munofiqlik belgisi uchtadir: YOlg‘on so‘zlash, va’dasining ustidan chiqmaslik va omonatga hiyonat qilishdir.
Omonat qo‘ygan kishining omonatini o‘z vaqtida ado eting;
Haqqingizga hiyonat qilgan kishiga siz hiyonat qilmang;
Qachonki bir gunoh qilib qo‘ysangiz, uni yuvish uchun orqasidan bir savobli ish qiling.
O‘zimdan keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan qo‘rqaman:
1. Nafsu havoga berilib yo‘ldan ozishdan;
2. Nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishidan;
3. Ilmu ma’rifatga ega bo‘la turib g‘ofillarning ishini tutishidan;
Beshta narsadan oldin beshta narsani g‘animat biling:
O‘limdan avval tiriklikni, betoblikdan avval salomatlikni, bo‘sh vaqtdan avval bandlikni, keksalikdan avval yoshlikni, faqirlikdan avval boylikni.
Avvalo onangga, yana onangga va yana onangga, so‘ng esa otangga yaxshilik qil.Ota-onalarni keksalik vaqtida har ikkisini, yoki biri bo‘lmaganda boshqasini rozi qilib jannatiy bo‘lib olmagan farzand xor bo‘lsin, xor bo‘lsin va yana xor bo‘lsin.
Pora beruvchi ham, uni oluvchi ham do‘zaxga mahkumdir. Hadisi muborakdan keltirilgan ushbu misralarning ma’naviy jihatlariga izoh berishning hech bir hojati yo‘q.
Inson tanasi uchun jon qanchalik muhim bo‘lsa, uning ma’naviyati, ruhiyatining teranligi uchun ilm shunchalik ahamiyatli sanaladi.Inson ilm egallash yo‘lidan yursa yuksaladi, aks holda tubanlikka, johillikka yuz tutadi.Bu foniy dunyoda ilmdan bebahra qalblar jonsiz jasadga o‘xshaydi. Alloh bu olamni cheksiz ilmu hikmat bilan yaratgan. Inson aql va tafakkur vositasida bu ilmlardan xabardor bo‘ladi, moddiy va ma’naviy hayotda yuksaklikka ko‘tariladi. Ilm inson tafakkuriga nur baxsh etadi. U shu nur orqali haqiqatni topadi. Ilm insonni doimo yuksak martabaga erishtiradi. Mana shuning uchun ham islom manbalari Qur’oni karim va hadislarda ilm-fanni egallash, ma’rifatli bo‘lish juda katta savobli ish ekani qayta-qayta ta’kidlanadi. Hadisda beshikdan to qabrgacha ilm izlash lozimligini qayd qilinishining o‘zi katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Qur’oni karimda: “Alloh sizlardan iymon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko‘tarur” deyilishi negizida ilmli zotlar va unga intilganlar jamiyatda yuksak mavqe va hurmatga sazovor bo‘lishlariga ishoradir.
Qur’oni karim insoniyatga ilm orqali ikki dunyo saodatiga erishish yo‘lini ko‘rsatdi. U ilmning afzalliklari haqida insonlarga habar beradi va ularni ilm olishga chorlaydi. Ilm buyuk ne’mat ekanligi va bu ne’mat olamning gultoji bo‘lgan insonga berilgan. Ilm najot yo‘li ekanligi habar qilingan. Alloh odamga bergan ilm orqali har narsaning siru asrorini bildirgan va barcha mahluqot ustidan hokim qilgan.
Qur’oni karimda “ilm” so‘zi asosida “Alima” bilmoq fe’l negiziga tayangan kalimalar 750 marotaba uchrashi ilmiy tadqiqotlarda qayd etilgan. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomga ilk nozil bo‘lgan oyat ham “O‘qi...” “O‘qi...” so‘zidan boshlanadi. Ushbu oyat shunday: “O‘qi! Sening o‘ta karamli Parvardigoring qalam vositasi bilan ta’lim berdi. Insonga u bilmagan narsalarini o‘rgatadi” deb nozil qilingan. Ko‘rinadiki, Islom e’tiqodi avval boshdanoq insonni o‘qib-o‘rganishga, ilm vositasi bilan dunyoni anglab etishiga targ‘ib etadi.
Qur’oni karim ham ilm, ham hayot kitobidir. Ilm yo‘lini tutgan inson eng sharafli yo‘lni tanlagan bo‘ladi.
Payg‘ambarimizning “Ilm olish har bir muslim va muslima uchun farzdir” degan hadislari negizida islomning ilmga bo‘lgan yuksak e’tiboridan dalolat beradi. YAna bir hadisda: “Insonlar yo o‘rgatuvchi yoki o‘rganuvchilarga bo‘linadi. Bundan boshqalari esa arzimasdir, deb ta’kidlansa, boshqa bir hadisda: “Insonlar o‘likdir, faqat ilm ahligina tirikdir”, deb bu dunyoda faqat ilm sohiblarigina haqiqatga intilganliklari tufayli tirik ekanliklari aytiladi.
Haqiqatan, hoh dunyoviy, hoh diniy ilm yo‘lida zahmat chekkanlar jisman yo‘q bo‘lsalar ham ular ma’nan tirikdirlar. Bunga Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Nasr Forobiy, Imom Marg‘inoniy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Beruniy, Imom Zamahshariy va Ahmad Farg‘oniy, Hoja Ahror Valiy va Ulug‘bek va boshqalar yaqqol misol bo‘ladilar. Bu buyuk zotlar yaratgan asarlar insonlarning hayot yo‘lini asrlar osha nurafshon etib kelmoqda.

Ular meros qilib qoldirgan asarlarni o‘qib-o‘rganib kishilar ma’nan oziqlanib har on va har lahzada ularni eslab turadilar. Ularga bo‘lgan muhabbat insonlar qalbida abadiy yashab kelmoqda.

Inson Allohning xalifasi sifatida bilim egasi, yorug‘ dunyoning barcha bilimlariga uning idroki etadi. Faqat kibrga berilib ketmasa, o‘zini hammadan ortiq qo‘ya boshlamasa bas. Parvardigor bizni inson qilib yaratgan ekan, aql-xush, ilmu amal bergan ekan, demak, biz inson sifatida tafakkur qilib, dunyoviy ilmlarni – dunyoni o‘rganib, dunyo orqali Allohning zotini, ilmlarini kashf etib yashashimiz kerak. Din – ruhiyatimiz tarbiyachisi, ilm – dunyoni va oxiratni bilish quroli, inson unisini ham, bunisini ham egallamog‘i kerak. Bizning bobolarimizning yo‘li ana shunday bo‘lgan. Bir misol keltiramiz: Rivoyat qilishlaricha, Abu Ali ibn Sino bilan mashhur shayx Abusaid Abulxayr uchrashibdilar. Ular bir kecha bir-birlariga hech narsa demay “suhbatlashib” chiqibdilar. Ertalab shayxning shogirdlari undan Ibn Sino haqida nima deysiz, deb so‘raganlarida, Abdusaid Abulxayr: “Men nimaiki vajd (intuitsiya) bilan bilgan bo‘lsam, u aql bilan bilib olgan”, debdi. Ibn Sino esa o‘z shogirdlariga: “Men nimaiki aql bilan bilgan bo‘lsam, u ko‘ngil bilan idrok etadi”, deb aytgan ekan. Ko‘rinadiki, Ibn Sino dunyoviy ilmlar sohibi, Abusaid Abulxayr esa – tasavvuf shayxi, ilohiyot olimi. Ammo ular bir-birini tushungan va har ikki ilm ham inson uchun kerakligini anglaganlar.

YOki olaylik, Mirzo Ulug‘bek bilan Xo‘ja Ahror Valiyni. Ular zamondosh, bir shaharda yashaganlar. Ulug‘bek – munajjim va shoh, uning shogirdlari aniq fanlar vakillari. Xo‘ja Ahror esa mo‘‘tabar din arbobi, ruhoniy zot. Ammo ular bir-birlariga halaqit bermaganlar, aksincha, biri ilmiy ma’rifatni, ikkinchisi bo‘lsa ruhoniy ma’rifatni rivojlantirib, bir-birlariga ko‘mak berganlar.

Al-Xorazmiy, Al-Farg‘oniy, Al-Beruniy, Al-Buxoriy, G‘azzoliy, Hamadoniy, G‘ijduvoniy va boshqa ulug‘ zotlarning hayot tarzi, ilm uchun fidoyiligi, e’tiqod-iymonining pokligi bilan bizlarga ibratdir. Bularning hammasi ko‘rsatadiki, dindorlik ham ma’rifatni, yuksak ma’naviyatni talab qiladi. Kishi qancha chuqur ilm egasi bo‘lsa, olam va odam mohiyatini anglasa, Uning Allohni anglashi, iymoni ham shuncha mustahkam bo‘ladi.

Gap xoh diniy, xoh dunyoviy ma’rifatni to‘g‘ri va chuqur anglashda, har ikkovini ham egallamay, johil bo‘lib qolmaslikdadir. Dunyoviy ilmlarni egallagan inson o‘zining bu dunyosini, diniy ilmlarni egallaganlar esa o‘zining u dunyosini obod qilgan bo‘ladi.

Har ikki ilmni egallagan kishi esa ikki dunyosini obod qiladi.

Islom bu faqat aqida emas, avvalo, ma’rifat, ilmdir. Islom tarixiga nazar tashlasak, Muhammad Payg‘ambarimiz alayhissalomgacha bo‘lgan davr arablarda “johiliya” davri deb ataladi. “Johiliya” nodonlik, bilimsizlik davri degani. Islom ana shu nodonlik davri o‘rniga keng ma’noda ma’rifat, madaniyat vujudga keltirdi, ilm-fan, falsafa, adabiyot va san’atni rivojlantiridi, o‘ziga xos ma’naviyat va ma’rifatni yaratdi.

Islomda ma’rifatga bo‘lgan munosabatni quyidagi hadislarni keltirish bilan cheklanishni lozim topdik:

“Ilm olish yo‘lida sarflangan bir soat yuzaki ibodat bilan o‘tkazilgan bir kechadan ko‘ra hayrliroqdir”.

“Ilm yo‘lida sarflangan bir kun uch oy ro‘za tutishdan afzalroqdir”. Bu hadislarda ilm yo‘lida sarflangan vaqt eng qadrli ekanligi ta’kidlanmoqda.

Payg‘ambarimiz (s.a.v.) “Ilm o‘rgatgan kishiga ta’zimda bo‘lish va izzat-ikrom ko‘rsating”, deb ilm yo‘lida harakat qilganlarni qadrlash kerakligini uqtiradilar. Xalqimiz bejiz “Ustoz otang kabi ulug‘dir” deb aytmagan.

“Olimning uyqusi ham johilning ibodatidan afzaldir”, chunki uning uyqusi ham ibodatning bir turi sanaladi, sababi olim ilmini davom ettirish uchun charchoqlardan forig‘ bo‘lish maqsadida uxlaydi.

“Sadaqaning eng hayrlisi o‘zgaga ilm o‘rgatmoqlikdir”, “Dindoshiga ilm o‘rgatish yil bo‘yi o‘qilgan nafl namozidan ko‘ra afzalroqdir” kabi hadislarda inson ilmni olimlardan o‘rganishi va o‘zi ham bilganini boshqalarga o‘rgatishi lozimligi ta’kidlangan.

“Ilm o‘rganing, ilm o‘rgangan haqni nohaqdan ajratadi. Ilm jannat yo‘lini yoritadi. Ilm insonga cho‘lda yo‘ldosh, yolg‘izlikda hamroh, kimsasizlikda jondosh do‘st bo‘ladi”, “Ilm insonlarni saodatga eltadi, falokatdan qutqaradi, do‘stlar orasini ziynatlaydi, dushmanga qarshi qalqon bo‘ladi”.

Hadislarda har bir o‘rganilgan ilmni qalblarga jo aylash kerakligi va unutish lozim emasligiga ham ahamiyat berilgan. Ilmni unutgan kishi jaholatga yuz tutishligi va ilm hazinasini yo‘qotishligi “Unutish ilmning ofatidir” hadisida o‘z ifodasini topgan

YUqoridagilardan ko‘rinadiki, Islom ilm-ma’rifat dini va ayni paytda barcha insonlarni dunyo sir-asrorlarini bilishga, ya’niki egallashga va yuksak ma’naviylikka chorlovchi din ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir.

Bizning ulug‘ bobolarimiz islom ma’naviyati va ma’rifati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shib kalom va hadis, tasavvuf va fikh ta’limotini rivojlantirdilar.

Bu haqiqatni jahon jamoatchiligi butun musulmon dunyosi yaxshi biladi va tan oladi. Nufuzli xalqaro tashkilot Islom konferensiyasi tashkilotining ta’lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha – AYSESKO tomonidan Toshkent shahrining 2007 yilda Islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilingani ham ana shunday e’tirofning tasdig‘idir.

YUrtimizdan etishib chiqgan buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyati va ma’naviyati ravnaq toptirishga qo‘shgan betakror hissasi to‘g‘risida so‘z yuritganda, eng avvalo, xaqli ravishda musulmon olamida “Muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriyning muborak nomini tilga olamiz. Bu mo‘‘tabar zotning ishonchli hadislar to‘plami – “Al- jome’ as-sahih” kitobi islom dinida Qur’oni karimdan keyingi ikkinchi muqaddas manbaa bo‘lib, u bashariyat tomonidan bitilgan kitoblarning eng ulug‘i sanaladi. O‘n ikki asrdirki, bu kitob millionlab insonlar qalbini iymon nuri bilan munavvar etib, xaq va diyonat yo‘liga chorlab kelmoqda.

Imom Buxoriyning nurli qalamini Imom Moturudiy olib, ul zotning xayrli ishlarini davom ettirishga bel bog‘ladi. Moturudiy islom olamida “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘ldi. Uning asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar islom dinining asosini to‘g‘rilik, ezgulik va insoniylikdan iborat deb biladigan barcha mo‘min – musulmonlarning qarash va intilishlari bilan hamohang bo‘lganligi bilan ahamiyatlidir.

Islomiy ilmlar sohasida o‘zining beqiyos salohiyati bilan buyuk ilmiy maktab yaratgan, islom huquqshunosligining ulkan namoyondasi Burhoniddin Marg‘inoniyning tabarruk nomini butun musulmon dunyosi asrlar osha e’zozlab kelmoqda. Uni SHarq olamida “Burhoniddin va milla”, ya’ni “Din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan. Marg‘inoniyning o‘lmas merosi, xususan, 57 kitobdan iborat “ Hidoya” – “To‘g‘ri yo‘l” deb atalgan asari sakkiz asrdan buyon musulmon mamlakatlarida eng nufuzli va mukammal huquqiy manba sifatida e’tirof etib kelinayotgani va boshqalar ulug‘ bobolarimizning islom madaniyati va ma’naviyati, ma’rifati rivojiga ulkan hissalarining isbotidir.[158]

YAqin o‘tmishning salbiy asoratlaridan biri shuki, sobiq sho‘ro tuzumida dunyoviy ilm va diniy-falsafiy ta’limot, ya’niki diniy ilmlar bir-biriga qarama-qarshi qo‘yildi. Ular bir-birini inkor etadigan hodisalar tarzida talqin etildi. Diniy tafakkur dunyoviy ilm rivojiga monelik ko‘rsatadigan chirkin bid’at sifatida qoralandi.

Biz bugun bunday qarashlarning tubdan zararli va tarixan asossiz ekanligini ochiq aytishimiz mumkin. Dunyoviy va diniy ilm yuqorida ko‘rsatganimizdek, o‘tmish asrlarda doimo hamkor va hamnafas bo‘lib kelganligini tarixning o‘zi tasdiqlaydi.

“Dunyoviy va diniy g‘oyalar bir-birini boyitib borgan sharoitda taraqqiyot yuksak bosqichga ko‘tariladi.. Bunga bashariyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan Imom Buxoriy va Muso Xorazmiy, Imom Moturidiy va Abu Rayhon Beruniy, Imom G‘azzoliy va Ibn Sino, Imom Termiziy va Abu Nasr Forobiy singari buyuk zakovat sohiblari yashab faoliyat ko‘rsatgan davrlar yorqin misol bo‘la oladi”.[159]

---

[158]Қаранг: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент, “Ўзбекистон”, 2000, 18-бет.
[159] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 37-40- бетлар.

Mustaqillik tufayli farzandlarimizni dunyoviy bilimlar bilan bir qatorda Imom Buxoriy to‘plagan hadislar, Naqshbandiy ta’limoti, Termiziy o‘gitlari, YAssaviy hikmatlari asosida tarbiya qilish imkoniga ega bo‘ldik.
Qur’oni karim va Payg‘ambarimiz alayhissalom hadislarining eng muhim va salmoqli qismi kishilarda yuksak insoniy fazilatlarni shakllantirishga qaratilganligidir. Ulardagi ota-onaga, ilmga munosabat, sabr-bardosh, shukronalikka da’vat, o‘zaro mehr, mehmondo‘stlik, etimparvarlik, vafo va sadoqat, halol luqmani sharaflash, kamtarlik, kamsuqumlilik, samimiyat, rostgo‘ylik va boshqa chin insoniylik xislatlarining birinchi o‘ringa qo‘yilishi barcha insoniyat uchun bebaho umuminsoniy ma’naviy boylik tizimini tashkil etadi.
Jismoniy va ma’naviy poklikka intilish islom ahloqining, Rasululloh hadislarining yana bir muhim mavzu yo‘nalishidir. Tahorat, g‘usl masalalari tashqi ozodalik talablari bo‘lsa, haromdan, yolg‘on so‘z, g‘iybat, tuhmat, zinokorlik, o‘zga haqqiga hiyonat, nohaqlik va zulmga yo‘l qo‘ymaslik, ulardan qat’iy saqlanish ichki, ma’naviy poklikka oid talablardir. Bularning hammasi Qur’oni karim hamda Rasululloh (s.a.v.) hadislarida va ularga asoslangan shariatda juda qat’iy qilib qo‘yilgan.
Xullas, islom barcha mo‘minlarni yuksak ma’naviylikka chorlovchi, insonparvar din ekanligini anglab etishimiz zarur. SHundagina dindan ma’naviy va ma’rifiy tarbiyada foydalanish zaruratiga to‘g‘ri yondoshamiz.

## Mustaqillik: diniy- ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va ularning komil inson tarbiyasidagi ahamiyati

Ta’lim, fan va madaniyat bo‘yicha islom tashkiloti AYSESKO tomonidan Toshkent shahriga 2007 yilda “Islom madaniyati poytaxti” degan nom berilishi hoki poklari O‘zbekiston tuprog‘ida yotgan ulug‘ ajdodlarimiz, ne-ne mutafakkir zotlar asrlar mobaynida dunyoviy va diniy ilmlar sohasida qanday buyuk kashfiyotlar yaratgani, buning uchun qancha zahmat va mashaqqatlar chekkanini ko‘ramiz. Bugun guvoh bo‘lib turgan yuksak e’tirof avvalo ana shunday ajdodlarimizning tabarruk nomlari va qoldirgan merosiga qo‘shgan beqiyos hissasiga berilgan munosib baho demakdir.[160]
Bu ulug‘ zotlar qoldirgan boy ma’naviy merosni asrab-avaylab kelinayotgani, uni har tomonlama o‘rganish, keng omma, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirish, jahon jamoatchiligiga targ‘ib va tarannum etish yuzasidan keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.
Barchamizga ma’lumki, yurtimizda ana shunday meros sobiq sho‘ro davrida ham mavjud edi. Jumladan, bebaho tarixiy qo‘lyozmalar maxsus fondlarda saqlab kelinar va ulardan tor doiradagi mutaxassislar ilmiy maqsaddagina foydalana olardi. Bu merosni sinfiy va mafkuraviy nuqtai nazardan emas, asl insoniy mohiyatiga mos ravishda chuqur o‘rganish, ma’naviy hayotimizning uzviy bir qismi sifatida talqin va targ‘ib qilishga esa mutlaqo yo‘l qo‘yilmasdi. Bunga jur’at qilgan odamlarning qanday tazyiq va xavf-hatarlarga uchrashi muqarrarligini yaqin o‘tmishimiz bilan tanish bo‘lgan har qaysi odam yaxshi biladi. CHunonchi, yaqin o‘tmishda namoz o‘qish, diniy marosimlarni o‘tash ta’qiqlangan edi. Masjidlar, aziz-avliyolarning ziyoratgohlariga qulf urilgan edi. Odamlarning uylaridagi Qur’on, Hadis, turli diniy adabiyotlar, hatto arab yozuvidagi boshqa kitoblar terib olinib, yoqib yuborilgan edi. Mana buni “johiliya”, nodonlik desa bo‘ladi. Qanchadan-qancha odamlarimiz hozirgi emin-erkin kunlarni qo‘msab, ammo ko‘rolmay, armon bilan o‘tib ketdilar. SHu bois biz mustaqillik keltirgan ne’matlarga har qancha shukronalik aytsak arziydi. Mustaqillik davrida islomiy qadriyatlar tiklandi, iymon-e’tiqodimiz o‘zimizga qaytdi. Bu savobli, ezgu ishlarga karvonboshi hurmatli Prezidentimiz Islom Karimov ekanini har daqiqa eslab turishimiz lozim. Prezidentimiz ma’naviyat va ma’rifatga oid nutq, ma’ruza va asarlarida islomning ma’naviy-ahloqiy, ma’rifiy tarbiyadagi yuksak roli, o‘rni, ahamiyatini muntazam uqtirib kelmoqdalar.

---

[160] Қаранг: Каримов И.А. Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган беқиёс ҳиссасининг юксак эътирофи. “Куч-адолатда” газетаси, 2007, 23-феврал.

Xususan, bu masalalarga Prezidentimiz Islom Karimovning “Istiqlol va ma’naviyat” to‘plami, “O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari”, “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “Alloh qalbimizda, yuragimizda”, “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz”, “YUksak ma’naviyat-engilmas kuch” kabi asar va risolalarda javob topishimiz mumkin.

Islom dinining xalqimiz ma’naviy hayotidagi beqiyos o‘rni va ahamiyati haqida Prezidentimiz “Ayniqsa, ko‘p asrlar mobaynida xalqimiz qalbidan chuqur joy olib, hayot ma’nosini anglash, milliy madaniyatimiz va turmush tarzimizni, qadriyatlarimiz, urf-odat va an’analarimizni bezavol saqlashda muqaddas dinimiz qudratli omil bo‘lib kelayotganini alohida ta’kidlash joiz. Nega deganda, insoniylik, mehr-oqibat, halollik, oxiratni o‘ylab yashash, yaxshilik, mehr-shafqat singari xalqimizga mansub bo‘lgan fazilatlar ana shu zaminda ildiz otadi”,[161]-deb ta’kidlagan edi. Bu holat xalqimizga, xususan yoshlarimizga milliy g‘oyani singdirishda Islom omilidan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Ana shularni hisobga olgan holda, bugungi kunda biz voris bo‘lgan diniy moddiy va ma’naviy meroslarimizni zamon talablari asosida keng va atroflicha o‘rganish va tadqiq etish, ulardan xalqimizni bahramand qilish masalasiga O‘zbekiston rahbariyati va jamoatchiligi alohida ahamiyat berib kelayotir. Diniy ma’naviy merosimiz qaytadan ko‘z ochmoqda.

Avvalo masjidlarga, aziz-avliyolar yotgan maqbaralarga solingan qulflar olib tashlandi. Qarovsiz qolgan masjidlar ta’mirlandi, yangilari barpo etildi. Aziz-avliyolar yotgan, o‘tmishda qarovsiz holga kelgan joylar obodonlashtirildi, ziyoratchilar uchun qulay sharoitlar yuzaga keltirildi. Ramazon va Qurbon hayitlari dam olish kuni deb e’lon qilindi. Har yili minglab fuqarolarimizning Haj va Umraga borib kelishlari uchun imkoniyat va sharoit yaratib berildi. Bu o‘tmishda faqat hayoliy orzu va armon edi. Ulug‘ allomalar – Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Bahouddin Naqshband, Ahmad YAssaviy, Abduholiq G‘ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Abu Mansur Moturidiy, al-Marg‘inoniy, va boshqa ulug‘ zotlarning yubileylari bo‘lib o‘tdi. Qur’oni Karim, Hadislar va boshqa diniy kitoblar nashr qilindi, qilinmoqda. O‘tmishda birorta ham diniy ulamoning yubileyi o‘tkazilmas edi, diniy kitoblarni nashr etish ta’qiqlangan edi, yuqorida aytganimizdek borlari ham yo‘q qilingan edi. 1999 yilda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi. Mustaqillik yillari islom dini va islomiy qadriyatlarni tiklash borasida asrlarga teng amaliy ishlar bajarildi.

Bugungi kunda bizning tarixiy merosimiz, diniy qadriyatlarimizni tiklash masalasiga katta mas’uliyat bilan qarab olib borayotgan ishlarimizning amaliy tasdig‘ini ko‘p-ko‘p misollarda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, Samarqand shahridagi XI-XV asrlar yodgorligi bo‘lmish, qadim zamonlardan buyon butun musulmon dunyosining e’tiborini o‘ziga tortib kelayotgan SHohi Zinda majmuasida uch yil avval boshlangan keng ko‘lamli ishlarimiz bugun ham davom etmoqda.

Eng muhimi, mamlakatimizning barcha hudud va mintaqalarida islomiy qadriyatlarni tiklashdek ezgu maqsad yo‘lida hamma uchun ibratli va hayrli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda so‘z yuritganda, Toshkent shahrida joylashgan Qur’oni karimning eng qadimiy va mo‘‘tabar nushalaridan biri bo‘lgan mashhur Usmon Qur’oni saqlanayotgan Hazrati Imom majmuasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli qayta tiklash va ta’mirlash, qurilish ishlarini eslash, Samarqanddagi Imom Buxoriy va Imom Moturidiy ziyoratgohlari, Buxorodagi Abduholiq G‘ijduvoniy va Bahouddin Naqshband, Minorai Kalon va Masjidi Kalon majmualari, Farg‘onadagi Ahmad Farg‘oniy va Burg‘oniddin Marg‘inoniy yodgorliklari, Surxondaryodagi Hakim Termiziy va Imom Termiziy, Xivadagi Ichan qal’a, SHahrisabzdagi Dorut-tilovat, Qarshi shahridagi Odina va Ko‘kgumbaz obidalari, Karmana shahridagi Qosim shayx maqbarasini aytish mumkin. Bu amalga oshirilgan ishlar xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi va ma’naviyatining yuksalishida katta ahamiyatga egadir.

---

[161] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 36- бет

Ona zaminimizda yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni qayta tiklash va ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashdan ko‘zlangan maqsad: “...ertaga bizning o‘rnimizga keladigan, biz boshlagan olijanob ishlarni munosib davom ettirishga qodir bo‘lgan yoshlarimiz ana shu bebaho ma’naviy boylikdan bahramand bo‘lsin, shu asosda o‘zining kimligi, qanday buyuk zotlarning avlodi ekanligini anglab etsin”.[162]

Ma’naviy merosimizni tiklash borasida keng ko‘lamda olib borayotgan ishlarimiz natijasida islom va islomiy qadriyatlar ma’naviy va ma’rifiy hayotimizning tarkibiy qismiga aylanib qoldi. Prezident Islom Karimov so‘zi bilan aytganda: “Biz islom dini ota-bobolarimiz dini ekani, u biz uchun ham iymon, ham ahloq, ham diyonat, ham ma’rifat ekanini doimo yuksak qadrlaymiz... Dinga hurmat va e’tiqod – biz uchun o‘lmas qadriyatdir.”[163]

Sobiq SHo‘rolar tuzumi tanazzulga yuz tutib, eski hukmron, yakka hokim bolshevistik-kommunistik mafkura batamom inqirozga uchrab, yangi mustaqil davlatlar shakllanishi jarayonida ma’lum muddat g‘oyaviy-mafkuraviy bo‘shliq (vakuum) holati vujudga keldi.

G‘oyaviy bo‘shliq nima? G‘oyaviy bo‘shliq eski tuzumdan yangi tuzumga o‘tish jarayonida oldin hukmronlik qilib kelgan mafkura o‘tmishga aylangach, taraqqiyot talablariga mos ravishda uning o‘rnini bosadigan ilg‘or g‘oyaviy qarash tizimining hali shakllanmagan holatidir.

1990 yillarning boshlarida bunday g‘oyaviy-mafkuraviy bo‘shliq O‘zbekiston hududida ham namoyon bo‘ldi.

SHu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlari muhim ahamiyatga ega: “Men qo‘hna bir haqiqatni yana eslatmoqchiman: tabiatda bo‘shliq bo‘lmaganidek, insonning ongu tafakkurida ham bo‘shliq bo‘lishiga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Har bir ongli odamning voqelikka o‘z munosabati, maqsad va intilishlari bo‘lishi tabiiy”.[164]

G‘oyaviy bo‘shliq paydo bo‘lgan joyda muqarrar ravishda begona va zararli mafkuralar huruji boshlanadi. O‘tish davrida, yangicha qarashlar mustahkam e’tiqodga aylanib ulgurmagan paytda tashqi mafkuraviy ta’sirlarning foydali yoki zararli ekanini hamma ham darhol fahmlay olmaydi. O‘zbekistondagi mafkura maydoniga zararli, xalqimizning orzu-intilishlariga mutlaqo begona g‘oyalarning hujumi ana shu bilan ham izohlanadi.

So‘nggi yillarda bizning diyorimizda ham taraqqiyotimiz, osoyishtaligimizni ko‘rolmaydigan “vahobiylik” va “hizbut-tahrir” kabi oqimlarning guruh va to‘dalari paydo bo‘lib qoldi. Bunday to‘dalar o‘zlaricha masjidlarda g‘avg‘o ko‘tarib, o‘tish davrining qiyinchiliklaridan foydalanib, ayrim yoshlarning ongini zaharlamoqdalar. Mustaqillikning bergan erkinligini suiiste’mol qilmoqdalar. Bu mutaassib dindorlar o‘zlarini “vahobiy” yoki “dinni tozalovchilar”, “fundamentalistlar” deb yuritib, aslida esa birinchi navbatda islomning o‘ziga zarba bermoqdalar. Vahobiylar bir yarim ming yillik ilm-fan, madaniyat tarixidan voz kechish, Imom Buxoriy, Imom G‘azzoliy, Imom Abu Xanifa, Burhoniddin Marg‘inoniy, Ahmad al-Farg‘oniy, Navoiy, Jomiy, Ulug‘bek, Bahouddin Naqshband va boshqa o‘nlab mutafakkirlar, so‘fiylar, olimlar merosidan voz kechish, ularning asarlarini yoqib yuborishni, maqbaralarni buzib tashlashni tavsiya qilmoqdalar. Ular, umuman, inson aqli, inson qalbi bilan yaratilgan jamiki ma’naviy boyliklarni uloqtirib tashlashga da’vat etmoqdalar. Axir bu vahshiylik, nodonlik, johillikning o‘zi-ku. Ma’naviyatli va ma’rifatli kishi, buni mutlaqo qabul qilmaydi.

Vahobiylik bizni orqaga, jaholatga tortadigan, islomni, islom ahlini buzadigan xavfli oqim. “Dinni tozalash”, “sof dinga qaytish” niqobi ostida tashviqotlar olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar qilish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo‘yayotganlardan milliy qadriyatlarimizni avaylab-asrashimiz lozim.

Diyorimizda din niqobi ostida ish ko‘rayotgan ekstremistlar, aqidaparastlar mavjud konstitutsiyaviy tuzumga qarshi borib, hokimiyatni egallash va O‘zbekistonda Islom davlati

---

[162] Каримов И. А. Ўзбек халқининг ислом маданияти ривожига қўшган беқиёс ҳиссасининг юксак эътирофи. “Куч-адолатда” газетаси, 2007 йил 23февраль.

[163] Каримов И. А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Тошкент., Ўзбекистон, 2000., 26-бет.

[164] “Фидокор” газетаси, 2000 йил, 8 июнь.

qurish, xalqni qo‘rquvga solib, hukumatga ishonchsizlik uyg‘otish uchun turli jinoyatlar va terroristik harakatlar sodir etish yo‘li bilan el tinchligini buzishga urinmoqdalar. Ularning asl maqsadi hukumatparastlik, ya’ni davlatni qo‘lga olishdan iborat. Mustaqil yurtimizda ularga o‘z vaqtida zarba berildi va ularning payi qirqildi.

Xalqimiz endi – erkinligini qo‘lga kiritgan, o‘zligini anglab etgan bir zamonda allaqanday kimsalarga ergashib yana jaholat va qullik tuzog‘iga qaytadimi? Albatta yo‘q, ammo hamma gap har qanday tahdid yoki tahlika oldida vahimaga tushmasdan, ana shu kurash va sinovlarga doimo tayyor turishda, ogoh va sergak bo‘lishda. “SHu nuqtai nazardan qaraganda,-deb yozadi Prezidentimiz Islom Karimov,-muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga to‘g‘ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish vazifasi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda”.[165] Bu borada yoshlarimizni ularning zararli ta’siridan asrab qolish hozirgi ta’lim-tarbiya ishimizning asosiy yo‘nalishi bo‘lib qolishi lozim.

Begona va zararli, mohiyatan g‘ayriinsoniy bo‘lgan g‘oyalarga qarshi tura olish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz zarur. Immunitet (lotincha “ozod bo‘lish, qutulish”)deganda organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o‘zini turli xususiyatlarga ega ta’sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo‘lgan reaksiyalar majmui tushuniladi. Lekin insonning ko‘plab xususiyatlari tug‘ma bo‘lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirish, shakllantirib borish ijtimoiy-siyosiy hayotiy ehtiyoj sanaladi. CHunki kuchli mafkuraviy immunitetga ega shaxs har qanday oshkora yoki pinhona ko‘rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh bera oladi. YOshlarimiz doimo va har on ogoh va yana ogoh, sergak bo‘lishlari zamon talabi. Buning uchun yoshlarimiz ongiga mustaqillik g‘oyasini chuqur singdirishimiz lozim. Toki ular milliy ildizlari baquvvat, dunyoni chuqur anglaydigan, zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlar bo‘lib etishsin. Ana shunda johil aqidaparastning “da’vati” ham, ahloqni rad etadigan,biz uchun mutlaqo begona g‘oyalar ham ularga o‘z ta’sirini o‘tkaza olmaydi.

Muhtaram Prezidentimizning “Turkiston-press” axborot agentligi muxbirining savollariga javobida ta’kidlaganidek: “Biz o‘z dinimiz va e’tiqodimizdan hech qachon voz kechmaymiz. SHu bilan birga muqaddas dinimiz sha’niga dog‘ tushirmoqchi bo‘lgan kimsalar bilan hech qachon murosa qilolmaymiz. Men O‘zbekiston rahbari sifatida qandaydir yovuz kuchlar islom dinimizni, ota-bobolarimiz e’tiqodini, musulmon fuqarolarimizni tahqirlashiga, jamiyatimizga xavf tug‘dirishiga hech qachon yo‘l qo‘ymayman”.[166]

President aytganidek, har birimiz hamisha, har soniyada ogoh bo‘lishimiz lozim. Bu mustaqil yurt har bir fuqarosining muqaddas burchi bo‘lmog‘i lozim.

Muqaddas dinimizni pok saqlash, uni turli xil g‘arazli huruj va hamlalardan, tuhmat va bo‘htonlardan himoya qilish, avvalambor, uning asl mohiyatini, ya’ni islom dini tinchlik, ma’rifat, yuksak ahloq-odob ifodachisi ekanini unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizga tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g‘oyalarini keng targ‘ib etish orqali ular ongida sog‘lom mafkuraviy immunitetni shakllantirishimiz lozim.

YUrtimizda keyingi vaqtlarda ro‘y berayotgan ayrim salbiy hodisalar, nojo‘ya hatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘lmoqda.[167]

Har bir fuqaro shuni anglab etishi kerakki, O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o‘ziga xos va mos yo‘li bo‘lgani kabi madaniy-ma’naviy rivojlanishida ham o‘z yo‘li bor. Bu o‘ziga xoslikni dinga, diniy qsadriyatlarga munosabatimizda, ulardan ma’naviy tarbiyada foydalanishimizda ham ko‘rishimiz mumkin. Bu yo‘l Prezidentimiz asarlarida, hususan “YUksak ma’naviyat engilmas kuch” kitobida yoritib berilgan. Uning mohiyati mo‘‘tadil dindorlik, islom ma’rifatini rivojlantirish, ichki-botiniy olamni poklab, Allohni dilda saqlab, aqlu tafakkur, ilmu urfon bilan kamolot sari borish, o‘z

[165] Каримов И. А. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008, 37- бет
[166] Каримов И. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. “Халқ сўзи” газетаси, 1999 йил 6 март сони.
[167] Қаранг. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқ этиқоди ва буюк келажакка ишончдир. 9-бет.

ma’naviy merosimiz qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam bo‘lgan holda olg‘a borish.
Xulosa shuki, mustaqillik bergan hidoyat yo‘lini turli unsurlardan asrash, ularga berilmaslik lozim.

**Takrorlash uchun savollar**:

1. Nima uchun Markaziy Osiyo – SHarqning yuksak ma’naviyat va ma’rifat markazi deb yuritiladi? Misollar keltiring.
2. SHarq va G‘arb Renessansi (Uyg‘onish), ularning o‘xshashligi va tafovutlari nimalardan iborat?
3. Islom Karimovning qaysi asarlarida Markaziy Osiyo SHarqning yuksak ma’naviyat va ma’rifat markazi ekanligi to‘g‘risida bayon qilingan? Misollar bilan izohlang.
4. Markaziy Osiyo buyuk mutafakkirlaridan kimlarni va ularni qanday asarlarini bilasiz?
5. Markaziy Osiyolik mutafakkirlarning asarlari ma’naviyatimizning ajralmas qismi ekanligini asoslab bering.
6. Al-Xorazmiyning ilmiy kashfiyotlarining milliy-ma’naviyatimizni boyitishdagi ahamiyatini ko‘rsatib bering.
7. Buyuk mutafakkirlarimiz jahon fani va madaniyati xazinasiga o‘zlarining qanday ilmiy kashfiyotlari bilan hissa qo‘shganlar?
8. Nima uchun al-Forobiy “ikkinchi muallim”; Ibn Sino “shayx ur-rais” deb yuritiladi?
9. YUsuf Xos Hojib va Ahmad YUgnakiyning ilm, uning ahamiyati, odob-ahloq haqidagi qanday fikrlarini bilasiz?
10. XVIII-XIX asrlarda yashab o‘tgan qanday shoir va ma’rifatparvarlarni bilasiz?
11. Islom dini haqida nimalarni bilasiz?
12. Qur’on va Hadis qanday kitoblar?
13. Islom dinida inson ma’naviyati masalalari qanday talqin qilingan va ular xaqida nimalar bilasiz?
14. Islom dinining ilmga munosabatini izohlang.
15. Tasavvuf qanday diniy-falsafiy ta’limot? Uning mohiyatini izohlang.
16. Tasavvuf inson uchun eng katta yov deb nimani tushunadi?
17. O‘rta Osiyolik qanday buyuk so‘fiylarni bilasiz?
18. “Dil ba yoru - dast ba kor” iborasining mohiyatini izohlang.
19. Diniy aqidaparastlik deganda nimani tushunasiz? Uning jamiyatimiz uchun xavfi nimada?
20. Islom dinining shaxs ma’naviyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ko‘rsatib bering.
21. O‘zbekiston mustaqilligi va dinga, diniy qadriyatlarga munosabatdagi o‘zgarishlarni tushuntirib bering.

## MAVZU:«DINSHUNOSLIK» FANIGA KIRISH. DINNING IPTIDOIY SHAKLLARI

### REJA

**1. Dinshunoslik fanining predmeti va vazifalari.**
**2. Dinning paydo bo‘lish masalasi. Dinlar tasnifi.**
**3. Diniy tafakkurning shaxsiy va ijtimoiy ildizlari.**
**4. diniy ong asoslarining shakllanishi.**
**5. Totemizm, Animizm, shamanizm, fetishizm.**

1. «Dinshunoslik» fanining maqsadi, predmeti, tuzilishi, uning yoshlar dunyoqarashini shakllantirishdagi roli

Sobiq SSSRda «Ilmiy ateizm asoslari» kursi o‘qitilib, asosiy e’tibor dinlarni tanqid qilish, diniy imon-e’tiqodni qoralab, uning o‘rniga xudo va boshqa ilohiy kuchlarni inkor qiluvchi, ya’ni xudosizlikka o‘rgatuvchi ateistik bilimlar talabalar ongiga, ruhiyatiga va dunyoqarashiga singdirilar edi. «Ilmiy ateizm asoslari»ni o‘z vazifasidan chalg‘itib, uni siyosat uchun xizmat qilishiga urinib, din va diniy e’tiqodni jamiyat hayotidan va talabalar qalbidan butunlay surib

chiqarishga harakat qilinganda ko‘pincha vijdon erkinligi qonun-qoidalari qo‘pol ravishda buzilardi. Bu esa ayrim xushyorroq talabalarning pinhoniy, ba’zan esa ochiqdan-ochiq noroziligiga sabab bo‘lar, aholida ilmiy ateistik targ‘ibotga nisbatan ishonchsizlik paydo qilar, oqibatda «Ilmiy ateizmning» obro‘-e’tibori tushib ketgan edi.
Turg‘unlik yillarida milliy kamsitishga asoslangan «o‘ta baynalminallik» siyosatiga amal qilinishi tufayli diniy urf-odatlar, marosimlar, hatto milliy rasm-rusumlar ham kamsitilib, ularning yo‘liga turli to‘siqlar qo‘yilib, ularga amal qilishga imkoniyatlar yo‘q qilingan edi. Umuminsoniy qadriyatlar kamayib, ma’naviy qashshoqlanish sari yo‘l ochilgan edi.
1991 yilda SSSR parchalanib, so‘ngra esa butunlay tarqab ketdi. Uning o‘rnida mustaqil davlatlar vujudga keldi. Jumladan, 1991 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Oliy kengashining navbatdan tashqari 6-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi mustaqil bo‘lgani tantanali ravishda e’lon qilindi. Endilikda har yili 1 sentyabr Mustaqillik kuni sifatida bayram qilinmoqda. Ana shu tarixiy voqeadan keyin-gi o‘tgan davrda O‘zbekiston jahonga ma’lum bo‘ldi. Respublikamiz 1992 yil 2 mart kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘ldi, dunyodagi ko‘pgina davlatlar bilan aloqalar o‘rnatdi. Mamlakatimizda juda ko‘p korxonalar vujudga keldi, mulk davlat tasarrufidan chiqarilib, xususiylashtirish amalga oshirilmoqda, fuqarolarning qadr-qimmati oshib, ular Vatan tuyg‘usini yaqqolroq his qila boshladilar, o‘zbeklar va boshqa millatlarning tengligi, milliy iftixori o‘sib bormoqda.
Xususan, demokratik va insonparvar jamiyat qurayotgan O‘zbekistonda diniy e’tiqod erkinligi amalga oshirildi. Juda ko‘plab masjidlar, madrasalar, diniy maktablar, uyushmalar va jamoalar vujudga keldi, ko‘plab diniy adabiyotlar chop etilmoqda, diniy bayramlar, marosimlar, urf-odatlar tiklanib, amal qilmoqda. Bu ma’naviy yangiliklar xalqimizning ruhiyatiga (psixologiyasiga) ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. «Xalqimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarning ildizi, - deb yozadi prezidentimiz I.A.Karimov, - xalqimizning ma’naviy uyg‘onishidadir. Ona tilimizning azaliy haq-huquqlari tiklangani, haqiqiy o‘zbekona urf-odatlarimizning hayotdan o‘rin olayotgani ham odamlar kayfiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘zbek o‘zligiga ishona boshladi. Navro‘z tiklangani, hayitlar tiklangani savobli ishlar bo‘ldi» (Qarang: I.Karimov. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat «O‘zbekiston» 1992 y. 6-7 betlar).

Jamiyat hayotida din peshvolari ham aktiv qatnashmoqdalar. Xalqimizning ko‘nglini ko‘tarishda, uning qaddini rostlashda ko‘pchilik din vakillari, yuzlab imom- xatiblar davlatimizga yaqindan yordam bermoqdalar, ular xalqni birlashtirishni, o‘zaro nizo va nifoqlardan yiroq turishni targ‘ib etmoqdalar.
Mana shunday ijtimoiy-siyosiy vaziyatda, shart-sharoitlarda dinga butunlay yangicha munosabat shakllandi. Natijada «Ilmiy ateizm»ni o‘qitish tugatildi, uning o‘rniga «dinshunoslik» kursi joriy etilib, mana bir necha yildan buyon bu fan oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilmoqda. Bu o‘zgarishdan xalqimiz hursand bo‘ldi, talabalar bu predmetni qiziqib o‘rganmoqdalar. «Dinshunoslik»ning maqsadi talabalarga dinning falsafiy, nazariy, tarixiy va amaliy xususiyatlarini o‘rgatishdir. Modomiki, ming yillardan buyon mavjud bo‘lgan turli dinlar, diniy dunyoqarash, urf-odatlar mavjud ekan, bu jahon xalqlarida dinga ehtiyoj mavjudligini, dinning odamlar uchun foydasi hadsiz ekanligini ko‘rsatadi. «Dinshunoslik»ning maqsadi din to‘g‘risidagi ob’ektiv haqiqatni tushuntirib, izohlab berishdir. «Dinshunoslik»ning mazmuni dinlarning falsafiy, nazariy jihatlarini ochib berish, dinlar tarixini yoritib berish, dinlarning ijtimoiy funksiyalarini turli jihatda tushuntirishdir.

«Dinshunoslik»ni o‘rganar ekan, talabalar ahloqan va ma’naviy jihatlardan o‘z ongini kengaytiradilar; ular dunyo voqea va hodisalariga, jamiyatdagi murakkab insoniy munosabatlar mohiyatini yanada sinchkovroq bo‘lib tushunadilar; ular dinlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rnini yaqqolroq anglab etadilar; o‘zlarida iymon-e’tiqod erkinligiga ongliroq munosabatni shakllantiradilar, ya’ni bu fanning talabalar dunyoqarashi uchun ahamiyati beqiyos.
Ma’lumki, din yangi mafkuramiz tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, «Dinshunoslik»ni o‘qigan talabalar mafkuramiz mazmunini chuqurroq tushunib etadilar, mamlakatimizning aktiv rivojlantiruvchilari, ongli fuqarolari bo‘lib etishadilar.

«Muayyan dunyoqarash, dunyoni anglash nuqtai-nazaridan ifoda etilgan g‘oyalar, dasturlar, ahloq-odob maromlari aqlli odam ishonchi (imoni) ga aylansa qadrlanadi, e’zozlanadi. Imonli odam o‘z ixtiyori bilan qabul etgan g‘oyalar, timsollarni muqaddas bilib, hayotini ularsiz tasavvur eta olmaydi, och, yalang‘och qolishga, barcha mahrumliklarga, hatto o‘limga ham rozi bo‘ladi, ammo o‘z iymoniga xilof keladigan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi». (Qarang: I.Karimov. Imon va inson. T., «Fan» 1991 y. 4-bet.).
«...milliy tariximiz va umumbashariy taraqqiyot rivojiga unutilmas hissa qo‘shgan olimu fuzalolarning mafkura va uning jamiyat hayotidagi ahamiyati haqida qoldirgan ilmiy merosi, falsafiy qarashlarini har tomonlama o‘rganish darkor. Men bu o‘rinda Abu Nasr Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Imom Al-Buxoriy, Ahmad YAssaviy, Alisher Navoiy, Baxouddin Naqshband, Najmiddin Kubro kabi ulug‘ ajdodlarimizning o‘sha mavzuga daxldor asarlarini nazarda tutyapman». (Qarang: Barkamol avlod orzusi. «SHarq» nashriyoti matbaa konserni bosh tahririyati. Toshkent-1999, 36-bet).

Ularning sharafiga mahobatli haykallar qo‘yildi, saroylar, madrasalar maktablar qayta tiklandi, ularning tavallud yillari yubileylari o‘tkazildi, asarlari nashr etildi va h.k.

Xulosa qilinganda, «Dinshunoslik» kursining maqsad va mazmuni bu fanning ijtimoiy-siyosiy va dunyoqarashlik harakterida ekanligini, har bir dinga ishongan odamning iymon-e’tiqodi mazmunini yaqqol ko‘rsatib berishdir.

«Dinshunoslik» fanining, bizningcha quyidagi asosiy xususiyat va yo‘nalishlari borki, ularni bir butun, yaxlit holda olib qaralgandagina bu fanning baxs mavzusini to‘g‘ri va to‘la bayon qilib, mazkur fanning mohiyatini, mazmunini maqsadlarini yaqqol sezib, tushunib olish mumkin bo‘ladi.

«Dinshunoslik»ning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. «Dinshunoslik» fani dinlarning mohiyatini va din tushunchasini ta’riflab, uni izohlab, tushuntirib beradi. Diniy ong, ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida olib qaralib, uni tarixiy hodisa deb hisoblaydi; bu bilan barcha dinlar insoniyat tarixi bilan bog‘langanligi, odamlarning dinga bo‘lgan ehtiyoji tufayli kelib chiqqach, ular asta-sekin bir tizim qiyofasiga kirib davom etayotganligi ta’kidlab o‘tiladi.

Dinlarning kelib chiqish, rivojlanish va evolyusiyasi o‘zining tub sabablariga, ya’ni ildizlariga egaki, «Dinshunoslik» shu xususiyatni ham nazarda tutadi va ularni ko‘rsatib beradi. Bu bilan hozirgi zamonda mavjud bo‘lib turgan turli dinlar qadim zamonlarda vujudga kelgan bo‘lsalar ham, nima uchun ular hamon mavjud bo‘lib turibdi degan savolga aniq javob beradi.

«Dinshunoslik» dinlarning qanday tarkibiy elementlari borligini ham ko‘rsatib beradi. Har qanday milliy va jahon dinlarida diniy tasavvurlar, diniy harakatlar, diniy psixologiya va diniy tashkilotlardan iborat to‘rtta uzviy bog‘langan elementlar mavjud bo‘lib, ular yaxlit holda diniy ibodatlarni bajaradilar, ularda diniy his-tuyg‘ular mavjud; diniy uyushmalarga esa diniy tashkilotlar rahbarlik qiladilar deb hisoblaydi va uni tushuntirib beradi.

«Dinshunoslik» fani har qanday din jamiyatda : a) xom xayoliy, ya’ni kompensatorlik; b) tartibga soluvchilik; v) in-tegrallashtiruvchilik-birlashtiruvchilik va g) kommunikator-lik, ya’ni aloqadorlik kabi funksiyalarni bajarishini tu-shuntirib beradi. Bu funksiyalar haqida keyingi mavzuda batafsil baxs yuritiladi, hozircha ularni eslatib o‘tiladi, xolos.

2. «Dinshunoslik» fani barcha dinlarning kelib chiqish tarixini bayon qilib beradi. Ma’lumki, hech bir hodisa yoki voqea sababsiz ro‘y bermaganidek, dinlar ham er yuzida odamlar tomonidan vujudga keltirilgan eng qadimgi, ibtidoiy jamiyatda shakllangan ijtimoiy ong shaklidir. Dinlar tarixi g‘oyat murakkab va uzoq tarixiy jarayonlardan iborat bo‘lib, hozirgi davrda mavjud bo‘lib turgan dinlarning barchasi o‘zining kelib chiqish, rivojlanish va o‘zgarib borish tarixiga egaki, «Dinshunoslik»da ana shular to‘g‘risida ham baxs yuritiladi.

«Dinshunoslik» dinlar tarixini yoritayotganda ularning bir-biriga o‘zaro ta’sir qilganligini, bir-biri bilan aloqadorligini ta’kidlaydi. SHuningdek, dinlar tarixini o‘rganish uchun arxeologiya, etnografiya, tarix fanlarining bergan ma’lumotlari, badiiy adabiyot, san’at asarlarining ahamiyatini, nodir moddiy-madaniy namunalarining muhim tarixiy ashyoviy dalillar ekanligini, ayniqsa, diniy yozuvlar, muqaddas kitoblar, mashhur ulamolarning asarlarini, hadislarni; turli diniy ruhdagi rasm-rusumlarni ham ko‘rsatib o‘tiladi. SHu tariqa dinlar tarixi to‘g‘risida yaxlit va bir butun tasavvurlar yaratiladi. Bular «Dinshunos-lik»ning ikkinchi muhim xususiyatini tashkil etadiki, keyingi mavzularda bu xususiyat to‘g‘risida atroflicha ma’lumotlar bayon etiladi.

3. «Dinshunoslik» fanida dinlarning eng muhim nazariy-falsafiy tizimidan iborat bo‘lgan diniy ta’limotlar xususida baxs yuritiladi. Dinlarning bu xususiyati diniy mafkura va dunyoqarashning mohiyatini asoslab beradi. Ayniqsa, milliy va jahon dinlari mavzularida bu xususiyat to‘g‘risida keng ma’lumotlar beriladi. «Dinshunoslik» diniy ta’limotlar ilohiy kuchlar hisoblanuvchi xudolar, farishtalar, payg‘ambarlar, avliyo-anbiyolar, mo‘‘jizakor yaratilish hodisalari, hikmatli pand-nasihatlar, gunoh va savob, jannat va do‘zah kabilarga qaratilganligini alohida ta’kidlaydi. Bu masalada turli diniy afsona va rivoyatlarning ham o‘rni borligi ko‘rsatib o‘tiladi.

4. «Dinshunoslik» fani dinlarning amaliy tomoni-diniy marosimlar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va turli odat-udumlar xususida ham baxs yuritadi. CHunki bular ham dinlarning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Ma’lumki, dinning marosimchilikdan iborat amaliy tomoni dindorlar hayotida g‘oyat aktiv rol o‘ynaydi. Diniy marosimlar dindorlar ruhiyatiga kuchli ta’sir qiladi, ularning kundalik hayotida muayyan tartib o‘rnatadi, hayot kechirish tarzini belgilaydi. «Dinshunoslik» diniy urf-odatlarning kelib chiqish tarixiga e’tibor beradi, bu diniy rasm-rusumlarning jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun xizmat qilishini ham ta’kidlab o‘tarkan, bu odatlar nisbatan barqaror, muqim turadigan muhofazakor kuch sifatida amal qiladi, deb hisoblaydi. SHu bilan birga diniy marosimlar o‘z mazmuni, bajaradigan vazifalariga ko‘ra shod-hurramlik yoki qayg‘u-alamli holatlarni ifoda etishiga alohida e’tiborni qaratadi. Diniy marosimchilik diniy tasavvurlar va diniy ruhiyat bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, ularning yaxlit tizimi dinlarning nisbatan ommaviylashgan osonroq tomonidir, deb alohida ta’kidlab o‘tiladi.

5. «Dinshunoslik» fani barcha dinlarda muhim tarbiya-lovchi mazmun diniy ahloq-odoblarda mujassam bo‘lganligini ko‘rsatib beradi. Dindorlar diniy ahloq ruhida tarbiya olib, xushmuomala, ochiq-oydin fikrli, odamiylikning ko‘pgina fazilatlariga ega bo‘lib etishadilar. Insof va adolat, halol-haromni ajratish, o‘zaro hurmat, kattalarga izzat-hurmat, nogiron, muhtojlarga muruvvat ko‘rsatish, ilmli, ma’rifatli kishi bo‘lish, yaxshilik qilish, ota-onalarni behad hurmat qilish, oila va jamoat orasida o‘z burchini ado etish kabi umuminsoniy, dunyoviy qadriyatlar dinda yuqori darajadagi ahloqiy talablar, deb qaraladi. Muayyan ma’noda din ahloq to‘g‘risidagi tushuncha sifatida ham tushunilgan. «Dinshunoslik» fani millatning shakllanishi va rivojlanishida diniy ahloqning o‘rni va roli borligini tan olib, diniy ahloqdan shaxs tarbiyasida samarali foydalanish zarurligiga e’tiborni qaratadi.

Ammo diniy ahloq siyosat va mafkuraviy jihatlardan qaralganda sinfiy-tabaqaviy ahamiyat kasb etadiki, «Dinshunoslik»da bu ma’noda diniy ahloqda umuminsoniy qadriyatlar darajasida turadigan ahloq-odob normalarining ustunligi ta’kidlab o‘tiladi, ana shu xususiyat ham bu fan e’tiborida turadi.

6. «Dinshunoslik» dinning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lgan diniy xuquqqa alohida e’tibor beradi. Ma’lumki, quldorlik jamiyatidan boshlab davlatlar kelib chiqqan bo‘lib, bu siyosiy kuch xususiy mulkchilikka asoslangan o‘z iqtisodiy bazisiga xizmat qiladigan xuquq va qonunlarini joriy qilgan edi. O‘sha davrlardan boshlab diniy huquq ham paydo bo‘lib, bu huquqlar diniy yozuvlarda, hadislarda, an’analarda, ta’qiqlangan va ruxsat etilgan ko‘rsatmalarda, diniy hujjatlarda, turli diniy jamoa, uyushma, mazhablar faoliyatida asta-sekin shakllanib borgan. Masalan, Islom tarixida shariat qonun va xuquqlari xuddi shu tariqa, VII-XII asrlar davomida shakllanib, so‘ngra huquq normalariga aylangan edi. Diniy huquqlar ustidan diniy tashkilotlar

nazorat o‘rnatgan bo‘lib, bu huquqlar mulkka munosabatni, diniy jamoa, ijtimoiy tabaqa, guruh va imtiyozli shaxslar manfaatini belgilab bergan. Diniy huquqlarda ahloq-odob qoidalari, ularga amal qilish tartiblar ham belgilab qo‘yilgan. Diniy huquqlarda marosimlarga amal qilish qoidalari ham ko‘rsatilgan. Diniy huquqlarda marosimlarning jamiyatdagi mavqeiga qarab ularning huquqlari goho juda keng va kuchli bo‘lgan, goho esa ularning huquqlari cheklanib qolardi. Umuman, «Dinshunoslik»da dinning mana shu xususiyatiga ham alohida masala sifatida qaraladi.

7. «Dinshunoslik» fani dinlarning tarxiy tiplari, turli shakllari, yo‘nalishlari, mazhablari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, bir-biri bilan bog‘langan tomonlari paydo bo‘lish sabablari, dindorlar hayotidagi va jamiyatdagi o‘rni, faoliyat ko‘rsatish masalalarini ham alohida qarab chiqadi, shular to‘g‘risida ham baxs yuritadi. SHu munosabat bilan «Dinshunoslik» fanida avvalo dinning ijtimoiy-falsafiy mohiyati ko‘rsatilib o‘tiladi, so‘ngra ibtidoiy tuzumda paydo bo‘lgan eng qadimgi dinlar hisoblanuvchi totemizm, fetishizm, animizm, sehrgarlik (magiya, shaman) dinlarini, ulardan keyingi urug‘-qabilalar dini bo‘lgan politeizm, ya’ni ko‘p xudolik dinlarini, so‘ngra milliy davlat dinlarini, monoteistik, ya’ni yakka xudolik dinlarini keyin esa jahon dinlari bo‘lgan buddiylik, xristianlik va islom dini atroflicha bayon etiladi. Bu dinlarning har biri o‘z tarixiy shart-sharoitlari, o‘z davridagi talab va ehtiyojlari bilan bog‘liq holda paydo bo‘lsa-da, avvalgilari keyin kelib chiqqanlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan edi. Masalan, eng qadimgi, nisbatan soddagina animizm dini ham jahon dinlariga ta’sir qilgan. Bu haqda keyingi mavzularda ko‘rib o‘tamiz. Bu jiddiy masala ham «Dinshunoslik»da muhim o‘rin olgan.

8. «Dinshunoslik» fani yana bir muhim masala bo‘lgan diniy manbalar, muqaddas yozuvlar, hujjatlar: Tavrot, Bibliya, Avesto, Tripitaka, Vedalar, Qur’on, hadislar kabi din uchun juda muhim tarixiy yodgorliklar xususida ham baxs qiladi. CHunki, «Dinshunoslik» agar bu masalani chetlab o‘tsa, o‘z vazifasini to‘la bajarmagan hisoblanadi. Talabalar esa ana shu manbalarni mustaqil o‘rganishlari, bu fanni o‘zlashtirish va o‘z bilim doiralarini chuqurlashtirish, kengaytirish uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega ekanligini yodda tutishlari lozim.

Diniy manbalar asrlar davomida yaratilgan bo‘lib, ularda diniy masalalar hujjat va dalil asosida sistemaga tushirib yuqori uslubiy mahorat bilan vujudga keltirilgan. Bunga Qur’on va payg‘ambar Muhammadning mo‘‘tabar hikmatlari bo‘lgan «Xadis»larini misol sifatida ko‘rsatib o‘tish mumkin.

«Dinshunoslik» fani diniy, tarixiy manbalarga tayangan holda o‘z nazariy va amaliy tomonlarini bayon etsagina, u ishonarli va e’tiborli bo‘lishi mumkin. SHuni hisobga olgan holda bu fan o‘qitiladi, o‘qitilmog‘i kerak.

SHunday qilib, «Dinshunoslik» fanining yuqoridagi o‘zaro uzviy bog‘langan 8 ta xususiyatlarini, ya’ni uning baxs mavzusini (predmetini) ko‘rsatib o‘tildi. Bulardan ma’lum bo‘ladiki, mazkur fan jiddiy va muhim fandir.

Endi «Dinshunoslik»ni o‘qitishda ilmiy-uslubiy talablar xususida ham ayrim mulohazalarga to‘xtalmoq joizdir. Avvalo, mazkur fanning o‘qitilishida, uning mavzularini bayon etishda dialektikaning ob’ektivlik, vorislik, umumiy aloqadorlik, sababiylik hamda taraqqiyot tamoyillariga qat’iy amal qilgan xolda, ob’ektiv haqiqat mezoniga asosan, xolisona ish tutmoq, ilmiy-g‘oyaviylikni saqlagan xolda, shu fanning tarbiyaviy saviyasini oshirgan holatda o‘qitish hozirgi davr talablariga mos bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Mantiqiy xulosalarga, bayon qilish izchilligiga, davr, tarixiy, geografik va milliy etnik jihatlarni ham hisobga olgan holda dasturdagi materiallarni bayon qila bilish ham muhim uslubiy talablarga mos tushadi va aksincha, unga amal qilmaslik «Dinshunoslik»ning o‘ziga xosligini hisobga olmaslik bo‘lur edi. CHunki «Dinshunoslik» fani dinlar to‘g‘risida baxs yuritar ekan bu bilan bevosita dindorlar iymon-e’tiqodi, nozik his-tuyg‘ulari, milliy va diniy g‘ururi bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladiki, bunday holatda g‘oyat hushyor bo‘lish lozim.

2. Dinga ishonadigan, uning talablarini muntazam bajarib yuradigan kishilarni dindorlar deyish mumkin. Hozirgi davrda dindorlarni dinga amal qilishi, dinning nazariy va amaliy, huquqiy qoidalarini, ahloq-odoblarini bilish darajalariga qarab uch guruhga ajaratish mumkin. Birinchi guruhga mansub dindorlar - ulamolar, ruhoniylar, diniy tashkilotlardagi din peshvolari, diniy ta'lim-tarbiya muassasalarida ishlab turgan muallim hamda mudarrislar, diniy kitoblar, jurnallar, gazetalar nashriyotida ishlayotgan xodimlarning yuqori qatlamidagi kishilardir. Mazkur guruhdagi dindorlar din bo'yicha nazariy va amaliy, ilmiy tajribalarga ega bo'lib, ular dinning tarixini, aqidalarini, marosimlarini, huquqiy va ahloqiy me'yorlarini yaxshi bilishdan tashqari ularni tushuntirib bera oladilar, sharhlaydilar, targ'ib-tashviqot qiladilar, diniy ishlarni uyushtiradilar va rahbarlik qiladilar. Masalan: bu guruh-dagi dindorlarga O'zbekiston musulmonlari diniy Boshqar-masi hay'ati raisi, muftisi, imom-xatiblarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Dindorlarning ikkinchi guruhiga mansub dindorlar dinning nazariy tomonlarini yaxshi bilmaydigan, ammo diniy marosimlarni aktiv bajaradigan, diniy ishlarda bosh-qosh turadigan, ularni targ'ib etadigan, diniy dasturlardan, diniy jihatdan man' etilgan yoki ruxsat qilingan tartib qoidalardan yaxshigina xabardor, dinga ixlosi baland bo'lgan dindorlardir. Ular mahallalarda dindorlarning oldingi safida yuradilar.

Uchinchi guruhdagi dindorlar dinga ishonadigan, diniy qoidalarni boshqalardan eshitgan yoki diniy marosimlarni an'anaviy odat sifatida bajaradigan, dinga ham, ilm-fanga ham ishonib yuradigan, diniy ishlarda uncha aktiv bo'lmagan, diniy e'tiqodi hali pishib etilmagan dindorlardir.

Birinchi guruhga mansub dindorlar dindorlarning umumiy soniga nisbatan juda ozchilikni tashkil etadilar. Ikkinchi guruhga mansub dindorlar birinchi guruhlardagiga nisbatan ancha ko'p miqdorni tashkil etadilar. Uchinchi guruhdagi dindorlar eng ko'pchilik dindorlardir. Bu uch guruhdagi dindorlar orasidan keyingi yillarda uchinchidan ikkinchi guruhga o'sib o'tayotgan dindorlar ko'paydi, ular asosan yosh jihatdan kichik, yangi dindorlardir. Bu u uch toifa din ahllari o'zaro aloqada bo'lib, ayrim diniy masalalarni sharhlashda ba'zan kelisha olmaydilar. Masalan, vahhobiylar an'anaviy dindorlarga nisbatan norozilik holatlarida bo'l-dilar, keyingi paytlarda esa ular orasida kelishmovchilik kuchaydi.

Biz diniy aktivlik ro'y bergan bir davrda yashayotirmiz. Hozir jamiyatda dinga befarq, unga mutlaqo ishonmaydigan kishilar juda oz. Bundan 5-10 yillar avval sobiq SSSR davrida dinga ishonmay yurgan ayrim ziyolilar, partiya, Sovet, komsomol xodimlari, rahbariyatda yurgan kishilar hozirgi kunlarda aktivroq dindorlarga aylandilar.

Dindorlik - o'z dunyoqarashida, iymon-e'tiqodida, psixo-logiyasida, turmush tarzida, ahloq-odobida, kundalik hayot kechirishida, oilada, mehnat jamoalarida, jamotchilik orasida, maishiy turmushda, o'zining barcha xatti-harakatlari-da to'la ravishda diniy talablar, tartib-qoidalarga amal qilishni anglatadi.

Jamiyatning harakteri, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy shart-sharoitlar, madaniyat darajasiga qarab dindorlik ayrim davrlarda yuqori yoki past bo'lishi mumkin. Masalan, O'rta asrlarda feodalizim sharoitida dindorlik eng yuqori darajaga chiqqan bo'lsa, kapitalizm va sotsializm jamiyatla-rida uning darajasi nisbatan ancha past bo'ldi. SSSR va KPSS barham topib, milliy mustaqillik amalga oshgan, demokratiya kengaygan XX asrning 90-yillarida esa yana dindorlikning yuqoriga ko'tarilishi ro'y berdi. Masalan, O'zbekistonda islomga ixlos kuchaydi, minglab yangi masjid-lar, o'nlab madrasalar, yuzlab diniy maktablar ochildi, diniy marosimchilik faollashdi, diniy adabiyot ko'paydi, musulmon davlatlarining xalqaro obro'si oshdi, o'zaro aloqalari kuchay-di va hokazolar. Qisqasi din, dindorlar, dindorlik ham inkorni inkor qonuniga bo'ysunadi, shu qonun asosida amal qiladi.

Diniy ong har bir dindor odamning yoki diniy jamodagi kishilarning yakka shaxs yoki ijtimoiy ongi bo'lib, bu ongning asosi ilohiy kuchlarda, ilohiylikka asoslangan dunyoqarash, mafkura,

g‘oya, fikr, tushuncha, tasavvur, xotira, xayol, iroda, idrok, iymon, e’tiqod, ahloq va psixika kabilar yaxlitligidan iborat ma’naviyatdir.

Diniy ong ko‘pchilik dindorlarning onggi, yakka shaxs onggi xususiyatiga ega bo‘ladi. YAkka shaxsning diniy ongining darajasi o‘sha dindor kishining yashash tarzi, shaxsiy qobiliyati, qiziqishi kabilar bilan bog‘liq. Bu hol dindorlar psixikasini keltirib chiqaradi.

Ijtimoiy, diniy ongning o‘sib borishini diniy tashki-lotlar faoliyati, diniy targ‘ibot-tashviqot, diniy adabiyotlar, diniy mazmun va shakldagi san’at va adabiyot, diniy marosim-lar, diniy mafkuraviy harakatlarning ta’siri, safarbarlik kuchi hal qiladi.

Diniy ong boshqa ijtimoiy onglar bilan aloqada bo‘ladi, ular o‘zaro bir-biriga ta’sir qiladi. Diniy ong diniy dunyoqarash bilan ham bog‘liq bo‘ladi.

Diniy dunyoqarash, umuman, dunyoqarashning tarixiy turla-ridan biri bo‘lib, uning asosiy belgisi ilohiy, g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish va ularga sig‘inish, butun olam, barcha mavjudot, insoniyat dunyosini xudo yaratganini va boshqari-shini e’tirof etish, xudoga, ruhlarga e’tiqoddan iboratdir. Diniy dunyoqarash mafkurada quldorlik tuzumidan boshlab qatnashgan. Bizning yangi mafkuramiz tizimida ham diniy dunyoqarashning ko‘pgina ta’siri, xususiyatlari mavjud. Ayniqsa, insoniy fazilatlarga yot va zararli bo‘lgan  ichkilikbozlik, giyohvandlik, buzuqlik, qon to‘kish, o‘g‘irlik kabi yaramas illatlar diniy ahloqda qoralanadi, ularga qarama-qarshi halolik, ezgulik, o‘zaro hurmat ko‘rsatish; kattalarni, ota-onalarni izzat qilish kabi fazilatlar ulug‘lab kelingan. YAngi mafkuramizda diniy dunyoqarashning ana shu xususiyatlari merosiy jihatdan qabul qilingan.

Din ibtidoiy jamiyatning quyi bosqichida, taxminan bundan 50-40 ming yil avval shakllangan. U keyingi jamiyatlarda turli tarixiy tip hamda shakllarda rivojlanib kelgan. Dinni keltirib chiqargan tub sabablar, ya’ni ildizlar uchta: ijtimoiy, psixologik va gnoseologik ildizlari mavjud.

Dinning ijtimoiy ildizi jamiyat hayoti bilan, ayniqsa, u ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sib borishi darajasi, ishlab chiqarish munosabatlarining xususiyati bilan  bilvosita aloqadordir; u jamiyatning ustqurmasida aktiv element hisoblanadi, diniy tashkilotlar davlat ishlariga ba’zan bevosita aralashadi, ba’zan  esa davlat va siyosatdan butunlay ajratib qo‘yilgan holatda harakat qiladi. Sinfiy jamiyatlarda mehnatkash tabaqa va guruhlarga turmush qiyin-chiliklariga, ijtimoiy zulmlarga, qashshoqlik azoblariga chidash, sabr-toqat bilan yashashga da’vat etuvchi g‘oyaviy kuch bo‘lgan hukmron guruh kishilarni insof va adolatga, mazlumlarga rahm-shafqatga, xayr-ehsonli bo‘lishga chaqiradi, jamiyatlarda sinfiy bo‘linishni emas, balki diniy birodarlikni, milliy ayrimachilikni emas, balki xudoning bandasi va payg‘ambarning ummati sifatida barchaning birdamlikda yashashi zarurligini ta’kidlaydi.

Ijtimoiy jihatdan din yana dindorning shaxsiy hayotida yuz berib turadigan kasallik, oilaviy mojarolar, farzandsizlik, beaql farzandlarning yaramas ishlari kabilardan siqilishi kabi holatlar diniy his-tuyg‘ularni kuchaytiradi va mustahkamlaydi.

Har kanday dinning gnoseologik, ya’ni dunyoni bilish nazariyasi bilan bog‘liq ildizi ham mavjud. Dinning bu ildizi olamdagi voqea va hodisalarning kelib chiqish sabablarini, ularning ichki mohiyatini bilish murakkab va qiyin bo‘lishi bilan bog‘liq. Tabiat va jamiyatda ro‘y beradigan o‘zgarishlar sababli ko‘p ming yillar mobaynida insonlar uchun sirli tuyilgan; natijada odamlarning aqli zaif va cheklangan, dunyoning barcha sirlari birgina xudoga  ma’lum, undan boshqa hech kim dunyoni bilmaydi degan xulosa kelib chiqqan.

Dinning gnoseologik ildizi falsafiy jihatdan skeptitsizm bilan chambarchas bog‘liq. Bu oqim olamni bilish mumkinligini shubha bilan nemis faylasufi Immanuel Kann inson o‘z sezgilaridan tashqarida nima borligini bila olmaydi, tashqi olam qandaydir bilib bo‘lmaydigan sirli «narsa o‘zida» mavjud bo‘lib, u fazo va vaqtdan tashqaridagi ruhlarga, xudolargagina ma’lum, deb hisoblaganlar.

Fan dalillari, insoniyat to‘plagan amaliy tajribalar va xulosalar, insonda aql va tafakkur borki, bu qudratli ma’naviy omillar olamning sirlarini  birin-ketin ochayotir.

Dinning psixologik ildizi ham bo‘lib, bunda odamlarda-gi tashqi olam voqealaridan, jamiyatda ro‘y berayotgan turli hodislardan iztiroblanishi, ezilishi, g‘am-tashvishga tushib qolishi, qo‘rquv vahima, umid va ishonch, shodlanish yoki ruhan tushkinlik holatlari dinning kelib chiqish va mavjud bo‘lib turishida katta kuch hisoblanadi. Diniy pand-nasihatlar, turli diniy marosimlar ham diniy psixologiya bilan bog‘liqdir.

SHunday qilib, har qanday dinning kelib chiqishi, yashab turishi va amal qilishi ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlari bilan izohlanadi.

Hozirgi davrda, ya’ni XX asr oxirida  yuz bergan siyosiy o‘zgarishlar, milliy faollashuv va demokratiya, bozor iqtisodiyotiga o‘tish bilan bog‘liq qiyinchiliklar shart-sharoitlari natijasida diniy faollik sezilmoqda. «Ilmiy ateizm»dan diniy e’tiqodga qaytish jarayoni keskin yuz bermoqda.

Jamiyat hayotida amal qilayotgan dinlar shunchaki nodonlik va jaholatparastlik oqibati emas, albatta. Din o‘z tashkiliy tizimiga ega bo‘lgan murakkab va o‘ta moslanuvchan g‘oyalardan iborat bo‘lib, din jamiyatni uyushtiruvchi, yo‘naltiruvchi, safarbar etuvchi, intizomga soluvchi g‘oyaviy kuch hisoblanadi. Diniy shiorlar ayrim inqilobiy harakatlarni, ba’zi davrlarda G‘azovot va salb urushlarini, milliy-ozodlik harakatlarining bayrog‘iga aylangan. Dinning: 1.Xom-xayol-ya’ni kompensatorlik, 2. Tartibga soluvchilik, 3. Integrallashtiruvchilik, 4. Kommunikatorlik degan ijtimoiy funksiyalari bor.

Kompensatorlik funksiyasida din odamlarga ular erisha olmagan narsalarga, baxtlarga ilohiy xayollar, taskin orqali erishtirishga urinadi. Masalan, qiynalib  yashagan kishilar «u dunyoda» jannatda yashaydilar, xudo ularni bu dunyoda emas «u dunyoda» baxtli qiladi deb taskin beradi.

Din o‘z aqidalari orqali dunyoning yaratilganligini, odamlarning ilohiy taqdiri, oxirat kuni kabilar to‘g‘risida tasavvurlar vujudga keltirgan va mafkura yaratgan. Dinning tartibga soluvchilik funksiyasi, kishilarning xulq-atvori, ahloqiy harakatlari diniy me’yorlar asosida boshqarilishini aks ettiradi. SHuningdek, dinga ijtimoiy tuzumni saqlovchi va mustahkamlovchi integrallovchi, jamiyat bilan shaxsning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlovchi kommunikativlik funksiyalari ham xosdir. Dinning bu funksiyalari diniy tashkilotlarning faoliyati bilan uzviy birlikda bo‘lsa-da, bir-biriga aynan mos kelmaydi. Diniy tashkilotlar ijtimoiy muassasa sifatida o‘z rivojlanishida nisbiy mustaqillikka ega bo‘lib, ham diniy, ham iqtisodiy va ahloqiy-tarbiyaviy vazifalarni bajaradi. Xuddi mana shu yo‘sinda muayyan diniy tashkilotlar ijtimoiy masalalar buyicha mavjud jamiyatga mos mavqeda turadi. Masalan, mustaqil O‘zbekistonda diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan holda, asosan, diniy ishlar bilan shug‘ullanmoqda.Ular jamiyatimiz hayotida aktiv ishtirok etib, ko‘proq  tarbiyalovchi rol o‘ynamoqda.

Hozirgi davr va din munosabatini siyosatning o‘zgarishi bilan bog‘langan holdagina tushunmoq mumkin. Siyosatimizda milliy o‘zlikni anglash, kelajakda buyuk davlat qurish, eng rivojlangan davlatlar darajasiga ko‘tarilish, horijiy davlatlar bilan teng xuquqli va ikki tomonlama foydali aloqalar olib borish, qo‘shma  korxonalar  qurish, ilm-fan, texnika, san’at, adabiyot, kadrlar va mutaxassislar tayyorlash, sport sohasidagi aloqalar; mamlakatimiz ichida esa tinch-totuvlikni saqlab turish, fuqarolar hamkorligini mustahkamlash, yoshlarning ta’lim-tarbiyasini yangi, zamonaviy talablar asosida olib borish, milliy qadriyatlarni tiklash kabi ishlar olib borilib, istiqbol sari rivojlanmoqdamiz. Mana shularning barchasi dinning jamiyatdagi faolligini oshirdi. Masalan, O‘zbekiston musulmonlari Boshqarmasi horijdagi musulmon davlatlari, ulardagi diniy tashkilotlar bilan faol aloqalar olib bormoqda. Mamalakatimiz hududidagi Bahovuddin Naqshband, Mulla Bozor Oxun, Axmad YAssaviy, Imom Ismoil al-Buxoriy maqbaralari qayta ta’mirlandi, ular xalqimizning ziyoratgohlariga aylanib qoldi. Makka va Madina shaharlariga hajga borishlar avj oldi va h.k. Davr ma’naviyatning boshqa sohalari qatori  diniy iymon-e’tiqod uchun ham keng imkoniyat yaratdi.

SHunday qilib, mavzudan umumiy xulosa qilganda, din ijtimoiy ong shakli bo‘lib, u tarixiy hodisa hisoblanadi, madaniyatning ajralmas qismi, odamlar ruhiy va ijtimoiy hayotining muhim xususiyatlari, yoshlar tarbiyasi uchun katta vosita hisoblanadi, dunyoqarashning alohida tarixiy tipidir.

YUqorida aytib o‘tilganidek, «Dinshunoslik asoslari» dinlarning tarixini ham bayon etadi. Avvalgi mavzuda dinning mohiyati ko‘rsatib o‘tildi. Falsafiy jihatdan har qanday hodisa o‘zining sabablariga ega bo‘lib, makonda ro‘y beradi. Din va uning tarixi ham bu nazariy qoidaga bo‘ysinadi. Dinning dunyoviy ilmiy izohiga ko‘ra, u erda paydo bo‘lgan. Odamlar hayoti bilan bog‘langan, jamiyatda amal qiladi, kishilik tarixi bilan aloqada yashaydi. Dinning turli tarixiy shakllari mavjud.

Turli diniy manbalarda din azaldan mavjud bo‘lib kelgan, xudo esa hamma narsalarni: osmon va Erni, koinotni, barcha odamlarni, mo‘‘jizaviy yo‘qlikdan bor qilib yaratgani aytilgan. Demak, dinning tarixi jamiyat tarixidan avval boshlangan, degan xulosa kelib chiqadi.

Ilmiy adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, dinning tarixi 50-40 ming yildan ko‘p emas, jamiyatning tarixi esa 3 million yildan ziyod. Demak, u tarixiy hodisa, din ibtidoiy jamiyatning quyi bosqichida kelib chiqqan. Biz bu ikkinchi qarashni analiz qilsak, dinning paydo bo‘lishidan darak beradigan arxeologik va etnografik ashyoviy dalillarga murojaat etmog‘imiz kerak. Arxeologiya fani odamlar yashagan turli tarixiy davrlarda er ostida qolib ketgan qadimiy manzilgohlarni kovlab topadi, ulardan uy-ro‘zg‘orga, zeb-ziynatga, ish qurollariga , kiyim kechaklarga, me’morchilikka, san’atga oid turli buyumlar, noyob topilmalarni aniqlaydi-lar, ba’zan ko‘hna qabrlardan dafn qilish qoidalari, qabrdagi jasad yonida ov qurollari, eb-ichish idishlari, taqinchoqlarga ham duch kelingan, ba’zan esa qush va hayvon-larning, afsonaviy mahluqlarning, farishta, ma’budalarning haykallari, turli narsalardan yasalgan shakllari, niqoblar topilganki, ularning ayrimlari diniy mazmunga ega bo‘ladilar. Masalan, Namangan viloyatining Pop shahridagi «munchoqli tepa» degan qadimgi manzilgohdan 1984 yilda arxeologlar bir nechta qabr topdilar. Jasadlar eramizdan avvalgi II-I asrlarga oid bo‘lib, ular ov qurollari, ovqat idishlari, zeb-ziynat buyumlari bilan birga dafn etilgani ma’lum bo‘ldi. Demak o‘sha davrlarda odamlar «u dunyo»da qayta tirilishga, unda yana yashashlariga ishonganlar, ya’ni o‘sha davrdagi kishilarda diniy ong mavjud bo‘lgan.

Etnografiya fani urug‘-qabilalar, elat va millatlarga xos bo‘lgan turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimiy udumlarni, ulardagi tartib-qoidalarni, etnografik jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan kiyimlar, raqs va qo‘shiqlar, yuz niqoblari, oziq-ovqat turlarini o‘rganadi. Ushbu fan ham diniy urf-odatlarga oid ko‘pgina ma’lumotlar to‘plagan.

Din jamiyat hayotidagi mehnatning ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi tarixiy turlari, odamlarning kasb-kori bilan bog‘liq holda ham shakllanib borgan. Pirga sig‘inish shu tariqa paydo bo‘lgan. Oilaning homiysi hisoblangan ma’budalarga sig‘inish ro‘y bergan. Omad homiysi Fortuna, baxt keltiruvchi Xizr to‘g‘risidagi rivoyatlar ham ana shunday vujudga kelgan, O‘tib ketgan avlodlar ruhiga sig‘inish eng qadimgi diniy tasavvurlardan hisoblanadi.

Ishlab chiqarishning pastligi, mehnat qurollarining ni-hoyatda soddaligi, dunyo to‘g‘risida, hatto odamning o‘z anato-miyasi va fiziologiyasi, ruhiy holatlari to‘g‘risidagi bilimlarning kamligi kishilarning tabiat kuchlariga to‘la qaramligi, ular oldida qo‘rquv, ojizlik, ibtidoiy kishilar ongida turli-tuman afsonaviy diniy tasavvurlarni keltirib chiqargan.

Odam o‘z ojizligini sezgach, o‘z ahvolini anglab etgan vaqtdagina, shu nochorlikni engib o‘tishga madadkor ilohiy kuchlarga ehtiyojni his-tuyg‘usida sezib olgachgina din kelib chiqqan.

Atrofdagi barcha narsalar turfa ranglarga, xossa-xususiyatga, mukammallikka ega bo‘lishdan tashqari, yil fasllari, tun va kunning rang-barang tarzda namoyon bo‘lishi, oy shakllarining o‘zgarishi, yulduzlarning tun bag‘rida go‘zal yarqirab turishi, ularning har xil shakllarda ko‘rinishi, osmoniy jismlarning uchib yurishi, o‘simlik va hayvonlarning chiroyli qiyofalarda mavjud bo‘lib yashashi, vulqonlarning otilishi, er bag‘rida ma’danli shifobaxsh suvlarning chiqib

turishlari, odamning koʻrish, eshitish, tam, maza, hidlarni ajratish kabi sezgi a’zolarining mutanosib tarzda mavjud boʻlishi, odamning tushida gʻaroyib vokealarni koʻrishi kabi holatlarni diniy adabiyotda toʻgʻridan-toʻgʻri xudoning qudrati, ajoyib ustalik bilan yaratib qoʻyganiga ishonchli dalillardir, deb talqin etiladi. Fanda esa bular tabiiy tanlanish, yashash uchun kurashda shakllangan tabiiy oddiy ob’ektiv hodisalar deb hisoblanadi. Dinlarning kelib chiqish tarixi hozirgacha toʻla, aniq ochilmagan ilmiy muammolardan biri deyish mum-kin.

Eng qadimgi dinlar tabiat kuchlarini ilohiylashtirish asosida kelib chiqqan boʻlib, ularda xudolar, paygʻambarlar, ilohiy rivoyatlar shakllangan emas edi. Lekin boshidanoq oʻsha dinlarda tabiatdagi hayvonlarni, oʻsimliklarni, ayrim daryo-lar, togʻlar, osmon jismlari, avlodlar ruhini ilohiylash-tirish, ularga bagʻishlangan turli marosimlar mavjud boʻlgan.

Oʻsha davrda totemizm, animizm, fetishizm, zardoʻshtiy-otashparastlik, magiya (sehrgarlik) dinlari kelib chiqqan.

TOTEMIZM. Totemizm soʻzi Amerika hindularining «O totem» degan soʻzidan olingan boʻlib, oʻzbek tilida bu soʻzning ma’nosi «uning urugʻi, qarindoshi» demakdir. Totemizm dini ovchilik va chorvachilik bilan shugʻullangan urugʻ va qabilalar orasida paydo boʻlgan eng dastlabki din edi.

Ma’lumki, odamlar tirikchiligi ibtidoiy jamiyatda dastlabki davrlarda tabiatda mavjud boʻlgan oʻsimliklarga va yovvoyi hayvonlarni ovlab ist’emol qilishga bogʻliq edi. Ovchilar eng koʻp ovlagan hayvon yoki qushlarni, jonivorlarni alohida hurmat qilganlar. Asta-sekin odamlar oʻz urugʻ-avlodlari ana shunday hayvonlar bilan qon-qarindosh boʻlgan, hatto shu hayvonlardan kelib chiqqanmiz deb, oʻylaganlar.

Totem hisoblangan hayvon yoki oʻsimlik odamlar urugʻining homiysi deb, totemning «yordamiga» koʻz tikkanlar, raqs sehri bilan, ba’zan esa marosimlar qilish yoʻli bilan totemga ta’sir qilish mumkin deb tasavvur qilganlar. Masalan, maxsus marosimda totem hisoblangan hayvonni soʻyib, uning qoni va goʻshtidan tabarruk va muqaddas taom sifatida iste’-mol etishgan. Bundan asosiy maksad totem bilan qon-qarindoshlikni yanada mustahkamlash boʻlgan. Ov koʻp boʻlgan vaqtlarda totem-hayvonni «xursand» qilish, unga minnatdorchilik ramzi sifatida yuzlariga oʻsha hayvonning rasmi solingan niqob kiyib, terisini yopinib, sirli raqsga tushishgan, oʻsha hayvonning yurishi, yotishi sakrashiga monand harakatlar qilishgan. Ovlari oʻngidan kelmay qolgan paytlarda esa totemni savalab, jazolash marosimi oʻtkazishgan. Bu marosimlarni oʻtkazishdan asosiy maqsad totemning kuch-quvvati urugʻ a’zolariga oʻtib, kelajakda ham totem urugʻning homiysi boʻlib qolishiga erishmoq boʻlgan.

Totem boʻlgan hayvon yoki qushlar, oʻsimliklar turli mintaqalarda, turli urugʻlarda turlicha bulgan. Koʻpincha ken-guru, tuyaqush, ayiq, sher, yoʻlbars, maymun, sigir, togʻ echkisi, baliq, ilon, hakka, qaldirgʻoch, fil, hoʻkiz, ot, xoʻroz, burgut, kiyik, musicha kabilar totem hisoblangan. Urugʻlar nomi totem boʻlgan hayvon, qush yoki oʻsimlik nomi bilan atalgan. Hozir avstraliyalik tub-joylik aholi urugʻlari kenguru, oq xoʻroz, qora hoʻkiz deb nomlanadi. Amerikadagi hindu urugʻlari Katta Ilon, Burgut koʻz, Qora sirtlon kabi nomlar bilan atalgan.

Oʻzbek va tojik xalqlari orasida ot, it, mushuk, laylak, musicha, qargʻa, qaldirgʻoch, ilon kabi hayvon va qushlar toʻgʻrisida turli diniy mazmundagi rivoyatlar mavjudki, bu ham totemizm qoldigʻi hisoblanadi.

Rim shahrini qurgan aka-uka Romul va Rumullarni it emizib katta qilgan, degan afsona asosida Rim shahrida ona itga haykal oʻrnatilgan.

Riga shahrida esa xoʻrozga haykal oʻrnatilgan, chunki latish qabilasiga hujum qilayotgan dushman haqida ana shu xoʻroz xabar qilib, qabilani dushmandan saqlab qolgan, degan rivoyatlar bor.

Rossiyada podshoh Romanovlar sulolasi hukmronlik qilgan davrlarda davlat milliy bayrogʻida burgut rasmi boʻlgan. Bularning barchasi totemizm bilan bogʻliq.

Totemizm dini o‘zidan keyin kelib chiqqan dinlarga ham ta’sir qilgan. Hindiston respublikasidagi milliy hinduizm dinida oq fil, maymun, sigir, ilon totemlari hanuz mavjud.

Turkiy xalqlarda ham bo‘riga sig‘inish mavjud.

Islom dinida hayvonlarni kaltaklash ta’qiqlangan. Arablarda tug‘adigan tuyani qarovsiz qoldirish katta gunoh hisoblangan. Islom dinidagi bu ta’qiqlar ham totemizm ta’sirida vujudga kelgan. Buddizm va xristian dinlarida ham totemizm qoldig‘i bor.

Totemizm dini tabiatni, ayniqsa, o‘simlik va hayvonlar-ni asrash, atrof-muhitni musaffo saqlash, ekologik tarbiya uchun foydali, deb hisoblash mumkin.

ANIMIZM. Odamlar kuzatuvchan bo‘ladilar. Qadimgi zamon kishilari ham tabiat va jamiyatdagi turli hodisalarni sinchkovlik bilan kuzatib borganlar. Har yili bahorda o‘simliklar va daraxtlar uyg‘onishi yuz berib kurtak yozadi. Odamlar uxlab uyg‘onadilar, hushidan ketib yana hushiga keladilar, ayrim hayvonlar qishda uxlab bahorda uyg‘onadi, qish fasli «o‘lik» mavsumdir, bahor qayta tirilishdir.

Bu voqealarni bilishgach, odamlar barcha narsa va predmetlar o‘lib-tirilib turadilar deb  o‘ylay boshlaganlar.

Animizm jamiyatda qachon va qaerda ana shunday tasavvurlar paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘sha joyda va davrda kelib chiqqan dindir.

Animizm bundan 40-30 ming yil ilgari paydo bo‘lgan.

A n i m a  so‘zi lotincha bo‘lib, «jon, ruh» degan ma’noni bildiradi. Animizm eng kadimgi dinlardan biri bo‘lib, u avvalo jon, ruhni o‘lmaydi, tana esa o‘ladi, degan tasavvurdan paydo bo‘ldi. Animistik ta’limot qayta tirilish tanaga jonni qaytib kirishi sababli ro‘y beradi, deb hisoblaydi.

Animizmga ko‘ra jon va ruh har bir narsa va predmetda, har bir o‘simlik va hayvonda, har bir odamda mavjud. Jonning kuchi ruhiy bo‘lishi, abadul-abad barhayot qolishida-dir. Animizm har bir kishida uning hayoti va ongining manbai jon va ruhiy quvvati bo‘lib, jon bilan ruh odam tug‘ilmasdan avval mavjud bo‘ladi, tana paydo bo‘lgach unga kirib hayot bag‘ishlaydi, deb ta’kidlaydi.

Dastlabki davrlarda animistik tushunchada jonni soya yoki nafas olish bilan aynan bir narsa deb bilar edilar. Jon turli xalqlarda turlicha tasavvur etilgan. Masalan, SHimoliy Amerikaning tub joy xalqlarida soya nomi bilan, nafas olish nomi bilan atalgan.

Odamning tanasi, anatomik jihatdan, asab, qon, tomir, miya, yurak, jigar, o‘t pufak, qora taloq, o‘pka, buyrak, muskul, suyak, teri kabilardan iborat. Hayot kechirish uchun odamning butun tanasidagi a’zolari sog‘lom bo‘lib, ular kuch-quvvat bilan ishlab turishi kerak, chunki har bir tana a’zosi o‘z vazifasini bajaradi, ular tana oladigan havo, oziq-ovqat, turli minerallar tufayli yashaydi, lekin tanada jon degan maxsus a’zo yo‘q. Masalan, yurak bor, o‘pka bor, ammo jon, ruh esa uchramaydi. Tananing hujayralarida tinimsiz molekulyar harakat mavjud, qon butun tana bo‘ylab aylanib, hayotiy ozuqa va boshqa omillar bilan ta’minlab turadi. Katta yoshdagi odamlarda 4-5 litr qon bo‘ladi, yosh bolalarda esa bu hajmdan ozroq qon bor. Odamda qizil, qora, oq qonlar bo‘lib, uni shartli ravishda jon deb hisoblash mumkin. Bu fikrning to‘g‘riligini qoni kamayib ketgan yoki fojia tufayli qonini ko‘p yo‘qotgan kishilarga darhol qon gruppasiga to‘g‘ri keladigan toza qon quyibgina hayotini saqlab qolinishi isbotlaydi. Demak, arablar o‘ylaganidek jon - bu qon. Ammo go‘yo kapalakka o‘xshash jon ham, ruh ham odam tanasida mavjud emas. Jon, ruh haqidagi tasavvurlar hayot va o‘lim, so‘nish va jonlanish, eskilik va yangilik o‘rtasidagi munosabat, aloqalarning g‘oyat murakkabligi sababli, bu jarayonni anglashdagi xato xulosalar tufayli kelib chiqqan, deyishga to‘la asoslar bor. Bilim va amaliy tajribasi kam ibtidoiy odamlarda (ba’zan hozirgi odamlarda ham) voqealardan umumiy xulosa chiqarish qobiliyati zaif edi. Animizm dini odamda olam haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, predmet va hodislar xususiyatlarini umumiylashtirish va mavhumlash-tirish qobiliyati paydo

bo‘lgandan so‘nggina tarkib topgan. Jonning o‘lmasligi to‘g‘risidagi abstraksiya ham shu qobiliyatning kuchli bo‘lmagan davrilarida kelib chiqqan bo‘lishi kerak. Qadimgi animizm asosida odamlar olamni ikkiga: «u dunyo» va «bu dunyo» ga ajratadilar. Real tabiiy dunyo ustidan g‘ayritabiiy dunyo hukmronlik qiladi, degan qarash ham o‘shanda shakllangan.

Agar qattiq momaqaldiroq, kuchli bo‘ronlar, suv toshqin-lari, dahshatli zilzila, vulqon otilishlari, odamlarning o‘limi kabi voqealar sodir bo‘lsa, yana shu hodisalar paytida jon va ruhlar junboshga keldilar, qahr - g‘azabga kirdilar, degan o‘y-xayollar kelib chiqqan.

Jon va ruhni odamlarga xudo beradi, jonni qayta oladigan ham xudo, degan ishonch animizm riovjlanishining keyingi davrlarida vujudga kelgan. Animizm dinining muhim xususiyati - ruhlar abadiy aylanib yurishi, odam ruhi ko‘zga ko‘rinmasdan, jismsiz holda o‘z uyiga kelishi, hali barhayot qarindoshlarini ko‘rib turishi, ularni yaxshi yoki yomon hodisalardan g‘oyibdan ogohlantirib turishi mumkin, degan ta’limotidir.

Jon va ruhlar to‘g‘risidagi animistik din o‘zidan keyin kelib chiqqan ko‘pgina dinlarga ta’sir qilgan. Buddizm dinida olam uch qavatdan iborat hisoblanadi. Birinchi qavatdagi olam eng yuqori olam bo‘lib, unda mutlaqo ruhiy osoyishtalik hukmron. Unda faqat sof poklangan ruhlargina mavjud deyiladi. Ruhni aslo bilib bo‘lmaydi. Ikkinchi olam qavatida ruh qafasdan chiqib poklanadi, uchinchi qavat olamda odamlar va hayvonlar mavjud bo‘lib, bu olamda ruh qafasda yashaydi.

Islom dinida o‘lgandan keyin tirilish to‘g‘risidagi ta’limot berilgan. Oxiratda barcha vafot etgan kishilar qayta tiriladi. Ular xudo tomonidan so‘roq kilinadi, ular savob yoki gunoh ishlariga qarab jannatga yoki do‘zaxga dohil bo‘ladi-lar, deyilgan .

Hozirgi davrda O‘zbekiston, Tojikiston va boshqa musul-mon mamlakatlarida o‘lgan kishilarning arvohiga atab qurbon-lik marosimi o‘tkaziladi, xayr- ehson, sadaqa berish odatlari mavjud. Bular ham animizm odatlaridir.

YUqorida aytib o‘tilganidek vafot etgan kishilar kiyi-mi, zeb-ziynatlari, ovqat-oziqlari, harbiy va ov qurollari, ba’zan o‘lgan podsholar xizmatkorlari bilan dafn qilinishi arxeologlar tomonidan (masalan, Surxondaryo viloyatidagi «Sopolli tepa» degan joydan topilgan qadimgi qabristonda odamlar jasadi yonida ov qurollari, ovqat idishlari, tog‘ echkisi, qurbaqa haykalchalari) topilgan. Bular ham animizm diniga xos edi. O‘zbek oilalarida vafot etgan kishi uyida oqshom paytida arvohga atab chiroq yoqish odati ham animizm dinining hamda otashparastlik dinining urf-odatlaridir.

Keyingi yillarda ruhlar to‘g‘risida ko‘pgina yangi mulohazalar vujudga keldi. Xususan, ruhlar yoki «bobolar» bilan muloqotda bo‘ladigan ekstrasenslar, yangi chiqqan «ta-bib»lar kasallarni davolash seanslari o‘tkazishlari keng raklama qilinmoqda. «O‘limdan keyingi hayot» degan Raymond Moudinning kitobida ruhlar to‘g‘risida g‘aroyib fikrlar aytildi-ki, bu ko‘p shov-shuvga sabab bo‘ldi.

Animizm dini odamlarning olamdan o‘tgan avlodlari xotirasini unutmaslikka o‘rgatadi, shahidlar xotirasiga qo‘yilgan haykallar, ularning ro‘yxatlarda qayd etilishi, qabrlarini tiklash, ramziy qabrlarga «mangu olov» yoqish kabilar ham animizm bilan bog‘lanib ketadi.

Animizm dini tarixi yanada chuqurroq o‘rganish lozim bo‘lgan ilmiy muammo bo‘lib, bu masalada jiddiy tadqiqotlar olib borish lozim, deb o‘ylaymiz.

SHunday qilib, bundan 30-40 ming yillar avval animizm dini kelib chiqqan bo‘lib, bu din undan keyin paydo bo‘lgan dinlarga ta’sir qiladi, hozirgi davrdagi dindorlar onggida animizmga xos tasavvurlar hamon mavjud.

FETISHIZM. Portugalcha «fetiko» so‘zi o‘zbekchada «yasalgan» degani bo‘lib, fetishizm dinining mohiyatini yaqqol ifoda qiladi. Fetish, ya’ni odamlar qo‘li bilan yasalgan ayrim narsa va predmetlarda sirli ilohiy kuch-qudrat mavjud, deb o‘shalarga sig‘inishni keltirib chiqargan. Fetishlarda kasallik, ins-jinslarni daf qilish, yomon ko‘zdan saqlash, yaxshilik qiladigan, omad

keltiradigan xosiyatli xususiyatga ega bo‘lgan sirli tomonlar bo‘ladi, deb tasavvur qilingan. Fetishlar xilma-xil predmetlar; but, xoch, afsonaviy farishtalar, ma’budalar, avliyolarning rasmlari, haykallari payg‘ambarlarning soch tolalari, kiyimlari; tumor, ko‘zmunchoq, tasbeh, ayrim maqbaralar, sag‘analar, qabrlar, chorvadorlar orasida hayvon kalla suyaklari, shoxlari, ko‘z tikan, isiriq, do‘lana kabi o‘simliklar, daraxt shoxlariga bog‘langan alaf deyiladigan turli rangdagi lattalar; Tavrot, Injil, Qur’on, Hadis kabi mukaddas kitoblar bo‘lishi mumkin.

Ilmi-amal, irim-sirimlarga oid: qaychining ochilib qolishi, supurgini tikka qo‘yish, kechki paytda tirnoq olish, kechasida uy supurish, jasadni tunab qolishi ham fetish bo‘lishi mumkin.

Duolar yozilgan qog‘ozni lattaga tikib uch, to‘rtburchak shaklida tumor qilib taqadilar. Go‘yo shu tumor «yomon ko‘z»dan, «ins-jins»lardan, xavfli kasalliklardan saqlaydi, omad keltiradi. Tumor yosh bolalar kiyimiga tikib qo‘yiladi, chaqaloqlar beshigiga osib qo‘yiladi, xotin-qizlarning bo‘yniga taqiladi, hatto mashinalarga osiladi.

Eng ko‘p tarqalgan fetishlardan biri ko‘zmunchoqdir. Ko‘z-munchoqlar toshdan qilinadi. Tosh teshiladi, bo‘yaladi, qora rangga oq ko‘z qilinadi. Ko‘zmunchoqlar bolalar bilagiga, beshigiga, kiyimlariga osiladi, tikib qo‘yiladi, bog‘lanadi. Xotin-qizlar isirg‘asiga bir-ikkita ko‘zmunchoq qo‘shib taqa-dilar. SHaxsiy engil mashinalarga ham isiriq, tumor, ko‘z-munchoq osish rasm bo‘lgan.

Xristian dinida Iso payg‘ambarning but-xochga mixlab o‘ldirilishi ifodalangan, but-xochga sig‘inish keng tarqalgan. Bunday butlar deyarli barcha cherkovlarda, xristian ruhoniylarining kiyimlarida, dindorlarning uylarida uchraydi. Xoch kichik hajmda bo‘yinga taqiladi, xochni o‘pib tavob qilinadi.

Isoning onasi Bibi Maryam rasmiga sig‘inish ham keng tarqalgan. Xoch ham eng ko‘p tarqalgan fetishlardan hisob-lanadi. Barcha xristianlar, ayniqsa katoliklar xochga ixlos qo‘yishgan. Salibchilar, ritsarlar kiyimida xoch rasmi solin-gan edi. Poplar kiyimida ham xoch rasmi bor. CHerkovlar, ibodat uylari, monastirlar peshtoqida xoch bor. Xristian qabrlari ustiga xoch qo‘yiladi. Fetishizm dini garchi qadim zamonlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, hozir ham o‘z kuchida. Masalan, Turkiya, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Eron, Misr, Suriya kabi davlatlarning bayrog‘ida yarim oy, yulduzlar tasviri bor, chunki osmon jismlari ilohiy kuch sifatida islomgacha bo‘lgan davrlarda fetishlar edi. Masjidlar, madrasalar ustiga yarim Oy ramzi qo‘yilgan. Qabrlar ustiga ham ba’zan oy, yulduz rasmi tushirilgan toshlar yoki yog‘och o‘rnatilganki, bularda ham fetish ma’nosi mavjud, Ma’lum ma’noda ulug‘ siymolar, olimlar, sarkardalar, dohiylarga o‘rnatilgan haykallar, mavzoleylar ham fetishlar hisoblani-shi mumkin.

Fetish hisoblangan ko‘pgina asotirlar, kamyob buyumlar, predmetlar ayni paytda san’atga mansub bo‘lib madaniyat yutuqlariga kiradi. Masalan, rus rassomlari ishlagan avliyolar rasmi tushirilgan ikonalar ana shunday san’at asarlaridir. SHuning uchun fetishga kiradigan ko‘zmunchoq, tumor, xoch kabilarni ayrim yoshlar dinga ishongani uchun emas, balki bir taqinchoq, zeb-ziynat buyumi deb taqib yuradilar.

Islom dinida, undagi an’anaviy, ilk islom fundamentalizmi, vohhobizm fetishizmga bid’at deb salbiy qaraydi. Ilohiy qudrat faqat Alloh bo‘lishi kerak, deb har qanday boshqa narsaga sig‘inishni yoqtirmaydilar. Hozirgi davrda qabr ustiga qo‘yilgan panjara, toshlar vahhobiylar tomonidan buzib tashlash voqelari mavjud.

SHunday qilib, fetishizm eng qadimgi ibtidoiy dinlar-dan biri, lekin bu diniy tasavvurlar hamon saqlanmoqda.

SHOMONIZM. SHomonizm - ibtidoiy jamoa tuzumi emirilishi davrida paydo bo‘lgan qadimgi diniy e’tiqodlardan biridir. Uning o‘ziga xos xususiyati - kishilar orasida go‘yo turli ruhlar bilan munosabatda bo‘la oladigan shomonlar (bizning mahalliy sharoitda shomonlar - baxshilar, folbinlar, parixonlar, ko‘chirikchilar, duoxon, azoyimxonlar deb ataladi) qobiliyatiga ishonishdir.

SHomonlarda kasalni davolash, odamlar qismatini karomat qilish, tabiatda xohlagan o‘zgarishlar qilish kabi mo‘‘jizakor sirli qobiliyat bor, deb o‘ylashgan.

Sehrgarlar magiya, ya’ni afsungarlik hatti-harakatlari bilan kishilarda ruhiy ko‘tarinkilik holatini yuzaga keltirishlari mumkin. Afsungarlar odatlari va duolari hunar-kasbda, harbiy ishlarda, chorvachilik, dehqonchilik, savdo ishlarida, tibbiyotda keng qo‘llanilgan.

SHomon do‘mbirasi yoki boshqa musiqiy asboblarda muno-jot kuylari, sirli duolar, g‘ayriodatiy raqs harakatlari, turli rasm-rusumlar jazavasi tutib, holdan toyguncha bajariladi. Masalan, zikr tushish hushdan ketguncha davom etadi.

SHomonlarning xuddi shu holda marosim o‘tkazishini «Sannikov eri» degan kinofilmdagi shomonning oq kiyikni qurbon qilish kadrlarida yaqqol ko‘rish mumkin. SHomonlar ho-zir yangi nomda ekstrasenslar deb ataladi. Masalan, Kashpi-rovskiy, CHumak, Farg‘onadan chiqqan Qizlarxon kabilar zamo-naviy shomonlardir. SHomon harakati odam ruhiyatiga ta’sir qilishga, ularni o‘z hatti-harakatiga ishontirishga asoslan-gan.

MAGIYA (Sehrgarlik). SHomonizm bilan magiya-sehrgarlik juda yaqin bo‘lgan dinlar hisoblanadi. Magiya diniy psixologiyaning o‘ziga xos amal qilishi bo‘lib, bu din sehr, afsun kuchi bilan insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga ta’sir ko‘rsatish maqsadida bajariladigan sehrgar hatti-harakatidir.

Sehrgarlik harakatining shakllari turlicha bo‘lib, ular hayotning har xil sohasida qo‘llanilgan. Muhabbat sehri, ishlab chiqarish magiyasi, dushmanni engish sehri - avrash kabi turli ibodat va harakatlar ancha keng tarqalgan. Mehnat va ishlab chiqarish magiyasiga turli sehrli marosimlar bag‘ishlangan. Masalan, har bir musulmon kishi biror ishni boshlashdan oldin «Bismillahi-r-Rahmoni-r-Rohim», ya’ni «Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan boshlayman» degan niyat qiladi. Dehqonlarimiz birinchi er haydashni yoki urug‘ni ekish oldidan qurbonlik marosimi o‘tkazadilar, ekin-tikinlarga Allohning barokati ato qilishini tilaydilar.

Oila-nikohga bag‘ishlangan ko‘pgina sehrgarlik marosimlari, rasm-rusumlar va odatlar mavjud. Masalan, kelin-kuyov boshidan tangalar, qandlar sochish, ularning oyog‘i ostiga oq poyondoz solish, shirin choy ichirish, kelinning oyog‘ini kuyov bosishi yoki aksincha, kelin kuyov oyog‘ini chaqqonlik bilan bosib olishi kabi qiziq odatlarda kelajakda oilaviy hayotni yaxshi, ahl, shirin, boy-badavlat bo‘lishiga ko‘maklashadi degan maqsadlar ko‘zda tutilgan.

Ovga borishdan avval hayvonlar rasmiga yoki terisiga ustalik bilan nayza sanchish mashqi yoki sehrli harakat raqsi eng qadimgi ovchilar hayotida keng tarqalgan.

Xalqimiz o‘rtasida chilyosin qilib kasalni davolash odati ham tez-tez o‘tkaziladi. Bu marosim sehrgar-baxshilar tomonidan o‘tkaziladi. Odatda birorta qo‘y yoki echki so‘yiladi, uning qoni bemor kishining ko‘kragiga, qorniga, oyoq-qo‘llariga, peshonasiga surtiladi, nim qorong‘u xonada Qur’onning YOsin surasini qirq marta tilovat qilib, kasal kishiga dam solinadi, uning atrofida «ha chiq, ha chiq!» deb zikr raqsiga tushiladi, sirli duolar o‘qilib musiqa chalinadi, xipchin bilan kasalni engilroq darajada savalab, «uning ichiga kirib olgan ins-jinslar» haydaladi. Kasal ruhiga ta’sir qilishga mo‘ljallangan bu sehrli marosimdan so‘ng kasal yo tuzaladi yoki vafot qiladi. «CHilyosindan chiqibdi yoki chiqa olmabdi» degan xabar el orasida shu odat tufayli kelib chiqqan.

Sehrgarlik dini hozirgi zamonda ham folbinlik shaklida; dam solish, isitma-sovutma, qaytarma qilish, «ilmi-amal», «oldini boylash» kabi shakllarda xalq orasida saqlanmoqda.

Umuman ibtiodiy jamiyatda totemizm, anemizm, feti-shizm, shomonizm va sehrgarlik kabi dastlabki dinlar paydo bo‘lgan, ular asosan tabiat kuchlarini ilohiylashtirgan, ammo bu dinlarda xudolar, payg‘ambarlar, muqaddas kitoblar paydo bo‘lmagan edi. Ibtidoiy dinlar ulardan keyin kelib chiqqan dinlarga kuchli ta’sir qilgan, ularning ayrim ko‘rinishlari hozir ham mavjud. Ov bilan, chorvachilik bilan shug‘ullangan xalqlarga ayrim o‘simliklar va osmon

jismlarini ilohiylashtirish xos bo‘lsa, hunarmandlar uchun pirlarga, ma’budalarga sig‘inish xos edi.

Afsungarlik, jodu, duoxonlik, avlodlar ruhiga sig‘inish ham o‘sha davrdagi dinlarga xos edi. Din madaniyat tizimiga kirgan ko‘pgina marosimlarni o‘sha ilk davrlarda vujudga keltirgan.

**TAYANCH IBORALAR:**

Totemizm, Animizm, Fetishizm, politeizm, magiya, ma’budlar, rim xudolari, Zevs, Afliya, Aid set, Poseydon shovlon.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Din qanday kelib chiqdi?
2. Totemizm nima?
3. Animizm qanday e’tiqod?
4. SHomonizm e’tiqodini maqsadi?
5. Ko‘p Xudolik haqida gapirish.

**ADABIYOTLAR:**


1. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
2. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
3. Xayrullaev M, SHoaxmedov M. Madaniyat va meros. T. 1973.
4. Xamidov X. Zardusht yaratgan din va madaniyat. YOsh kuch. 7-8 sonlar. T. 1992
5. Krivelov I.A. Istoriya religiy. M. 1989.


**9- mavzu : Qadimgi dinlar. Zardushtiylik dini**
**Reja:**
**1. Qadimgi sharqning ko‘p xudolik dinlari**
**2. Qadimgi yunon va rim dinlari**
**3. Zardushtiylik dini**

Ibtidoiy jamiyatning emirilishi oqibatida eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillikda quldorlik jamiyati vujudga kelib, u yangi eraning beshinchi asriga qadar davom etdi.

Insoniyat tarixida quldorlik tuzumida dastlabki sinfiy antogonistik munosabatlar, xususiy mulkchilik munosabati hukmronlik qilgan, dastlabki davlat darajasidagi siyosiy kuchlar paydo bo‘lgan edi.

Ishlab chiqarish jarayonida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdogarlik, me’morchilik, harbiy kuchlar, urush harakatlari, oilaviy munosabatlar, ijtimoiy hayotda sinfiy va tabaqaviy bo‘linish, san’at turlari, sport musobaqalari, aqliy va jismoniy mehnat turlari paydo bo‘lishi natijasida diniy tasavvurlarda ham keskin o‘zgarishlar yuz berdi.

Tarixiy jarayonlarning ob’ektiv rivojlanish qonuniyat-lari hali inson tomonidan anglab etilmaganligi, tabiat va jamiyatda sodir bo‘layotgan yaxshi va yomon voqea-hodisalar sabablari odamlar uchun noma’lum bo‘lganligi uchun ana shu sabablar ilohiyotdan qidirilgan, shunga muvofiq keladigan mifologik obrazlar, rivoyatlar to‘qilgan. SHu tariqa ilohiyotning oliy obrazlari - Xudolar to‘g‘risida, ma’budalar haqida tasavvurlar paydo bo‘lgan.

Politeizm, ya’ni grekchada poli-ko‘p, teos-xudo - ko‘p xudolik dini quldorlik davrining klassik dini edi. Siyosiy hokimiyat, hukmron tabaqalar, quldor zodagonlar, sarkarda-lar, podsholar siyosatiga va ijtimoiy mavqeiga mos keladigan xudolar va ilohiy homiylar ham to‘qilgan. Natijada Osmon, Quyosh, yulduz, yorug‘lik va zulmat, oy, yil fasllari, suv, shamol, o‘rmon, tog‘, bo‘ron, dengiz, Er osti, dehqonchilik, uzumchilik, o‘tloqlar, hayvon va o‘simliklar,

urush, adolat, omad, oila, muhabbat, go‘zallik xudolari, ma’budalari, bosh xudolar, yaxshilik, yovuzlik xudolari kabi ko‘pdan ko‘p xudolarga sig‘inish vujudga kelgan.

Oilada onalar mavqei va xuquqining emirilishi, uning o‘rniga ota hukmronligining o‘rnatilishi natijasida xotin xudo va ma’budalarni erkak xudolar orqaga surib yubordi.

Odamlar Er yuzida tarkib topgan: hukmronlik va tobelik, qon-qarindoshlik, er-xotinlik, vafodorlik va vafosizlik, jinoyat va jazo kabilar osmondagi xudolar orasida ham to‘la ravishda mavjud deb o‘ylaganlar. Xudolar ham tug‘iladi va o‘ladi, uylanadi, aka-uka bo‘ladi, deb tasavvur etganlar. Turli sohalar bo‘yicha alohida-alohida xudo yoki ma’buda hukmronlik qiladi, deb o‘ylaganlar. Erda yuz beradigan barcha voqealar Osmondagi yoki Er ostidagi xudolar xohishi bilan bo‘lishiga qattiq ishonishgan. Xudo va ma’budalarga atab ko‘pdan ko‘p marosimlar o‘tkazilgan. Ularni gavdalantiradigan rivoyatlar, haykallar, ibodatxonalar yaratilgan. Farqi shunda ediki, odam, jamiyatdagi voqealar o‘tkinchi bo‘lsa, xudolar hayoti o‘rniga boshqa xudolar kelar edi.

Qadimgi greklar dini (xristian dinigacha bo‘lgan davrlardagi) politeizm - ko‘p xudolikning klassik namunasi-dir. Osmon egasi, bosh (pontion) xudo Zevs qadimgi greklar-ning oliy xudosi edi. Uning ukasi Poseydon dengizlar xudosi edi, yana bir ukasi Aid er osti xudosi, Zevsning rafiqasi (xotini) Gera er-xotinlikning homiysi edi. Ares - urush xudosi, Afina - donolik ma’budasi, Apollon - Quyosh xudosi va san’at homiysi, Artemida - Oy ma’budasi va ovchilik homiysi, Dionis - uzumchilik, vinochilik va ayshu ishrat, hosil, dehqonchilik xudosi edi. Grek xudolarining «hayot yo‘-sini» o‘zlarining hayot yo‘sinidan kam farq qiladi. Masalan, grek jangchilari jang oldidan Xudo - Aresga sig‘inib undan g‘alaba qozonishga ko‘mak-madad kutadilar. Agar urushda zafar qozonsalar Ares sharafiga katta, tantanali, bayramona Marosim o‘tkazadilar. Er osti xudosi Aid saltanatida vafot qilgan oliy tabaqa vakili joni-ruhi yaxshi nufuzli o‘rinni egallasa, qullar, qashshoq kishilar joni-ruhi ayanchli ahvolda yashaydi. YA’ni Er yuzida tenglik bo‘lmaganidek, oxiratda, Er ostida ham tenglik bo‘lmaydi.

Qadimgi rimliklarda ham greklarniki kabi ko‘p xudolar mavjud edi. Rimliklarning bosh xudosi YUpiter, urush xudosi Mars, YUpiterning xotini YUnona, Donolik ma’budasi Venera, eng e’zozlanadigan xudolar edi. Rimliklar ajdod ruhiga ham sig‘inganlar. Rimliklar tomonidan bosib olingan eronliklar xudosi Mitra, Misr ma’budasi Isida ham Rim xudolari qatorida hurmat qilingan.

Politeizm milliy davlat dinlarida ham saqlanib qoldi. SHunday qilib ibtidoiy va quldorlik tuzumlarining dinlari din tarixida o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Xudolar madadkor bo‘lgan davrlar birin-ketin o‘tib bordi. Xudolar to‘g‘risida tasavvur va ta’limotlarda ham o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Diniy madaniyat ham tinmasdan rivojlanishda davom etdi.

SHarq, xususan Turkiston bilan Eron xalqlarining fal-safiy fikrlari tarixini zardo‘shtiylik dini va uning yozma manbasi bo‘lgan «Avesto» kitobisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Mazkur din va «Avesto» to‘g‘risida SHarq va G‘arb olimlari juda ko‘p yaxshi ma’lumotlar qoldirganlar. Masalan, marhum akademik Ibrohim Mo‘minov «Avesto» Turkiston, Eron, Ozarbayjon xalqlarining shu mamlakatlarni arablar tomo-nidan bosib olgunga qadar (VII-VIII asrlar) bo‘lgan davrlari-da yaratilgan falsafiy, ruhiy, etnografik, tabiatshunoslik sohalaridagi bilimlarning yozma manbasi, deb hisoblaydi.

SHarq xalqlari orasida juda mashhur bo‘lib kelayotgan «SHohnoma» dostonining muallifi Abdulqosim Firdavsiy esa o‘zining «SHohnoma»si va «Gushtop» dostonining alohida boblarini «Avesto»ga bag‘ishlagan, Turkiston va Eron xalqlarining islom dini kirib kelgungacha bo‘lgan dini  zardo‘shtiylik dini edi. Bu dinning asoschisi payg‘ambar Zardo‘sht degan xorazmlik olim edi. Zardo‘sht SHarqning donishmandlar peshvosi, birinchi faylasufi, notig‘i, shoiri, din qonunshunosi hisoblangan. Tadqiqotchi olimlarning ko‘rsatishicha, Zardo‘sht eramizdan oldingi VI asrda yashagan. U Xorazm hokimligiga qarashli chorvadorlik bilan shug‘ullangan Spitama urug‘idan bo‘lgan. Otasining Paurushaspa, onasini esa Dugdava deb

atashgan. Bolaligidanoq ot va tuya boqish bilan shug‘ullangan. Zardo‘sht chorvador qavmlari orasida yurib, ularning urf-odatlari, diniy rasm-rusumlarini o‘rgangach, har xil e’tiqoddagi kishilar bilan suhbatlashgan.

Ma’lumki, qadimgi ota-bobolarimiz turli-tuman din-larga sig‘inishgan, ular bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina marosim-larni bajarishgan. Zardo‘sht bu qadar ko‘p dinlarga sig‘inish o‘z xalqini birlashtirishga xalaqit qilishini tushungan. U qabi-lalar orasida tez-tez sodir bo‘layotgan nizo, qirg‘in urush-larning negizi ham diniy e’tiqod masalasi bilan bog‘liq ekanini his qilgan. Turlicha dunyokarashdagi keksa kishilar bilan bo‘lgan suhbat, bahslar natijasida Zardo‘sht ko‘p xudolikning zararini to‘la tushunib etadi va yigirma yoshida o‘zining nortuyasiga minib (Zardo‘sht - sariqtuya egasi demak-dir) qishloqma-qishloq, shaharma-shahar kezib yurib, yakkaxudo-lik g‘oyasini targ‘ib etadi. U uch o‘g‘il, uch qizi bilan oilasini xavf ostida koldirib, yagona xudo - Axuramazda haqidagi ta’limotlarni, tasavvurlarni shakllantirib tartibga soladi. U qabila, urug‘chilik e’tiqodlariga qarshi yakka xudolik g‘oya-sini targ‘ib qilishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Bu ishda Zardo‘sht inson ruhiyatiga yaqin turadigan xalq she’riyatidan ustalik bilan foydalangan. Zardo‘sht ilgari surgan g‘oyaning asosini ikki bosqich tashkil qiladi: mutloq g‘oya - Axuramaz-daning yakkayu-yagonaligini tan olish. YAxshilik bilan yomonlik, rostgo‘ylik bilan yolg‘onchilik, zulmat bilan nur o‘rtasidagi doimiy kurash haqidagi ta’limot. Zardo‘sht ta’limoti tobora xalqqa kuchli ta’sir o‘tkazayotganini sezgan muxoliflari unga qarshi qat’iy kurashga kirishadilar. Hayoti xavf ostida qolgan Zardo‘sht bir guruh tarafdorlari bilan Eronga qochib o‘tadi va o‘z ta’limotini uzil-kesil shakllantiradi.

Zardo‘sht shoh Gushtaspning vaziri Frashashtranning qizi Kavoviga uylangan bo‘lib, uning Istavatra, Urvatatnara, Xvarechitra ismli uch o‘g‘li hamda Freni, Triti, Pourichista ismli uch qizi bo‘lgan. Eronda Doro 1 hukmronlik qilgan davrlarda (eramizdan avvalgi 522-486 yillar) sosoniylar sulolasining rasmiy dini zardo‘shtiylik bo‘lgan.

Firdavsiy bilan Beruniyning tasviricha, Zardo‘sht birinchi bo‘lib o‘z diniy ta’limotini Eron shohi Gushtaspga asoslab berib, uning e’tiborini qozonadi. Gushtasp farmoniga ko‘ra Zardo‘sht 1300 bobdan iborat pandnoma - «Avesto»ni oltin taxtachalarga yozib shohning otashqadasi (olov yonib turadigan ibodat uyi) xazinasiga topshirgan. SHundan so‘ng shoh payg‘ambarning ixlosmandi sifatida yangi dinning fidoiy targ‘ibotchisiga aylangan. Bu borada Amudaryoning ikkala sohilidagi yurtlarning hokimi Arjans akasi Gushtaspning ajdodlar e’tiqodidan qaytishda ayblab, unga qarshi urush e’lon qiladi. Tengsiz urushda Arjans o‘ldiriladi. Natijada Eronda ham, Turonda ham otashparastlik - zardo‘shtiylik dini to‘la joriy etiladi. Zardo‘shtning iltimosi va shoh Gushtaspning farmoniga asosan Eron va Turon mamlakatlarining barcha shahar va qishloqlarida otashqadalar - ibodatxonalar quriladi va ularda ibodat marosimlari muntazam ado etila boshlanadi. Ana shunday otashqadalardan eng kattasi Buxoroda edi. Mohiruz degan machit ilgari zardo‘sht ibodatxonasi bo‘lgan. Zardo‘sht 77 yoshida ibodat paytida ko‘p xudolik tarafdori Bratavaxsh tomonidan chopib o‘ldirildi. Ammo uning ta’limoti islomgacha ko‘pgina sharq mamlakatlarida muqaddas diniy e’tiqod bo‘lgan edi. Hozir ham janubiy Hindistonda 100 mingdan ziyod, shimoliy Eronda bir necha ming kishi zardo‘shtiylik e’tiqodiga amal qiladi.

Markaziy Osiyo (Turkiston) xalqlarining turli marosimlarida hozir ham otashparastlik dinining an’ana-larini uchratish mumkin. Ba’zi udumlar yuzasidan sham yoqib qo‘yish, to‘ylarda gulxan yoqib, uning atrofida bazm uyushti-rish, kelinni ko‘chada gulxan yoqib kutib olish va uni olov atrofidan aylantirib o‘tish, chavandozlarning katta gulxan alangasidan sakrab o‘tishlari, qabrlar ustiga chiroq yoqish va boshqa rasm-rusumlar otashparastlik bilan bog‘liqdir.

«Avesto» zardo‘shtiylik dinining muqaddas kitobi bo‘lib, uning dastlabki 1300 bobi Zardo‘sht tomonidan eramizdan avvalgi 548-529 yillarda yozilgan. Keyinchalik Eronda otash-parastlik dini ulamo-kohinlar tomonidan to‘ldirilib, tako-millashtirildi. Bu kitob 12 ming ho‘kiz terisidan ishlangan teriga yozilgan. Makedoniyalik Aleksandr Makedonskiy sharqni zabt etganda «Avesto»ning nodir nusxasini Elladaga (Gretsiya-ning shimoliy qismi) olib ketgan, kerakli

boblarini grek tiliga tarjima qildirgan, qolgan boblarini esa kuydirib tashlagan. Eramizning birinchi asrida ashkoniylar hukmdori Valages Arshakid va III asrda Husrav Parviz, shopuri Xurmuzd davrlarida «Avesto» bir necha bor ko‘chirilgan, qayta tiklan-gan(bir qismi xolos).

Ko‘p yillar «Avesto» kitobi yozilgan joy, mamlakat qaer-daligi olimlar o‘rtasida ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lib keldi. Lekin «Avesto»da Marv, Baqtriya, Xirot, So‘g‘d, Niso, Xorazm , Seiston, Amudaryo atamalari mavjudligini hisobga olinib «Avesto»ning Turkistonda (Turonda) yozilgan, degan xulosaga kelindi (XX asrning 80-yillarida), chunki, «Avesto»da Amudaryo haqida mulohazlar ko‘p uchraydi.

7-asrda arablar Eronni bosib olgan vaqtda zardo‘shtiylikka sadoqatli bir necha ming mahalliy aholi janubiy Hindistonga qochib ketadilar. Ular o‘zlari bilan «Avesto»ning to‘rtdan bir qismining eng nodir nusxalarini, madaniyat, e’tiqodga doir yodgorliklarini ham olib ketganlar. 1723 yili ingliz olimi Jorj Bouja «Avesto»ning bir nusxasini Oksford kolledjining kutubxonasiga olib borib topshiradi. Bir necha yil otashparastlar orasida yurib, ularning qadimgi tili va odatlarini o‘rgangan fransuz olimi Anketil Dyupperan 1711 yili «Avesto»ning bir qismini so‘z boshi, asl matn va tarjimasi bilan nashr etadi. Bu ishlar oqibatida G‘arbiy Evropada «Avesto»ga qiziqish va uni o‘rganish avj olib ketadi.

Hozirgi davrda «Avesto»ning qo‘lyozmasi Hindistondagi Bombey shahrida Koma sharqshunoslik ilmgohida saqlanmoqda. Bu ilmgoh zardo‘shtiylarning madaniy markazi bo‘lib, shu jamoa mablag‘iga ishlaydi. «Avesto» 1615 yilda Parfiyona yozuvida ko‘chirilgan bo‘lib, 672 betdan iborat. Bizga etib kelgan «Avesto» quyidagi qismlardan iborat:

1. YAsna - ibodat paytida ijro etiladigan matnlar. 72 bobdan iborat bo‘lgan bu qismning 17 bobi Zardo‘sht qo‘shiqlari - Got madhiyalaridan iborat.
2. YAsht - otashparastlarning xudoni tavsif etadigan maxsus ohanglar asosiga qurilgan madhiyalari.
3. Vendidod - devlarga, zulmat timsoliga qarshi qonunlar majmuasi. Mazkur bo‘limda diniy qonunlarning matni, qadimgi dostonlar, afsonalarning mazmuni, parchalar saqlangan afsonaviy qahramonlarning ismlari zikr etilgan.
4. Vis parad - Butun borliq xudoniki. Ibodatlar to‘plami, ibodat qoida-tartiblari.

«YAsht» hamda «Vendidad»da Zardo‘shtning shaxsiyati, ruhiy olami, ijtimoiy kelib chiqishiga oid dallilar, zardo‘shtiylikning tarqalishi yo‘lidagi ziddiyatlar haqidagi ma’lumotlar mavjud.

«Avesto» zardo‘shtiylikning muqaddas kitobi bo‘lishi bilan birga, u ilm-fan, hayotning barcha sohalari bo‘yicha mu-kammal ma’lumot beradigan ulkan, eng qadimgi manba hisob-lanadi. Grek olimi Pliniy (eramizdan avvalgi 3-asrda yashagan) «Avesto»ni 2 million baytdan iborat g‘oyat muhim kitob degan edi. Biz «Avesto»dan Turkiston, Eron, Ozarbayjon xalqlarining eng qadimgi marsimlari, urf-odatlari, rasm-rusum, e’tiqod ibodatlari paytida aytadigan qo‘shiqlari, diniy marosimlarda ijro etiladigan maxsus qo‘shiqlari, minglab xalqlar ohanglari haqida ma’lumotlar olamiz. Bundan tashqari kitobda qadimgi xalq og‘zaki ijodiga taalluqli dostonlardan parchalar mavjud: Jamshid, Kayumars, Mitra, Anaxita, Ardivissura, Zaxxak, Faridun, Bahrom singari ko‘plab tarixiy shaxslar obrazlari, asotirlar bilan bog‘liq atamalar to‘g‘risida xabarlar mavjud. SHuningdek, «Avesto»da «Mavzui suxan» - alohida xijo va qofiyali she’r haqida ham ma’lumot berilgan.

Unda chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq bilan bog‘liq juda ko‘p lavhalar, mulohazalar bayon etilgan. Xalqiga hamisha g‘amxo‘r bo‘lgan payg‘ambar Zardo‘sht qurg‘oqchilik kelib, ko‘plab chorva mollari qirilib ketayotga-nidan tashvishga tushgan holda, bu ofatdan qutqarishni iltijo qilib xudo Axuramazdaga yolvoradi. «Avesto»da eramizdan avvalgi 2 ming yildan yangi eraning VII asrigacha bo‘lgan davrdagi Turon va Eron xalqlari tarixiga doir, Sirdaryo va Amudaryo sohillarida yashaydigan xalqlarning ijtimoiy turmushiga oid ma’lumotlar berilgan. CHunonchi, kitobda ajdod-avlodlarimizning kasb-kori, savdo-sotig‘i, qo‘shni xalqlar bilan siyosiy va madaniy aloqalari, tijoratlari bayon qilingan. Har bir kasb, hunar egasining

jamiyatda tutgan o‘rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar bilan chorvadorlar jamiyat moddiy boyliklarini yaratuvchi kuchlar sifatida ta’riflangan.

Bundan tashqari, mazkur kitobda iqtisodiy hayot, geografiya, astronomiya, ilmi-nujum, ijtimoiyot, biologiya, falsafa va tibbiyotga doir ko‘plab qimmatli ma’lumotlar mavjud. «Avesto»dagi tibbiy dalillar ota-bobolarimizning tabobatga doir qarashlari rim, yunon va arab tabobatidan ko‘hna va uzoq tarixga ega ekanligini ko‘rsatadi. Undagi tibbiy ma’lumot ko‘proq «Vendidod»ning turli joylarida uchraydi. Undagi tibbiy fikrlarni quyidagicha bayon etish mumkin:

1. Tashrex (anatomiya) va mijoz (fiziologiya).
2. Kasalliklar haqidagi ma’lumotlar.
3. Bemorlikni oldini olish vositalari.
4. Bemorlarni davolash yo‘llari.
5. Tabiblarning ahloqi va tabobatga oid ba’zi qonun-qoidalar.

«Avesto»da inson organizmi-tanasi mushak, suyak, teri, asab, badan juni, tomir va qonga (asab va miya erga, badan tuki daraxtga o‘xshatilgan), badandagi tomirlarni qora qonli tomirlar, qizil qonli tomirlar va oq, ya’ni qonsiz tomirlar (asab) ga bo‘lishgan. Badanning quvvati esa jon, vijdon, ravon (tan), idrok va azaliy (qadimiy) ruh kabi 5 qismga bo‘lingan. Mijozni esa harorat (issiqlik), rutubat (sovuqlik), burudat (namlik) va quruqlikka bo‘lishgan. «Jigar qon manbai bo‘lib, o‘ng tomonda joylashgan», deyiladi. «Avesto»da er, suv, zamin, uy hayvonlari, badan, kiyim-kechaklar, oziq-ovqatlarni toza tutish va saqlashga alohida e’tibor berilgan. Unda qabriston-larni shahar va qishloqlardan uzoqroq joylarda tashkil qilish, ularni devor bilan o‘rab qo‘yish, murdani yuvadigan (g‘assol) kishilar maxsus gigienaga rioya qilishi, murda tekkan kiyim, palos, erlarni qatron qilish xususida fikrlar mavjud. Inson yoki hayvon jasadi tushgan soy, ariq, hovuz, quduqlarni bir necha marta qatron qilish (suvga to‘ldirib bo‘shatish) ta’kidlangan. «Uning (ariq) ustiga uch marta yomg‘ir yog‘ib o‘tsin, so‘ngra u oldingidek inson va hayvon ichadigan ariqqa aylanadi» - deb yozilgan. Axuramazda: o‘t-o‘lanlar hamda mevali daraxtlar ekilgan, suvlari hamisha ravon bo‘lgan zamin eng yaxshi erdir. Ayol va farzandlari sarson va sargar-don yuradigan (ro‘shnolik topolmaydigan) er eng yomon zamin-dir, deb ta’lim bergan, deyiladi ana shu manbada. Erni, suvni iflos qilgan shaxslar 400 qamchi urib jazoga tortilganligi xabar qilingan. «Avesto»da avlodalarimiz ekologiya talab-lariga jiddiy e’tibor berganliklari, kasalliklarning oldini olishga oid ma’lumotlar bor.

Atrof-muhit tozaliklarini saqlash va kasalliklarning oldini olish vositalarini quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1. Ahlatlarni berkitish, iflos joylarni tuproq, shag‘al, qum bilan ko‘mib tashlash - shu yo‘l bilan mikroblarni o‘ldirilib yoki kamaytirilgan, tarqab ketishga yo‘l qo‘yilmagan;
2. Olov (otash), issiqlik va sovuqlik yo‘li bilan yo‘qotish. «Avesto»da olov - poklovchi va ofatni ketkizuvchi vosita ekanligi bayon qilingan. Olov muqaddas hisoblanib, unga sig‘inilgan. SHu sababli otashparast, olovga sig‘inuvchilar bizning ajdodlarimiz edi;
3. Kimyoviy yo‘l: kul, sirka, sharob, turli giyohlar (isfaid, mexak, sadab, piyoz, aloe, sandal) tutatish yo‘li bilan.

Bu vositalar hozir ham mikroblarni yo‘q qilishda ishlati-ladi. «Vendidod»ning 5 bobida shamol, hayvon, parranda, pashsha orqali turli kasalliklarning tarqalishi qayd qilingan. Kasallik tarqatadigan hayvon va hasharotlarni yo‘qotishga da’vat etilgan holda «Avesto»da uy hayvonlarini asrashga da’vat kuchli bo‘lgan, «Vendidod»da «ovchi itni o‘ldirgan kishi 1000 barsum ruhiyatni tetiklashtiradigan o‘simlik bargi berishi lozim. SHuningdek, u 1000 ta echkiemar, 1000 ta suv qo‘ng‘izi, kasal tarqatuvchi pashshani o‘ldirib, gunohini yuvishi lozim», deyilgan.

«Vendidod»ning 5 va 17-boblarida doimiy badantarbiya bilan shug‘ullanish, kunda yuz-qo‘lni bir necha marta yuvish, sochni toza tutib, tirnoqlarni tez-tez olib turish tavsiya etiladi. Inson me’yori bilan doim to‘q yurishi, ko‘proq go‘sht iste’mol qilishi zarurligi uqtirilgan. «Avesto» da

issiq-lik, sovuq havo, ochlik va ruhiy iztirob, buzilgan taomni eyish, tozalikka rioya qilmaslik, yomonlik xudosi Axriman yuborgan qurt, pashsha, yomon havo kasalliklarning asosiy manbai deyilgan. Unda 9999 kasallikni Axriman paydo qildi, deyiladi.

Erkak zurriyod qoldirish qobiliyatiga ega bo‘lsa-yu ammo uylanmasa, unga tamg‘a bosishar yoki beliga zanjir bog‘lab yurishga majbur qilishar edi. Ba’zan bunday erkakni qopga solib kaltaklashgan. «Avesto» da yaqin qarindoshlarning o‘zaro nikohlanib oila qurishi man’ etilgan. Qavm va urug‘ qonini toza, avlodni benuqson saqlash uchun shunday qilingan. Ko‘p bolalik oialalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, bir yo‘la 2-3 ta farzand tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtirilgan.

«Vendidod»da kasalliklarni: rejim, parhez, duo, dori, jarrohlik yo‘llari bilan davolash aytilgan va dorivor o‘simliklarning nomi berilgan: shira, barg, go‘sht, don buta, piyoz, ildiz kabilardan foydalanish ko‘rsatilgan. Ular za’faron, koski, kunjut, ko‘knor, zira, piyoz, sedana, sarimsoq, qatron, turp, xurmo, sabzi, behi, shakar, asal, zaytun, moyi va boshqalardan tayyorlangan. Jarrohlikda bemorga asal sharobiga nasha qo‘shib berib, behush qilib kesishgan, Gippokratning (Buqrot) tabiblar qasamyodi haqida-gi fikrdan bir necha asr avval «Avesto»da tabiblarinng maxsus qasamnomasi keltirilgan: tabobat ramzi - ilon zahar solayotgan idish-jom tasviri ham ilk bor shu kitobda tasvir-langan. Unda qadimgi kishilarning o‘rtacha umri 800-900 yil bo‘lishi, ayrim odamlar yashash sharoiti, muhitiga qarab 1800 yilgacha umr ko‘rishi mumkinligi aytilgan.

Xullas, qadimgi ajdodlarimiz yaratgan «Avesto» dunyodagi eng qadimiy, noyob bilimlar xazinasidir. Unda olamdagi barcha diniy bilimlar, dunyoviy, tabiiy ijtimoiy fanlar bo‘yicha keng mazmunli mulohaza va fikrlar mavjud. «Avesto» ehtimol eng birinchi falsafiy asardir, SHarq va Turkiston xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixi-ning chuqur va baquvvat o‘q ildizi «Avesto» sahifalariga borib taqalishiga hech shubha yo‘q. Biz dono ajdodlarimizning boy ma’naviy madaniyati, kuchli falsafiy aql-zakovati bilan har qancha faxrlansak arziydi!!!

MONIY TA’LIMOTI (216-277 YILLAR). Markiziy Osiyoda eramizdan avvalgi V asrdan yangi eramizning IV asrigacha quldorlik tuzumi hukmron edi. V asrda esa feodalizm shakllandi. Moniy Eronda 216-277 yillarda yashagan faylasuf, monizm ta’limotining asoschisi va targ‘ibotchisidir. U 242 yili Eron podshosi SHopur 1 ning podsholik tojini kiyish marosimida o‘z ta’limotini bayon qilgan. Uning ta’limoti falsafiy mazmunida dualizm mavjud bo‘lib, Moniy Samo Nuri elchisi hisoblangan. Uning ta’limotida xristianlik bilan zardo‘shtiylik qorishmasi asos hisoblana-di. U borliqning 2 mustaqil substansiya: yorug‘lik, yaxshilik, ruh olami bilan zulmat, yovuzlik olamining o‘zaro kurashini targ‘ib etuvchi zardo‘shtiylik g‘oyasini olgan, xristianlikda esa messionerlik (ya’ni gunohlardan xolos etuvchi payg‘ambar, elchining kelishi, adolatli jamiyat o‘rnatilishi to‘g‘risidagi) ta’limotini olib har ikkisini umumlashtirgan. Moniy olam ikkita deb hisobladi. Uningcha, birinchi olamda xudo, ikkinchi olam kurashi halokat bilan tugaydi. Natijada materiya engilib ruh ozodlikka chiqadi. Moniy ta’limotiga ko‘ra, bu dunyo yovuzlik dunyosidir. Inson 2 ta unsurdan (ruh - Nur farzandi va jism - zulmat farzandi) iborat mavjudot bo‘lgani uchun zulmat kuchlariga qarshi kurashda nur kuchlariga yordam bera oladi. Moniyning ijtimoiy ta’limotida pes-simizm, passivlik ruhi mavjud. Moniy ta’limotida urushmaslik va mol-dunyo yig‘maslik g‘oyalarini targ‘ib qilgani uchun zardo‘shtiy kohinlari va SHoh Bahrom I Moniyni 275 yilda zindonga tashladilar va 277 yilda qatl qildilar. Moniy izdoshlari mamlakatlarda keng tarqalgan edi. 296 yilda Rim imperatori Diokletian moniylikka qarshi farmon (edikt) e’lon qildi. Moniy ta’limoti mayda sektalarga ajralib ketdi. Ulardan biri mozdakiylik deb ataldi.

MAZDAK TA’LIMOTI (470-529 YILLAR). Mozdakiylik ta’limotining asoschisi mozdakiylar harakatining rahbari Mazdak xalk ommasining zardo‘sht kohinlari va zodagonlariga qarshi kurashni boshqargan. Bu harakat ta’sirini pasaytirish maqsadida Eron shohi Qubod I (488-531) Mazdakni qo‘llab quvvatlagan edi. Mazdak Qubod hukmronligi davrida avval otashgohlarning birida kohin, keyinchalik butun Eron bo‘yicha bosh kohin bo‘lgan. Kohinlar va amaldorlarning

iqtisodiy, siyosiy hukmronligi barbod boʻlgandan soʻng Qubod I Mazdak bilan aloqani uzgan. 529 yili mazdakiylar harakati bostirilgan. Mazdak qatl etilgan.

Mazdakizm diniy-falsafiy ta’limoti (5-6 asrlarda) Eronda keng tarqalgan. Mazdak ta’limotiga koʻra olamda boʻladigan voqea, hodisalar ongli va biror maqsadni koʻzlab harakat qiluvchi ezgulik, yorugʻlik manbai bilan koʻr-koʻrona va tasodifiy harakatlanuvchi qorongʻulik (johillik) manbai oʻrtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik»ning «yomonlik» ustidan muqarrar gʻalabasi bilan tugallanadi. Mazdakizm ijtimoiy tengsizlikni yoʻqotish uchun kurashga da’vat etgan mazdakiylar harakatining mafkurasi sifatida xizmat qilgan. Mazdakiylar harakati bostirilgan boʻlsa ham (6 asr) Mazdak ta’limoti keyingi asrlar davomida Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi dehqonlar, shahar kamba-gʻallarining feodal zulmiga qarshi, keyinchalik Markaziy Osiyoga Islom tarqalgach, unga va arablar istilosiga hamda xokimiyatiga qarshi (Muqanna, Bobak qoʻzgʻolonlari) kurashning gʻoyaviy bayrogʻi boʻlib xizmat qildi.

**ADABIYOTLAR:**


1. Karimov I.A. “Oʻzbekiston XXI asr boʻsagʻasida...”. T. “Oʻzbekiston”. 1997y.
2. Moʻminov A.K. Dinshunoslik asoslarini oʻqitish va oʻrganishning yagona konsepsiyasi. T. 1999 y.
3. Radugin A.A. Vvedenie v religiovedenie. Moskva 1996 g.
4. Fromm E. Psixo analiz i religiya // Fromm E imet ili bit? M. 1990.
5. Zakon bojiy: Vtoroya kniga opravoslav poy vere. Volgograd. 1987.


## MAVZU: MILLIY DINLAR: XITOY VA XINDISTON DINLARI

**Reja:**

1. **Qadimgi xiton milliy dinlari: konfuysichilik va daosizm**
2. **Qadimgi Xindistondagi milliy dinlar: xinduizm, jaynizm sinkxizm**
3. **Qadimgi yapon milliy dini: sintoizm**

<u>KONFUTSIYCHILIK.</u> Konfutsiychilik qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi VI-V asrlar paydo boʻldi. Keyinchalik diniy mazmun kasb etgan bu ta’limotga ma’rifatparvar Konfutsiy (Kun-Szi 551-479 yil-lar) asos solgan.

Konfutsiychilik ta’limotida dunyoqarash masalalariga emas, balki ijtimoiy-ahloqiy muammolarga koʻproq oʻrin beri-ladi. Unda «ahloqli kishi» boʻlish, donishmandlardan ta’lim olish haqidagi gʻoya ilgari suriladi. Konfutsiychilik ta’limo-tiga koʻra jamiyatda hukm surgan «Jen» insonparvarlikka rioya qilmogʻi lozim. Insonparvarlik kamtarlik, onglilik, bosiqlik, mehribonlik, odillik, saxiylikdan iborat. Inson «Jen» qonunini oʻzlashtirish uchun jamiyatda tutgan oʻrniga qarab «Li» normalarini bajarishi talab etiladi. Jamiyatdagi ahloqiy normalar, an’analar, urf-odatlar shunga muvofiq belgilanadi. Past tabaqa «ahloqi ulugʻ» boshliqlariga itoat qilishi Li bilan oqlangan.

Konfutsiychilikda kishilarning yuqori va quyi tabaqalarga ajratishda ularning boyligi yoki ijtimoiy kelib chiqishi asosiy rol oʻynamaydi, bunda yuksak ahloqiy fazilatning xizmati katta, deyiladi. Biroq bu hukmron va qaram tabaqalarga ajratish butunlay inkor etiladi, degan gap emas. Konfutsiyning fikricha tabaqalarga ajratish tartibi eski an’analarga asoslanishi va u davlat tomonidan boshqarilishi lozim. Nomlarning toʻgʻrilanishi, CHjen-min siyosati boʻyicha hamma narsa va hodisalar oʻz ismiga mos kelishi kerak. Ana shunda hamma oʻz huquqi va majburiyatini biladi.

Eramizning boshida konfutsiychilikka diniy gʻoyalar kiritildi va u diniy ta’limot sifatida talqin qilina boshlandi. Konfutsiyning qabri yoniga koʻplab ibodatxonalar qurildi, unga

qurbonliklar qilina boshlandi. SHu tariqa Konfutsiy xudo darajasiga ko‘tarila boshlandi. XX asr boshlariga kelib Konfutsiy sharafiga qurilgan ibodatxonalar soni ko‘paya bordi.

Konfutsiychilikda oliy ilohiy kuch osmon hisoblanib, Xitoy hukmroni esa xudolar bilan insonlar o‘rtasidagi vositachi, osmon o‘g‘li deb talqin qilindi. Xitoy imperator-larini hatto xudo darajasiga ko‘tarishgan. Konfutsiychilikda ajdodlar ruhiga sig‘inish muhim o‘rin egallaydi. SHu boisdan qurbonlik qilish, tug‘ilish, oila qurish, dafn qilish va boshqa marosimlar g‘oyat tantanali bajariladi. Bu marosimlar davlat xokimlari, oila yoki urug‘ boshliqlari tomonidan boshqariladi.

Konfutsiychilikda qohinlar bo‘lmagan dastlabki davrlar-da hech qanday muayyan ta’limot ham bo‘lmagan.

Konfutsiychilikning hamma asosiy qonunlari 13 ta kitobda, sharhi esa 40 jildda bayon qilingan. Bularning eng ahamiyatli qismi 9 ta kitobdan iborat. Bular: «Sishu» (To‘rt kitob) va «Szin» (Besh kitob). Bu qonunlar ham «muqaddas» xalq donishmandlari manbai hisoblanadi.

Konfutsiychilik tarafdorlari diniy kitoblardagi ta’limotga qat’iy rioya qiladilar va bu ta’limot mavjud tuzumning engilmasligini targ‘ib qilganligi uchun Xitoy feodalizmining asosiy mafkurasi bo‘lib qoladi.

DAOSIZM. Daosizm - eramizdan avvalgi IV-III asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan falsafiy ta’limot. Daosizm ta’limotining asosiy g‘oyasi moddiy olamdagi predmet va hodisalar turli-tumanligining mohiyatini ta’minlovchi, ularning mavjudlik sababi va manbaini tashkil etuvchi «dao» to‘g‘risidagi tasavvurdan iborat. Eramizning II asrida bu ta’limot asosida diniy qarashlar ham shakllandi va u daosizm nomini oldi. Bu din qadimgi dunyo faylasufi Lao Szi nomi bilan bog‘liq bo‘lib, uning «Dao de Szi» kitobidagi ta’limotga asoslana-di.

Daosizmda materialistik va stixiyali dialektika elementlari ham mavjud. U dunyodagi barcha predmet va hodisalar o‘zgarishda, harakatda, ba’zi narsalar tiklansa, boshqalari so‘nadi, deb ta’lim beradi.

Ammo Qohinlar (ruhoniylar) bu ta’limot asosiga diniy g‘oyalarni qo‘yib g‘oyat ko‘p ruh va xudolarga ibodat qilishdan iborat diniy tizimni yaratdilar. Bu dinda Qohinlar «daos» nomi bilan ataladi. Ular uchun rohiblik, darveshlik qilishdan tashqari, oila qurish ham ma’n etilmaydi.

SHu tariqa daosizmda olamni boshqaruvchi uch xudolikdan iborat xudolar pantioni (SHan-di, Lao-szi, Pan-gu) paydo bo‘ldi. Daosizm dastlab yirik mulkdor xokimiyatiga qarshi bo‘lib, kambag‘allar manfaatini himoya qiladi.

Keyinchalik esa u hukmron sinfning g‘oyaviy g‘uroliga aylanadi. Manjurlar sulolasi Sin hukmronligi davrida (1644-1511) daosizm diniy ta’limoti inqirozga uchraydi. Hozirgi vaqtda doasizm diniga e’tiqod qiluvchilar juda oz qoldi.

Daosizmning ijobiy tomoni - avlodlar xotirasini, ular-ning ruhini esda saqlashdir. CHunki vafot etgan avlodlar ruhiga hurmat ko‘rsatish kelajak ma’naviyatini ta’minlashga xizmat qiladi.

SINTOIZM. Sintoizm (sinto - xudolar yo‘li demakdir) YAponiyada keng tarqalgan an’anaviy milliy dindir. Bu din ilk feodalizm davrida (VI-VII asrlar) rivojlangan va urug‘chilik, qabilachilikka xos animistik va shomonizm marosimlari yig‘indisidan iborat holda vujudga kelgan. Sintoizm ta’limotida YAponiyada joriy etilgan ijtimoiy-siyosiy targ‘ibotning mustahkamligi va o‘zgarmasligiga, quyosh tangrisi-Amaterasuning naslidan deb hisoblangan yapon imperatori- Mikado xokimiyatining ilohiyligiga ishonish, imperator ajdodlarini muqaddas deb tan olish, ajdodlar sharafiga tayinlangan oila-urug‘ marosimlarini bajarish kabilar asosiy o‘rin egallaydi. Sinoizmning puxta ishlangan aqida-lari yo‘q. Diniy marosimlarni kannushlar deb ataladigan alohida qohinlar ijro etadilar.

Kannushlik vazifasi nasldan naslga o‘tadi. Hozirgi vaqtda yaponlarning ko‘pi sintoizm bilan buddizmni teng ko‘rib, har ikkala dinga e’tiqod qiladi. Hayotiy marosimlar: tug‘ilish, nikoh

kabilar sintoizm ibodatxonalarida bajaril-sa, dafn etish va marhumni xotirlash marosimlari buddizm ibodatxonalarida o‘tkaziladi.

Sintoizm bilan buddizmning bir-biriga ta’siri kuchli. Sintoistlar buddizm dini uchun ibodatxonalar qurish bilan qanoatlanmadilar, balki o‘rta asrlarga kelib sinto-budda qo‘shma ibodatxonalari vujudga kela boshladi. Sintoizmning o‘ziga xos xususiyati o‘zi targ‘ib qilgan xudoga sig‘inish, boshqa millat kishilarining bu dinga sig‘inishini man’ etishdan iborat. Sintoistlarning muqaddas kitobi bo‘lmagan, ammo ibodatxonalarda yozilgan diniy afsonalar uchrab turadi. VII asrga kelib og‘zaki diniy afsonalar asosida «Kodziki» («Qadimgi ishlar to‘g‘risidagi yozuvlar») nomli diniy kitob paydo bo‘ldi, unda asosan imperatorlar sulolasining kelib chiqishi ilohiylashtirildi. VIII-X asrlarda sig‘inish qoidalari ishlab chiqildi va xudolar nomi ro‘yxatga olindi. 1886 yildan 1945 yillargacha sintoizm YAponiyaning davlat dini hisoblandi. Natijada dinning tuzilishi ham o‘zgardi, ilohiy ruhlar o‘rniga imperator shaxsi ulug‘landi.

XIX asrning oxirlariga kelib bu din o‘zining avvalgi obro‘sini yo‘qota boshladi. Sintoizm dini 1945 yilda davlat-dan ajratib qo‘yildi. Bunga asosiy sabab yaponiyaning ikkinchi jahon urushida engilishi edi. Imperatorning obro‘si tushgan-ligi bu dinning ham mavqeini tushishini bildirdi. CHunki yakka xudo osmonda, erda esa uning ramzi imperator xokimiyati edi. Hozirgi davrda sintoizm diniga e’tiqod qilayotgan yaponlar uncha ko‘p emas, ammo bu dinning zamonga moslashtirishga harakat kuchlidir.

Sintoizm ahloq nuqtai-nazaridan ibratli din bo‘lib, u bilimli, intizomli, milliy g‘urur, vatanni sevish kabi insoniy fazilatlarni, qadriyatlarni ulug‘laydi.

Ma’lumki, ana shu ahloq millat rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Natijada YAponiya urushdan keyingi yillarda har jihatdan rivojlanib, dunyodagi eng rivojlangan davlatga aylandi. Oqibatda 1980 yildan boshlab YAponiyada yana sintoizm dini qayta tiklandi. Tokio shahrida bosh ibodatxona ochildi, imperator oilasi na shu ibodatxonaga borib ajdodlar ruhiga sig‘indi, qurbonlik marosimi o‘tkazdi, ko‘p xayr-ehsonlar qildi.

Sintoizm dini har bir kishida poklik va ozodalikka rioya qilish ko‘nikmasini vujudga keltiradi. Estetik did ham shu diniy talablar orqali o‘sib bordi.

HINDUIZM. Hinduizm eramizning VI asrida Hindistonda vujudga kelgan edi. Hindlarning milliy dini hinduizm keng tarqal-gan bo‘lib, unga 80 foizdan ko‘proq hindlar sig‘inadilar. Hinduizm eramizdan oldin mavjud bo‘lgan braxmanizm, vedizm, totemizm, animizm kabi dinlar evolyusiyasi natijasi-da shakllandi. Hinduizm turli e’tiqodlar, urf-odatlar va marosimlar, mahalliy diniy e’tiqod va qarashlarning murakkab kompleksi sifatida paydo bo‘lib, urug‘-qabila dinlari elementlarini, buddizm, sikhizm, jaynizmning asosiy g‘oyalarini o‘ziga o‘zlashtirib olgan. Hinduizm o‘zining yagona bajaradigan tashkilotiga ega emas.

Hinduizm insonning tug‘ilganidan to vafot etishigacha bo‘lgan huquq va vazifalarini belgilab va cheklab qo‘yadi. SHuning uchun unda marosimchilikka keng o‘rin berilgan. Hinduizm kishilarning ijtimoiy tengsizligini oqlaydi. U ruhning o‘lmasligi va ko‘chib aylanib yurishi (sansara ta’limoti), qayta tug‘ilishi (karma ta’limoti), gunoh ishlar uchun javob berilishi, jannat va do‘zax kabi aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Hinduizm politeistik din bo‘lib, unda ko‘p xudolik elementlari saqlangan. Dindorlar tasavvurida bosh xudo Braxman koinotning ijodkori va yaratuvchisidir. Bundan tashqari hindlar Vishnu va SHiva degan xudolarga ham e’tiqod qiladilar. Hinduizm ta’limotida xudoning uch qiyofadagi ko‘rinishi tasavvur etilishi (trimurti) eng oliy, yakka xudoning uch xususiyati, deb talqin qilinadi.

Hinduizm ta’limoticha, olam paydo bo‘lib, emirilib, yo‘q bo‘lib turadi, ya’ni olamning yashashi progressiv emas, aksincha, regressiv harakterga ega bo‘lib, har bir davr olamning yuksak rivojlangan cho‘qqisidan boshlanib, uning inqirozga uchrashi bilan bitadi, insonlar gunohga botib ketgach olam tugaydi.

Hinduizm ta’limoti jamiyatning tabaqalarga bo‘linishini aks ettiradi. Bu dinning karma qonuniyatiga asosan u inson hayotida 4 ta asosiy maqsad bor, deb tushuntiradi. Bular: 1) dharma - oila va jamiyatda diniy talablarni to‘la bajarish;

2) artxa - foydali ishlar qilish, zarur moddiy ne’matlarga ega bo‘lish; 3) kama - muhabbat tuyg‘ulariga erishish, bu his-tuyg‘ularni qondirish; 4) moksha - o‘zgarish zanjiridan butunlay ozod bo‘lish.

Vishnuizm va SHivoizm oqimining vakillari o‘z xudolariga bag‘ishlab minglab katta-kichik ibodatxonalar qurganlar. Bu dinga e’tiqod qiluvchilar muqaddas joylar, daryolar va boshqa har xil «muqaddas» narsalarga sig‘inadilar. Hind xalqi orasida yovuz ruhlarga e’tiqod qilish keng tarqalgan. Ular turli hayvonlar: ho‘kiz, sigir, maymun va ilon kabilarga ham sig‘inadilar, ularni muqaddaslashtiradi-lar. Masalan, hinduizm tarafdorlari sigirni saxiylik, boylik manbai va go‘zal ayol timsoli deb hisoblaydilar. Ruhoniylar sigirni so‘ymaslik va go‘shtini emaslikni targ‘ib qiladilar. Ammo hinduizm sigir sutini ichishni va sigirni xo‘jalikda ish hayvoni sifatida foydalanishni ta’qiqlamaydi.

Hind xalqi uchun Gang daryosi muqaddas hisoblanadi. Hinduizm diniga e’tiqod qiluvchilar Banoras shahrini ham muqaddaslashtirishgan. Rivoyatlarga ko‘ra, go‘yo Gang daryosi qirg‘og‘ida kishi vafot qilsa narigi dunyodagi hayoti ancha engillashar emish.

Hinduizm - oila-nikoh masalalariga nisbatan ahloqiy jihatdan yondashadi. Eng oliy tabaqa-braxmanlar (kohinlar) oliy zodagonlar bilangina nikohga o‘tishi mumkin. Eng past tabaqa kishilari - bu SHudralar. Ular yalangoyoq, qashshoq, past, yomon ahloqli kishilar SHudralar bilan oliy tabaqa vakillari nikohga kirishi mumkin emas. O‘rta tabaqa - Vayshi-lar bo‘lib, ular savdogarlar, hunarmandlar, dehqonlardan iborat. Ular o‘zaro nikohda bo‘lishi mumkin.

Hinduizmning muqaddas yozuvlari Vedalar (er.av. 2 mingginchi yillar o‘rtasidan boshlab paydo bo‘lgan). Vedalar -«bilimlar» demakdir. Vedalar: 1) gimn va duolar; 2) maro-simlarda ijro etiladigan madhiya qo‘shiqlari; 3) qurbonlikka oid qoidalar; 4) yovuz kuchlarga qarshi bo‘lgan duolar va afsunlar.

Upanishadalarga - «sirli ta’limotlar» er.av. 1 minginchi yillar boshlarida paydo bo‘lgan ahloqiy risolalar: «Mahabharata» va «Ramayana» dostonlari, turli hikmatli hadislar kiradi.

Hinduizm zo‘rlik ishlatish, qon to‘kish, azob berish kabilarni ta’qiqlaydi. XIX asrning boshlarida Hindistonda boshlangan milliy ozodlik harakatining mafkurasida hinduizm aktiv rol o‘ynadi. Maxatma Gandi yaratgan ozodlik harakatining diniy falsafiy asosida ham hinduizmning qon to‘kmaslik, zo‘rlik ishlatmaslik g‘oyalari yotardi. Passiv norozilik gandizmning ahloqiy falsafasi edi. Hinduizmning millatni xudbinlikka, ulug‘ millatchilik - shovinistik siyosat-ga yo‘naltirishga uringan o‘ta reaksion kuchlar ham paydo bo‘lgan. Hinduizm Hindistondan tashqarida yashaydigan hindlar orasida, xususan, Bangladesh, Nepal, SHri-Lanka kabi mamlakatlarda ham tarqalgan.

Hinduizm tabiatni sevishga, vatanparvar bo‘lishga, avlod-lar xotirasini e’zozlashga o‘rgatadi. Hinduizm yomonlikka qarshi yomonlikni qo‘llashni emas, balki uni yaxshilik bilan engish mumkinligini o‘rgatadigan din hisoblanadi. Hinduizm tinch-totuv, osoyishta yashashga da’vat qiladi.

Hinduizm ibodatxonalari g‘oyatda yuksak estetik did bilan hashamatli qilib qurilgan. Ularga Quyosh xudosi, musiqa ma’budasi, go‘zallik, saxiylik, raqs ma’budalari, afsonaviy farishtalar tasviri va haykalchalari qo‘yilgan. Ibodatxona-larda jarangdor qo‘ng‘iroqchalar chalinadi. Ularda musiqiy kuylar mavjud bo‘lib, ruhoniylar shirali nutqlari bilan va’zxonlik qiladilar, turli urf-odatlar o‘tkaziladi. Xullas, ibodatxonalarga kirgan kishiga ruhiy tasalli, yaxshi kayfiyat ato etiladi.

JAYNIZM. Jaynizm - bu dinning asoschisi sifatida e’tiqod qili-nadigan yarim afsonaviy payg‘ambar-jin nomi bilan atalgan bo‘lib, bu milliy din Hindistonda eramizdan oldingi VI asrda

paydo bo‘lgan. Jaynizm braxmanizmdagi (braxmanizm dini Hindistonda er. av. X-XI asrlarda kelib chiqqan edi) kishilarni tabaqalarga ajratish va tabaqalar asosida odam-larning ijtimoiy tengsizligini ilohiylashtirish sistemasiga qarshi paydo bo‘lgan. Jaynizm ta’limotida 24 ta payg‘ambarga, ayniqsa, ulardan oxirgisi bo‘lgan payg‘ambar - Vardhamana Maxaviraga sig‘inish talab etilgan. Jaynizmda jonning o‘lmasligiga, uning bir moddiy shakldan ikkinchisiga ko‘chib yurishiga ishonish g‘oyasi markaziy o‘rinni egallaydi.

Insonning Er yuzasida qiladigan har qanday harakati va ishi ana shu jon bilan tana birligida sodir bo‘ladi. Jonni gunohdan saqlash uchun hayotda to‘g‘ri yo‘lni tutmoq, ya’ni din targ‘ib qiladigan barcha haqaqatlarga, talablarga so‘zsiz itoat etish va e’tiqod qilish zarur. Jaynizmda axinsa haqidagi qoida mavjud bo‘lib, unga ko‘ra dunyodagi barcha tirik mavjudotlarga nisbatan zo‘rlik ishlatish qattiq ta’qiqlanadi. Jaynistlar go‘sht emaydilar, eng mutaassib dindorlar esa faqat to‘rdan o‘tkazilgan suvnigina iste’mol qilib, parda orqali nafas oladilar.

Jaynizm dindorlarga nisbatan qattiq cheklashlar o‘rnatganligi sababli hozirgi kunda bu din tugab bormoqda. SHu sababli jaynizmni isloh qilinib zamonga moslashga uri-nishlar bo‘lmoqda. Jaynizm tabaqalanishni qoralab, insonlar tengligini ilohiy asosda o‘rnatish to‘g‘risidagi din bo‘lganligi uning ijobiy xususiyatidir.

**MAVZU: MILLIY DINLAR. YAXUDIYLIK DINI (2 SOAT).**

**Reja:**

1. **Yaxudiylik dinining vujudga kelishi.**
2. **Yaxudiylikning muqaddas kitoblari (Zabur, Tavrot, Talmud)**
3. **Yaxudiylikdagi oqimlar.**

Quldorlik va feodalizm tuzumlarida milliy etnik jihatdan tashkil topgan davlatlar vujudga keldi. Har bir davlat hududidagi asosiy millat dini milliy-davlat dini yoki milliy din deb ataldi. Milliy-davlat dini faqat bitta millatning diniy e’tiqodi bo‘lib, shu dinning marosimlari, xudolari, payg‘ambarlari qonun-qoidalari, marosimlari, ahloq, huquq asoslari, qoidalari aynan shu millat uchun din bo‘lib, boshqa millat, davlat uchun bu din hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi.

Milliy dinlar uzoq evolyusion o‘zgarishni boshidan kechirganlar. Milliy dinlar milliy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Milliy dinlar o‘zlari uchun:**

1. Ahloqiy kamolot tarbiyasini amalga oshiradi;
2. Milliy harakterni, milliy ruhiyatni shakllantiradi;
3. Milliy ongni o‘stiradi, milliy qadriyatni rivojlan-tiradi;
4. Milliy boyliklarning ko‘payishi uchun undan tejab foydalanishni, adolat bilan taqsimlashni bilvosita yaxshilaydi;
5. Milliy hamjihatlikni, milliy o‘zlikni tushunishni, milliy g‘ururni shakllantiradi;
6. Milliy ozodlik kurashlarini g‘oyaviy jihatdan ta’minlashga xizmat qiladi;
7. Milliy madaniyatni rivojlantiradi.

Milliy dinlar ibtidoiy tuzumdagi totemizm, animizm, fetishizm, shomonizm, sehrgarlik, avlodlar ruhiga sig‘inish dinlariga hamda politeizmning qorishmasi asosida vujudga kelganligi uchun ayrim milliy dinlarda ko‘p xudolarga, ayrim milliy dinlarda esa yakka xudoga sig‘inish shakllangan.

<u>YAXUDIYLIK.</u> YAxudiylik (iduaizm) dinining asoschisi Allohning payg‘ambari xazrat Muso alayhissalomdir (miloddan avvalgi 1666-1546. 120 yosh).

Iuda “shukur” degan ma’noni beradi. YAhudiylik (iduaizm) dinining nomi esa qabilaning ilk boshlig‘i bo‘lgan <u>YAhudo (Iuda)</u> nomidan kelib chiqqan.

YAxudiylikning ta’lim berishicha, Xudo YAh va Isroil xalqi bilan ikki tomonlama shartnoma “ahd”-orqali bog‘langan bo‘lib, shunga ko‘ra yahudiylar o‘zlarini “Xudo” tomonidan tanlab olingan mumtoz xalqmiz, bu ahd bo‘yicha Xudo falastin va uning atrofidagi barcha erlarni bizga berishga va’da qilgan, bu erlar bizga “va’da qilingan erdir” degan e’tiqodda yashab kelganlar va hozir ham ana shu aqidani mahkam tutib, tinmay kurash olib boradi.

YAhudiylik dini Muso alayhissalom 80 yosh paytlarida (1586 yilda) Alloh taolo tomonidan vahy etilgan (Besh kitobi-tavrot)dir. YAhudiylikning barcha qonun-qoidalari Musoga nozil qilingan Tavrotda mufassal bayon qilingan. Bundan tashqari, Tavrotning tafsiri va yahudiylik dinining aqida va marosimlari yozilgan Talmud kitobi va Muqarras zabur (Pslatir) kitobi ham bu dinning muqaddas kitoblari hisoblanadi.

YAhudiylik son-sanoqsiz marosimlarga, buyruqlarga, bayramlarga ega bo‘lgan din. Bu dinning talabiga ko‘ra har bir dindor 365 taqiqni va 248 buyruqni, jami 613 axli ma’ruf va nahiy munkarni bilishi kerak.

YAhudiylar tuya, cho‘chqa, quyon, ot, eshak go‘shtlarini emaydilar. Ular eydigan hayvonot go‘shtida qon dog‘i bo‘lishi mutlaqo mumkin emas. SHuning uchun ham yahudiylarda mollar faqat o‘z ishiga usta qassoblar tomonidan so‘yiladi.

YAhudiy erkaklarining kiyimlari uzun, bir xil matodan tikilgan bo‘lishi, boshi hatto uyquda ham biror narsa bilan berkitilgan bo‘lmog‘i lozim. Diniy marosim bajarilayotganda, kiyimning ustidan albatta yopinchiq tashlanishi shart.

Haftaning shanba kuni dam olish qat’iy talab etiladi. Bu kunda hech qanday yumush, ish bilan shug‘ullanilmaydi, ovqat pishirilmaydi, olov yoqilmaydi, qo‘lda biror narsa ko‘tarib yurilmaydi, pulga qo‘l tekkizilmaydi.

Bolalarga diniy ta’lim 5-6 yoshidanoq beriladi. Tavrot va Talmudning asosiy aqidalari majburiy tarzda yodlattiriladi.

YAhudiylikda ayol kishiga erining itoatkor qulidek qaraladi. Har bir yahudiy erkak har kuni Xudodan uni ayol qilib yaratmaganiga shukronalar aytib duo qiladi. Ayol kishi esa o‘z duosida o‘zini eriga itoat etuvchi qilib yaratganligi uchun Xudoga minnatdorchilik bildirib yuradi.

YAhudiylikning talablari, marosimlari juda ko‘p va og‘ir bo‘lganligi, yaxudiylarning boshqa millat vakillari bilan nikohga kirishi man etilganligi, o‘zlarini barcha xalqlardan afzal-mumtoz bilib, o‘jar, millatchi, irqchi va xudbin bo‘lganliklari uchun shunday qadimiy tarixga ega bo‘lgan bu din jahon diniga aylana olmagan.

“Sionizm” atamasi Isrusalim (Quddus) yaqinidagi Sion (sinyay) tog‘-tepaligi nomidan olingan. Bu tog‘ tepalikda Musogi Tavrot ilohiy kitobi nozil bo‘lgan va unda Dovud a.s. ning qarorgohi joylashgan. SHuning uchun bu tog‘ muqaddas sanalgan.

Sionizm dastlab yahudiylarning antisemitizm, ya’ni ularni jahon miqyosida ta’qib etilishlariga qarshi tuzilgan harakat bo‘lib, 1897-yilda SHveysariyaning Bazel shahrida siyosiy oqim-ta’limot sifatida tashkil topgan.

Milodan avvalgi 63-yilda Rim imperiyasi yahudiy davlatlarini bosib olgandan keyin, yahudiylarning dunyo mamlakatlariga tarqalishlari faol davom etgan. Ular YAqin SHarq, SHimoliy Afrika va Janubiy Evropa mamlakatlariga, o‘rta asrlarga kelib, Evropa va Osiyoning ko‘pgina mamlakatlari bo‘ylab tarqalib ketishgan. Ular borgan joylarda mahalliy aholining tili va madaniyatini o‘zlashtirib olganlar, ammo o‘zlarining dini, madaniyati va urf-odatlarini saqlab qoldilar. Hudiylar borgan mamlakatlarning ko‘plari yahudiylar huquqlarini chegaralovchi qonunlar qabul qilganlar.

Bu siyosiy oqimning maqsadi dastlab butun dunyodagi yahudiylarni bir erga to‘plab, qadimgi yagona yahudiylar davlatini qayta tiklash bo‘lgan. Keyinchalik u yahudiylarning reaksion-millatchilik, shovinistik mafkurasiga aylanib ketgan.

YAhudiylar o‘zlarini “Oliy millat” deb, ular yashaydigan erlardagi hamma xalqlar, millatlar yahudiylarga dushmandirlar degan irqchilik g‘oyalarini e’lon qilganlar.

Nihoyat, asrlar bo‘yi jabrlangan xalqqa ikkinchi jahon tugagandan so‘ng Murruvvat ko‘rsatildi. BMT Bosh Assambiliyasining 1947-yil Qaroriga binoan falastinda Isroil davlatini tuzilishiga ruxsat berildi. SHunday qilib, 1948 yil 14-maydan boshlab Buyuk Britaniya mandatidagi falastin mustaqil deb e’lon qilinib, Isroil davlati tashkil topdi va iudaizm, ya’ni yahudiylik bu davlatning rasmiy dini deb e’lon qilindi. Sionizm esa davlat mafkurasiga aylandi.

Sionizmning keyingi asosiy maqsadi. Butun dunyo yahudiylarini Isroilga to‘plab, ularni sionistik ruhda qayta tarbiyalash, bu davlat xududini yanada kengaytirib qadimgi davlatlarini qayta tiklash bo‘ldi.

1968 yilda Quddusda sionizmning 27-kongresida sionizm tashkilot sifatida rasman joriy etildi, dunyodagi hamma yahudiylarni falastinga ko‘chirib, u erda Buyuk yahudiylar davlatini tuzishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi.

1934 yilda Rossiyaning Xibarovski viloyatiga kiruvchi Birobijon milliy tumani, shahari yahudiylarga avtonom viloyat qilib berilgan. Hozirgi vaqtda u erda yahudiylar deyari qolmagan.

IUDAIZMNING AQIDALARI.

1-aqida: «Qadimiy ahd» va Talmudning (Talmud Tavrotdagi va xalq og‘zaki aytib yurgan duolar to‘plami) muqaddasligiga ishonish va ularga e’tiqod qilish to‘g‘risidagi ta’limot.

2-aqida: YAgona xudo YAxve (Iegova)ga sig‘inish, unga iymon keltirib e’tiqod etish to‘g‘risidagi ta’limot.

3-aqida: Xudo YAxve Isroil davlatini Er yuzidagi jannat qilib yaratgan va YAhudiy millatini oliy irq, tanlab olingan mumtoz millat qilib yaratgani to‘g‘risidagi ta’limot. SHuningdek YAhudiy xalqi xudoning eng sevgan bandasi ekaniga ishonishdir.

4-aqida: G‘oyib bo‘lgan payg‘ambarlar madhining Er yuziga yana qaytib kelishi, uning yomon odamlarni jazolashi ming yil davom etadigan adolatli jamiyat yaratish to‘g‘risidagi ta’limotlaridir.

Iudaizm o‘rta asrlarda o‘zining eski mazmunini saqlab qolgan holda biroz o‘zgargan. XI-XII asrlarda iudaizmda hukmronlik qilgan ravvinlar uning ko‘p tomonlarini qayta ishlab chiqdilar. O‘rta asrning ko‘zga ko‘ringan faylasuflaridan biri bo‘lgan ravvin Maymond iudaizmning 13 ta asosiy aqidasini tuzib chiqdi. Bu aqidalar quyidagilardan iborat: 1) olamni yaratuvchi xudo bor; 2) u bitta; 3) u jimsiz; 4) u ibtidosiz; 5) faqat xudoning bir o‘ziga sig‘inish kerak; 6) tabiiy sir - haqiqat; 7) Muso payg‘ambarlarning eng ulug‘i; 8) tora (tavrot), ya’ni injilning birinchi besh kitobi Musoga xudo tomonidan berilgan; 9) Musoning qonunlarini boshqa qonunlar bilan almashtirib bo‘lmaydi; 10) Koinot xudoning irodasi bilan boshqariladi; 11) yaxshilarga yaxshilik, yomonlarga jazo bor; 12) Isroilga haloskor keladi; 13) o‘lganning tirilishi haqiqat.

Maymond yozgan bu 13 ta aqida orqali iudaizmning yanada kuchaytirish, uning feodalizm manfaatlarini kuchliroq himo-yachisiga aylantirish, dinni shakkoklik va kufrlardan himoya qilish iudaizmni zamonaviy qilishga urinish edi. YAngi aqidalarda iudaizmning haloskorlik vazifasini kuchaytirish ham maqsad qilib olingan.

Bu aqidalarda YAhudiylarning o‘z milliy dinlarida mustahkam turishlariga da’vat qilish ham ko‘zda tutilgan edi.

5-aqida: Oxirat mavjudligiga ishonish.

Tavrot rivoyatlariga ko‘ra, xudo butun olam, undagi jonli va jonsiz narsalarni olti kunda yo‘qdan bor qilib yaratgan. Jumladan, xudo Adam va Eva (erkak va ayol) odamlarni ham loydan

yaratib o‘z ruhidan jon ato etgan, ular dastlab jannatda yashashgan. So‘ngra ular shaytonning gapiga kirib jannat tartibini buzishib, gunoh qilishgan, xudo ularni jannatdan haydab yuborgan. Dastlabki odamlar gunohkor bo‘lgani uchun ulardan tarqalgan bolalar ham tug‘ma gunohkor bo‘ladilar, cho‘qintirish marosimi o‘tkazilib boladagi tug‘ma gunoh yuvib yuboriladi, degan tasavvurlar iudaizmda keng tarqalgan, keyin bu tasavvurlar xristianlarga ham o‘tib qolgan.

Tavrotni «Qadimiy ahd» deyilishiga sabab esa quyidagi rivoyatda bayon etilgan. Go‘yoki er.av. XII asrda Sinay yarim orolidagi Sino tog‘ida yahudiy qabila boshliqlari bilan xudo YAxve o‘rtasida kelishuv ahdnomasi tuzilgan. Unga ko‘ra xudo yahudiylarni oliy irq va er yuzining hukmroni, Isroil mamlakatini esa Er yuzidagi jannat qilib yaratgan. Buning evaziga esa barcha yahudiylar YAxvega iymon keltirishlari, u yuborgan kitobga asosan payg‘ambar Musoga ummat bo‘lib yashashlari, buning belgisi sifatida sinagogalarda ibodat qilish, ravvinlarga hurmat ko‘rsatish, ularga xizmat qilish, o‘z hukmronlariga sadoqat ko‘rsatish majburiyatlari yuklangan. Bu ahdnoma 5 ta kitobda yozilgan, ya’ni Tora to‘plamida bayon qilingan. Bibliya (Injil)ning dastlabki 5 ta kitobidan iborat qismini «Qadimiy ahd» deyiladi.

Iudaizmda bir qator marosimlar mavjud, YAxve bandalari o‘z diniy ibodatxonlarini «studiya»lar deb ataydilar, ular, asosan, diniy adabiyot, pand-nasihatlarni o‘qib o‘rganadilar.

Iudaizmdagi rasm-rusumlarning tartiblari, ijozat va taqiqlar, grajdanlik, oilaviy, turmush, nikohga oid ko‘rsatmalar, asosan, Talmud to‘plamida bayon qilingan. Unda 600 dan ziyod toat-ibodat, urf-odatlar ko‘rsatilgan. Masalan, xatna qilish qoidasi, ro‘za tutish tartiblari, janoza, dafn qilish, marhumning xotirasiga bag‘ishlangan marosimlar, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdogarlik sohalaridagi udumlar va boshqa muhim hayotiy marosimlar xususidagi fikrlar bayon qilingan.

Masalan, ro‘za tutgan yahudiy tuxum, sut, go‘sht iste’mol qilmaydi. Azador kishi qora kiyadi. Azador erkaklar qirq kungacha soqollarini oldirmaydi. Zino yo‘liga kirgan ayol jazolanadi, hatto u diniy jamoadan haydaladi.

<u>IUDAIZM DINIDAGI IBRATLI MAROSIMLAR NAMUNALARI.</u>

Sadaqa berish odati to‘g‘risida Injildagi Matto bayon etgan muqaddas xushxabarda shunday deyilgan: «Ehtiyot bo‘linglar, savobli ishingizni odamlarga ko‘rsatish uchun hammaning ko‘z o‘ngida qilmanglar. Aks holda osmondagi Otangizdan mukofot ololmaysizlar».

SHunday qilib, sen birovga sadaqa bermoqchi bo‘lsang, o‘tgan-ketganga jar solma. Ikkiyuzlamachilargina odamlardan olqish olish uchun ibodatxonalarda va ko‘cha-ko‘yda shunday qiladilar. Sizlarga aytayin: bular o‘zlariga yarasha mukofotni olib bo‘ldilar. «Sen sadaqa berayotganingda, chap qo‘ling o‘ng qo‘ling nima qilayotganini bilmasin. YA’ni sening muruvvating yashirin bo‘lsin. SHunda yashirin bo‘lganlarni ko‘ruvchi otang seni aniq taqdirlaydi». (Qarang: Injil. Tavrot. Muso payg‘ambarning birinchi kitobi. Turkiya Muqaddas kitob jamiyati-1995 yil, 12-13-betlari).

Ibodat marosimi. «Sen esa ibodat qilayotganingda o‘z hujrangga kir va eshikni berkitib, yashirin bo‘lgan otangga ibodat qil. SHunda yashirin bo‘lganlarni ko‘ruvchi Otang seni taqdirlaydi. Sizlar esa bunday ibodat qilinglar:

«Ro‘za haqida. Ro‘za tutayotganingizda ikkiyuzlamichilar kabi qovok osiltirib yurmanglar. Ular ro‘za ekanlarini odam-larga bildirish uchun o‘zlarini avzoyi buzuq qilib ko‘rsata-dilar. Sizlarga chinini aytayin: ular o‘zlariga yarashasin olib bo‘ldilar. Lekin sen ro‘za tutganingda, o‘zingni yuvib-tarab yurgin, toki ro‘za tutganing insonlarga emas, balki yashirin bo‘lgan Otangga oshkor bo‘lsin. YAshirin bo‘lganlarni ko‘ruvchi Otang esa seni aniq taqdirlaydi.» (Qarang: Injil. 14-bet).

«Xudodan so‘rash odati: «So‘rab turing, sizga beriladi, izlab turing, topasizlar. Ta’kidlatib turing, sizga ochiladi.» (Qarang: Injil. 16-bet).

Nikoh va ajralish marosimi. «Tavrotda o‘qimagansizlar-mi? - dedi Iso. Parvardigor boshdanoq odamlarni erkak va ayol qilib yaratdi va dedi: «Er kishi ota-onasini qoldirib, o‘z xotiniga yopishib oladi va ikkovi bir tan bo‘ladi. SHunga ko‘ra ular endi ikki emas, balki bir tan hisoblanadilar. Xudo birga qo‘shganini bandasi ajratmasin. Bag‘ri tosh odamlar bo‘l-ganingiz uchun Muso sizlarga xotinlaringiz bilan ajralishga ijozat bergan. Lekin boshdan bunday emas edi. Men sizlarga shuni aytayin: kim bevafolikdan boshqa sabab tufayli xotindan ajralib, o‘zgaga uylansa, zino qilgan bo‘ladi. SHu-ningdek, eridan ajralgan xotinga uylangan ham zino qilgan bo‘ladi.» (Qarang Injil. 48-bet).

Xatna marosimi. «Xudo Ibrohim payg‘ambar bilan ahd tuzganda: «Senga va sendan keyingi avlodlarining quyidagi ahdga rioya qilishingizni buyuraman, orangizdagi har bir erkak xatna qilinsin. Sizlar a’zongiz uchidagi terini kestirib, sunnat bo‘linglar. Ana shu Men bilan sizlarning orangizdagi ahdning belgisi bo‘ladi». (Qarang: Injil. Tavrotdan. Ibtido. 643-bet).

Qurbonlik marosimi. «Xudo Ibrohimni sinab, unga: O‘zing sevadigan yagona o‘g‘ling Ishoqni olib Muriyo eriga ket. U erda Men senga aytadigan toqqa chiqib o‘g‘lingni qurbon qil,- dedi. Uch kun yurib, Ibrohim qurbonlik qilinadigan joyda o‘g‘li Ishoqni o‘tin ustiga yotqizdi va pichoq bilan so‘ymoqchi bo‘ldi. SHu payt osmondan farishta uchib kelib: Ey Ibrohim, o‘smirga qarshi qo‘l ko‘tarma, unga hech yomonlik qilma. Men endi bilaman, sen Xudodan qo‘rqasan, yakkayu yagona o‘g‘lingni ham Mendan ayamading, - dedi. Ibrohim bir orqasiga burilib qarasa, chakalakda shoxlari o‘ralib qolgan qo‘chqorni ko‘rdi. Ibrohim borib qo‘chqorni olib keldi va uni o‘g‘li o‘rniga so‘yib kuydirdi.» (Qarang: Injil. Tavrot, Ibtido. 633-634-betlardan).

O‘rta dengizning sharqiy qirg‘oqlariga joylashgan qadim-gi Iudeya va falastin davlatlari territoriyalarida arab va yahudiy qabilalari avlodlari istiqomat qilishadi.

Iudaizm avval yahudiy qabilalarining eng kuchlisi bo‘lgan Iuda qabilasining politeistik dini bo‘lgan. Iudaizm -qadimgi dinlardan bo‘lib, eramizdan oldingi XIII asrda yahudiylarning milliy dini sifatida vujudga keldi. Iudaizm o‘zining asosiy aqidalarini bevosita o‘sha davrda mavjud bo‘lgan totemizm, animizm, fetishizm, sehrgarlik va politeistik dinlarning qorishmasi sifatida, quldorlik davrining xususiy mulkchilik munosabatlariga asoslangan bazisi va yagona davlat hokimiyati, uning boshida turgan podshoning ilohiylashtirgan usqurtmaning in’ikosi o‘laroq ishlab chiqilgan dastlabki monoteistik din edi. Demak, iudaizmning paydo bo‘lishi va mustaqil monoteistik din sifatida maydonga chiqishi markazlashgan yahudiy davlatining tashkil topishi bilan uzviy bog‘liqir.

Hozirgi davrda YOsir Arofat boshchilik qilayotgan falastin Arab davlatining hududlarida chorvachilik bilan shug‘ullangan ko‘chmanchi yahudiy va arab qabilalari eramizdan avvalgi 2 mingginchi yillarda osmon jismlarini, ayrim hayvonlarni ilohiylashtirib ularga sajda qilganlar, arvohlarga ishonganlar.

Diniy adabiyotlarda va din peshvolari ta’limotida yahu-diylar oliy nasl-nasabli xalq, shuning uchun ularga oliy irq mumtoz xalq bo‘lishini xudoning o‘zi ato qilgan, deydilar. Bunday qarashni isbotlash uchun asrlar davomida jamiyatdagi sodir bo‘layotgan juda ko‘p ijtimoiy hodisalar bu dinga hech qanday ta’sir ko‘rsatmadi, u milliy dinligicha saqlanib qoldi, degan fikr ta’kidlanadi.

Aslida esa hamma narsa va hodisalar o‘zgarib turganidek, iudaizm ham o‘z mazmun va shakllarini o‘zgartirdi, zamonga moslashdi.

Iudaizm politeizmdan monoteizmga o‘tguncha bir qancha tarixiy jarayonni boshdan kechirdi. Bu din tarixi ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik tuzumiga o‘tguncha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Mana shu tarixiy davrda yahudiy qabilalari ko‘p xudoga e’tiqod qilganlar. Har bir qabila, urug‘ alohida xudoning nomi bilan bog‘langan. Moddiy olam hodisalarning har bir guruhi, hatto shaharlarning ham o‘z xudosi bo‘lgan. Masalan, Iudaizm dinining muqaddas kitobi Tavrot yozuvlarida: «Sening shaharlaring qancha bo‘lsa, xudolaring ham shunchadir», deyilgan. Iudaizmda YAhudiy millatining yo‘lboshchilari va payg‘ambarlari hisoblangan Iso (Iisus

Xristos), Navin, Ibrohim (Avraam), Muso (Moisey), Ishoq (Isaak), YOqub (Iakav), YUsuf (Iosif), Sulaymon, Dovud, Nuh(Noi) va boshqalarga politeistik dinlar hukmronlik qilgan davrlarda mahalliy qabilaviy xudolar sifatida e’tiqod qilingan. Masalan, Moisey (Muso) Iuda qabila-sining payg‘ambari, YAhve (Iegova) esa shu qabila xudosi edi.

Eramizdan avvalgi X asrda yahudiy qabilalari o‘rtasida sinfiy tabaqalanish ro‘y berishi va quldorlik munosabatlarining vujudga kelishi jarayonida mavjud qabilaviy dinlar asosida iudaizm shakllandi.

Falsafa ta’limotiga ko‘ra, er yuzida sodir bo‘ladigan vo-qea-hodisalar jamiyat hayotining o‘zgarishlari, ma’naviyatdagi barcha o‘zgarishlar tabiiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Din sohasidagi evolyusion o‘zgarishlar ham mana shu ob’ektiv dialektik tamoyilga bo‘ysinadi.

SHunga ko‘ra, yahudiy qabilalari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar taraqqiyoti bilan iudaizmda bo‘lgan o‘zgarishlar o‘zaro bog‘liq edi. Qabilalar ittifoqi yuz berishi natijasida qabilaviy xudolar o‘rniga bitta xudoga e’tiqod qilish ham shakllana boshlagan. Bunda past va yuqori darajada turadigan xudolar pillapoyasi paydo bo‘ladi. Falastindagi Ruvit, Simon, Levin va Iuda singari eng mashhur qabilalari obro‘si ko‘tarilgan. Bularning ichida Iuda qabilasi kuchli bo‘lib, bu qabilarni o‘ziga bo‘ysindirgach, uning YAxve xudosi ham barcha xudolardan yuqori turuvchi bosh xudo hisoblandi. Uni yakka-yu yagona xudo deb tan olindi. Bunga qadar politeizmda yaxve tog‘lar, chaqmoq, momaqaldiroq va suv xudosi hisoblanardi. Iudeya deb nom olgan quldorlik davlatining paydo bo‘lishi munosabati bilan YAxve ham Osmon va Er yuzini, barcha narsalar va hodislarni yaratgan, boshqarib turgan yagona xudo deb, tasavvur qilina boshlandi. SHu tariqa YAxvedan boshqa xudolarga e’tiqod qilishga barham berildi. YAxve sharafiga atab Quddus (Ierusalim) shahrida hashamatli ibodatxonasi Nogota qurilgan. YAhudiy milliy davlati iudaizmni rasmiy davlat dini deb qabul qildi. Iudaizm sinfiy va ijtimoiy jihatdan yahudiy millatining hukmronligini muqaddaslash-tirdi. Iudaizmda dindorlar tepasida ravvin deb ataladigan ruhoniy «ota»lar turadi. Iudaizm ibodatxonalari sinogo-galar deyiladi, bular islomdaga masjidlarga, xristianlik-dagi cherkovlarga to‘g‘ri keladi.

Iudaizmning kelib chiqish tarixi, aqidalari (ta’limotlari, falsafiy-nazariy asoslari), marosim, urf-odatlari, ahloqiy qarashlari, huquqiy va qonun tizimlari, undagi payg‘ambarlar, avliyolar to‘g‘risidagi ma’lumotlar, rivoyatlar, ibodat duolarining barchasi Tavrot kitobida (Tavrot - ilohiy qonun demakdir) bayon etilgan. Tavrot xudo YAxve tomonidan payg‘ambar Musoga osmondan vahiy qilingan muqaddas kitob hisoblanadi. Qur’onda Tavrotni ilohiyligi va muqaddas kitobligi aytilgan. Masalan, Qur’onning «Baqara» (Sigir) deb nomlangan ikkinchi surasining 53-oyatida: «Sizlar haq yo‘lini topishingiz uchun Musoga kitob va furqonni (ya’ni Tavrotni) berganimizni eslanglar», deyil-gan. «Baqara» oyatlarining qariyb uchdan bir qismini «ahli kitoblar» (Tavrot va Injilga iymon keltirganlar), xususan yahudiylar haqidagi ma’lumotlar tashkil qiladi». (Qarang:Qur’oni Karim. O‘zbekcha izohli  tarjima, Tarjima va izohlar muallifi Alouddin Mansur. «CHo‘lpon» nashriyoti».Toshkent.1992 yil, 6-7 betlar). Tavrotni «Qadimiy ahd» ham deyiladi.

Sionizm-Sion tog‘lari nomidan olingan. Qadim zamonda tuzilgan ahdnoma to‘g‘risidagi Tavrot rivoyatlari asosida ishlab chiqilgan iudaizm dinining zamonaviy ko‘rinishidir.

Sionizm paydo bo‘lgan vaqtdan boshlaboq iudaizmning yahudiy xalqi «xudoning arzandasi»dir, degan da’vosini bayroq qilib oldi. Sionizm o‘zaro bog‘langan ikkita maqsadni ishlab chiqib, shu maqsadlarni izchil amalga oshirib kelmoqda. Bu maqsadlar: 1) tarixiy sabablarga ko‘ra turli tomonlarga ketib o‘sha joylarda ko‘p asrlardan buyon yashyayotgan yahudiylarni o‘z yurtlariga, ya’ni ajdodlarining vataniga qaytarib kelish va Isroil davlatini Er yuzidagi jannat qilishga xizmat qildirishdir; 2) agar yahudiy millatiga mansub bo‘lsa-yu, ammo o‘zi yashab turgan avvalgi joyidan Isroilga ko‘chib kela olmasa, mayli o‘sha joyidan turib Isroil davlatini iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, harbiy jihatlardan qo‘llab-quvvatlashga o‘z hissasini qo‘shishga da’vat qilishdir.

SHunday qilib iudaizm va sionizm milliy dinlar tizimidagi eng yirik din bo‘lib, iudaizm dastlab kelib chiqqan monoteistik din edi. Iudaizm xristian, islom va boshqa dinlarga barakali ta’sir qiladi. Iudaizm kichik millat bo‘lgan YAhudiylarni ko‘p asrlar davomida millat sifatida saqlanib qolishiga, bu millatning madaniyatini saqlab qolishda katta xizmat qilib kelmoqda. Dinlar tarixida iudaizm o‘z o‘rniga egadir.

**TAYANCH IBORALAR:**

Nux, YAxve, iudizm, sionizm, tavrot, ro‘za.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Iudaizm qachon paydo bo‘ladi?
2. Muso ta’limoti qanday edi?
3. Talmud qanday kitob?

**ADABIYOTLAR:**


1. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
2. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
3. Kulokov A.E. Religii mira. M. 1996 ss 150-173.
4. YAxudiy Oy quyosh pamidori. M. 1990.
5. Beruniy A.R. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar.1-tom. T. 1969.


## MAVZU: JAHON DINLARI. BUDDAVIYLIK. (2 SOAT).

**Reja:**

1. **Jaxon dinlari xususiyatlari. Buddizmning vujudga kelishi.**
2. **Buddaviylik ta’limoti.**
3. **Buddaviylikdagi oqimlar.**

Din tarixidagi muhim davr jahon dinlari: buddizm, xristianlik va islomning paydo bo‘lishidir. Ular o‘tmishning milliy dinlaridan farqli o‘laroq millatlararo xususiyatga ega. Ibtiodiy totemizm, animizm, fetishizm, sehrgarlik va politeizm dinlari xalqlar tarixida keskin burilishlar qila olmaganlar. Ammo jahon dinlari xalqlar tarixida jiddiy tarixiy-ijtimoiy o‘zgarishlar qila olgan dinlar edi.

Feyerbaxning, insoniyat davrlari bir-biridan din sohasi-da ro‘y bergan o‘zgarishlar bilangina farq qiladi, degan da’-vosi butunlay noto‘g‘ri. Hozirgacha yashab kelayotgan jahonshumul uch din: buddizm, xristianlik va islom to‘g‘risida gap borgandagina ulug‘ tarixiy burilishlar din sohasidagi o‘zgarishlar bilan birgalikda yuz bergan deb baralla aytish mumkin. O‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan eski qabilaviy va milliy dinlar targ‘ibot harakteridagi dinlar emas edi va mazkur qabila yoki xalqning  mustaqilligi yo‘q qilingan paytdayoq bu dinlarning ham qarshilik ko‘rsatishga sira kuchi etmas edi. Faqat mana shu bir muncha sun’iy suratda paydo bo‘lgan dinlar xususida, ayniqsa xristianlik va islom xususida gapirganda, umumiy tarixiy harakatlar diniy tus oladi, deb aytish mumkin. Masalan, arablarning yagona davlati islom g‘oyasi asosidagina shakllandi.

SHunday qilib, jahon dinlarining kelib chiqishi turli xalqlar hayotida yuz bergan jiddiy tarixiy o‘zgarishlarga bog‘liq edi. Masalan, buddizm, eramizdan oldingi VI asrda SHimoliy Hindistonda tashkil topgan quldorlik davlatining g‘oyaviy mafkurasi sifatida paydo bo‘lgan edi. Jahon dinlarining ikkinchisi xristianlik esa eramizning I asri o‘rtalarida Rim imperiyasi inqirozining oldini olish, bu omonat imperiya xududlaridagi turli-tuman xalqlarni, qullarni

birlashtirish, ularning ozodlik harakatlarini bostirish orqali imperiyani saqlab qolishning mafkuraviy vositasi sifatida IV asr o‘rtalarida imperator Konstantin tomonidan davlat dini, deb e’lon qilingan.

Islom dini arablarning turli qabilalarini birlashtirib, markazlashgan arab davlatini barpo qilish ehtiyojining ma’naviy quroli sifatida vujuda keltirilgan.

Jahon dinlari vujudga kelishining tarixiy yo‘llari ikki yo‘nalishda bordi:

Birinchidan, avval biror millatning davlati olib borgan bosqinchilik (ko‘pincha bu urushlar din yo‘lidagi muqaddas jihod urushi deb hisoblangan) urushlarida bosib olingan xalqlarga majburan o‘sha dinni qabul qildirish orqali jahonga tarqalgan. Masalan, Islom dini Markaziy Osiyodagi ko‘pgina viloyatlarda VIII asr boshlarida arab xalifalari olib borgan bosqinchilik urushi vositasida mahalliy xalqlarga majburan qabul qildirilgan edi. Bu erda ham xalqlarni birlashtira oladigan yagona mafkuraga ehtiyoj sezilgan. SHu jarayon xristianlikning jahonga tarqalishida ham mavjud edi.

Ikkinchidan, jahon dinlari ayrim xalqlar messionerlar tashviqoti, shu dinning o‘sha xalqlarga ma’qul bo‘lganligi oqibatida ixtiyoriy ravishda qabul qilganligi uchun  shakllan-gan. Rossiya xalqlari 988-yilda Vizantiya davlatidan xris-tianlikni ixtiyoriy ravishda qabul qilgan. Boshqirdlar ham islomni ixtiyoriy qabul qilganlar. Hozirgi davrda YAponiyada islom dini ixtiyoriy tarqalmoqda.

Jahon dinlari o‘rta asrlarda - feodalizmda g‘oyat kuchayib, barcha ijtimoiy ong ustidan hukmron bo‘lib qolgan edi. Feodal davlatlari dinga juda katta huquqlar berib, juda ko‘p diniy tashkilotlar (masjid, cherkov, madrasa, diniy seminariyalar, monatirlar, qalandarlar, darveshlar uyushma-lari, diniy maktablar vujudga kelib, ommaning ongi, ruhiyati, turmushiga doim ta’sir qilardi. Barcha fuqarolik, mulkiy munosabatlar, adliya ishlari ham diniy ma’muriyat ixtiyorida edi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat apparati tizimidan o‘rin olgan edi.

Jahon dinlarining har biri o‘z hududlarida madaniyatga ijobiy, ayrim san’at turlariga esa salbiy ( masalan, fanga, islom esa haykaltoroshlik, jonli narsalarning rasmini olishga qarshi kurashdi) ta’sir qildi. Umuman dinning ma’naviy va moddiy madaniyatning ajralmas qismi bo‘lib qolishi jahon dinlari davrida yaqqol sezildi.

Jahon dinlari xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirdi, savdo ishlarini kuchaytirdi (masalan «Buyuk ipak yo‘li»), nisbatan tinchlik o‘rnatdi, o‘zaro urushlarni kamaytirdi, ko‘pgina xalqlarni birlashtirdi. Bu jahon dinlaridagi ijobiy xususiyatlardir.

Buddaviylik - eng qadimgi dinlardan biri. U eramizdan oldingi VI  asrda( ruhoniylar hisobida 544 yil - dinning afsonaviy asoschisi vafot etgan yil) shimoliy Hindistonda rivojlangan quldorlik jamiyati yuzaga kelib, yirik davlatlar tashkil topayotgan sharoitda vujudga keldi.

Buddaviylikka hozirgi davrda 700 mln. kishi e’tiqod qiladi. Buddaviylikning vatani Hindistondan uni boshqa dinlar, xususan hinduizm deyarli siqib chikargan. Hozirgi vaqtda buddaviylik Xitoy, Mongoliya, YAponiya, SHri-Lanka, Nepal, Birma, Kampuchiya, Tailand, Laos, V’etnam, Indoneziya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, Budda cheksiz qayta tug‘ilish natija-sida turli qiyofada - podachi, raqqosa, quruvchi, shoh, hatto xudo shaklida namoyon bo‘lgan. U shu oliy maqsadga erishish uchun obro‘li SHakya qabilasini tanlagan emish. Ana shundan bu diniy rivoyatda Budda - Gautama nomi keng tarqalgan.

Gautama haqida aniq ma’lumotlar yo‘q. Rivoyatlarga ko‘ra, u hind qabilasi hukmronlaridan birining o‘g‘li bo‘lgan va zurriyodsiz malika Mayya g‘oyibdan homilador bo‘lib, uni 45 yoshida tuqqan. Gautama tug‘ilishida mo‘‘jiza ro‘y bergan. Tabi-iy hodisalar - er qimirlashi, chaqmoq chaqishi, momaqaldiroq guldirashidan tashqari, chaqaloq tug‘ilgan zahoti etti qadam qo‘ygan va gapira boshlagan.

Gautamaning otasi Moni o‘g‘lini din yo‘liga bag‘ishlashga rozi bo‘lmay, unga yaxshi ma’lumot bergan hamda yaxshi sharoitlarda tarbiyalagan va u hech qanday qiyinchilik ko‘rmay o‘sgan, o‘zining donoligi, kuchliligi va epchilligi bilan hammani hayratga solgan. Vaqtlar kelib, u bir ko‘r cholga duch kelgan, kasal yotgan kishini, o‘likni ko‘rgandan so‘ng hayotininng mohiyati, maqsadi, og‘irliklari, kasallik va o‘lim haqida o‘ylay boshlagan. Binobarin, hayotning behudaligini anglab, tarki dunyo qilgan, darvesh yo‘liga kirgan, bu bilan u go‘yo kishilar boshiga tushadigan kulfatlar, azob-uqubatlar sabablarini mohiyatiga tezroq etib, ulardan qutilish yo‘lini topmoqchi bo‘lgan. Nihoyat 35 yoshida «haqiqiy ilohiy bilim»ni topganligini e’lon qilgan. SHundan so‘ng u Budda deb nom olgan («budda» so‘zi ilohiy haqiqatga erishgan, degan ma’noni anglatadi). Gautamaga shu tariqa 4 ta ilohiy haqiqat siri ochilgan, ular buddizm ta’limotiga asos qilib olingan.

Gautama haqida to‘qilgan rivoyatlar, birinchidan, bu dinni kishilar o‘rtasida keng yoyishga, obro‘sini ko‘tarishga xizmat qilgan bo‘lsa, ikkinchidan, buddizmning g‘ayritabiiy kelib chiqishini «asoslash» bilan eziluvchi ommani azob-uqubatlardan qutqarishga diniy izoh berishdir.

Har qanday dinlar kabi buddizmning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlardan qidirish lozim.

Qadimiy Hindistonda buddaviylik shakllangunga qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. Kishilar oliy, o‘rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga - braxmanlar, harbiylar, o‘rta tabaqalarga - hunarmandlar, savdogarlar, dehqonlar, eng quyi tabaqaga esa qora xalq, xizmatkorlar kiritilardi. Quyi tabaqa kishilarining hayoti nihoyatda og‘ir edi. Ular ijtimoiy tenglik u yoqda tursin, diniy tenglikka ham erishish huquqiga ega emas edilar. Bu xol katta noro-zilikka sabab bo‘ldi. Bundan tashqari, jamiyatni kastalarga, oliy va past toifalarga ajratish mavjud bo‘lib, braxmanizm dini kastachilikning himoyachisi va g‘oyaviy quroli edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida braxmanizm mazhab-laridan bir sifatida paydo bo‘ldi. U braxmanizmning jon-ning ko‘chib yurishi, jannat va do‘zax haqidagi aqidalarni saqlab qoldi. Braxmanizmning jamiyatni kastalarga bo‘lini-shi to‘g‘risidagi ta’limotiga qarshi chiqib, barcha kishilar din sohasida teng huquqli deb e’tirof kildi. Buddaviylikning diniy tenglik haqidagi g‘oyasi odamlarning kastalarga bo‘linib ketishiga qarshi kurashda ijobiy rol o‘ynadi. Biroq buddaviylik bu kurashga diniy-mistik tus berib, kishilar «azob-uqubat chekishda va undan xalos bo‘lishda» ham tengdirlar, deb hisoblaydi. Bu holat diniy hissiyotlarni singdirishga xizmat qildi.

Buddaviylik diniy ta’limotining asosiy manbai tripitaka (lug‘aviy ma’nosi « uch savat») deb nom olgan diniy yozuvlarda aks etgan. Diniy ta’limotda Budda uchta savatda ta’limot qoldirgan, deb tasavvur etiladi. Birinchi savat -Vinaya-Pitaka deyiladi va u budda rohiblik jamoasini tashkil etish tartib-qoidalari, pand-nasihatlar, ahloq normalari bayonidir; ikkinchi savat - Sutta-Pitaka deyilib, unda duolar, dostonlar, afsonalar bayon etilgan; uchinchi savat - Atxidamme-Pitaka bo‘lib, diniy falsafiy-ahloqiy g‘oyalar bayonidan iborat. Buddaviylik, hamma narsaning asosida bilib bo‘lmaydigan ruh yotadi, deydi. Dunyo real mavjud emas, u faqat kishilarning xayolida, bilib bo‘lmaydigan ruhning namo-yon bo‘lishida, deb ta’lim beradi. Buddaviylikdagi Nirvana ta’limoti «muqaddas haqiqat» deb ataladi. Unga ko‘ra: 1) hayot va turmush azob-uqubatlarining sababi - kishilarning istaklari va nafslarida; 2) azob-uqubatdan qutulish uchun kishilar o‘zlarining istak va nafslarini tiyishlari, Budda kashf etgan aqidalarga amal qilishlari zarur. Buddaviylik azob-uqubat tushunchasini mutlaqlashtiradi, borliqning barcha ko‘rinishlarini, uning mohiyatini, har qanday hayot tarzini azob-uqubat deb hisoblaydi. SHuning uchun ham buddaviylik Nirvanani borliqning intihosi, deb ham tushunadi.

Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra, jonli mavjudotlarning o‘lishi uni tashkil etgan dharma (element, zarracha)larning ajralib ketish jarayonidir. Bu dharmalarning yangidan birikishi ilgari qilingan «savob va gunoh»lar bilan bog‘liq deyilgan. Dharma Nirvana darajasiga etgandagina qayta tug‘ilishlarga barham berilib, azob-uqubatdan butunlay xalos bo‘ladi.

3) Buddaviylik ta’limotiga ko‘ra azob-uqubatlardan xalos bo‘lishning eng maqbul yo‘li rohiblik (zohidlik) jamiyatiga (sangxa) o‘tish hisoblanadi. Odam joni-ruhi gunohdan tozalangach, mutlaq sokinlik olami bo‘lgan Nirvanaga dohil bo‘ladi.

4) Rohiblik boshqa dinlarga qaraganda buddaviylikda avvalroq vujudga kelgan bo‘lib, hozirgi kunda buddaviylik mazhablaridan bo‘lmish Xinayana tarqalgan mamlakatlar xalqlarining ijtimoiy hayotida muhim rol o‘ynamoqda.

Rohiblar buddaviylikka e’tiqod qiluvchilar orasida juda katta obro‘ va hurmatga sazovor bo‘lib, ularga itoat etish va aytganini bajarish zarur, deb hisoblanadi. Buddizmda bir nechta mazhablar paydo bo‘ldi. Bulardan eng yirigi 1 asrda ajralgan Hinoyana («Kichik arava» - tor yo‘l ma’nosida) SHri-Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarkalgan. Mahayana («Katta arava» - keng yo‘l ma’nosida) Tibet, YAponiya, Mo‘g‘uliston hamda Oltoy va Uzoq SHarqda yashovchi ba’zi xalqlar o‘rtasida keng tarqalgan. Buddaviylik Tibet va Mo‘g‘ulistonda ham tarqalgan bo‘lib, u lamaizm degan nom bilan yuritiladi. Buddaviylikning bu mazhabi mahalliy xalqlar o‘rtasida qadimdan mavjud bo‘lgan diniy tasavvur va urf-odatlarni o‘zlashtirgan. Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaviylikning yana qaytib kelishi va er yuzida adolatli hokimiyat o‘rnatishi to‘g‘risidagi bashoratga keng o‘rin berilgan. Lamaizmni ko‘chmanchi xalq hayotiga moslashlashtirishga urinish mavjud. Undagi ibodat qilish tartibi ham ancha soddalashtirilgan.

Buddaviylik ta’limotida olam uch bosqichli deb ta’riflanadi. Birinchi olam eng yuqori olam bo‘lib, unda mutlaqo osoyishtalik hukmron. Unda faqat sof ruhgina mavjud deyiladi. Bu olam ruhning makonidir. Buddaviylikning ta’lim berishicha, ilohiy ruhni mutlaqo bilib bo‘lmaydi. Birinchi olamda ruh materiyadan tashkarida, u harakatsiz osuda yashaydi. Ikkinchi olam, rivoyatlarga ko‘ra, ruhiy mavjudotlar bilan to‘la jannat bo‘lib uni bodisatva deyiladi. Bu olamning hokimi Amitabadir. Amitaba olamida ruh gunohidan xalos bo‘lgan, lekin eng oliy olamga, ya’ni nirvanaga - mutlaqo bo‘shliq va osoyishtalik olamiga ko‘tarilmagan avliyolar yashaydi. Buddalar kishilarga budda ta’limotini o‘rganish, yaxshi yo‘ldan boshlab borish uchun erga yuborilar ekan. Uchinchi olam eng quyi olam bo‘lib, unda odamlar va hayvonlar yashaydi. Bu olamdagi ruh qafasda yashaydi. U materiyaning changalida turadi va ozod bo‘lish hamda yuqori olamga ko‘tarilishga harakat qiladi. Ruhning yuqori olamga ko‘tarilishi odamlar qiladigan savobli ishlarga bog‘liq. Agar odam budda ta’limotiga e’tiqod qilsa, yaxshilikka intilsa, uning joni qayta tug‘ilishlardan so‘ng jannatga va undan nirvanaga ko‘tariladi. YOmonlikka mansub gunohkor kishilarning ruhi esa quyi dunyoda azoblanib, kafan ichida yuraveradi, yuqori olamga hech qachon ko‘tarila olmaydi. Agar insonning budda ta’limotiga zid ishlari ko‘payib ketsa, xirs yoki tovlamachilikka berilib, undan qutila olmasa, bunday odamning ruhi bir necha qayta tug‘ilishlardan keyin er ostidagi do‘zaxga tushadi va unda abadiy azoblanadi. Buddaviylikda qayta tug‘ilish deganda yangidan paydo bo‘lish tushunilmaydi, balki ilgari o‘lgan odamlarning jismidan tarqalgan dharmalarning yangi asosda birlashib, kelajak avlodga o‘tishi tushuniladi. SHuning uchun, budda dini inson kelajak avlodi uchun ham javobgar deb hisoblaydi.

Agar odam yaxshi bo‘lsa, budda ta’limotiga to‘liq rioya qilsa, boy va e’tiborli bo‘lsa uning dharmalari asosida qayta tug‘ilgan odam ham boy va badavlat, sofdil bo‘ladi. Aksincha, odam yomon kamabag‘al, qashshoq bo‘lsa, budda ta’limotiga rioya qilmasa, uning dharmalaridan paydo bo‘lgan odam ham kambag‘al, qashshoq bo‘ladi. Buning sababi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir. Buddaviylik o‘zining bu ta’limoti bilan jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va jabr-zulmning tub mohiyatini ilohiy taqdir bilan izohlaydi.

Hindistonda quldorlik barham topishi bilan buddaviylik braxmanizmga tobora yaqinlashib bordi, keyinchalik hinduizmga qo‘shilib ketdi. XI-XII asrlarda buddaviylik Hindistonda o‘z ta’sirini deyarli yo‘qotdi.

Markaziy Osiyo va SHarqiy Turkistonda buddaviylikning yopilishi Kushonlar saltanati ravnaq topgan davrlar (er.av.II asr. yangi er. I asrlari) bilan bog‘liq. U hozirgi Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Pokiston, SHimoliy Hindiston va Sinszyan hududlarini o‘z ichiga oladi. Kushonlar

davrida buddaviylik Hindistondan Markaziyo Osiyoga, bu erdan esa «Buyuk ipak yo‘li» orqali Uzoq SHarqqa yoyilgan. Buddaviylikni Hind savdogarlari, sayyohlari, missionerlari dunyoga tarqatganlar.

Markaziy Osiyo xalqlari buddaviylikni qabul kilib, budda diniga oid yodgorlik inshootlar, ibodatxonalar, monastirlar kabi o‘ziga xos imoratlar bunyod qilganlar. Masalan, Tohiriylar davlatining poytaxti Balx shahrida budda diniga oid yuzga yaqin monastir bo‘lib, ularning uch mingta monaxi bo‘lgan, ko‘pchilik aholi esa buddaga ibodat qilgan. Markaziyo Osiyoda buddaviylikdan tashqari o‘sha davrlarda yana zardo‘shtiy dini ham mavjud edi. Budda diniga oid ibodatxonalar Farg‘onada, Samarqand yaqinida, Pop tumanidagi CHodak qishlog‘ida, Qirg‘iziston va Turkmaniston-ning janubiy tumanlarida topilgan. SHunday qilib buddaviylik o‘lkamizga eramizning boshlarida kirib keldi.

Lamoizm (tibet tilida «lama»-oliy samoviy, degan ma’noga ega bo‘lib, zohidlarni shunday deb ataladi) VII-XIV asrlarda tarkib topgan.

Tibetda buddaviylikning Mahayana yo‘nalishidagi oqimi bo‘lib, u erda hukmron din bo‘lib kelgan. XVI asrning oxirlaridan boshlab lamaizm Mo‘g‘ulistonda, XVIII asrning boshidan esa Buryatistonda keng tarqalgan. 1741 yilda barcha lamalar Rossiyaga sodiq fuqaro bo‘lib qolishga qasam ichadilar va o‘z diniy ta’limotini targ‘ib qilishga rasmiy ijozat oladilar. Dastlabki lamalar XVII asr o‘rtalarida Jungoriyadan Rossiyaga ko‘chib kelgan qalmiq qabilalar bilan birga kelganlar va Rossiya fuqaroligini qabul qilganlar. Qalmig‘iston, Buryatiston ruhoniylaridan Tuva ruhoniylari -lamalari VII asrlaridayoq payd bo‘lganligi bilan farq qiladi. Biroq tuvaliklar lamaizmni ularning azaliy dini bo‘lgan shomonizm bilan qismangina qo‘shishgan xolos. Lamaizm ta’limotida 7 ta asosiy aqida bor.

Birinchi aqida: burxonlar to‘g‘risidagi ta’limot. Lamaistlarning xudolari va surati burxonlar atamasi bila ataladi.

Ikkinchi aqida: «muqaddas kitoblar» to‘g‘risidagi ta’li-mot. Lamachilar ikkita to‘plam kitobni «muqaddas» bilib e’zozlaydilar. Ularning birinchisi Ganjur (tibetcha-vahiy-lar) 108 jildli va ikkinchisi Danjur (tibetcha-sharhlar) 225 jildli. XIV asrda tibet tilida yozilgan bu matnlar Tripitakadan qilingan tarjimalarni ham, lamachi ruhoniylar yaratgan asarlarni ham o‘z ichiga oladi.

Uchinchi aqida - eng mayda, g‘ayritabiiy o‘lmas zarralar bo‘lmish draxmalarning birikishidan iborat jon to‘g‘risidagi ta’limot. Dharmalar tanalarni vujudga keltiradi, tana o‘ladi, ammo jon o‘lmaydi.

To‘rtinchi aqida - dunyoning manzarasi to‘g‘risidagi, narigi dunyodagi hayot to‘g‘risidagi ta’limotdir. Lamaizm ta’limotiga ko‘ra, narigi dunyo ikki bosqichga bo‘linadi: sansara - kishi joni o‘zgarib turadigan cheksiz zanjir. Nirvana - bunda ayniqsa, taqvodor joni orom topadi.

Beshinchi aqida - dindorlar bilan burxonlar o‘rtasidagi zarur vositachi sifatidagi lolalar to‘g‘risidagi ta’limot. Bularning ko‘plari jonli xudolar yoki xubliganlar - boshqacha shakldа gavdalanuvchilar deb qaraladi.

Oltinchi aqida - muqaddas urush to‘g‘risida bo‘lib, bu urush oqibatida buddist bo‘lmagan kishilarning hammasi yo‘q qilinishi kerak.

Ettinchi aqida - azob chekish to‘g‘risidagi aqida, Lamaizm ham buddizm kabi Erdagi hayotni azob chekish deb hisoblaydi. Uning sabablarini esa aslo yo‘q qilib bo‘lmaydi, deb ta’kidlaydi. Lamaistlar faoliyatini amalga oshiradigan markazlar datsanlar bo‘lib, ularda lamalar har kuni ibodat qiladilar.

Oddiy lamaistlar o‘z uylarida ibodat qilishlari ham katta ahamiyatga ega.

Lamaistlar ibodatlarni oddiy shaklga kiritish uchun harakat qiladilar. Masalan, Mo‘g‘ulistonda, Buryatiyada, maxsus dindorlar avlodlari xotirasini eslash marosimida pul to‘lab turli raqamli

sharlar yoki pattalarni shu qurilmaga tashlaydilar, aylanib chiqqan o‘sha patta yoki sharni olib, uni qo‘llariga, peshonalariga tekkizib lamaga qaytib bersalar niyatlari ijobat bo‘lgan hisoblanadi.

Buddaviylik va Lamaizmda buddaga sig‘inish, vaz’xonlik eshitish, Gautamaning tug‘ilishi, nurga to‘lishi, targ‘iboti va o‘limi bilan bog‘liq bo‘lgan «muqaddas» joylarni ziyorat qilish, buddizm obidalari saqlanadigan ibodatxonalarning ustunlariga sig‘inish asosiy marosimlar hisoblanadi.

Hozirgi paytda Birmada 17-asrda qurilgan ibodatxona va 6 metrli oltindan yasalgan budda haykali bulib, butun dunyo buddistlari shu ibodatxonaga hajga boradilar.

Buddaviylik ta’limotini tartibga solish maqsadida 1971 yilda Birmada buddistlarning maxsus ibodatxonasida Tripi-takaning turli tarjimalari va Variantlarini taqqoslash natijasida yagona matn ishlab chiqildi. YAngi matn mazmuni 729 marmar plitaga tushirildi. Bu yozuvlar saqlangan ibodatxona butun dunyo buddistlarining muqaddas va ziyoratgoh joyiga aylantirildi. Buddizm ruhoniylari halqaro miqyosda buddizm mavqeini kuchaytirishga harakat qilmoqdalar. SHu maqsadda buddizmning turli tashkilotlarini birlashtirmoqdalar, buddistlarning halqaro konferensiyalari, s’ezdlarini o‘tkazmoqdalar.

Buddaviylikning bir necha halqaro tashkilotlari mav-jud, shulardan eng yirigi 1950 yilda tashkil topgan, jahon buddistlari qardoshlaridir.

Buddaviylik Xristian va Islom dinlariga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Xususan, oxirat to‘g‘risidagi, qayta tirilish, ruh va jonning o‘lmasligi, hayvonlarni azoblash gunohligi, qon to‘kmaslik kabi ta’limotlar buddaviylikdan keyingi dinlarga o‘tgan.

**TAYANCH IBORALAR:**

Monoestik din, budda, maxana, Nirvana, Lama, Ashoka, Meditatsiya Tripitaka.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Tripitaka qanday kitob?
2. Buddaviylik qaerda paydo bo‘ldi?
3. Buddaviylik e’tiqodi qanday?

**ADABIYOTLAR:**

1. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
2. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
3. Kulokov A.E. Religii mira. M. 1996
4. Mifы narodov mira V2-Xtomax. M. 1973.

**MAVZU: XRISTIANLIK. (2 soat).**

**Reja:**

1. **Xristianlikning vujudga kelishi.**
2. **Xristianlikning ta’limoti. Injil.**
3. **Xristianlikdagi oqimlar: vujudga kelishi, o‘ziga xosligi.**

Jahon dinlaridan biri Xristianlik bo‘lib, bu dinning nomi Iiusis Xristos, bola xudo - payg‘ambar nomidan olingan. Dunyodagi barcha xristianlar Iiusis Xristos (Iso)ning ummatlari hisoblanadilar.

Hozirgi davrda xristianlik eng keng tarqalgan din bo‘lib, Amerika, Avstraliya, Evropa, Osiyo qit’alarida va boshqa joylarda 2 milliard xristianlar mavjud. Bu din monoteistik va jahon dinidir. Xristianlar dunyoning 254 mamlakatida yashaydilar.

Xristianlik yangi eraning 1 asri o‘rtalarida Rim imperiyasining SHarqiy viloyatlardagi Iudeya (hozirgi Isroil), kichik Osiyo (hozirgi Turkiya) va Falastin hududlarida yashaydigan mazlum xalqlar va qullar orasida iudaizmning firqasi sifatida paydo bo‘lib, so‘ngra undan ajralib chiqdi va yangi dinga aylandi.

Xristianlik tarixi yaxshi tadqiq etilgan. Jumladan, Injilda, Ioan Bogoslovning «Vahiynoma» asarida, B.Spi-nozaning «Ilohiyot va siyosatga oid risola»sida, L.Feyerbax-ning «Xristianlikning mohiyati» asarida va boshqa manbalarda xristianlikning kelib chikish tarixi, uning aqidaviy ta’limoti, marosimlari, ahloqiy va huquqiy qarashlari, rivoyatlar bayon etilgan.

Xristianlik 325 yilda Rim imperiyasida rasmiy mafkura va davlat dini deb rasmiy ravishda e’lon qilingan edi. Xristianlik rasman tan olingan davrdagi tarixiy shart-sharoit quyidagicha edi:

1. Rim quldorlik davlatining qullarga va bosib olingan mazlum xalqlarga nisbatan qattiq jabr-zulm qilishiga qarshi olib borilgan ozodlik urushlari va qo‘zg‘olonlar birin-ketin mag‘lubiyatga uchrab, ulardan shafqatsiz o‘ch olinib jazolashlar oqibatida umumiy ruhiy-ma’naviy inqiroz paydo bo‘lgan. Qullar sinfidan bo‘lgan Spartak etakchiligida eramizdan avvalgi 73-71 yillarda Rimdagi qo‘zg‘olon bostirilgach, 6 ming qul Rimga olib boradigan yo‘llar chetiga qurilgan xochlarga mixlab tashlangan. SHun-dan keyin qullar bilan mazlum xalqlar tez orada samoviy haloskor - payg‘ambar Iso kelib bizni ozod qiladi, sabr-toqat qilish, ibodat bilan shug‘ullanish kerak, deb yangi dinga umid bog‘ladilar. O‘sha fojea oqibatida umumiy umidsizlik avj olgan. Spartakning mag‘lubiyati, - degan edi tarixchi SHarl Enten, - Isoning g‘alabasi edi.
2. Qachonlardir shon-shuhratga, kuch-qudratga to‘lib-toshgan Rim quldorlik davlati eramizning I-III asrlariga kelib inqirozga yuz tutdi. Qulchilik o‘rniga feodal tartiblar o‘rnatila boshlandi. Quldorlar va boshqa yuqori tabaqalar orasida ijtimoiy aynish kuchayib, ma’naviy buzilish, ayshuishratga berilish o‘sib bordi.
3. Rim davlati hududlarida yashayotgan turli urug‘lar, qabilalar, elat va xalqlar o‘z xudolariga, payg‘ambarlariga, urf-odatlariga sig‘inar edilar. G‘oyaviy-mafkuraviy birlik bo‘lmaganligi ham Rim qudorlariga xalq ustidan siyosiy va g‘oyaviy hukmronlik qilishni tobora qiyinlashtirardi. Rim davlati uchun yagona xudo, yagona payg‘ambar, yagona din asosidagi mafkura zarur edi. Bu ahvol shakllanib kelayotgan xristianlik jamoalariga erkinlik berish, ularda klirlarning rahbarlikni qo‘lga olishi, ana shu maksadni ifodalaydigan aqidalar ishlab chiqishga olib keldi.

Xuddi ana shu uchta tarixiy sababga ko‘ra xristianlik nisbatan tezroq shakllanib bordi, u ko‘pchilik orasida keng tarqaldi, yuqori va quyi katlamdagi kishilar orasida e’tiqod, iymonga aylandi. YAngi din yuqori tabaqa uchun mazlumlar ustidan hokim bo‘lish yo‘llarini ochib berdi, xalqni esa tinchlantirdi.

Xristianlik o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan. Uning falsafiy-mistik nazariy asosini yahudiy faylasufi, Aleksandriyalik Filonning falsafiy ta’limoti, Rim stoiklaridan Seneka-ning falsafasi tashkil qiladi. Xristianlik bevosita yahudiy milliy dinning ko‘p xususiyatlarini meros qilib oldi. Unda qadimgi SHarq dinlarining ko‘pdan-ko‘p unsurlari qayta ishlangan hamda o‘zlashtirilgan. Masalan, qadimgi Hindiston-ning hinduizm dinidagi uch qiyofa bilan namoyon bo‘ladigan xudolar: Braxman, Vishnu, SHiva xristianlikdagi uch qiyofali yagona xudo (ota xudo, muqaddas ruh, bola xudo) shaklida tasavvur etilgan. Xristianlik ibodatlarida sham yoqish otashparastlardagi olovga sig‘inish, avlodlar ruhi-arvohiga jin chiroq yoqish odati; totemizm dinidagi totem hisoblangan hayvonlar go‘shtini iste’mol qilish va u bilan qon va tana orqali yanada yaqinlashish rasm-rusumi; fetishizmdagi ayrim predmet va narsalarni ilohiylashtirish esa xristianlikdagi butparastlikda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Xususan, faylasuf olimlar Seneka bilan filonlarning falsafiy-ahloqiy qarashlarining xristianlik mafkurasini ishlab chiqishga ko‘rsatgan ta’siriga alohida to‘xtalib o‘tish kerak.

Seneka (er.av. 4 yilda tug‘ilgan va yangi eraning 65 yilida vafot etgan) o‘z falsafasida moddiy boyliklar to‘plash, noz-ne’matlarni iste’mol qilish kabilarni bu dunyoning behuda ovoragarchiliklari deb e’lon qilib, ulardan voz kechishni targ‘ib kiladi. U bu talabni jonni qutqarib qolish yo‘lidagi birinchi qadam deb bildi. Dunyo, Senekaning fikricha, insoniyatni kelayotgan halokatdan qutqarib qolishga qudrati bo‘lgan ilohiy hokimga muhtojdir. Filon (eramizdan avvalgi 1 asrning oxiri, yangi eraning birinchi yarmida yashagan) grek-rim falsafasini yahudiy dini bilan qo‘shishga urinib, xudo bilan odamlar o‘rtasida turuvchi ilohiy vositachi borligi haqidagi ta’limotni ishlab chiqqan edi. Bu vositachi «Kaloni xudo» bo‘lib, u kishilarni to‘g‘ri yo‘lga solib yuborish va ularni hammadan qudratli xudo bilan tanishtirish uchun tangrining erga yuborgan farzandidir.

Xristianlik evangeliyalarini (hadislarini, xushxabar-larini) yozgan avliyolar Seneka va Filonning bu g‘oyalaridan foydalanganlar. XIX asrda Germaniyada yashagan dinshunos olim B.Bauer umrining oxirigacha mana shu masala bilan shug‘ullanib keldi. U o‘z tadqiqotlariga yakun yasab, quyidagi xulosaga keldi: «Yil hisobimizning 40-yilida yashagan Iskandariyalik yahudiy Filon juda ham qarib qolgan chog‘ida Xristianlikning haqiqiy otasi bo‘ldi, rimlik Stoik Seneka esa, xristianlikning amakisi bo‘ldi».

Stoiklar falsafasi qadimgi Gretsiyada eramizdan avvalgi IV asrdan yangi eraning IV asrigacha davom etgan. Rim imperiyasi davrida stoiklar falsafasi diniy falsafaga aylandi. Stoiklar ahloq masalalariga ko‘proq e’tibor berib, uni taqdirga ishonish ruhida talqin etdilar. Ular jonning tanadan tashqarida yashashini, insonning taqdiriga tan berishini, zohidlik kabilarni himoya qilib chiqdilar. Stoiklar ta’limoti xristian dinining ahloqini shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Mana shu ikki faylasuf, ya’ni Seneka bilan Filon ta’limotlari asosida shakllangan dastlabki Xristianlik aqidalarida odam tug‘ma gunohkor ekanligi; hayvonlarni qurbonlik qilish yo‘li bilan emas, balki o‘z qalbini xudoga qurbon qilish yo‘li bilan tavba qilish; dunyoviy rohatlarning hammasiga nafrat bilan qarab, nafsni tiyish; u dunyodagi yaxshi turmushga umid qilish; odam o‘ldirmaslik, yaqin kishilariga yaxshilik qilish g‘oyalari shakllangan edi.

Xristianlikning xalq orasida tez tarqalishiga Rim davlatining qo‘l ostida bo‘lgan sharq mazlum xalqlarining diniy ruhiyatiga mos bo‘lgan qadimgi SHarq dinlaridan foydalanganlik ham tas’ir qildi. Masalan, Misrning qadimgi Xudosi Oziris o‘lib-tirilish ramzi bo‘lgan dehqonchilik xudosi edi. SHu sababga ko‘ra, Misrda xristianlik tarqalganda xochga tortilib o‘lgan, so‘ngra qayta tirilgan Iso haqidagi aqidaga Misr xalqi tezgina ishondi. Rivoyatga ko‘ra, Oziris o‘z akasi-yovuzlik xudosi Sed bilan bo‘lgan urushda halok bo‘ladi. Ozirisning xotini Izida Ozirisdan homilador bo‘lgan holda vafot qiladi. Ammo narigi dunyoda Izida qayta tirilib o‘g‘il tug‘adi, unga Gor deb ism qo‘yadi va o‘z o‘g‘li bilan yana bu dunyoga qaytib keladi. Gor urushib Sedni engadi va Ozirisni tiriltiradi. U butun dunyoda adolatning qozisiga aylanadi. Xuddi shunga o‘xshab Iso ham qayta tirilib, osmonga chiqib ketgan va u yana Er yuziga qaytib kelib ming yillik adolat o‘rnatadi, degan aqida xristianlar orasida targ‘ib qilinadi.

Zardo‘shtiylikdagi yorug‘lik, yaxshilik va hayot xudosi Axuramuzdaning yovuzlik, zulmat va yomonlik xudosi Axrimon ustidan g‘alaba qilishi; Eronliklarning yorug‘lik xudosi Mitraning obrazi ham Rim hududlarida keng tarqalgan bo‘lib, bu g‘oya hatto dastlabki davrlarda xristianlikning jiddiy raqibi bo‘lgan.

Bibi Maryamning Isoga g‘oyibdan homilador bo‘lishi haqidagi ta’limoti ham sharqiy dinlar ta’sirida paydo bo‘lgan. Masalan, Budda, Suriya podshosi Sargos, Misr xudosi Gor va boshqalar g‘oyibona homila natijasida tug‘ilganliklari haqidagi rivoyatlar ta’sirida Bibi Maryamda g‘oyibona homila paydo bo‘lib keyin Iiusis Xristos (Iso) tug‘ilgan, degan tasavvur vujudga kelganligiga hech shubha qilinmasa ham bo‘ladi.

SHunday qilib, xristianlik qurama din bo‘lsa ham, unda o‘ziga xos bo‘lgan ko‘pgina xususiyatlar ham mavjud. YAngi belgi va xususiyatlar o‘sha davrdagi boshqa dinlardan xristianlikni yuqori turishiga olib kelgan. Xristianlikning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

Birinchidan, xristianlik Rim imperiyasi hududlarida mavjud bo‘lgan diniy-etnik tafovutlarni bartaraf qilgan; Ikkinchidan, xristianlik diniy rasm-rusumlarni va hokimlik pillapoyalarini yo‘q qilganligi sababli bu dinni qullar, ozod qilingan sobiq qullar, zamindor kolonlar, shahar va qishloq kambag‘allari yoqtirib qolganlar. Ular xudo va din oldida yuqori tabaqalar bilan teng bo‘lganliklaridan xursand edilar; Uchinchidan, xristianlik dastlabki ta’limotlarida odamlarning irqiy, milliy, jinsiy, ijtimoiy, tabaqaviy tomonlardan huquqiy tengsizlik asosida ajratishi qattiq tanqid qilinib, demokratik ruhga ega bo‘lgan, u «zahmatkash-larni» qutqarishga va’da berganligi uchun, xristian ruhoniylari bu dinni eng insonparvar din, deb keng targ‘ib qiladilar. Odatda, Xristian dini Iso inqilobi bo‘ldi, deb tashviqot etiladi.

Ma’lumki, jamiyat tarixida hamma ijtimoiy davrlarda ham ko‘pchilik kishilar kambag‘al, qashshoq, madaniyatda va bilimda ancha orqada qoladilar va aksincha, ozchilikni tashkil etadigan boy-badavlat, madaniyatli va bilimli kishilar mavjud bo‘ladi. Xristianlik garchi «xristian madaniyati»ni rivojlantirgan bo‘lsada, u dunyoviy mazmundagi antik madaniyatga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ldi, cherkovning mistik madaniyati ruhida odamlarga estetik tarbiya beradi.

Xristianlik yashirin jamoalariga yuqori tabaqa vakillari ham kirgandan keyin ular bu jamoalarda rahbarlikni qo‘lga oldilar. Ularda klirlar, ya’ni episkop, pop, d’yakon, prasviter - ruhoniy otaxonlar ta’siri kuchayib bordi. Dastlabki davrlarda Xristian jamoalarida, asosan, kambag‘al kishilar, xususan, qullar ko‘pchilikni tashkil etgan. Klirlar rahbarligida o‘rmonlarda, tashlandiq vayronalarda, ayrim xonadonlarda yashirin o‘tkaziladigan yig‘ilishlarda g‘oyibdan samoviy haloskor payg‘ambarning kelayotgani to‘g‘ri-sida suhbatlashganlar, muqaddas kitoblarni o‘qib muhokama qilib, izohlash, ehsoniy ovqatlanish marosimlari, ya’ni kechki paytdagi birgalikda ovqatlanishlar o‘tkazib kelingan. Lekin u vaqtlarda mol-mulkni to‘la umumlashtirish, jamoa bo‘lib mehnat qilish to‘g‘risida gap bo‘lmagan. Xristian jamoalari ichida qattiq intizom o‘rnatilgan. Isoning qaytib kelishini passiv ravishda kutish va mo‘min-qobil bo‘lib yurish, bu dunyoda adolat o‘rnatilishi mumkin emasligiga, u dunyoda esa baxtga erishishga ishonch orta borgan sari bu dinga hukmron tabaqalar ham ixlos qo‘ydilar. Bu o‘zgarishlar  xristian jamoalarini yashirin holatdan ochiq holatga o‘tib faoliyat ko‘rsatishga olib keldi.

Imperator Konstantin 313 yili xristianlarning ta’qib qilishni bekor qildi va 325 yili xristianlikni Rim imperiyasining davlat dini darajasiga ko‘tardi. 325 yili Konstantin boshchiligida Nikey shahrida xristianlarning 1-jahon yig‘ilishi bo‘ldi. Yig‘ilish xristian dinining qonun-qoidalarini ishlab chiqdi. Xudoni uch shaxsning (ota xudo, mukaddas ruh, o‘g‘il xudo) birlikda ifodalanishi qabul qilindi. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda  bo‘lib o‘tgan 2-jahon yig‘ilishida cho‘qinish va qayta tirilish haqidagi yangi aqida qabul qilindi.

Xristianlik davlat dini bo‘lgach unga juda ko‘p huquq va imtiyozlar berildi. Jumladan, barcha shahar va qishloqlarda ruhoniylar «ruhoniy otalar» sifatida xalqqa xristianlik xizmatini o‘tkazish, diniy marosimlarga rahbarlik qilish, diniy ta’lim berish, targ‘ibot qilish, xalq ustidan ma’naviy nazorat o‘rnatish, cherkov mol-mulkini, tushgan xayr-ehsonlarni tasarruf qilish, o‘z shaxsiy boyliklariga egalik qilish huquqlariga ega bo‘ldilar. Mamalakatda cherkov, monastir, kostyol kabi diniy tashkilotlar uchun hashamatli binolar qurildi. Ular qo‘ng‘iroqlar, haykallar, ikonalar, butlar, minbarlar, diniy adabiyotlar, biodat buyumlari, predmetlari bilan bezatildi, musiqa asboblari, munojot qo‘shiqlar aytadigan xor jamoalari yuzaga keltirildi. Diniy maktablarda, monastirlarda ko‘plab ruhoniy rohiblar va rohibalar bo‘lib, ularda er maydonlari, hunarmandchilik, to‘qimachilik sexlari vujudga keltirildi. Diniy tashkilot-lar obro‘si ortib borib turli lavozimlar (masalan Rim papasi, kardinal, patriarx, abbot, arxiepiskop, pop, episkop kabilar vujudga keldi. Hatto o‘rta asrlarda katolik diniy tashkilotlari mahalliy hokimlarga bo‘sunmaslik darajasiga etib bordi. Oila-nikoh, ajralish, sudlov ishlari ham asta-sekin diniy tashkilotlar ixtiyoriga o‘tib ketdi. Masalan, Rim papasi G‘arbiy Evropadagi davlatlarning ichki ishlariga katolik cherkovlari vositasida aralashardi. Abbotliklar esa Rim papasining ana shu davlatlar ichidagi tayanchi bo‘lib qoldi. Din mustaqil ma’naviy kuchga aylanib, odamlar fikri va ruhiyati ustidan hokim bo‘lib qoldi.

Bibliya (Injil) mudaizm va Xristianlik dinlarining umumiy muqaddas manbai hisoblanadi. Bibliyaning eramizdan avvalgi davrlarda yaratilgan qismi Tavrot bo‘lib, uni «Qadimiy ahd» deyiladi. U yahudiy milliy dinini asoslab bergan edi.

Bibliyaning «YAngi ahd» degan qismi xristianlikni asoslab bergan muqaddas manba hisoblanadi. «YAngi ahd» injilnomalar to‘plami bo‘lib, ularni Isoning apostollari (yaqin yordamchilari) Matfey, Mark, Luko va Ioann, shuningdek, yana 21 ta injilnomalarini boshqa avliyolar yozishgan, degan ma’lumotlar saqlanib qolgan. Ushbu injil nomalari asosida Ioann Bogoslovning «Vahiynoma»si yaratilgan. Uni ilmiy o‘rganilganda xristianlikka oid injil nomalari yahudiy diniy adabiyotiga, cherkov qonun-qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan Muso, YOnox, Ezdra va boshkalarning vahiynomalariga bevosita o‘xshashligi isbotlangan. Biroq xristian ilohiyotchilari «YAngi ahd»ni xudo Isoga yuborgan deb hisoblab, Injil nomalarini xristianlikning turli oqimlari manfaat-maqsadlariga moslab turli davrlarda turli mualliflar tomonidan yozilganligini inkor etadilar.

Xristianlikning birinchi yozma yodgorligi taxminan eramizning 68-yili ikkinchi yarmi va 69-yili birinchi yarmida yozilgan Apokalipsis (Ioann Bogoslovning «Vahiynomasi) edi. Xristianlik yahudiy dinidan ajralib, undan tobora uzoq-lashib, Rim imperiyasidagi turli millatlar orasida yoyila-verdi. Bu jarayon apostollar (sahobalar)ning nomalarida o‘z ifodasini topgan. Ularni apostollardan Pyotr, Iuda, Ioann, Iakov va Pavel yozgan deb tahmin qilingan. Injilnomalar tekshirilganda, ulardan ba’zilari ibodat duolari to‘plami bo‘lsa, ba’zilari esa xristian ahloq-odobiga bag‘ishlanganligi aniqlangan. Bu nomalar I asrda va II asrning 30-40 yilla-rida paydo bo‘lgan. Mazkur nomalarda xristianlik yahudiy dinidan farq qilishi, bu farq xristianlik cherkovi va boshqa tashkilotlarning vazifalari xususidagi fikrlardan ham sezilib turadi. Bu nomalarda g‘oyibdan homilador bo‘lgan Bibi Maryamdan tug‘ilgan va xochga tortilib qatl etilgan odam qiyofasidagi xudo Iiusis Xristos to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Iso Quddus, kana, Kafarnahum, Baytlahm, Nosira shahar-larida va’z aytgan. Iordan (O‘rdun) daryosida cho‘qintirilgan. Jalila (Genisaret) ko‘li bo‘yida haloyiqqa pand-nasihat qilganligi to‘g‘risida Injilda yozilgan. (Qarang: Injil. Turkiya. Muqaddas kitob jamiyati 1995 y 25-30 betlar).

Eramizning II-III asrlarida xristianlikning turli jamoalarida bir necha o‘nlab turli injillar mavjud bo‘lgan. Keyingi ruhoniylar Rim imperiyasida xristianlik hukmron dinga aylangan bosqich uchun eng maqbul bo‘lganlarini, o‘z ijtimoiy dasturlariga to‘g‘ri keladiganlaridan 4 tasini tanlab olganlar. Injillarni tanlab olinganda Rim tarixi, huquqi, turmushi, geografiyasini, urf-odatlarini yaxshi hisobga olinganligi keyinchalik ma’lum bo‘lgan. SHuning uchun injillar bir necha marta qayta ishlangan. Rim davlati talablariga moslashtirilgan. CHerkov pillapoyalari tashkil topgandan keyin Iso qatl qilib o‘ldirilgan va u qayta tirilib osmonga chiqib ketgandan keyin III asr boshlarida «YAngi ahd» ning so‘nggi kitoblari - Avliyo apostolllarning amallari yozilgan. Unda apostollarning oliy ruhoniylik amali bo‘lgan episkoplik va boshqa ruhoniylik unvonlarini bevosita Isoning o‘zi ularga in’om qilganligi haqida ko‘p gapirilgan. SHunday qilib «YAngi ahd» eramizning I-IV asrlarida vujudga keltirilib, xristianlikning muqaddas manbai sifatida qabul qilingan.

Iiusis Xristos to‘g‘risidagi rivoyatlar undagi e’tiqod, ishonch xristianlikdagi asosiy ta’limot deyish mumkin. 1948 yilda O‘lik dengiz yaqinidagi falastin markazi Xirbet Qumran g‘orlaridan tasodifan topib olingan hujjatlarga asosan Iso tarixiy shaxsligi to‘g‘risida gazetalarda shov-shuvga sabab bo‘lgan maqolalar e’lon qilindi. «Qumron qo‘lyozmala-ri» deb atalgan bu hujjatlar xristianlik tarixiga qiziqish-ni kuchaytirishi aniq edi.

Iso Isroil farzandlariga (qadimgi yahudiylar o‘zlarini shunday deb ataganlar) xudo tomonidan yuborilgan payg‘ambar bo‘lib, Ilohiy haloskor messiya («mashiax» degan qadimgi yahudiycha so‘zdan olingan bo‘lib, «Pomazonnik», ya’ni ilohiy haloskor, xudoning vakili demakdir) tez orada kelishini allaqachon bashorat qilganlar. Aytishlaricha, u insoniyatni barcha gunohlardan xalos etish va o‘z jonini qurbon qilib boshqalarning gunohini yuvishi kerak ekan. U yovuzlarni va adolatsiz kishilarni jazolaydi, odamlarga yangi qonunlar beradi. Er yuzida rohat-farog‘at,

adolat oʻrnatadi. Qudratli messiya sevimli Isroil xalqiga bosh boʻlib, uni tashqaridan kelgan rimlik istilochilardan ozod qiladi, deb tasavvur etilgan.

Injil rivoyatlariga koʻra, yahudiyaning Nazaret viloyatidagi Vifleem shahrida yashaydigan yahudiy YUsuf (Iosif) farishta Jabroil tomonidan «muqaddas ruh»dan uning xotini Bibi Maryam boʻlajak paygʻambar Isoni tugʻishi haqida oldindan ogohlantirilgan. Maryam oldiga muqaddas ruh keladi. Undan Iso tugʻiladi. Isoni onasi Maryam Vifleem shahri yaqinidagi gʻorda tugʻadi.

YAhudiyaning podshosi Isoning tugʻilganidan xabardor boʻlgan. Oʻsha vaqtdagi podsho Irod Vifleemda tugʻilgan barcha goʻdaklarni oʻldirishga farmon bergan. Biroq, xudo tomonidan yuborilgan farishta Isoni, onasini va barcha YUsuf oilasini Iroddan yashirib Misrga yashirin holda oʻtkazib yuborib qutqarib qoladi. SHundan keyin Isoni hech kim koʻrmaydi va faqat 30 yoshga kirgandan keyingina Iso xalqqa koʻrinish beradi. SHundan boshlab, Iso oʻz targʻibotchilik faoliyatini boshlaydi. U bir qancha sodiq shogirdlarini-apostollarni oʻz yoniga olib, ular bilan birga yangi dinni targʻib qilish uchun butun mamlakat boʻylab safarga chiqadi. Xuddi shu vaqtda apostol Ioann haloskorning kelganligi toʻgʻrisida xabar tarqatadi. Iso va uning shogirdlari Iordan daryosi yaqinida Ioann bilan uchrashib qoladilar. Ioann ularni Ioardan daryosi suvida yuvintirib, choʻqintiradi. Ioann Isoni choʻqintirayotgan paytda osmondan nido kelib: «bu mening sevikli oʻgʻlim, mening iltifotim ana shunda», degan ovoz eshitilgan emish. Bu toʻgʻrida apostol Matfey yozgan injilning 3-sura, 17-oyatida yozilgan.

Iso oʻz faoliyatida moʻʻjizalar koʻrsatgan: jumladan, u oʻlikni tiriltirgan, koʻrlarni, mayib-majruhlarni davolagan, jinnilardan ins-jinslarni haydab chiqargan, qutirib toʻlqinlanib turgan Teveriadiya koʻli toʻlqinlarini ustidan choʻkib ketmasdan yurib kelgan. Iso oʻz safdoshlari bilan hamma joyda kohinlar qoʻllab-quvvatlab turgan Isroil davlat dini iudaizmni qattiq tanqid qilib yurganlar. Rassomlar Isoning elkasiga qizil elkapoʻsh-plashch yopingan, yalang oyoq, sochlari oʻsib elkasiga tushgan holda birinchi marta xalqqa koʻrinish berishini, koʻl ustidan kelayotganini, uning onasi qoʻlida turgan goʻdakligini, Misrga ot minib qochib ketayotgan Maryam va bolasining rasmlarini ishlaganlar. Haykaltaroshlar esa Isoning xochga mixlab oʻldirilayotgan paytdagi azoblanib turgan holatini ishlaganlar. Bu rasm va haykallar koʻpgina cherkov va monastirlarda, kitob va jurnallarda, ikonalarda ifodalangan. Bu narsalar fetishizmga aylanib, muzeylarda namoyish etilgan.

Iso dastlabki vaqtlarda iudaizm dinining inson hayotini chulgʻab olgan koʻpdan-koʻp (600 ga yaqin) cheklashlarini va amallarini qatʼiy ravishda bajarishni xudoga keragi yoʻq, ular oʻrniga xudoga samimiy va astoydil eʼtiqod qilinsa bas, deb targʻibot yurgizgan. Injilda Isoni beozorlik, kechiruvchanlik, yaqin kishilarni sevish, moʻminlik timsoli etib tasvirlangan. Injilda tasvirlanishicha, xudo oʻgʻli kambagʻal dehqon, duradgor qiyofasida, oʻz qabiladoshlarining nafrat, taʼqib va quvgʻiniga uchragan, bu qiyinchiliklarga chidab, bardosh bergan, ruhoniy va kohinlar haqoratiga indamasdan ketavergan; yuvosh, qul libosida gavdalanib, xudoga eng yaxshi ahloqiy fazilatlarga ega boʻlgan timsol sifatida yoqib qolgan, barcha xristianlarni undan oʻrnak olishga daʼvat qilinadi.

Iso aytgan asosiy gʻoyalar: tez orada xudoning saltanati boshlanadi, u hamma odamlarga emas. Faqat Isoning ilohiyligiga ishonadigan, uni xudoning oʻgʻli ekanligini tan oladigan va hamma narsalarda uning koʻrsatmalariga amal qiladigan kishilargagina nasib boʻladi, deganlar. Xudoning adolatli jamiyatida yashash eng avval mashaqqat chekkanlarga, mazlumlarga va «zahmatkashlar»ga xudoning inʼomidir. Iso tepalikda turib: «Moʻminlar masʼuddirlar, chunki ularning joyi jannatdadir. Yigʻlaganlar masʼuddirlar, chunki taskin topadilar. YUvosh kishilar masʼuddirlar, chunki ular erni meros oladilar», deb vaʼzxonlik qilgan. Bu Matfey Injilning 5-surasidagi 3-5 oyatlarida keltirilgan.

Iso oʻzining oʻsha vazʼxonligida yana maʼnaviy va moddiy qashshoqlikni, mehnatkashlarning itoatkor boʻlishini, jan-natda rohat-farogʻatda yashashining asosiy sharti, deb eʼlon qilib, ulardan quyidagilarni talab qilgan: dushmanlarin-gizni sevingiz, sizlarni laʼnatlovchilarni duo qilingiz, sizlarga nafrat bilan qarovchilarga xayr-ehson qilingiz, sizlarni ranjituvchilar va quvgʻin

qiluvchilar uchun ibodat qilingiz. Bu haqda Matfey Injilining 5-sura, 41-oyatida xabar berilgan. Bu ko‘rsatmalar xristianlikning ijtimoiy va ahloqiy ta’limotlaridir. Iso boylar bu dunyoda rohat qilsalar ham, u dunyoda qilmishlariga javob beradilar, boylarning jannatga tushishlari ignaning teshigidan tuyani o‘tishi bilan baravar, deb ta’lim bergan. Bundan xayr-ehsonli boy-badavlat kishilar istisnodir.

Iso hamma odamlar xudo oldida teng, deb e’lon qilgan, lekin u hokimlik huquqini xudo bergan bo‘lib, Davlat hukmiga, mahalliy hokimlar amriga bo‘sunish xudo amrini bajarishdir, degan.

Iso uch yil davomida targ‘ibot olib borgan. Lekin YAhudiya hokimi Pontiy Pilat Isoni tutib bergan kishiga 200 tilla pul berajagini e’lon qilgach, Isoning eng yaqin apostoli Iuda sotqinlik qilib, uni tutib bergan. Pontiy Pilat va yahudiy ruhoniylari Quddus shahrida Isoni sud qilib xochga mixlab o‘ldirishga hukm qilganlar. Hukm Golgofa tog‘ida qiynab o‘ldirish orqali ijro etilgan.

SHu tariqa o‘z jonini qurbon qilgan Iso uch kundan keyin mo‘‘jiza bilan qayta tirilgan, u yana 50 kun da’vat-targ‘ibot olib borgach, otasi xudo oldiga osmonga chiqib ketgan, u qiyomat kuni qaytib keladi, deb tasavvur qilinadi.

Lekin Iiusis Xristos (Iso) tarixiy shaxsmi yoki afsonaviy shaxsmi - bu muammo hozirgacha uzil-kesil xal qilingani yo‘q.

Avvalgi mavzularda aytib o‘tilganidek, aqidalar din ti-zimida eng muhim falsafiy-nazariy ta’limotlar sifatida muhim o‘rin egallaydi. Diniy tasavvurlar, tushunchalar, diniy dunyoqarashdagi nazariy g‘oyalar ana shu aqidalarda ifoda qilinadi.

Xristianlik aqidalari ham bundan istisno emas, albatta. Xristianlik diniy ta’limotining voqelikni sirli, ilohiy qilib tasvirlovchi asosiy aqidalari bir necha asrlar davomida tarkib topgan.

Bu aqidalar quyidagilardir:

1-aqida: Xristianlikning iymon kalimasiga ko‘ra dindorlar - ota xudo, o‘g‘il xudo va muqaddas ruh («muqaddas uchlik») bo‘lib gavdalanadigan yagona xudoga e’tiqod qiladilar. Demak, xristianlik monoteistik din ekanligi shu aqidadan ma’lumdir. Ota xudo ko‘rinib turgan olam (farish-ta)larni yaratgan, deb hisoblanadi. Iso uning injildagi «tarjimai holi» bilan birlikda O‘g‘il xudo hisoblanadi. Muqaddas ruh-pravoslavieda ota xudodan, katoliklar esa ham ota-xudodan, ham O‘g‘il xudodan kelib chiqqan, deb hisoblanadi.

2-aqida: Xristianlik uchun eng muhim aqidaviy g‘oya xudoning gavdalanish aqidasi bo‘lib, unga binoan Iso xudoligicha qolgan holda, go‘yo Mariya ismli qizdan (Bibi Maryam onadan) tug‘ilgan payg‘ambar deb e’lon etiladi. Bu aqida Isoga mansub deb hisoblanadigan barcha injil pand-nasihatlarga «ilohiy haqiqat»larga xos hurmatni kuchayti-rishga xizmat qiladi.

3-aqida: Gunohni yuvish aqidasiga katta o‘rin berilgan, bunga asosan Iso butga mixlanib tortgan azoblari va o‘limi bilan o‘zini odamlarning gunohlari kasriga ota xudoga qurbon qilgan va shu tariqa bu gunohlarni yuvgan Bu bilan u go‘yo odamzoddagi «gunoh hukmronligidan xalos bo‘lish» yo‘lini ochib bergan.

4-aqida: Isoning qayta tirilishi aqidasi xristian diniy ta’limotida markaziy o‘rin egallaydi. Bu tirilish kelgusida odamlarning hammasi tirilishining (islom dinidagi oxirat-qiyomatdagi odamlarni tirilishi kabi) garovi deb ta’kidlangan.

5-aqida: Osmonga chiqib tushish (Islomda me’roj) aqidasi xristianlarni Iso tirilgandan so‘ng osmonga, 0ta xudo huzuriga chiqqanligiga ishonish. Mazkur aqida orqali erdagi hayot odamni oxiratda kutadigan mangulikka nisbatan hech narsaga arzimaydi, degan ishonch uqtirildi.

6-aqida: Xristianlikning «xudo oldida hamma odam tengdir», degan bu aqidasi ijtimoiy tengsizlikni bekor qila olmagan tasavvurdagina barchagi tenglik huquqini bergan edi. Bu tenglik oxiratda amalga oshishini kutishga dindorlar da’vat etilgan.

Xristianlik barcha odamlarning birinchi gunoh qilish tengligini e’tirof qiladi. To‘g‘ri, xristianlikda mulkiy tenglik va umumiylik to‘g‘risida fikrlar bo‘lgan, ammo oddiy dindor mehnatkashlar va qullar bilan tabaqa vakillari bo‘lgan dindorlar orasida qarama-qarshilik keltirib chiqargan ana shu tenglik g‘oyalari injilnomalarda yo‘q bo‘lib ketgan.

Xristianlik aqidalari Tavrot asosida yaratilgan. Ota-xudo butun olamni va odamlarni yaratishi to‘g‘risidagi aqida ham Tavrotning «Hayot» deb atalgan birinchi kitobidan olingan.

«Hayot» da dunyoni yaratilishi haqida shunday deyilgan:

«Dastlab xudo osmon va erni yaratdi. Er ko‘rinmas va bo‘m-bo‘sh edi, uning usti cheksiz va qorong‘i edi. Va xudoning ruhi suvga tushdi. SHundan keyin xudo yorug‘likni yaratgan va uni zulmatdan ajratgan. SHu bilan birga yaratishning birinchi kuni yo‘qlikdan samoviy zaminni, er qit’alarini, dengizlarni, tog‘larni, osmon yoritkichlarini, Quyosh, Oy, sayyoralarni, yulduzlarni yaratgan.

SHundan keyin xudo o‘simliklarni, hayvonlarni yaratgan, nihoyat, yaratishning so‘nggi oltinchi kunida u odamni bunyod etgan. Va xudo odamni o‘z qiyofasida yaratgan. Ularni erkak va xotin qilib yaratdi». (Hayot, 1-sura, 21-oyat)

Bu yo‘qdan bor qilib yaratish vaqtida ko‘plab chalkashliklar mavjud. Masalan: «Hayot» kitobidagi 1-surada erkak va ayol bir vaqtda yaratilgan deyilgan. 2-surada esa avval erkak, keyin uning qovurg‘asidan ayol yaratilgan, deyiladi. Adam va Eva dastlabki odamlar bo‘lib, ular jannatda yashashgan, lekin shaytonning gapiga kirib jannat tartibini buzib (ular man’ qilingan bilim daraxti mevasini iste’mol qilishgan), undan haydalganlar - birinchi gunoh yuz bergan. SHundan keyin ulardan tarqalgan barcha odamlar tug‘ma gunoh bilan dunyoga kelganlar, degan g‘oya olg‘a suriladi. CHo‘qintirish marosimida muqaddas suvda ana shu gunohni yuvib tashlanadi. Din peshvolari olamni yaratishdagi har bir kun million-million yillarga teng bo‘lgan, deb hisoblaydilar.

Boshqa dinlar kabi xristianlikda ham ko‘pgina marosim va bayramlar mavjud. Dindorlar hayoti va turmushida, diniy tashkilotlar ish faoliyatida xristianlik marosimlari va bayramlarining ko‘pi tantana, shodlik, hursandchilik kunlari bo‘lsa, ayrimlari sovuq, g‘amginlik, marsiyaviy holatlar hisoblanadi. Marosimlar ibodat, sig‘inish, ruhiy poklanish mazmuniga ega bo‘lishi bilan ajralib turadi.

Ibodat qilish vaqtidagi diniy sirli holatdagi vaziyat, cherkovning tantanali va sirli bezagi, musiqa, munojot, qo‘ng‘iroq ovozi, yonib turgan sham va moy chiroqlari, xudoga madhiyalar, oltin suvi berilgan yorqin rizolar, butlar, devorga ishlangan suratlar va skulptura, ruhoniylarning sig‘inish buyumlari va ibodat qiluvchilarning o‘zlari ustidan qiladigan sehrli irim-sirimlari - bularning hammasi dindorlar ruhiyatiga, qattiq ta’sir qilib ularni mahzun holatga soladi, irodasini bukib, yaratgan xudoga e’tiqodini kuchaytiradi, emotsiyani oshiradi, sirli va sehrli «u dunyo»ning lazzatlari tasavvurini yaqqolroq namoyon qiladi. Marosimlar har qanday dinning eng aktiv elementi bo‘lib, ular kishilar ruhiy hayotida qattiq o‘rnashib qoladi.

Marosim va bayramlar: a) dindorlarni hamkorlik ruhida tarbiyalaydi; b) dindorlar orasida tartib-intizomni mustahkamlaydi; v) dindorlarning vaqti, moddiy harakat-larini talab qiladi; g) dindorlar iymon va e’tiqodini kuchaytiradi; d) ular milliy va baynalminal madaniyatning bir qismiga aylanib, umuminsoniy qadriyatlarni kuchaytiradi. Bu xususiyatlarning barchasi xristianlik marosim va bayramlarida ham to‘la amal qiladi.

Xristianlik marosimlari asrlar mobaynida asta-sekin shakllanib borgan, ular quyidagilardir: cho‘qintirish, prichashchenie (non va vino iste’mol qilish), miropomazanie (cherkovlarda chaqaloqni cho‘qintirgandan keyin xushbo‘y moy surkash), elosvyashchenie (soborga olib kelish), nikoh (gulcham-bar kiydirish, nikoh uzugi taqish kabilar), tavba qilish (gunohlariga pushaymon bo‘lish), ruhoniylikka qabul qilish, Pasxa, rojdestvo Xristovo, troitsa bayramlari.

Xristianlik marosimlarini tainstvolar deb ataladi. Bu marosim va bayramlar barcha xristian yo‘nalishlarida mavjud, faqat ularni shakli va vaqti turlicha xolos.

CHo‘qintirish marosimi xristian dinining eng muhim va asosiy marosimidir. Bu marosim cherkovda o‘tkaziladi. Marosiming asosiy mohiyati tug‘ma gunohdan bolani xalos qilish, uni xristianlikka dohil qilish, unga xristiancha ism qo‘yish, uni cherkov qavmiga, ya’ni aholi ro‘yxatiga yozib qo‘yishdir.

Marosim o‘tkazish uchun yangi tug‘ilgan bolani cherkovga olib kelishadi. Bu erda ruhoniy uning yuziga qarata uch marta kuf-suflaydi, dajjollarga qarshi afsun o‘qiydi. SHaytondan yuz o‘girishga, uni puflashga va unga tuflatishga chaqiradi. Bu ishlarning hammasini chaqaloq nomidan cho‘qintirayotgan erkak yoki ayol, ya’ni chaqaloqni «cho‘qintirayotgan otasi yoki onasi» bajo keltiradi. SHundan keyin pop chaqaloqni uch marta suvga botirib oladi, chaqaloqqa zaytun yog‘i surtaydi, uning boshidan bir tutam sochini kesadi va bolaga ism qo‘yib beradi. Rivoyatga ko‘ra Iso payg‘ambarni Iordan daryosida avliyo Ioann CHo‘qintiruvchi cho‘qintirgan.

CHo‘qintirish marosimi qadimgi Hindiston, Rim, Misr, Kichik osiyo va boshqa davlatlar hududlarida yashagan xalqlar orasida ham mavjud bo‘lgan. Xristianlikda cho‘qintirish marosimi yangi eraning 1-asri oxirlarida paydo bo‘lgan. Bi-rinchi xristian jahon soborining (4-asr) qaroriga muvo-fiq, bu marosim har bir xristian uchun majburiy deb topilgan va «e’tiqod simvoli»ga kiritilgan. SHu vaqtdan boshlab «cho‘qin-tirilgan» so‘zi «xristian» degan so‘z bilan teng ma’no kasb etgan. Xristianlar boshqa dindagi hamma kishilarni «cho‘qin-maganlar» («Isoni tanimaganlar») deb atay boshlaganlar.

Nikoh marosimi ham cherkovda o‘tkaziladi. Bu marosim oila qurish marosimidir. CHerkovda o‘tkazilgan nikoh xristian oilasining qonuniy asosi hisoblanadi. Nikoh paytida pop kelin-kuyovga oq fotiha beradi, ularni qo‘sha qarib, uvali-juvali bo‘lishini xudodan tilaydi, kelin-kuyovga shohona jig‘a taqadi, ularga yonib turgan shamni ushlab turishni buyuradi. Ularning yuzlariga krest bilan soya soladi, isiriq-buxur tutatadi (yoki isiriqqa o‘xshash xushbo‘y hid tutuni soladi). Kelin bilan kuyov bir-birlarining barmoq-lariga nikoh uzugi taqishadi, pop ularni bir-biriga vafodor, g‘amxo‘r, ittifoq bo‘lib yashab, turmush kechirishga da’vat qiladi. Oilani buzish, ajralish ham cherkov ruxsati bilangina bo‘ladi.

Tavba qilish marosimi ham cherkovda bo‘ladi. Tavba qilishda gunoh qilib qo‘ygan har bir xristian o‘z gunohidan pushaymon bo‘ladi. U gunohini kechirishni xudodan so‘rab berishni popdan iltimos qiladi. Tavba qiladigan shaxs popga hech bir guvohsiz, u bilan yuzma-yuz, tiz cho‘kkan holda o‘zining hamma gunohlarini batafsil so‘zlab beradi. «Buzuq niyatlar»dan qattiq pushaymon bo‘lib tavba qiladi. Pop gunohkorga nasihat qilib, uni to‘g‘ri yo‘lga soladi va «muqaddas ruhning kuchi» bilan uni gunohlaridan pok qiladi. SHu xizmati uchun cherkovga gunohkor shaxs haq to‘laydi. Pop esa unga «gunohdan pok bo‘lganligi» haqidagi indulgensiya yorlig‘ini beradi. Bu marosim dindorlarni halol yashashga chorlasa, cherkovning esa dindor ustidan nazorat qilib turishiga keng imkoniyat yaratib beradi.

Prichashchenie marosimi xristian dinining asosiy marosimlaridan biri hisoblanadi. Bu marosimni go‘yoki Isoning o‘zi tayin qilgan emish. Prichashchenie marosimidagi asosiy mazmun shuki, non bilan vinoni sirli ravishda dindorlar birgalikda iste’mol qiladi, bunda nonni Isoning go‘shti, vinoni esa uning qoni deb tasavvur qilinadi. Isoga yanada yaqinlashish uchun, u bilan bir tan, bir jon bo‘lib ketish uchun shu marosim o‘tkaziladi. Mashhur ruhoniy va faylasuf olim o‘rta asrlarda yashagan Foma Akvinskiy, Prichashchenie-ning har bir zarrasida Iso bordir, deb ta’limot beradi. Xristianlikning prichashchenie marosimi qadimgi zamon-lardagi totemizm dinidagi totem-hayvonni qurbon qilib, uning «muqaddas» qoni va go‘shtini iste’mol qilish marosi-mining yangi shaklidan boshqa narsa emas.

Xristianlikda yana dafn marosimi, butlarga, xochlarga, avliyolar jasadiga, muqaddas joylarga, ayrim ikonalarga sig‘inish marosim-odatlari ham bor.

Xristianlik bayramlari, ya’ni eng muhim diniy voqea va hodisalar bilan bog‘liq bo‘lgan alohida kunlar, barcha xristianlar uchun bayram tantanalari mavjud. CHerkovlar bayramlarga jiddiy va katta e’tibor berib kelayotir.

Iso payg‘ambar tug‘ilgan kuni (rojdestvo) bayrami cherkov hayoti va dindorlarning turmushida ko‘zga ko‘rinarli o‘rinda turadigan, millionlab kishilarning tantanali bayramlaridan hisoblanadi. CHerkov ta’limotiga ko‘ra bu bayramni xudo Iso sharafiga bag‘ishlab bayram qilishni tavsiya etgan. Katolik ruhoniysi va olimi Dionisiy kichkinaning mo‘ljaliga ko‘ra Rim shahriga asos solinganiga eramizdan avvalgi 754-yildan boshlangan. Iso tug‘ilgan kunni misrliklar 6 yanvarda nishonlaganlar. Rojdestvo bayrami oldidan dindorlar uylaridagi barcha narsalarni yuvadilar, pollarini artib chiqadilar, ustki kiyimlarni qoqadilar, hammomda cho‘miladilar, toza kiyimlarni kiyadilar. Italiyada rojdestvo kuni uylaridan eski kiyimlarni, narsalarni, buyumlarni ko‘chaga irg‘itib yuboradilar, shu qutlug‘ bayramda hatto urushlar to‘xtatilgan. Ayrim arazlashib yurgan kishilar yarashganlar, bemorlar holidan xabar olib, ularga sovg‘lar berishgan. Iso insoniyatni gunohidan ozod qilish uchun o‘z jonini fido qilish, er yuzida adolat o‘rnatish uchun tug‘ilgan deb tasavvur qilinadi va uning tug‘ilgan kuni bayram qili-nadi. Ko‘pgina davlatlarda rojdestvo kuni prezidentlar o‘z xalqiga maktub yo‘llab, bayram bilan tabriklaydilar. Rim papasi butun xristianlarni tabriklab, ularni tinch-totuv yashashini, har bir oilada baxt-saodat bo‘lishini tilaydi. Xalq o‘ynab-yayraydi, bu ularning haqiqiy bayrami hisoblanadi. Hozirgi vaqtda musulmon davlatlaridagi din boshqarmalari boshliqlari ham (Masalan, O‘zbekiston musulmonlari diniy hay’ati raisi, muftiysi) xristian dini peshvolariga tabrik-lar yo‘llamoqdalar.

Pasxa bayrami xristianlarda ayniqsa katta tantana bilan o‘tadigan bayramdir. Pasxadan oldin ehtirosli hafta deb atalgan hafta keladi, bu hafta davomida dindorlar ro‘za tutadilar, zo‘r berib ibodat qiladilar. Bu hafta oxiri xudoga ehtirosli, mungli murojaat ohangida ibodat qilish bilan yakunlanadi. Undan keyin pasxa bayrami boshlanadi. Quvonchli hafta deb atalgan bu hafta davomida bayram kun-lari ruhoniylar va cherkov uchun «ish» kunlari bo‘lib, ular dindorlarga haloskorlik g‘oyalarini, pasxa bayrami qanday kelib chiqqanligini tushuntirib beradilar. Ular pasxa va ehtirosli hafta insonning mashaqqat chekkanligi, o‘limi va qayta tirilishini xotirlash uchun belgilangan deb hisoblaydi-lar. Qadimgi o‘lib tirilishga, o‘ladigan tanayu, o‘lmaydigan jon (ruh) ga ishonish to‘g‘risidagi apima-animizm dinini ta’siri va shu din asosida paydo bo‘lgan misrliklardagi Oziris, finikiyaliklardagi Adsoins, firigiyaliklardagi Attis, greklardagi Dionis kabi o‘lib tiriladigan xudolar, ular bilan bog‘liq bayramu urf-odatlar, turli rivoyatlar asosida insonning ham o‘lishi va qayta tirilishi, uning o‘z ummatlarining gunohlaridan poklash uchun chekkan azobiyu mashaqqatlari to‘g‘risidagi tasavvurlar hamda uni ta’riflash, xotirlashga bag‘ishlangan bayram kelib chiqqan.

Xristanlar bu bayramning «pasxa» degan nomini yahudiylardan olganlar. CHunki, qadimgi chovador yahudiylar bahor bayramini «Pesax» deb atashar edi, unda yovuz ruhlarning rahmini keltirish uchun birinchi tug‘ilgan qo‘zichoqni so‘yib, qurbonlik marosimi o‘tkazishar edi. «Pesax» degan yahudiycha (Ivrit tili) so‘zning ma’nosi «Rahmini keltirish» ma’nosini bildiradi. Qo‘zichoq o‘rniga o‘zini qurbon qilgan Isoning chekkan azoblarini xotirlab pasxadan avvalgi «ehtirosli hafta» o‘tkazilgan.

Pasxa bayrami haloskor Isoning tirilishini tilab, tantanali ibodat o‘qish bilan boshlanadi. Pasxa vaqtida poplar cherkov minbarlaridan turib, tantana bilan: «Bir-birimizni quchoqlab, o‘pishaylik, bizni yomon ko‘radiganlarni kechiraylik»,-deb xitob qiladilar. Isoni qayta tirilib qaytib kelishi esa barcha vafot etgan xristianlarning qayta tirilishi va arshu a’loda boqiy hayot kechirishining asosiy sharti hisoblanadi. Pasxa bayrami salb yurishlari, dindorlarning tantanavor namoyishkorona ko‘chalardan o‘tishi barchaning ruhan shodligi, o‘yin kulgilari, jamoaning ziyofatlari bilan o‘tadigan haqiqiy bayramidir.

Rojdestvo, pasxa bayramlari xristian bayramlari bo‘lsada, bu bayramlar xristianlikdagi turli yo‘nalish va sektalarga mahalliy an’analar, qadimgi milliy dinlardagi bayramlar bilan uyg‘un ravishda va qo‘shilgan holda vaqti, ayrim shakllari jihatidan farq qilgan holda o‘tkaziladi.

Bir butun din bo‘lgan xristianlik turli tarixiy shart-sharoitlar, bu dinning mahalliy hukmdorlar manfaatlariga, quldorlik, feodalizm va kapitalizm tuzumlari sharoitiga moslashtirishga qilingan harakatlar tufayli turli yo‘nalish-laru sektalarga bo‘linib ketgan. Ichki inqiroz va tashqi hujumlar natijasida (german qabilalari) Rim imperiyasi 3-4 asrlarda G‘arbiy va SHarqiy qismlarining ajralib ketishiga olib keldi. Rim imperiyasining G‘arbiy qismida mayda mustaqil davlatlar paydo bo‘ldi. Ulardagi siyosiy hokimiyatga nisbatan cherkovlar hukmronligi ustunroq bo‘lib, ularning Rim shahrida joylashgan bosh cherkovga tobe’ligi saqlanib qoldi. Lekin SHarqiy viloyatlar Vizantiya imperiya-si tizimida yagona davlat bo‘lib, davlat siyosiy hokimiyatiga bo‘ysinardi. 1054 yilda Vizantiya hududidagi cherkovlar Rim markaziy cherkovidan ajralib ketdi. SHu tariqa xristianlik ikki yo‘nalishga - katoliklar va pravoslavie yo‘nalishlariga bo‘lindi.

16-asrda burjua sinfi va kapitalizm tuzumi manfaatlariga mos keladigan yana bir yangi yo‘nalish - protestantizm vujudga keldi. Bulardan tashqari ana shu yo‘nalishlar ichida xristian uyushmalari, jamoalari, ya’ni sektalari ham paydo bo‘ldi.

**KATOLITSIZM (Katolik) yo‘nalishi.** Katolitsizm xristianlikdagi eng keng tarqalgan yo‘nalish bo‘lib, bu yo‘nalishga 800 millionga yaqin kishi sig‘inadi. Katolitsizm (grekcha - katolikos degan so‘zdan olingan, o‘zbekcha ma’nosi - umumiy, butun dunyo cherkovlariga oid, degan mazmunga egadir) yo‘nalishidagi dindorlar dastlabki vaqtda Misrdagi Aleksandriya arximandratini tan olgan monofizit-lar deb atalardi.

Katolitsizm yo‘nalishida barcha diniy marosimlarni bajarish, duolarni o‘qish, Bibliya («YAngi ahd») matnini o‘qish lotin tilida olib boriladi. Lotin tili qadimgi Rim Lotikiya aholisi gaplashadigan til bo‘lib, u lotikiya qabilasining tili edi. Rim aholisi Tibr, Anien daryolari, Apenin tog‘ tizmalari va Tirren dengizi o‘rtasidagi vodiyda yashovchi lotik qabilasiga mansub edi. Hozir lotin tili «O‘lik» til hisoblanadi, ammo lotin alfaviti aksariyat Evropa, Amerika, Avstraliya va boshqa qit’alarda yashaydigan aholi grammatikasiga asos bo‘lgan. U tibbiyot, matematika, kimyo, fizika kabi fanlarda simvolik belgi sifatida ishlatiladi. O‘zbekiston respublikasida ham lotin alifbosiga o‘tish boshlandi.

1962 yilda 2-Vatikan sobori diniy ishlarni milliy tillarda olib borishga ruxsat bergan, ammo lotin tilida olib borish hamon davom etayotir.

Katolitsizm yo‘nalishi tarixi IV-XX asrlarni tashkil qilib, deyarli 16 asrdan buyon mavjuddir. Bu davr mobaynida katolitsizm aqida va marosimlari, ruhoniy va cherkovlari quldorlik, feodalizm va kapitalizm jamiyatlari uchun bajonidil xizmat qilib kelayotir. Xristianlikning bu yo‘nalishi zamona ruhiga, o‘zgargan tarixiy shart-sharoitlariga ustalik bilan moslashib yashamoqda. Katolitsizmning aholini turli qatlamlari, sinflari va toiflari orasida ta’siri katta.

Katolitsizm markazdan boshqariladi. Rim shahrida Vatikan va Rim papasi barcha katolik cherkovlarga rahbarlik qiladi.

**Katolitsizmning aqidalari:**

1) Katoliklar ilohiyotida (aqidalar) ilohiy troitsaga: ota xudo, o‘g‘il xudo va muqaddas ruhga e’tiqod qiladilar. Katoliklar «muqaddas ruh», «ota va o‘g‘il» xudodan kelib chiqqan, deb hisoblaydilar.
2) Katoliklar muqaddas kitobni, ya’ni Tavrotni va muqaddas rivoyat yoki an’analarni diniy ta’limot manbai, deb hisoblaydilar. Katolik cherkovi faqat lotin tilida yozilgan Tavrotni e’tirof qiladi. Tavrotni faqat ruhoniylargina izohlashi va sharhlashi mumkin. Katolik an’analarni papalar yoki sobor yig‘inlarida «avliyo ota»lar chiqargan yangiliklar bilan to‘ldirib turishni tan oladilar. Bu bilan katolitsizm zamonaga moslashtirib berilgan.
3) Xristianlikning boshqa yo‘nalishlaridan farq qilib, katolitsizmda Rim papasi xudoning rasuli ekanligi to‘g‘risidagi maxsus aqidaga amal qilinadi. Katolitsizm papani cherkovning boshlig‘i deb hisoblaydi, uni «Iso-ning noibi (vorisi)» va «Apostol pyotrning o‘rinbo-sari» deb ataydilar.

4) Katolitsizmda a’rof to‘grisidagi aqida bo‘lib, unga ko‘ra a’rofda (jannat bilan do‘zah oralig‘ida) gunohkorlarning ruhlari tiriklik vaqtlarida yuvilmay qolgan gunohlaridan tozalanib, jannatga kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, deb tushuntiriladi.
5) XIII asrda katolik ilohiyotchilari tomonidan «savob ishlar» zahirasi to‘g‘risidagi aqida ishlab chiqildi. Unga asosan gunoh qilgan kishilar cherkovdan, haq to‘lab, kechirim so‘rab, gunohining kechirilgani to‘g‘risi-dagi guvohnoma-idulgensiya olishi mumkin. CHerkov idulgensiya narxini belgilab chiqdi. Masalan, o‘z otasini yoki onasini, xotinini, akasini, ukasini, singlisini o‘ldirgani uchun 5 yoki 6 gross, yoki «o‘g‘irlik qilgani uchun, o‘t qo‘yganlik uchun 8 gross» haq to‘laydi.
6) Isoning onasi Bibi Maryamga «ruhoniy ona» deb sig‘inish ham kuchli e’tiqod ramzi hisoblanadi.

**Katoliklarning diniy marosimlari**

Katoliklarning marosimlari juda tantanali o‘tishi bilan ajralib turadi. Marosimlarning ko‘pi cherkov va monastirlarda o‘tadi, ularda musiqa asboblaridan organ chali-nadi, yakka ashulalar va xor munojotlar aytiladi. Bu dindorlar hissiyotiga ta’sir etib, ularda diniy zavq uyg‘ota-di. Marosimlar:

1) Momo Havoga (Eva) va Bibi Maryamga sig‘inish marosimi ayollar orasida keng tarqalgan bo‘lib, bu marosimda «ayollar Momo Havo sizlarga doimo homiylik qiladi», degan g‘oya mujassam bo‘lgan.
2) «Avliyolarga» sajda qilish, tabarruk narsalarga va mumiyolangan avliyolar jasadiga sig‘inish marosimi ham mavjud, Masalan, G‘arbiy Evropa cherkovlari va monastirlarida dindor ko‘rib sig‘insin degan maqsadda go‘yoki Isoning sochi, tirnoqlari, kiyimlari, qizil plashi, Momo Havoning suti, Iso mixlangan xoch qo‘yilgan. Ularda yana avliyolar: Matfey, Luka, Pyotr, YUlianlarning jasadi namoyish qilinadi, dindorlar ularni taof qiladilar.
3) Turli vaqtlarda butlarni yangilash, «yig‘lovchi» butlar, o‘zi yonadigan shamlar, mo‘‘jizali davolash kabi mo‘‘jizalar ko‘rsatish ham keng tarqalgan.
4) Xristianlikdagi asosiy marosimlar: tavba qilish, prichashchenie, nikoh, cho‘qintirish ham katoliklar tomonidan marosim va bayramlar deb amal qilinadi.
5) Katolik cherkovlarida diniy xizmat paytida, avlodlar xotirasiga sham yoqish odati ham keng tarqalgan.

Rim papasi katolitsizmi boshqa xristianlik yo‘nalishlaridan qat’iy markazlashtirilganligi bilan ajralib turadi. Katolik cherkovi tepasida Rim papasi turadi. Papa-lotincha ota degani bo‘lib, papa barcha katoliklarning «ruhoniy otasi» hisoblanadi. Papa o‘z siymosi, e’tiqodi bilan, ahloq-odobi, bilimdonligi, xudojo‘yligi bilan barcha katoliklarga namuna hisoblanadi. U gunohdan xolis erdagi xudoning vakili, bosh ruhoniy deb tushuniladi.

Papa kardinallar, ya’ni oliy darajadagi ruhoniy-larning vakillari kollegiyasi tomonidan umrbod muddatga saylanadi. Papalik mansabiga nomzod bo‘lgan ruhoniy ovozlarning kamida 2/3 qismini va yana oshiqcha bir ovoz olishi kerak. Saylovdan o‘tgan kishi o‘zining ilgarigi ismidan voz kechadi va o‘ziga yangi ism oladi.

Katolitsizmning ko‘p asrlik tarixi davomida papalik mansabiga 300 ga yaqin kishi saylangan. Ulardan 31 tasi papalik lavozimiga noloyiq, yaramas ishlar qilgan. Lekin papaning «gunohsiz»ligi haqidagi aqida 1870 yilda bo‘lib o‘tgan Vatikan cherkov sobori tomonidan tasdiqlangan. Hozirgi papa 1978 yilda saylangan Korol Vaytilla - Oann Pavel 11 bo‘lib, u 1920 yilda Polshannig Krakov shahrida tug‘ilgan yirik ruhoniydir. U xristian ahloqiga oid 400 ga yaqin kitob yozgan. Ioann Pavel II davrida Rim papasining obro‘si kuchaydi, yangi cherkovlar ochildi. Vatikan xazinasi boyidi, katolik cherkovlari turli xristian-demokratlar orqali siyosatda aktiv qatnashmoqdalar.

Vatikan Rim shahrida 44 gektar maydonga joylashgan papalik davlati bo‘lib, uning davlatga xos o‘z bayrog‘i, gerbi, chegarasi, politsiyasi, oliy organlari mavjud. Papalikning oliy diniy tashkilotini Rim Quriyasi deyiladi. Quriya yig‘ilishlarida barcha katolik cherkovlari

bajaradigan qarorlar qabul qilinadi. Vatikanda Rim papasi akademiyasi mavjud bo‘lib, unda din va fan, ahloq va ijtimoiyot, ekologiya va inson huquqlariga oid bo‘lgan masalalar bilan shug‘ullanadigan olimlar ishlaydilar. Rim papasi XIII asrda yashagan italiyalik ruhoniy, faylasuf Foma Akvinskiyning «muqaddas ruh zarralari barcha moddiy narsalarda yashirin ravishda mavjud, fanning vazifasi ularni ochib faktlar to‘plash, faktlardan umumiy xulosalar, nazariy umumlashgan tushunchalar chiqarish esa dinning vazifasi, dinga fan xizmat qilishi lozim, ular ittifoq bo‘lishi kerak», degan ta’limotni Neotomizm nomi bilan rivojlantirayotir. Foma Akvinskiyni papalikning piri hisoblaydilar.

Ammo ming yildan ziyod davom etgan o‘rta asrda papa qoshida dahshatli inkivizatsiya sudi ish olib borib, u katolitsizm g‘oyalariga qarshi chiqqan ta’limotlarni bad’at deb, fanni esa shakkoklik hisoblab, olimlarni ta’qib qildi. Minglab kishilarni qattiq jazolagan. Inkivizatsiya 9-12 million kishini jazolagan. U Vatikan va papaning eng kuchli quroli edi. 1540 yilda ispan dvoryani Ignatiy Loyola tomonidan tuzilgan Iezuitlar diniy ordeni papalik tayanchi bo‘lib, o‘zlarini oddiy kishilardan ajralmaydigan kiyim kiygan. YAshirin ish olib boradigan iezutlar yuqori tabaqa orasida targ‘ibot olib borib, katolik cherkovi uchun xayr-ehson qilish, papalikni qo‘llab-quvvatlash, bid’atlarni aniqlash kabi hufyona harakatlar qilganlar.

Katolitsizm Germaniya, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Polsha, Belorus, Ukraina, Latviya, Litva, Estoniya; Afrika, Amerika mamlakatlarida hozir ham mavjud bo‘lib, 35 ming iezutlar, 27 ming fransiskanslar, 21 ming solezianslar, 18 ming xristianlar birodarligi, monaxlar birlashmasi hamda ko‘p mingli ruhoniylar orqali ishlaydi. Vatikan va Rim papasi turli mamlakatlarda joylashgan radiotelekompaniya-lar, 50 dan ortiq tilda bosiladigan yuz millionlab nusxali jurnallar va diniy kitoblarga egadir. Katolik universitetlari, kollejlari, diniy maktablari, hatto yasli-bog‘chalari mavjud.

Vatikan va Rim papasi umumbashariy muammolar - urush va tinchlik, ekologiya, spid, rak kasalliklari, inson huquqlari, ocharchilik va qashshoqlik, yalpi qirg‘in qurollarini ta’qiqlash kabi masalalarni hal qilishga oid qalqaro simpozium, konferensiyalarda aktiv qatnashdi.

Vatikan va Rim papasiining siyosati «Xristian sotsializmi», «Xristian demokratiyasi»ni butun dunyoda o‘rnatishdir.

SHunday qilib xristianlikning yirik yo‘nalishi bo‘lgan katolitsizm dindorlarga xizmat qilmoqda.

**Pravoslavie yo‘nalishi.** Rim imperiyasi 395 yilda ikki qismga bo‘linib ketdi. 1054 yilda esa xristianlik katolitsizm va pravoslavie yo‘nalishlariga ajraldi. Rim imperiyasining sharqiy viloyatlarida feodallashish jarayoni sekinlik bilan bordi. Vizantiyada imperatorlik hokimiyati saqlanib qoldi. CHerkov doimo podsholar qaramog‘ida turar edi. Rus demokrat yozuvchisi V.G.Belinskiy aytganidek, pravoslavie ruhoniylari «har doim dunyoviy hokimiyatga xizmatkor bo‘lib kelganlar».

Imperator Konstantin o‘z imperiyasini mustahkamlash maqsadida cherkovni davlat muassasasiga aylantirdi. Patriarx amalda din ishlari vaziri bo‘lib qoldi. Pravoslavie deb atalishiga sabab: Bibliyadagi qadimgi aqidalarni izohlash va sharhlash erkinligi huquqiga ega bo‘lgan (pravo na slovo-o‘z fikriga ega) demakdir.

Pravoslavie cherkovlari boshliqlarining sobor majlisi imperator (podsho) tomonidan chaqirilib, uning yoki tayinlan-gan dunyoviy amaldor raisligida o‘tkazilishi ham pravoslavie har bir davlatga artokefal, ya’ni mustaqil cherkov ekanini ko‘rsatadi. Masalan, jahon xristian pravoslavie sobor yig‘inining 6 tasi ana shunday o‘tgan edi. Faqat 787 yilda Nikey shahrida o‘tkazilgan ettinchi sobor yig‘ilishida imperator patriarx sifatida qatnashgan edi. Jahon soborlarining qarorlari imperator tasdiqlagandan keyingina kuchga kirardi.

Pravoslavie patriarxlari ba’zan podsho yoki imperatorlar nazoratidan chiqib ketishga va ular ustidan hukmronlik o‘rnatishga urinib ko‘rardilar, ammo bunga erisha olmasdilar. Masalan,

Konstantinopol patriarxi shunday maqsadda Rimning besh ruhoniysidan madad olishga ham harakatlar qilganu, ammo o‘z niyatiga erisha olmay, imperator qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lib qolavergan.

Pravoslavie cherkovlari kimnidir avliyo deb e’lon qilmoqchi bo‘lsa bunga podsho ruxsatini olishga majbur edi yoki imperator xohlagan ruhoniyni avliyolikka ko‘tarishga to‘g‘ri kelardi. Masalan, Rossiya podshosi Ivan Grozniyning yoshgina o‘g‘li Dmitriyni podsho Vasiliy SHuyskiy talabi bilan alviyolar qatoriga kiritilgan.

**Pravoslaviening aqidaviy ta’limotlari.** Pravoslavie aqidalaridan iborat ta’limotlar jahon sobor yig‘ilishlari tomonidan qabul qilingan e’tiqod ramzlaridir.

1-aqida: bir tanada uch qiyofada namoyon bo‘ladigan ota, o‘g‘il xudolarga, muqaddas ruhga iymon keltirib, ular dunyoni ikkita qilib yaratgani, barcha narsalarni yo‘qdan bor qilgani va olamning egasi, boshqarib turadigan yagona hokimi mutloq deb ishonish, Muqaddas ruh - ota xudodan paydo bo‘lgan deb tasavvur qilinadi. Isoning oyoq qo‘lidan mixlanib o‘ldirilishi va tirik holda osmonga chiqib ketganligi, u yana Er yuziga qaytib kelishi, adolatli jamiyat o‘rnatishga ishonish.

2-aqida: cherkov gunohdan pokligi, aqidalarning o‘zgarmasligini e’tirof etish aqidasi. Bu aqidaga ko‘ra cherkovni dastlab Iso barpo etgan, so‘ngra u o‘zidan keyin o‘rniga avliyo Pyotrni qoldirganligi uchun cherkovlar gunohdan holi-forig‘ hisoblanadi. Pravoslavie yo‘nalishidagi ruhoniylar va xudojo‘y taqvodorlar diniy aqidalar xudoning inoyati bilan bandalarini to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi «muqaddas haqiqatlar» bo‘lganligi uchun ular hech o‘zgarmaydi, abadul-abad turadi, ularni ozaytirish ham, ko‘paytirish ham mumkin emas, deb hisoblaydilar.

3-aqida: Isoning onasi Bibi Maryamga, avliyolar va cherkov deb e’lon qilgan ruhoniylarga sig‘inish aqidasi ham kuchli ta’limot hisoblanadi.

**Pravoslavie marosimlari.** Xuddi katolik yo‘nalishidagi kabi pravoslavieda ham marosimlarga katta ahamiyat beriladi. Pravoslavie marosimlarining ko‘pi cherkovda o‘tadi. Katolik cherkovlarida ibodatlar paytida dindorlar bemalol stullarda o‘tiradilar, pravoslavie cherkovlarida esa dindorlar tikka turadilar. Katolik cherkovlarida organ musiqasi sadolari ostida ibodat qilinadi Pravoslav cherkovlarida ibodat paytida musiqaviy kuylar chalish odat emas. Pravoslavie va Katolik cherkovlarining ichki tomonini bezatishda ham farqlari bor. Masalan, pravoslavie cherkovlarida, ibodat uylarida butlar juda ko‘p. Bibi Maryam Iso, avliyolarning ko‘pdan-ko‘p haykallari ham mavjud. Pravoslavie cherkovlari va ibodat uylari nim qorong‘i, shamlar bilangina yoritilgan holda, sirli sharpalar, mungli munojot madhiya emas, balki marsiya ohanglari eshitilgan holda marosimlar o‘tadiki, bunday holat pravoslav ruhoniylarining fikriga ko‘ra, dindorning e’tiqod ruhiyatini kuchaytiradi. Agar yop-yorug‘ elektrlar yonib turgan holda ibodat qilinsa, dindorlar ibodatda chalg‘ishi mumkin, deb hisoblaydilar.

Pravoslav bayramlari ham juda ko‘p bo‘lib, ularning umumiy soni bir yildagi 365 kunning har biriga bir nechta bayrami to‘g‘ri keladi. Pravoslav bayramlari ulug‘lash ob’ektiga qarab Iso, Bibi Maryam va avliyolar sharafiga o‘tkaziladigan bayramlarga, tantanavorligi jihatidan - ulug‘, o‘rta va kichik bayramlarga va o‘tkazish vaqti jihatidan -surilmaydigan, oyning ayni bir xil chislolariga to‘g‘ri keladigan bayramlarga, hamda suriladigan, ya’ni pasxa kunlariga qarab, kalendar kunlari bo‘yicha almashib turadigan bayramlarga bo‘linadi. Ulug‘ bayramlar ro‘yxati pasxadan boshlanadi, undan keyin o‘n ikki bayram turadi. CHerkov esa Isoga xatna qilish, homiylik bayrami (pokrov) Ioann CHo‘qintiruvchining tug‘ilishi, uning boshini kesilishi, apostollar Pyotr va Pavel kuni bayramlarini ham ulug‘ bayramlar qatoriga kiritadi. Avliyolarga bag‘ishlangan pravoslav bayramlari haddan tashqari ko‘p. Pravoslavie cherkovi Nikolay mo‘‘jiza yaratuvchini ayniqsa ulug‘laydi. U savdo va dehqonchilik homiysi, kambag‘allar himoyachisi, odamlarning g‘am-kulfat kunlarida ularga madadkor, juda ko‘p mo‘‘jizalar ko‘rsatgan aziz avliyolardan biri bo‘lgan. Uning sharafiga atab yozgi va qishki Nikolay bayramlari o‘tkaziladi. Ilya payg‘ambar (Ilya kuni), Georgiy Pobedonosets (Egor kuni) ham

ulug‘lanadi. «Rossiya erida ziyo» sochgan barcha avliyolar degan bayram ham bor. Ko‘pgina bayramlar mo‘‘jizakor ikonalarga bag‘ishlangan. Bu bayramlar bir-biridan keskin farq qilmaydi.

Pravoslavie ibodat kitoblari - ibodat vaqtida ibodatxonalarda o‘qiladigan yoki cherkov xizmati, tainstva hamda treba (cherkov qavmlari talablariga ko‘ra) o‘tkaziladigan ibodat marosimlarini o‘tkazish tartibini o‘z ichiga oladigan kitoblar. Ibodatxonlarda o‘qiladigan kitoblar jumlasiga: «Appostollarning qilmishlari», sobor maktublari, Psaltir (Zabur) ni o‘z ichiga olgan Injil va apostol kiradi. CHerkov xizmati, tainstvo va trebalarni o‘tkazish tartibi haqidagi kitoblar jumlasiga ibodat tartiblarini bayon qiladigan Slujebnik (Ibodat kitobi), liturgiyadan boshqa ibodatlarni o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma bo‘lmish CHasoslov, tainstvo marosimlarini (hamda ruhoniylik unvonini berish marosimidan boshqa) o‘z ichiga olgan trebnik, cherkov qo‘shiqlari to‘plami - Oqtoyx, yilning har bir kuni uchun avliyolar sharafiga duo o‘qish va qo‘shiq aytish to‘plami-oylik Mineya, umumiy Mineya (bu ham shunday to‘plam, lekin unda umuman barcha avliyolarga taalluqli  qo‘shiqlar bor), post (ro‘za), Triodi (ro‘zaga yaqin va ro‘za oyida aytiladigan qo‘shiqlar) to‘plami kiradi. Unga ibodat, qo‘shiq, duo aytish, marosim tartibi kabilar kiradi. Marosim va ibodat paytida maxsus kiyiladigan kiyimlar bor va turli idish hamda anjomlar ishlatiladi.

Rus pravoslavie cherkovlari besh ruhoniysi - Butun Rossiya va Moskva patriarxi barcha cherkovlarga yuborgan maktubida shunday so‘zlar bor:«Ibodatxonalarimizning kundalik hayotidan elektr lampochkalariga ortiqcha xirs qo‘yishni cheklash vaqti keldi. Berilib ibodat qilish uchun ibodatxonalarga qadam qo‘ygan xudojo‘y miltillab yonadigan moychiroq, shamchiroq yorug‘ida ibodat qilishni istaydi. YOrqin elektr yorug‘i ibodat kayfiyatini so‘ndirishi u yoqda tursin, hatto bunday kayfiyatni tarqatib yuboradi»

988 yilning yozida Kiev knyazi Vladimir Vizantiya davlatidan pravoslavie mazhabiga qabul qilishni so‘radi va Konstantinopol patriarxligiga qabul qilindi. Rossiya xristianlikni shu tariqa qabul qildi. Vizantiyadan Rossiyaga kelgan messioner pravoslav ruhoniylar Kiev ko‘chalarida oliy tabaqaga mansub kishilarni Dnepr daryosida cho‘qintirdilar. Lekin oddiy odamlar yangi dinga kirishni xohlamasdan cho‘qinishdan bosh tortganlari ham bor edi, ular majburan cho‘qindilar. SHundan keyin Moskva, Novgorod, Tver, Pskov, Vladimir, Nijniy Novgorod knyazliklari ham birin-ketin cho‘qintirilib yangi dinni qabul qilganlar.

Qadimgi Rusning xristianlikni qabul qilishi ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan edi. CHunki Rus knyazlari asta-sekin yagona davlat bo‘lib birlashdilar. Rossiya Evropa davlatlari bilan yaqin aloqalar bog‘ladi. Rossiya xristian madaniyatini rivojlanishiga olib keldi.

Butun Rossiya va u bosib olgan joylarda ko‘pdan-ko‘p pravoslav cherkovlari, ibodatxonlar, monastirlar, xramlar vujudga keldi, ular o‘z podsholariga katta xizmat qildilar. Rossiya xudojo‘y xristianlar mamlakatiga aylanib ketdi. Hamma o‘quv tizimida, armiyada, oilada xristianlik ahloqi, aqidalari, marosimlari, duo va madhiyalari joriy etilgan bo‘lib, ularda Rus knyazlari, podsholari, imperatorlari mahalliy amaldorlari sharaflanardi. Pyotr 1  1711- yilda muqaddas Sinod tuzish va uni davlat qoshidagi diniy ishlar vazirligi bo‘lishi to‘g‘risida farmon chiqardi. Hozirgi davrda Butun Rossiya va Moskva  patriarxligi mavjud, uning Zagorsk shaharchasida markazi joylashgan. Aleksiy II esa hozirgi paytdagi patriarxdir.

Pravoslavie mazhabida hozirgi paytda yagona markaz yo‘q. Hozir 15 avtokefal, ya’ni biri-biridan mustaqil bo‘lgan pravoslav cherkovlari bor. Bular Konstantinopol (Turkiya), Aleksandriya (Misr), Antioxiy (Suriya), Quddus, Rus, Kipr, Gruziya, Serbiya, Ruminiya, Bolgariya, Ellada, Albaniya, Polsha, CHexiya, Amerika avtokefal cherkovlaridir.

Pravoslavieda ahloqiy ta’limotga ham alohida ahamiyat berilgan. YAqin  kishilaringni sev, yomonlik qilma, yaxshilik qil, o‘ldirma, o‘g‘irlik qilma kabi pand-nasihatlar o‘ta talabchanlik bilan ta’kidalanadi.

**Protestant yo‘nalishi**. 16-asrdan boshlab Evropa mamlakatlari shaharlarida burjuaziya sinfi shakllandi, ular shahar hunarmandlari, o‘rta darajadagi savdogarlar, ziyolilarga bosh bo‘lib

kapitalistik usulda moddiy boyliklar ishlab chiqarib, bozor munosabatlariga oʻta boshladilar. Tabiiy va gumanitar fanlarning rivojlantirmay, burjua demokratiyasini oʻrnatmay, vijdon erkinligini joriy etmasdan turib kapitalizm tuzumini oʻrnatib boʻlmas edi. Kapitalizm oʻziga asosiy raqib boʻlgan feodalizmni, cherkov va xristianlikning qarshiligini engibgina rivojlanishi mumkin edi. Xususan, katolitsizm cherkovlari, Rim papasi oʻrta asrlar tuzumi feodalizmning tayanchi, monarxiyaning tayanchlari boʻlib, bunga qarshi reformatsiya harakati kuchayib bordi. Antifeodal va antikatoloitsizm harakatlari Germaniyada avj ola boshlab, bu harakat boshida nemis byurgerlari, ya'ni burjuaziyasi turdi.

Germaniyadagi Vittenberg shahrida monax Martin Lyuter katolik cherkovini isloh qilishni, Rim papasi qaromogʻidan Germaniyadgi cherkovlarga ajratib mustaqil boʻlishni targʻib qildi. 1517 yilda Martin Lyuter cherkov eshigiga oʻzining 90 ta moddadan iborat tezislarini yopishtirib qoʻydi. Bu tezislarda, jumladan katolik poplarining indulgensiya sotishini, Germaniyadagi cherkovni Rim papasi qaramogʻidan ozod etishni talab qildi. Lyuterning bu talablarini butun Germaniyada xayrixohlik bilan kutib olindi. Mamlakatda katolik cherkovining zulmiga va zoʻravonligiga qarshi ommaviy harakat avj oldi, tez orada bu harakat xalq ommasining feodal tuzumga qarshi inqilobiy kurashga aylandi, dehqonlar urushi boshlanib ketdi. Bundan qoʻrqib ketgan hokimiyat egalari boʻlgan knyazlar, dvoryanlar va ruhoniylar armiya bilan, fanatik dehqonlar bilan birlashib dehqonlar harakatini bostirdi. Germaniyada feodalizm saqlanib qoldi.

Garchi xalq ommasi engilgan boʻlsa-da, Germaniyada katolitsizmning hukmronligiga barham berildi. Nemis knyazlarining koʻpchiligi bu erlardagi cherkovlarni isloh qildilar. Ular cherkovga qarashli erlarni tortib olib papa va episkoplarning cherkov ustidan hukmronligini bekor qildilar, koʻpgina monastirlarni yopib qoʻydilar. SHunday qilib katolitsizm oʻrnini protestansizm egalladi.

«Protestantlar» degan nom 1529 yilda «Protestansiya» deb atalgan hujjatga, ya'ni ruhoniy va dunyoviy feodal-larning umumgerman s'ezdi lyuteranchilikning tarqalishini cheklash haqida qabul qilingan qaroriga qarshi tuzilgan protestga imzo quygan nemis knyazlariga berilgan edi. Protestant knyazlar 1555 yilda Rim bilan bitim tuzishga muvaffaq boʻldilar, bu bitimga koʻra, har bir knyaz oʻz fuqarolari uchun istagan dinni: Lyuteranchilikni yoki katolitsizmni tanlab olish huquqiga ega boʻlgan ega boʻlgan edi. Natijada «mamlakatda kim hukmron boʻlsa, shuning dini hukmron boʻladi», degan qoida belgilanadi. Augsburg diniy olami deb nom olgan bu bitim protestansizmning Germaniya boʻylab keng yoyilib ketishiga olib keldi. Keyinchalik Lyuter tarafdorlarini ham, boshqa islohchi oqimlarning izdoshlarini ham protestantlar deb atay boshladilar.

XVI asrning oʻrtalariga kelib katolik dinini isloh qilish harakatida qatnashgan SHveysariya, Angliya, SHvetsiya, Daniya va Norvegiya mamlakatlari ham katolitsizmdan chiqdi. Soʻngra xuddi shunday ish Belgiya, Gollandiya va Fransiyada ham roʻy berdi. Bu ishlar CHexiya, Vengriya va Polshada amalga oshdi. XVII asrdan boshlab u shimoliy Amerikaga va Evropa davlatlarining boshqa mamlakatlariga kira boshladi.

Feodalizmni muqaddaslashtiruvchi katoliklar cherkoviga qarshi kurash boshlagan burjuaziya cherkovni butunlay tugatmay, uni «tuzatish», isloh qilishni, oʻz sinfiy manfaatlariga muvofiqlashtirishni maqsad qilib qoʻydi.

Protestansizm xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon boʻlishi, jonning oʻlmasligi, jannat va doʻzax (katolitsizmdagi a'rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar toʻgʻrisidagi umumxristian tasavvurlarni e'tirof etadi.

Protestansizmning oʻziga xos boʻlgan aqidalari quyidagilardan iborat: 1) shaxsiy e'tiqod bilan najot topish; 2) dinga ishonuvchan barcha kishilarning ruhoniy boʻlishi mumkinligi; 3) Bibliyaning oliy nufuzini tan olish;

4) dastlabki gunoh fe’l-atvorini buzganligi, uni yaxshilik qilish qobiliyatidan mahrum qilganligi, shuning uchun u xayrli ishlar, sirli marosimlar va asketizm yo‘li bilan emas, bandalar gunohini so‘rab olish uchun o‘zini qurbon qilgan Isoga shaxsan e’tiqod qilish yo‘li bilan oxiratda gunohlardan forig‘ bo‘lish mumkinligini; 5) xristianlikni qabul qilgan va cho‘qintirilgan har bir kishi o‘zini xudo bilan g‘ayritabiiy muloqatda bo‘lishga bag‘ishlaydi, bu ishni cherkov yoki ruhoniylar vositaligisiz amalga oshirishi mumkinligi; 6) ruhoniylar bilan oddiy dindorlar o‘rtasidagi aqidaviy farqning yo‘qligi; 7) ruhoniylar oddiy dindorlarning tavbasini qabul qilishi va ularni gunohdan forig‘ qilishi mumkin emasligi va ularning diniy jamoalar oldida hisob berishi to‘g‘risidagi aqidalarga amal qilishi ishlab chiqilgan.

Protestansizmning o‘ziga xos xususiyatlari:

- ruhoniylarning oila qurishi man’ etilmaydi;
- samoviy huzur-halovat to‘g‘risidagi ta’limotni rad qilingan;
- o‘lganlarga bag‘ishlab duo o‘qish, aziz avliyolarga sig‘inish, ular sharafiga bag‘ishlab bayramlar o‘tkazish, muqaddas murdalarga va ikonalarga (ikona yunoncha so‘z bo‘lib, uning ma’nosi tasvir, obraz, g‘ayritabiiy mavjudodlarning rasmlari, relefli tasvirlari bo‘lib, ular katolitsizm va pravoslavieda sig‘inish predmetlari hisoblanadi) topinish bekor qilinadi;
- ibodat uylaridan ortiqcha hashamlar, mehroblar, ikonalar, haykallar, qo‘ng‘iroqlar olib tashlanib, oddiy holga keltirildi;
- monastirlar va monaxlar jamoasi ham barham toptirilgan;
- ibodat nihoyatda soddalashtirildi, va’z aytish, duo o‘qish, psalomlarni (yunoncha pasaltir tarkibini tashkil etuvchi diniy qasidalar, ashulalar, xudoga hamdu sanolar o‘qish, iltijo, arz-dod (zorlanish), qarg‘ash kabilarni ona tilida o‘qish va kuylash joriy qilindi;
- Bibliya birdan-bir manba deb qaralib, muqaddas rivoyatlar rad qilindi. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni o‘rganish va sharhlash «gunoh» hisoblanmaydi.

Bu o‘ziga xos xususiyatlar burjuaziya demokratiyasining yangi diniy yo‘nalishga nisbatan tadbiq etish asosida paydo bo‘lgan.

Protestansizm ichki yo‘nalishlarida: Lyuteranlik, sving-lichilik, kalvinizm, anglikanchilik, mennochilik, anabap-tizm, unitarizm kabi mazhablar mavjud. Bu mazhablar XVI-XVIII asrlarda paydo bo‘lgan edi. Lekin keyinchalik yana protestansizmda: optistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, Iegovo shohidlari, Mormonlar yoki «Oxirat avliyolari», «Najot armiyasi», pyatidesyatniklar kabi diniy sektalar ham paydo bo‘ldi. Bu oqim va sektalarning ko‘pchiligi «diniy uyg‘onish», dastlabki xristianlik va Reformatsiya g‘oyalariga qaytish shiori ostida tashkil topdi. (Ilova: bu sektalarning ayrimlarini keyinroq aytamiz).

Protestansizm kapitalizm rivojlanishi, sotsializmning paydo bo‘lishi, marksizm dahriyligi va mafkurasi, ikkinchi jahon urushi va mustamlakachilikning tugashi ta’sirlari oqibatida o‘zining evolyusiyasi, yangilanish bosqichlarini boshidan kechirib, yangi protestansizm yoki liberalizm ilohiyoti, «inqiroz ilohiyoti», «yangi ilohiyot» kabi shakllariga ega bo‘ldi.

Protestansizm falsafasida, XVI asrda, dastlabki reformatsiya davrida Lyuteran ta’limoti asosida diniy e’tiqodni insonning xudo bilan shaxsiy aloqasidir, deb e’lon qilgan edi. M.Lyuter xudoni sxolastik diniy bilishni insoniy aql-idrokka qarama-qarshi qo‘ygan edi. Bu bilan inson aql idroki ham chetga chiqarib tashlandi. F.Melanxton esa neosxolastika ta’limotida diniy e’tiqod talablari muhokamasiz aql-idrokni aralashtirmasdan xudo bilan ruhiy qo‘shilishini ishlab chiqadi.

XVIII asrda yana Leybnits-Volf ta’limotida dinning o‘zini dunyoviy aql-idrok bilan mushohada qilish ob’ektiga aylantirildi. I. Kantning sxolastika va cherkovni tanqid qilishi va xudoni amaliy aql-idrok postulati (haqiqatligi ayon bo‘lmasa ham, isbotsiz asos qilib olinadigan qoida) va ahloqiy garovi sifatida e’tirof etishidan protestant ilohiyotchilari foydalanilmoqchi bo‘ldi.

XX asrning 20-yillarida vujudga kelgan «dialektik ilohiyot» (asoschisi K.Bart) liberal protestanszimni e’tiqodning «o‘lishi» sifatida rad qilib, S. Kergerning ekzistensialistik ta’limotida ishlab chiqilgan metodiga tayanadi: xristian dini apologetikasi (yun.-himoya qilish,

ya'ni ilohiyotning tafakkur dalillari yordamida diniy ta'limotni himoya qilish) dunyo mantiqqa to'g'ri kelmaydi», be'mani va unga inson «o'z ahvoliga tashlab qo'yilgan», degan g'oya asos qilib olindi. Bart va uning tarafdorlari esa xudo e'tiqod ob'ektiga aylanishi uchun his-tuyg'ular yoki aql idrok xizmatiga muhtoj emas, deb chiqmoqdalar.

Protestansizmda faqat cho'qintirish va non, vino iste'mol qilish marosimlari mavjud, xolos. «Lyuter inson qo'lini echib yubordi, ammo uning qalbini xudoga bog'lab berdi», degan edi, allomalardan biri.

Sekta lotincha-«ajralgan», «uzilgan», «mazhab» demak-dir. Hukmronlik qiluvchi yoki o'tmishda hukmronlik qilgan diniy yo'nalishdan ajralib chiqqan diniy mazhabni odatda ana shu so'z bilan atalgan. Xristianlikda barcha yo'nalishlarda ham firqalar bor. Ayrim sektalar mustaqil diniy oqimga aylanib ketgan. Xristianlikning o'zi dastlab yahudiy dinidagi sekta bo'lganligi boshda aytib o'tilgan edi. Rasmiy hukmron din sektaga mansub ruhoniylarni bid'atchilar, ular shaytonning yo'liga kirib ketganlar, deb qoralaydilar, O'tmishda sektantlik harakatlari yangi diniy aqidalar, marosimlar, bayramlar, rivoyatlar, ayrim diniy peshvolar, alviyolar ta'limotiga amal qilish, ijtimoiy-siyosiy sinfiy-tabaqaviy manfaatlar, rasmiy dindan norozilik oqibatlarida va boshqa sabablarga ko'ra kelib chiqqan va rivojlangan.

Biroq sektantlik juda xilma-xil bo'lib, uning ichki ziddiyatlari ko'p. Agar sektalarning aksar ko'pchiligi diniy yangi tarixiy sharoitga moslashtirish asosida paydo bo'lgan bo'lsa, shunday sektalar ham borki, ular eski dinni avvalgi holida, hech qanday o'zgarishsiz saqlab qolishga intiladilar.

Xristianlikdagi uchta yo'nalishning barchasida ham sektalar borligini hisobga olib, biz sektalarni matnda alfavit asosida bayon qilish maqbul deb hisobladik.

**ADVENTISTLAR FIRQASI**. Adventistlar (lot.-voqe bo'lish) protestansizm sektasi. Sekta XIX asrning birinchi yarmida AQSHda vujudga kelgan. Uning asosichisi Uilyam Miller (1782-1849) «Muqaddas yozuvlar va 1843 yilda yozilgan Isoning ikkinchi marta voqe bo'lishi» hamda uning shaxsan 1000 yillik hukmronligi haqida tarix dalillari» kitobida Bibliya tarkibiga kiradigan payg'ambarlar kitoblariga suyanib, Isoning ikkinchi marta kelishiga doir o'zi belgilagan muddatni asoslashga uringan. Bu fikr AQSHda mayda burjuaziya tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Ular payg'ambarning kelishiga muddat o'tib ketsa ham bari-bir ishonaveradilar. Adventistlar bir nechta bo'laklarga bo'linib ketdi. Ular orasida «ettinchi kun adventistlari» eng yirigidir. Ular ta'limotida ham Isoning ikkinchi marta qaytib kelib 1000 yil hukmronligi boshlanadigan kunning yaqinligiga ishonish mavjud. Ular oxiratga ham ishonadilar. Adventistlar insoniyat tarixi Iso va shayton o'rtasidagi abadiy kurashdan iborat, bu kurash shaytonning halokati bilan tugaydi, xalos bo'lishning birdan-bir yo'li adventistlar e'tiqodini qabul qilishdir, deb hisoblaydilar. Adventistlar jonning o'lishiga ishonadilar. Ularning fikriga ko'ra, Iso qaytib kelishi bilan jon tana bilan birga qaytib qo'shilib, tirilish ro'y beradi. Erdagi hayot xuddi shunga tayyorgarlik uchun berilgan. Adventistlar shanba kunini dam olish kuni deb hisoblaydi, o'z daromadlarining o'ndan bir qismini cherkovga tuhfa qiladilar. Adventistlar o'z noshirlik organlariga, ko'plab shifoxonalariga ega bo'lib, aktiv messionerlik faoliyati olib boradilar. Ular o'z cherkovlariga 1863 yili asos solganlar. Amerika, Afrika, Rossiyada 3 milliondan ko'proq adventistlar bor.

**Baptistlar firqasi**. Baptist (yun.-suv bilan cho'qintirish) protestantizmdagi sektalardan biri bo'lib, XVII asrda paydo bo'lgan. Uning asoschilari Gollandiyaga qochib borgan ingliz mahalliy cherkov va jamoalarinig avtonomik prinsipining himoya qiluvchilari bo'lib, 1611 yilda «Amsterdam va Gollandiyada yashab turgan inglizlarning diniy bayonnomasi»da yangi ta'limot ta'riflab berilgan. Unda bolalarni voyaga etganda cho'qintirish ko'zda tutilgan. Baptistlar din erkinligini e'tirof etishi, cherkovni davlatdan ajratishni talab qilgan mayda burjuaziya radikal qismining manfaatlarini ifoda etgan. 1612 yilda Angliyada, 1639 yili esa SHimoliy Afrikada birinchi baptistlar jamoasi vujudga kelgan. Baptistlar Bibliyani diniy ta'limotning yagona manbai deb hisoblaydi. Isoga ishonganlarning hammasini xudo xalos etadi, deb ishonadilar.

Baptistlar ruhoniylarning oddiy dindorlar bilan xudo o‘rtasida vositachi bo‘lishini inkor etadilar, alviyolarni, ikonalarni, muqaddas murdalarga sig‘inishni ham tan olmaydilar. Baptistlarda cho‘qintirish, non va vino totish asosiy muqaddas marosimlardir. Bu urf-odatlarni bajarish Isoga sadoqatning ramzidir. Hozirgi vaqtda Amerika, Afrika, Osiyo, Evropa, sobiq SSSR territoriyasidagi ko‘pgina mamlakatlarda baptist jamoalari mavjud.

1963 yilda bapstistlarning kengashi tashkil topdi.

Baptistlar bolalarni yoshligidan dinga o‘rgatadilar, ularni yoshlar tashkilotida qatnashishga qarshi turadilar. Baptistlar jamoasi dindorlarning uylarida to‘planib majlislar qiladilar.

**Iegova shohidlari firqasi 1872 y**ilda adventistlardan ajralib chiqqanlar tomonidan tashkil qilingan va o‘zlarini «Iegova shohidlari» deb ataganlar. Ular Iso bilan shayton o‘rtasida muqaddas jang - armagedon bo‘lib, unda Iso engib chiqadi, u o‘rnatgan 1000 yil davom qiladigan jannat va jamiyatda Iegova shohidlari yashaydi, qolganlari esa armageddonda qirilib ketadi, deb ta’lim beradilar. «Iegova shohidlari» kelajakda g‘azzovot, ya’ni diniy urush bo‘lishini bashorat qiladilar, bu jihatdan bu sektani insonparvar sekta deb bo‘lmaydi.

Iegovistlar markazi AQSHdagi Nyu-York shahri yaqini-dagi Bruklik shahrida joylashgan. Iegovistlar jamoasi 15-20 kishidan tashkil topgan. Barcha guruh boshida «xizmatkor», ya’ni rahbar turadi. Iegovistlar «Soqchilik minorasi» va «Informator» nomli jurnallar chiqaradi va ellik tilda tarqatadilar (yashirin ravishda).

Iegovo shohidlari AQSHni «xudo yorlaqagan davlat» deb e’lon qilib, AQSH «shayton kuchlarini» yo‘q qilish uchun xudo tomonidan tayinlangan, deb hisoblaydilar.

YUISA agentligi Iegovo shohidlarini mablag‘ bilan ta’minlab bormoqda. Ahloq sohasida Iegovachilar o‘z a’zola-riga: «Kabutardek beozor ilondek mug‘ombir bo‘ling» deb nasihat qiladi.

**Ilk xristianlik firqasi.** Ilk xristianlik firqasi 1-2 asrlarda xristian diniy ta’limoti shakllanishi davrida vujudga kelgan sektalardir. Xristianlik hech qachon yaxlit din bo‘lmagan. Xristianlikning eng ilk asari«Ioann vahiynomasi»da xristianlarning turli guruhlari (Nikolantlar) Vaalam tarafdorlari, ayol payg‘ambar Iezavela tarafdorlari) eslatib o‘tilgan.

Ebionitlar sektasi (kambag‘allar) yahudiylar marosimla-rini bajarishni tark qilmagan dastlabki xristianlar bo‘lib, ular tamomila tarki dunyo qilishga da’vat etganlar. Isoning ikkinchi marta qaytib kelishini kutganlar, boylikka qarshi chiqqanlar. Isoni taqvodor odam sifatida ulug‘laganlar, uni cho‘qinish vaqtida osmondan ilohiy ruh tushgan, deb hisoblaganlar.

II asrning ikkinchi yarmida montanchilar sektasi paydo bo‘lgan. Ular taqdirni oldindan aytib berish bilan shug‘ullanganlar, zohidlikni targ‘ib qilganlar, episkoplar hokimiyatini tan olmaganlar.

**Imyaslavichilar firqasi.** Imyaslavichilar firqasi (rus. imya-ism, slavit-sharaf-lamoq) 1910-1912-yillarda Afon (Gretsiya) dagi rus pravoslav monastirlarida vujudga kelgan sektalik oqimi tarafdor-laridir. Ismni sharaflovchilar sektasi ta’limotiga ko‘ra, inson o‘zining gunohkorligi tufayli ibodat paytida xudoni emas, uning ismini sharaflashi lozim. Rus Pravoslav cherkovi bu sektani bad’at, deb e’lon qilgan. Uning targ‘ibotchilari cherkovdan chetlashtirilgan va Rossiyaning turli monastir-lariga surgun qilingan. Keyinchalik imyaslavichlar monastirlarni tark etib yashirin ovloq qishloqlarda skit jamoalarini vujudga keltirdilar. Ular Rus va Moskva patriarxlariga qarshi chiqib, Sovet hokimiyatiga qarshi kurashdilar. Hozir ular juda oz qolganlar.

**Indamaslar firqasi.** Indamas dindorlar - haqiqiy pravoslav xristianlar sektasidagi o‘ta mutaassib oqim tarafdorlaridir. 20-asr o‘rtalarida Tambov viloyati territoriyasida paydo bo‘lgan sekta asoschilari L.Kislyanov bilan N.Viryatinskaya hisoblanadi. Indamaslar tasavvurida, odam bu dunyo bilan to‘la aloqani uzib «tirik murda» ga aylansagina najot topadi. Ular ishlashdan, atrofdagilardan ajralib, gaplashmasdan, yarim och holda yashaganlar. «Gunohga botgan odamlar»dan o‘zlarini olib qochishga intilib, ko‘chalarga faqat tunlari chiqishgan. Vaqtlarini

ro‘za tutish  va ibodat qilish bilan o‘tkazishgan. 1960 yillarga kelib bu oz sonli sekta tarqab ketdi.

**Staroobryadchilik firqasi**. Staroobryadchilik sektasi Rossiyadagi qadimiy sektalar-dan biri. Bu sekta XVII asr o‘rtalarida pravoslavie yo‘nali-shida yuz bergan ajralish natijasida paydo bo‘lgan. Patriarx Nikonning pravoslavie marosimlari va cherkov kitoblariga uncha jiddiy bo‘lmagan o‘zgarishlar kiritish ajralishga sabab bo‘lgan. Protopop Avvakum boshchiligidagi ruhoniylar Nikonga qarshi chiqqanlar.

Lekin ikki barmoq bilan cho‘qinish kerakmi yoki uch barmoq bilan cho‘qinish kerakmi, degan masala ham, «Iisus» so‘zida nechta «i» yozish kerakligi haqidagi masala ham o‘z-o‘zidan, ajralish boshlanishining asl sababi bo‘lgan emas, albatta.

Ajralish shuning uchun tez-tez yuz berganki, podsho Aleksey Mixaylovichning yangi qonunlarini joriy qilinishi boyarlari va savdogarlari o‘rtasida norozilik tug‘dirgan. CHunki ularning feodal imtiyozlari shu qonun bilan bekor qilingan edi.

Krepostnoychilik zulmining kuchayishiga qarshi kurash olib boradigan dehqonlar ajralishining asosiy kuchini tashkil etgan edi. CHor hukumati va ruhoniylar nifoqchilarni qattiq ta’qib ostiga oldilar. Natijada, ular mamlakatning chekka o‘lkalariga qochib ketishga majbur bo‘ldilar. Sekta 1905 yilda staroobryadchilar deb atala boshlangan.

Staroobryadchilar firqasi popchilar va popchi bo‘lmaganlar degan ikki yo‘nalishga bo‘linadi. Popchilar XIX asr boshlarida paydo bo‘lgan va sektaga kirmagan mustaqil cherkovlarda tashkil topgan. Popchilar yo‘nalishi esa cherkov ierarxiyasi va ibodatini inkor qiladilar va ular ham turli maslak va mazhablarga bo‘linadi: 1) qochoq poplar taraf-dorlari (grek-sharq cherkovidan kelgan ruhoniylarnigina e’tirof etuvchi yo‘nalish). Bu yo‘nalishning markazi Samara shahrida bo‘lib, unga staroobryadchi arxiepiskop boshchilik qiladi;

2) Moskva va butun Russiya arxiepiskopi boshchilik qiladigan va Moskvada joylashgan belokrinitsk ierarxiyasi. Straoobryadchilar hozir ham eski odat va an’analarni saqlab qolishga harakat qiladilar. Staroobryadchilar SSSR davrida amalga oshirilgan ishlarni yoqtirmas edilar. Bu sektadan yoshlar chiqib ketayotirlar. Natijada sekta tugab bormoqda.

**XLISTLAR FIRQASI**. XVIII asrda paydo bo‘lgan xlistlar firqasi «xudojo‘y kishilar» deb ataladi. Xlistlarda faqat mulkiy tafovutga ega bo‘lmagan «yangi isroil» va «eski isroil» degan mustaqil yo‘nalishlar mavjud. Xlistlarning diniy ta’limoti xristian-lik elementlari bilan majusiy dinlar e’tiqodlarining  g‘alati bir tarzda aralashishidan tarkib topgan. Ular, agar kishi o‘zining butun hayotida savob ishlar qilgan bo‘lsa, muqaddas ruh ana shu kishi tanasida paydo bo‘lishi mumkin, deb hisoblaydilar. Xlistlar bunday odamni «xrist» («Iso») deb ataydilar. Xlistlar butlarga emas, balki tanasiga muqaddas ruh singigan odamga sajda qiladilar. Xlistlar orasida sekta rahbarlarini ilohiylashtirish odati shu sababli keng yoyilgan. Xlistlarning ibodati (zikr qilishi) maxsus oq kiyimlarda o‘tkaziladi. Bu ibodatlar sapchib sakrash, er tepinish, jazavasi tutib fig‘on qilish, ayuxannos ko‘tarishlar-dan iborat bo‘lib, dindorlarning jismoniy va ruhiy jihatdan batamom holdan toyishigacha davom etadi. «Soyalar choshgohda yo‘qoladi» nomli romanda xlistlar sektasi ishi, «umumiy birodarlashuv» odati ko‘rsatilgan.

Xlistlar e’tiqodiga ko‘ra, sekta a’zolarining ba’zilariga shunday holatda muqaddas ruh jo bo‘ladi va ular «payg‘ambarlik» qila boshlaydilar. Sekta rahbarligining oz payg‘ambarliklari va targ‘ibotlari xlistcha g‘oyalarning asosiy manbaidir. CHunki xlistlar pravoslavie diniy yozuvlariga shubha bilan qaraydilar.

Xlistlar odam jismini gunohkor deb targ‘ib qilib, qat’iy asketizmga chorlaydilar. Endigina nikohga kirgan dindorlardan xotinini taloq qilishni talab qiladilar. Xlistlar jamoalarida ahloqan buzuqlik qilish avj olgan. Xlistlar juda maxfiy vaziyatda ish olib boradi. Sektaga kirgan kishi o‘lim vahimasi ostida hech kimga, hatto o‘z oila a’zolariga ham sekta to‘g‘risida xabar bermaslik haqida majburiyat oladi va qasam ichadi. Hozirgi vaqtda xlistlar deyarli yo‘qolib ketgan.

Xristianlikda yana ko‘pdan-ko‘p sektalar mavjudki, ular to‘g‘risida batafsil to‘xtab o‘tishga darslik hajmida imkon yo‘q. Ular haqida lug‘atlardan, oynomalardan va boshqa manbalardan mustaqil o‘qib olish mumkin.

1. **Dyakon** (yunoncha-xizmatchi) - II-III asrlarda episkop huzuridagi xizmat lavozimi, xristianlik jamoalarida xo‘jalik ishlarini olib boradi. Keyinroq esa diniy unvonga aylantirilgan, ibodat va marosimlarni o‘tkazishda pop yordamchisi bo‘lgan ruhoniy kishi.
2. **Kardinal** (lotincha-bosh, asosiy) - katolik cherkovida Rim papasidan keyingi ruhoniy. Kardinallar «kardinallar kollegiyasi» majlisining roziligi bilan papa tomonidan tayinlanadi va u papaning yaqin maslahatchisi hisoblanadi. O‘z navbatida konklav-kardinallar yig‘ilishi Rim papasini saylaydi.
3. **Katolik cherkovi episkoplari Sinodi-Rim papasi huzuridagi maslahat organi** 2-Vatikan sobori tavsiyasiga ko‘ra Pavel VI tomonidan tuzilgan. Papa xohishi bilan 3 yilda bir marta yig‘ilish o‘tkaziladi va cherkov uchun muhim masalani muhokama qiladi. Sinodning qarori episkoplarning 2G‘3 qismi (uchdan ikki) ovoz bergandagina qabul qilinadi va papa tasdiq qilsa kuchga kiradi.
4. **Katolikos** (yun.-umumiy) - arman-grigoryan cherkovi va gruzin pravoslav cherkovi boshlig‘ining unvoni, patriarx unvoni bilan birlashtirilgan va unga teng hisoblangan.
5. **Klir** (yun.-chek tashlash. Xristian ruhoniylari dastlab chek tashlash yo‘li bilan saylangan) - xristian unvonli ruhoniylari va cherkov xizmatchisi, ruhoniylarning hammasi, tor ma’noda pritch, ya’ni diniy mavzuda olib boriladigan dindorlarning suhbat yig‘ilishi ziyofatiga rahbarlik qilgan kishi. Dastlabki asrlarda Klirlar oddiy, kambag‘al kishilardan saylandi, lekin II asr oxiri III asr boshlaridan boshlab Klirlar Rim hukmdor sinflar, tabaqalari vakillaridan saylanib xristianlik dini davlat tomonidan asta-sekin tan olina boshlandi.
6. **Kolyada** - slavyanlarda qish faslida kunduzi eng qisqa, kechasi eng uzoq bo‘lgan paytda o‘tadigan bayramlarning xristiancha sikli. Kolyada qarashlari bo‘yicha bu vaqt yangi hayotning, tabiat yangilanishining boshlanishi. Kolyada kolyadakalar bilan birga o‘tkazilgan kolyadani yo‘q qilishga bo‘lgan urinish zoe ketgach, xristian cherkovi 25 dekabrdan 19 yanvargacha o‘tadigan Isoning tug‘ilishi va cho‘qintirilishga bag‘ishlangan bayramlar sikli-svyatkaga kiradi.
Markaziy Osiyo mamlakatlarida xristianlar mavjud bo‘lib, ularning markazi Toshkentda, bosh ruhoniysi Vladimir (episkop). Xristianlar bilan musulmonlar yaxshi aloqada, hamjihatlikda yashaydilar.

Kolyada vaqtida qadimgi slavyan xalqlari turli sayillar, o‘yin-kulgilar va marosimlar o‘tkazilgan. Endi bular qatoridan «Isoni ulug‘lash», yulduz va xristianlikka xos boshqa muqaddas narsalarni ko‘tarib yurish tartiblari joy oldi. Kolyada xalq bayramidir.

7. **Kretsianizm** (lat.-yaratish va jon) - xristian ilohiyoti ta’limotida jon to‘g‘risidagi oqim. Kretsianizm taraf-dorlari, (mas. Hozirgi neotomistlar) xudo har safar odamni yaratganda jonni uning tanasi bilan qo‘shib qo‘yadi, deb hisoblaydilar. Bunga qarshi oqim-tradutsializm (Tertullian lyuter) tarafdorlari esa jon Odam Atoga xudo tomonidan faqat yaratilgandagina ato etilgan, keyin bolalarga jon otadan, onadan homila bo‘lgan paytda o‘tadi deb ta’kidlaydilar.
8. **Krest-xoch salib**. - xristianlikda muqaddas timsol. Pravoslavie va katolitsizmda diniy sig‘inish predmeti. Bibliyada ko‘rsatilishicha Iso krestga mixlab o‘ldirilgan. SHuning uchun xristianlikni qabul qilish belgisi sifatida diniy timsolga aylangan. Xristianlikdan avvalgi dinlarda ham krestga sig‘inish mavjud bo‘lganligini arxeologiya fani ashyo predmetlari tasdiqlaydi.
9. **Lavra** (yun.-ko‘p kishilik monastir) yirik va muhim pravoslav erkaklar monastirlarining nomi. Rus pravoslav cherkovida Kiev-Pechera (1598 yilda), Troitsa-Sergiy (1744 yilda), Aleksandr Nevskiy (1797 yilda) va Pochaev-Uspenskiy (1833 yilda) monastirlari Lavra deb atalgan. Mahalliy eparxial arxiereylar Lavra Lavirlari hisoblangan. Troitsa-Sergiy Lavrasi noziri cherkov boshlig‘i - patriarx hisoblanadi.
10. **Maslenitsa** - qishni kuzatish va bahorni kutib olishga bag‘ishlangan qadimgi slavyanlar bayrami. Bayram kunlari oilalarda blin (tuxum o‘yma) taomi pishiriladi.

11. **Messa** (fransuzcha) - katolik cherkovidagi litergiya. Messa ibodat qilish va organ musiqasi sadolari ostida ashula aytishdan iborat. 1962-1965 yillarda 2-Vatikan sobori qarori bilan liturgiya milliy tillarda oʻtkazishga ruxsat berilgan.

12. **Miro** (yun.-xushboʻy yogʻ, moy)- miro surtish, choʻqintirish marosimida ishlatiladigan moy. Dastlab Miro oddiy oʻsimlik moyi boʻlgan. 6-asrdan boshlab unga balzam (malham) va xushboʻy narsalar aralashtira boshlangan, oq uzum sharbati, xushboʻy narsalardan tayyorlanadi.

13. **Monastir** (yun.-darvish hujrasi) - cherkovning muayyan yoʻl yoʻriqlari asosida birgalikda yashovchi monax rohiblar jamoasi va ular yashab turgan ibodatxonalar, turar joy uylar, maishiy xizmat xonasi, ombor, molxona, sexlari majmuasi. Monastirlar katoliklarda monofi-zitlarda mavjud. Dastlab Hindistonda er. av. 1-ming yillik oʻrtalarida buddistlar monastirlari paydo boʻlgan. Birinchi xristian monastirlari esa 3-4 asrlarda Misrda vujudga kelgan. Hozirgi paytda Rossiyada monastirlar yana qayta tiklanib amal qila boshladi.

14. **Monax, rohib** (yun.-yolgʻiz) - maxsus diniy jamoa a’zosi. CHerkov aqidalariga koʻra, bunday jamoaga mansub boʻlish xudo yoʻliga xizmat qilishning oliy usulidir. Monaxlikni qabul qiluvchi kishi soch qirqtirish marosimini bajaradi, ya’ni bu «gunohkor dunyodan» butunlay voz kechadi va butunlay cherkovga boʻsunadi. Buddizmda faqat erkaklar monax boʻla oladilar.

15. Monaxlik biror ta’magirlik qilmasdan, zohidlik bilan, uylanmasdan (erga tegmasdan) yashash niyatini qabul qilgan kishi.

16. **Papalik** salkam 1500 yil mavjud boʻlgan qadimgi diniy markazlardan birib boʻlib, dastlabki vaqtlarda papalik er-mulklar, ya’ni papa oblastiga xoʻjayinlik ham qilar edi. Papalik Rim episkopligi negizida yuzaga keladi. Imperiya poytaxtini 330-yilda Konstantinopolga koʻchirilishi va soʻnggi Rim imperatorining 476 yilda qulashi bilan Rimning dunyoviy-siyosiy hokimiyati episkop qoʻliga oʻtadi va uning cherkovga hukmronlik qilishiga asos solingan. Xuddi shu vaqtda Rim papasi unvonini oladi. 756 yilda franklar qiroli (Fransiya) Pakana Pipin papaga er hadya qiladi. (Papa oblasti), bu papaning dunyoviy hokimiyatini yuzaga kelishiga sabab boʻldi. F.Engels aytishicha, oʻrta asrda papa feodal sistemaning baynalminal markaziga aylandi. Napoleon esa papaning butun Evropada mavqeini tushurib yuboradi. Papa Ioann XXIII cherkovning papalik obroʻyini koʻtara boshladi. Papa Pavel VI (1963-1978 yillar) soʻngra papa Ioann Pavel II (1978 yilda saylangan edi. Hozir ham u papa) papalik mavqeini oshira bordilar.

17. Papa fanlar Akademiyasi oʻz faoliyatini 1603 yilda boshlagan va bir necha marta qayta tashkil etilgan boʻlib, hozirgi shaklida 1936 yildan buyon mavjud. Bu Akademiyaning 70 nafar haqiqiy, faxriy a’zolari mavjud. Akademiya yigʻilishlariga har qanday mamlakatlardagi tabiiy va texnika fanlari bilan shugʻullanadigan olimlardan papa taklif qilingan kishilar qatnashdilar. Byulleten nashr qiladi.

18. **Pastor** (lot.-qavmga rahbarlik qiluvchi, choʻpon- ruhoniylik unvonini berish marosimini (svyashenstvo) inkor etuvchi protestant oqimlaridagi cherkov xizmatchi.

19. **Pasxa** (qadimgi yahudiycha pesax - oʻtib turadigan)-injillarda yozilishicha krestga tortilgan Isoning «moʻʻjizaviy tirilishi» xotirasiga bagʻishlangan xristianlarning asosiy bayrami. Dastlab pasxa qadimiy yahudiylarning chorvador va dehqonlari bayrami boʻlgan. Faqat 325 yilda xristian cherkovi jahon (Nikeya) soborining qarori bilan xristianlar pasxasi alohida, bahorning kecha-kunduz tengligi va oy toʻlishgan birinchi yakshanbasida oʻtkaziladigan boʻlgan.

20. **Patriarx** (yun.-ota, asos soluvchi) - pravoslavieda oliy diniy martaba bir qancha mamlakatlardagi pravoslav cherkovining boshligʻi. Katolitsizmda patriarx martabasi ayrim ierarxiyalarning boshliqlariga beriladi.

21. **Pop** (svyashennik, rasmiy cherkov tilida ierey, prosviter) pravoslavieda diniy marosimni ijro qiluvchi, ibodatni mustaqil olib borishga ruxsat etilgan oʻrta darajadagi ruhoniy. Pop barcha sirli marosimlarni (ruhoniylik unvoni berish marosimidan tashqari) amalga oshiradi.

22. **Popchilik** (Popovshina) - straoobryadchilikdagi asosiy yoʻnalishlardan biri. U ruhoniylik unvonini berish marosimini tainstva (sirli marosimlar) va trebo (qavmlar) iltimosiga koʻra butxonada oʻtkaziladigan ibodat marosimini bajaruvchi sektalar va guruhlarning birlashishi.

23. **Postlar** (ro‘zalar) - umuman ovqatni oyoq yoki uning biror turini iste’mol etishni ta’qiqlovchi, cheklovchi diniy ta’qiqlar. Ilohiyotchilar fikricha ro‘zalar inson ruhini amaliy poklash va yangilash uchun xizmat qiladi. Masalan, Xristovoverlarda piyoz, kartoshka, sarimsoq piyoz solish ta’qiqlangan.

**TAYANCH IBORALAR:**

Injil, Rim papasi, Abbat, monox isus, Apostol, Matfey, Luna sinena, Iuda, Pontiy Pilat, CHo‘qintirish, Protestant.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Xristianlik qanday din?
2. Prichashgeniyo qanday marosim?
3. Xristianlik yo‘nalishlari.
4. Provaslaviya qanday yo‘nalish.

**ADABIYOTLAR:**

1. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
2. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
3. Xayrullaev M, SHoaxmedov M. Madaniyat va meros. T. 1973.
4. Nikoleniy M. Istoriya russkoy seriviy. M. 1985.
5. Religioznыe traditsii mira V2-to max. M. 1996.

**MAVZU: ISLOM DINI VUJUDGA KELISHI VA TARKALISHI (2 soat)**

**Reja:**

**1. Islom dini paydo bo‘lishiga qadar arabiston yarim orolidagi ijtimoiy-siyosiy, diniy xayot (joxiliya davri tarixi)**
**2. Islom dinining vujudga kelishi va jaxon diniga aylanishi**
**3. Markaziy Osiyoga islom dinini kirib kelishi**

Islom (islom dini) Arabiston yarim orolining janubiy-g‘arbiy tomonidagi viloyatlarda, xususan Hijoz vohasida joylashgan Makka va Madina shaharlarida yashaydigan arab qabilalari (qurayshlar) orasida VII asrning birinchi yarmida vujudga kelgan yangi jahon dinidir.

Islom paydo bo‘lishi arafasida Arabistonning g‘arbida O‘rta er dengizining SHarqiy qirg‘oqlarida, shimoliy Afrikada (xususan Misrda) yakka xudolikka asoslangan iudaizm (yaxudolik) dini, shimol tomondagi Vizantiya (Hozirgi Turkiya) davlatida esa nasroniy dini (xristian) mavjud bo‘lib, bu dinlar arablar orasida ham tarqalmoqda edi. Bu to‘g‘rida Qur’onda ham ma’lumotlar berilgan. (Baqara surasi). O‘sha davrdagi tarixiy vaziyatda arab qabilalari va shahar davlatlari aholisi oldida quyidagi tarixiy vazifalar mavjud edi:

1. Arablar hayotida urug‘chilik, qabilachilik tartiblari emirila boshlab, qulchilik bilan feodal tartiblari shakllanayotgan edi. Natijada arablar ijtimoiy turmushida tabaqalanish, sinfiy tengsizlik ro‘y berib, bir tomondan boy badavlat xonadonlar, ikkinchi tomondan qashshoq xonadonlar mavjud bo‘lib, hayotda yuqori tabaqa oilalarida dabdabali to‘y-ma’rakalar, aysh-ishratbozlik, isrofgarchilik, maishiy aynish avj oladi. Ayni paytda kambag‘allar, etim-esirlar ahvoli og‘ir edi. Rahm-shafqat, adolat kamayib ketgan edi. Bu xususda Qur’onda (Niso surasi va boshqa suralarda) juda ko‘p fikrlar aytilgan.

«Islom - ixlos, tinchlik, omonlik, sulh, turli ofatlardan salomat bo‘lish, itoat , bo‘sunish kabi ma’nolarni anglatadi»

(Qarang: Poklik imondandir.T., «O‘zbekiston», 1991 yil, 33-bet)

2. Arab qabilalarining bir qismi vodiy va vohalardagi qishloq hamda shaharlarda yashab, dehqonchilik, hunar-mandchilik va savdo ishlari bilan shug‘ullanardi. Bu joylarda madaniyat ancha rivoj topgan edi. Makka va Madina madaniyat va diniy markazlar edi.
Biroq o‘sha vaqtlarda arablarning ko‘pchiligi sahrolarda yashab, ular chorvachilik bilan shug‘ullanib ko‘chmanchilik hayotida yashaganlar. SHaharlik va sahroyi-badaviy arablar orasida tez-tez talonchilik urushlari yuz berib turganligi tarixiy manbalarda ko‘rsatilgan. Arablarda ularni tartibga solib turadigan markazlashgan kuchli davlat ham yo‘q edi. Ana shunday kuchli davlat tuzish tarixiy zaruriyatga aylangan. Bu davlat ijtimoiy tarqoqlikka barham berib, arablarni birlashtirishi zarur edi.

3. O‘sha davrda arablarda g‘oyaviy-mafkuraviy birlik ham yo‘q edi. CHunki, arab qabila va urug‘lari turli-tuman dinlarga diniy urf-odatlarga amal qilganlar, ayniqsa ajdodlar ruhiga sig‘inish, ayrim hayvonlarni ilohiylashtirish (totemizm), ayrim tog‘lar, g‘orlar, suv manbalari, daraxtlar, toshlar, osmon jismlaridan; oy, quyosh, yulduzlarni muqaddaslashtirib ularga sig‘inish (fetishizm), ins-jinslar, devlar, alvasti, pari, afsonaviy xizr kabi g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish kuchli bo‘lgan. Qabilaviy xudolar, ma’budalar, ya’ni ilohalarga e’tiqod qilishardi. Ka’ba (toshdan qurilgan to‘rtburchak ibodat uyi) to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar saqlanib qolgan. Islomiy davrgacha hukm surgan bu johiliya davri mushriqiylik bo‘lib bu ham arablarni mafkuraviy jihatdan birlashtirish yo‘lidagi g‘ov edi. Kun tartibida ko‘p xudolik - mushrikiylikdan vahdoniyatga, ya’ni yakka xudolikka o‘tishdek muhim tarixiy vazifa turar edi.

4. SHahar boylari va boy chorvadorlar orasida ko‘p xotin olish, ko‘p kunlarga cho‘zilgan dabdabali to‘y-ma’rakalar, ichkilikbozlik, qimor o‘ynash, fohishabozlik kabi yaramas odatlar keng tarqalgan edi. Ayrim arab oilalarida qiz bolalarni erga ko‘mib tashlashdek dahshatli odat ham bor edi. Kun tartibida ana shunday ahvolga barham berish vazifasi ham mavjud edi.
YUqorida sanab o‘tilgan tarixiy vazifalarni faqat Olloh xohish irodasi bo‘lgan Islom dini kuch-quvvati bilangina bajarmoq mumkin bo‘ldi. Ollohga iymon-e’tiqodga da’vat qilish faoliyatini xanifalar boshlab yuborgan edilar.

Xanifalar (xanif, arabcha so‘z bo‘lib, ma’nosi chinakam e’tiqod qiluvchi, taqvador kishi) demakdir. O‘z hayotini yakka xudoga e’tiqod qilishga da’vat qilishga bag‘ishlagan.

Islom dini vujudga kelmasdan ilgari arablar orasida yakka xudolik g‘oyasini targ‘ib qilib chiqqan ruhoniylar xaniflar edi. Xaniflardan Sijjah, Tulayh, Asvad, Musaylima kabilarning ismlari manbalarda tilga olingan. Xaniflar o‘sha davrda arab qabilalari o‘rtasida keng yoyilgan mushrikiylikka qarshi chiqib yakka xudolikni targ‘ib qilib chiqqanlar. Xaniflar Tangri, Vohid, Karim, Faxim. Rahmon, Akbar, Taolo, Odil kabilarning har biri Ollohning, yaratuvchining sifatlari deb targ‘ib qilganlar. Xaniflar odamlar ahloqidagi badnafslik, ochko‘zlik, ahloqiy buzuqlik, shuhratparastlik, dabdababozlik, haddan ziyod isrofgarchi-likka olib boradigan katta to‘ylar, ma’rakalar qilishni qattiq qoralaganlar va aksincha, insof, adolat, nafsni tiyish, o‘zgalar haqqidan hazar qilish, bir-birlariga yordam qilish, vatanni sevish, ilm-ma’rifatni egallash kabi fazilatlarni targ‘ib qilganlar. Ular turli butlarga sig‘inishga chaqir-ganlar. Ortiqcha urf-odatlarni bid’at deb hisoblaganlar.

Muhammad Ibn Abdulloh yoki Muhammad payg‘ambar Saudiya Arabistonidagi Makka shahrida Quraysh qabilasining Xoshimiylar xonadonida melodiy yil hisobida 570 yilda tug‘ilgan. Ilk Islom manbalaridagi ma’lumotlarga qaraganda, Muhammad «fil egalari yurishi» deb atalgan tarixiy voqeadan ellik kun keyin tavallud topgan. Islom an’anasida bu 1-«fil yili» rabi’-ul-avval oyining 12-kuni deb qabul qilingan. Al-Xorazmiy va al-Beruniylarning aniqlashlaricha, bu tarix 570 yilning 20 apreliga to‘g‘ri keladi.(Qarang: Mutallib Usmonov. Qur’oni Karim va janobi Rasululohning amallari.T., «Nur». 1992 yil, 5-bet).

Arabiston sahrolarida ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullangan Quraysh qabilasining o‘ndan ortiq urug‘i V asr boshlarida Makka vohasiga joylashib, o‘troqlashgan edi. Bu joyda mavjud bo‘lgan Ka’ba ibodatxonasi Ibrohim payg‘ambar o‘g‘li Ismoil bilan birga boshpana uchun qurgan, degan rivoyatlar ham bor. Zam-zam bulog‘i hamda uning atrofidagi erlar qadimdan arablar o‘rtasida muqaddas hisoblangan va vaqti-vaqti bilan bu erni ziyorat qilish qabilalar o‘rtasida odatga aylanib ketgan. CHunki, Ka’bada qabilalarning o‘z xudo-ilohalari-yu ma’budalari uchun qo‘ygan butlari, sanamlari, haykallari mavjud bo‘lib, ularning jami soni 360 ta edi. Ana shu xudolarga atab har yili bahor va yoz oylarida Arofat tepaligida arablar tuya, mol, qo‘y kabi hayvonlarni so‘yib xudoyilik qilganlar. Ka’ba yonidagi qora toshga sig‘inib, uning atrofidan aylanib zikr raqsiga tushganlar. Zam-zam suvidan iste’mol qilib, unga jannatdagi kavsardan er yuziga otilib chiqqan muqaddas ne’mat suvi deb bilganlar. SHu tariqa V asr o‘rtalaridayoq Makka shaharga aylangan. Makkada katta bozorlar vujudga kelib, unga atrofdagi arab qabilalari, uzoq yurtlardan ham savodgarlar kelishib tijorat va ziyorat qilganlar. Hozirgi vaqtda ham ana shu jarayon xaj marosimi nomi bilan davom etmoqda.

Makkadagi hoshimiylar xonadoni nufuzli urug‘lardan hisoblangan. Muhammad avlodlari shu xonadondan chiqqan. Muhammad ham yosh bo‘lgan paytlarida Makka ziyoratgohlari-ning tasarrufi hoshimiylar qo‘lida bo‘lib, uning bobosi Abdul Mutallib Ka’baning bosh shayxi, eshik kalitlarini saqlovchi edi. Abdul Mutallibning oltita o‘g‘li bo‘lib, ikkinchisi - Abdulloh Muhammadning otasi. U Muhammadning tug‘ilganini eshitib savdo karvoni bilan falastindan qaytib kelayotib yurak og‘rig‘i kasalidan Madinada vafot etgan. Onasi Omina esa chaqalog‘ini ko‘tarib karvon bilan qaytgani haqida manbalarda ma’lumotlar mavjud.

O‘sha davrda Makkada o‘ziga to‘q arablar orasida farzandini atrofdagi qishloqlardagi ayollarga emizishga berish odati bo‘lgan. Muhammadni ham bobosi Sa’d ibn Bakr qabilasidagi Halima Ismli ayolga emizishga bergan. Muhammad enaga bag‘rida besh yoshigacha yashagan va keyin makkaga, uyiga olib kelingan.

Bu o‘rinda shuni ham tilga olib o‘tish kerakki. Muhammad besh yoshida, hali Halimaning bag‘rida yashayotgan vaqtidayoq kelajakda payg‘ambar bo‘lishi uchun osmondan ikkita farishta tushib ko‘kragini ochishgani, qalbidagi insonlarga xos bo‘lgan g‘araz va yomonliklarni ildizi bo‘lgan qora qoni olib tashlangani va qalbini poklashgani haqida rivoyat bor. Bu voqeani islom tarixida «Sa’d» voqeasi deb ataladi.

Muhammad olti-etti yoshligida, ya’ni onasi Omina hayotdan ko‘z yumgach, uni bobosi Abdumutallib o‘z tarbiyasiga olgan. «Abdumutallib Muhammad allayhissalomni o‘z bolalaridan yuqori tutib har tarafga borsalar olib borar erdilar».(Qarang: Badoyi’u-r-rivoyat.T., «YOzuvchi» nashriyoti, 1995 yil, 12-bet).

Lekin oradan ikki yil o‘tib, bobosi ham vafot etgan. SHundan keyin Muhammad tarbiyasi katta amakisi Abu Tolib qo‘lida bo‘lgan. Bolaligida u amaksining qo‘y va echkilarini boqqan. Keyinchalik Abu Tolib Muhammadni bir marotaba karvon bilan Suriyaning Busro shahridagi bozorga ham olib borgan. Ancha voyaga etganda Muhammad savdo karvonlarini tuzishda xizmat qilgan. 595-yilda amakisining maslahati bilan Muhammad badavlat beva ayol Xadichaning xizmatiga kirib, uning mollarini karvon bilan Suriyaga olib borib sotib kelgan. Oradan ko‘p o‘tmay, u Xadichaga uylangan.

Ilk Islom manbalarida Xadichaning yoshi haqida ikki xil ma’lumot uchraydi. Ovrupo islomshunoslari Muhammad 25 yoshida o‘zidan 15 yosh katta bo‘lgan ayolga uylangan, deb kamsitish maqsadida, faqat ana shu ma’lumotlardan bittasini mutloqlashtirganlar. Ularning asarlari orqali bu ma’lumot Sovet milliy va targ‘ibot adabiyotida ham keng tarqalgan edi.

Aslida, ikkinchi ma’lumot ham mavjud bo‘lib, bu ma’lumotlar Muhammadning keyingi xotini oysha so‘zlariga asoslangan. SHunga ko‘ra Muhammad uylangan vaqtda 23 yoshda, Xadicha esa 28 yoshda bo‘lgan. Bu ma’lumotni haqiqatga yaqinroq deb hisoblash kerak, chunki Xadicha Muhammaddan oltita farzand ko‘rgan. Birinchi ko‘rgan farzandi, o‘g‘liga al-Qosim deb

ism qo‘ygan, u ikki yoshligida vafot etgan. To‘rt qiz: Zaynab, Ruqiya, Ummi-Gulsum, Fotimalar katta bo‘lib turmush qurishgan. 613 yilda esa yana bir o‘g‘il ko‘rgan bo‘lib, unga at-Tohir deb, ism qo‘ygan, u go‘dakligida vafot etgan.

(Qarang: Mutallib Usmanov. Qur’oni Karim va janobi Rasulullohning amallari.T., «Nur» , 1992 yil 9,73-betlar).

Muhammad bilan Xadicha 15 yilga yaqin g‘oyat tinch va yaxshi turmush kechirganlar. Qizlarini turmushga uzatganlar. Zaynabni uzoq qarindoshining o‘g‘li Lakit Abul-Os ibn Rabiga, Ruqiya bilan Ummi-Gulsumni esa amakisi Abdul Uzzaning ikki o‘g‘liga, Fotimani amakisi Abu Tolibning o‘g‘li Aliga turmushga berganlar. Oilada: Muhammad, Xadicha, Fotima, Ali, ozod qilingan qul-o‘g‘il Zayd ibn al-Xorisa, hammasi bo‘lib besh jon yashashgan.

Savdo ishlari bilan Suriya, Falastinga borgan vaqtlarida Muhammad iudaizm (yahudiy) va nasroniy (xristian) dinlari bilan tanishgan, katta ruhoniylar suhbatida bo‘lib, yakka xudo va payg‘ambarlar, ayniqsa Muso (Moisey) va Iso (Iisus) payg‘ambarlar to‘g‘risida ko‘p qiziq ma’lumotlar eshitib, ta’sirlangan. YOshlik paytlarida bobosi Abdul Mutallib va uning suhbatlarida qatnashgan ulamolardan din to‘g‘risida ko‘p saboq olgan edi. U bir necha yillar mobaynida mutassil ravishda diniy tafakkur va ibodat bilan shug‘ullanib turgan. Uning xotirasi kuchli bo‘lib, xulosalar chiqarishga qobiliyatli bo‘lgan. Nihoyatda taqvodorlik bilan hayot kechirgan. Muhammad Makka yaqinidagi Xiro g‘origa borib doimo ibodat qilgan, bir necha kunu tunlarni shu g‘orda o‘tkazish odati bo‘lgan. «Diniy yozuvlarni biladigan odam» sifatida tanilgan qarindoshi Varaqa ibn Navfaldan ham ta’lim olgan. Muhammad payg‘ambar 610 yilda 40 yoshida Makkada aktiv Xanif sifatida faoliyat boshlab, Islom dini, barcha borliqning, u dunyo-yu bu dunyolar egasi Ollohni targ‘ib qilib, hammani yangi dinga e’tiqod qilishga da’vat eta boshlagan.

Muhammadga vahiy kelgan. Ollohdan farishta Jabroil vahiy keltirgan. (Vahiy - lug‘aviy ma’nosi: «Uqdirish», «diliga solish» mazmunida Ollohning payg‘ambariga yuborgan amri).

Muhammadning Islom dini uchun olib borgan kurashi ikki davrga: Makka va Madina davrlariga bo‘linadi.

Islomni Makka davridagi targ‘iboti, mushrikiylikka qarshi olib borgan kurashi, melodiy 610 yilning 15 dan 16 avgustga o‘tar kechasidan boshlanib to 632 yilning 8 sentyabr-igacha, ya’ni 23 yil davom etgan.

Ibn Ishoq-Ibn Xishomning «Siratu-r-Rasul-Olloh» asarida shunday rivoyat keltirilgan: Muhammad Xiro g‘orida tunab qolgan bir kechada osmondan ovoz eshitgan va farishta Jabroil unga «O‘qi!» deb buyurgan. U «Men o‘qishni bilmayman»,-deb javob bergan. Jabroil yana «O‘qi!» deb ikki bor takrorlagan va har daf’a u og‘ir azob chekkan. Oxirida farishta unga ko‘rsatib turgan yozuvni behos o‘qigan. Keyin Jabroil uning Ollohning elchisi qilib olinganini aytgan. (Qarang: YUqoridagi kitob, 10-bet).

Rasulilloh Xiro g‘oridan qaytib kelib, bo‘lgan voqeani va Qur’on surasining vahiy qilinganini xotini Xadichaga aytgan va darhol Xadicha vahiyni kalima qilib qaytarib musulmon bo‘lgan.Dastlabki vahiy kelgan kechasi «Laylatul qadr»-mazmuni «qudrat kechasi» yoki «taqdir kechasi», ilohiy qudrat tufayli Qur’on yuborila boshlangan va unda islomiylar taqdiri belgilangan kecha, degan ma’no mavjud.

Musulmonlar Laylatul qadr kechasini muqaddas deb bilishlari ana shundan paydo bo‘lgan. Dindorlar har yili shu kechada Olloh har bir musulmon ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning taqdiri haqida hukm chiqaradi, baxt ato etadi, deb ishonadilar. SHuning uchun ham laylatul qadr kechasida Qur’on o‘qib, Ollohga iltijo qilib chiqish rasm bo‘lib, u katta savob hisoblanadi.

Muhammad Rasulilloh targ‘ibotiga dastlab yaqin qarindoshlaridan bir qismi ishonib, uning izdoshlariga aylanishdi. Islomni qabul etganlar safi kengayib borgan. Quraysh qabilasidagi

yoshlarning bir qismi ham payg‘ambarga ishonib islomni qabul etganlar. Muhammad dastlabki to‘rt yilda o‘z hovilisida targ‘ibot olib borgan. Uning tarafdorlari 35 kishiga etgach, badavlat zadagonlardan birining o‘g‘li al-Arkam 614 yilda yig‘ilishlarni o‘z hovlisi-da o‘tkazishni taklif qilgan. Al-Arkam  hovlisida islomni qabul qilgan Umar ibn-ul-Hattob 40-musulmon bo‘lgan kishi hisoblanadi. Islom tarixida dastlab islomni qabul qilgan 40-45 kishilar obro‘-e’tiborli bo‘lib, ular orasidan keyinchalik Abu Bakr, Umar, Ali, Ja’far kabi ulug‘ kishilar etishib chiqqanlar.

Muhammad va uning safdoshlari doimo birga bo‘lishib, to‘ylarda ham, azada ham, namozu ro‘zalarda, iftorlik va jumada ham hamkorlikda bo‘lib, bir-birlarining ahvolidan xabar olishgan, yordam qilishgan, manfaatlari, oila, mol-mulklari doimo bahamjihatlikda yashagan va tasarruf etilgani uchun ularni «mo‘minlar jamoasi» deb atashgan. «Mo‘min-musulmon» atamasi ana shu tariqa paydo bo‘lgan.

Ana shu dastlabki bosqichda Muhammad payg‘ambar targ‘ibotida odamlarni yakka xudo Allohga iymon keltirishga da’vat etadi. YAkka xudoga iymon mohiyati Ibrohim payg‘ambar e’tiqodini tiklash, odamlarni halollikka, birovning haqqiga xiyonat qilmaslikka chaqirish mazmunida talqin etiladi. Savdo bilan shug‘ullanish savob ish, pulga foyda olish (sudxo‘rlik) esa qattiq gunoh deyiladi, oxirat yaqinlashgani-ni, u kun kelgach, Olloh barchaning ishini hisob-kitob qilishi, oxirat kunining dahshatlari, har kimning qilmishiga yarasha ajr borligi, ya’ni gunohkorlari do‘zaxga, savob ishlar qilganlari jannatga tushishi kabi g‘oyalar targ‘ibotning asosiy mazmunini tashkil etgan.

Makkada nozil bo‘lgan suralar oxirat va ajr masalalariga ko‘proq bag‘ishlangan bo‘lib, ular odamlar ruhiga kuchli ta’sir etgan.

Makkada nozil bo‘lgan suralar 90 ta bo‘lib, ulardan 81,83,84,101,102,107-suralarida mol-dunyo ko‘paytirishga intilib, odamgarchilikni unutadigan kishilar, odamlarni tarozidan aldab, yolg‘on gapirib, firibgarlik qilib, pulga foyda olib, mol-dunyosini ko‘paytiradigan qalblarning ishi qoralanadi. Beva-bechoralarga, etim-esirlarga g‘amxo‘rlik qil-maydigan, qo‘l uzatgan gadoni haydaydigan qattiqqo‘l, shafqatsiz, toshmehr odamlar tanqid qilinib, rahmdillik, insonlarga yordam qilish targ‘ib etilgan.

Bunday umumbashariy va insoniy hislarga, ahloqiy halollik va poklikka da’vat, g‘oyatda shirali va chiroyli qilib tilovat etilgan oyatlar, ayniqsa, yoshlarga kuchli ta’sir qilganligi sababli ular islomni bajonidil qabul qiladilar, ularni bu yo‘ldan ota-onalarining jazosi ham qaytara olmaydi, xususan qullar islomni e’tiqodga aylantiradilar.

Biroq Muhammad 615 yilda xalq yig‘inlari va an’anaviy qurbonlik o‘tkaziladigan Safo tepaligida xalqqa ochiq murojaat qilib, Islom diniga kirishga da’vat qilib, avvalgi ma’jusiylik bilan mushrikiylikni qattiq qoraladi. Ayniqsa navbatdagi qabilaviy xudolarga qo‘yilgan iloha haykallarni sindirib tashlashga chaqirgach keskin qarshilikka uchraydi, to‘qnashuv, tahqirlar boshlanadi.

Makkaliklarning ota-bobolari Allohni tanimagani uchun do‘zahda azob chekmoqdalar, degan mazmundagi oyatlar makkalik zodagonlar, savdogarlarning yuqori qismida norozilikni kuchaytirdi. SHundan keyingi vaqtlarda payg‘ambar va uning safdoshlarining ahvoli yomonlasha boshladi.

Muhammadning amakisi Abd al-Uzza ilgaridan islom targ‘ibotiga qarshi edi, u hoshimiylarni chaqirib xonadonimiz obro‘sini to‘kayapsan, deb payg‘ambarni haqorat qildi. Uning xotini ummaviylar urug‘ining rahbari Abu Suf’yoning qizi Umma Jamil erining tarafini olib, payg‘ambar uyiga o‘tadigan yo‘liga har kuni tikanaklarni to‘plab qo‘yadi, natija-da payg‘ambar uyiga qiyinchilik bilan kiradi. Abd al-Uzza Qur’onning 3-surasida «Abu Lahab», ya’ni («Olovning do‘sti») «do‘zaxi» deb laqab oladi. Abu Lahabning ikki o‘g‘liga payg‘ambarning Ruqiya va Ummi Gulsum degan qizlari tushganligini aytgan edik. Abu Lahab ularni taloq qildirib, uyiga jo‘natib yuboradi, bu katta haqorat edi.

Vaziyatni engillashtirish maqsadida musulmonlarning bir qismini payg'ambar 615 yilda Xabashistonga (hozirgi Efiopiya) jo'natadi. Bu birinchi hijratga Usmon Ibn Affon boshchilik qiladi. Keyingi bir necha oy ichida vaziyat biroz yumshaydi. Lekin 615 yil oxirida vaziyat yana og'irlashib ketadi. 80 dan ortiq musulmonlar ikkinchi hajratga yana Xabashistonga jo'naydi. Quraysh xonadonlarining zadogonlari Abu Tolibdan, yo Muhammad targ'ibotini to'xtatsin yoki hoshimiylar xonadonidan haydalsin, deb talab qiladilar. Abu Tolib bu talablarni qat'iyan rad qiladi. 200-300 hoshimiy payg'ambar hovlisi atrofiga chodir tikib uni himoya qiladilar. Bunday noqulay vaziyat ikki yildan ko'proq davom etadi.

619 yilning iyul oyida Abu Tolib vafot qiladi, ikki oydan so'ng esa Xadicha ham olamdan o'tadi. Hoshimiylar xonadoniga Abu Lahab boshliq bo'lib qoladi. U Muhammadni urug' himoyasidan mahrum, deb e'lon qiladi. Bu holat Muhammad hayotini xavf ostida qoldiradi. U asrandi o'g'li Zayd bilan yashirin holda Makkadan chiqib Toif shahriga yo'l oladi. Lekin toifliklar ularni masxaralab, toshbo'ron qilib haydaydilar. Muhammad g'oyatda og'ir ruhiy holatda orqaga qaytadi. So'ng u Xiro g'origa yashirinadi. Obro'li Navfal avlodidan bo'lgan Mut'im Ibn Ali Muhammadni o'z uyiga qabul qiladi. U qurolli guruhi bilan Kab'a oldiga kelib payg'ambarni o'z himoyasiga olganligini e'lon qiladi. Payg'ambar o'z tarafdorlari orasida targ'ibot olib boradi, makkalik zodagonlar bilan esa to'qnashmaslikka harakat qilaveradi.

Payg'ambarning targ'iboti 620 yilning iyul oyida YAsrib shahridan xajga kelganlarga katta ta'sir ko'rsatadi. Xajdan qaytib borganlar orqali YAsrib aholisi o'rtasida bu targ'ibot haqida ijobiy fikr yoyila boshlaydi. Makkadan 350 kilometr shimolda joylashgan YAsrib vohasida yashaydigan Avs va Xaeraj nomli arab qabilalari o'rtasida doimo ziddiyatlar mavjud edi. Bundan tashqari, bu ikki qabila bilan o'sha vohada qo'shni bo'lib yashaydigan Kaynuka, Nzir, Kurayza degan yahudiy qabilalari o'rtasida ham tez-tez to'qnashuvlar bo'lar edi. Qabilalar o'rtasidagi ixtilofni bartaraf qiladigan bir tadbirkor «hakam» bo'ladigan shaxsga katta ehtiyoj sezilar edi.

621-622 yillardagi haj mavsumlarida YAsrib vakillari Muhammad payg'ambar bilan Makka yaqinidagi Akaba deb nomlangan joyda ikki marotaba uchrashdilar. Bu uchrashuvlarda Muhammadni safdoshlari bilan yasribga taklif qilishib, agar payg'ambar «hakam»lik qilishga ko'nsa, yasrib ahli islomni qabul qilib, payg'ambarni o'zlariga boshliq etib saylashlarini va'da beradilar. O'rtada kelishuv bo'ldi. YAsribliklar jo'nab ketgach, Muhammad va uning tarafdorlari asta-sekin YAsribga ko'nika boshlaydilar. Nihoyat 622 yil  9 sentyabr kechasi Muhammad Abu Bakr bilan yashirin ravishda YAsribga jo'nab ketib, 16 kun yo'l bosib 622 yil 24 sentyabrda yasribga eson-omon etib keladilar. YAsribliklar ularni yaxshi kutib oladilar, payg'ambar nihoyat yangi joyda bemalol dam olishi mumkin bo'ldi. Bu ko'chish arabcha xijrat deyiladi. Musulmon yil hisobi - hijriy yil shu 622 yildan boshlanadi.

Islom tarixidan ma'lumki, Muhammad va uning safdoshlari «muhojirlar», ya'ni ko'chib kelganlar, yasriblik musulmonlar esa «ansorlar», ya'ni «yordamchilar», deb nom oldilar. Ulardan Muhammad payg'ambarga eng yaqin turgan va maslahatchi bo'lgan bir guruhi «sahobalar» (ko'pligi «asxob»-safdoshlar) deb ataladi. Muhammad payg'ambar ko'chib kelgandan so'ng YAsrib Madina, ya'ni shahar, ba'zan esa Madina an-Nabiy (payg'ambar shahri) deb atala boshlandi. Keyinchalik Islom adabiyotida Makka va Madina Islomning muqaddas markazi sifatida «Makkai mukarrama» «Madinai munavvara» deb ataladigan bo'ldi.

Muhammad Madina Markazidagi maydonda o'z izdoshlari bilan juma namozini o'qiydi va shundan boshlab barcha musulmonlar to'planib (jamoat bo'lib) Muhammad payg'ambar imomligida namoz o'qishi an'anaga aylanadi. SHu erda payg'ambar birinchi bor xutba aytgan, keyin xutba ham an'anaga aylangan. Xutba islom an'anasida o'ziga xos duo-iltijo shakli bo'lib, Muhammad payg'ambar musulmonlar jamoasiga g'alaba va omonlik tilab, xutba o'qigan.

Keyingi islom tarixida hukmronlar tarixining barqaror bo'lishini tilab, juma namozidan oldin xutba o'qilgan. Xutba o'qiydigan ruhoniylar xatib (ba'zan imom-xatib) deyilgan. Muhojirlar va ansorlar bir-birlari bilan aka-uka tutinib, Madinada yagonada diniy jamoa-

musulmonlar jamoasi paydo bo‘ldi va uni «Ummat al-Mo‘minin», deb ataldi. Uni ayrim manbalarda qisqa qilib «umma» deb ham ataladi. «Umma» dinga asoslangan kishilarning birlashishi edi.

Muhojirlar bilan ansorlar shahar markazida masjid va payg‘ambarga uy qurdilar. Payg‘ambar oilasini ham Makkadan Madinaga ko‘chirib keltirildi. Makkadan yarim yil ichida bir nechta guruh musulmonlar Madinaga ko‘chib keldilar.

Muhammad Madinada payg‘ambar deb tan olindi, keyinchalik esa siyosiy hokimiyat ham uning qo‘liga o‘tdi. U bosh lashkarboshi, bosh qozi, bosh imom edi. Muhammad payg‘ambar rahbarligida musulmonlar Madinaga ko‘chib kelgandan keyin bu erda to‘rtta - muhojirlar, avsetlar, xazrajiylar va yahudiylardan iborat guruhlar vujudga keldi. Muhammad ular o‘rtasida birlikka erishish uchun alohida ahdnoma tuzdi va hujjat sifatida rasmiylashtirdi. Olimlarning yozishicha (Masalan, Muhammad Hamidulloh) bu hujjat «Madina konstitutsiya»si edi. Hujjatda, bu to‘rt guruh bir jamoadan iborat, ular bir kuch sifatida jangga kiradi, asirlarni qutqarish uchun sarflangan harajatlarni ham o‘rtada qilinadi, ular o‘z oralaridan hech kimni qarovsiz qoldirmaydi, qonunbuzar va jinoyatchilarga qarshi birga kurashadi, barcha dindorlarning himoyachisi Allohdir, dindorlar esa bir-biriga himoyachidir, dushman bilan jang tugagach, barcha guruh birlikda sulh tuzadi, o‘ldirilgan shaxs uchun dindorlar bir-biridan qasos olish huquqiga ega, lekin qon to‘kmasdan tovon to‘lash ma’quldir, hamma guruhlar islom dushmani bo‘lgan qurayshlarga qarshi kurashadilar, hech kim ularni himoya qilmasligi kerak, bu ahdnomani buzganlar Allohning qahriga uchraydi, deb yozib qo‘yilgan edi. Bu tarixiy hujjat islom mamlakatlarida ilk feodalizm davrida g‘oyat muhim ahamiyatga ega edi. Uning ko‘pgina talablari hozir ham ahamiyatga ega. Madinada birlik va hamjihatlik paydo bo‘lgach, Muhammad payg‘ambar Makkaga qarshi kurash boshlab yubordi.

Makkadan shimolga, Falastin va Suriya erlariga olib boradigan karvon yo‘li Madina yaqinidan o‘tardi. Bu yo‘l Makka hokimlari va savdogarlari uchun g‘oyat katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lganligi uchun, dastlabki yillarda kurash ana shu kavron yo‘li ustida boshlangan.

Dastlabki jang 624-yil mart oyida Badr qudug‘i atrofida bo‘lgan. Bu jangda Muhammad boshchiligida 300 dan ziyod musulmonlar va Abujahl boshchiligida 850 Makkalik qo‘shin qatnashgan. Urushda musulmonlar engib chiqadi. Natijada musulmonlar jamoasi mustahkamlanadi. Jangda musulmonlar 30 ta ot, 150 ta tuya, ko‘p qurol-anjomlarni o‘lja oladi. 624-yil 16 mart (Hamal) kuni Qur’onning 8-al Anfol (O‘lja) surasi vahiy bo‘ladi. Bu surada o‘ljani qanday taqsimlash ko‘rsatilgan. Unda, o‘ljaning beshdan bir qismi musulmonlar jamoasining manfaatiga, piyoda askarga bir hissa, otliq asqarga ikki hissa berilishi ko‘rsatilgan, adolatli taqsimlashga da’vat qilingan. Keyinchalik bu qoida xalifalar davrida ham saqlanib qolgan. Badr jangida 622 yildagi ahdnoma buzilganligi uchun Kaynuka yahudiy jamoasi jazolanadi va 624 yil 10 aprelda ko‘chirib yuboriladi. Musulmonlar bilan yahudiylarning tarixiy nizolari o‘sha davrdan boshlanib, hozirgi davrda arab davlatlari bilan isroil mojaralarida davom etmoqda.

SHuni ham ta’kidlash kerakki, musulmonlar bu davrda (Makkada ham Madina ham) an’anaviy muqaddas shahar hisoblangan Quddus (Ierusalim) tomonga qarab namoz o‘qishgan. Qiblaning o‘zgarilishi va Makkadagi Ka’baning qibla deb belgilanishi Badr jangi va Kaynuka bilan to‘qnashuvdan keyin yuz bergan.

SHuningdek, birinchi bor masjidda namoz o‘qish boshlanishi oldidan azon aytish ham shundan boshlangan. Payg‘ambarning Bilol ismli ozod qilingan quli azonchi (muazzin)lik qilishni boshlagan. Xuddi shu davrda birinchi bor ro‘za tutish marosimi va u tamom bo‘lgach ro‘za hayiti namozi ham kiritilgan. Ro‘za tutish 625 yilning ramazon oyidan tutilishi belgilab qo‘yilgan edi. U hozir ham o‘z kuchini saqlamoqda.

**Uhud jangi.** Makka zodagonlarining boshlig‘i Abu Suf’yon payg‘ambardan va musulmonlardan o‘ch olishga qaror qiladi. U Madina vohasidagi Banu Nazir degan yahudiy qabilasi bilan yashirin til biriktirib, ulardan musulmonlar to‘g‘risida ma’lumotlar to‘playdi. 625 yil 21 martda Uhud degan adirlikda jang bo‘lganligi uchun «Uhud jangi» deyiladi. Bu jangda makkaliklardan 3000 otliq va tuya minggan askar va musulmonlardan ming kishilik lashkar Muhammad qo‘mondon-ligida qatnashadi. Maydonga makkaliklardan pahlovon Abu Talha va madinaliklardan Bahodir Ali tushadi. Ali Talhani engadi va musulmonlar hujum boshlab makkaliklarning markazi yanchib tashlanadi. G‘alaba alomatlari ko‘rina boshlaganda askarlardan bir qismi makkaliklar qarorgo-hidagi o‘ljalarga tashlanadi. Bularni ko‘rgan kamonchilar ham o‘ljaga qarab ketadilar, natijada mudofaa mavqei ochiq qoladi. Makkaliklarning 200 otliqdan iborat guruhi Hamid Ibn Valid boshchiligida musulmon qo‘shinlarining o‘ng qanotini osongina qirib tashlaydi. Madinaliklar chekina boshlagan paytda Muhammad boshiga urilgan qilichdan yaralanadi. Madinaliklar payg‘ambarni jang maydonidan olib chiqadilar va tog‘ orasiga yashiradilar. Jang maydonini aylanib chiqqan Abu Suf’yon musulmonlardan o‘chini olganiga qanoat hosil qilgach, ularning iziga tushib ta’qib qilmasdan orqaga, Makkaga qaytadi.

Musulmonlar tog‘ oralig‘idan chiqib halok bo‘lganlarni yig‘adilar. Payg‘ambarning, ular shahid (ya’ni islom dini uchun jang qilib fidoyi bo‘lganlar), shu boisdan yuvish va kafan-lashga muhtoj emas, degan hukmi asosida o‘z kiyimlarida dafn qiladilar. Bu keyinchalik aylanadi. Musulmonlar shaharga qaytgach, bir necha kun motam tutadilar. Ilk manbalardagi ma’lumotlarga ko‘ra, musulmonlardan 70-74 kishi, ular orasida payg‘ambarning eng jangovar amakisi Hamza ham shu jangda halok bo‘ldilar. Makkaliklar talofati esa 24 kishidan iborat bo‘ldi.

Uhud jangidagi mag‘lubiyatdan keyin Madinada bir oz kelishmovchilik, payg‘ambarni ayblash bo‘lib o‘tadi, ammo umuman Muhammadning obro‘siga putur etmagan. Dushman bilan til biriktirgani va payg‘ambar, uning safdoshlariga suiqasd uyushtirgani uchun Banu Nazir yahudiy qabilasi bilan urush olib boriladi hamda 625 yilning sentyabrida bu qabila ko‘chirib yuboriladi.

Ularning erlariga musulmonlar ko‘chib kelib joylashadi. Bu vaqtdan keyin musulmonlar bilan yahudiylar murosasi yomonlashadi.

Banu Nazir qabilasi bilan urush bo‘lib turgan vaqtda bir necha musulmon qaerdandir ichkilik topib ichishadi va kayf qilib, o‘zaro janjallashadilar. SHu munosabat bilan Qur’onning 5-Moida surasidagi 90-oyatda aroq va boshqa kayf qiladigan ichkilik harom, deb ko‘rsatilgan. SHuni ham aytib o‘tish kerakki, ichkilikni Qur’onda birdaniga harom deyilgan emas. Avval, Makka davrida kayf qiladigan ichimlik Xudo bergan rizq (musallas uchun) kunjut, zaytun yog‘ini siqib olish kabi Allohning ne’matlaridan deyilgan (12-sura 49-oyat). Madinaga xijrat qilingach, oradan ko‘p o‘tmay, maydan ma’lum foyda ham bor, lekin uning foydasidan zarari ko‘proq deyilgan (2-sura 219-oyat). Payg‘ambarning yaqin safdosh-laridan biri Amir Ibn Avf (Uhud jangidan so‘ng) kayf bilan namozga kirib, Qur’on surasini buzib o‘qiydi. 4-sura 43-oyatdagi «kayf holatingizda namozga yaqinlashmangiz», degan ko‘rsatma ana shu hodisa bilan bog‘liq hisoblanadi. Ichkilikbozlikning musulmonchilikka zid, ahloq-odobga xilof, jamiyatga zararli ekanligini yodda saqlamoq darkor, buni bizga Rasulullohimiz aytib ketganlar.

Uhud jangidan keyin Muhammad rahbarligida atroflardagi badaviy arablari musulmonlikka dohil qilindi, jamoa mustahkamlandi. Payg‘ambarimiz diniy rahbar, bosh imom ham harbiy qo‘mondon (lashkarboshi), ham ma’muriy rahbar sifatida hamma tan olgan buyuk shaxsga aylandi.

Hijratdan keyingi o‘tgan 3 yil ichida huquqiy va ahloqiy munosabatlarni takomillashtirishga qator karor va qonunlar kiritiladi va ular keyinchalik islom shariatida mustahkam o‘rin egallaydi. Bu qoidalarning asosiy qismi Qur’onning 2-al-Baqara («Sigir») va 4-al-Niso («Ayollar») suralarida bayon etilgan.(Qarang: Qur’oni Karim. Alouddin Mansur. «CHo‘lpon».T. 1990 y. 6-35.54-71-betlar). 2-al-Baqara surasida jumladan, hijratning ikkinchi yilida Makkadagi Ka’ba

tomon qibla, deb hisoblangan (2-sura, 143-150 oyatlar). Jihod urushlarida (islom dini uchun) halok bo‘lgan kishilar shahid deb belgilangan (2 suraning 154-oyati). Musulmonlarga o‘limtik go‘shti, qon, to‘ng‘iz go‘shti, Allohdan boshqa (sa-nam)larning nomini tilga olib so‘yilgan hayvonlarning go‘shti harom qilingan (2-sura 173-oyat). Qasos olish, o‘lim oldidan o‘z mol-mulkini vasiyat qilish, ro‘za tutish, haj marosimlarini ijro etish (2-suraning 196-200-oyatlari), qurbonlik qilish (2-suraning 196-oyati) haqidagi qoidalar kiritilgan (2-suraning 178-187-oyatlari). Pora berish va pora olish ta’qiqlangan (2-suraning 188-oyati). Kayf qiladigan ichkilik ichish noma’qul deyilgan, maysir (arablar o‘rtasida keng tarqalgan qimor o‘yini) ta’qiqlangan (2-suraning 219-oyati). Oila-nikoh qoidalari, mahr berish, taloq, uch taloq, erdan ajralgan yoki eri o‘lib beva qolgan ayollarning kutish muddatlari (addat-idda), farzandni emizish, otalik-onalik huquqi kabi (2-sura 226-243-oyatlar) qoidalar kiritilgan.

625 yilning oxiri 626 yilning boshlarida vahiy qilingan 4-surada oila, nikoh, vorislik, etim-esirlar huquqi kabi 2-suradagi (Uhud, jangidan keyin) masalalar yanada batafsilroq aytib o‘tilgan. Mukammal yangi qonun-qoidalar (4-suraning 1-39, 127-130-oyatlar), shuningdek jihod urushlarida ishtirok etish, shahidlar va ularning oilalari haqidagi qoidalar vahiy etilgan (4-suraning 71-104-oyatlari).

Islom tarixida, sho‘ro islomshunosligida va targ‘ibotga moyil adabiyotlarda ko‘pgina munozara, kelishmovchilikka sabab bo‘lgan ko‘p xotin olish (poligamiya) masalasiga alohida to‘xtalib o‘tmoq zarur. Bu masalaning tub tarixiy mohiyatini oyatning matnini tahlil qilmasdan tushunish qiyin. 4-suradagi 3-oyat «Oyat at-taadud az-zavjot» (ko‘p xotinlilik haqidagi oyat) deb nomlangan. Uning arabcha matni quyidagicha: «Va ni xiftum allo tuksitu fi-l-yatomo fankixu mo toba lakum minan-nison masno va sulosa va rubo’a, fa in xiftum allo ta’dilu fa-voxidatan av mo malakat aymonikum, zolika adno allo ta’ulu», ya’ni «Agar etimlarga nisbatan adolatsizlikdan qo‘rqsangiz, u holda o‘zlaringizga yoqqan ayollardan ikkitasini, uchtasini, to‘rttasini nikohingizga olingiz. Ularga nisbatan teng bo‘lolmaslikdan qo‘rqsangiz, unda faqat bittasiga, yoki o‘z qo‘l ostingizda bo‘lganlarga nikohlaningiz. Bu adolatdan chetlanmaslikka yaqinroq».

Ma’lumki, Badr va Uhud janglarida, oraliqdagi 10 dan ortiq mayda to‘qnashuvlarda, jami 180 dan ortiq kishi halok bo‘lgan edi. Ulardan qolgan tul xotinlaru etim bolalarning turmushi va ta’minoti masalasi paydo bo‘lgandi. Etimlar va bevalarni boqish, tarbiyalash maqsadida to‘rttagacha xotin olishga ruxsat etilgan. Lekin ularga teng qaray olmagan kishi bo‘lsa bitta xotin olsin, hatto o‘z cho‘risiga uylansin, deyishning mohiyatida shahvatparastlik emas, balki vujudga kelgan murakkab ijtimoiy, huquqiy va ahloqiy muammolarni hal qilish zaruriyati yotadi.

Bu masalada musulmonlarga ibrat bo‘lish uchun payg‘am-barning o‘zi Uhud jangida yaralanib, keyin vafot etgan yaqin safdoshi Abu Salama ibn Abdul Asadning xotini Ulima Salamaga 626 yilning mart oyida uylanadi va uning etim qolgan ikki o‘g‘ilchasini o‘z tarbiyasiga oladi.

Feodalizm sharoitida o‘rta asrlar musulmon mamlakat-larida diniy mutaassiblik kuchayadi, ilk islomga xos demok-ratik va insonparvarlik g‘oyalarining mazmuni unutiladi, boylar va hokimlar uchun etimlarga g‘amxo‘rlik emas, balki shuhratparastlik va shahvatparastlik tuyg‘ulari hamda oilaning mol-mulkini ko‘paytirish, o‘z manfaat, huquqlarini kuchaytirish kerak edi. Lekin bu mohiyatan ilk islomga xos ahloqiy tamoyillarni qo‘pol buzish bo‘ldi.

**Xandak jangi va Xudaybiya ahdnomasi.** 627 yilning mart-aprel oylarida yuz bergan «Xandak jangi» islom tarixida muhim rol o‘ynadi.

Makkada Abu Suf’yon 10000 kishidan iborat askar to‘pladi, Muhammad payg‘ambar esa 3000 askar to‘play oldi. U Madina atrofiga xandak, ya’ni suv bilan to‘ldirilgan chuqurlik qazdirdi. U 7 km uzunlikda va 4 metr kenglikda edi. Abu Suf’yon qo‘shini 627 yilning 31 martida Madinaga etib kelib, mudofaa inshootlarini ko‘rib hayratga tushadi. U o‘z qo‘shini bilan Madinani qamalga oladi, lekin na piyodalar, na otliq askarlar xandak himoyachilarini yorib o‘ta olmaydilar. CHunki Madina ahli mudofaachilarni o‘q-yoy, oziq-ovqat, suv bilan muntazam

ta’minlab turdilar, kamonchilar yaxshi mergan bo‘lib dushmanga talofat etkazardi. Qamal 15 kun davom etdi. Makka armiyasi oziq-ovqat, suvsizlikdan juda qiynaladi, norozilik va ruhiy tushkunlik kuchayadi. Natijada Abu Suf’yon 14 aprelda qamalni bekor qilib chekinishga majbur bo‘ladi. Madinaliklar jangda g‘alaba qiladi.

Makkaliklar qaytib ketgach, ahdnomani buzganligi uchun Quraysh qabilasiga hujum boshlanadi va tor-mor etiladi. Oqibatda ko‘plab askarlar asir olinadi. 1500 ta qilich, 300 ta sovut, 100 ta nayza, 1500 ta qalqon, bir qancha tuya va boshqa hayvonlar o‘lja olinadi, qabila erlari, mol-mulki musulmonlar ixtiyoriga o‘tadi va ular ersiz kishilarga bo‘lib beriladi.

Xandak jangidan keyin arablarning islomga kirishi kuchaydi. Madinada diniy va siyosiy-ma’muriy tartiblar, ahloqiy masalalar mustahkamlandi. Masalan, xotin-qizlar yot kishilarga yuzini ko‘rsatmaslik, sharm-hayoli bo‘lish uchun yopinchiq yopinishi Qur’oning 24 va 33-suralarida nozil qilingan. Qur’onda tilga olingan «hijob» yopinchiq, ayolning yuzi va bo‘yinlarini to‘sib turadigan ro‘molni, undagi «jilbob» degan ibora esa hovlidagi erkaklar va ayollar qismini ajratib turadigan to‘siq, pardani anglatadi. Keyinchalik musulmon xalqlarida bu xilma-xil shakl kasb etgan. Hozirgi arab ayollarida hijob peshona va og‘iz-burunni tsib turadigan ro‘mol, o‘zbek va tojiklarda maxsus paranji-chochvon, afg‘onlarda maxsus chodra, eroniylar, ozarbayjonlar, turklarda katta ro‘mol, turkmanlarda esa yashmak va h.k. Namangan shahri va viloyatda «oq yopinchiq» deyiladi.

Qur’onda faxshlik atamasi bo‘lib, u erkak va ayolning buzuqchilik qilishini, tanfurushlikni anglatadi. Bu ahloqsizlikka yo‘l qo‘ygan kishi o‘lim jazosi yoki 100 darra urib jazolash belgilangan. O‘rta asr sharoitida jamiyatni huquqiy va ahloqiy boshqarish uchun bunday chora-tadbirlar zarur edi. Lekin hozir ham bu tadbirlar foydasiz emas, fahshlik oila va jamiyatga katta ma’naviy zarar keltirishi isbotlangan.

Mustaqil O‘zbekistonning istiqlol sari rivojlanib borishida ahloqsizlik, fahshlik va vijdonsizlikka to‘siq qo‘yilgan. Aholini ma’naviy rivojlanishiga alohida talablar va tadbirlar ishlab chiqilgan. «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun bunga yaqqol misol bo‘ladi.

Prezident I.Karimov Oliy majlisning 1995 yil 3-fevraldagi 1-sessiyasidagi nutqida ham shu haqda batafsil gapirgan.

**Xudaybiya ahdnomasi.** Xudaybiya - Makkadan Jidda shahriga boradigan yo‘lda 15-20 kilometr masofada joylashgan qadimgi quduq. O‘z mavqeini mustahkamlab olgach, Muhammad 1000 kishi bilan birga 628 yil 13 martda haj-umraga (zu-l-Xijja oyida umumiy shaklda o‘tadigan katta hajdan farq qilgan holda, yilning boshqa vaqtlarida Ka’ba ziyoratiga borish va xajning barcha marosimlarini bajarish) boradi. Payg‘ambar yo‘lga faqat qilich taqqan kishilar bilan ehromda chiqadi, bu urush qilish niyati yo‘qligini bildiradi.

Makkaliklar qo‘shin to‘plab payg‘ambarni Makkaga kiritmaymiz, deb turib olgach, Xudaybiyada Madina bilan Makka vakillari ahdnoma tuzishadi va bu tarixda «Xudaybiya ahdnomasi» deb nom olgan. Unga asosan Makka bilan Madina 10 yil davomida bir-biri bilan urushmaslik, karvonlarga hujum qilmaslik, xohlagan boshqa guruhlar bilan ahdlashaverishga kelishilgan. Payg‘ambar 70 ta tuya va boshqa qurbonlikka olib kelgan hayvonlarni Xudaybiyaga so‘ydirib hajni shu erda o‘tkazadi va orqaga qaytib ketadi. Ahdnomaning maxsus bandida kelgusi yili payg‘ambar hajga bemalol kelishi aytilgan edi. Xudaybiyadan keyin payg‘ambar Suriyaga tez-tez yurish qiladi, chunki o‘sha tomonga ko‘chib ketgan yahudiylar badaviylar bilan til biriktirib Madinaga hujumga tayyor-lana boshlagan edi. Natijada payg‘ambar askarlari shimoldagi Haybar va Fadak vohalarini qo‘lga oladi.

629 yil haj vaqtida Muhammad va 2000 kishidan iborat boshqa hojilar ehrom kiyib Makkaga hajga keladilar. Makkaliklar uch kun payg‘ambar va uning safdoshlariga Makka va Ka’bani bo‘shatib beradilar. Makka ahli payg‘ambarning obro‘si naqadar balandligi va uning kuch-qudratini ko‘rib tan beradilar, unga xayrixohlik qiladilar. Mashhur harbiy sarkarda Xalid ibn Valid birinchi bo‘lib islomni qabul qiladi, uning orqasidan Amr ibn al-Os ham islomni qabul

qiladi. Abu Suf'yon o'zini yakkalanib qolganini his qiladi. 629 yilda Abu Suf'yon Madinaga Muhammad payg'ambar bilan muzokara olib borish maqsadida keladi. Muzokarada ma'lum bo'ladiki, Makka zaiflashgan. U Madina bilan ko'p qon to'kil-masligi uchun sulh tuzishga kelganligini aytadi.

Muhammad 10 minglik qo'shin to'plab 630 yil yanvar oyining boshida Makkaga yurish boshlaydi. Payg'ambarning yagona tirik qolgan amakisi Al-Abbos yo'lga chiqib uni kutib oladi va islomni qabul qiladi. Makka deyarli jangsiz olinadi. G'alabadan so'ng payg'ambar Makkani tomosha qiladi. Ka'bani ziyorat etadi, u erdagi qabila xudolarining sanamlarini olib chiqib, uloqtirishni buyuradi, devorlardagi rasmlarni o'chirtiradi, keyin u erda namoz o'qiydi. Ka'ba oldidagi baland zinaga chiqib, umumiy avf-kechirish e'lon qiladi va Ka'bani Islom ibodatxonasiga aylanganligini aytadi. U bundan buyon Ka'baga mushrikiylar kiritilmas-ligini ta'kidlab o'tadi.

Avf - gunohkor gunohidan o'tmoqlik hamda ularga uqubatu siyosat qilmoqdan voz kechmoqlik.

Saxovat - bu dunyo va oxiratda yaxshi nom qoldirib, Alloh taoloning rahmati va ajru savoblariga sazovor bo'lmoqqa sabab bo'lur. (Qarang: Abu Abdulloh Muhammal ibn Ismoil Buxoriy. ¥adis 2 Al Jomi' As-Saxix. (Ishonarli to'plam). Qomuslar Bosh tahririyati, Toshkent-1996, 604,605-betlar).

Muhammad Makka zadogonlaridan uch-to'rt kishini o'z vazifasida qoldiradi, avval unga dushmanlik qilgan besh-olti kishini jazolaydi. Ertasiga safo tepaligiga chiqib o'ltirgan holda Makka ahlining unga bo'ysunganligi to'g'risidagi qasamni qabul qiladi. Ular Islomning barcha talablarini bajarishga qasam ichadilar. SHunday qilib 630 yil yanvarda butun Arabistonda yangi din - islom vujudga keladi, arab qabilalari birlashadilar.

Ammo ko'p o'tmay Makkadan sharqda joylashgan Toif va Hunayin vohalarida islomga qarshi bo'lgan qabilalar 20 mingdan ortiq lashkar to'plab jangga tayyorlanayotganligi haqida xabar olinadi. Muhammad payg'ambar 12 ming askar bilan jang qilib dushmanni engadi. 6000 asir (bolalar va chol-kampirlar, juvonlar) olinadi. 24 ming tuya, 40 mingdan ziyod qo'y, 160 ming dirham kumush puldan iborat g'oyat katta o'lja olinadi. Toif shahri taslim bo'ladi. O'ljani taqsimlash vaqtida Muhammad payg'ambar oradagi ishonchsizlikni yo'q qilish maqsadida Makkaliklarga, ayniqsa, ko'p ulush beradi. Dushman qabila erkaklari islomga kirganlaridan so'ng asirlar bo'shatiladi. Jangdan qaytgach, payg'ambar yana Ka'ba-ni ziyorat qiladi, umra marosimlarini ehromda ado etadi va mart oyining o'rtalarida Madinaga qaytib ketadi.

631 yilning martida hajga payg'ambarning o'zi bormay Abu Bakrni boshliq qilib yuboradi. SHundan keyin nozil bo'lgan 9-at-Tavba surasining matnini yozdirib, Ali orqali Abu Bakrga jo'natadi va uni Ali Mino vodiysida hojilarga o'qib beradi. Bu surada musulmonlarning mushrikiylar va ahli kitobga (yahudiy va xristianlarga) nisbatan munosabati, kelajakdagi islom dinining yoyilishi va Ka'baning islom dinining markaziga aylanishi, musulmonlarning islom dinini va diniy jamoani himoya qilishi, zakot va sadaqa tarzida yig'ilgan mol-mulklarni taqsimlash qoidalari, musulmonlarga yuklanadigan ayrim ahloqiy va huquqiy vazifalar yozilgan edi.

631 yilda Muhammad payg'ambar Arabistonning ayrim hududlarida paydo bo'lgan soxta payg'ambarlar (Asvad, Musay-lima, Tulayxa, Sajjax)ga qarshi kurash olib boradi. SHimol-ga qilingan yurishlar natijasida Vizantiya bilan chegaradosh erlar mustahkamlanadi. Janubga qilingan yurishlar oqibatida YAman va Najran bo'ysundiriladi. 1630-1631 yillar orasida islomni qabul qilish masalasida juda ko'p qabilalar-dan Madinaga vakillar keladi va ular musulmon bo'ladilar.

632-yilning yanvarida Muhammad payg'ambar o'zi hajga boradi. U 100 ta tuyani qurbonlik qiladi. O'zi bilan olib kelgan Ka'ba yopig'i (arabcha «kisva»)ni Ka'ba ustiga yopadi.

Bu an’ana hozir ham saqlanib qolgan. Har yili haj boshlanish oldidan Ka’ba ustiga yangi kisva yopiladi, eskisini hojilarga, parchalab, tarqatiladi.

Muhammad payg‘ambar qurbonlikdan so‘ng barcha hojilarni to‘plab ularga xutba aytgan, haj marosimini ado etish bilan bog‘liq juda ko‘p masalalarga anikqlik kiritgan. Bu payg‘ambarning oxirgi haj safari bo‘lganligi uchun u islom tarixida «haj-al-vido’» (vidolashuv haji) deyiladi.

Muhammad payg‘ambar hajdan qaytgach bir necha oydan keyin salomatligi yomonlashadi, boshi qattiq og‘riydi va dar-monsizlanib yotib qoladi.

Bir necha hafta kasal bo‘lib yotgandan keyin Rasululloh 632 yil 8 iyunda o‘z uyida vafot etadi. Abu Bakr ba’zi yaqin safdoshlari bilan birga uni yuvib va kafanlab, o‘sha uy ichiga kovlangan qabrga qo‘yadilar.

SHuni ta’kidlash kerakki, ba’zi hukmdorlar kabi payg‘ambar o‘ziga biror yuksak unvon ham olmagan. Payg‘ambar tiriklik paytlarida hamma unga «rasululloh» (Ollohning elchisi) deb murojaat etishi odat bo‘lgan. Vafotidan keyin ham barcha musulmonlar o‘rtasida va butun islom diniy adabiyotida ana shu unvon bilan atash saqlanib qolgan.

Dunyoda juda ko‘p payg‘ambarlar (54 ming) o‘tgan, ularning ko‘pchiligi to‘qima obrazlar bo‘lgan, ammo Muhammad payg‘ambar tarixiy shaxs, oxirgi payg‘ambar, to‘g‘ri yo‘l tutgan Allohning buyuk elchisi edi.

YUqorida aytilib o‘tilganidek, Muhammad rasululloh 632 yilda vafot etdi. Bu davrga kelib musulmonlar davlati YAmandan Sinoy yarim oroligacha, Qizil dengiz sohillaridan Markaziy Qum sahrosigacha cho‘zilgan hududlarni o‘z ichiga olgan katta mamlakat edi. Bu erlarda Islom hukmron dinga aylandi.

Muhammad vafotidan keyin uning o‘rinbosarlari yoki noiblari (arabcha xalifalar) davlatni boshqara boshlaganlar va shu munosabat bilan musulmonlar davlati «arab xalifaligi» deb nom olgan.

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning «Mendan keyin xalifalik 30 yil davom etadi. Undan so‘ng podshohliklar paydo bo‘ladi», degan hadislari bor. (Imom at-Termiziy). Haqiqatdan ham, payg‘ambarimiz bashoratlarini tarix tasdiqladi. 30 yil xulofoyi Rashidiylar, Abu Bakr as-Siddiq, Umar bin al-Hattob, Usmon bin Affon, Ali bin Abu Tolib 632-661 yillar davomida islomni asl holida saqlagan holda xalifalik qildilar. Undan keyingi davrlarda xalifalar emas, balki ummaviylar, abbosiylar sulolalariga mansub bo‘lgan podshohlik va amirliklar hukmronlik qildilar.(Qarang: Dinlar haqida ma’lumot. Toshkent-2000, Buklet. 3-buklam).

Dastlab Muhammadning ilk safdoshlaridan biri (Qaynotasi) bo‘lgan Abu Bakr Siddiq (hukmronlik davri 632-634 yillar) xalifa deb e’lon qilingan. SHu vaqtda bir qancha arab qabilalari o‘rtasida Madina hukmronligiga qarshi, o‘z mustaqilligi uchun harakatlar ham bo‘lgan. Lekin ular tezda bostirilgan. Abu Bakr davrida shimoliy hududlarga hujum boshlangan. Vizantiyaning kuchsiz qo‘shinlari jiddiy qarshilik ko‘rsatishga ojiz edilar. Abu Bakr vafot qilgach Muhammadga uzoq qarindosh, unga sodiq safdosh bo‘lgan Umar ibn-ul-Hattob xalifa etib saylanadi. Uning xalifalik davri (634-644 yillar) 10 yilga cho‘zilgan. U ikkinchi xalifa edi. Umar davrida Arabistondagi barcha qabilalar bo‘sundirildi va ularni Madina hokimiyati qo‘l ostida birlashtirish oxiriga etkazildi. Iqtisodiy, siyosiy hamda mafkuraviy jihatlardan mustahkamlanib olgan arab xalifaligining qo‘shni mamlakatlarni bosib olish uchun yurishlarining birinchi bosqichi Umar davrida boshlandi. Bu davrda, ya’ni 638 yili Damashq, 640-yili Quddus (Ierusalim) olindi. Falastin va Suriya erlari to‘la ravishda xalifalik qo‘liga o‘tdi. SHu vaqtning o‘zida Mesopatamiya va Eronga ham yurishlar boshlandi. 637 yili arab qo‘shinlari Eron poytaxti Tehronga bostirib kirdilar. 644-645 yillarda Hindiston chegaralariga yaqinlashdilar. SHimol va shimoliy-sharq tomonga yurish boshlagan arab qo‘shinlari 640 yili

Armanistonni bosib oldilar. 639-yilda Misrga hujum boshlandi va 647 yilgacha arablar shimoliy Afrika sohillarini Tunisgacha egallab oldilar.

Umar zaharlab o‘ldirilgach xalifalik taxtiga Muhammad-ning yaqin do‘stlaridan bo‘lgan Usmon ibn Affon (uchinchi xalifa) o‘tirdi. Uning xalifalik yillari (644-656 yillar) 12 yil davom etgan. U vafot etgach o‘rniga payg‘ambarning kuyovi va amakisining o‘g‘li Ali ibn Tolib o‘tdi va (656-661-yillar) 5 yilgina xalifalik qildi. Usmon va Ali xalifaligi davrida ham istilolar davom etdi. Ayniqsa, Kavkaz va Markaziy Osiyo tomonlarga yurishlar kuchaydi. Qisqa vaqt ichida Gruziya, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xuroson erlari arablar qo‘l ostiga o‘tdi va ularning qo‘shinlari Amudaryo sohillariga chiqdi.

7-asr oxiri va 8-asr boshlarida (xalifalikda ummaviylar xonadoni hukmron bo‘lgan 661-750 yillarda) arablar istilosining ikkinchi davri boshlandi. SHimoliy Afrikada istiloni davom ettirib, u joylar va Ispaniya bosib olindi va uni Al-Andalus nomi bilan xalifalik tarkibiga kiritdilar.

Arab istilochilari 7-asr 70-yillarida Eron hududini bosib olishni tugallab, Markaziy Osiyo erlariga (arablar Movoraunnahr - daryo ortidagi erlar deb ataganlar) avval bosqinchilik hujumlari qildilar, keyinchalik 8-asr boshlaridan 8-asr (705-715) o‘rtalarigacha bu erlarni lashkarboshi Abu Muslim ibn Qutayba to‘la bosib oldi. Mahalliy xalqlar arablarga qattiq qarshilik ko‘rsatdilar. Mavorounnahrda ularga qarshi Muqanna, Sumbob, Mug‘, Gurak, Divashti boshchiligida yirik xalq qo‘zg‘olonlari bo‘ldi. Arablar mahalliy xalqlar sig‘inadigan otashparastlik ibodatxonalarini buzib tashladilar. Kitoblarni ma’jusiy kitoblar deb yoqib yubordilar. Mahalliy olimlarni, savodli kishilarni o‘ldirdilar yoki qul qilib olib ketdilar. Bular to‘g‘risida 10-asrda yashagan Muhammad Narshahiy o‘zining «Buxoro tarixi» degan 2 jildli kitobida va Abu Rayhon Beruniy o‘zining «O‘tmish xalqlaridan qolgan yodgorliklar» degan kitobida ma’lumotlar qoldirganlar.

Bosib olingan erlarda islom dinini kiritish uchun hamma vositalar (qurolli kuchlar ham, da’vat, targ‘ibot, soliq siyosati ham, pora, imtiyozlar berishlar ham) ishlatildi.

Islom dini 9-10-asrlarda Tataristonda, 10-12-asrlarda Boshqirdistonda tarqaldi.

Qozog‘iston va Qirqg‘izistonda islomning kiritilishi 19-asrda ham davom etdi. SHimoliy Kavkaz xalqlari o‘rtasida Islom, 14-asrda kabardinlar va balkarlar, 19-asrgacha chechenlar va ingushlar orasida yoyildi.

Nisbatan qisqa tarixiy muddat ichida arab xalifaligi o‘sha zamondagi eng katta imperiya bo‘lgan Vizantiyaning juda katta hududlarini bosib oldi. Eronda Sosoniylar imperiyasi butunlay tugadi. Buning natijasida Amudaryo sohillaridan SHimoliy Afrikagacha, Tbilisi va Darbanddan YAman va Ummongacha, Ispaniyagacha cho‘zilgan yangi davlat - xalifalik vujudga keldi.

Qisqa davrda arab qo‘shinlari bunday engil g‘alaba qozonishining sababi: bu davrda ularga jiddiy qarshilik ko‘rsatadigan kuchning yo‘qligi edi. Qadimgi imperiyalar Vizantiya bilan Eron o‘zaro urushlarda holdan toygan, xalqlar qattiq jabr-zulmdan bezigan edi. SHimoliy Hindiston, Kavkaz, Markaziy Osiyda ham kuchli yirik davlatlar yo‘q edi. Masalan, Markaziy Osiyoda 8-asr boshlarida 19 ta mayda xonliklar bo‘lib, ular o‘zaro urush olib borardi. Buxoro Samarqandga, Samarqand Toshkentga yordam ko‘rsatmadi. O‘zaro qirg‘inbarot urushlar xalqning joniga tekkanligi, islom dinining mahalliy dinlarga yaqinligi va o‘xshashligi, yangi dinning moslashuvchanligi, uni qabul qilish shartlarining engilligi islom tantanasini ta’minlagan omillardan biridir.

Xorazm esa chetda turardi. Bu arablarga engil g‘alaba qilishga vaziyatni paydo qilgan edi.

Bosib olingan barcha hududlarda xalifalikka bo‘ysunuvchi hokimliklar tashkil topdi, xalqlardan davlat hisobiga va mahalliy hokimiyat uchun o‘nlab soliqlar, o‘lponlar yig‘ib olinardi. Ko‘p shahar va qishloqlarda masjid, madrasalar, diniy maktablar, katta ruhoniylar maqbaralari, ko‘plab qalandarxonalar vujudga kelib, islom urf-odatlari va shariat dasturlari turmushga chuqur singib ketdi, yagona islom mafkurasi va «musulmon madaniyati» hukmronlik qildi.

Xalifalikka bo‘ysundirilgan xalqlar o‘rtasida sadvo-sotiq kuchaydi. «Ipak yo‘li» orqali o‘zaro aloqalar olib borildi.

Hozirgi zamonda islom jahon dinidan biri sifatida 120 davlatda tarqalgan, dunyoda 1 milliarddan ko‘proq musulmon-lar mavjud. Arabiston yarim orolida, Kichik Osiyoda, SHimoliy Afrikada, Osiyo qit’asida, Evropa, Amerika qit’alarida ham musulmonlar yashaydilar. 28 davlatda islom dini rasman davlat dini hisoblanadi. (Eron, Pokiston. Saudiya Arabistoni, Qatar, Birlashgan Amirliklar, Quvayt va boshqalar). Eng ko‘p musulmonlar arablar (136 mln kishi). Indoneziya - musulmon davlatlari orasida aholisi eng ko‘p (153 mln. kishi) mamlakatdir.

Musulmon davlatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, mafkuraviy, ahloqiy, ta’lim-tarbiya, turmush tarzi, ijtimoiy ruhiyati, kundalik hayot tizimida islom kuchli ta’sirga egadir. Bu davlatlarning diniy va milliy ongini ajratib ham qaramaydilar. Milliy ozodlik harakatlari islom shiorlari ostida olib boriladi. Antiimperialistik va milliy taraqqiyot harakatlari ham islom g‘oyalari asosida bormoqda. Musulmon mamlakatlari birlashishi, kuch va imkoniyatlarini safarbar qilishda hamjihat bo‘lish maqsadida, Butun Osiyo Islom kongressi (BIK), Islom olami Ittifoqi (IOI), Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT), Islom Banklari halqaro uyushmasi (IBXU), Islom birdamligi (IB), Islom olami ligasi (IOL) va boshqalar mavjud.

Hozirgi davrda sobiq SSSR o‘rnida vujudga kelgan Markaziy Osiyodagi mustaqil davlatlarda, jumladan O‘zbekis-ton respublikasida ham islomning mavqei va ta’siri kuchaydi, dindorlar faollashdi, diniy tashkilotlar aktiv ish olib bormoqda. O‘zbekiston musulmonlari idorasi boshqarmasi hay’ati, uning raisi - muftiy janoblari xalqaro musulmon mamlakatlari tashkilotlari ishlarida faol qatnashmoqda, turli musulmon davlatlaridan mamlakatimizga tez-tez mehmonlar kelib, bizda islom qanchalik izzatda ekanini ko‘rib mamnun bo‘lmoqda. «Sobiq sho‘ro davrida respublikamizda bor-yo‘g‘i 89 ta masjid va 2 ta madrasa faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, hozir O‘zbekiston musulmonlari idorasi boshqaruvi ostida rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan, barcha qulayliklar yaratilgan 1700 masjid, 10 ta madrasa va Toshkent Islom instituti faoliyat ko‘rsatib turibdi.

SHuningdek, 1999 yil 9 aprel kuni prezidentimiz I.A.Karimovning farmoniga asosan Toshkent Islom Universiteti tashkil etildi.

Har yili mazkur oliygoh islom tarixi va falsafasi, diniy qonunchilik, iqtisod va tabiiy fanlar fakultetlariga 100 dan ortiq talabalarni qabul qiladi». (Qarang: Dinlar haqida ma’lumot. Toshkent-2000. Buklet. 2-buklam)

**TAYANCH IBORALAR:**

Islom, musulmon, payg‘ambar, Qur’on Karim, Muhammad (s.a.v.) Xoshimiylar Xaj, Namoz, ro‘za, zakot, iymon, sadaqa, Ka’ba, uxud jangi xalifalik, shariat, xadis, Aqida.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

1. Islom dini qaerda paydo bo‘ldi?.
2. SHariat nima?
3. Iymon nima?
4. Xaj nima?
5. Zakot nima?
6. Islomni muqaddas kitobi

**ADABIYOTLAR:**


1. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
2. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
3. Xayrullaev M, SHoaxmedov M. Madaniyat va meros. T. 1973.

4. Islam Ensiklopedicheskiy slovar. M. 1991.
5. Mo‘minov A. Movarounnahr ulamolari xanafiylar // sharqshunoslik. №9. 1990. 40-44 betlar.
6. Islom. Bag‘rikenglik va mutaassiblik. T. 1998.
7. Azimov N. Islom va xozirgi zamon. T. “O‘zbekiston”. 1991.

**MAVZU-ISLOMNING ASOSIY MANBALARI. (2 soat)**
**Reja:**
**1.Qur’oni karim islom dinining muqaddas kitobi.**
**2. Hadis ilmi.**
**3.Islom xuquqshunosligi va shariat.**

Qur’on suralari parcha-parcha holda Muhammad payg‘abarga 22 yil (hijriy yil hisobida 23 yil) mobaynida vahiy qilingan. Eshituvchilar bu suralarni yod olib, ba’zilarini esa yozib olganlar.

«Qur’on» arabcha «kara’a»-o‘qimoq, oddiy o‘qish, shuningdek, ma’lum matnni ohang bilan o‘qish, ya’ni «qiroat qilish», «Tilovat qilish» mazmunidagi fe’ldan, «o‘quv», «o‘qiladigan kitob» ma’nosini beradi.

Muhammad payg‘ambar savodli kishi bo‘lmaganligi uchun (Rasulullohning savodi bo‘lmaganligi to‘g‘risida Qur’onning 7-al-A’raf surasining 156-oyatida «ar-rasul an-na-biy al-ummiy» degan so‘zlarni uchratamiz. Bundagi «ummiy» so‘zi «xat yozish va o‘qishni bilmaydigan odam» deb tafsirlangan yoki 29-al-Ankabut surasining 47-oyatida: «Vo mo kunta tatlu ming qablihi min kitabin va lo tuxattuxu bi yaminaka», ya’ni «Bundan (Qur’ondan) oldin sen biror kitobni o‘qimagansan va o‘z qo‘ling bilan xat yozmagan hamsan», deyilganki payg‘ambar savodsiz ekanining aytilishi hech kimga malol kelmasligi uchun vahiyni yoddan o‘qigan, targ‘ibot vaqtida musulmonlar ham uni yod  olganlar. Qur’on suralarini to‘la yodlab olgan musulmonlar ko‘p bo‘lgan va ular «huffoz al-Qur’on» (Qur’onni yod bilganlar yoki Qur’on hofizlari) deb yuritilgan. Abu Bakr hukmronligi davridagi janglarda ana shunday huffozlardan bir qanchasi halok bo‘lgan. Ma’lumot-larga ko‘ra, barcha suralarni to‘la yod bilgan faqat 7 nafar kishi qolgan, boshqalari esa bir qism suralarnigina yod bilganlar, xolos. Muhammad payg‘ambarga umrining oxirgi besh yili davomida  kotiblik qilgan Zayd ibn Sobit bitta suraning oxirinigina bilmagan, qolgan barcha suralarni yod olgan. U ko‘pgina suralarni yozib borgan.

Binobarin, yana bir necha jangdan so‘ng suralarni yod bilganlar qolmasligi va Qur’on matnini tiklash mumkin bo‘lmay qolishi havfi yuzaga kelgan.

SHuni hisobga olib, xalifa Abu Bakr eng yaqin safdoshi Umar maslahati bilan 633 yilda Qur’on suralarini to‘plab, dastxat (qo‘lyozma) qildirish vazifasini Zayd ibn Sobitga topshirgan. U payg‘ambar masjidida bu vazifani bajarishga kirishgan, ya’ni sahobalardan har biri o‘zi bilan suralarni o‘qigan, Zayd ibn Sobit esa yozib borgan. Har bir sura, parcha yoki oyatlar guruhini avval bir kishi o‘qib, so‘ngra ikkinchi kishi o‘qiganda aynan mos kelsa, o‘shani yozib olgan. Bu usul Qur’on sura, oyatlari aniq va ishonarli yozilishini ta’minlagan.

Bu to‘plam Suxuf (sahifalar) deb nom olgan bo‘lib, unda ja’mi 109 ta sura bo‘lgan, ya’ni suxuf tarkibi to‘la bo‘lmagan. CHunki unda 1, 34, 41, 45 va 96-suralar hali mavjud emas edi. Oradan 17-18 yil o‘tgach, ilgaridan o‘z ixtiyori bilan suralar-ni yozib yurgan va alohida to‘plam qilib olgan ayrim kishilar qo‘lidagi nusxalar bilan, xaliflikning hokimiyatlarida (viloyatlarida) o‘qish va ibodatlarda ulardan foydalanish kengayib borgan sari, Suxuf orasidagi tafovutlar sezilib qolgan hamda davlatni boshqarish, kelajakdagi xilma-xillik ma’lum muammolarni keltirib chiqarishining oldini olish zaruriyati tug‘ilgan. Xalifa Usmon ibn Affon 651 yilda barcha dastxatlarni to‘plab, taqqoslab chiqish va ular asosida Qur’onning yagona nusxasini tayyorlashga farmon bergan va o‘zi bu ishga bevosita boshchilik qilgan.

Bu vazifani bajarish uchun, tarixiy manbalarda koʻrsatilishicha, 4 kishilik guruh belgilangan. Unga yana Zayd ibn Sobit rahbarlik qilgan, uning tarkibiga Qurʼonni yaxshi bilgan sahobalardan Abdulloh ibn az-Zubayr, Saʼd ibn al-Os, Abd ar-Rahmon ibn Xoris, ibn Xishom kiritilgan. Bu guruh barcha nusxalar va topilgan suralarni qaytadan tekshirib taqqoslash asosida yagona nusxani tayyorlagan. Ilgarigi shaxsiy nusxalarning barchasi kuydirib yoʻqotilgan. YAngidan dastxat qilingan yagona nusxa «Musxaf», aniqrogʻi «Xalifa Usmon Musxafi» deb nom olgan.

Musxaf - qadimiy arab tilida pergament, yaʼni oʻrama qogʻozni anglatgan. «Musxaf» kufa yozish usulida va sajʼ shaklida (gʻazal) yozilgan. Unga xalifa Abdul Malik (685-705 yy) va Iroq hokimi al-Xajjoj (694-714 yy.) davrida asos solgan. Asosan 697 yilda adib Abdul-Asvad ad-Duvaliy tomonidan harflarning ustiga va ostiga nuqtalar qoʻyib chiqilib, Qurʼonni oʻqishdagi chalkashliklarga barham beril-gan. Lekin «Usmon Musxafida» bu nuqtalar yoʻq edi.

Qurʼon VII asrga oid qadimiy yodgorlik boʻlgani sababli ichki tuzilishi, yozilish uslubi, mazmuni, iboralari jihatidan oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlgan kitobdir.

U 114 ta sura, 6236 oyatdan iborat. Suralar «oyatlar toʻplami» («oyatlar tizmasi») maʼnosini bildiradi. «Oyat» soʻzi faqat Qurʼoniy oʻziga xos ibora boʻlib «moʻʻjiza», «ilohiy belgi» maʼnosini anglatadi.

Qurʼon matni sura va oyatlardan tashqari yana 30 ta «juzʼ» (oʻzbekcha «pora») ga boʻlingan. Juzʼ - keyinchalik Qurʼon matnini oʻqishga oson boʻlishi uchun teppa-teng 30 ga boʻlinganligidan paydo boʻlgan.

Masalan. Qurʼondagi eng katta 2-al-Baqara surasi ikki poradan koʻproq, keyingi 37 ta kichik suralar jamlanib bir poraga kiritilgan.

Suralar Qurʼonda oʻz mazmuniy izchilligiga yoki nozil boʻlgan vaqtiga, yaʼni muddatlar tartibiga qarab emas, balki hajmiga qarab joylashtirilgan. Bundan faqat bir necha sura mustasno. Masalan, faqat 7 ta oyatdan iborat 1-sura («Fotiha») oldinga joylashtirilgan, chunki bu sura mazmuni iymon uchun juda muhim hisoblanadi.

Suralardan 90 tasi Makka davrida va 24 tasi Madina davrida nozil boʻlgan. Qurʼonda diniy-falsafiy tasavvurlar va rivoyatlar: qabila-urugʻchilik hayot tarziga xos anʼana, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va ahloqiy qonun va qoidalar, jumladan, oila-nikoh, ajdodlar va avlodlarga munosabat, mulkchilik va vorisilik, savdo-sotiq va qarz muammolariga xos koʻrsatmalar oʻz ifodasini topgan. Qurʼonning insof, vijdon, halollik kabi ahloqiy taʼlimotlari umumbashariy qadriyat hisoblanadi.

Qurʼon xalq orasida uni yoddan oʻqiydigan «qorilar» orqali keng tarqalgan. Lekin «qorilar» Qurʼonning mazmuni bilan deyarlik shugʻullanmaydilar, ular faqat oyatlarni qiroat bilan oʻqishga odatlanganlar.

Qurʼonning mazmunini izohlash (tafsir qilish) bilan shugʻullanadigan ulamolar «mufassirlar» (yaʼni tafsirchilar) deb ataladi. Islomdagi «ahli sunna» (Sunniylar yoʻnalishi) da 6 ta tafsirchi: at-Tabariy 838-924 yillar), as-Saolibiy (1036 yilda vafot etgan), az-Zamahshariy (1074-1143 yillar Xorazmdan), Faxriddin ar-Roziy (vafoti 1209 y.), qozi al-Bayzoviy (vafoti 1282 y.) va Jalolayn SHayx at-Tabarsiy (XIII asr) tafsiri eng obroʻli sanaladi.

Qurʼonda diniy-falsafiy dunyoqarash, iymon va eʼtiqod asoslari undagi aqidalarda bayon qilingan.

Qurʼonda sunniy yoʻnalishdagi musulmonlar quyidagi 7 ta aqidaga eʼtiqod qiladilar:

**AQIDALAR.**

1) yakka Allohdan boshqa xudo yoʻq, u hech kimdan tugʻilmagan, hech kimni tugʻdirmagan. Olamni yoʻqdan yaratgan, odamlarni, barcha jonli va jonsiz narsalarni, ins-jinslarni, farishtalarni foniy va boqiy dunyolarning egasi, u hamma narsa, hodisalarni koʻrib,

bilib turadi. Ungagina bo‘ysunaman, uning to‘g‘ri yo‘lidan olib borayotgan Muhammad payg‘ambarga ishonaman, unga taqlid qilaman.

2) Farishtalarga ishonish, ularni Alloh olovdan yaratgan jonsiz, ko‘zga ko‘rinmaydigan ruhlar, deb tasavvur etiladi. Farishtalar Allohga itoat etadilar, uning xizmatini bajaradilar, deb ishonadilar. Masalan, farishta Azroil jon oluvchi, Jabroil farishta Allohdan Muhammad payg‘ambarga xush xabar keltirgan. Munkir va Nakir degan farishtalar vafot etganlarni so‘roq qilib gunoh va savobini aniqlaydi va h.k.

3) Muqaddas kitoblarga ishonish va ulardagi ko‘rsatmalarga amal qilish. Muqaddas kitoblar: Qur’on, Hadislar, Axbor, Tavrot, Talmud, Zabur, Bibliya (Injillar), Tripitaka, vedalar va boshqalardir. Bundan Qur’on osmondan tushgan eng so‘nggi, eng mukammal, haqiqat va Allohning so‘zlari bitilgan «ona kitob»dir.

4) Payg‘ambarlarga va Muhammadning Allohning elchisi ekanligiga ishonish, Alloh, er yuzidagi barcha odamlarni o‘z elchisi Muhammadga vahiylar orqali boshqarib, ularni to‘g‘ri yo‘ldan boshlab borish vazifasini payg‘ambarga, undan keyin esa podsholarga yuklagan, deb tasavvur etiladi. Qur’onda Muhammaddan boshqa yana Nuh (Noy), Ibrohim (Avraam), Ishoq (Isaak), YAkub (Iakov), Ayub (Iof), YUnus (Ion), Muso (Moisey), Xorun (Aaron), Iso (Iisus Xristos), YAh’yo (Ioann CHo‘qintiruvchi), Maryam (Mariya), Dovud, Sulaymon, YUsuf (Iosif Prekrasno‘y) kabi payg‘ambarlar to‘g‘risida ham gap boradi. Qur’ondagi ayrim suralar payg‘ambarlar nomi bilan ham atalgan, masalan, Muhammad, Ibrohim, YUsuf kabi.

5) Oxiratdagi va boqiy dunyodagi hayotga ishonish. Qur’onda, oxiratda o‘lganlar tiriladi, xudo ularni so‘roq qilib gunohkorlar do‘zaxda azob tortishga, savob ish qilganlar esa jannatda abadiy rohat-farog‘atda hayot kechirishiga hukm qilishi aytiladi. Bu dunyo foniy, ya’ni o‘tkinchi, aldamchi, bir lahzali, asosiy hayot esa boqiy dunyoda ekanligi ta’kidlanib, har bir kishi sabr-toqatli, insofli, adolatli bo‘lib, savob amalar qilishi kerak, ana shundagina jannat hayoti unga nasib etadi, deydilar.

6) Inson taqdirining xudo tomonidan oldindan belgilab (peshonasiga yozib) qo‘yilganligi to‘g‘risidagi tasavvur-lar. Bu aqidaga ko‘ra xudo hamma narsalar ustidan, shu jumladan, odamlarning taqdiri ustidan ham to‘la hukmronlik qiladi. Insonda xohish va iroda erkinligi yo‘q bo‘lib, inson faqat xudo xohlaganini, peshonasiga yozilganini ko‘radi, degan g‘oya ilgari suriladi. Bu aqida ijtimoiy munosabatlarga tegishli bo‘lib, islom olamida ko‘p tortishuvlarga sabab bo‘lgan.

7) Islomning oxirgi aqidasi - bu o‘lgandan keyin tirilishga ishonishdir. Bu aqidaning vujudga kelishida qadim dunyodagi animizm va avlodlar ruhiga sig‘inish dinlarning bevosita ta’siri sezilib turadi. Islomdagi SHia musulmonlari e’tiqodi beshta aqida: tavhid (yakka xudolik), adl (adolat), nubuvvat (payg‘ambarlik), imomat (imomlar hokimiyati) va qiyomat (oxirat kunining kelishi va o‘lganlarning tirilishi)ni tan olishdan iborat.

Qur’on ilk islomda yakka-yu yagona manba edi. Ammo arab istilolari natijasida vujudga kelgan xalifalik hududlarida yashayotgan turli xalqlar talab-ehtiyojlariga Qur’on to‘la javob bera olmas edi. SHu tariqa o‘zgargan tarixiy sharoitdagi talab va ehtiyojlarga javob beradigan yangi manbalar vujudga kelishi zarur bo‘ldi. Islom olimlari Muhammad payg‘ambarning hayot yo‘li, u aytgan hikmatlari, ibratli xabarlar, ko‘rsatgan yo‘l-yo‘riqlari, uning va sahobalarining yaxshi ishlari, o‘git va nasihatlarini, bilgan shaxslardan eshitib, to‘play boshlaganlar. Bu yangi ma’lumotlarni «hadis», ya’ni «hikoya», «xabar», «hikmat» deb aytish mumkin. Hadislar to‘plami Sunna deb yuritiladi. Sunniy yo‘nalishdagi musulmonlar tan olgan, hadislargina sunna hisoblanib, u Qur’ondagi keyindagi ikkinchi manba hisoblanadi. Hadislarni dastlab Muhammadning qarindosh-lari, xalifalar, sahobalar ishlatgan, ya’ni ular biron-bir ko‘rsatmani (avvalo huquqiy harakterdagi ko‘rsatmani) qonunlashtirish uchun o‘zlari Muhammaddan eshitgan so‘zlarni dalil qilib keltirganlar. VII-IX asrlarda ming-minglab hadis to‘plangan yoki to‘qilgan. Hadisshunoslik savob ish hisoblangan, hadislarni to‘plash mustaqil bilimga aylangan, bu ishga ixtisoslashgan ilohiyot peshvolari esa muhaddislar, deb atalganlar.

Hadislarning aksariyati huquqiy va ahloqiy normalarni, marosim va urf-odatlar, oilaviy munosabatlar, kasb-kor, savdo-sotiq, ilm, ota-ona, farzand, qarindosh-urug‘, do‘stlik, yaxshilik yoki yomonlikka oid bo‘lgan. Ammo tarxiy mazmunga ega bo‘lgan.

Muhammad tarjimaiholini, xalifalar, sahobalar faoli-yatini bayon etgan hadislar ham bo‘lgan. Islomda taniqli va nufuzli hisoblangan kishilar tomonidan etkazilgan hadislar (sahih) deb e’tirof qilingan.

Hadislarni etkazgan kishilar ishonchli bo‘lsa, bu hadis yaxshi (hasan) deb atalgan. Ishonchli bo‘lmagan shaxslar etkaz-gan hadislar bo‘sh (zaif) deb atalgan.

Haqiqiy rost, chin hadislarni soxta hadisdan ajratish eng muhim ish hisoblangan. Bu ishda ham qiyoslash, taqqoslash usulidan foydalanilgan. Masalan, biron hadis turli shaxslardan, turli, bir-biridan uzoq joylarda solishti-rilgan ular aynan tug‘ri kelsa o‘shanday hadis sahih, ya’ni chin hadis hisoblangan, agar bir-biriga bironta so‘zda, ma’noda to‘g‘ri kelmasa unday hadis soxta yoki zaif hisoblangan va tashlab yuborilgan.

IX-X asrlarda hadisshunoslik va hadislarni to‘plash tugallangan. To‘plangan hadislar hajmi, chinligi, tartibi, ahamiyati bilan musulmon olamida olti muhaddis (hadis to‘plovchi) mashhur bo‘lgan. SHulardan uchtasi Markaziy Osiyo-dan chiqqan. Muhaddislar orasida eng orbo‘lisi va mashhuri Imom Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy (809-870 yillar) dir. U Buxoroda tug‘ilib, shu erda o‘z davri ilmlarini, ayniqsa, diniy bilimlarini har tomonlama o‘rgangan. So‘ng o‘z bilimlarini mukammallashtirish maqsadida Makka, Madina, Bog‘dod, Damashq, Hijoz, Kufa, Nishopur kabi shaharlarga borgan. Bu shaharlarda juda ko‘p olimlar, dinshunoslar, muhaddislar bilan uchrashgan, hadislar to‘plagan, so‘ng Buxoroga qaytgan. U Samarqand yaqinida vafot etgan. Uning maqabarasi hozir ta’mirlangan va ziyoratgohga aylantirilgan.

Buxoriydan bizga juda ko‘p meros qolgan. Uning islom dinshunosligiga oid 20 taga yaqin katta hajmdagi asarlari mavjud. «Al-Jome’-Sahih», «At-tarix al-Kabir», «At-tarix as-sagir», «Al-Adab al-SHufrad» kabilar shular jumlasiga kiradi.

«Islom olamida hazari imom Buxoriy va imom Muslim ikkalalarining ikki sahih kitobi paydo bo‘lgach, olimu muhaddislar juda nozik did bilan tekshirib, bahs yuritganlaridan keyin eng ishonchli ekaniga qalblari taskin topdi. Allohning kitobi Qur’oni Karimdan keyin Islomning ikkinchi manbasi, «Eng oliy va eng sahih» manba deb shu ikki kitobni tasdiqladilar». (Qarang: Imom Buxoriy ta’rifi. Toshkent.-«CHo‘lpon» nashriyoti.-1996 yil. 9-bet)

Buxoriyni butun musulmon olamiga mashhur qilgan asari to‘rt jildli «Al Jome’ al-Sahih» («Ishonchli to‘plam») bo‘lib, u «Sahih- al-Buxoriy» nomi bilan ham ma’lumdir. Bu asar 160 qismdan iborat bo‘lib, 3450 bobni o‘z ichiga oladi. CHunki, Buxoriy 20 mingdan ortiqroq hadis to‘plab, bulardan 7250 tasini mana shu kitobiga kiritgan. Buxoriy to‘plamiga haqiqiy bilgan hadislarnigina kiritgan. Bu kitobdagi hadislarda inson uchun tarbiyaviy ahamiyati, uning ma’naviy yuksalishi, pokligi, donoligi, yaxshi-yomonni ajrata bilishi kabi g‘oyalar bayon etilgan.

Hadislarning asosiy maqsadi: do‘stlik, adolat, o‘zaro yaxshi munosabatlarni mustahkamlash, insonni yomonlikdan asrashdir. Ismoil Buxoriy «Sahih»ning hozir to‘rttala jildi o‘zbek tiliga tarjima qilinib, undan xalqimiz foydalanmoqda.

Buxoriyning yaqin shogirdlaridan bo‘lmish mashhur muhaddislardan biri Imom Iso at-Termiziydir (824-892 yillar). Undan «Jame’ al-kabir», «Jome’ at-Termiziy», «Ash-SHamoil al-Nabaviya», «At-Tarix», «Kitob az-Zuxd» kabi o‘ndan ortiq asarlar qolgan. Termiziyni musulmon olamiga mashhur qilgan asari «Jome’ at-Termiziy» bo‘lib, unda insonparvarlik g‘oyalari keng ifodalangan. O‘g‘irlik, zo‘ra-vonlik, yolg‘onchilik, ichkilikbozlik, manmanlik kabi salbiy, ahloqqa zid qusurlar qattiq tanqid qilingan.

Islomda mashhur bo‘lgan muxaddislardan yana biri Abu Abdurahmon an-Nasoyidir (850-915 yillar). U Nisa (Turkmaniston) shahrida tug‘ilib, horijiy sharq shahar-larida, xususan Misrda o‘z

bilimini oshirgan. U Falastin-ning Romla shahrida vafot etgan. Uning «at-sunai al-Kubro» kitobi mashhur bo‘lgan. Qolgan yana uchta hadis yozganlar Eron va Arab mamlakatlarida edi.

Hadislar Qur’on kabi muqaddas manba sifatida musulmonlarning ta’lim-tarbiyasida, fiqx sistemasida, oilaviy tarbiyada hamon katta ahamiyatini saqlab kelmoqda.

SHariat-arabcha «to‘g‘ri yo‘l», «ilohiy belgilab berilgan yo‘l» demakdir.

SHariat - islom qonun-qoidalariga, moddiy va ma’naviy hayotning barcha sohalarida musulmonlar bajarishi lozim deb belgilangan, ijtimoiy-iqtisodiy, fuqarolik, ahloqiy va diniy faoliyat va hatti-harkatlar bo‘yicha qonun-qoidalar va me’yorlar majmuasidir.

SHariatning harakterli xususiyatlaridan biri shundaki, u faqat huquq va qonunchilikka xos masalalar bilan cheklanib qolmay, u ahloq va diniy marosimchilik masalalarini ham o‘z ichiga oladi. Musulmonlar uchun bajarish farz, ya’ni majbur hisoblangan dasturlarni belgilab beradi va ularning diniy qonun tusiga kiritadi. SHuni hisobga olganda, shariatni faqat shartli ravishda diniy huquq tizimi deb atash mumkin.

SHariat insonning huquqiy, ahloqiy va diniy hayotini qattiq nazoratga oladi, u hatto insonning shaxsiy va oilaviy hayoti, kundalik turmushiga oid barcha masalalarni ham o‘z tasarrufiga oladi hamda ularni diniy qoidalar darajasiga ko‘taradi. SHariat feodal tizimdagi ijtimoiy munosabatlar, ta’lim-tarbiya, ruxsat etilgan va qat’iyan ta’qiqlangan hatti-harakatlar: oila, nikoh va taloq masalalari, savdoda oldi-sotdi tartibi va mulkiy munosabatlar, jinoiy harakatlar va jazolash me’yorlari kabi bir butun, yaxlit tizimdir. SHariat va uning qoidalari islomda Alloh tomonidan belgilab berilgan ilohiy yo‘l bo‘lganligi uchun u muqaddas hisoblanadi. CHunki, yuqorida aytib o‘tilganidek, Muhammad payg‘ambar diniy jamoada yakka hukmdor sifatida - ham hokim, ham qozi, ham lashkarboshi, ham bosh imom bo‘lib, u Alloh nomidan musulmonlarning oilaviy va shaxsiy muammolarini o‘zi hal etgan, musulmonlarga pand-nasihat qilgan, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan. Ana shular keyinchalik hadislarga kiritilgan, ular shariat dasturlari, qonunlari darajasiga ko‘tarilgan.

SHariat XIII-XII asrlar davomida asta-sekin shakllandi. Qur’on, hadis (sunna), ijmo’ va qiyos shariat manbalari hisoblanadi.

Ijmo’ - diniy jamoa fikri (arabcha-ijmo’ al-umma) bo‘lib, Qur’on va hadislarga asoslangan, ammo alohida vaziyat yoki shart-sharoitni hisobga olib chiqariladigan ulamolar hukmi edi.

Qiyos - kengayib ketgan, ichki nizolar kuchayib borayotgan xalifalikda shariatga asos qilib olingan to‘rtinchi manba edi. Qur’on va hadislardan topilmagan ko‘rsatmalar o‘rniga ulamolar bergan fatvo o‘tgan. Qiyos  - mantiqiy taqqoslash yo‘li bilan biror masala bo‘yicha hukm chiqarish usulidir.

Ijmo’ bilan qiyos qabul qilingach, mahalliy va markazdagi humdorlar shariatni o‘z xohish-irodalariga qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Natijada islomning Muhammad payg‘ambar davridagi ko‘p talablari buzildi. Islomga bid’at hisoblangan yangiliklar kirib qolgan. Keyingi vaqtlarda vahhobiylar «islomni tozalash»ni talab qilmoqdalar.

SHariat eng avvalo qonunchilik bo‘lib, u Muhammad vafotidan keyin 5 asr davomida ishlab chiqilgan. Bu ishlar bilan shug‘ullanish natijasida qonunshunoslikka oid diniy fiqx bilimi vujudga keladi. Fiqx so‘zi arabcha bo‘lib, u bilish, tushunish, anglash mazmunidan olingan. Fiqx bilan mashg‘ul bo‘lgan ulamolar fiqxlar, ya’ni qonunshunos, diniy qonunlar sohasida bilimdon kishilar demakdir. Masalan, Marg‘ilon shahridan etishib chiqqan Burhonuddin Marg‘iloniy (1197 yilda vafot etgan) Ali ibn Abu Bakr al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy qator asarlar muallifi bo‘lib, uning fiqxga oid eng mashhur kitobi «Hidoya fi-l-Furuz» («SHariat sohalari bo‘yicha qo‘llanma»)dir. «Hidoya» musulmon huquqshunosligi sohasidagi eng yirik va keng tarqalgan asarlardan biri bo‘-lib, hozirgacha o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

SHariatni yaratish jarayonida fiqx kategoriyalari ishlab chiqilgan.

1. «Farz» deb nomlanadi va bunga bevosita Qur’onda ko‘rsatilgan har qanday holda ham bajarilishi majbur bo‘lgan harakatlar kiradi. Farz deb belgilangan talablarni bajara olmaslik qattiq gunoh hisoblanadi. Masalan, har bir musulmon kalimai shahodat keltirishi, namoz o‘qishi, ro‘za tutishi, zakot to‘lashi, haj qilishi farz majburiyatlaridandir.
2. «Mandub» (tavsiya qilingan, lozim deb tayinlangan) oddiy tilda «Sunnat». Bunga bajarish tavsiya etiladi-gan harakatlar kiradi, bajarish savob, lekin bajaril-maganda gunoh hisoblanadi. Masalan, qurbonlik marosi-mi o‘tkazish, sadaqa ulashish, aziz joylarga borish.
3. «Muboh» deb atalib, bunga har bir shaxs ixtiyori bilan bajarsa ham bo‘laveradigan hatti-harakatlar kiradi, ular savob ham, gunoh ham hisoblanmaydi. Masalan, o‘lganlar ruhiga chiroq (sham) yoqish. Bibi seshanba, mushkulkushot o‘tkazish.
4. «Makruh» deb ataladigan kategoriyaga nolozim hisoblanadigan hatti-harakatlar kiradi. Makruh ishni qilish nolozim hisoblanadi, lekin gunoh hisoblanmaydi. Masalan, xotinni taloq qilish, emizadigan bolasi bor ayollarni ro‘za tutmasligi kabi.
5. «Harom» yoki «Mahzur» deb ataladigan kategoriyaga shariatda qat’iy ravishda ta’qiqlangan hatti-harakatlar kiradi. Masalan, Islomdan chiqib boshqa dinni qabul qilish, birovning haqqini o‘zlashtirib yuborish, zino qilish, zakot to‘lamas-lik kabilar. Harom ishlarga yo‘l qo‘ygan shaxs gunohkor hisoblanib, unga jazo qo‘llanishi mumkin.

Feodalizm davrida yangi kategoriya ishlab chiqilib «Vojib» deb atalgan. «Vojib» xalifalar, podsholar, amirlar, sultonlar va boshqa hukmdorlarning farmon va bo‘yruqlarini bajarish majburligini va zarurligini anglatgan. «Vojib» Alloh bo‘yruqlaridan keyin, ya’ni Muham-mad ko‘rsatmalaridan avvalgi o‘ringa qo‘yilgan. Vojibni «Amri vojib» deb ham aytiladi. SHohning aytgani Ollohning aytgani, degan ma’noda ishlatilgan. SHariat islom rasmiy din hisoblanadigan davlatlarda hozir ham o‘z kuchiga ega. Masalan, Eron Islom respublikasida 1979 yildan boshlab shariat rasmiy kuchga ega. Lekin islom davlatdan ajratilgan mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (31,61 moddalar) shariat qonunlari rasmiy kuchga ega emas, ammo shariatning ahloqiy talablari, ayrim holatlarda ijtimoiy-mulkiy, oila-nikoh talablari hamon an’anaviy kuchga egadir.

Islomda Qur’on, shariat, hadislarda ahloqqa alohida ahamiyat berilgan. Keng ma’noda olinganda inson, uning hayoti va hayotining mazmuni, mehnat, uning ahamiyati, boshqa dindagi xalqlarga munosabat, xotin-qizlar, oila-nikoh, odamlarning jamoat joylarida o‘zaro munosabatlaridagi me’yorlar va savdo-sotiq kabi ko‘pgina masalalar ahloqiy jihatdan qanday bo‘lishi kerakligi belgilab qo‘yilgan. Masalan, Qur’onning 4-sura 33-oyatida: «O‘z-o‘zingizni o‘ldirmangiz» deyilgan, yoki 6-suraning 141-oyatida «Tentaklik qilib bilmaslik natija-sida o‘z farzandini o‘ldirganlar - yo‘ldan adashganlardir», deyilgan, yoxud 6-suraning 152-158-oyatlarida «Ota-onangizga muruvvat qilinglar, ifloslikka (buzuqchilikka) ochiq ham, yashirin ham yaqinlashmangiz, odam o‘ldirmangiz. Buni Alloh ta’qiqlagan. Etimlar mulkiga yaqinlashmangiz, o‘lchovda va tarozida adolatli bo‘lingiz. Gapirgan vaqtlaringizda to‘g‘ri bo‘lingiz», deyilgan. Bu ahloqiy ko‘rsatmalar mustaqil O‘zbe-kistonda ma’naviyatni yuksaltirish uchun beqiyosi ahamiyati bor.

Garchi ahloq va uning tamoyillari, oddiy kundalik me’yorlari, har qanday dindan avvalroq ibtidoiy jamiyatning yuqori bosqichlarida vujudga kelgan bo‘lsa ham dinlar, shu jumladan, islom dini ham ana shu ahloqiy yutuqlarni o‘z mazmuni, maqsadi va yo‘nalishiga asosan qayta ishlab va unga o‘ziga xos bo‘lgan yangi tamoyil va me’yorlarni qo‘shib musulmonlarga Alloh va payg‘ambar nomidan taqdim etadi.

Musulmonlar oliy tabaqalar ommadan tashkil topganligi uchun islom ahloqi umuminsoniydir. Ulamolar bu ahloqdagi insoniylikni muhim xususiyat sifatida alohida ta’kidlab o‘tadilar.

SHariat mulkka munosabatni ham belgilab qo‘ygan. Masalan, erga egalik shakli shariatga ko‘ra uchta: podsholik mulki, xususiy mulk, vaqf mulki kabilardan iboratdir. Xalifa butun mamlakatning mulkiga xo‘jayin bo‘lmasada, barcha mulk amalda uniki hisoblanadi. Davlat er mulkini ersiz dehqonlar ma’lum shartnoma asosida ishlaganlar.

Vaqf mulkiga erlar, savdo rastalari, objuvozlar, bog‘lar, karvon saroylar, barcha masjid, madrasa, maqbara, diniy maktablar, mozorlar atrofidagi joylar, diniy yozuvlar kiradi.

Vaqf erlari davlat tomonidan, ayrim boylar tomonidan, egasiz qolgan, vasiyat qilingan erlardan tashkil topadi. Vaqf erlarini garovga qo‘yish, sotib olish, tortiq qilish mumkin emas. Vaqf mulkini mutavalli boshqaradi. Bu mulkdan qolgan daromadlar din manfaatiga sarflanadi, muhtoj kishilarga undan yordam beriladi.

SHariatni amalga oshirish qozilar va ularning ixtiyorida bo‘lgan qozilik mahkamasi qo‘lida bo‘ladi. SHariat ta’qiqlari, majburiyatlarini xalq qanday bajarayotganligini mahalliy ruhoniylar, qozi, imom, ulamo, uyboshi, ellikboshi, yuzboshi, mingboshi, tumanboshilar nazorat qiladi. SHariat jinoyatni turlarga ajratib jazo belgilaydi. 1-xildagi jinoyat qonli jinoyat bo‘lib, unga birovni o‘ldirish yoki yarador qilish, o‘g‘irlik yoki qaroqchilik kabilar kirib, ular og‘ir jinoyat hisoblanadi. Bunday jinoyatga yo‘l qo‘ygan shaxs o‘limga yoki og‘ir tan jazosiga hukm qilinadi, ba’zan o‘ldirilgan kishining xunini to‘lashga majbur qilinadi. Masalan, qulni o‘ldirgan kishi qul sotib olib berishi yoki uning narxida jarima to‘lashi Qur’onda aytilgan.

2-xildagi jinoyatga dindan qaytish, zino qilish, o‘g‘irlik, qaroqchilik kirib, bu hollarda ham aybdor kishi o‘lim jazosi olgan.

3-jinoyatga shariatga nolozim ishlar kiradi: sababsiz namoz o‘qimaslik, ro‘za tutmaslik, birovga tuhmat qilish, birovlar haqini eb yuborish, qimor o‘ynash, kayf qilish, zakot to‘lamaslik, din peshvolarini haqoratlash. Bu jinoyatlar zindonga solish, qamchi bilan savalash, mol-mulkini musodara qilish bilan jazolangan.

Islomning boshqa dinlardan keskin farqi unda g‘oyat ko‘p marosimlar mavjudligi bo‘lib, marosimlar asrlar bo‘yi xalq ommasi hayotiga keng singib ketgan, barchani o‘z ta’siriga olgan, jamotchilik fikri va ijtimoiy psixologiyaga ta’sir qilib, turmush tarzi belgilangan, tartib-intizomga solib, odamlarni kollektivchilik, hamkorlikka o‘rgatgan, ulardan ma’lum darajada vaqt va sarf-harajat sarflashni talab etgan, musulmonlarning dunyoqarashi va iymon-e’tiqodini kengaytirib borgan. Islom marosimlari muayyan demokratik harakterga ega, ya’ni ularga rioya qilishda jamiyatdagi turli tabaqa, sinf va guruh, boylaru kambag‘allar birdek huquqqa va majburiyatga egalar, ammo imkoniyatlar darajasi turlicha.

**M a r o s i m l a r :**

1. Islom marosimlari o‘z mazmuni va mohiyatiga ko‘ra umumbashariy, umummilliy, oilaviy turli mazhab va yo‘nalishga xos bo‘lib, shodiyona yoki marsiyaviy harakterda bo‘ladi.
2. Islom marosimlari majburiy, majburiy bo‘lmagan guruhlarga ajraladi:

A) majburiy, ya’ni «farz» hisoblangan marosimlarga kalimai shahodat keltirish, namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot to‘lash, hajga borishlar kirib, ular rukn hisoblanadi va arkoni-din deyiladi;

B) majburiy bo‘lmagan marosimlar «sunnat» deyiladi, ularga nikohdan o‘tish, o‘g‘il bolalarni sunnat qildirish (qo‘lini halollash), qurbonlik, mavlud, ashurlik, xatmi-qur’on, vafot etganlarni eslash uchun uch, etti, yigirma, qirq, yil muddatlarini o‘tkazish va h.k.

Musulmonlar uchun umumiy majburiyat, bajarmasa gunoh va jazoga loyiq deb hisoblangan marosimlar:

1) har bir musulmon «fotiha» surasidagi 7-ta oyatni dilda aytib, iymon keltirishi, ya’ni «kalimai shahodat» orqali o‘zining Alloh bandasi va Muhammad payg‘ambarning ummati ekanini yodda saqlab, unga amal qilishi talab etiladi. Bu musulmonchilikning asosiy talabi bo‘lib, boshqa marosimlarning barchasi uning o‘rnini bosa olmaydi;
2) Namoz - ikkinchi asosiy marosimdir. Musulmonlar har kuni besh vaqt namoz o‘qishlari shart. Namozlar: (1) Bomdod. (2) Peshin. (3) Asr. (4) SHom (5) Xufton. Namoz o‘qish uchun tahorat qilingan bo‘lishi shart, toza joy va joynamoz (yoki toza biror narsa, masalan, chopon) bo‘lishi kerak. Namoz o‘qiydigan shaxs pok va aql-xushida bo‘lish ham shart, ammo kayfi bor, tahorati buzilgan kishilar namoz o‘qishi mumkin emas. Namoz o‘z uyida, masjidda,

jome’ masjidida juma namozlarida kollektiv bo‘lib o‘qiladi. Namozning ehtiyoti peshin, tavoruh, janoza kabi turlari ham mavjud. Og‘ir bemorlar, o‘zini o‘zi eplay olmaydigan qariyalar namoz o‘qishdan ozod etilganlar.
Hojatga borishlik, badandan qon yoki yiring oqishi, qusmoq, mast bo‘lmoq, uxlamoq, xushdan ketmoq, el qo‘yib yuborishlik, namozda qattiq ovoz chiqarib kulishlik, gumon qilishlik kabi holatlarda tahorat buzilgan hisoblanadi.

3. Ro‘za va ro‘za hayiti - islomning yana bir farz maro-simidir. Ro‘za tutish ham barcha musulmonlar uchun majbu-riy. Undan emizadigan yosh bolali onalar, og‘ir bemorlar, safarda yurgan kishilar, aqli-hushi o‘zida bo‘lmagan shaxslar ozod etiladi.
Ro‘za tutish - Qur’onning vahiy qilinishi boshlangan Ramazon oyida 30 kun davomida bajariladi. Ro‘za tutish («og‘iz boylash») erta saharlik boshlanib to kechki iftor-likkacha davom etib, shu vaqt mobaynida ovqat etmaslik, suv ichmaslik, nos, papiros, nasha kabilarni chekmaslik, cho‘mil-maslik shart. Ro‘za oyida iftorlik ziyofatlari xonadonlarda o‘tkaziladi, unda faqat ro‘za tutganlar qatnashmog‘i kerak.

Ro‘za kunlari jamoat bo‘lib qo‘shimcha tavoruh namozi ham o‘qiladi. 30 kun ro‘za tutish tugagach, ro‘za hayiti o‘tkaziladi. Bu hayit umumxalq bayrami bo‘lib, unda arafalik qilinadi, hayit namozi o‘qiladi, vafot etgan avlodlar qabrlari ziyorat qilinadi, «yangi hayit» marosimi o‘tkaziladi va h.k. Ro‘za Allohga iymon-e’tiqod kuchaygan, Qur’on tilovatlari ko‘pay-gan tabarruk kunlar hisoblanadi.

Mustaqil O‘zbekistonda ro‘za hayiti kuni bayram sifatida nishonlanib, dam olish joriy etildi. Prezidentimiz bu kuni dindorlarni muborak ro‘za hayiti bilan qizg‘in tabriklaydi.

Ro‘za o‘g‘il bolalarga 12 yoshdan, qizlar uchun esa 9 yoshidan tutish buyurilgan. Ro‘za jismoniy tarbiya va sog‘lomlashtirishga yordam berishi mumkin;

4. Zakot - islom farzlaridan biri. U diniy ahamiyatga ega bo‘libgina qolmay, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ham egadir.
Zakot - bu musulmonlarning boyliklardan faqiru miskinlarga berilishi shart bo‘lgan Allohning haqqi. Islom ta’limotiga binoan sadaqa, ya’ni xayru-ehson ikki xil bo‘ladi: ixtiyoriy va majburiy. Zakot berilishi shart bo‘lgan majburiy sadaqa hisoblanadi. Zakot sadaqagina bo‘lib qolmasdan, balki u ibodatdir. Har bir musulmon ibodat qilmasligi mumkin bo‘lmaganidek molu dunyosi ma’lum miqdorga etgach Islom ahlining zakot bermaslikka hech bir haqqi yo‘q. Zakotni inkor qilgan shaxs islom dinidan chiqqan bo‘ladi, ammo uni farz ekanini e’tirof etsayu, lekin amalda bajarmagan bo‘lsa gunohkor bo‘ladi.

Zakotni balog‘at yoshiga etgan (18 yoshga to‘lgan), hur va ozod kishilar, aqli hushi joyida, mol-dunyosi, ya’ni jamg‘armasi nisob miqdoriga etgan va u shaxsiy mulk bo‘lsa, 12 oy ichida biron marta ham kamayib qolmasa, egasining kundalik ehtiyojlaridan ortiq bo‘lsa, ana shunday shaxs zakot to‘laydi. Nisob - zakot berilishi shart bo‘lgan mollarning o‘lchov miqdori bo‘lib, u mollarning turiga qarab turlicha bo‘ladi.

**Islom quyidagi mollardan zakot olishni tayin qilgan:**

1) Tilla, kumush, qog‘oz pullaridan;
2) Erdan olinadigan hosillardan;
3) Mevali daraxtlarning mevalaridan;
4) Savdo mollaridan;
5) CHorvalardan;
6) Er osti boyliklaridan va xazinalaridan.

Masalan, tillaning nisobi 20 misqol bo‘lib, 20 misqol tillasi bor kishi 0,5 misqol zakot berishi kerak. Savdodan olinadigan zakot tijorat uchun harid qilingan buyumlardan, hunarmandchilik yo‘li bilan sotish uchun tayyorlangan anjomlardan, savdogarchilik uchun olingan kiyimlardan,

don-dun, meva-cheva, mato-gazlamalardan to‘lanadigan zakot ham tilla hisobiga teng. CHorvadan beriladigan zakot miqdori masalan, 40-120 qo‘ydan bir qo‘y, 201-300 ta qo‘ydan zakot 3 ta, 30-40 sigirdan bir bosh sigir, 91-120 ta tuyadan esa 3 ta tuya, erga ekilgan ekin hosilidan, daraxt mevalaridan, agar tabiiy suvda etishtirilgan bo‘lsa, hosilning 10 foizini, sun’iy sug‘oriladigan erdan olingan hosilni 5 foizini zakotga beriladi.

Zakot faqir, ya’ni kambag‘allar, miskin, ya’ni eng qash-shoq kishilarga, zakot yig‘uvchilarga, dinga da’vat qiluvchi-larga, qarzdorni qutqarish uchun, qulni ozod qilish uchun sarflanadi.

Zakotni g‘ayridinlarga, badavlatlar va ularning bola-lariga, qarindoshlariga, xotiniga, o‘g‘il-qizlariga berilmay-di. Zakot halol topilgan mol-mulkdan olinadi. Zakot shariat qonunlari rasmiy kuchga ega bo‘lgan davlatlarda amal qiladi, ammo din davlatdan ajratib qo‘yilgan O‘zbekiston Respublikasida zakot olinmaydi, balki fuqarolar daromad solig‘i to‘laydilar.

5. Haj ham islomdagi majburiy farz rukn’laridan biridir. Hajga Makka va Madina shaharlariga boriladi. 10 dan ortiq haj marosimlari ado etiladi. Hajga kuchi etadigan, sog‘lom, haj harajatlari oilasi, qarindoshlari ehtiyojidan ortgan shaxslargina borishi mumkin. Haj katta va kichik hajlarga bo‘linadi. Kichik haj umra deyiladi. Hozirgi sharoitda O‘zbekistondan ham har yili uch-to‘rt minglab fuqaro hajga boradi.

**Ba’zi savollarga ba’zi javoblar.**

303-savol. YAngi ro‘zg‘or qilgan kelinlarga odob-ahloq haqida.

303-javob. Rizobuddin ibn Faxruddinning «Ilmu ahloq» kitobidan bir shingil keltiramiz. Qizni kuyovga bergandan so‘ng arab xotinlaridan aqlli bir xotin qiziga ushbu ravishda nasihat qilur: «Ey qizim bu kundan boshlab bizning qo‘limizdan ketding, ikkinchi bir begona odamga yoru yo‘ldosh bo‘lding. Ushbu nasihatlarimini tinglab, so‘ngra ularni o‘rniga qo‘yarsan qizim. Ering dunyo safarida o‘ziga yo‘ldosh, qayg‘ularida birga qayg‘uruvchi, shodliklarida birga shod-lanuvchi yo‘ldosh bo‘lmoq umidi ila seni qabul etadi. Zinhor uning umidini puchga chiqarma, har vaqt shukurlar bo‘lsin, maqsudim bo‘ldi, deb so‘zlasin va sendan rizo bo‘lib yursin! Eringning yaqinlarini, ko‘proq qaynotang va qaynonangni hurmat qil. Ularni o‘z otang, o‘z onang hisobida ko‘r. Ularning bolalarini, tug‘ishganlaring hukmida hisob et. Eringdan hech bir siringni yashirma. Eringdan boshqa kishiga sir aytma.

Qizim! Ering hush ko‘rmagan ishlardan, ko‘ngliga botadigan odatlardan yiroq bo‘l. Uning rashkini keltirajak hech bir narsa qilma. Eringning molini saqlab tut, isrof qilma qizim. Uying tartibli va har narsa o‘z o‘rnida bo‘lsin. Bolalaringni eringa suyukli etishga, eringni ham bolalaringa sevilishiga tirish».

280-savol. Tug‘ilgan bolaga azon aytishlik to‘g‘risida.

280-javob. Albatta islom farzandlarini quloqlariga azon va ta’kbir aytishlik sunnatdir. CHunki Rasululloh alayhissalomdan muborak hadis borki, ma’nosi: «Bir odamki tug‘ilsa shu odam uchun farzand bas aytsin yoki aytdirsin, o‘ng qulog‘iga azon, chap qulog‘iga ta’kbir, toinki shu tug‘ilgan bolaning avvalgi qulog‘iga eshitiladigan so‘z Allohning muborak ismi bo‘lsin.

249-savol. Nima sababdan islomda to‘ng‘iz go‘shti harom qilingan.

249-javob. Mazhab (xanifiya mazhabi) sohiblari ulamolarimiz javob beradilarki, xoh go‘shtini esa bo‘ladigan, xoh go‘shtini esa bo‘lmaydigan yirtqich hayvonlarda ham hamiyat bordur, ammo ushbu hamiyat to‘ng‘izda yo‘qdir. Alloh ta’lo harom qildi, toinki halol qilsa ushbu hayvonlardagi hamiyatsizlik mo‘minlarga siroyat qilib o‘tmasin. (Qarang: «303 savolga 303 javob» kitobidan, namoz, taloq, halolu harom, jannatu do‘zax, Marg‘ilon masjidul furkon. 28-29, 21,12-betlar).

O‘zbekistonda din davlatdan ajratilganligi tufayli xohlagan kishilargina bu narsalarni bajaridilar.

SHunday qilib, islomdagi marosimlar 250 tadan ortiqroq bo‘lib, ular har joy, vaqt, sharoitga qarab turli darajada amal qilmoqda. Bu marosimlar madaniyatning ajralmas bir qismi. Qurbon hayiti va ro‘za hayiti davlatimiz tomonidan umumxalq bayramlari darajasiga ko‘tarilib qo‘yildi, bu demokratiyamiz mevalariga kiradi.

YAxlit tizimdan iborat islomda hokimiyat, uning tepasida qanday kuch va qanday kishilar turishi lozim, bunda kimlar huquqga ega, siyosiymi yoki diniy jamoami, xalifalikda asosiy kuch Qur’on va shariatga, aqida va fiqxga munosabatlar turlicha bo‘lgani kabi masalalarda kelisha olmaslik natijasida VII asrning ikkinchi yarmidayoq turli yo‘nalish va mazhablar, sektalar vujudga kelib ular o‘rtasida kurashlar boshlandi.

**TAYANCH IBORALAR:**

Qur’on Karim, Muhammad (s.a.v.) Xoshimiylar Xaj, Namoz, ro‘za, zakot, iymon, sadaqa, Ka’ba, uxud jangi xalifalik, shariat, xadis, Aqida.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

7. Islom dini qaerda paydo bo‘ldi?.
8. SHariat nima?
9. Iymon nima?
10. Xaj nima?
11. Zakot nima?
12. Islomni muqaddas kitobi

**ADABIYOTLAR:**


8. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
9. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
10. Xayrullaev M, SHoaxmedov M. Madaniyat va meros. T. 1973.
11. Islam Ensiklopedicheskiy slovar. M. 1991.
12. Mo‘minov A. Movarounnahr ulamolari xanafiylar // sharqshunoslik. №9. 1990. 40-44 betlar.
13. Islom. Bag‘rikenglik va mutaassiblik. T. 1998.

Azimov N. Islom va xozirgi zamon. T. “O‘zbekiston”. 1991


**MAVZU: ISLOMDAGI MAZHABLAR VA G‘OYAVIY-SIYOSIY OQIMLAR. (2 soat)**

**Reja:**

**1. Islom dinining ikki yo‘nalish: shialik va sunniylikka bo‘linib ketishi.**
**2. Sunniylik yo‘nalishidagi mazhablar.**
**3. Islomdagi g‘oyaviy siyosiy oqimlar.**

Muhammad payg‘ambar vafotidan keyin 4 ta xalifadan Abu Bakr, Umar, Usmon xoshimiylar urug‘idan emas edilar. Ali esa shu urug‘dan edi. Musulmonlar orasida xalifalik hokimiyatiga faqat payg‘ambar avlodlari egalik qilishi lozim deb hisoblaydiganlar va aksincha hokimiyat tepasiga payg‘ambar avlodi bo‘lmagan kishilar, agar ular diniy jamoa tomonidan saylansa ham chiqishi mumkin degan musulmonlarga ajraldi-lar.

Bular islom tarixida Sunniylar va SHialar yo‘nalishini vujudga keltirdilar. **MAZHABLAR***:* «Mazhab» arabcha so‘z bo‘lib, «oqim», «yo‘l», «ta’limot» ma’nosini anglatadi.

**S u n n i y l a r .** Sunniylar (sunna so‘zi arabcha bo‘lib, «an’anaviy yo‘l») dunyodagi barcha musulmonlarning to‘rtdan uch qismini tashkil qiladi. Hozirgi paytda Sunniylar asosan arab mamlakatlarida, Turkiya, Afg‘oniston, Indoneziya, Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Xitoy, Bolgariya, Albaniya, YUgoslaviya, sobiq SSSR o‘rnidagi mustaqil davlatlarda yashaydilar. Jumladan O‘zbekistonda yashaydigan Sunniylar uchun Makka, Madina, Ka’ba, Qur’on, Muhammad payg‘ambar va to‘rt xalifalar «choryorlar», payg‘ambar hadislari sunna to‘plami

muqaddas hisoblanadi. Sunniylar Allohni odam qiyofasida go‘yo arshi a’lodagi o‘z taxtida o‘tirgan sharqona shahanshoh qiyofasida tasavvur qiladilar.

Sunniylar siyosiy hokimiyat mamlakatni boshqaradigan oliy kuch, diniy jamoalar esa ularga bo‘ysunuvchi va unga yordam beruvchi g‘oyalar kuchi deb bilganliklari uchun podsholar, amirlar, sultonlar yonida shayxu islom lavozimida oliy islom vakili turgan.Sunniylar SHialardan farq qilib, Muhammad payg‘ambar vafotidan keyin Alloh bilan odamlar o‘rtasida vositachilik bo‘lishini tan olmay, podsholar payg‘ambar yo‘lini davom ettiruvchi Allohning erdagi vakili deb hisoblaydilar. Ali va uning avlodlarini imomatga, ya’ni musulmon jamoasiga rahbarlik qilish huquqi bor deyuvchi SHialar talabini ham inkor qiladilar. SHuningdek, huquq masalalarini hal qilishda, hayitlar xususida, g‘ayridinlarga munosabatda, namozning juz’iy masalalarida, diniy masalalarda, fuqarolik huquqlarida, ruhoniylarning darajalari, masjidlar xususida, diniy tashkilotlar tuzilishida ham Sunniylik SHialikdan jiddiy farq qiladi.

SHariatga munosabat, uning tamoyillarini qo‘llash jarayonida Sunniylikda to‘rtta mazhab paydo bulgan: Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,3 mlrd. musulmon aholisining 92.3 foizini Sunniylar tashkil etib, mazhablar bo‘yicha quyidagicha nisbatda bo‘lingan: Xanifiylar 47 foiz, shofiylar 27 foiz, molikiylar 17 foiz, Xanbaliylar 1.5 foiz.

SHialar 7.5 foiz bo‘lib, unda islomiy, ja’fariy, zaydiy mazhablari mavjud. Xanifiylar. Bu mazhabga imom Abu Xanifa an-No‘‘mon (696-767-yillar) asos solgan. Xanifiya o‘zining sharoitiga qarab ish tutganligi va xalqlarning mahalliy an’analarini e’tiborga olganligi bilan keng tarqalgan. Ular Turkiya, Hindiston, Xitoy, Suriya, Afg‘oniston, Afrika xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari (Ozarbayjondan tashqari) orasida, jumladan, O‘zbekis-tonda ham, tarqalgan. Xanifiylar hozirgi davrda butun musulmonlarning 47 foizini tashkil etadilar.

1. Malikiylar mazhabiga imom Malik ibn Onas (795 yilda vafot qilgan) asos solgan. Bu mazhab qonunlari aqlga asoslanmaganligi bilan boshqa mazhablardan farq qila-di. Hozir bu mazhab shimoliy Afrika (Tunis, Jazoir, Marokash), g‘arbiy Afrika va Sudanda tarqalgan.
2. SHofi’iylar. Bu mazhabga imom Muhammad al-SHofi’iy (820-yilda vafot etgan) asos solgan. SHofi’iylar xanifiya va molikiylardan o‘zgalarning fikrini hisobga olib, sarb-toqatli bo‘lishliklari bilan ajralib turadilar. Hozir shofi’iylar Misrda, SHarqiy Afrika va Indoneziyada ko‘proq tarqalgan.
3. Xanbaliylar mazhabiga Imom Ahmad ibn Xanbal (855-yilda vafot etgan) asos solgan. Bu mazhab o‘zining o‘ta mutaassabligi va qattiqqo‘lligi bilan boshqa mazhablar-dan ajralib turadi. Bu mazhabdagilar Saudiya Arabis-tonining Naj va Hijoz hududlarida yashaydilar. Ular barcha musulmonlarning 1.5 foizini tashkil qiladilar. Ulardan vahhobiylar yuzaga kelgan.

SHialar (arabcha SHia - tarafdorlar guruhi demakdir) Ali va uning o‘g‘illari Hasan, Xusayn, ularning avlodlari -jami 12 ta imomni Muhammad payg‘ambarning birdan-bir qonuniy vorislari deb biladilar. SHialar «imomiyat inoyati Alloh» deb xalifalik hayotida barcha huquq va imtiyozlar imomiyatda bo‘lishi, hokimlik imom qo‘lida bo‘lishi, bosh imom xalifaning o‘zi bo‘lishini talab qiladilar. Musulmon jamoa mulki barcha musulmon manfaatiga xizmat qilishi lozim deb hisoblab, boy ham o‘ta qashshoqlar ham bo‘lmasligi zarur deydilar. Tug‘ilgan yili noma’lum bo‘lgan imom Ja’farning ikkinchi o‘g‘li Ismoilning g‘oyib bo‘lgan o‘g‘li imom Mahdini qaytib kelib er yuzida adolat o‘rnatadi deb ishonadilar. SHialar Alloh har bir musulmonning qalbida, dilida bo‘lganligi uchun hamma narsani ko‘rib turadi deb tasavvur qiladilar. SHialar Qur’onni tan oladilar, ammo «115 ikki yoritgich» degan surani undan ataylab tushirilib qoldirilgan deb hisoblaydilar. Bu surada Ali Muhammad Allohning nuri, lekin Ali Allohning valiysi deb ishonadilar. Hozir SHialar Iroq, YAman, Eron, Livan, Ozarbayjonda, Tojikistonning tog‘li Badahshon avtonom viloyatida yashaydilar.

1979 yilda Eronda SHialar rahnamosi Humayniy butun musulmonlar olamida SHialar hukmronligini o‘rnatishga da’vat qilgan edi. Hozir ham bu g‘oya tarafdorlari mavjud.

SHialar «axbor» - Ali va uning avlodlari to‘g‘risidagi muqaddas rivoyatlar to‘plamiga Qur’ondan keyingi manba sifatida qaraydilar. SHialar Iroqdagi Karbalo dashtini Qum shahri va Najof shahridagi Ali Hasan, Husayn, Fotima va 12 ta imomlar jasadi yotgan joylarni ziyorat qiladilar.

SHialar muharram oyida (1-10 mart) motam tutib «Oh Husayn, voh Husayn» deb baland ovozda yig‘lab o‘z tanalariga urib, ko‘cha yurishlarini o‘tkazadilar. Ashurlik marosimi ham qiladilar. Horijiylar fuqarosi firqa tarafdorlari Ali bilan Abu Suf’yonning o‘g‘li, Suriya hokimi Muvoia o‘rtasida Usmon vafotidan keyin xalifalik uchun boshlangan shiddatlik kurash vaqtida Alining Muoviya kelishishidan norizo bo‘lgan 12 ming askar Ali armiyasidan ajralib (arabcha «haraja», «chiqish», «qo‘zg‘olonchi) chiqib ketgandan keyin paydo bo‘ldi. Horijiylar Muoviyaga ham Aliga ham qarshi kurashib Jazoir, Ummon, Zanjibar, Tunis, Liviyada o‘z mustaqil davlatlarini tuzganlar. Bu davlat Rustamiylar sulolasining hukmronligida edi.

**Horijiylar** diniy jamoa davlat rahbarini saylab qo‘yilishi lozim deb hisoblaganlar. Saylanadigan shaxsning tarjimai holiga e’tibor qilinmagan. Ularning fikricha, har bir diniy jamoa o‘ziga imom saylashi va uni o‘rnidan tushirishi mumkin.Ular jamiyat tepasida ruhoniylar turishini talab qilganlar, saylangan imom esa ularning jamoasidan davlat idorasidagi vakil bo‘lgan. **Horijiylar** dindan qaytgan bid’atchilarni dushman deb bilganlar. «Dinning sofligini» saqlashga harakat qilganlar. O‘ta shafqatsiz tamoyillar sababli horijiylar VII asrning ikkinchi yarmidan boshlab bir qancha mustaqil sektalarga bo‘linib ketgan. Jumladan, Azrikiylar, Ibodiylar, Sufriylar sektalari o‘z imomlari nomlari bilan atalgan holda paydo bo‘lgan.

Zeydilar firqasi VIII asr o‘rtalarida, 740 yilda Kufada ummaviy xalifa Xishonga qarshi xalq qo‘zg‘oloniga boshchilik qilgan Zeyd ibn Ali nomi bilan atalgan. Zeyd Alining evarasi Husayning nevarasi edi. Zeydilar 864 yili Eroninng shimolida o‘z davlatlarini tuzgan. Bu davlat 300 yilcha yashagan. 901-yilda esa ular yamanda davlat hokimiyatini qo‘lga olganlar. Zeydilar diniy e’tiqodni amaliy harakat bilan qo‘shishni, erkin fikrlashni, taqdirga ishonishni, Qur’onning azaldan mavjudligini, Allohning so‘zi ekanini tan oladilar. Ular ko‘pincha SHia marosimlariga amal qilishadi, o‘z turmush tarziga ko‘ra Sunniylarga yaqin turishadi.

**Ismoiliylar sektasi.** Bu sekta VIII asrning ikkinchi yarmida bog‘dod xalifaligida paydo bo‘lgan. Mazkur sekta Ja’farning o‘g‘li Ismoil nomi bilan bog‘liq.

Ismoiliylar diniy ta’limotida «dunyoviy aql» va «dunyoviy ruh»ga e’tiqod qilish asosiy o‘rin egallaydi. Ular turli davrlarda turli xalqlarga payg‘ambarlarning yubori-lishi «dunyoviy aql»ning namoyon bo‘lishi deb hisoblashadi. Ular 7 ta payg‘ambarni: Odam Ato, Ibrohim, Nuh, Muso, Iso, Muhammad va Ismoilni tan olishadi. Ularning fikricha imomlar payg‘ambarlarning vorislaridir.

XI asrda Ismoiliylar turli sabablarga ko‘ra: assasinlar, karmatlar, nizoriylar, mustanmiylar degan sektalarga bo‘linib ketgan. Hozirgi vaqtda Ismoiliylar o‘rta sharq mamlakatlarida, Hindistonda, Uganda, Keniya, Tanzaniya va Tojikistonning tog‘li o‘lkalarida mavjud. Hindistonning Gujrat shtatida tirik xudo Ogohonlar faoliyati payg‘ambarlarga mansub.

Druzlar firqasi ismoiliylardan ajralib chiqqan bo‘lib, ular 998-1021 yillarda hukmron bo‘lgan xalifani «xudo yo‘lini ko‘rsatuvchi» ilohiy haloskor deb biladilar. Ular SHia imomlarini va sunniy xalifalarini tan olmaydilar. Druzlar turk sultonlari davrida nisbatan mustaqil bo‘ldilar. Suriya bilan Livanda Druzlar 1924-1925-yillarda fransuz mustamlakachilariga qarshi milliy ozodlik harakatida aktiv qatnashdilar.

Islomda yana ibodiylar, imomiylar, nusariylar, alilohiylar, ahmadiylar kabi o‘nlab sektalar mavjud.

Islom falsafasida Qur’on, fiqh, ahloq va boshqa masalalarni sharhlash va izohlashda bir-biriga zid bo‘lgan tamoyillar paydo bo‘lib, kalom, ya’ni ilk islom diniy-falsafiy ta’limoti vujudga keldi. Ilk islom aqidalariga qattiq rioya qilishni ilgari suruvchi mutakallimlar, insonda iroda va fikrlash

erkinligini Allohga qarama-qarshi qo‘ymagan holda himoya qiluvchi muttaziylilar ta’limoti, ruhiy poklanish va kamolot bosqichlaridan o‘tib, ilohiy haqiqatga erishish to‘g‘risidagi so‘fiylik yoki tasavvuf ta’limoti VIII asrdayoq arablar bosib olgan barcha hududlarda, ayniqsa, Markaziy Osiyoda keng tarqaldi. Bu ta’limot XIV asr oxirlaridan boshlab bu erda yangi bosqichga ko‘tarilib rivojlandi. Tasavvuf Islom asosida shakllangan diniy-falsafiy oqim bo‘lib, unda qadimgi yunon ta’limoti-neoplatonizm, iudaizm, xristianlik, zardo‘shtiylik, ayniqsa buddizmning ta’siri seziladi. Uning asosida asketizm, ya’ni bu dunyo lazzatlaridan voz kechish asosida Allohga etish, uni bilish, u bilan birlashish yo‘lini qidirish yotadi. So‘fizm Qur’on va shariat talab etgan diniy aqidalar talablarini albatta bajarish, so‘zsiz o‘zini xudoning quli deb bilish, ma’lum diniy qoidalarga o‘z shaxsiyatini bo‘ysundirishni talab qiladi. SHaxsiy erkinlik, o‘z xohishi bilan tozalanib, Allohga ruhiy singish orqali erishish g‘oyasiga asoslanadi. Bu yo‘lda so‘fiylikka berilganlar ortodoksal islom ruhoniylari talablariga rioya etmaganliklari uchun so‘fiylarning vakilla-ri ayrim hollarda qoralanganlar, quvg‘in qilinganlar, jazo-langanlar.

Tasavvufda insonning kamoloti va Allohga ruhan erishuv yo‘llari 4 bosqichdan iboratdir:

Birinchi bosqich shariat deb atalib, bunda avvalo shariatning barcha talablarini chin qalbdan bajarish va unga to‘la bo‘ysunish talab etiladi.

Ikkinchi bosqich tariqat bo‘lib, bunda murid o‘z shaxsiy istaklaridan voz kechib, o‘zini pir ixtiyoriga topshirishi kerak.

Uchinchi bosqich ma’rifat bo‘lib, bunda so‘fiylar koinotning birligi xudoda mujassam bo‘lishini, olam xudoning emonatsiyasidan, ya’ni nurlanishidan vujudga kelishini, yaxshilik va yomonlikning nisbiyligini aql bilan emas, balki qalb bilan anglab olishlari kerak.

To‘rtinchi bosqich haqiqatdir. Bunda so‘fiy shaxs sifatida tugab, xudoga - mo‘ljallangan haqiqitga etishish, Allohga singib ketishi va natijada abadiylikka erishuvi zarur. Bu jarayon ma’lum davomli vaqtni talab etadi. Maxsus ruhiy, jismoniy harakat, faoliyat - sig‘inish, ibodatlar, ohanglar yordamida amalga oshiriladi. So‘fizm tarafdorlari, dastlab, moddiy boylikka ega bo‘lish va unga intilishni qoralab, haqiqiy boylik ma’naviy-ruhiy boylikda deb hisoblaganlar.

Tasavvufning ijtimoiy bazasi, bu - shahar hunarman-dlari, mayda savdogarlar bo‘lib, IX-X asrlardayoq Iroq, Eronda bu ta’limotning yirik vakillari vujudga kelgan. Halloj (859-922), Bistamiy (IX asr), Junaydiy (vafoti 910) shular jumlasidandir.

Tasavvufning nazariy va amaliy tomonlari bor. Amaliy tomoni bevosita Allohga erishuv jarayonidir. Bu yo‘lda so‘fiylik qoidasini bajargan holda juda ko‘pchilik tasavvufga ishonadilar. Bu jarayonda shayxlar va muridlar paydo bo‘lib, so‘fiylikka berilganlar, shayxlardan ta’lim olganlar, ularga murid bo‘lib tushganlar. Oldinroq, amaliy so‘fiyzm, so‘fiylikning nazariy masalalari bilan shug‘ullanish esa so‘ngroq vujudga kelgan. So‘fiyzm nazariyotchilari o‘z davrining bilimini puxta egallagan, ilmlardan xabardor, bilimdon-mutafakkir kishilar bo‘lganlar. Bulardan Abdul Hamid G‘azzoliy (1058-1116), Suhravardiy (1155-1191), Ibn Arabiy (1165-1240) kabilarni ko‘rsatish mumkin. Ular so‘fiyzmning nazariy masalalari bo‘yicha qator risolalar yaratganlar.

Ibn Arabiy ayniqsa, so‘fiyzm nazariyasini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shdi. Andaluziyada tug‘ilib, o‘z umrini turli musulmon shaharlarini kezib, bilimli kishilar bilan muloqatda bo‘lishda o‘tkazdi. U so‘fiyzmning eng yirik nazariyotchisi bo‘lib, 300 dan ortiq asarlar muallifidir. Ibn Arabiyning ayniqsa, «Fusul al-xikam», «Futuxat al-makkiya», «Tarjimon al-alivak» kabi asarlarida so‘fiy mutafakkir sifatida olam xudoning birligi, unga intilish, «Ichki tajriba» yordamida erishish, Qur’onning ramziy harakterga egaligi haqida ta’limotlar asoslab berilgandir. Uning, ayniqsa, so‘fiyzm kosmogoniyasini har tomonlama ishlab chiqishdagi xizmati maxsus ta’kidlab o‘tiladi.

So‘fiylik nazariyasi dastlab xalifalikning musulmon nazariy fikrining markaziy shaharlari Bog‘dod, Damashq, Madina kabi shaharlarida ishlab chiqilgan va keng yoyilgan bo‘lsa-da, u SHarq o‘lkalarida keng tarqaldi. So‘fiylar to‘xtovsiz sayohatda bo‘lar, turli shaharlarda bilim, dinga berilgan shaxslar bilan uchrashuvlar, muloqatlar o‘tkazar edilar.

So‘fiylik ta’limoti xukmron mafkuradan farq qilgani holda Allohni haqiqat deb talqin etgani, jannat-do‘zaxni inkor qilgani, barcha dinlarni teng deb bilgani, haqiqatga erishish yo‘lida umumiy diniy aqidaga emas, shaxsiy tajriba-intuitsiyaga asoslangani, Islom diniy qoidalariga befarq qaragani uchun ortodoksal Islom rahbarlari tomonidan ayrim hollarda ta’qib qilindi, ayrim so‘fiyzm mafkurachilari jazolandi ham. Bistamiy qoralandi, Xalloj o‘lim jazosiga xukm qilindi. Xurosonda Aynul Kuzrat ham o‘ldirildi. So‘fiylar xalqqa yaqin bo‘ldilar, uni himoya etishga harakat qildilar. Movarounnahrga mo‘g‘ullar hujum qilganda ayrim so‘fiylar Vatan himoyasi yo‘lida qurbon bo‘ldilar.

So‘fiy ta’limotlari panteizm yoki Alloh va insonning birlashuvi, olamning (moddiy va ruhiy) yagonaligi, hammaning to‘xtovsiz harakatga intilishi zarurligi ta’limoti bilan o‘z davri ilg‘or falsafiy ta’limotlariga yaqin turdi va bu bilan xurfikrlikka ham xizmat qildi, aqidachilik, xukmron mafkuraga zarar keltirdi. Turli so‘fiy ulamolarning asarlarida bu ta’limotga turlicha yangiliklar, aniqliklar kiritilib borildi va u musulmon SHarqida ortodoksal Islomdan so‘ng eng rivojlangan, keng tarqalgan ta’limotga aylandi. Uning 15 ga yaqin asosiy yo‘nalishlari - maktablari musulmon mamlakatlarida tarqalgandir.

X asrdan boshlab so‘fizm g‘oyalari Markaziy Osiyo shaharlarida ham keng tarqala boshladi. Masalan, Xalloj turli o‘lkalar, Xuroson va Mavorounnaxrda o‘z ta’limotini targ‘ib etdi. So‘fiylik asarlari arab, fors tillarida yozildi. O‘rta Osiyoda, so‘ngroq turkiy tillarda ham badiiy asarlar shaklida vujudga keldi.

Movoraunnaxrda tasavvuf ta’limotlari X asrdan boshlab keng yoyila bordi. Tasavvuf ta’limotini rivojlantirishda Movorounnaxrlik va Xurosonlik yirik so‘fiylik ta’limot-chilarining xizmati katta bo‘lgan. Lekin bu erda mustaqil sufiylik maktablari XI-XII asrlardagina vujudga kela boshlagan. Masalan, so‘fiyzm ta’limotini ishlab chiqishda IX asrda Termizda tug‘ilib o‘sgan Xakim Termiziyning 80 ga yaqin risolalari muhim rol o‘ynadi.

U Termizda tug‘ilib, shu erda vafot etdi, lekin o‘z ta’limotini Makka, asosan Balx va Nishopurda turganida targ‘ib etdi va ko‘p muridlar orttirdi. Uning inson o‘zini-o‘zi turli iflos instinktiv (g‘ayri ixtiyoriy) hislatlardan tozalashi, o‘z qalbida Alloh nurini his qilishga intilishi kabi fikrlari so‘fizmning so‘nggi rivojida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning shogirdlari Juzjoniy, Abu Bakr al-Varraq tomonidan rivojlantirildi.

O‘rta Osiyoda, xususan hozirgi O‘zbekiston xududida tasavvufning rivojlanishida YUsuf Hamadoniy ta’limoti muhim rol o‘ynaydi. Bu ta’limot, umuman, O‘rta Osiyoda vujudga kelgan tasavvuf maktablariga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. U g‘arbiy Eroning Hamadon shaxrida tug‘ilib, o‘sgan bo‘lsada, umrining asosiy qismi va faoliyatini O‘rta Osiyoda o‘tkazgan. U hunarmandchilik - kosibchilik bilan shug‘ullangan. Unin ta’limoti asosan xunarmandlar orasida keng tarqalgan va asosan ularning manfaatlarini ifodalagan.

YUsuf Hamadoniy ta’limotida vatanparvarlik g‘oyalari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, u shogirdlari bilan birga qo‘lida qurol bilan mo‘g‘ullar xujumiga qarshi kurashdi. Hamadoniy ta’limotidan O‘rta Osiyoda so‘nggi tasavvuf maktabi - YAssaviylik va Naqshbandiylik kelib chiqdi. Birinchisi, Xoja Axmad YAsaviy, ikkinchisi Abdulxoliq G‘ijduvoniy va so‘ngroq Bahovuddin Naqshband nomlari bilan bog‘liqdir. Bu tasavvuf maktablariga to‘xtashdan avval XI asrlardan boshlab O‘rta Osiyoda Qadariya tasavvuf ta’limotining tarqala boshlanganini qayd etib o‘tmoqchimiz.

Qadariylik - qadariya tariqatining asoschisi Abdulqodir Jiloniy bo‘lib, u 1077 yilda tug‘ilgan, Bag‘dodda ta’lim olgan, Akademik V.V. Bartold bu ta’limot haqida Abdul-xoliq - axlohiy qarashlar targ‘ibotchisi va uning maqsadi odamlar oldida do‘zaxni eshigini yopib, jannat eshigini

ochish, kishilarni o‘zaro hurmat, muhabbatga undash edi, deb baho beradi. Qadariya ta’limoti Turkiya, Afg‘oniston, Pokiston, Jazoir kabi mamlakatlarda ham tarqalgan.

O‘rta Osiyo muzofotida birinchi vujudga kelgan yirik so‘fiylik tariqati YAssaviylikdir. Bu tariqatga Ahmad YAssaviy (1105-1165) asos solgan. YAssaviy YAssi (Turkiston) shahrida ruhoniy oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Ibrohim YAssi (Sayram) shahrida uzoq yil shayhlik qilgan va ko‘p muridlarga ega bo‘lgan.

YAssaviy Buxoroda mashhur ulamo YUsuf Xamadoniydan so‘fiylikning asoslarini o‘rgandi, ustozining o‘limidan so‘ng o‘rniga biroz vaqt o‘rinbosar bo‘lib qoldi, so‘ng o‘z yurti Turkistonga qaytdi. YAssaviy ta’limoti uning turkiy tilda yozilgan «Devoni hikmat» asarida bayon etilgan. Bu asar ko‘chmanchi va o‘troq turkiy xalqlar o‘rtasida so‘fiylik ta’limotini targ‘ib etishda muhim ahamiyat kasb etgan. YAssaviy ta’biricha, qiyinchilikka, chidamli og‘ir hayotga o‘rgangan odam haqiqiy so‘fiy bo‘la oladi va u xudo vasliga erishadi. Bu dunyo bevafodir. YAssaviy g‘oyalari O‘rta Osiyoning turli shaharlarida uning shogirdlari tomonidan keng targ‘ib qilindi. SHulardan biri Sulaymon Boqirg‘oniy bo‘lib (vafoti 1192 yilda), u o‘zining turkiy tilda yozilgan «Boqirg‘on», «Oxir zamon» asarlarida so‘fiyzm va yassaviylikni targ‘ib qilgan.

Markaziy Osiyoda shakllangan eng yirik so‘fiylik tariqatlaridan yana biri kubroviyadir. Unga Xorazmda XIII asrning boshlarida Najmiddin Kubro (1145-1221) asos solgan. Kubroviya tariqati O‘rta va YAqin SHarq o‘lkalarida ham keng tarqalgan. N. Kubro Xivada tug‘ilib so‘fiylik ta’limotini Misr, Tabriz, Hamadon shaharlarida egallagan. Ko‘hna Urganchda o‘z ta’limotini rivojlantirib, shu erda yangi so‘fiylik tariqatiga asos solgan. Mo‘g‘ullar hujumi davrida o‘z muridlari bilan shahar himoyasida faol ishtirok etib qurbon bo‘lgan. Kubro bilishning maxsus yo‘lini rivojlan-tirib, so‘fiyzm rivojiga katta hissa qo‘shgan. U o‘zining qator risolalarida Kubroviya tariqatining qoidalarini ishlab chiqqan. Bu qoidalar so‘fiylikning ham nazariy, ham amaliy masalalarini o‘z ichiga oladi. Kubroviya tariqati O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, SHimoliy Hindiston, Eronda tarqaldi va mayda so‘fiylik oqimlarining vujudga kelishiga sababchi bo‘ldi. Bu oqimlar Hindistonning Dehli, Bihar shaharlarining madaniy hayotiga muhim ta’sir ko‘rsatdi.

**«Kubroviya tariqati odoblari (qoidalari):**

1. Tavba - murid qilgan gunohlari uchun pushaymon bo‘ladi.
2. Zuhl fi dunyo - murid mol-mulk, boyligidan voz kechadi.
3. Tavakkul al-Alloh - murid Xudoga chuqur ishonib, unga e’tiqod qiladi.
4. Qanoat - murid mol-mulkdan voz kechib, sabr-qanoat qilishi zarur.
5. Uzlat - murid ko‘proq yolg‘iz qolib, o‘zini botinan chiniqtirib borishi kerak.
6. Mulozimat al-zikr - murid xudo nomini doimo tilga olib, uning sha’niga zikr samo’ qilish shart.
7. Tavajju’ al-Alloh - murid butun vujudi bilan Allohga murojaat qilib yurmog‘i lozim.
8. Sabr - murid shahvoniy, havoi havaslardan qutilmog‘i lozim.
9. Murokaba - murid o‘z qalbini pastkashliklardan saqlamog‘i, riyo va makru xiylalardan, nayranglardan xalos qilmog‘i shart.
10. Rido - Xudoni tanigan (orif) va kone’, deb hisobla-mog‘i lozim. (Qarang: O‘zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan lavhalar.T., «O‘zbekiston», 1993. 109-bet).

Butun musulmon sharqida eng keng tarqalgan yirik so‘fiylik tariqati naqshbandiylik ham O‘rta Osiyoda shakllandi. Naqshbandiylik ta’limotining boshlang‘ich kurtak-lari buxorolik mashhur tasavvufchilar YUsuf Hamado-niy (XII) hamda Abdulxoliq G‘ijduvoniy (XII-XIII) ta’limot-larida olg‘a suriladi. Lekin bu shakllanayotgan yangi so‘fiylik tariqati Bahovuddin Naqshband (1318-1389) tomonidan qiyomiga etkazildi va uning nomi bilan ma’lum bo‘ldi.

Bahovuddin Naqshband Buxoroga yaqin Kasri Xinduvon qishlog‘ida hunarmand oilasida tug‘ilib o‘sdi. So‘fiylik ta’limotini, asosan, Buxoroda, O‘rta Osiyo shaharlarida Sayyid Amir Koluliy, Orif Diggironi, Qosimshayx va Xalil otalardan o‘rgandi. O‘z ta’limotida yassaviylik va g‘ijduvoniy ta’limotlarining ayrim tomonlarini birlashtirdi.

Naqshbandiylik tariqati ta’limoti Alloh yagona, ikki xil olam yo‘q, shuning uchun moddiy olam talablariga moslashib yashamoq, uning lazzatidan bahramand bo‘lmoq, faol mehnat qilish, lekin boylikka intilmaslik lozim deb hisoblaydi. Naqshbandiylik 4 tamoyil asosida hayot kechirishni tavsiya etadi.

1. Xilvatda anjuman - muridlar doimo muloqotda, birgalikda jamoada yashamoq, ular dardiga ham, quvonchiga ham teng sherik bo‘lmoq, boylikka intilmaslik, kambag‘alarga yordam bermoq.
2. Safar dar vatan - hayotni o‘rganish, safarda, sayohatda bo‘lish, tabiatdan zavqlanish, his-tuyg‘udan voz kechmaslik, bilimni oshirish, g‘am-alamga hadeb berilavermaslik.
3. Nazar dar qadam - har bir qadamni o‘ylab bosish, foydali ishlar qilish, yaxshilikka mehnat bilan intilish, bekorga vaqtni o‘tkazmaslik.
4. Xush dar dam - inson bu olamning yakuni, u har doim tabiatdan, uning noz-ne’matlaridan foydalanish, bahra olishi, qiyinchilikdan qo‘rqmalik, o‘z maqsadlarini ro‘yobga chiqarishi lozim. B.Naqshband «qo‘l mehnatda, dil Allohda bo‘lsin» deydi, xudoga munojot, zikr, hamd-sanolarni ovoz chiqarmasdan izhor qilishga da’vat qildi.
Xullas, naqshbandiylik insonni ulug‘laydi, uning hayotga, tabiatga faol munosabatda bo‘lishini targ‘ib qiladi. U bunday ta’limotlari bilan, bir tomondan, hukmron din arboblari-ning noroziligini, ikkinchi tomondan, aholining ijobiy munosabati, xayrixohligini kuchaytirdi. Bu ta’limot Bahovuddindan so‘ng uning shogirdlari Alautdin Attor (vafoti 1440 yil) va Muhammad Porso (1345-1420) tomonidan ma’lum tartibga solindi.

Mo‘g‘ullar hukmronligi davrida naqshbandiylik g‘oyalari O‘rta Osiyo madaniy hayotida xalqni uyushtirishda, uni mustaqilikka chorlashda ijobiy rol o‘ynaydi. Temuriylar davrida Abdurahmon Jomiy, Xo‘ja Ahror, Alisher Navoiy tomonidan yanada bu oliy g‘oya qo‘llab-quvvatlandi. XV asrning ko‘p shoir, mutafakkirlari bu g‘oyani oliy bosqichga ko‘tardilar. Naqshbandiylik ustun ta’limot sifatida 2-3 asr davomida nafaqat O‘rta Osiyoda, balki Hindiston, Eron, Kavkaz orti, arab mamlakatlarida ham keng targ‘ib qilindi.

O‘rta Osiyoda turli so‘fiylik ta’limotlarining ta’siri XIX asrlarga qadar davom etganini ko‘ramiz. So‘fiyzm musulmon mamlakatlari hayotida muhim ijtimoiy-mafkuraviy va madaniy o‘rin egalladi. U badiiy adabiyot, falsafa, musiqa, maorif, ta’lim-tarbiyaga katta ta’sir ko‘rsatdi. Turli mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida shubhasiz so‘nmas iz qoldirdi.

Ilk Islom, hukmron diniy hokimiyat, yirik din arboblari ham har doim so‘fiylik ta’limotlariga, tasavvuf oqimlari va birodarliklari, so‘fiylik markazlariga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ldilar. Ularga hurfikrlilik manbai, hukmron diniy aqidalar obro‘siga zarar etkazuvchi faoliyat manbai deb qaradilar, ayrim hollarda ularga qarshi qoralash, quvg‘in qilish, jazolash usullarini ham qo‘ydilar. Sababi: so‘fiylik «xalq islomi», SHo‘ro davrida uni tilga olish ta’qiqlandi, jaholat deyildi. Bugun chuqur targ‘ib qilinayapti, o‘rganilayapti. Sababi undagi milliy umuminso-niy qadriyatlardir. Tasavvufning milliy g‘oya uchun ahamiyati katta. XVI asrdan keyin so‘fiylikda an’anaviylikdan chekinish, jaholatparastlikka burilish yuz berdi.

Abu Bakr (572-634 yy.) - islomda «xulofa ar-rashiddin» (to‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar), dindorlar o‘rtasida «choryorlar» deb atalgan, dastlabki 4 xalifadan birinchisi (622-634 yy.), Muhammadning safdoshlaridan, uning qaynotasi (Oyshaning otasi). Yirik savdogar, Makkaning Quraysh qabilasidan bo‘lib, islomdan oldin uning nomi Abdullot («Lot» xudosining bandasi) bo‘lgan. Musulmon bo‘lgandan keyin Abdullo deb atala boshlagan. Abu Bakr Muhammad bilan birga Makkadan YAsribga (Madinaga) ko‘chib o‘tgan (622 y.). Badr, Uhud, Xandaq va boshqa janglarda ishtirok etgan. Muhammad vafotidan keyin Abu Bakr xalifalikka ko‘tarilgan. U arab qabilalarini shafqatsiz bostirgan. Abu Bakr davrida Iroq va Suriya bosib olingan, sosoniylarga (633 y.), Vizantiyaliklarga qarshi, Falastin erlariga (634 yil) qo‘shinlar yuborilgan va Arabistonda islom mustahkamlangan.

Abu Suf’yon - ilk islom davrida yirik savdogar va Makka qurayshlarining zadogoni. Makkada Muhammadga va uning diniy targ‘ibotiga qarshi kurashib, uni ta’qib qilgan, keyinchalik Madina

davlati kuchaya boshlagach, o‘z xonadoni vakillarining islom davlatida ta’sirli o‘rin egallashini ta’minlash maqsadida Muhammad bilan yarashgan. 630 yilda Makkani musulmonlarga jangsiz topshirgan, xalifa Usmon davrida Abu Suf’yonning o‘g‘li Muoviya Suriya hokimi etib tayinlangan. Keyinchalik, Ali vafotidan keyin (661 y.), xalifalik hokimiyatini qo‘lga olgan. Muoviya ummaviylar sulolasiga asos solgan.

Abu Xanifa an-No‘‘mon ibn Sobit (taxallusi Imomi A’zam) (699-767 yy.) - sunniylikdagi xanifiya mazhabining asoschisi va islom ilohiyotchisi, faqixlardan biri. Kelib chiqishi forslardan. SHariat huquqini sistemaga solgan, qiyosni tadbiq etgan, istihosi (manbalar asosida chiqarish mumkin bo‘lgan xulosa yoki hukmlardan musulmonlar jamoasi uchun maqbulrog‘i va foydalirog‘ini qabul qilish) tamoyillarini ishlab chiqqan, mahalliy huquq normalarini (odatni) shariat bilan kelishtirib qo‘llashni joriy etgan, huquqshunoslikka ratsionalizm elementlarini kiritgan. Xalifalikning bosh qozisi vazifasini zimmasiga olishdan bosh tortgani uchun Xanifa Mansur (hukmronlik yillari 754-775 yy.) tomonidan qamalgan va zindonda kaltaklab o‘ldirilgan. Undan yozma asarlar qolmagan, ayrim manbalarga ko‘ra «Buyuk huquqshunoslik» (al-Fiqx al-Akbar) nomli mashhur kitobning muallifi hisoblanadi.

Azon (arab. namozga chaqirish) - islomda har kuni besh mahal o‘qiladigan namoz vaqtini e’lon qilish va unga da’vat etish. Namozga har bir masjidda maxsus kishi - muazzin (arab. «azon aytuvchi») chaqiradi. Azon «Alloh buyukdir. Guvohlik beraman, Allohdan boshqa iloh yo‘q. Guvohlik beraman-ki, Muhammad Allohning elchisidir. Namozga kelinglar. Xalos bo‘lish uchun kelinglar. Alloh buyukdir. Alloh buyukdir. Allohdan o‘zga ilohiy kuch yo‘qdir», degan jumlalarni arab tilida baland ovoz bilan bir necha marta takrorlashdan va qavmlarni namozga da’vat etishdan iborat bo‘lib, bunda hech qanday sirli mo‘‘jiza yo‘q. Islomda yangi tug‘ilgan chaqaloqning qulog‘iga azon aytish odati ham bor. Bu bilan chaqaloq musulmonlar qatoriga kiritilgan hisoblanadi.

Ali ibn Abu Tolib (661 yilda o‘ldirilgan) - islomda «Xulafo ar-Rashiddin» («To‘g‘ri yo‘ldan borgan xalifalar»), dindorlar o‘rtasida «choryorlar» deb atalgan dastlabki to‘rt xalifadan to‘rtinchisi. Quraysh qabilasining xoshimiylar xonadonidan. Muhammadning amakivachchasi va kuyovi (Fotimaning eri). Xanifa Usmon o‘ldirilgandan keyin, Ali 656 yilda Madina xalifalik hokimiyatini egallagan, lekin ummaviylar uning hokimiyatiga bo‘ysunmaganlar va Abu Suf’yonning o‘g‘li Muoviya Damashqda o‘zini xalifa deb e’lon qilgan. Ali taxt uchun kurashda g‘alaba qozonolmay, ummaviylar bilan kelishishga ko‘ngan. Horijiylar bunday harakatlardan norozi bo‘lgan va suiqasd uyushtirib Alini Kufada o‘ldirganlar. U o‘sha shaharga dafn qilingan. Keyinchlaik islomdagi ikki asosiy oqimlardan biri bo‘lgan SHialiklar (arab. «SHia» - guruh, bu o‘rinda «Ali tarafdor-lari» mazmunida) oqimini tashkil etganlar. Ali SHialarning birinchi imomi va SHia imomlarining shajarasini boshlab beruvchi (SHialarda Ali avlodlaridan 12 ta imom, ba’zi kichik sektalarda 7 ta imom e’tirof etildi) hisoblanadi. SHu munosabat bilan Sunniylar xalifalaridan hech birini e’tirof etmaydilar, o‘z imomlarini diniy rahnamo deb taniydilar. SHialikka mansub bo‘lgan ayrim kichik sektalarda (masalan, ismoiliylar) Ali xudo darajasiga ko‘tarilgan va uni ilohiylashtirishga bag‘ishlangan ko‘p kitoblar vujudga kelgan. SHialar o‘rtasida Alining kahramonliklari va sarguzashtlarini tasvirlovchi juda ko‘p afsonalar to‘qilgan. Bu afsonalar Sunniylar o‘rtasida ham keng yoyilgan, shuning uchun Ali Sunniylarda faqat «choryor»lardan birigina emas, balki sarkarda va qahramon shaxs deb taniladi.

Ali avlodlari - Ali ibn Abu Tolib avlodlari. Alining turli xotinlaridan ko‘p farzandlari bo‘lib, eng mashhurlari Muhammadning qizi Fotimadan tug‘ilgan Hasan va Husayn hamda ulardan tarqalgan avlodlar hisoblanadi. SHialikdagi 12 ta imomga Ali, Hasan, Husayn va ularning keyingi avlod-lari kiradi. Xalifalikning turli erlarida, ba’zi dav-latlarda Ali avlodlari boshchiligidagi imomatlar vujudga kelgan. Ko‘p sonli Ali avlodlari hozirgi vaqtda barcha musulmon mamlakatlarida mavjud. Fotimadan tarqalgan Ali avlodlari «Sayidlar», o‘zbeklar orasida «To‘ralar» deb atalgan. Alining boshqa xotinlaridan tarqalgan avlodlari «xo‘jalar» deb aytiladi.

Amri ma’ruf (arab. «yaxshilikka etaklash») - islom an’anasida har bir musulmonga mohiyatan missionerlik vazifasini yuklaydigan aqidaviy ta’limot. Amri bi-l-Ma’ruf va nahi am-al-munkar (yaxshilik yo‘liga etaklash) deb atalgan. Bunga ko‘ra har bir musulmon uchun o‘z farzandi va yaqinlarini islomga o‘rgatish, diniy yo‘lga etaklash majburiy (vojib) deb hisoblangan. Bu ta’limot islom tarixida, uning keng yoylishida va oiladagi diniy tarbiyada, dindorlikning saqlanib qolinishida katta rol o‘ynagan va hozir ham hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Arshi-a’lo (arab.-«yuksak taxt») - islom manbalarida va diniy an’anada xudoning go‘yo osmonning eng yuqori ettinchi qavatida joylashgan taxti. Boshqa dinlarda ham xudo osmonda turadi deb tasavvur qilingan. Islom vujudga kelgan davrda arablar orasida osmon ham, er ham etti qavat deb hisoblangan. SHunga moslashgan holda Ali avlodlari to‘g‘risidagi diniy tushuncha shakllangan.

Axbor (arab. xabarlar) - SHialarning muqaddas rivoyat-lari, Muhammad va Alining so‘zlari, faoliyati to‘g‘risidagi rivoyatlar to‘plami. Axbor Sunniylarda muqaddas hisoblangan sunna (hadis to‘plamlari) o‘rnida e’tirof qilinadi va Qur’ondan keyingi muqaddas manba hisoblanadi. Sunna Muhammad va sahobalarning, axbor esa faqat payg‘ambar va uning oila a’zolari, Ali va boshqa imomlarning faoliyatlari haqidagi rivoyatlarni o‘z ichiga oladi.

A’lam (arab. bilgich, bilag‘on) - ulamolar ichida shariat qonun-qoidalarini yaxshi bilgan kishi. Ilgari qozilik lavozimiga yaqin, ba’zan shariat qonunlaridan bexabar odam-lar saylangan. Ana shunday qozilar A’lam maslahati asosida hukm chiqargan. Har qozi yonida a’lam mansabi mavjud bo‘lgan.

A’rof (arab. to‘siqlar) - islom diniy manbalarida, xususan, Qur’onda ta’riflangan jannat bilan do‘zax o‘rtasi-dagi joy. O‘zbek tilida A’rof so‘zi o‘rnida ko‘pincha «arosat» termini ishlatiladi. Diniy an’anada qiyomat kuni jannatga ham, do‘zaxga ham tushmay o‘rtada qolgan odamlar turadigan joy, ular do‘zaxda azob chekayotganlarni ham, jannatda rohat qilayotganlarni ham ko‘rib turadi, deb talqin etiladi. A’rof xristianliklarning katolitsizm yo‘nalishida chistilihe (ruscha) deb ataladi. Jannat va do‘zax kabi a’rof haqida tasavvurlar ham dindorlarni dahshatga solish va din tazyiqini kuchaytirish uchun xizmat qilgan.

Baytulloh (arab. Allohning uyi) - Makka islom dini-ning muqaddaslashtirilgan markaziga aylangandan keyin Ka’baga berilgan nom.

Bibi Mushkulkushod (fors.toj. mushkulni oson qiladi-gan ayol) - dindorlar tasavvurlarida kishini qiyinchiliklar-dan xalos etadigan avliyo ayol obrazi.

Bibiseshanba – seshanba, ona-ayollar sig‘inadigan avliyo, afsonaviy shaxs (ona), charx yigiruvchi ayollarning homiysi, oila baxtining himoyachisi.

Vaqf (arab. din yo‘lida ajratilgan mol-mulk) - islom an’anasida davlat va ayrim kishilar tomonidan diniy muassasalar, masjid madrasalar va boshqalarga ajratilgan mol-mulk. Islom mamlakatlarida Vaqfdan kelgan daromadlar, diniy muassasalar va ularda xizmat qiladigan din peshvolariga sarflangan. Horijiy sharqdagi musulmon davlatlarida Vaqf mavjud, hatto er islohoti o‘tkazilgan ayrim mamlakatlarda ham Vaqf saqlanib qolmoqda.

Darvesh (fors.toj. gado, qashshoq, faqir) - islomda tasavvuf yo‘liga kirib, mehnat qilmay, darbadarlik, gadolik va xayr-ehson bilan kun kechiruvchi, tarkidunyo qilgan shaxs. Darveshlar turli so‘fiylik tariqatlariga mansub bo‘lganlar.

Domla - 1) diniy maktab va madrasalarda talabalarni o‘qituvchi shaxs, din va shariat peshvosi; 2) duolar o‘qib, dam solib, ins-jinslarni qaytaruvchi, kasalliklarni tuzatuvchi shaxs.

Jazava, ekstaz - kuchli asab qo‘zg‘alishi, o‘z hatti-harakat-larini nazorat qilolmay qolish, xayolot va reallik o‘rtasidagi chegaraning yo‘qolishi natijasida yuzaga keladigan holat. Jazava diniy sig‘inish elementi hisoblanadi. Jazava qo‘zg‘ovchi diniy vositalarga tinka madorni qurituvchi, hayojonli zikr tushish, «raqs»lar, o‘zini-o‘zi qiynash, tungi bedorlik, uzoq vaqt ibodat qilish, butun diqqat e’tiborni biror ilohiy ob’ektga qaratishlarni kiritish mumkin. Turli xalqlarning

dinlari tarixida giyohvandlik yordamida Jazavani sun’iy qo‘zg‘atish hollari mavjud bo‘lgan. Jazava holatida bo‘lgan kishilarda vaqt va fazoni his qilish buziladi, yo‘q narsalarni ko‘rish va bo‘lmagan tovushlarni eshitish, og‘riqni sezmaslik hollari va boshqalar sodir bo‘ladi. Jazavaning eng ko‘p uchraydigan turlari shomonlikda, SHialikdagi shaxsey-vaxseyda ko‘rish mumkin. O‘tmishda so‘fiylarning zikr tushish marosimlarida o‘zlarini yo‘qotish darajasida jo‘sh urib hurujga kelishi holati ham Jazavaning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan.

Zamzam - Makka shahridagi Ka’ba yaqinidagi buloq. U islom paydo bo‘lmasdan ancha ilgari mavjud bo‘lgan. Zamzam bulog‘i atrofida ibodatxona qurilgan. Arab qabilalari o‘rtasida islomgacha Ka’bani va Zamzam bulog‘ini ziyorat qilish, u erda qurbonlik so‘yish odati bo‘lgan. Islom rivoyat-larida, payg‘ambar Ismoil otasi Ibrohim bilan Ka’bani qurayotganida suvsiz qolganligini va erni tepib muqaddas suv -Zamzamni chiqarganligi to‘g‘risida hikoya qilinadi. Hojilar Zamzam suvini tabarruk hisoblab ichadilar va o‘z yurtlariga olib keladilar. Uning suvi sotiladi va Saudiya Arabistoni bundan durustgina daromad oladi. Markaziy Osiyoda, xalq ichida obi zamzam - zamzam suvi deb yuritiladi.

Idda, iddat al-mar’a (arab. ma’lum vaqt ayollar uchun belgilangan muhlat) - shariat bo‘yicha eri o‘lgan yoki eridan ajralishgan xotinlar boshqa erga chiqish uchun o‘tishi shart bo‘lgan muhlat. Bunday ayollarga Idda o‘tmaguncha erga chiqish ta’qiqlangan. Beva uchun Idda 4 oyu 10 kun, eridan ajralish-gan ayol uchun 3 oy belgilangan. Muhlatning belgilanishi Qur’onga asoslangan holda shariatga kiritilgan bo‘lib, ayol-ning ajralgan yoki o‘lgan eridan homilasi bor yoki yo‘qligini aniqlash bilan bog‘liq bo‘lgan. Idda yaxshi tadbir bo‘lib, nasl-nasabning aniq bo‘lishi uchun xizmat qilgan va qilmoqda.

Imom (arab. oldinda turuvchi) - islom dinida musulmon-larning rahbari, boshlig‘i. Imom atamasi quyidagi mazmunlar-da ishlatiladi: 1) sunniylikda barcha musulmonlarning oliy rahbari yoki buyuk Imom (al-imom al-kabir), ya’ni xalifa;

2) sunniylikda shariat mazhablari (xanifiya, malikiya, shofi’iya, xanbaliya) ning asoschilari; 3) SHialikda eng yuksak rahnoma hisoblangan Ali va uning avlodlari; 4) SHialikda ham, sunniylikda ham har bir masjidda namozni boshqarib boruvchi ruhoniy - masjid imomi.

Imom Maturidiy. Maturidiy (870-944 yy.) Samarqand-ning Matur mahallasida tavallud topgan. U 15 dan ziyod asar yozgan. Uning «Kitob at-tavhil» va «Kitob ta’vilot ahl as-sunna» degan 2 ta asarida kalon ilmi rivojlantirilgan. Ularda islomning asl mohiyati xato talqin qilingan: jaflid-lar, karomatlar, rofiziylar, murji’ylar, mu’taziylilar kabi yo‘nalishga isbotlar bilan raddiyalar bildirilgan. Kalon falsafasini rivojlantirgan mutakallim Maturidiy aql va naql ahkomlari nisbatini to‘g‘ri izohlar ekan, inson hatti-harakatlarida iroda erkinligiga ega, shu sababli har bir kishi o‘z ishlari uchun mas’ul deb isbotladi. Xanifiya mazhabi g‘oyalarini rivojlantirgan Maturidiyning 1130 yilligi 2000 yil 17 noyabrda Samarqandda tantanali nishonlandi. SHu tantanada I.A.Karimov katta nutq so‘zlab, jumladan shunday dedi: «Imom Maturidiyning, agar odamlar yaxshilik yo‘lida birlashsa YAratganimiz o‘z marhamatini darig‘ tutmaydi, degan so‘zlarida bizning zamonamiz uchun ham ibratli saboqlar bor».(Qarang: Turkiston. 2000 yil 18 noyabr shanba soni). Har bir talaba Imom Maturidiy merosini yaxshi o‘rganishi lozim, chunki bu merosda juda ko‘p foydali, qadriyatga oid g‘oyalar mavjud.

Imomat (arab. boshqarish, rahbarlik) - SHialik davlati-ni boshqarish huquqi haqidagi ta’limot, e’tirof etilgan besh aqidadan biri. Unda musulmonlar jamoasi yoki davlatida faqat Muhammad avlodi (Ali va Fotimadan tarqalgan avlodlar) hukmron bo‘lish huquqiga ega, deb hisoblaganlar.

Imon (arab. ishonch, e’tiqod) - islom dinida uning aqidalariga, Allohga, Muhammadga va ilohiy hisoblangan kitoblarga, taqdirga, oxiratga ishonish. Islomda imon talab-lari «arkon-al-imon» (e’tiqod asoslari) deb hisoblanadi. Unga shak-shubhasiz e’tiqod qilish talab qilinadi. Imon talablari, ya’ni aqidalar Islomning diniy dunyoqarash asos-larini tashkil etadi.

Imron - islom tarixida payg‘ambar Musoning otasi Bibliyada Imron nomi bilan ma’lum bo‘lgan va islomga Imron nomi bilan kirgan. Imron Qur’onda Bibi Maryamning otasi sifatida tilga olinadi. (Qur’onning 3-surasi «Ol-imron» - «Imron oilasi» deb ataladi).

Islom birdamligi - barcha musulmonlarni birlashtirish yo‘lidagi siyosiy harakat. Islom birdamligining asosini Islom olamini alohida qilib ajratish, uni «kapitalistik G‘arb» ga ham, «Kommunistik SHarq»ga ham qarshi turadigan mustaqil siyosiy shaklga keltirish g‘oyasini tashkil etadi. Islom birdamligi tarafdorlari musulmon mamlakatlari o‘rtasidagi hamkorlikni har tomonlama mustahkamlash, «boy» davlatlar tomonidan «kambag‘al» davlatlarga yordam ko‘rsatish zarurligini ta’kidlydilar. Islom olami ligasi, ayniqsa, unda asosiy mavqeni qat’iy egallagan neftga boy davlatlar, islom birdamligi g‘oyasini amalga oshirish talabi bilan chiqmoqdalar. Butun dunyodagi musulmonlarning birligi g‘oyasi ularning hammasining «otasi» Ibrohim ekanligi, Makkadagi Ka’ba yagona diniy markaz ekanligi, Qur’on va shariatda asoslab berilgan ahloqiy, ma’naviy, xuquqiy normalari borligi kabi nazariy xulosalarga asoslanadi.

Islom san’ati - islom dini tarqalgan mintaqalardagi xalqlarning islom tasavvurlari va an’analari bilan bog‘liq san’ati. Islom san’ati o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida ko‘proq rasmiy harakterga ega bo‘lgan va dinning an’anaviy asoslariga ta’sir etmaydigan o‘zgarishlarga uchradi. Islom san’ati tarqalgan joylarni madaniy jihatdan shakllangan bir necha xududlarga ajratib ko‘rsatish mumkin. Bular: arab hududi (YAqin SHarq, Misr, Turkiya, Ispaniya), Eron hududi (Eron, Afg‘oniston, Markaziy Osiyo), Hind-Eron hududi (Xindiston, Pokiston), Indoneziya-Malayziya xududi. YUqori-da sanab o‘tilgan hududlar san’atning badiiy qiyofasi, islom g‘oyalari va ana’analari ta’siri bilan bir qatorda islomga qadar mavjud bo‘lgan an’anaviy san’at belgilarini ham o‘z ichiga oladi. Madaniy jihatdan shakllangan hududlarning bu xususiyati amalda san’at va me’morchilik turlarini, uning uslubi, yodgorliklarning tuzilish usullarini qamrab oladi. Islomning boshqa dinlar (iudaizm, xristianlik, zardo‘shtiy-lik, buddizm) bilan to‘qnashuvi natijasida madaniy jihatdan yuqori bo‘lgan hududlarning islomga qadar bo‘lgan san’ati g‘oyalari islom san’atiga ta’sir etgan.

Islom fundamentalizmi - hozirgi islomdagi 3 oqimdan (traditsionalizm va modernizm birgalikda) biri. Bu oqim o‘zini diniy uyg‘onish tarafdorlari deb ataydi. Islom fundamentalizmining asosiy konsepsiyasi islomning funda-mental tamoyil (shundan ularga islom fundamentalizm nomi berilgan), kapitalizmdan ham, sotsializmdan ham farq qiladigan mustaqil «Islom taraqqiyot yo‘lini» belgilab beradi, deb hisoblaydilar. Islom traditsionalistlaridan farq qilgan holda, ular ana shu fundamental tamoyillarni tiklash va ularga amal qilish tarafdorlaridanlar. Lekin islom modernistlariga qarshi ular ana shu tamoyillarni hozirgi davr taqozosiga moslab, qayta talqin etish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Islom fundamentalizmi tarafdorla-ri traditsionalistlarga o‘xshab, din va siyosatni bir deb tushunadilar, faqat ulardan farqli o‘laroq, islom bilan millat manfaatlarini bir yoki yaqin deb hisoblaydilar. Islom fundamentalizmi tarafdorlari ijtimoiy adolat uchun kurashishni maqsad qiladilar, hatto mazlum tabaqalarni boshqalardan ajratib, ana shular nomidan ish ko‘radilar. Ijtimoiy-sinfiy jihatdan islom fundamentalizmi turli (demokratik, radikal va konservativ) dunyoqarashdagi o‘rta hol guruhlar manfaatlarini ifodalaydi.

Laylat-ul-qadr (arab. taqdirni hal qiluvchi kecha) - ramazon oyining qur’onda tilga olingan 27 kunga o‘tar kechasi. SHu kechadan boshlab Muhammadga Qur’on 23 yil davomida vahiy qilingan. Musulmonlar Laylat-ul-qadrni muqaddas, deb hisoblashlari ana shundan. Dindorlar har yili shu kechada, Alloh har bir kishining ibodat paytida iltijo qilgan tilagini hisobga olib, uning taqdiri haqida xukm chiqaradi, deb tasavvur qiladilar. SHuning uchun ham Laylat-ul-qadr kechasini Qur’onni o‘qib, Allohga iltijo qilib, o‘tkazish rasm bo‘lgan.

Madrasa (arab. dars o‘qitiladigan joy, darsxona) - islomda o‘rta diniy o‘quv yurti. YAqin va O‘rta SHarq mamlakatlarida madrasalar ulamolar, maktabdorlar, davlat apparati xodimlarini tayyorlaydi. Islom ilohiyoti masalalarini sharhlovchi markaz sifatida madrasa dastlab VII-VIII asrlarda arablarda paydo bo‘lgan. Keyinchalik ayrim masjidlar qoshida ilohiy maktablar tarkib topib, madrasa deb atala boshlangan. Madrasalar XI-XII asrlarda Markaziy Osiyoning barcha

yirik shaharlarida mavjud bo‘lgan. Madrasaga diniy maktabni tugatgan kishilar qabul qilingan. Madrasalarda arab va fors tillarda shariat qonunlari o‘rgatilgan. Ayrim madrasalarda tibbiyot, a’ruz bilimi, falsafa, geografiya va boshqa fanlar ham o‘qitilgan. Hozir ham jahondagi ko‘p horijiy musulmon mamlakatlarining madrasalarida diniy ta’lim bilan birga dunyoviy bilimlar ham o‘qitiladi.

Masjid, machit (arab. sajda qilinadigan joy) - musulmonlar jamoa bo‘lib namoz o‘qiydigan joy, ibodatxona. Masjidlar asosan kundlik 5 vaqt namoz o‘qish uchun mo‘ljallangan. Juma va hayit namozlari esa jom’e masjidlarida o‘qiladi. Masjidlar dastlab shaharlarda, keyinchalik qishloq va mahallarda barpo etilgan. Masjidlarning to‘rida, Makkaga qaragan (Qibla) tomonida mehrob, hovlisida hovuz, bir yoki bir necha minora bo‘ladi. Ayrim yirik masjidlar mehrobining o‘ng tomonida va’zxon-lik uchun mo‘ljallangan minbar, ba’zilarida esa qur’on o‘qi-ladigan maxsus joylar ham bo‘ladi. Ba’zi masjidlarda maktablar ham bo‘lib, ularda o‘g‘il bolalarga Qur’on o‘qish o‘rgatiladi. Masjidlar diniy targ‘ibot markazi vazifasini o‘tagan. Masalan, jamoa namozida imom-xatiblar xutba o‘qib, turli diniy masalalar bo‘yicha targ‘ibot qiladilar.

Muazzin (arab, - azon aytuvchi) - masjidda azon aytib, namozga chorlovchi shaxs. Muazzin xalq tilida «So‘fi» deb ham ataladi.

Mudarris (arab. - dars beruvchi) - madrasa o‘qituvchisi, ilgari muayyan ilohiyot fanidan dars bergan.

Hozir Xorijiy SHarq mamlakatlaridagi madrasalarda faqat diniy bilimlardan emas, balki dunyoviy fanlardan dars beruvchilar ham Mudarris deb ataladi.

Muslim (arab. bo‘yin eguvchi) - islom diniga e’tiqod qilgan shaxs. Bu so‘zning ko‘plik shakli (muslimun)ni buzib talaffuz qilish jarayonida Eron va Markaziy Osiyoda musulmon, qirg‘iz va qozoqlarda, hamda Rossiyada basurmon atamalari kelib chiqqan.

Mutavalliy (arab. - ish boshi, boshqaruvchi) - islom tari-xida vaqf mulkiga va undan keladigan daromadga vasiylik qiluvchi, uni taqsimlovchi diniy amaldor. Vaqf erlarini ijaraga berishni; madrasa, masjidlarda xo‘jalik ishlarini ham Mutavalliy bajargan. Mutavalliylik amali juda muhim va serdaromad hisoblangan. Vaqf daromadining 10 foizi mutavalliylarga maosh tariqasida beriladi.

Muftiy, mufti (arab. fatfo beruvchi, diniy masalalar-da qaror chiqaruvchi) - sunniylikdagi oliy martabali ruhoniy. Muftiy diniy-huquqiy masalalarni izohlash, talqin etish, shariatni tadbiq etish masalalarida hal qiluvchi huquqga ega. Odatda, uning fikr va qarorlari fatvolarda bayon etilib, musulmonlar uchun qo‘llanma hisoblanadi. Horijiy SHarqdagi musulmon mamlakatlarida muftiylik hukumat tayinlaydigan rasmiy lavozim hisoblanadi.

**TAYANCH IBORALAR:**

Islom, musulmon, payg‘ambar, shariat, xadis, aqida, shia, sunniylik, xanafiya, xanbaliya, druzlar, zeydiy.

**TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:**

13. mazhablar qanday paydo bo‘ldi?.
14. mazxab nima?
15. xanbaliya mazhabini moxiyati?
16. Islomni muqaddas kitobi

**ADABIYOTLAR:**

14. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
15. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
16. Xayrullaev M, SHoaxmedov M. Madaniyat va meros. T. 1973.
17. Islam Ensiklopedicheskiy slovar. M. 1991.
18. Mo‘minov A. Movarounnahr ulamolari xanafiylar // sharqshunoslik. №9. 1990. 40-44 betlar.
19. Islom. Bag‘rikenglik va mutaassiblik. T. 1998.
Azimov N. Islom va xozirgi zamon. T. “O‘zbekiston”. 1991

## MAVZU: “VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR” TO‘G‘RISIDAGI QONUN. DINIY EKSTRAMIZM VA FUNDAMENTALIZM. (2 soat)

**Reja:**

**1. Vijdon erkinligi tushunchasi. Dunyoviy davlat va din.**
**2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi.**
**3. Mustaqillik va din. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tomonidan vijdon erkinligini kafolatlanishi.**
**4. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi ngi tahriridagi qonun mazmuni va mohiyati.**
**5. Diniy ekstramizm va fundamentalizm.**

Dunyoviy davlatlarda, ya’ni davlatdan din, diniy tashki-lotlar ajratib qo‘yilgan mamlakatlarda, insonparvar, demok-ratik jamiyatlarda vijdon erkinligi mavjud. Vijdon erkinligi nima? Bu savolga quyidagicha javob berish mumkin. Dinlarga, diniy urf-odatlarga, imon-e’tiqodga har bir fuqaroning amal qilishi yoki hech qanday dinga amal qilmas-ligi huquqlarini joriy etilishi va ulardan shaxslarning bemalol foydalana olishiga vijdon erkinligi deyiladi.

Vijdon erkinligi insoniyat tarixida turli shakllarda amal qilgan bo‘lib, ular hukmron diniy mafkura, dunyoqarash talablariga nisbatan ziddiyatda bo‘lib kelgan.

Vijdoni buyurgan e’tiqodni rasmiy diniy-mafkuraga qarama-qarshi qo‘ygan erkin fikrlovchilar e’tiqodi vijdon erkinligidir. Quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sotsia-lizm jamiyatlarida vijdon erkinligining quyidagi tarixiy shakllari mavjud bo‘lgan:

1. Deizm - tabiatni xudo yaratgan, xudo bilan tabiat ajralmaydi, deb hisoblovchi e’tiqod edi. SHamol xudosi, dengiz xudosi, osmon, chaqmoq xudosi, er osti va zulmat xudosi, dehqonchilik xudosi mavjud, degan tasavvurlar deizm tufayli mavjud bo‘lgan. Masalan, Apollon, YUpiter, Erxubba kabi xudolar greklar, rimliklar, turkiy xalqlarning xuddi shunday xudolari bo‘lgan. YUpiter - rimliklarning chaqmoq xudosi edi. Apollon greklarning osmon xudosi bo‘lgan. Erxubba - turkiy xalqlarda suv xudosi edi. Deizm tasavvurlari hozir ham ma’lum darajada saqlanib kelmoqda.
2. Panteizm - tabiat o‘z sabablariga asosan rivojlanadi, unga xudolar ta’sir qila olmaydi deb hisoblaydigan tushuncha va tasavvurlardan iborat ta’limot bo‘lib, bu ta’limot tabiatdagi hamma narsa va hodisalarni xudo yaratgan va ular tomonidan tabiat boshqarib turiladi, deyuvchi xristian, iudaizm, buddizm, islom va boshqa dinlar mafkurasiga qarshi qaratilgan ta’limot edi. Panteizm tabiatshunos olimlar tomonidan ishlab chiqil-gan. Masalan, grek faylasufi Gerakl tabiatni xudolar-dan ham, odamlardan ham hech kim yaratmagan, u qonuniy yonib va so‘nib-turadigan mangu olovdan tashkil topgan, deb hisoblagan. Italiyalik olim Jardano Bruno esa har bir yulduz o‘zi bir olam, dunyo cheksiz, Injil ko‘rsatma-lari uydirmadan iborat, deb hisoblagan. Inkivizatsiya sudi uni 1600 yil 14 aprelda Rim shahrida tiriklayin gulxanda kuydirib o‘ldirishga hukm qilgan va bu hukm ijro etilgan. Panteizm vijdon erkinligining tarixiy shakli sifatida hozir ham ayrim olimlar e’tiqodida mavjud.
3. Mutaziliylik - islom dinining rasmiy mafkurasi bo‘l-gan kalom falsafasining, ya’ni Alloh yagona, u xohlaganini qiladi, bandalarida hech qanday o‘z fikr, xohish-iroda erkinligi bo‘lishi

mumkin emas, degan aqidalarni cheksiz da’vat qilgan rasmiy ruhoniylar - mutakallimlardan norozi bo‘lib, ulardan ajralib chiqqan islomdagi hurfikrlik mavqeidagi olimlar ta’limoti edi. Mutaziliya ta’limoti Alloh yaratgan har bir odam o‘z hatti-harakati uchun o‘zi javobgar, yaxshi yoki yomon qilgan ishlari uchun o‘zi Alloh oldida javob berishi lozim, inson erkin fikrlashga haqli, deb hisobladilar. Mutaziliya ta’limoti xalifalar Xorun ar-Rashid va Ma’mun (IX-X asrlar) davrlarida xalifalikning rasmiy mafkurasi edi.

4. Qo‘sh haqiqat - bu ta’limotga asosan dunyoda Allohga ma’qul bo‘lgan barcha yaxshi ishlar islomiy haqiqat bo‘lib uni tan olmoq kerak. Bu birinchi haqiqatdir. Bu haqiqat-ga ko‘ra Qur’on, shariat, hadislar, islom aqida va marosimlari, ahloq-odoblari, boqiy va foniy dunyo, jannat-do‘zax xususidagi barcha fikr-mulohazalar ayni haqiqatdir. Biroq bir guruh olimlar, islomiy mutafakkirlar dunyoviy ilmlar ochayotgan yangiliklarni ham haqiqat deb hisobladilar, bu ikkinchi haqiqatdir. Ikkinchi haqiqat tarafdorlari odatda hurfikrlilik mavqeida turadilar. Ular birinchi haqiqatni inkor qilmaydilar, ammo ular olamga, dunyoviy fanlar ochayotgan haqiqatning kuchiga ham ishonadilar. SHu asosda o‘z ta’limotlarini, falsafiy dunyoqarashlarini olg‘a surdi-lar. Abu Nosir Farobiy, Ibn Sino, Beruniy, Abu Abdulloh Al-Xorazmiy, Umar Xayyom, Ulug‘bek, Alisher Navoiy, A.Jomiy kabi allomalar qo‘sh haqiqat maqveida turib ijod qilganlar.

5. Ateizm - XVIII asrda Fransiyada ma’rifatparvar faylasuflar tomonidan olg‘a surilgan ta’limot edi. F.Volter, D.Didro, Lametri, Golbax va boshqalar Fransiya respublikasining birinchi Konstitutsiyasiga vijdon erkinligi to‘g‘risida moddalar kiritish, bu moddalarda har bir fuqaroga dinga amal qilish yoki amal qilmaslik, dinlarning tengligini e’tirof etish, diniy tashkilotlar va dinni davlatdan ajratib qo‘yish, maktabni cherkovdan ajratish kabi huquqlarni kafolatga olishni talab qildilar. SHuningdek, ular dinga qarshi ilmiy asoslangan targ‘ibot-tashviqot olib borish huquq-larini talab etdilar. Fransiya respublikasi Konsti-tutsiyasiga ana shu talablarga ko‘ra bir qator moddalar kiritilib, din dunyoviy davlatdan, maktab cherkovdan ajratildi. Bu ishlar boshqa ko‘pgina davlatlarda, jumladan sobiq SSSR da ham mavjud edi.

Sobiq sho‘rolar davrida mamlakatda ommaviy ateizmni joriy etish harakati avj oldirilib, dinni nafaqat davlatdan ajratish, uni hatto jamiyatdan butunlay va zudlik bilan ajratib tashlash siyosati olib borildi. Buyuk davlatchilik, qizil imperiyachilik manfaatlari, kommunistik firqa mafkurasining muxolifi sifatida baholangan dinni yo‘q qilishga qaratilgan ateistik targ‘ibot eng vahshiyona shakllarda olib borildi. SHu maqsadda o‘ng minglab cherkovlar, masjidlar, ibodatxonalar, madrasa, monastirlar yo‘q qilib tashlandi, eski diniy maktablar yopildi. Minglab din arboblari, mullalar qatag‘on qilindi. Diniy hayitlar, urf-odatlar ma’n etildi yoki ularni bajarishga qarshi ko‘plab to‘siqlar qo‘yildi. Masalan, o‘sha davrlarda O‘zbekiston bo‘yicha haj safariga bir yilda 1-2 kishi borardi, xolos.

SSSR da «Xudosiz» gazetasi va «Xudosizlar» jurnali nashr etilar edi. Din eskilik sarqiti deb baholanib, bu sarqitlarga butunlay barham berish ishlari olib borildi. Eski arab alfavitida yozilgan kitoblar, qo‘lyozmalar diniy yozuvlar deb yo‘q qilindi. Ularni saqlash, o‘qish ta’qiqlandi. Natijada islom qadriyatlaridan xalqimiz amalda uzib qo‘yildi, dinsizlik avj oldi.

«Sobiq SSSRdagi hukmron kommunistik partiyaning jilovbardorlari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o‘zlarining raqibi deb hisoblar edi. Ular o‘zlarining butun faoliyatlari davomida dinni kamsitish, ruhoniylarni yo‘qotish va omon qolganlarni bo‘ysundirish uchun eng keskin choralarni ko‘rgan edi. Din sun’iy ravishda mafkuraviy kurashning o‘ta qizg‘in jabhalaridan biriga aylantirib qo‘yilgan edi. Islom dinining o‘ng minglab mo‘‘tabar ruhoniylari qatag‘on qilindi. Minglab machitlar va yuzlab madrasalar buzib tashlandi. Bu obidalarning ko‘pchiligi xalqimiz uchun, insoniyat sivili-zatsiyasi uchun bebaho me’moriy va tarixiy qadriyat hisoblanar edi. Dindorlarning aksariyat ko‘pchiligi 90-yilning o‘rtalari-ga qadar Qur’oni karimdan bahramand bo‘lmagan edilar» (Qarang: I.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. «O‘zbe-kiston» nashriyoti 1998 yil, 444-445-betlar).

1991 yilning 31 avgustida O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligin qo‘lga kiritdi. 1991 yil 14 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida» Qonun qabul qilindi. Bundan tashqari

1992 yil 8 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul etildi. Bu hujjatlarda O‘zbekiston dunyoviy davlat sifatida dinga o‘z munosabatini bayon qildi.

Demokratik, insonparvar va dunyoviy davlat bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasida 100 dan ortiq xalq va millat, 15 ta diniy Konfessiya vakillari yashayotir. Respublikamizda islom dinigina emas, balki yahudiylik, xristian konfes-siyalari; Rus pravoslaviya, Rim katolik, Arman-grigoriyan, Lyutteran cherkovlarida, baptistlik va boshqa jamoalar faoliyat ko‘rsatmoqda. (Qarang: I.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. 444-445-betlar).

Barcha dinlar, diniy uyushmalar keng faoliyat ko‘rsatayotgan respublikamizning qishloq va shaharlarida milliy ozodlik qo‘lga kiritilganidan keyingi yillarda barcha dinlar, shu jumladan islom dini qadriyatlari qayta tiklandi. Musulmonlar safi juda kengaydi, yoshlar dinni qiziqib o‘rganmoqdalar, diniy marosimlar, xususan islomiy hayitlar - Qurbon, Ramazon hayitlari tiklanib, bu tabarruk hayitlar xalqimizga ko‘pdan-ko‘p ma’naviy ruh bag‘ishlamoqda. Dam olish kunlari deb belgilab qo‘yilgan Ramazon, Qurbon hayitlarida minglab machitlarda o‘ng minglab kishilar hayit namozlari o‘qimoqdalar, vafot etgan yaqin kishilarining qabrlariga borib, tilovat qilmoqdalar. Qadimgi davrlarda qurilib, sho‘rolar davrida xarobalarga aylangan minglab madrasa, machitlar qayta ta’mirlandi, ko‘plab yangilari qurildi. Hozirgi davrlarda (1999 yilda) O‘zbekistonda 3,5 mingdan ziyod machitlar rasman ro‘yxatga olingan va ular faoliyat ko‘rsatmoqda. Toshkentda shu yil boshida (1999 yil) Islom universiteti tashkil etildi. Mufti janoblari rahnamoli-gida musulmonlar diniy idorasi ish olib borayotidir. Bu idora chet mamlakatlardagi o‘nlab musulmon davlatlari bilan aloqa olib boradilar, delegatlar qabul qiladilar, diniy kadrlar tayyorlashda, diniy adabiyotlar tayyorlash sohalarida hamkorlik qiladilar. Dindorlar huquqlari, davlatimiz bilan din munosabatlari O‘zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasida qonuniy asoslarda aniq belgilab qo‘yilgan. «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilishi yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan sing-dirishga yo‘l qo‘yilmaydi». (O‘zbekiston Respublikasi Konsti-tutsiyasi. «O‘zbekiston» nashriyoti. 1992 yil 31-modda,15-bet).

Konstitutsiyamiz mazkur moddasining mazmunini izohlab, Prezident I.Karimov shunday fikrlarni yozgan: «Hozirgi kunda respublikada 15 ta diniy konfessiya uyushmalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularning bir qismi noan’anaviydir. Davlat ular bilan o‘zaro munosabatda o‘z dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalari-ning xususiy ishi deb tan oladi;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlari-ni teng kafolatlash hamda ularni ta’qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish».(Qarang: I.Karimov. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. 448-bet).

Ma’lumki, O‘zbekiston Respublikasi dunyoviy davlatdir. SHu sababli Konstitutsiyaning 6-moddasida shunday deb yozib qo‘yilgan: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda ular qonun oldida tengdir. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi». (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 31-bet).

Mazkur moddaga asosan diniy tashkilotlar diniy ishlar bilan shug‘ullanadilar, ular davlat siyosatiga aralashmaydilar va davlat qonunlariga hurmat bilan qaraydilar. Masalan, O‘zbekistonda ta’lim dunyoviy fanlarni o‘rganishga asoslangan, diniy bilimlar esa diniy maktablar, madrasalar yoki xususiy tarzda idoralar rahbarligida olib boriladi.

Insonparvar jamiyat qurayotgan O‘zbekistonda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonun 1991 yil 14 iyunda qabul qilingan bo‘lib, unga binoan diniy marosimlar,

masalan, namoz o‘qishga barcha sihatgohlarda, davlat muassasalarida, dam olish uylarida ruxsat etilgan edi. Bolalarni dinga o‘qitish ota-onalar xohishiga qarab olib borilgan. Har 10 kishi uyushsa ibodatxonalar yoki machitlar ochishga, diniy ishlar bo‘yicha Davlat qo‘mitasi ro‘yxatidan o‘tkazilar edi. Diniy targ‘ibot matbuot vositalarida, radio-televidenie orqali olib borildi. Juda ko‘plab machitlar ochildi. CHala Mullalar ruxsatsiz maktablar, xonaki da’vat-xonalar ochdilar. Dindan dunyoviy davlatimizni yo‘q qilib, o‘rniga islomiy davlat qurishga, hatto jihodga da’vat qilish, yoshlarni diniy fanatizm ruhida tarbiyalash maqsadlarida foydalanish keng tus oldi. Diniy fundamentalizm, ekstre-mizm ruhidagi vahhobiylar, hizbut-tahrir, «Nur» kabi panislomizm harakatlarida buzg‘unchilik ishlari olib boril-di. Natijada O‘zbekiston Konstitutsiyasining 57-moddasi qo‘pol ravishda buzildi. Bu moddada shunday deb yozib qo‘yil-gan: «Konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, respublikaning suvereniteti, yahlitligi va havfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘ligi, ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashti-rilgan «birlashmalar»ning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta’qiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ta’qiqlanadi». (Konstitutsiya: 19-20-bet).

«Endi Toshkentda bo‘lib o‘tgan fevral voqealariga kelsak, mudhish voqea tashkilotchilarining manfur g‘arazlari - xalqni el sevgan yurtboshisidan judo qilish, yurtda parokandalikni bunyod etib, ildam rivojlanib borayotgan erkinligimizni bo‘g‘ib tashlash edi» (Qarang: Ahmadjon Luqmonov. Xalifalik nima? «Namangan» nashriyoti, 1999 yil 22-bet).

Ushbu moddadagi ko‘rsatmalar qo‘pol ravishda buzilgan-ligi sababli O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkin-ligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi qonuniga yangi modda-lar qo‘shilib, yangi tahrirda 1998 yil 1- may kuni qabul qilindi.

Uning 5-moddasida davlatdan din, diniy tashkilotlar ajratib qo‘yilganligini ko‘rsatish bilan birga barcha dinlar, ularning tashkilotlari teng huquqqa egaligi, dindorlar orasida o‘zaro nizolar chiqarish, horijdan kelib da’vat qilish qonun bilan ta’qiqlanadi. Bu ishlarni qilgan shaxslar javobgarlikka tortiladi, deyiladi. 6-moddada barcha viloyatlar, tumanlar va mahalla qo‘mitalari o‘z hududlarida ushbu qonunga to‘g‘ri amal qilish uchun mas’ulligi va javobgarligi alohida ta’kidlab o‘tilgan.

7-moddada O‘zbekiston Respublikasida xalq ta’limining barcha tizimi dindan ajratib qo‘yilganligi, ta’lim tizimi dasturiga diniy bilim berish kiritilmaydi, deb yozilgan. 8-moddada esa 18 yoshga to‘lgan va undan o‘tgan fuqarolardan 100 nafari diniy jamoa tuzishga ruxsat etilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Qonunda xususiy tarzda dinni o‘qitish ma’n etiladi (9-modda), deb ko‘rsatilgan. Ro‘yhatga olinmagan va ruxsat qilinmagan diniy tashkilot yoki jamoa tashkil etgan shaxs javobgarlikka tortiladi (11-modda).

Jamoat joylarida diniy xizmatdagilardan boshqa fuqarolarga diniy libosda yurish ma’n etiladi (14-modda). Horijdan keltirilgan diniy adabiyotlar maxsus ekspertizadan o‘tkazilgandan so‘nggina tarqatiladi (19-modda). Diniy ekstremistik mazmundagi chop etilgan materiallar, kino, foto, audio, video materiallar tayyorlash, saqlash va tarqatish ta’qiqlanadi (19-modda). Diniy ekstremizm – muayyan diniy konfessiya va tashkilotlardagi ashaddiy mutaassib, fanatik unsurlarning faoliyati mafkurasi. Fanatizm o‘z aqidasining shak-shubhasiz to‘g‘riligiga ishonib, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda ularni tan olmaslik, balki ularni diniy asoslarni buzishda ayblab, ularga qarshi urush ochishga chaqiradigan omillardandir. Diniy fanatizm diniy ekstremizm va terrorizmga zamin tayyorlaydi.
Fundamentalizm – ma’lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning yo‘nalishi. Diniy fundamentalizm – aqidaning o‘zgarmasligini himoya qiladigan, *vahy* va *mo‘‘jizalarning* muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqiniga

murosasiz, so‘zma-so‘z talqinga asoslangan e’tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo‘yadigan, muayyan diniy e’tiqod shakllanishining boshlang‘ich davrida belgilangan barcha yo‘l-yo‘riqlarni qat’iy va og‘ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo‘llaniladigan istilohdir.

Fundamentalizm iborasi ilk bor I Jahon urushi arafasida vujudga kelgan protestantizmdagi ortodoksal oqimlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bu oqim 1910 yildan keyin shu nom bilan atala boshlagan. Fundamentalistlar xristianlikning an’anaviy aqidalariga, ayniqsa, Bibliyaning mutlaq mukammalligiga ishonishni mustahkamlashni, uni so‘zma-so‘z sharhlashga qat’iy rioya qilishni talab qildilar. Bu oqim keyinchalik Amerikada keng tarqalib, 1919 yili Filadelfiyada Jahon xristian fundamentalistlari assotsiatsiyasiga asos solindi.

Asrimizning 70-yillaridan boshlab esa bu so‘z islomga nisbatan qo‘llanila boshlandi. Islom fundamentalizmi zamonaviy islomdagi uch yo‘nalishdan biridir (qolgan ikkitasi – traditsionalizm va modernizm). Islom fundamentalizmining asosiy g‘oyasi – «sof islom» prinsiplariga qaytish, maqsadi «islomiy taraqqiyot» yo‘lini joriy etishdir.

XX asrning 80-90-yillarida butun dunyoda diniy omilning faollashuvi sobiq sovetlardan keyingi makonda ham o‘z aksini topdi. Bu davr jamiyat taraqqiyotida, bir jihatdan, diniy e’tiqodning ijtimoiy-madaniy hayotdagi tabiiy mavqei tiklanayotgan, ikkinchi tomondan, mazkur asosda ayrim mafkuraviy ziddiyatlar tug‘ilishi vaqti bo‘ldi.

Asosiy Qonunimizda yana shu narsa qat’iy qilib belgilab qo‘yilganki, konstitutsiyaviy tuzumni zo‘rlik bilan o‘zgartirishni maqsad qilib qo‘yuvchi, Respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ‘ib qiluvchi, xalqning sog‘lig‘i va ma’naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi (57-modda).

O‘rta Osiyodagi respublikalar o‘z mustaqilligiga erishishi va uning mustahkamlanishi davrida «islom omili», «islom uyg‘onishi», «qayta islomlashish», «islom fenomeni» kabi iboralar tobora ko‘proq ishlatilib, bu hol ularning beqiyos faollashuvini o‘zida aks ettirdi. Bunga sabab sobiq sovet davlatining mafkuraviy tasavvurlari va qadriyatlarining emirilib, muayyan vaqt davomida hosil bo‘lgan ma’naviy bo‘shliqni to‘ldirish ehtiyoji bo‘ldi. Kommunistik mafkuraning ma’naviy jihatdan qashshoq bo‘lib, o‘ziga xos mutaassibligi va muayyan millatlar manfaatlariga qarshi qaratilganligi sho‘ro hokimiyatidan keyin bu hududda diniy fundamentalizm uchun qulay sharoit tug‘dirdi.

Sobiq Ittifoqdagi hukmron partiyaning namoyandalari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o‘zlarining raqibi deb hisoblashi dinning chekinishi va hatto uning muayyan ma’nodagi muxolif kuchga aylanishiga olib keldi. Dinning doimiy ta’qib ostida bo‘lib kelgani, islom dini eng salohiyatli ulamolarining qatag‘on qilinishi, minglab masjid va madrasalarning buzib tashlanishi diniy taassubni yo‘qotishga emas, balki uning ildizlarini oziqlantiruvchi xatarli omillarning kuchayishiga olib keldi. Millatlar orasida o‘zlikni anglash tuyg‘usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilish kuchaydi.

O‘zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmining tahdidi aqidaparastlikni yoyish, bu yo‘l bilan musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo‘qotishga urinishda o‘zini namoyon etmoqda. Bunday guruhlar mustahkamlanib borayotgan umummilliy birdamlik va hamjihatlik, millatlar va fuqarolararo totuvlikka rahna solishga harakat qilmoqdalar. Demokratiya va dunyoviy davlat tushunchalarini, e’tiqod erkinligiga asoslangan ko‘p konfessiyali dunyoviy jamiyatni obro‘sizlantirishga yo‘naltirilgan sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqdalar.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, «eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma’naviy hayotining muayyan sohasi bo‘lgan din umuminsoniy axloq me’yorlarini o‘ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan.

Binobarin, din odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni engib o‘tishlarida kuch bag‘ishlagan. Umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga etkazishga yordamga kelgan.

Dinning yuksak rolini e'tirof etish bilan birga diniy dunyoqarash tafakkurning, insonning o'zini o'rab turgan dunyoga, o'zi kabi odamlarga munosabatining yagona usuli bo'lmaganligini ham ta'kidlash mumkin. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush tarzi ham u bilan yonma-yon, u bilan teng yashash huquqiga ega bo'lgan holda rivojlanib kelgan.

Modomiki, biz yoshlarimizni, Prezidentimiz aytganidek, Imom Buxoriylar, Naqshbandlar va Yasaviylar ta'limoti asosida tarbiyalar ekanmiz, biz ularni turli islom niqobi ostidagi g'arazli guruhlar bilan buyuk ajdodlarimiz amal qilgan va bizlarga ham tavsiya etgan musaffo islom o'rtasini ajrata oladigan darajada bilimli qilishimiz zarur bo'ladi.

***Vahhobiylik.*** Vahhobiylik XVIII asrda Arabiston yarim orolida vujudga kelgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning asoschisi Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1703 yili Arabiston yarim oroli Najd o'lkasining *al-Uyayna* degan joyida tavallud topgan. Bu davrda uning otasi Abd al-Vahhob ibn Sulaymon mustaqil mahalliy amir hokimiyatida qozilik lavozimida xizmat qilar edi. Muhammad yoshligidan diniy ilmlarni o'z otasi rahbarligida o'rgana boshladi. U an'anaga ko'ra Qur'onni yod oldi, tafsir va hadis ilmlari bilan tanisha boshladi. Bir necha bor Misr, Suriya, Kurdiston, Iroq, Eron mamlakatlarida bo'lib, ko'pincha ulamolar suhbatida o'zining janjalkashligi va mutaassibligi bilan ajralib turgan. U o'z targ'ibotchilik faoliyatini 1730 yillarda boshlab, birinchi maqsadi o'ziga munosib homiy topish bo'ldi.

1745 yili Muhammad ibn Abd al-Vahhob ad-Dir'iya vodiysiga uning amiri Muhammad ibn Sa'ud taklifiga binoan ko'chib o'tdi. Bu bilan Muhammad ibn Sa'ud o'z hokimiyatini kuchaytirishda vahhobiylikdek mafkuraviy qurolga ega bo'ldi. Vahhobiylar o'zlari xohlagan jamoani *kufrda* yoki *shirkda* ayblashlari va unga qarshi *jihod* e'lon qilishlari mumkin edi. Ibn Sa'ud esa bu *jihodni* amalga oshirib, o'z hokimiyati chegaralarini kengaytirishni boshladi. Muhammad ibn Abd al-Vahhob 1792 yili vafot etdi. Ibn Saud va uning sulolasi vahhobiylik bayrog'i ostida olib borgan urushlari 1932 yilda Saudiya Arabistoni davlatining tuzilishi bilan yakunlandi.

Vahhobiylik ta'limoti diniy masalalarda din fundamenti, ya'ni Payg'ambar davri voqeiyliklariga qaytishni talab etdi. Ular barcha muxoliflarini *bid'atchilikda*, ya'ni dinga yangilik kiritganlikda aybladilar, o'zlarining siyosiy dushmanlarini esa mushriklikda ayblab, ularga qarshi *jihod* olib borishga *fatvo* berdilar. Axloqiy masalalarda nazariy jihatdan, garchi shaxsiy kamtarlik, mol-mulkka hirs qo'ymaslik, dunyoviy hayotda toat-ibodatga aksariyat vaqtni sarflashni targ'ib qilsalar-da, lekin amalda saroy ahlining bosqinchilik urushlari qo'shni qabilalar mol-mulklarini talash oqibatida gap bilan amal o'rtasida ziddiyat paydo bo'ldi.

Vahhobiylik harakatlari Usmoniylar imperiyasi (1453-1924) hududlarida vujudga kelganligi va imperiya bilan bu harakat o'rtasida bir necha qonli to'qnashuvlar yuz berganligi tufayli bu oqimda turk islomiga qarshi bo'lgan kuchli kayfiyat o'z aksini topdi. Imperiyaning markaziy hududlarida hanafiylik mazhabi mutlaq hukmron mavqega ega bo'lganligi uchun mazkur maktab qoidalari qattiq tanqid qilindi.

SHuningdek, vahhobiylik harakati mafkurasining markazida avvaliga Arabiston erlarini birlashtirish orqali, keyinchalik butun islom dunyosida islom davlatini shakllantirish g'oyasi ham mavjud edi. Ular bu maqsad yo'lida har qanday qurbonliklarga tayyor edilar.

Vahhobiylarning chet ellarda ko'plab tashkilotlari bo'lib, ular faol harakat yuritadi. Ularning ko'pchiligi yashirin siyosiy faoliyat olib boradi. Ish uslublari – diniy hissiyotlari kuchli bo'lgan fuqarolarni jamiyatlarga tortib, ularni qayta tarbiyalash, so'ng ulardan tashviqot va ijtimoiy tartibbuzarlik, ekstremistik harakatlarda foydalanish. Bu ishlarga, ayniqsa, yoshlarni, bolalarni, hayot tarzidan norozi bo'lgan shaxslarni jalb qiladilar. Xayriya fondlari orqali mayib-majruhlarga, etim-esirlarga yordam, diniy ta'lim berish, turli diniy adabiyotlarni tarqatish kabi yo'llar bilan keng targ'ibot ishlarini olib boradilar. Kishilarga fanatizm, murosasizlik, o'zgalar fikrlari va manfaatlariga hurmatsizlik ruhini singdirishga urinadilar.

***Al-Ixvon al-muslimun.*** XIX asr dastlabki yillaridan islom dini tarqalgan mamlakatlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarayotgan yangi sharoitlarga diniy-falsafiy, huquqiy normalarning XIX asr yarmidan boshlangan moslashuvi fanda «islomiy islohotlar» nomini oldi. Lekin bu jarayon haddan tashqari cho'zilib ketdi va ko'p

sohalarda ziddiyatli hollarni keltirib chiqardi. Ular orasida panislomizm va musulmon jamoalarining boshqa konfessiyalardan ajratish g‘oyasini aytishimiz mumkin. Panislomizm g‘oyasini birinchi bo‘lib ilgari surgan Jamoliddin al-Afg‘oniy (1839-1897) hisoblanadi. U diniy-siyosiy arbob bo‘lib, 1884 yili Parijda Muhammad Abduh (1849-1905) bilan birgalikda «al-Urvat al-vusqo» jurnalini nashr etdi va unda panislomizm g‘oyalarini targ‘ib qila boshladi. Al-Afg‘oniyning g‘oyalarini keyinchalik «Musulmon birodarlar» (*al-Ixvon al-muslimun*) radikal shakllarda rivojlantirdilar.

Al-Ixvon al-muslimun 1928 yili Misrning Ismoiliya shahrida shayx Hasan al-Banno tomonidan tashkil etilgan diniy-siyosiy tashkilotdir. Hasan al-Banno Jamoliddin al-Afg‘oniy, Muhammad Abduh, Rashid Rizo asarlaridan ta’sirlanib, panislomizm g‘oyasida *jihod, islomiy millatchilik*, *islomiy davlat* ta’limotlarini ishlab chiqdi. Al-Ixvon al-muslimun bu ta’limotlar asosida islom dini tarqalgan mamlakatlarda Qur’on va shariatda ifodalangan qoidalarga to‘liq rioya qiluvchi, «islomiy adolat» tamoyillari o‘rnatilgan jamiyat qurish uchun siyosiy kurashni boshlab yubordi.

Al-Ixvon al-muslimun o‘z tarixida bir necha bosqichlarni bosib o‘tdi. 1928-1936 yillardagi davrni xayriya va ma’rifatchilik bosqichi deb atasa bo‘ladi. Keyinchalik u kurash uslubi sifatida terrorni qo‘llash darajasiga etgan siyosiy tashkilot sifatida maydonga chiqdi. Ko‘plab davlatlarda uning faoliyati taqiqlandi. Keyingi davrda al-Ixvon al-muslimun orasida bo‘linish yuz berib, ular 3 yo‘nalishga ajralib ketdi:

1. «mo‘‘tadillar» – Hasan al-Banno va Sayyid Qutb tarafdorlari;
2. «islom demokratlari» – «islom sotsializmi» ta’limoti tarafdorlari;
3. «at-Takfir va-l-hijra», «al-Jihod», «Hizb at-tahrir al-islomiy» kabi terror uslubini qo‘llovchi tashkilotlar.

***Hizb at-tahrir.*** Hizb at-tahrir 1952 yili Quddus shahrida falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) tomonidan asos solingan diniy-siyosiy partiya. U Hayfada tug‘ilib o‘sgan, Qohiradagi «al-Azhar» universitetida ta’lim olgan.

Partiyaning asosiy maqsadi – avval arab davlatlari, keyin islom dunyosi va nihoyat jahon miqyosida xalifalik shaklidagi islom davlatini tuzish. Ularning asosiy da’vosi – Mustafo Kamol Otaturk tomonidan 1924 yili usmoniy xalifa ikkinchi Abd al-Majid (1922-1924) xalifalikdan g‘ayriqonuniy chetlatilgani bo‘ldi. Davlat diniy-islomiy qonunlar asosida xalifa tomonidan idora etilishi lozim. Partiya dasturi 187 banddan iborat bo‘lib, asosiy maqsadi – hokimiyatga erishish. Bundagi asosiy yo‘l – islomiy fikrlovchi shaxslarni shakllantirish. Ularga islomiy ta’lim-tarbiya berish ikki bosqichdan iborat: 1) u bilan islom ta’limotini o‘rgatish yo‘lida madaniy-ma’rifiy ishlar olib borish; 2) siyosiy faoliyatga tortish.

Maqsadga erishish uchun kurash uch bosqichdan iborat:

- g‘oyaviy-fikriy kurash;
- jamiyatda g‘oyaviy inqilobni amalga oshirish;
- hokimiyatga faqatgina umma-jamoaning to‘liq roziligidan so‘ng kelish.

Hizb at-tahrir tarafdorlari ko‘pgina musulmon davlatlari, jumladan, Tunis, Iroq, Jazoir, Sudan, YAman va boshqalarda o‘z faoliyatlarini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir.

Hizb at-tahrir tuzilish jihatidan piramida shaklidadir. Har bir guruh (*halqa*) alohida-alohida bo‘lib, 5-6 kishidan iborat. Guruhlarning o‘quv ishiga *mushrif* rahbarlik qiladi. Undan tashqari guruhda yana bir rahbar – *amir* bo‘lib, u *mushrifga* mashg‘ulotlarni o‘tkazishda bevosita yordam ko‘rsatadi. *Mushrif* bir vaqtning o‘zida bir necha guruhda ta’lim ishlarini olib borishi mumkin. O‘qish davomida tinglovchilar diniy mavzudagi mashg‘ulotlar bilan birga siyosiy, jumladan, musulmon davlatlarida sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan o‘rganadilar.

O‘zbekiston hududida 1992 yildan boshlab partiyaning boshlang‘ich bo‘linmalari tashkil etila boshlagan. Partiya safiga kiruvchilar o‘z partiyalari haqidagi ma’lumotlarni hech qachon oshkor etmaslikka o‘z *mushrifi* buyurgan vazifalarni so‘zsiz bajarishga Qur’on bilan qasam ichadilar. Partiya mutasaddilari o‘z tarafdorlarini ko‘proq ziyolilar, ilmiy xodimlar, talaba-yoshlar orasidan qidiradilar.

Etarli ta’lim olgan shaxslar keyinchalik o‘zlari mustaqil guruh tuzishlari lozim. Tahrirchilarning ta’limi bosqichma-bosqich olib boriladi. Birinchi bosqichda «Islom nizomi» va «Izzat va sharaf sari» kitoblari bo‘yicha o‘qitiladi, «al-Va’y» jurnalidagi ma’lumotlar muhokama qilinadi. Keyingi bosqichlarda «Demokratiya – kufr nizomi», «Siyosiy ong», «Xalifalikning tugatilishi», «Hizb at-tahrir tushunchalari», «Islomiy da’vatni yoyish vazifalari va sifatlari» kabi kitoblar o‘qitiladi. Bu adabiyotlar partiya manfaatlarini ko‘zlab, Qur’on oyatlari va hadislarni noto‘g‘ri talqin qilib, dindorlar ongiga ta’sir qilish uchun mo‘ljallangan. Ushbu nashrlar dindorlarni siyosiylashtirilgan islomga targ‘ib etib, ularni fuqaroviy bo‘ysunmaslikka va muomaladagi umumiy qoidalarni inkor etishga chaqiradi.

Hozirgi zamon islom ulamolari – Yusuf Qarzoviy, Sayyid Muhammad at-Tantoviy, Nosir ad-din al-Alboniylar Hizb at-tahrirni ohod hadislarga, qabr azobiga, sirot ko‘prigiga ishonmasliklari uchun ularni Ahl as-sunna va-l-jamoa safidan chiqqan deb hisoblaydilar.

***Akromiylar.*** Respublikamiz hududida tashkil topib, hozirda faoliyati deyarli to‘xtatilgan noan’anaviy, ham islom ta’limotiga, ham konstitutsiyaviy davlatchilik asoslariga zid bo‘lgan guruh «Akromiylar»dir.

Akromiylar 1996-1997 yillarda Andijonda tashkil topib, uning nomi guruh asoschisi – 1963 yilda tug‘ilgan Yo‘ldoshev Akrom nomi bilan bog‘liq. A. Yo‘ldoshev Hizb at-tahrirning etakchisi an-Nabahoniy g‘oyalari asosida 12 darsga mo‘ljallangan «Imonga yo‘l» risolasini yozgan. SHu sababdan akromiylar «Imonchilar» deb ham yuritiladi.

Akromiylar ham davlat tepasiga chiqish kabi g‘arazli maqsadlarni ko‘zlaydilar. Biroq ular tahrirchilardan farqli o‘laroq, xalifalik davlatini mahalliy sharoitdan kelib chiqib, avvalo, Andijonda, so‘ng Farg‘ona vodiysida amalga oshirmoqchi bo‘ldilar. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar – «sirli», «moddiy», «uzviy», «maydon» va «oxirat». To‘rtinchi va beshinchi bosqichlar tamomila islomlashtirish davri tugagach boshlanishi va ochiqdan-ochiq hokimiyat uchun kurash bosqichlari bo‘lmog‘i lozim edi.

Bu guruh a’zolari, asosan, hunarmandlardan iborat bo‘lib, ular rasmiy ishxonalardan bo‘shab, jamoa ma’qullagan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanganlar. Zarurat tug‘ilganda «birodarlari»ga «jamoa banki»dan moddiy yordam berganlar. Undan tashqari jamoa a’zolariga tashkiliy ravishda oziq-ovqat mollari tarqatib turilgan. Quda-andachilik faqat «birodarlar» o‘rtasida amalga oshirilgan.

## TAYANCH IBORALAR:

Deizm, Panteizm, mutaziylik, Vaxobiylik Xizbu taxrir, Fundamentalizm, Ekstramizm, diniy tashkilot, Ateizm, baptist, lyuteran.

## TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Panteizm nima?
2. Islom fundamentalizm nima?
3. Diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun
4. Mustaqillik yillarida din va davlat.

## ADABIYOTLAR:


1. Jo‘raev U, Saidjonov Y. Dunyo dinlari tarixi. T. 1998.
2. Dinshunoslik asoslari. T. “O‘zbekiston”. 1995 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T. 1992. 48-bet.
4. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni / O‘zbekistonning yangi qonunlari №19. T. 1998. 224-234 betlar.
5. Karimov I.A. Ollox qalbimizda, yuragimizda. T. 1999.
6. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. T. 1992.

7. Fidokor gazetasi. 2000 y. 8-iyun.
8. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. T., 1999.
9. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O‘zbekiston, 1997.
10. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li / O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T., O‘zbekiston, 1998, 12-b.
11. E’tiqod erkinligi qonuniy asosda bo‘lsin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oliy Majlis XI sessiyasida so‘zlagan nutqi // Xalq so‘zi, 1998, 5 may.
12. Azimov A. Islom va hozirgi zamon. T., 1992.
13. Zohidov Q., Mahmud M. Islom madaniyati demokratiyaga zid emas // Guliston, 2000, 6-son. B. 38-39.
14. Borisov A.B. Rol islama vo vnutrenney i vneshney politike Egipta (XX vek). M., Nauka, 1991
15. CHurakov M.V. Narodnoe dvijenie v Magribe pod znamenem xaridjizma. M., Nauka, 1990.

## 18- MAVZU: MISSIONERLIK VA PROZELITIZMNING SALBIY OQIBATLARI. (2 soat)

**Reja:**

1. **Missionerlikning vujudga kelishi va uning moxiyati.**
2. **missionerlikning hozirgi qiyofasi.**
3. **Prozeletizmning salbiy oqibatlari.**

Missionerlik haqida so‘z borar ekan, avvalo ushbu tushunchaning lug‘aviy va istilohiy ma’nolarini tushunib olish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu so‘z lotin tilidagi **«missio»** fe’lidan olingan bo‘lib, «yuborish», «vazifa topshirish», missioner esa “vazifani bajaruvchi” degan ma’nolarni anglatadi. Missionerlik esa belgilangan vazifalarni hal qilishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat majmuini bildiradi.

Turli lug‘atlar va manbalarda missionerlikka ko‘plab ta’riflar berilgan. Ularning deyarli barchasida missionerlikka xos xususiyatlar tavsiflanishi barobarida, bu so‘z asosan xristian dini bilan bog‘lanadi.

Jumladan, har yili qayta nashr etiladigan «World Book» (“Jahon kitobi”) ensiklopediyasida “Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o‘z diniga targ‘ib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson”,-degan fikr qayd etilgan. 2005 yilda Moskva shahrida nashr etilgan “Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi”da esa «Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining o‘z e’tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati»,-degan ta’rif keltirilgan.

Umuman olganda, turli lug‘atlar va manbalarda bayon etilgan ta’riflar bib-biriga juda yaqin va o‘xshash bo‘lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Avvalambor, missionerlik - bir dinga e’tiqod qiluvchi xalqlar orasida boshqa bir dinni targ‘ib qilishni anglatadi. Bunday harakat dastlab Buddizm doirasida miloddan avvalgi III asrdan boshlab yoyilgan. Xristianlikda esa missionerlik IV asrdan paydo bo‘lgan va XIII-XVI asrlarda xristian missionerligi Hindiston, Xitoy, YAponiyaga kirib borgan.

XV-XVI asrlarda Ispaniya va Portugaliya mustamlaka imperiyalari tashkil topgach missionerlik Katolik[168] cherkovi doirasida o‘z faoliyatini kuchaytirgan va yangi erlarni zabt etishda g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qilgan. Katoliklarning turli yo‘nalishlariga mansub missionerlarning oshkora yoki maxfiy ravishda Amerika, Osiyo, Afrika xalqlarini zabt etishda qatnashganlari bunga dalil bo‘la oladi.

SHunisi e’tiborga molik-ki, missionerlik rivojlanib borgani sari tegishli tashkiliy asoslar ham yaratib borilgan. Xususan, katolik missionerlariga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662 yilda Diniy targ‘ibot kongregatsiyasini (1968 yildan Xalqlarni Injilga e’tiqod qildirish

---

[168] Христианликдаги энг йирик оқимлардан бири бўлиб, лотин тилидан таржима қилганда “Бутун жаҳон” деган маъно беради.

kongregatsiyasi) ta’sis etgani fikrimizning isboti bo‘la oladi. Rim papasi Piy XII ning missionerlikka da’vat ruhi bilan sug‘orilgan “Fideyi Donum” (1957), Ioann XXIII ning “Prinseps postorum” (1959), Pavel VI ning “Populorum progressio” (1967) nomalari, II Vatikan soborida (1962-65) missionerlik masalalariga bag‘ishlab qabul qilingan maxsus dekret qabul qilingani ham bu yo‘ldagi ishlar tadrijiy tashkil etilganini ko‘rsatadi.

Missionerlik muassasalari yirik kapital va erlarni tasarruflariga olib, o‘z mamlakatlari siyosatini o‘tkazishda faol ishtirok etganlar. Ma’rifat tarqatish, tibbiy yordam ko‘rsatish ishlarini monopollashtirib olib shu yo‘l bilan xristianlik targ‘ibotini kuchaytirganlar.

SHu asnoda tajriba osha borgani va faoliyat hududi kengaygani sari missionerlar xristianlikni qabul qilgan aholi ichidan mahalliy ruhoniy kadrlar tayyorlashga e’tibor bera boshlganlar. 1978 yildagi konklavlarda[169] Afrikadan 12 kardinal, Osiyodan 9 kardinal ishtirok etgani ana shu harakatning hosilasi edi.

1517 yili katoliklikdan ajralib chiqqan protestantlik uyushmalari esa umumjahon ruhoniyligi tamoyiliga amal qilib, har bir dindordan missionerlik qilishni talab etib kelmoqda. Xususan, 1772 yilda Germaniyaning Drezden shahri yaqinidagi Gerngut degan joyda yuzaga kelgan gernguterlar jamoasi protestantlardan birinchi bo‘lib missionerlik faoliyatini olib borganlar. XVIII-XIX asrlarda protestant missionerligi Angliyaning kolonial siyosati bilan bog‘liq holda o‘sib bordi.

SHuningdek, missionerlik faoliyati bilan xristianlik doirasida yuzaga kelgan, izdoshlari soni ozchilikni tashkil qiladigan yangi konfessiyalar ham shug‘ullana boshlaganini qayd etish zarur.

YUqoridagi mulohazalar ham missionerlik asosan xristian dini bilan bog‘liq hodisa ekanini ko‘rsatadi. Katoliklik va protestantlikda missionerlik bilan shug‘ullanish har bir masihiyning burchi darajasiga ko‘tarilgan.

SHunga qaramay, missionerlikni faqat xristian dini bilan bog‘lash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Hozirgi kunda missionerlik faoliyati bilan faol shug‘ullanishga harakat qilayotganlar orasida bahoiylar va krishnachilar ham borligi fikrimizga misol bo‘la oladi.

«World Book» ensiklopediyasida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, dunyodagi umumiy missionerlarning 2/3 qismini katolik missionerlari tashkil etadi. SHunday bo‘lsa-da, hozirgi kunda Protestantlik missionerlikning asosiy homiysi bo‘lib turibdi.

Bir qancha oqimlarga bo‘linib ketgan Protestantlikda missionerlik din arkonlaridan biri hisoblanib, missionerlik jamiyatlarining har bir a’zosi esa bunday amaliyotni o‘zi uchun farz deb biladi. SHuning uchun ham, hozirda dunyodagi xalqaro missionerlarning ko‘pchiligini protestant missionerlari tashkil qiladi. Agarda protestantlik tarqalgan hududlar xaritasiga nazar tashlasak, ularning deyarli barchasi rivojlangan yirik davlatlarda joylashganiga guvoh bo‘lamiz.

Protestantlikda oqimlar juda tez-tez paydo bo‘lib turadi, har bir oqim o‘z missionerlik tashkilotiga ega bo‘ladi. Quyida protestantlikdagi eng yirik va missionerlik bilan faol shug‘ullanadigan tashkilot va uyushmalar haqida fikr yuritiladi.

Protestant oqimlari orasida eng yiriklaridan biri bo‘lmish adventizm[170] oqimiga 1831 yili Uayt Miller tomonidan asos solingan. U.Miller Bibliya matnlariga asoslangan holda 1843-1844 yillarda Isoning ikkinchi qaytishi yuz beradi deb bashorat beradi. Bashorat amalga oshmagan bo‘lsada, oqimning ta’siri ko‘pchilik orasida saqlanib qoladi.

**“Ettinchi kun adventistlari”** Adventizm zamirida paydo bo‘lgan eng yirik oqim hisoblanadi. 1844 yilda Nyu-Gempshir shahrida bir guruh kishilar tomonidan tuzilgan ushbu oqimning asoschisi Elena Uayt hisoblanadi. 1860 yilda alohida diniy konfessiya sifatida rasman tan olingan ushbu oqim vakillari 1863 yildan boshlab o‘z diniy tashkilotlarini tuza boshlaydilar.

Ettinchi kun adventistlari asosiy aqida sifatida Iso Masihning qaytishiga ishonishni saqlab qolishgan. Bundan tashqari ular Bibliya buyruqlariga bo‘ysunishni qat’iy talab qilib qo‘yib,

---

[169] Католик черковининг енг юқори даражадаги руҳонийлари – кардиналларининг кенгаши ҳисобланиб, Папа ҳам айнан шу кенгаш аъзолари орасидан сайланади. Бу ҳам конклавларнинг мақоми нечоғлик юқори эканини англатади.

[170] лот. adventus-келиш, қайтиш.Ушбу оқим вакиллари Исо Масиҳ қайтиб келиши ва ер юзини поклпшини кутиб ўтиришади.

ulardan eng muhimi to‘rtinchi buyruq, ya’ni shanba kuniga amal qilishni talab qiladilar. Ayni paytda, ular ruhning abadiyligi, jannat va do‘zax tushunchalarini inkor qilishadi, cho‘qintirishni esa butun tanani suvga botirish orqali o‘tkazishadi.

Tashkilotning har bir a’zosi, o‘z oylik daromadining o‘ndan birini cherkov hisobiga o‘tkazishi shart.

Yo‘nalish asoschisi Elena Uayt tomonidan ishlab chiqilgan “Sanitar reformatsiya”ga ko‘ra, cherkov a’zolariga “nopok hayvonlar” go‘shti, xususan, cho‘chqa go‘shtini eyish, kofe, choy, vino ichish, tamaki chekish taqiqlanadi. Turli xil ko‘ngil ochish ishlari, badiiy kitob o‘qish esa qoralanadi. Tashkilot a’zolariga yuqori darajadagi aktiv missionerlik xosdir. Ularning aqidalariga ko‘ra, Isoning tezroq qaytishi, barcha insonlar adventistik targ‘ibotni qancha tez eshitishlariga bog‘liqdir.

Ma’lumotlarga ko‘ra dunyoda 5 millionga yaqin adventistlar bor. Ular 184 mamlakatda 22 000 dan ortiq cherkov, 5000 dan ortiq o‘quv markazlari, 50 nashriyot, 160 ta kasalxonaga ega, AQSH va Kanadada bu yo‘nalish vakillari nisbatan keng tarqalgan, 170 dan ortiq tilda missionerlik adabiyotlarini chop etadi.

Missionerlikni amalga oshirishda Ettinchi kun adventistlari an’anaviy usullar bilan bir qatorda radio, televidenie, internet kabi zamonaviy usullardan ham faol foydalanishmoqda.

***“Pyatidesyatniklar”***[171] ***yoki «To‘liq injil xristianlari»-*** Protestantlikdagi eng yirik oqim bo‘lib XX asr boshlarida AQSHda yuzaga kelgan. Diniy hayotda “Muqaddas Ruh[172] in’omlari” degan tushunchaga tayanishadi. Ta’limotga ko‘ra bu in’omlar faqatgina Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirish[173] orqali Xudo O‘g‘lining (ya’ni Iso Masihning) asl izdoshlariga, unga xizmat qilish vositasi sifatida beriladi. Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilganlikning tashqi belgisi deb pyatidesyatniklar glossaliya, ya’ni “xudo bilan notanish tilda gaplashish”ni tushunishadi.

SHu nuqtai nazardan qaraganda, Pyatidesyatniklik tarixi rasman 1901 yilning 1-yanvariga borib taqaladi. Aynan shu kuni Kanzas shtatining Topeke shahridagi Bibliya maktablarining birida CH.Parxem ismli ruhoniy boshqarayotgan talabalardan biri Agnessa Ozman “uchinchi rahmat”ga erishib (ya’ni, Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilib), xitoy tilida gapira boshlaydi. Uning ketidan “xudo bilan notanish tilda gaplashish” “epidemiya”si butun maktabni qamrab oladi. SHundan so‘ng CH.Parxem o‘z o‘quvchilari bilan janubiy shtatlarda pyatidesyatniklikni targ‘ib qila boshlagan.

CH.Parxem shogirdlaridan biri, qora tanli D.Seymur Los-Anjelesdagi metodist cherkovining tashlandiq binosida “muqaddas pyatidesyatnitsa”[174] g‘oyasini targ‘ib qila boshlagan. Uch yil davomida ushbu cherkov aktiv faoliyat yuritib, AQSHdagi qora va oq tanlilarning diqqatini o‘ziga jalb qildi. Bu erda Xudo bilan notanish tilda gaplashishni boshidan o‘tkazgan ko‘pchilik keyinchalik o‘zining pyatidesyatniklik cherkovlariga asos solishdi. Bunday cherkovlar Skandinaviya, Angliya, Hindiston, CHili, Germaniya kabi davlatlarda ham paydo bo‘ldi. Ularning bir-biridan asosiy farqi xudoning rahmatlari soni va suv bilan cho‘qintirishning uslublaridadir. Muqaddaslik cherkovlaridan[175] ajrab chiqqan pyatidesyatniklar 3 ta rahmatga ishonishadi - dinga kirgizish, nurlantirish ya’ni, xristian ta’limoti bilan chuqurroq tanishtirish va Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirish.

Baptistlardan ajrab chiqqan pyatidesyatniklar esa faqat 2 ta rahmat - dinga kirgizish va Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirishni tan olishadi. SHuning uchun ham, ularni «Ikki rahmat cherkovlari» deb atashadi. Ularning eng yirik birlashmasi “Xudo Assambleyalari” hisoblanadi. Suv bilan cho‘qintirish usullari, ya’ni muqaddas uchlikni tan olishlari yoki inkor qilishiga ko‘ra, pyatidesyatniklar ikkiga bo‘linadi. Lekin bunday bo‘linish barcha pyatidesyatnik cherkovlariga

---

[171] Яҳудийларнинг қадимий “Пятидесятница” байрами номидан келиб чиққан.
[172] Муқаддас Руҳ христиан таълимотига кўра Худонинг 3 қиёфасидан бири.
[173] Бунда диндор Худо томонидан чўқинтирилган ҳисобланиб, бу билан у Худога яқин бўлади.
[174] Христиан ақидасига биноан яҳудийларнинг пятидесятница байрами куни ҳаворийларга Муқаддас Руҳ томонидан раҳмат туширилиб, уларнинг барчаси турли тилларда гапира бошлаганлар.
[175] Протестантизмдаги илк оқимлардан бири.

taalluqli emas. Ayni paytda, ba’zi cherkovlar xristianlik chegarasidan chiqqanini ta’kidlash zarur.

1960-yillarda “xudo bilan notanish tilda gaplashish” tushunchasi ba’zi boshqa protestant cherkovlari, hatto 1966 yildan katoliklar orasida ham tarqalgan.

Hozirgi kunda pyatidesyatniklik koʻp sonli turli oqimlar koʻrinishida tarqalgan boʻlib, ularning rahbarlari har 2-3 yilda «Butundunyo pyatidesyatnik konferensiyalari»da uchrashib turishadi.

Pyatidesyatniklik insonlarning qaygʻu-alamlari, muammolari va jamiyatda oʻz oʻrinlarini yoʻqotib qoʻyishlari bilan bogʻliq masalalarga alohida urgʻu berishi va ulardan ustalik bilan foydalanishga intilishi tufayli unga ergashuvchilar soni tez suratda oʻsib bormoqda. 1990 yilda dunyo boʻyicha bu oqim a’zolarining soni 50 millionni tashkil qilgan boʻlsa, hozirda taxminan 120 millionni tashkil qilmoqda.

Pyatidesyatniklikning eng yirik oqimlaridan biri**- “Xudo Assambleyalari” cherkovlariga** 1914 yilda AQSHning Arkanzas shtatida asos solingan. Markazi Missuri shtatining Springfild shahrida joylashgan. Bu cherkov a’zolarining soni 2 milliondan ortiqni tashkil etadi. Ushbu cherkov pyatidesyatniklikning muqaddas uchlik, Muqaddas Ruh bilan choʻqintirish, “xudo bilan notanish tilda gaplashish”(glossaliya) kabi gʻoyalari qatoriga, e’tiqod orqali shifo topish, Isoning ikkinchi qaytishi, oʻliklarning ikki marta qayta tirilishi, Isoning 1000 yillik podshohligi va balogʻatga etganlarni suvga butunlay botirish orqali choʻqintirishdek aqidalarni ham qoʻshgan. Assambleya boshida 2 yilda bir yigʻiladigan Markaziy kengash turadi. Ular 16 nashr, jumladan, ayollar va bolalar uchun jurnallarga, bir necha kollej va Bibliya maktablariga egalar. Xudo Assambleyalari cherkovi 98 mamlakatda oʻz jamoalariga ega, 71 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib boradi.

**Xudo CHerkovi-**1884 yilda AQSHning Tennesi shtatida tashkil etilgan. Ushbu cherkov XVI asrda tugagan reformatsiyani davom ettirish gʻoyasini olgʻa suradi. CHerkov har qanday aqidalardan pok, huddi Iso Masih davridagidek, sevgi bilan ish olib borilishi lozim degan aqidaga tayanadi.. SHu gʻoyalarni amalga oshirish uchun 1886 yili xristian ittifoqi tuzilib, 1902 yili uning asosida “Muqaddaslik cherkovi” tuzildi va 1907 yili u “Xudo cherkovi” nomini oldi.

«Xudo CHerkovi» trinitarian-pyatidesyatnik[176] e’tiqodiga mansub boʻlib, “uch krizis” aqidasiga tayanadi. Hozirgi kunda tashkilotni har ikki yilda yigʻiladigan «Markaziy Assambleya» boshqaradi. Uning 8 ta nashri mavjud. AQSHning oʻzida cherkov a’zolarining soni 500 ming kishini tashkil etadi. Ushbu cherkov 72 mamlakatda missionerlik faoliyatini olib bormoqda.

